

V. A. GUMBAROVSKIY



МОСКВА И
МОСКВАЛИКИ

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirinishi shart

ligirigi berilmalar miqdori _____

--	--

022/N2-20
ilyarovskiy V.
va
Klan HJ

29920,70





821
647

Б.О.

Rus adabiyoti durdonalari

VLADIMIR ALEKSEYEVICH GILYAROVSKIY



МОСКВА ВА МОСКВАЛИКЛАР

Б.О.Т.11


UO'K 821.161.1-43
KBK 84(2Ros=Rus)
G 47

Rus tilidan *Fathulla NAMOZOV* tarjiması

G 47 Gilyarovskiy Vladimir *T. P.*
Moskva va moskvaliklar [Matn]: ocherklar / V. Gilyarovskiy. –
Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 392-b.
ISBN 978-9943-7144-4-1

Vladimir Gilyarovskiyning «Moskva va moskvaliklar» nomli kito-
bi Moskvaning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshidagi an'analari,
maishiy turmushi va urf-odatlarini bayon etadi. «Rus hayotining asrlar
davomidagi qomusi» deb tilga olingan ushbu ocherklar to'plami ilk bor
1926-yili muallif tahriri ostida nashr etilgan edi. To'liq variant «Sovet
yozuvchisi» nashriyoti tomonidan 1935-yilda bosilib chiqqan. 2013-yili
«Moskva va moskvaliklar» to'plami «100 kitob» ro'yxatiga kiritilib, Ros-
siya Federatsiyasi Maorif hamda Fan vazirligi tomonidan o'quvchilarga
mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan.

UO'K 821.161.1-43
KBK 84(2Ros=Rus)



© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



MUALLIFDAN

Men – moskvalikman! Bu so‘zlarni qalbiga, jism-u joniga jo etib aytgan kishi qanchalik baxtiyordir. Men – moskvalikman!

O‘tgan kunlar ko‘z oldimdan birma-bir o‘ta boshlaydi...

Pushkinning qahramoni Pimen so‘zlarini keltiraman, ammo unga nisbatan mislsiz darajada boy-badavlatman; o‘tmish menga xilma-xil manzarada juda ochiq ko‘rinadi, u jon berayotgan, butunlay g‘oyib bo‘layotgandek namoyon bo‘ladi. Men esa Moskvani har kuni emas, balki soat sayin gullab-yashnayotgan holda ko‘raman. U kengaymoqda, ko‘kka va pastga qarab bo‘y cho‘zmoqda, cheksiz-chegarasiz stratosferaga hamda yer osti chuqurligidagi metroga, elektr nuri bilan charaqlagan, ajoyib marmarlar bilan yarqirab turgan zallarga qarab intilmoqda. Chekkalari granit «kiygan» Moskva daryosi endi quyuq soyalı xiyobonlar bilan o‘ralgan. Undan keng tosh zinapoyalar yugurib ketmoqda. Ular hademay yangi to‘lqinlar bilan namlanadi: Volga har kuni Moskvaga yaqinlashmoqda.

Bu yerda bir paytlar mazkur toshdan qurilgan zinapoyada, Bolotada, Kremlning qarshisida qatl etilgan Stepan Razinning boshi xodaga ilinganicha turgan edi. U yer yaqında xotiramda qolganidek, botqoq edi, endi esa tik, keng asphalt qilingan ko‘chalar, eskirib qolgan notekis qurilgan kulbalar g‘oyib bo‘lib, ularning o‘rnida yangi, ulkan saroylar qad ko‘targan. Birin-ketin birinchi toifadagi zavodlar qad ko‘tarmoqda. Yaqin-yaqingacha loydan barpo etilgan chekka-chekka joylar markazga tutashib ketib, qulay va shinamlikda ulardan deyarli qolishmaydi, yaqin qishloqlar esa poytaxt uchastkalariga aylanmoqda. Ular stadionlar – moskvalik kolizeylardan iborat bo‘lib, o‘n, yuz minglab sog‘lom yoshlar o‘z kuchini o‘stiradi, Arktika muzliklari, Qoraqumning o‘lik sahrolari, «dunyo tomi» hisoblangan Pomir hamda Kavkaz muzliklarida qahramonona jasorat ko‘rsatish uchun o‘zlarini chiniqtirishadi.

Moskva rejaga kirmoqda. Lekin yangi Moskvani, ming yillar davomida bo'laklardan qurilgan bu shaharni eski joyida yaratishda quruvchiga qulay bo'lmog'i uchun alohida, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan kuchlar lozim.

Moskva dunyoning birinchi shahriga aylanishi uchun allaqachon yo'lga tushgan. Bu ko'z oldimizda turibdi.

Kelajak ko'z oldimdan o'tmoqda...

O'tmish ham ko'z o'ngimdan o'tib ketmoqda. U endi ko'p jihatdan yoshlar uchun tushunarli emas, tezda butunlay g'oyib bo'ladi. Yangi poytaxt aholisi eski joyda yangi hayot qurishda qanchalik kuch sarflanganini bilishlari uchun eski Moskva qiyofasi qanday bo'lganini, qanday odamlar unda qay xil hayot kechirganliklarini bilmoqlari kerak.

Shunday qilib, «qariganimda, yangicha» ikki hayotni: «eski» va «yangi»ni yashayapman. Eskisi yangisi uchun fon bo'lib xizmat qiladi, u ikkinchisining ulug'vorligini aks ettirishi kerak. Ishim meni navqiron va baxtli etadi, bu mendek yashagan hamda ikki asr adog'ida yashayotgan, ikki dunyo kesishgan joyda umrguzaronlik qilgan kishini xursand qiladi.

V. Gilyarovskiy.

Moskva, 1934-yil, dekabr.



MOSKVADA

Bizning yarim bo'sh poyezdimiz Yaroslav vokzalining qorong'u tashqi platformasiga kelib to'xtadi. Va shovqin-suron ko'tarib, chuvullashgan, badavlat yo'lovchilarga yopishgan hamda bizga mutlaqo e'tibor bermagan izvoshchilarni chetlab, maydonga chiqib oldik. Biz sirg'anib, to'qnashib, notekis, qor bilan qoplangan, oldinda hamda oyoq ostida hech narsani ko'rmay qadam tashlar edik. Sokin qor pag'a-pag'a yog'ar, uning shaffof yengil pardasi orasidan qandaydir yorug' dog' miltillab zo'rg'a ko'rinar, yog'och ustunga duch kelgandan keyin bu ko'chani yoritadigan fonar ekanligini anglash mumkin edi. Ammo u nim qor bilan qoplangan shishasini yoritar edi, xolos.

Biz sandiqchalarimizni yelkamizga ortmoqlagan edik. Ba'zan bizni izvoshni yollash uchun yo'lovchilar quvib o'tishar edi. Lekin ular ham o'tib ketishdi. To'la-to'kis jimjitlik, kimsasizlikdan iborat joyda uzoq hamda ko'rinmas olisliklardan o'tib borayotgan oppoq qor. Biz faqat o'z maqsadimizni – Lefortovoga borish yo'lini bilamiz, xolos. Yoki tub moskvalik yo'lboshlovchimiz aytgani'dek, «Lafortovo»ga boramiz.

– Ana, bu Ryazan vokzali! – deb u uzun, yoritilmagan qorong'ulik ichida g'ira-shira ko'ringan bino sharpasini ko'rsatdi; binoning tepasi aylanasiga yoritilgan edi. Bu ichkari tomondan yorug'i ko'ringan va bir yarimni ko'rsatib turgan soat edi.

Vokzallarni ortda qoldirib, qor tepalardan paypaslab o'tdi va yana tor muyulishlar o'rtasidan, yog'och uychar hamda zich yopilgan darvozalarni ajratib turgan devorlar yonidan qadam tashlab o'tdik. Mo'jaz derazalardan qayerdandir sarg'ish lampa dog'i kabi yorug'lik ko'rinadi... Qorong'ulik, jimjitlik, bosh ko'tarib bo'lmaydigan qattiq uyqu.

Olisdan qo'ng'iroq ikki marta chalindi – soat ikki bo'ldi!

– Bu Basmanniydan. Bu esa Olxovkadan... – tushuntirdi yo'l-boshlovchi.

To'satdan xo'roz qichqirib yubordi:

– Ku-ka-re-ku!..

Biz shoshilib qolamiz: nima, u jinni bo'lganmi?

U esa yana...

Va birdan – dastavval bir hovlida, so'ng qo'shnisida uyg'onib qolgan xo'rozlar unga jo'r bo'lishib, javob berishadi. Xo'rozlarning bemahal qichqirig'idan uyg'onib ketgan, sarosimaga tushib, so'ng g'azabi toshgan itlar akillashga tushdi. Olxovliklar uyg'onib, harakatlanib qolishdi. Qayerdadir derazadan yorug'lik tushdi, qaysidir hovlida lo'kidon surilgani eshitildi, eshiklar g'ijirladi, hayratga tushgan ovozlar eshitildi: «Bu qanaqa mo'jiza! Tunda soat ikkida xo'rozlar qichqirmoqda!»

Do'stim Kostya Chernov kuchukka o'xshab vovullashni o'rniqa qo'yar, buni mohirlik bilan bajarardi. Uning ketidan bo'riga monand uvlab yubordi. Biz uni qo'llab-quvvatlab turardik. Itlar zanjirini uzgunday bo'lib, jazavaga tushganini eshitardik.

Biz allaqachon butunlay kimsasiz, qorong'i, zulmat ichida cho'kkan Basmanniy bo'ylab qadam tashlab borar edik. Ba'zan yumshoq qor bilan qoplangan pastak ustunlarga qoqilib ketardik. Ana maydon. Katta fonar tepamizda turgan qorong'u hamda noaniq belgili, derazalarga o'xshab ketadigan narsalarni yoritardi.

– Bu Ishratparastniki, bu esa jodugar Bryusga tegishli, – tushuntirdi Kostya. Moskva meni 1873-yil oktabrda ana shu taxlit kutib olgan edi.





LEFORTOVODAN XAMOVNIKIGA QADAR

Kelganimning ertasi kuni Lefortovodan Xamovnikiga, Iliq muyulishiga borishimga to'g'ri keldi. Cho'ntakdagi pul mis chaqadan iborat ikki grivna¹, xolos. Ob-havo shundayki, etikni ortiq darajada yirtib, dabdalasini chiqarib yuborasan. Muzlagan tayg'oq, tozalanmagan hamda erimagan qor bilan qoplangan yo'laklar ulkan ko'lmaklar hosil qilgan. Qish hali chekinay demasdi.

Goroxovoy ko'chasi chekkasida yagona izvoshchi chol chakmon kiyib, belini parcha-burish jilov bo'laklaridan mahkam bog'lab olgan, boshida ola-bula qo'y terisidan telpak bo'lib, undan zig'irpoyaning bir bo'lagi jig'a kabi chiqib turibdi. Qorindor paxmoq arg'umog'i keng chanaga qo'shilgan – past taxtakach chananing pastak o'rindig'i yo'lovchilarga mo'ljallangan, oldingi qismida esa izvoshchi uchun taxta qotirib qo'yilgan. Egar-jabduq va jilov arqondan qilingan. Kamariga qamchi qistirilgan.

– Bobo, Xamovnikiga boramiz?

– Qaysi joyiga?

– Iliq muyulishiga.

– Ikki griven berasan.

Menga bu pul juda qimmat tuyuldi.

– Bir griven.

Unga juda arzon tuyuldi. Ketaverdim. U ortimdan ergashdi.

– Oxirgi so'zim – uch tanga. Bay ochmay turibman...


O'n qadamdan so'ng u yana:

– Oxirgi so'zim – o'n ikki tiyin.

– Bo'пти.

Izvoshchi qamchi urib, otni yo'lga soldi. Sirpanchiq yo'ldan yurish yengil, goh ho'l, yotqizilgan chag'ir toshlar ustidan yurasan,

¹ Griven – yarim tanga (o'n tiyinlik).



keng qishloq yo'lda ular kesib ketmaydi; xuddi qishloq chanalariga o'xshaydi. O'nqir-cho'nqir ko'chalarning qiyaliklari va nishablarida chana surilib ketadi, bezillab turgan o'tni o'zi bilan sudraguday bo'ladi, turtib chiqib turgan yog'och ustunlarga uriladi. Chanadan uchib ketmaslik uchun orqadan mahkam ushlashga to'g'ri keladi. To'satdan izvoshchi buriladi-yu, menga tikiladi:

– Mendan tag'in qochib ketmaysanmi? Shunday bo'ladiki, olib borasan, boraverasan, u esa darvozasiga kiradi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ladi!

– Qayerga qochaman – axir Moskvaga kelishimning birinchi kuni.

– Yaxshi-yaxshi.

U yo'llardan noliy boshlaydi:

– Bugun xo'jayinning gitarasida ketmoqchi bo'lgan edim. Lekin u yoqda, Kreml tomonida to'shama yo'llar butunlay yalang'och qolgan...

– Nimada? – deb so'rayman. – Gitarada?

– Ha-da, anovi koliberida... shunday qaragin.

Muyulishdan xuddi biznikiga o'xshash yunglari osilib tushgan ot qo'shilgan g'alati ekipaj burildi. Haqiqatan g'ildiraklarida qandaydir gitara bor edi. Oldingi tomonida kucher uchun o'tirg'ich. Ana shu «gitara»da suvsar yoqali ustki kiyim, ya'ni salop kiygan savdogar xotin basharasi va oyoqlarini uzatib, chap tomonga qarab o'tirar, nishonli furajka kiygan, portfelli amaldor butun gavdasini o'ng tomonga, bizga qaratib borardi.

Men shu tariqa o'z o'rmini ochiq yengil aravaga bo'shatib bergan baland ekipajda kuzov titrab turar, uning orqa qismi baland, yarim doirasimon reszorlarga birikkan edi. Keyinchalik yengil aravalar yassi reszorlar ustiga qo'yiladigan, shu bilan birga endi to'rt g'ildirakli izvosh deb ataladigan bo'ldi.

Biz Nemis deb nomlangan joydan o'tib borardik. Izvoshchi gapga tushdi:

– Bu ot ertaga qishloqqa boradi. Kecha Ilyushindagi ot bozori-dan qirq so'mga qirg'iz arg'umog'ini oldim... Yuvvosh. To'rt yoshda. Kuch-quvvatdan ketmaydi... O'tgan haftada Volgadan bir arava baliq ortib keldi. Shu deng, bekalar ulardan ot sotib olishdi, bizdan ko'ra ikki baravarga qimmat olishdi. Qarzga. Har dushanba kuni uch so'mlik pul

to'laysan. Axir osonmi? Hamma izvoshchilardan shunday olishadi. Si-
birdan Moskvaga tovar olib kelishadi, yarim otlarini sotib yuborishadi...

Sadovoyga o'tamiz. Tuproq devor atrofida to'satdan shovqin-su-
ron ko'tariladi. Butun ko'chalar bo'ylab izvoshchilar, kucherlar, ara-
vakashlar otlarini rosa qamchilab naq yo'laklarga tiqilishdi. Bizni olib
borgan chana ham Sadovoy ko'chasining burchagida to'xtadi.

Olisda qo'ng'iroqchalar chalinar edi.

Izvoshchi menga burilib qaradi-yu, sarosimaga tushib, shivirladi:

– Kulyerlar! Qaragin!

Qo'ng'iroq ovozlari tobora yaqinlashar, oyoq tovushlari va qich-
qiriqlar eshitilardi.

Sadovoy yonida, Suxaryovka tomondan bir-biridan chiroyli ikki
bir tusdagi kulrang ot qo'shilgan troyka va yangi kalta telejkalar shid-
dat bilan yelib kelar edi. Unisida ham, bunisida ham shlyapalarida
g'oz pati qistirilgan chapani yamshiklar qamchi o'ynatib, hushtak
chalganicha otlarni choptirar edilar. Har bir troykada, ya'ni uch ot
qo'shilgan izvoshda bir xildagi yo'lovchi: chap tomonda sariq shinelli
jandarm, o'ng tomonda esa forma kiygan yosh yigit o'tirar edi.

Uch otli izvoshlar «lip» etgan kabi o'tib ketdi, ko'chada esa odat-
dagi ko'rinish o'z tusiga kirdi.

– Kim bu? – deb so'rayman.

– Jandarmlar. Piterdan Sibirga borishmoqda. Bu uning eng yaxshi
uchligi. Kulyerga tegishli. Men Novikov bilan bir hovlida turaman,
ancha surbetlashgan.

...Jandarmning mo'ylovlari. bir quloq.

Yonida qandaydir rangi o'chgan nusxa.

O'n to'qqiz yoshlardagi janob... –

Nekrasovning she'rlariga ishlangan jonli rasmlarga qarab, uni eslay-
man.

– Sibirga qamoqqa olib ketishyapti: ular o'z podshohlariga qarshi
borishgan, – deb tushuntiradi chol menga burilib, egilganicha shivir-
lab. Ilinskiy darvozasi oldida u keng maydonni ko'rsatdi. Unda juni
to'kilgan yirik otlardan iborat o'n qator tizilib turardi. Juldur kiyingan
aravakashlar hamda tullagan ot sohiblari behalovat pitirlab, notinch
yurishar edi. Kimdir yollanib ishlaydiganlar bilan savdolashar, kim-
dir yo'lovchilarni Ostankinoga, Krestov darvozasiga qadar o'tirishga

taklif qilar, u yerda tullagan otlar to'g'ri yo'l bosishga urinar edi. Bir qatorni sinod, ya'ni cherkov xori egallagan, qo'shiqchilar baland, yo'g'on hamda bolalarcha ingichka ovoz bilan butun maydonni boshlariga ko'tarib, so'kinishar ekan.

– Biror dafn marosimi yoki to'yga olib borishyapti, – deb tushuntirdi yo'l boshlovchi va qo'shib qo'ydi: – Hozir Lubyankada otlarni sug'oramiz. Bir tiyin bergin: yo'lovchi hisobidan xom atala, ardob olaman.

Men uning talabini bajardim.

– Mana, la'natilar! Begonalarni o'z paqirlari bilan suv olishga qo'yishmayapti, ularning suvi uchun tangani budkada o'tirgan qorovulga to'lagin. U esa kattalar bilan arra qiladi.

Lubyanka maydoni – shahardagi markazlardan biri. Mosolov uyi qarshisida (Katta Lubyanka burchagida) almisoqdan qolgan yollanma, ijaraga olingan ekipajlar birjasi bo'lib, u marhumlarni oxirgi yo'lga kuzatish bilan mashg'ul bo'lar edi. O'sha yerda ancha shinam ko'ringan bir necha karetalar ham turardi. O'z karetalariga ega bo'lmagan ishbilarmonlar ularni tashrif buyurish maqsadida yollashar edi. Yo'lakning shundoq yonida Myasniskdan tortib Lubyankaga do'vur, «Gusenkovskiy» izvosh traktiri qarshisida yengil izvoshchilarning otlarini qo'shish joyi joylashgan. Maydonning boshidan oxirigacha, ekipajlar va yo'laklarda yengil izvoshlarga otlar birin-ketin qo'shilar edi. Otlarning tumshug'iga to'rva osib qo'yilar, yoki somon solingan xaltalar arava shotilarida turar, undan somon chiqib turardi. Ularning xo'jayinlari choy ichib bo'lgunicha otlar boqib turilardi. Minglab qarg'alar va kaptarlar oyoq ostida qo'rqmasdan tentirar, tariqni cho'qilash bilan mashg'ul edi.

Traktirdan ko'k xalat tugmalarini o'tkazib olgan, qo'llarida paqir tutgan izvoshchilar favvora tomon chopishar, qorovulga bir tiyin to'lab, suvga irkit, iflos paqirlarni botirib, otlarni sug'orishar edi. O'tkinchilarga o'z xizmatlarini taklif etishar, har biri o'z otini maqtar, har kishini libosiga qarab, kimni «martabang bilan», kimga «sog'lig'ingiz uchun», kimnidir «janoblari», kimnidir «janobi oliylari» deb ulug'lar, hurmatini joyiga qo'yar edi.

Shovqin-suron, qiy-chuv, so'kinish umumiy bir to'polonga aylanib, tosh yotqizilgan maydondagi ekipajlarning suroniga aravalar, suv solingan bochkalar shovqini aralashib ketgan edi.

Suv tashuvchi aravalar qatorlashib, favvora atrofini qurshab olganicha navbatini kutar, paqirlar, cho'michlarini silkitishar, haykaltarosh Vitalining bronza figuralari ustida uzun qator tashkil etgach, suvni cho'michlab olib, o'z bochkalarini to'ldirar edilar.

Prolom darvozasi qarshisida o'nlab yuk tashiydigan aravakashlar o'zlarining joylarida qoqqan qoziqday qaqqayib turar, to'satdan, xuddi komanda eshitgan kabi biror suv olish uchun kelgan ijarachini qurshab olib, unga tashlanishar edi. Nihoyat, umumiy kelishuvga muvofiq narxni belgilashar, bunda bitta izvoshchini bir tomonga ketishini bilsa ham, ularga baribir edi. Lekin ijaraga olmoqchi bo'lgan kishining ishi bitmay turib, ma'qul narxda bo'lsa-da, izvoshchini olishga botina olmas edi. Barcha yuk tashuvchi aravakashlar davra qurib, birortasining shapkasi mis tanga, biror belgi solingan chaqa tashlar edi. Ijaraga oluvchi biror «baxtli» tangani olar, shundan keyin uning egasi bilan jo'nab ketar edi.

Hozircha mening izvoshim navbati kelgunga qadar hamma tommonni ko'zdan kechirib chiqishga ulgurdim, tartibsizlik, g'alva hamda shovqin-suron ichida Moskva maydonini kesib o'tdim... Darvoqe, otlar turgan sasib, bijg'ib ketgan bekatga qadar.

Teatr maydoniga tushdik, u arqon bilan o'ralgan edi. Oxotniy, Moxovoyni oralab o'tdik, Vozdvijenk tepaligiga qadar ko'tarildik. Arbatdan baland ressolarda o'rnatilgan, eshiklarida gerb tasviri tushirilgan kareta gumburlaganicha o'tib ketdi. Unda sochlari oqarib ketgan xonim o'tirar edi. Kucherning yonidagi o'tirg'ichda bakenbardli xizmatkor silindr shlyapa kiygan, shuningdek, katta, yorqin, uzun tamg'aga ega edi. Karetaning ortida, oyoq qo'yib chiqiladigan joyda uzun tamg'ali, zarrin uqali xizmatkorlar libosini kiygan, soqoli qirtishlab qirilgan ikki yosh lakey turardi, ular ham silindr va zar yoqaga ega edi.

Kareta ortida qandaydir olifta, po'rim kishi yo'rtoqi ot choptirib borar, ustida qunduz terisidan tikilgan shinel kiygan bo'lib, u barvasta tanasini zo'rg'a sig'dirar edi.



TEATR MAYDONI

Tramvaylarning taraq-turuq ovozi. Maydon rang-barang bezangan bo'lib, goh oldinga qarab harakat qilar, goh to'xtar va minglab odamlar osmonga ko'z tikib qarashar edi: Moskva osmoni ustida samolyotlar to'da-to'da bo'lib parvoz qilar, u goh g'ozlar galasi kabi uchburchak shaklga kirar, goh kaleydoskopdagi shishalar misol qatorlashar edi.

Mening yonimda Maliy teatriga kiraverishda Moskvada yagona bronza uy sohibi hamon quyon terisidan tikilgan xalatda o'tirar edi. Shu libosda u «Bo'rilar va qo'ylar»ni yozgan edi. Kira turib, devordagi shu pyesa afishasini o'qiyman-u, uzoq o'tmishga o'tib ketganday bo'laman.

Maliy teatri podyezdida temir shinalarini kurab tashlanmagan qor-ga botirgan holda o'nqir-cho'nqirlardan sharti ketib, parti qolgan teatr karetsi sudralib borar edi. O'tirg'ichda rangi o'ngib ketgan chakmon hamda junlari tikkaygan shapka kiygan, jag'ini bog'lab olgan kucher o'tirar edi. U tilini chalpillatar, «jim» deb do'q urib, po'pisa qilar, arqondan qilingan yuganni silkitar, o'sha paytda qo'shiqchi Pasha Bogatirev konsertlarda kuylagan romansni xirgoyi qilar edi:

*Bir zamonlar yo'rtoqi otlar
Va dovqur kucherlar bor edi sizda...*

Yetmishinchi yillarda Teatr maydonining bokiralik daxlsizligini ma'lum muddat buzishga to'g'ri keldi, buning sababi quyidagicha edi.

Yorqin suvlarga ega bo'lgan Neglinka daryosi quvurga qamalishga mahkum qilindi, yomon kanalizatsiya tufayli axlat oqadigan yer osti kanali ta'sirida ifloslandi va Moskva-rekaga quyilib, suvni zaharladi.

Yillar o'tgan sayin quvurni qum va balchiq bosib qoldi, uni mutlaqo tozalamadilar, har safar kuchli yomg'ir yog'ishi oqibatida suv ko'chalarni, maydonlarni, Neglinniy proyездidagi uylarning pastki qavatlarini bosar edi.

Keyin suv ketar, uning loyqasi ko'chada sassiq, qo'lansa hid taratar, yerto'la qavatlarini ifloslik bilan to'ldirar edi.

Sabablarini aniqlagunlariga qadar yillar o'tdi. Ma'lum bo'lishicha, burilishlar (ular ikkita edi – biri Maliy teatr burchagida, boshqasi esa haykaltarosh Vitali figuralari bo'lgan favvora tagida) shahar axlatlari bilan zichlashib, to'lib ketgan edi.

Yer osti balchiqlari ham maydonni o'rab olgan, oldingi davrlardagi kabi chiqish yo'lini topa olmas edi.

Neglinkani qayta qura boshlashdi, uning tiqilib qolgan joylarini ochishdi. Maydonda bir nechta qoziqoyoq o'rnatishga to'g'ri keldi.

Uchta baland ustun qo'yishdi, o'ttiz pudli cho'yan to'qmoq olib kelib, pastga, blokka tushirishdi-yu, so'ng kuylashdi. Xalq to'da-to'da bo'lib eshita boshladi:

*Ey, yo'g'on tayoq, tarsillatib solamiz,
Ey, dumbullar, olishamiz bir yo'la.
Artel ishlari ko'tarilar birma-bir,
Cho'yan to'qmoq urilar qoziqoyoqqa.*

Xalq qanchalik ko'p jonlansa, ishchilar shunchalik g'ayratga tushardi. Ular xuddi aktyorlar kabi odamlar juda ko'p to'plangan joyda kuylashni hamda raqsga tushishni yaxshi ko'rishadi.

Qo'shiq avjiga chiqadi, nimani ko'rishsa, shuni kuylashadi. Mana ulardan biri yo'g'on, semiz bekani – o'ta olifta xonimni ko'rdi-yu, har bir so'zni chertib-chertib, baland ovozda xonish qilishga tushadi:

*Shu bekaning ko'ylagi uzun,
Bu ko'ylakning ostida esa...*

Bekaning tezroq juftakni rostlab qolishi uchun shuning o'zi kifoya qiladi.

Boshiga silindr shlyapa kiygan po'rim oliftani ko'rib, kuylashadi...

«Dubinushka» qoʻshigʻini kuylashadi, qoziqoyoqni hozir yer ostida metro koʻzga koʻrinmaydigan joy yuzasida qazib oʻrnatishadi.

Shahar dumasida metro toʻgʻrisida gaplashishdi, ammo qandaydir ishonchsizlik bilan soʻz yuritdilar. «Shaharlar otasi» oʻgʻirlik, poraxoʻrlikni shunchalik yoyilganini, avj olganini, bunga hech qanaqa boylik yetmasligini his etdi...

– Faqat oʻgʻirlashadi, bundan aslo qaytishmaydi.

Qandaydir pop vaʼz oʻqib, shunday degan edi:

– Gunohlarimiz uchun bizni jahannamga olib ketishadi.

«Gunohga botganlar» bunga ishonib, esankirab qolishdi.

Buning ustiga, «Dubinushka» bilan birga zamonaviy texnika vositasida oldinga borish unchalik aqlli ish emas.





XITROVKA

Xitrov bozori negadir, nazarimda, hech qachon ko‘rmaganim London kabi namoyon bo‘ldi.

London tasavvurimda Yevropada eng tumanli joy bo‘lib ko‘rinsa, Xitrov bozori so‘zsiz ravishda Moskvada eng tumanli maskandan iborat.

Poytaxt markazidagi katta maydon Yauza daryosi bo‘yida qurilgan toshuylar bilan qurshalgan, pastlikda joylashgan, bamisoli jilg‘alar botqoqqa quyilgani kabi bir necha muyulishlardan iborat. U doimo tutab yotadi. Ayniqsa, kechqurun. Sal-pal tumanli yoki yomg‘irdan keyin yuqoridan qarasang, muyulishdagi tepalikdan ko‘z tashlasang, odamni vahima bosadi: bulut qoplaganday! Muyulish pastiga tushasan: balchiq bilan qoplangan chuqurga botib qolasan.

Tuman ichida juldurvoqi odamlar to‘dasi hammomdagi shu‘lalar ichida yurgandek harakat qiladi, tuman ichida lip-lip etganday ko‘rinadi. Bu savdo qiluvchilar ulkan cho‘yan idishlar yoki qovurilgan qalin kolbasalar solingan xurmachalar yonida qatorlashib, temir yashiklarda qovurilayotgan sho‘rvalarni «kuchuk quvonchi» deb atashadi.

Xitrovkalik «ovqat shinavandalari» ovqat qoldiqlari – sarqitlarni lazzatlanib iste‘mol qilishni xush ko‘rishadi. «Axir bu bulduruq qushku!» deydi fahmlab qolgan qandaydir «sobiq».

Bu yerda undan ko‘ra tuzlangan yog‘da pishirilgan kartoshkani, o‘ralgan sigir go‘shidan qilingan ruletni ko‘kat bilan birga oshqozonga mos keladigan qilib tayyorlashni «bulduruq» deb atashadi.

Atrofga har daqiqada osilib, yoyilib turadigan do‘kon va traktirlar eshigidan chiqqan bug‘ atrofga yoyiladi va umumiy tumanga birikib ketadi. Bu traktir va tungi yotoq uylaridagi tamaki tutuni bilan dezinfeksiya qilingan tutunga nisbatan ancha sof va tiniq. Tamaki tu-

tuni qo'lansa paytava, odamning ter hidlari va ilitilgan aroqlar isini yo'qotadi.

Ikki-uch qavatli uylar maydon atrofida tizilgan bo'lib, ularda o'n minglab odamga qadar tunaydi hamda joylashadi. Bu uylar o'z sohiblariga haddan ziyod ko'p daromad keltirgan. Har bir tunaydigan kishi besh miri to'laydi, «nomer»lari uchun esa ikki grivendan to'lashadi. Pastki, poldan bor-yo'g'i bir arshin ko'tarilgan so'rilar ikki kishiga mo'ljallangan «in» bo'lib xizmat qiladi, ular chipta ko'rpachalikka bo'linardi. Bir arshin balandlikdagi hamda yarim arshin enli chiptalar orasida yana «numer» degani bor, ularda odamlar hech qanday to'shaksiz, faqat o'zlarining juldur, uvada kiyim-kechaklari bilan tunab ketaverishadi.

Maydondan, to'ppa-to'g'ri vokzaldan artelga kelayotgan ishchilar o'tib kelishadi. Ular ulkan ayvon ostida to'xtashadi, xuddi ular uchun saf tortganday bo'lishadi. Bu yerda ertalab pudratchilar kelib, ularni yollanma artelga olib ketishadi. Tushdan keyin ayvon xitrovkaliklar hamda olibsotarlilar ixtiyoriga o'tadi. Foydaxo'r olibsotarlilar qo'llariga nimaiki tushsa, barini sotib olishadi. O'zlarining ko'yлагini hamda poyafzalini sotishadi, ularni o'sha zahoti yechib olishar, etik o'rniga zum o'tmay chiptakovush yoki yirtiq-yamoqlarni, kostumlardan «to yettinchi tizzaga qadar» bo'lgan narsalarni kiyib olishardiki, uning orasidan tanasi butunlay ko'rinib turardi.

Tunaydigan uylarning nomi ularning sohibi nomi bilan Bunin, Rumyansev, Stepanov (keyin Yaroshenko), Romeyko (keyin Kulakov) deb yuritilar edi. Rumyansev uyida ikki traktir: «Peresilniy» va «Sibir», Yaroshenko uyidagisi «Katorga» deb nomlangan (ma'lumki, o'sha paytlar oshxonalar «traktir» deb yuritilgan). «Peresilniy»da uy-joysiz, gadolar hamda olibsotarlilar, hammollar, «Sibir»da esa bir toifa baland kishilar – o'g'rilar, kissavurlar, o'g'irlangan narsalarni sotib oladigan yirik olibsotarlilar to'planar edi. Garchi bu nomlar unchalik yarashmasa-da, xitrovliliklarda shunday qabul qilingan edi. Hammadan balandi «Katorga» bo'lib, haddan oshgan hamda mast-alast o'g'rilar, sayoqlar va qochoqlar o'sha yerdan qo'nim topgan edi. «Obratnik» – Sibirdan yoki turmadan qaytganlar bu joyni chetlab o'tmasdi. Kelgan kishi haqiqatan ham «ishbilarmon» bo'lsa, bu yerda izzat-hurmat bilan kutib olinar, uni darhol «ishga joylashtirishar edi».

Politsiya bayonnomalarida tasdiqlanishicha, Sibirdan qochib kelgan jinoyatchilarning ko'pchiligi aynan ana shu Xitrovkada qamoqqa olingan.

O'tgan asrda Xitrovka o'zidan noxush taassurot qoldirgan. Koridor va dahlizlar, qing'ir-qiyshiq yarim vayrona zinapoyalarda, tunash joylariga olib boruvchi barcha yo'laklarda hech qanday yoritkichlar yo'q edi. O'sha yerlik – o'ziniki yo'lni topadi, ammo begona kishi bu yerga qanday qilib bosh suqa olardi! Haqiqatan ham, hech qanaqa hokimiyat vakillari xunuk, noobod boshpanalarga bosh suqishga botina olmas edilar.

Butun Xitrovka bozorini ikki mirshab – Rudnikov va Loxmatin boshqarar edi. Faqat ularning bir pud keladigan mushtidan haqiqatan ham «bezori» o'lguday qo'r qar, «ishchan bolalar» esa bu ikki hokimiyat namoyandalari bilan do'stlashgan edi. Katorgadan qaytgan yoki turmadan qochganlarning birinchi ishi ularning huzuriga borib, ta'zim qilishdan iborat bo'lgan. Ikkala mirshab ham barcha jinoyatchilarni basharasidan tanir, o'zlarining aslo o'zgarmas navbatlarida chorak asrdan buyon ularga qarayverib, otning qashqasi bo'lib qolgan edilar. Ulardan biror narsani yashira olmaysan, xabarchilari qaysi xonaga, kimdir qaytganini baribir yetkazar edi.

Xitrovka hukmdori pastda turib, trubkasini chekar va devor yonida qandaydir sharpa ko'rinib, basharasini berkitganini ko'rib qoladi.

– Boldex! – hayqiradi mirshab.

Sharpa boshidan shapkasini changallab oladi-yu, unga yaqin keladi.

– Salom, Fedot Ivanovich!

– Qayerdan kelding?

– Nerchinskdan. Kechagina keldim. Kechiring, hali sizga...


– Ko'zingga qara, Seryojka, tinch-xotirjam yur, bo'lmasa, naq...

– Birinchi marta emas-ku, hech nimani bilmaymiz.

– Sen Xitrovkadagi qochib kelgan jinoyatchilarning hammasini basharasidan tanir ekansan, shu to'g'rimi? Nima uchun ularni qamoqqa olmaysan?

– Shuning uchun yigirma yildan beri bitta postda turibman, aks holda bir kun ham tura olmasdim, o'ldirib gumdon qilishardi! Albatta, hammasini bilaman.

Va xitrovkaliklar shunday hukm ostida «huzur-halovatda yashashar edi».



Rudnikov ana shunday o'ziga xos shaxs edi. U hatto eng ashaddiy surgun qilingan katorgachilar orasida ham haqiqatchi edi, shu bois u bir necha bor kaltaklangan hamda qamoqqa olish paytida yarador bo'lgan bo'lsa-da, o'ldirilmagan edi. Undan qahr-g'azabga to'lib ketganlari uchun yarador qilishmagan, balki jonini qutqarib, qochib qolish uchun shu ishni qilishgan edi. Har biri o'z ishini qilar; biri ovlar va ushlar, boshqasi esa yashirinar va qochar edi.

Surgun hayoti shunaqa-da.

Rudnikovdan butun Xitrov bozori xuddi olovdan qo'rqqanday hayiqar edi:

– Qo'lga tushdingmi – qo'lga oladi!

– Buyruq berishsa – izlab topadi!

Yigirma yil xizmat davomida Rudnikov qashshoqlar va qochoqlar orasida o'ziga xos nigohini ishlab chiqdi.

– Xo'sh, surgunchi... Xo'sh, o'g'ri... sayoq... bo'lsa, nima bo'пти. Ular ham odam, hammasi yashashni istaydi. Xo'p, nima bo'пти shunga? Ularning bariga faqat o'zimning qarshi bo'lganim yetarli. Ularning hammasini tutib olib bo'ladimi? Bittasini ushlasang – boshqasi qochib ketadi... yashash kerak axir! – deydi u.

Xilvat joylarda izlash bilan ovora bo'lgan hamda reportyorlik hayotim davomida Rudnikov bilan ko'p marta uchrashgan edim. Hamisha deyarli hech narsa yo'q joydan uning iztoparlik qobiliyatiga qoyil qolganman, og'zim ochilib, anqayganman. U bilan bir xarakterli uchrashuv esimda.

Do'stim, aktyor Vasya Grigoryev bilan birga yomg'irli sentabr oyida Pokrov xiyobonidagi tanishimiznikiga borgan edim. Kechasi soat o'n birda ketishga chog'landik. Shu o'rinda Grigoryevning veshalkadan yozgi paltosi yo'qolgani ma'lum bo'lib qoldi. Izidan ma'lum bo'ldiki, o'g'ri ochiq derazadan kirgan, kiyinib, so'ng eshikdan chiqib ketgan.

– Qo'shnilar ishga tushibdi... Xitrovdan. Bu doimo bo'lib turadigan ish. Derazani berkitishni unutishgan! – dedi keksa oshpaz ayol.

Vasya sal bo'lmasa yig'lab yuboray dedi, axir palto yap-yangi edi. Men esa unga dalda beraman:

– Agar xitrovkaliklar bo'lsa, topamiz.

Uy bekalari bilan xayr-xo'shlashib, Myasniskiy qismidagi 3-uchastkaga qarab yo'l oldik. Keks, mo'ylovli pristav, polkovnik

Shidlovskiy ish joyida yarim kechagacha o'tirish odatiga ega edi: biz uni uchratib, boshimizga tushgan kulfat to'g'risida gapirib berdik.

– Agar bizning bolalar bo'lsa, hozir topamiz. Rudnikovni topamiz, u navbatchi bo'lib turgan edi!

Ulkan gavnali atlet paydo bo'ldi, mo'ylovlari mosh-guruch tusda, mushtlari yaxshi tarvuz ko'rinishida. Biz unga paltoni o'g'irlangani haqida batafsil gapirib berdik.

– Biznikilar! Hozir topamiz... Menga shikoyat qilsalaring bo'lardi-ku, ular sabr qilib turishsin. Siz paltoni taniysizmi?

Vasya qolib kutadigan bo'ldi, biz esa Xitrovdagi Bunin uyiga bordik. Rudnikov hovli qorovulini chaqirdi, ular shivirlashib gaplashishdi.

– Xo'sh, bu yerdan hech narsani topib bo'lmaydi. Ichkariroq kiramiz! Qorong'ulik. Pilchillagan shilta loy. Faqat «Katorga» oshxonasi derazasidan bug' chiqib turibdi. Eshik sal qiya ochilgan, bug' o'sha yerdan chiqib kelmoqda. Rumyansev uyi joylashgan hovliga kelib, to'g'ridan to'g'ri ikkinchi qavatga ko'tarildi va chap tomondagi birinchi eshikka kirdik.

– Yigirma oltinchi! – kimdir qichqirib yubordi va tunda yotganlarning bari g'imirlab qolishdi.

Eng chekkadagi burchakda deraza ochildi va biri-biridan kuchliroq zarb tovushi eshitildi, u xuddi temir chordoqdan tushib kelganday bo'ldi.

– Katorga maishat qilyapti! – tushuntirdi menga Rudnikov va butun kazarmaga qarab qichqirdi: – Qo'rqmang'lar, iblislar! Men yolg'izman, hech kimni olib ketmayman, shunchaki o'zim kirdim...

– Nega bizni qo'rqitib yubording? – ranjidi ko'rinishi askarga o'xshash sariq yigit derazadan yangi qurilayotgan bino tomiga sakrab tushmoqchi bo'lib.

– Sening tumshug'ingga tushiraman, Styopka!

– Nima uchun, Fedot Ivanovich?

– Shuning uchunki, senga Xitrovkaga, mening oldimga bormaslikni buyurgan edim. Qayerga borsang, daf bo'laver, meni esa uyaltirma. Seni axtarishyapti... Ikkinchi marta qochibsan. Men bunga chiday olmayman!

– Men ketaman... Anovi «maruxa» olib kelgan edi! – U ko'zining osti ko'karib ketgan juvonga qarab ko'zini qisib qo'ydi.

– Yo‘-o‘-qol! Toki seni ko‘rmay! Kim derazadan oshib tushdi! Anovi Ko‘katfurushmi? Ey, Baldoxa, javob ber!

Jimlik.

– Kim? Men so‘rayapman! Nimaga indamaysan? Men senga iz-quvarmanmi? Xo‘sh, Ko‘katfurush, gapir! Axir uning oqsoq oyog‘ini ko‘rdim-ku!

Baldoxa indamadi. Rudnikov shafqatsiz shapalog‘ini silkitib, uning chakkasiga kelishtirib tushiradi.

Poldan turib, Baldoxa ko‘z yoshlari orasidan:

– Shunday deb so‘ralsa bo‘lar edi-ku! Imillamas edim... Qani, Ko‘katfurush!

– Jin ursin uni! Qo‘lga tushsa, olib ketaman, aytib qo‘y unga. Bu yerdan darrov daf bo‘lsin. Uyaltirayapsizlar, iblislar! Axtarishga to‘g‘ri kelsa bormi – bitta qolmay hammasini olaman. So‘rab o‘tirishmaydi – bu sizning baxtingiz, qani, bo‘ling. Men ular uchun kelganim yo‘q. Tepaga chiq, ularga ayt, ahmoqlar derazadan sakrashmasin, bo‘lmasa, til tortmay o‘ladilar! Men yuqoriga chiqaman, u uydami?

– Uxlab yotibdi, borgin!

Uchinchi qavatdagi tunash joylaridan biriga kiramiz. U yerda ham shunday voqea ro‘y berdi: deraza ochildi-yu, bir sharpa «lip» etib, xuddi havoga singib ketganday g‘oyib bo‘ldi. Bu tunash joyini Bol-doxa ogohlantirishga hali ulgurmagan edi.

Men ochiq deraza oldiga yugurib bordim. Mening ko‘z oldimda chuqurlikda joylashgan hovli namoyon bo‘ldi, qandaydir sharpa devor yonida yashirindi. Rudnikov pastga qaradi.

– Axir bu Styopka Maxalkin-ku! Mastakni chordoqdan pastga sakrash uchun chaqirishdimi? O‘shami?

– Vaska Churkinning ukasi. Maxalkin emas, Gorshok, – so‘ri ostidan yo‘g‘on ovoz eshitildi.

– Ana u o‘sha, Maxalkin. Bu senmisan, Lavrov? Qani, chiq, baringa ko‘ringin.

– Bu bizning protodyakonimiz, – dedi Rudnikov menga murojaat qilib. So‘ri ostidan oyoqyalang odam chiqdi. U yenglari kalta xotinlar ko‘ylagini kiyib olgan, yo‘g‘on, azamat yelkalari, sog‘tom bo‘ynini ochiq qoldirgan edi.

– Fedot Ivanovich ko‘p yillar yashasin, ko‘p yashasin! – gurilladi Lavrov, ammo tumshug‘iga musht tushgandan so‘ng yana so‘rining ostiga kirib ketdi.

– Ibodatxonada qo‘shiqchi-seminarchi edi. Mana qanday ahvolga tushgan! Jim bo‘ling, iblislar! – qichqirdi Rudnikov va biz tor yog‘och zinapoya orqali chordoqqa ko‘tarila boshladik. Pastda «ko‘p yashang!» degan ovoz eshilar edi.

Chiqib oldik. Qorong‘u. Eshik oldida to‘xtadik. Rudnikov ochishga urindi, ammo yopiq edi. Mushti bilan taqillatdi. Eshik titrar edi. Jimlik. U yana kuchliroq taqillatdi. Eshik ochildi. Temir zanjirni osib olgan, o‘g‘irlik mollarni qabul qilib oladigan ijarachi ko‘rindi.

– Xo‘sh, nima kerak? Kimsiz?

Musht ko‘tarildi, shovqin kuchaydi, eshik ochilib ketdi.

– Nimaga turtasiz? Axir men odamman-ku!

– Sen odammisan? Qani, Sashka Ponomar bugun senga olib kelgan palto qani?

– Nima uchun kechasi bezovta qilasiz? Menga hech qanaqa palto olib kelishgani yo‘q.

– Shunaqa degin. Qani, bu yerdan chiqib tur, axtarib ko‘ramiz! – dedi Rudnikov va ortimdan eshik yopilgach, yana qichqiriqlar eshiltildi.

Keyin hammayoq jimjit bo‘lib qoldi. Rudnikov chiqib, paltoni olib keldi.

– Mana u! La‘nati shayton uni eng pastki sandiqqa yashirgan ekan. Ustiga yana beshta sandiqni taxlagan.

Rudnikov ana shunday kishi edi.

* * *

Ba‘zan ko‘zdan kechirib chiqishlar bo‘lar, ammo bu tintuv faqat nomigagina edi. Ancha xotirjam bo‘lgan uyni qurshab, «bezorilar»ni qo‘lga olishardi-yu, «yiriklari» hech qachon qo‘lga tushmas edi.

«Kulakov» degan joyga politsiya qadam bosmas edi.

«Kulakovka» deb faqat bitta uy tilga olinmas, balki Kulakov mulkidagi Xitrovka maydonidan Svininsk muyulishiga qadar bo‘lgan katta joyni o‘z ichiga olar edi. Maydonga oxirgi tor qismi bilan qaragan old bino «Utyug» deb atalar edi. Uning ortidagi uch qavatli qorong‘u barvasta korpuslar «Quruq jar» («Suxoy ovrag») hamda bari «Svinin

xonadoni» deb yuritilar edi. U taniqli kolleksiya yig'uvchi Svinga qarashli edi. Shuning uchun muyulishni uning nomi bilan atashgan. Shu yerdan uning sohiblari laqabi kelib chiqqan: «dazmollar» («Ut-yugi») va «Quruq jar bo'rilar».

Mayda-chuyda churvaqalar, pasportsiz, gadolar hamda haydal-gan ma'murlarni kirish joyida ajratib olishadi. Boshqa kunda ular-ni navlarga ajratishadi: pasportsiz va ma'muriy idoralarda ishlagan sobiqlarni jo'natish ishlari bilan mashg'ul bo'lgan turmalar orqali hisobga olish joyiga, yaqin uyezdlariga yuborishadi, ular esa bir haf-tadan keyin yana Moskvada paydo bo'lishadi. Etap bilan biror vaqt Zarayskka keladi-yu, politsiyada hisobdan o'tishadi va o'sha zahoti tunda ortga qaytishadi. Gadolar hamda foydaxo'r olibsoxtarlarning bari moskvaliklar bo'lib chiqadi yoki shahar yonidagi Slobodaning aholisiga mansub bo'lib, boshqa kun Xitrovkada o'zining doimiy ishi bilan mashg'ul bo'ladi, bu ish navbatdagi taftishga qadar davom etadi.

Bu so'qir shaharda ular nima ham qilsin! Hech qanday ish yo'q. Tunda yotqizishga har qanday kishi qo'rqadi, tunaydigan joy yo'q. Moskvaga kelib qolgan Xitrovkani afzal bilib, unda huzur-halovat topmoqchi bo'ladi. Poytaxtga endigina kelib, tunni o'tkazmoqchi bo'lgan kishini o'marish, bor-yo'g'ini shilib olish, otish ham mum-kin. Ko'cha yoki xiyobondan birorta tajribasiz sho'rlikni, uysiz-joysiz sho'rpeshonani yer osti koridoriga boshlab kirib, yelkasiga kelishtirib tushirish va boshdan oyoq yalang'och qilib, tunash mumkin. Bu faqat Moskvada mumkin va bu yerda yashay olasan! Bu arziyas pasport bilan qayoqqa borasan: senga na «ish», na tunash uchun joy bor.

Men ko'p yillar davomida pastqam, xilvat joylarni o'rgandim hamda Xitrov bozorini tez-tez kezdim, u yerdan tanishlar orttirdim, meni «gazetachi» deb atashar va tortinishmas edi.

Menga tanish bo'lgan adabiyotchi do'stlarim Xitrovkaga olib bo-rib, u yerdan jin ko'chalar, xilvat joylarni ko'rsatishni iltimos qilishar, lekin hech kim «Quruq jar» va hatto «Dazmol»ga kirishga botina ol-mas edi. Ayvon ostidan bir necha qadam pastga, yer ostidagi koridor-ga kiramiz va darhol ortga qaytishni so'rashadi.

Xitrovka yozuvchilardan Gleb Ivanovich Uspenskiydan boshqa birortasida kuchli taassurot qoldirgan emas.

«Russkiye vedomosti»da ishlagan paytimda men tez-tez Gleb Ivanovich bilan uchrashib turar edim. U bilan bir necha marta ikkimiz uzoq o'tirib qolar hamda kechani birga o'tkazar edik. Bir kuni Gleb Ivanovich mening uyimda ovqatlandi va bir stakan vino ustida suhbat xilvat joylar to'g'risida ketdi.

– Mashhur Xitrov bozorini hamda «Hayot chig'irig'idan o'tgan» odamlarni ko'rishni juda istar edim. Istayman-u, lekin qo'rqaman. Birgalikda yo'l olsak, juda ajoyib bo'lar edi-da!

Men buni Gleb Ivanovich uchun bajarishga xursand edim, albatta. Shuning uchun biz kechqurun soat sakkizda (bu oktabr oyida bo'lgan edi) Solyankaga qarab yo'l oldik. Izvoshchini qoldirib, kuzgi tuman bilan qoplangan, orasidan traktir va do'komlar xira derazalari hamda olibsotar-jalloblarning fonarlari miltillab ko'rinayotgan loyli, iflos maydondan piyoda o'tdik. Biz bir daqiqa mayda-chuyda bilan savdo qilayotgan ayol yonida to'xtadik, uning oldiga yarim juldur kiyingan qalang'i-qasang'ilar yugurib kelishdi, ular sassiq qo'lansa taomni xarid qilishar, bir tiyin yoki bir bo'lak qo'shimcha ustida tortishib, tinimsiz so'kinar, shosha-pisha yeb, tunaydigan uylariga qarab yugurdilar.

Bu ayollar o'zlarining ovqat idishlari ustida o'tirib, tanalari bilan taomlarni ilitib, ular sovub ketmasligiga urinar, yog'li, irkit yeguliklarni oxiriga qadar top-toza qilib kemirib, to'xtovsiz qichqirar edilar:

– L-lap-sh-sha! Endigina so'yilgan sigir go'shtidan tayyorlangan! Yugan! Qovurilgan cho'chqa go'shti! Ey, yigit, kel, bir miriga bo'ynidan kesib beraman! – deb qichqiradi yoshi o'tgan cho'tir basharasida yoshlikning xatolaridan iborat iz qolgan ayol.

– Tomoq deyapsanmi? Sening burning qayerda?

– Burun deysanmi? Uni boshimga uramanmi?

Va boshqa ovozda kimdir kuylab yubordi:

– Qaynoq jigar, qorataloq qaynatmasi bor!

– Qani, yetti miriga bergin!

Mayda savdo bilan shug'ullanadigan ayol xurmachaning ustidan turadi, qalin yog'li pokrishkani iflos qo'llari bilan ochadi-yu, u yerdan taomni olib, xaridorning kaftiga qo'yadi.

– Bir tiyin sadaqa ber! – buyruq beradi furashka kiygan tilanchi.

– Bu azobni qarang! Bu azobni! – deb shivirladi Gleb Ivanovich yoshli ko‘zlari bilan ro‘y berayotgan voqealarga tikilar hamda menga qo‘rqa-pisa shikoyat qilar ekan.

– Endi esa, Gleb Ivanovich, «Katorga», keyin «Peresilniy», «Sibir»ga, so‘ng tungi yotoqlarga kiramiz.

– Qanaqa «Katorga»?

– Xitrovka jargonida oshxonani shunday deyishadi, bu aynan o‘sha!

Savdogar ayolning yonidan o‘tib, Yaroshenko uyi oldidagi pastak traktirning eshigi oldida paydo bo‘lamiz.

– Kirish kerakmi? – deb so‘raydi Gleb Ivanovich qo‘limdan ushlab.

– Albatta!

Men eshikni ochganim hamon u yerdan g‘ovur-g‘uvur ovoz keldi. To‘polon, so‘kinish, mushtlashish, idish-tovoqlarning taqir-tuqur shovqini...

Biz stol tomon yo‘l olgan edikki, qarshimizga birdan eshik tomon shiddat bilan kirib kelayotgan ayol chiqdi; uning yuzi qonga belangan, ortidan juldur kiyingan bir kishi baqirardi:

– Jag‘ingni ezib qo‘yaman, la‘nati!

Ayol ko‘chaga qochib chiqishga ulgurdi, juldurvoqini tutib qolishdi. U endi polda yotar edi: uni shunday «tinchitishdi». Bu ish lahzalar ichida bajarildi.

Ko‘tarilgan bug‘ buluti orasida bizga hech kim e‘tibor bermadi. Iflos, irkit stolga o‘tirdik. Yonimga tanish bufetchi keldi, u bo‘ljak millioner va uy sohibi edi. Men yarimta araq, bir juft tuxum, pechenyeni gazak uchun buyurdim, bu xilvat joydan talab qilgan narsam yagona shu edi, xolos.

Stakanchalarni toza qog‘oz bilan artib chiqdim, aroqni quydim, tuxumlarni archib, Gleb Ivanovich bilan cho‘qishtirdim, uning qo‘li titrar, ko‘zlari qo‘rquv va ranj-alomatni ifodalar edi.

Men ustma-ust ikki stakanchani bo‘shatdim, tuxumni yedim, u esa hamon o‘tirar va qarar edi.

– Iching axir!

U ichdi va yo‘tala boshladi. Uni tuxumni archishga majbur qildim. Yana bir stakanchadan ichdik.

– U yerda qanday kishi yotibdi?

O'rta stol ortida mast juvonne quchoqlab, unga manzirat qilayotgan sochi taqir olingan, burni pachoq, qorachadan kelgan yigit o'tirar edi. Ularning yonida sog'lom, buqa bo'yin, basharasi xuddi xotinlarniki kabi rapidaday cho'zilgan, oyoq yalang, ko'ylakka o'xshash lash-lush kiygan erkak bor ovozi bilan sobiq mushti yo'g'on, ya'ni mast-alast to'polon qilganlarni haydab chiqaradigan piyonista kuchi boricha bas ovozda qo'shiq aytib, qichqirar edi.

Men Gleb Ivanovichga bu «sho'x» yigit sayr qilyapti, deb tushuntirdim. U esa hadeb mendan:

– Ketamiz, – deb iltimos qilardi.

Hisob-kitob qildig-u, chiqdik.

– O'tib ketishga ruxsat bersangiz, – deb xushmuomalalik bilan murojaat qildi Gleb Ivanovich eshik ro'parasida to'rt oyoqlab, yomg'ir va loydan ho'l bo'lib ketgan juvonga qarab.

– Daf bo'l-ey... Ko'ryapsan, qo'nji kalta etiklar qancha to'lib yotibdi...

Keyin bo'g'iq tovushli va manqalangan holda, achchiq so'zlar bilan qo'nji kalta etiklar haqida izoh berishga urindi. O'rnidan turishga urindi, lekin muvozanatini saqlay olmay, ko'lmakka ag'darilib tushdi.

Gleb Ivanovich meni qo'limdan ushlab, bo'shab qolgan va ko'l-mak bilan qoplangan maydonga qarab sudradi, ko'lmaklarda yagona fonarning nuri akslanib turardi.

– Mana shu ijod durdonasi – ayol emish! – dedi ovoz chiqarib o'ylagan Gleb Ivanovich.

Biz yurib borardik. Tund, xunuk juldur kiyimli gado to'xtatib, qo'lini cho'zib, sadaqa so'radi. Gleb Ivanovich qo'lini cho'ntagiga tiqdi, lekin men uning qo'lini ushlab qoldim-u, bir so'mlik pulni chiqarib, makkorga:

– Mayda pul yo'q, do'konga borib, besh tiyanga papiros xarid qilgin, qaytimini olib kel; senga tunda yotish haqini beraman, – dedim.

– Hoziroq yuguraman! – deb to'ng'illadi bu odam, so'ng ko'l-maklarni kechib, do'konlardan biriga chopib ketdi, do'koncha bizdan ellik qadam narida edi va tuman ichida g'oyib bo'ldi.

– Menga qara, papiroslarni shu yerga olib kel, kutib turamiz! – qichqirdim uning ortidan.

– Xo'p, – degan ovoz eshitildi tuman ichidan.

Gleb Ivanovich tik turar va xoxolab kulardi.

– Nima gap? – deb so‘radim men.

– Xa-xa-xa! Xa-xa-xa! Shunday qilib, qaytimini olib kelib bo‘pti. Yana papiros emish! Xa-xa-xa!

Men Gleb Ivanovichning bunday kulgisini birinchi eshitishim edi. U yana xoxolab kulishga ulgurmasi, ko‘lmaklar ichidan shaloplagan qadam tovushi eshitildi va men jo‘natgan kishi nafasi tiqilguday bo‘lib, ko‘z oldimizda paydo bo‘ldi va kattakon qora kaftini ochdi, unda papirosalar, mis va kumush tanga yarqirab ko‘rinar edi.

– To‘qson tanga qaytimi. Besh tiyinni o‘zim oldim. Mana «Zarya». O‘n dona.

– Yo‘q, shoshma, nima bu axir? Sen olib keldingmi? – so‘radi Gleb Ivanovich.

– Nega olib kelmas ekanman? Men begonani pulini olib qochib ketarmidim? Men hech narsadan hech narsa yo‘q... – ishonch bilan dedi juldurvoqi.

– Yaxshi... yaxshi... – to‘ng‘illadi Gleb Ivanovich.

Men juldurvoqiga mis tanga berdim. Kumush tanga va papirosalarni olmoqchi edim, ammo Gleb Ivanovich so‘z qotdi:

– Yo‘q, yo‘q, unga hammasini bergin... Hammasini. Kishini ajablantiradigan rostgo‘yiligi uchun... Axir bu...

Men juldurvoqiga hamma qaytimni bermoqchi bo‘ldim, ammo u rahmat aytish o‘rniga faqat bitta gapni ajablanib aytdi, xolos:

– Ajabtovur janoblar! Men biror narsani o‘g‘irlamayman, tekshirib ko‘ringlar?

– Ketdik! Ketdik bu yerdan... Bu yerda bundan boshqa yaxshisini ko‘ra olmaymiz. Senga rahmat! – Gleb Ivanovich juldurvoqiga o‘girilib qaradi, unga ta‘zim qildi va meni darhol maydondan sudrab chiqdi. Tunab yotgan kishilarni ko‘zdan kechirishdan voz kechdi.

Ko‘pgina yozuvchi o‘rtoqlarimni shunday xilvat, pana-pastqam joylarga boshlab olib borganman. Va doimo muvaffaqiyatli bo‘lgan. Faqat bir marta muvaffaqiyatsizlikka uchraganman, ammo bu alohida xarakterga ega bo‘lgan edi. Ya‘ni men tilga olgan kishi boshqa birov bo‘lmay, balki taniqli P.G. Zaychnevskiy bo‘lib, surgun joyidan bir necha kunga yashirincha kelib, Moskvadan qo‘nim topgan edi. Aynan o‘sha kunlar arafasida Gleb Ivanovich unga sayohatimiz to‘g‘risida gapirib berganida, uning butun vujudi yonib ketganday bo‘ldi. Yarim kechasi katta-katta odim bosib, Svininsk muyulishi tomon bo-

rar edik. «Utyug» traktiriga, undan so'ng esa soat birda yopiladigan «Katorga»ga borib, aroqxo'rlikni davom ettirmoqchi edik. To'satdan askarcha qadam tovushini eshitib qoldik. Ortimizdan Solyankaga suqilib, mirshablar vzvodi qadam tashlab kelar edi. Biz tezroq maydonga borishga urinardik, ammo u yerga hamma muylulishlardan mirshablar vzvodi oqib kelib, uyni o'rab olishdi: tunda yotganlarni tintuvdan o'tkazishardi.

Hamrohining qo'li qaltirab qoldi.

– Jin ursin, kim biladi... Bu hammasidan ham yomon!

– Qo'rqma, G. Grigoryevich, dadil qadam tashlayver!..

Biz zudlik bilan maydonni kesib o'tdik. Yagona qo'ng'iroq ostidagi muylulish politsiyadan xolis joy bo'lib, bizni Yauza xiyoboniga olib chiqar edi. Tomlar ustidagi tunukalar taraqlar edi. Bu «jiddiy elementlar» chordoq orqali tom ustiga chiqib olgan va trubalar yonida qimirlamay yotar, bu yerga politsiya chiqib kelmasligini yaxshi bilishar edi...

Pyotr Grigoryevich boshqa kuni to'planib, ulfatchilik qilib o'tirganimizda, uni shaharlik mirshablar qanchalik qo'rqitib yuborganini hikoya qilib, kulib yubordi. Darvoqe, buning kuladigan joyi yo'q edi: Kulakov «Katorga»si o'miga u yana Nerchinsk dagisida tushib qolishi mumkin edi-da!

«Kulakovka»da, hatto kunduz kuni ham yurish juda xavfli edi: koridorlar xuddi tundagi kabi zim-ziyo, qorong'u bo'lardi. Esimda, yer ostidagi koridordan yurib borar ekanman, «Suxoy ovrag» degan joyida, gugurtni chizib yoqsam, dahshat: yumshoq tekis tosh devordan tirik odam kallasi chiqib kelmoqda. Men tarrakday qotib qoldim, kalla esa baqiradi:

– O'chir, iblis, gugurtingni! Sanqib yurganini qara-ya!

Hamrohim qo'limdagi gugurt cho'pini urib tushirdi, meni esa nari-gi tomonga qarab sudradi, kalla esa ortimizdan ancha vaqt ming'irlab, to'ng'illab qoldi. Bu yer ostidagi hech kim bilmaydigan pana joy bo'lib, politsiya tugul, u yerni iblis ham topa olmas edi.

Saksoninchi yillarda Romeyko uyida xuddi shunday manzaraning shohidi bo'lgan edim.

Yoz kunlaridan birida, soat uchlarda «Katorga» traktiriga kirgan edim. Shovqin-suron avjida edi. Rollardan nusxa ko'chiruvchi kotib Kirin bilan o'tiribman. Atrofimni, albatta, «mushuklar» va «maruxalar» o'rab olgan. Birdan eshik tomondan «mushuk» uchib keldi-yu, baqirdi:

– Ey, sen tirmizaklar, oyoq! Yigirma olti!

Hamma sergaklanib, qochishni mo'ljalladi, ammo qulog'i ding bo'lganicha izoh kutar edi.

– «Utyug»da kimnidir shilib ketishibdi. Politsiya yuguribdi...

– Qara, bu yoqqa kelishyapti!

Birinchi bo'lib baquvvat, qorachadan kelgan yigit qochib qoldi. Peshonasiga tushib turgan shapka ostidan yelkasi ko'rinar, sochini yarmi olingan, chap tomondagisiga qaraganda ancha kalta edi. O'sha paytda surgundagilarning sochi qirtishlab olinardi. Shu bois tushundimki, u shoshilmog'i lozim edi. Yana besh kishi qochib qoldi, «maruxa»ni mehmondorchilik uchun to'lovga qoldirishdi.

Men ham qiziqib Romeykoning maydonga qaragan tomondagi eshigiga o'zimni urdim. Ikkinchi qavatdagi kvartirada, olomon orasida qon xalqobida bir ko'ylakda, qo'nji qat-qat buklangan laklangan etik kiygan kishi yuztuban yotar edi. Orqasida, chap qo'ltig'i ostida oxirigacha sanchilgan pichoq ko'rinib turardi. Men bunday pichoqni ko'rmaganman: tanada katta, g'alati shaklli, yaltiroq mis dasta chiqib turgan edi.

O'ldirilgan kishi «kot», ya'ni o'ynash hisobida yashovchi erkak edi. Qotil xotini uchun o'ch olgan edi. Uni baribir topa olishmadi, bilishsa ham aytishmadi, faqat «yaxshi odam» deyishdi.

Men gazeta uchun kerakli ma'lumotlar to'plaganimcha politsiya, pristav va mahalliy doktor – hamma uchun suyumli D.P. Kuvshinnikov bilan gaplashaman. Uni menga Anton Pavlovich Chexov tanishtirgan edi.

– Pichoq qayerda? Qani u?

Politsiya sarosimaga tushib qoldi.

– Men uni hozirgina ko'rgandim. Ko'zim bilan ko'rgandim! – qichqirdi pristav. Anchagina urinishlardan so'ng pichoq topildi: urto'polon paytida shu yerda bo'lganlardan biri uni sug'urib, yarim shisha aroq evaziga qo'shni qovoqxonaga berib yuborgan ekan.

Chiqish eshigi maydonga emas, tor ko'chaga qaragan Buninning uyi boshqalarnikiga qaraganda ozoda edi. Bu yerda juda ko'p xitrovkaliklar¹ yashar, ular o'tin yorish, qor tozalash kabi kundalik yumush-

¹ Moskvadagi Xitrovka maydoni odamlari nazarda tutilgan. Xitrovka jinoiy kirdikorlarga moyilligi bilan nom qozongan.

lar bilan, xotinlar esa pol yuvish, uy yig'ishtirish, kir yuvish kabi kunbay ishlarga yollanib ter to'kar edilar.

Bu yerda o'zini butunlay xilvatga tortgan professional tilanchilar, turli-tuman ustalar yashar edi. Aksariyati tikuvchi bo'lib, ularni «qisqichbaqa» deb atashardi. Chunki bu odamlar yalang'och, oxirgi ko'ylagini sotib bo'lsa ham ichish uchun sarflagan, shu bois o'zlarining oshyonidan hech qachon va hech qayerga chiqmasdi. Erta-yu kech ishlashar, latta-puttallarni bozorga chiqarish uchun tikishar, bir umr boshlari og'rir, uvada, juldur yirtiq-yamoq kiyimda, oyoqyalang holda yurishardi.

Ish haqi ko'pincha yaxshi bo'lardi. To'satdan yarim kechasi tugun ko'targan o'g'rilar kvartiralarga kelishadi. Uyg'otishadi.

– Ey, bolalar, turinglar, ishga! – qichqiradi gangigan kvartira sohibi.

Tugunlardan qimmatbaho mo'ynali po'stinlar, tulki mo'ynasidan qilingan issiq yengsiz kiyimlar hamda turli-tuman ko'ylaklar tog'dek qilib olinardi. Darhol tikish va bichish boshlanib ketar, ertalab esa olibsotarlari paydo bo'lar va bir uyum qilib, bozorga mo'yna shapkalar, kamzullar, ishtonlar, xalatlarni olib ketishardi.

Politsiya shuba va issiq yengsiz kiyimlarni axtarar, ammo topa olmas, o'rniga shapka va erkaklarning soyabonli bosh kiyimi bo'lardi.

Asosiy ulushni, albatta, ijarachi olar, chunki u o'g'irlangan mollarning xaridori, aksar hollarda to'daboshi bo'lardi.

Lekin ulkan va doimiy daromad ijarachilarga vino savdosidan tushar edi. Har bir uy – qovoqxonona. Devorlarning osti, pollar tagi, stolarning qalin oyoqlari – hamma joyda suv aralashtirilgan vino ombori bo'lib, ular tunda yotadigan qo'noqlar va mehmonlar uchun edi. Suv qo'shilmagan vinoni kunduz kuni traktirlar hamda qovoqxonalaridan olishar, kechasi esa muhrlangan idishda savdoga chiqarishardi.

Bunin hovlisining ichkari tomonida ham o'ziga xos «shlanboy» (alkogol sotiladigan uydagi joy) bor edi. O'sha paytlarda hovli faqat bitta xira kerosinli fonar bilan yoritilardi. Deraza kir va changga belanganidan yorug'likni o'tkazmas, faqat bitta «shlanboy» derazasi pardalangan bo'lib, boshqalariga nisbatan yorqinroq edi. Kimga kerak bo'lsa, kelib, derazani chertadi. Darcha ochiladi. Parda ortidan qo'l chiqib, kafti tepaga qilib yoyiladi. Kelgan kishi bir og'iz gapirmay, qo'lga yarim tiyinlik tangani qo'yadi. Qo'l g'oyib bo'ladi va bir

daqiqadan so'ng Smirnovka shishasi chiqadi-yu, fortochka taqa-taq berkiladi. Bitta ish – hech qanday so'z aytilmaydi. Hovlida ham to'la-to'kis jimjitlik hukmron. Faqat maydondan mast-alastlarning qo'shig'i va «qorovul» degan baqir-chaqir eshitaladi. Lekin hech kim yordamga bormaydi. Yechintirishadi, sarpoychan qilishadi, yalang'och holda qo'yib yuborishadi. Ba'zan ish muyulishda yoki naq maydonning o'zida o'ldirilgan hamda qip-yalang'och qilib talanganlar jasadini ko'tarish bilan tugaydi. O'ldirilganlarni Myasnitskiy bo'limiga sudga yorib ko'rsatish uchun, ba'zan esa universitetga jo'natishadi.

Esimda, bir marta professor I.I. Neydingning o'lik yorib ko'riladigan maxsus bo'lmasiga kirib, uni talabalarga ma'ruza o'qiyotgan paytida uchratdim. Stol ustida Xitrovka bozorida topilgan o'lik yotardi. Jasadni ko'zdan kechirgach, I.I. Neyding dedi:

– Zo'rlik ishlatib o'ldirilganlik belgilari yo'q.

To'satdan talabalar orasidan bu dargohning keksa qorovuli, taniqli Volkov o'rtaga chiqdi. U ko'pincha talabalarga operatsiya qilishda yordam berar, bu ishni mohirlik bilan ado etardi.

– Ivan Ivanovich, – dedi u, – nima dedingiz? Belgilari yo'q, deysizmi? Unga qarang-chi: «ligamentum-nuxa» sepib ko'rdingizmi? – O'likni ag'darib, bo'yin umurtqasining singan joyini ko'rsatdi. – Bunday emas, Ivan Ivanovich, Xitrovkadan o'ldirilmaganlar yuborilgan holatlar aslo bo'lmagan.

Xitrovkada tirik yetim bo'lib qolgan bolalar anchagina edi. Mana yetmishinchi yillardan qolgan manzaralardan bittasi. Tumanli kuz kechalaridan birida Buninning uyi hovlisida kir o'ra tomondan ingrash tovushlarini eshitdilar. Bir ayol bola tug'ib yotardi.

Xitrovkada bolalarning narxi baland edi: ularni chaqaloqlik paytidanoq ijaraga, sal bo'lmasa «kimoshdi» savdosiga qo'yganday tilanchilarga berishardi. Va irkit, iflos juvon, basharasi dahshatli kasallik bilan og'rigani ko'rinib tursa-da, badbaxt bolani qo'lga olardi-yu, chaynalgan nonni kir lattaga o'rab, so'rg'ich o'rniga og'ziga solib qo'yar va sovuq ko'chaga olib chiqardi. Go'dak kun bo'yi tagi ho'l, iflos holatda uning qo'lida yotar, so'rg'ichni so'rganicha sovuq, ochlikdan, oshqozonidagi doimiy og'riqdan ingrar, o'tkinchilarda «baxtsiz bolaning sho'rlik, kambag'al onasi»ga nisbatan rahm-shafqat hislarini uyg'otar edi. Shunday hollar bo'lardiki, bola qo'lda ertalab o'lib qolar, tilanchi ona esa vaqtini yo'qotmaslik, sadaqa yig'ish

uchun kun bo'yi uni qo'lida ko'tarib yurardi. Ikki yoshga to'lganlarini qo'lidan ushlab yurishar, uch yoshliklari esa o'zi tilanchilik qilishga o'rganar edi.

Ulug' ro'zaning oxirgi haftasida ko'krak emib yurgan go'dak to'rt oyoqlab o'rimalaganida, to'rt yoshdagisi yarim tanga, o'n tiyinlik tanga ketidan yugurardi. Besh yoshga kirganlari o'zlari yugurib, tanga keltirar, ularni xolasi, onasi, amakisi va boshqalarga olib kelishar edi. Bolalar qanchalik katta bo'lishsa, ota-onalari ulardan shunchalik ko'proq talab qilar va o'tkinchilar iloji boricha kamroq sadaqa berishardi.

Gadoyga aylangan bolalarga qishda oyog'idagi poyafzallarini yechishga to'g'ri kelar, ularni burchakda turgan qorovulga berib, o'zlari traktir va restoranlar oldidagi kirish joylarida qor ustida oyoqyalang yugurib, ehson so'rashardi. Qanday bo'lmasin, turli yo'llar bilan pul topish kerak, aks holda uyga ikki chaqasiz qaytib kelishsa, o'lguday tayoq yerdilar. Shuningdek, bolalar kattalar o'g'irlikka tushganida, atrofga «ko'z-quloq» bo'lib turishar, ayni paytda kattalardan «ish» o'rganishardi.

Xitrovkada tug'ilgan yalangoyoqlar sochlari oqarib ketguncha o'sha yerda yashashar, vaqtincha turmada o'tirib chiqishar yoki uzoqda surgunda bo'lib, shu tariqa ko'zdan g'oyib bo'lishardi. Bular o'g'il bolalar edi.

Qiz bolalarning ahvoli yanada dahshatli edi.

Ular uchun bir yo'l qolgan: o'zlarini mast-alast sayoqlarga sotishardi. O'n yoshli aroqxo'r fohishalar kam emasdi.

Ular «vagoncha»ga kirib, ko'zdan uzoqda joylashib olishar edi. Saksoninchi yillarning birinchi yarmida u yerda paydo bo'lib, ancha vaqt yashagan go'zallardan biri «knyagina» laqabini olgan juvon edi. U bir oz muddat Xitrovkadan g'oyib bo'ldi, bor chiroyini goh yashashga sarfladi, goh «shinam» fohishaxonalarga borar, ammo hamma vaqt «vagoncha»ga qaytib kelib, yiqqan barcha pullarini ichib tugatar edi. «Katorga» traktirida u fransuz shansonetkalari – tuturuqsiz ashulalar kuylar, o'sha paytda urfga kirgan kachuchu raqsini ijro etib, raqs tushardi.

Uning «jazman»laridan biri mashhur qaroqchi Vaska Churkinning tug'ishgan ukasi Styopka Maxalkin bo'lib, nomi o'zining oti bilan atalgan romanda ko'klarga ko'tarilgan edi.

Lekin Styopka Maxalkin akasiga nisbatan ancha tozaroq bo‘lib, uni nafrat bilan tilga olardi:

– Vaskami? Quruq, mahmadona! Paytava!

Bir safar politsiya Styopkani qamoqqa oldi va mahkamaga jo‘natish oldidan uning oyog‘iga kishan urdilar.

– Xohlasang, kishanlarni yechaman, faqat qochib ketmaslikka so‘z bergin, – deb taklif qildi nazoratchi unga.

– Sizlarning ishingiz tutish, bizniki esa qochish. Lekin senga so‘z berolmayman. Bizning so‘zlarimiz metin kabi mustahkam, men esa bir marta gapiraman.

Ko‘p o‘tmay u qamoqxona devoridan oshib, qochib ketdi.

Va so‘z bergani bois to‘ppa-to‘g‘ri «vagoncha»ga, «knyagina» ixtiyoriga keldi. U yerda rashk bilan sahna ro‘y berdi. Maxalkin «knyagina»ni chalajon bo‘lguncha kaltakladi. Juvonni Pavlovo kasalxonasiga yuborishdi, o‘sha yerda kaltak zarbidan jon berdi.

* * *

1826-yilgi Moskva manzillar kitobining uy sohiblari ro‘yxatida quyidagi yozuv bor: «Svinin, Pavel Petrovich, harbiy bo‘lmagan maslahatchi, Pevchev tor ko‘chasidagi 24-uy, Myasnik qismi, Solyanki burchagi».

Svinin Pushkin tomonidan kuylangan: «Mana, Svinin, Rus Qo‘ng‘izi». Svinin mashhur kishi edi: yozuvchi, kolleksiya yig‘uvchi va muzey egasi. Keyinchalik shahar Pevchev tor ko‘chasini Svinin deb qayta nomladi.

Shu tor ko‘chani boshqa burchagida o‘sha paytda katta daralar, jarliklar bilan o‘ralgan xarobazor bo‘lib, sayoqlarning doimiy maskani edi. Uni «erkin joy» deyishar, devor bilan o‘ralgan qal‘aga o‘xshash katta uy bo‘lib, general-mayor Nikolay Petrovich Xitrov xizmatchilari bilan istiqomat qilardi. U shu «erkin joy»ga egalik qilish bilan birga, hozirgi Yauz va Pokrov xiyoboniga qadar uning tasarrufida bo‘lgan. O‘shanda yana bitta nom – «Oq shahar xiyoboni» deb yuritilgan. Bu xiyobonda, manzillar kitobida tilga olinishiga ko‘ra, general-mayor Xitrovning boshqa uyi, 39-xonadon ham bo‘lgan. Bu maskanda uning o‘zi yashagan. 24-uyda, ya‘ni «erkin joy»da hovli-joyi, otxonasi, yerto‘lalari va uy ostidagi omborlari joylashgan edi. Ana shu keng-mo‘l

joyda Xitrov bozori bunyod bo'lgan va jilovlanmagan mulk uning sohibi sharafiga shunday atalgan.

Svinin 1839-yili vafot etgan, uning keng va bepoyon mulki hamda boyonbop koshonalari savdogar Rastorguyevlar ixtiyoriga o'tgan va ular oktabr to'ntarishiga qadar egalik qilishgan.

General Xitrov uyi o'z amaldorlarining kvartiralarini uchun Tarbiyaxona vazifasini o'tagan va o'tgan asrning ikkinchi yarmida uni muhandis Romeykoga sotishgan, Xarobazor esa barcha sayoqlari bilan shahar tomonidan bozor uchun xarid qilingan. Uy qimmat ta'mirni talab qilardi. Uning atrofi kvartira ovchilari uchun kvartirani ijaraga olish imkonini bermasdi, chunki xavfli edi. Va Romeyko uni tunda yotish uchun ajratdi. Bu foydali hamda hech qanday xarajat talab qilmasdi.

Xitrovkadagi dahshatli xilvat, pastqam joylar o'n yillab mobaynida moskvaliklarni qo'rqitib kelgan.

Matbuot ham, дума ham, ma'muriyat ham general-gubernatorga qadar bu qaroqchilar uyasini yo'qotish uchun qunt bilan chora-tadbirlar ko'rgan.

Bir tomondan, Xitrovka yaqinida Solyanka savdosi Vasiylik Kengashi bilan, boshqa tomonda, Pokrov xiyoboni hamda unga yondosh muyulishlar, ko'chalar, boy-badavlat muhtasham hovlilar rus hamda ajnabiy savdogarlar tomonidan band qilingan edi. Bu yerda Savva Morozov va Korzinkin, Xlebnikov va Olovyanishnikov, shuningdek, Rastorguyev va Baxrushinlar bor edi... Bu saroy sohiblari qo'rqinchli qo'shnihilikdan achchiqlanar, uni bartaraf qilish uchun barcha choralarini ishga solar, lekin gumburlab qilinadigan nutqlar, ma'muriyatda chalinadigan qimmatli qarsaklar ham hech nima qila olmasdi. Barchani siqib turadigan qandaydir kuch bo'lib, bu sirli iskanjalar ham ishning uddasidan chiqa olmadi. Xitrovkalik uy sohiblaridan birining qo'li dumaga yetsa, boshqasi general-gubernatorning idorasidagi do'sti bo'lib chiqar, uchinchisi esa xayr-sadaqa, homiylik ishlarida eng muhim martabani egallagan bo'lib chiqardi.

Faqat sovet hokimiyati Moskva kengashining bitta qarori bilan bu eski zamonga xos davolab bo'lmaydigan jarohatni tub-tubidan kesib tashladi va 1923-yilda bir haftada butun maydonni asrlar davomida o'rab olgan buzuqxonalarni makonidan tozaladi hamda bir necha oy davomida yaqin atrofdagi xilvat, xunuk, buzuq joylarni ishchilar va xiz-

matchilar uchun yashash maskanlariga aylantirdi. «Kulakovka»dagi asosiy xilvat, xavf-xatarli maskan hamda uning yer osti buzuqxonalari, «Suxoy ovrag» hamda ulkan «Utyug»ni poydevoridan boshlab supurib tashladi va qaytadan qurdi. Hammasi o'sha uyga o'xshardi-yu, ammo ichki tomonlar butunlay toza, pokiza edi... G'ijimlab tashlangan qog'oz yoki latta-putta, yoki shunchaki siniq oyna, undan chiqadigan bug' yoki mast-alast baqir-chaqirlar yo'q edi... Mana Orlov uyi – bu nochor, tilanchi holiga tushgan professionallar kvartirasi, yangi kelganlar yotog'i, kunlik ishga kelganlar uchun yotoq joyi edi... Mana Rumyansevlarning ulkan bahaybat uylari qatori. Unda ikkita traktir bor edi – «Peresilniy» va «Sibir», undan so'ng Stepanov uyida «Katorga» bo'lib, u bir paytlar qochoqlar hamda qaroqchilarni yashirgan Mark Afanasyevga tegishli bo'lgan. So'ng uning gumashtasi Kulakovga o'tgan. Kulakov eski xo'jayinining joyida o'tirib, butun boyligini qo'lga kiritgan.

«Katorga»da endi eshik ham yo'q, u ochilib ketganda chiqadigan bug' ham, eshitiladigan yot qo'shiqlar ham, idish-tovoqlar va pichoq-bozlik tufayli ro'y beradigan dod-voy, faryod tovushlari ham quloqqa chalinmaydi. U bilan yonma-yon turgan Buninlar uyida ham derazalar charaqlab yoritiladi... Maydonlarda juldur kiyingan minglab sayoqlar g'uj-g'uj ko'rinmaydi, olibsotarlari endi xarraklarda o'tirmaydi, irkit va shishgan selyodka balig'ining badbo'y hidlari taralmaydi. Xalq tartib va odob bilan qadam tashlab boradi, bolalar o'ynaydi... Yaqindagina kecha-yu kunduz maydonda uvada kiyim-kechak kiygan kishilar to'da-to'da bo'lib tentirar edi. Qorong'i tushgach, mast-alast kishilar o'zlarining «mahbuba»lari bilan gansiraklab kezishardi. Oldilarida nima borligini bilmay-ilmay, barcha jins va yoshdagi odamlar kezardi. Ular orasida shu yerda tug'ilib-o'sgan qizlar, yigitlarning yarim-yalang'och «shumtaka» jazmanlari ham bo'lardi.

Bu tirranchalar bozorlarda paydo bo'lar, to'da-to'da bo'lib olibsotar ayollarga tashlanar, mahsulotga to'lib turgan peshtaxtalarni ag'darib, shuningdek, chodirlarni buzib, darhol g'oyib bo'lishardi.

Sal yuqoriroqda «poyezdchilar» turishar, ularning ishi xiyobonlarning kirish joyida, xilvat muyulishlar hamda vokzalning qop-qorong'i maydonchalarida to'rt g'ildirakli yengil arava tepasidagi qop va jomadonlarni o'marib ketishdan iborat edi... Bu odamlarning ortida «darchalar», ya'ni chaqqon va abjir bolalar turib, ular fortochkalardan

kirish hadisini olgan edi. «Choʻntakchi»lar esa tirbandlikda odamlarning tugmalari toʻliq oʻtkazilgan paltolarining kissasiga bemalol sezdirmay qoʻl tiqib, oʻmarib keta olar, olomon orasidan oʻzini nari-beri urib, shilib ketishardi. Butun maydon boʻylab faqat qashshoqlar, qashshoqlar tentirar edi... Kechalari esa «ishbilarmon bolalar» qoʻllarida pichoq va toʻpponcha tutgan holda «Quruq jarlik» yertoʻlalaridan sirgʻalib chiqardi... Shu bilan birga «paytavachilar» turtinib-surtinib, oʻtkinchilar va oʻzlariga oʻxshash ayyor tilanchidan oxirgi boʻlak nonini tortib olishdan oʻzini tiya olmas, shapkasini ham shilib, kiyib ketaverardi.

Bu maydonni kechasi dahshat qoplar edi: mast-alastlarning qoʻshigʻi, kaltak yegan sayoq-daydilarning «qorovul» deb zorlanishlari hamma joyni tutib ketar, lekin hech kim yordam berishga botina olmas, aks holda bundaylarni boshidan oyogʻigacha shir-yalangʻoch qilib, kerak boʻlmagan joyga burnini tiqqani uchun oʻlguday doʻpposlashar edi.

Politsiya budkasi tunda hamisha jimjit boʻlar, goʻyo u gumdon boʻlganday tuyulardi. Uni yigirma yildan ziyodroq vaqt davomida yuqorida aytib oʻtilgan mirshab Rudnikov boshqardi. Rudnikov tungi chorasiz qichqiriqlarga qiziqmas va budka eshigini ochmasdi.

Bir marta shunday voqea boʻlgan. Xitrovkada «Koʻngilochar» gazetasi xodimi Yepifanov aroxoʻrlik masalasi bilan oʻralashib qolgandi. U bu yerdagi xilvat, yashirin joylarni oʻrganmoqchi edi. Yepifanovni maydonda qip-yalangʻoch qilib yechintirishdi. U oʻzini budkaga urdi. Taqillatdi, qichqirdi, «qorovul» deb baqirdi. Shunday qilib, uyga yalangʻoch holda qaytdi. Ertasi kuni gazeta tahririyatiga kelib, tunab ketganlari tufayli avans soʻraydi va sayohati nima bilan tugagani toʻgʻrisida hikoya qiladi. Budkadan ulkan gavgdali kishi yalangoyoq holda, ichki koʻylak-ishtonda chiqib, oʻzini «zodagon» deb tanishtirgan va uning orqasini oʻgirib hayqiradi: «Har qanday ablah kechasi bezovta qilaveradi!» – deb oyogʻi bilan tepadi. Yaxshiyam bu odam oyoqyalang edi, shunisiga ham rahmat: Yepifanov koʻlmakdan nariga uchi ketadi...

Rudnikov hech qachon hech kimdan qoʻrqmas edi. Hatto millionlari bilan politsiyachilarning barchasini qoʻrquvga solgan Ivan Petrovichdek general-gubernator bilan qoʻl olishib «koʻrishgan» Kulakov ham Rudnikov uchun arzimas odam edi. U bayramlarda toʻgʻridan toʻgʻri huzuriga kelib, undan yuztalik olar edi-yu, hayqirardi:

– Vanka, sen hazillashyapsanmi? Yoki unutdingmi? A?..

O‘zining Svinkin muyulishidagi uyida bayram tabrigini qabul qilgan Kulakov nimanidir eslar, talmovsiras va g‘o‘ldirab qolardi:

– Eh, kechirasiz, Fedot Ivanovich.

Va uch yuzm cho‘zar edi.

Rudnikovning o‘zi ham, budkasi ham allaqachondan buyon yo‘q.

Xitrovka bozoridagi uylar kvartiralarga bo‘lingan – bitta katta yoki ikki-uchta so‘rili, ba‘zan ikki qavatli qilib ajratilgan, unda jinsi, yosh-u qariligidan qat‘i nazar, uysizlar tunab ketaverardi. Xonaning burchagida yupqa taxtalardan iborat yoki shunchaki chit pardalar bilan to‘silgan xonacha bo‘lib, unda xo‘jayin xotini bilan joylashgan edi. Bu iste‘foga chiqqan askar yoki dehqondan iborat «yorug‘ o‘tar» bo‘lib, ular hamisha top-toza pasport bilan yurishar, aks holda kvartirani ijaraga olish huquqidan mahrum bo‘lishardi. Ijaraga oluvchi kishi hech qachon yolg‘iz bo‘lmas, doimo xotini bilan birga bo‘lar, hech qachon qonuniy xotini bilan bo‘lmasdi. Ijarachilar qonuniy xotinlarini qishloqda qoldirishar, bu yerga Xitrovkada yashovchi pasporti bo‘lmagan tub joy aholisidan ma‘shuqa ayol olib kelishardi.

Har bir kvartira yollovchi kishida o‘zining odamlari: kimningdir talonchilari, kimningdir o‘g‘rilari, kimningdir «juldur malla»si, kimningdir shunchaki tilanchi og‘aynisi bo‘lardi.

Qayerda qashshoqlar bo‘lsa, bolalar ham bo‘lar, ular bo‘lg‘usi katorgachilar edi. Kimki Xitrovkada tug‘ilib, bu dahshatli vaziyatda yashashdan bezib ketsa, umri qamoqda yakun topardi. Bunday istisno tariqasida kam edi.

Xitrovkada eng ezgu niyatli xolis unsur, bu – tilanchilar edi. Ularning ko‘pchiligi shu yerda tug‘ilib, shu yerda o‘sgan; agar o‘zining o‘ta qashshoqligi, hech vaqosi yo‘qligidan o‘g‘ri va qaroqchiga aylanmasa, tilanchiligicha qolib ketar edi. Shu bois kasbini hech narsaga almashtirmas edi.

Bular biz ko‘chada ko‘rgan, tasodifan hayot kechirish vositalaridan mahrum bo‘lgan tilanchilar emasdi. Ular amallab zo‘rg‘a-zo‘rg‘a bir burda non yoki tunashga joy topar edilar. Xitrovka qashshoqlari alohida toifa edi.

Rumyansev uyi, masalan, «darbadarlar» kvartirasi edi. Sog‘lom, ichaverganidan shishib ketgan, davangirday, kap-katta odamlar hurpaygan soqolli, moylangan sochlari yelkasiga tushgan bo‘lib, hech

qachon taroqni ham, sovunni ham ko'rishmagan. Bular aslida hech qachon bo'lmagan monastirlar, muqaddas maskanlarning rohiblari bo'lib, hayotlari davomida Xitrovkadan cherkov eshigi oldigacha yoki savdogar ayollarning uyiga borar, yoki joylardan ortiga qaytar edi.

Tunda aroq ichgan bu qo'rqinchli ko'rinadigan amaki taxta karavot tagidan chiqar, kvartira sohibidan qarzga bir stakan yaxshi tozalanmagan bug'doy arog'ini so'rar, g'alati ridosini kiyib olib, yelkasi-dagi jarohatga latta yopishtirganча, boshiga baxmal kulohni bostirib, qishda qor bo'lishiga qaramay oyoqyalang, o'zining avliyo ekanligini namoyish qilish maqsadida ibodatxona tomon qadam tashlab ketardi.

Bunday «darbadar» darvesh ongsiz savdogar xotin qalbini gunohdan musaffo etish niyatida nimalar deb avramaydi! Qo'lida Yaratganning tobutidan tarasha, avliyo Yoqub tushida ham ko'rmagan zinapoyadan bir bo'lakcha, payg'ambar Yahyo aravasidan ko'kdan tushgan g'ildirak cho'piga qadar bor.

Do'konlar, traktirlar hamda savdo rastalarida to'planadigan tilanchilar ham bor edi. Ularning «xizmati» ertalab soat o'ndan kech soat beshgacha davom etar edi. Bu guruh bilan birga cherkovlarga qatnaydiganlar ko'proq edi. Oxirgisi ijaraga olingan chaqaloqlarni ko'tarib olgan juvonlar bo'lib, bolani latta-puttaga o'rab-chirmab, nozik allalab, sho'rlik yetimchaga sadaqa so'rashardi. Bunda rosmana hamda soxta so'qirlar va qashshoq faqirlar, notavonlar ham joy olgan edi.

Mana endi – aristokratlar. Ularning bir qismi Orlovlar uyida, bir qismi Bunin xonadonida istiqomat qiladi. Oralarida xizmatdan quvilgan amaldorlar, ofitserlar va mansabidan tushirilgan poplar bor edi.

Ular jamoat bo'lib mehnat qilar, moskvaliklar uyini navbati bilan bo'lib olishardi. Ular oldida Moskva taqvimi turardi.

Qashshoq-aristokrat, masalan, Prechistenkning o'ng tomonini muyulishlari bilan qo'shib, hech kimni qoldirmay, diqqat markazida turgan yigirmata uyni nazarda tutgan holda yigirmata maktub-ko'z yoshi yozadi. Uni jo'natadi-yu, boshqa kuni manzillar tomon yo'l oladi. Uy ayvoni oldidan qo'ng'iroq qiladi: qaddi-qomati aslzodalarga xos, kostumni ham ijaraga olgan, bashang. Darbonning savoliga:

– Kecha shahar pochtasidan maktub yuborilgan edi, javobini kutishyapti, – deydi.

Paketni olib kelishadi, unda bir so'mlik va katta pul turibdi.

Yaroshenko uyidagi 27-raqamli kvartira oldidagi qo'shimcha binoni, ya'ni fligelni «yozuvchi» deb atashar, butun Xitrovkada eng zodagon va vazmin hisoblardilar. Saksoninchi yillarda bu yerda, hatto «knyaz knyagina bilan» birga yashagan. Ya'ni so'qir chol hamda tishsiz kampir istiqomat qilar, chol ba'zan fransuzcha gapirib, o'zining valine'matlari, eski tanishlariga maktub yozdirar, gohida yaxshigina yirik xayr-sadaqa olar va och-nahor ko'chirib yozuvchilarni boqar edi. Ular uni «janobi oliylari» deb tilga olar, hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lishar edi. Ismi-sharifi Lvov bo'lib, hujjatlarga ko'ra, shunchaki boyon deb ko'rsatilgan, hech qanday knyaz unvoniga ega emasdi; kotiblar, shundan so'ng Xitrovkaning qolgan ahli knyaz deb osmonga ko'targandi. U va xotini bosh ko'tarmay ichadigan aroqxo'r, mast-alast edi, ammo hushyor paytlarida o'zlarini juda basavlat tutishar, ko'rinishlari ko'zga salobatli tashlanardi. Vaholanki, «knyaz»ning egnida eski latta, «knyagina» turli-tuman quroqlardan tikilgan burnus, ya'ni yaxtak kiyib olgan edi.

Bir kuni ularning huzuriga Volganing allaqayeridan qarindoshlari kelishdi hamda ko'chirib yozadiganlar va qo'shni tilanchilarni g'oyat afsuslantirib, o'zlari bilan olib ketishdi.

U yerda, shuningdek, ichkilikka mukkasidan ketgan mahkama maslahatchisi, yarashtiruvchi sudya yashar, xitrovkaliklar uni bir paytlar sud raisi bo'lib ishlaganida, sud majburiyatlarini ijro etish chog'ida bo'yniga oltin hal surtilgan zanjir taqib chiqqani uchun «zanjirband» deb istehzo bilan tilga olishardi.

Bu nusxa bilan birga yog'och kat ustida do'sti Dobronravov yotardi. U bir paytlar adabiyotchi bo'lishga katta umid bog'lagan edi. Mayda-chuyda gazetalarda romanlar va keskin fosh etuvchi feletonlar chiqargan. Feletonlardan biri tufayli fabrikachilarning talabiga ko'ra Moskvadan chiqarib yuborilgan. Dobronravov gazetalardan qirqib olingan parchalarni, o'zini sal bo'lmasa halokatga olib borgan, «Rayeshnik» deb sarlavha qo'yilgan feletonni papkaga solib, yelimlaganicha, xuddi tabarruk yodgorlik kabi o'zi bilan olib yurardi. U shimolning olis pana-pastqam joylarida bir necha yil yashab, so'ng Moskvada, Xitrovkada paydo bo'ldi va bu uyda butunlay joylashib qoldi. Ko'rinishi bashang bo'lib, hushyor paytida shunday gapirardiki, unga quloq solish mumkin bo'lardi.

Dobronravov feletondagi quyidagi misralar uchun Moskvadan quvg'in qilingan edi:

«...Bu yoqqa keling, bir qarab qo'ying. Savdogarlar siyosati hiylagar. Na olifta, na po'rim, millioner fabrikachi esa taralabedod, xohlansa yurar, xohlasa ichar, ishchiga-chi katorga, surgundagi hayot nasib etar. Ko'rinishi maftunkor, yurish-turishi savlatli, korpusni ishga soldi – besh qavatli, minglab odamlar faqat unga ishlaydi. Azob-uqubat hamrohi bo'lsa-da, eti suyagiga yopishgan xalq fabrikaniki faqat, har holga ko'nikuvchan. Ovqatlanishi yomon, usti-boshi yirtiq, juldurvoqi. O'smir ishchining qornini beliga qapishtirgan.

Bag'ri toshlar!

Beg'am direktorlar fabrika bo'ylab sayr qilar, chetdan oziq-ovqat mahsuloti xaridiga bermaslar ruxsat: masalan, piyoz olmoqchisan, o'g'lingni zavod do'koniga yubor, daftarchaga yozdirib olar, chegir-masiz axir.

Ham arzon, ham chirigan!

Agar iching gapirsa, ko'rgin, uning aybi yo'q, vinoni talab qilar. Tamaki kerakmi, tag'in fabrika mayxonasiga chop. O'zing bilganingni ich, boshqasida bo'lursan xasis! Bu hazilakam ishmas, nasiyaga berishar, boz ustiga naq yarim paqir...

Shaharda xo'jayin xuddi grafdek, jarima ham foydasiga, daromad ham, butun atrofda oziq-ovqat uniki, demak, men jarima to'layman, qartada ochko ololmay. U yerda mol ham foizga, qayerga qarama atrof dividend. Har qayerda o'zimiznikidan qo'ymasin! «Pyotr Krillov»ni shunday qo'yamiz. Bundan yaxshisi yo'q».

Tunda uxlaydigan «kotiblar» bilan yonma-yon «Podshibal» («Shikastlovchi») kvartirasi bor edi. Eski paytda bosmaxonadagilar shikastlovchilarga katta pul tikishgan. Buning ustiga homiylik qilishgan: «Boshdan oyoq yalang'och kishi nimayam qilardi! Nimaiki bersang – hammasini ichib qo'yar».





UZOQQA SUZISH SHTURMANI

Saksoninchi yillarning boshida Moskvada juda yirik aktyor va tarjimon N.P. Sardu bor edi. U Solyankadagi Xalq teatri hamda Artistlik to'garagida rol o'ynardi. Singlisi O.P. Kireyeva (ularning ikkovi ham narodnik edilar) Myasniskiy qismida doya bo'lib xizmat qilar, Xitrovka bozorining qo'shni xilvat joylarida sevimli bo'lib, uni ism-familiyasi bilan tilga olishardi. U bu irkit tunash joylarida bo'lg'usi o'g'ri va tilanchilar orasida ancha ko'rgiliklarni boshdan kechirdi. Agar baxtga qarshi bolalar erli ayollardan tug'ilsa, qonuniy deb hisoblanar, shuning uchun yetimxonalarga qabul qilinmasdi. Bunday maskanlar noqonuniy, nikohsiz tug'ilgan hamda tashlandiq bolalar uchun qurilgan edi. Politsiya vrachi xuddi Olga Petrovna kabi edi. U A.P. Chexovning «Ninachi» hikoyasida aniq tasvirlangan Xitrovka juldurvoqilarining himoyachisi edi. D.P. Kuvshinnikov bu hududni atayin tanlab olgan, maqsadi kambag'allarga yordam berish edi. O.P.Kireyeva oilamiz bilan tanish bo'lib, kichkina qizi Lelya ko'pincha biznikida bo'lar, biz xotanim bilan uning kichkina kvartirasiga mehmonga borardik. Uy uchinchi qavatda joylashgan edi. Pastda doktorning katta kvartirasi bo'lib, shanba kunlari bir necha marta bo'lganman. Sofya Andreyevna, doktorning rafiqasi huzurida adabiyotchilar va musavvirlarning ehtirosli muxlisasiga atab kechalar o'tkazishar, she'rlar o'qishar, keyin kechki ovqatni tanovul qilishardi. Shuningdek, u yerda A.P. Chexov ham, uning akasi, rassom Nikolay va I. Levitan, bir so'z bilan aytganda, bizning uncha katta bo'lmagan «boshlovchilar»dan iborat to'garagimiz bo'lardi. Ular hamisha ham lazzatli ovqatlardan to'yavermasdi bu yoshlar...

Men bir kuni Olga Petrovna huzuriga kirganman. U ikki yashar bolani tog'oraga o'tqazib, yara bosgan qo'lchalarini yuwardi. Bolani qirq yoshlarga borgan irkit juvon ushlab turardi. Go'dakning o'rta va nomsiz

ikki barmog'i butunlay irib ketgandi. U jim turib, hiqillar, ihrar, menga ko'zlarini tikardi: o'ng ko'zi moviy, chap ko'zi targ'il. Juvon hadeb qarg'ar edi: «Eh, sen surgunchi, dangasa! Seni o'ldirsa ham kam!»

Men samovar qaynayotgan keyingi xonaga kirdim.

Ortinga qaytganimda, Olga Petrovna menga odatdagi Xitrovka-ga xos kundalik voqeani aytib berdi: tunash joyining yuvindixonasi-da askarning tilanchi xotinini topib olishgan, u shu chaqaloqni tug'ib qo'ygan ekan. Olga Petrovnani chaqirishganida, onasi allaqachon o'lib bo'lgan. Chaqaloq qonuniy tug'ilgan, shuning uchun yetimxonaga qabul qilishmagan, uni tunab, umr o'tkazadigan tilanchi juvon asrab olgan, shu yo'l bilan sadaqa yig'ib yurgan. Ayol rojdestvo kunlaridan birida mast-alast holda ko'chada uxlab qoladi-yu, bolaning ikki barmog'ini sovuq uradi, keyin irib ketadi. Juvon davolatmaydi, chunki shu holda ko'rganlar ko'proq ehson berishardi-da, o'tkinchilarga uning irib ketgan qo'lini ko'rsatsa... yuragi bo'shlar xayr-sadaqa uzatmasdan qo'ymaydi-da... Sashka Kocherga bir marta politsiyaga duch kelib qoldi, idoraga jo'natishdi, o'sha yerdan Olga Petrovnaning huzuriga yubordilar, uni yaxshi tanir hamda jarohatni bog'lashni yaxshi o'zlashtirgan edi.

Kichkintoy juda yomon, yaramas edi: uch yoshga kirguncha ko'krak suti bilan boqib, keyin ajratishgandi. Bir marta ko'chadan o'tib borayotgan maxfiy politsiya boshlig'i Effenbaxda bu ko'krak suti emadigan chaqaloqqa yordam berishini so'rashdi.

– Chaqaloq deysanmi? Chaqaloqdan ko'ra kattaroq ko'rinadimi, deyman...

Bola latta-putta orasidan boshini chiqarib, cho'ltoq qo'lini cho'zadi, xuddi bir narsa so'rayotganday...

– Bu nima qiliq, la'nati?.. La'nati ablah... Daf bo'l...

Ish bolakayni nozirxonaga jo'natish bilan tugadi, u yerdan tunash joyiga yuborishdi. Sashka Kochergani kasallik belgilariga qarab, Myasniskiy kasalxonasiga o'tkazishdi va shundan keyin uni tunash joyida ko'rmadilar.

Ko'p o'tmay Koskani qo'lidan ushlab, tilanchilikka boshladilar – «piyodalar» qatoriga o'tkazishdi. Koskaga tungi yotoqxonaga qorovuli Ivan bobo g'amxo'rlik qilardi, onasiday uni o'zi bilan birga yoz bo'yi qo'ziqorin terishga olib yurardi. Onasi o'lgandi, bola esa 22-fevralda tug'ilgan edi, shuning uchun bobo uni Ivan Kosyan deb cho'qintirdi.

– Kosyan taqvodor! – dedi chol uni g'alati fe'li uchun: u hech qachon yolg'on gapirmasdi.

Chol ham xuddi shunday edi.

– Rost yashash kerak, yolgʻon bilan yashab boʻlmaydi! – derdi u Sashka Kochergaga. Koska quloq solar va jimgina tinglardi.

Chol uch yil Koskani qoʻlidan ushlab, qish oylarida cherkov eshigi oldida turar, yozda u bilan Sokolnikiga borib, olisdagi Losina orolidan qoʻziqorin terib, shu bilan kun kechirishardi. Shu yerda Koska oʻzining onasi toʻgʻrisida bor haqiqatni bilib oldi. Onasi qishda kir yuvish bilan shugʻullangan, qayerdadir Toshkent ortida xizmat qilgan askar eridan maktublar kelar, u ham yozda qoʻziqorinlar terib, ularni Oxotniy bozoriga olib borardi. Koska olti yoshga toʻlganida, chol kasalxonada vafot etdi. Koska arzon tunash joyida yolgʻiz qoldi. U dadil, pishiq boʻlib, oʻrmon hayoti uni kuchli va chidamli qilib tarbiyalagan edi. Kechalari restoranlar oldida sadaqa soʻrar, «sarpoychan»ligiga ishon-tirish uchun qor ustiga oyoqyalang yugurar, burchakda oʻrtogʻi kigiz etikni ushlab turardi. Keyin choʻntakkesarlikka oʻtdi, Suxaryovkada «ishlaydigan» boʻldi, vagonma-vagon kezar, ammo oʻzi hech qachon choʻntakka tushmas, faqat «olib qochuvchi» vazifasini ado etar, yaʼni hamyonni berishar, u esa olib qochardi. Koskaga qatʼiy ishonardilar: hech qachon bir tiyin ham olmasdi. Keyin qorovullikda turadigan boʻldi. Shunda mirshab soʻrab qoldi: «Sen bu yerda nima qilyapsan, yigitcha?» U esa bor haqiqatni aytib berdi: «Qorovullik qilyapman. U yerda bizning bolalar doʻkondan shaytonni haydab chiqarishyapti».

Oʻgʻrilar rostgoʻyligi uchun Koskani bir necha bor kaltakladilar, ammo u baribir aytganida turib oldi. Bolada bunday rostgoʻylik tuygʻusi qanday yashab qolgan – hech kim bilmasdi. Marhum chol qoʻziqorin terar ekan, bu fazilatning sababini oʻzicha izohlagan edi:

– Kosyan deb atadim – chunki hech qachon yolgʻon gapirmaydi. Bundaylar uch yilda bir marta tugʻiladi... Kosyanlarning hammasi rostgoʻy boʻladi.

Kosko uning bu soʻzlarini tez-tez eshitar va yanada koʻproq rostgoʻyga aylanar edi.

Chol dunyodan oʻtdi, Koskani tunaydigan joydan haydab yuborishdi. U daydilar yashaydigan jamoada yashab, toʻdasi bilan bozorlarda yurar, axlat oʻralarida yashar, Qizil deraza ostidagi boʻm-boʻsh yertoʻlalar ularning maskani edi. Eski maydondagi minoralar, Sokolniki bogʻlari, issiq paytlari «har bir butaning tagi tunashga qulay» joy boʻlar edi.

Ularning sevimli joyi Sokolniki adog'i, Shirayev dalalari bo'lib, u yerga Moskva kanalizatsiyasida ishlatish uchun enli qalin cho'yan quvurlar olib kelishgandi.

Bu yerda yoshi katta daydilar ham, uy-joyi yo'q bolalar ham yashar edi. Agar kunduz kuni quvurlarning ichiga qaralsa, latta-putta, somon, payraxalar, dag'al gazlama, afisha qog'ozlarini ko'rish mumkin edi... Tunda uxlaydigan daydilarning yotoq joyi edi bu.

Koska o'zining to'dasi bilan shu yerda yashardi. Keyinchalik eski vodoprovodning yerto'lasi Balkanga «ko'chib o'tishdi». Shu tariqa mayda o'g'rilik bilan shug'ullanuvchi sayoq bolalar bir amallab topib yutinar va yashab qolardi. Ularning ko'pchiligi Rukavishnikov axloq tuzatish maskaniga tushib qoldi, aksariyatini vatanlariga jo'natib yuborishdi. Ammo to'da tobora o'sib borar, xilvat, pastqam joylarni to'ldirar, u yerda tilanchilik, yo'qchilik urchib ketar, qochoq bolalarga qarab bo'lmas, ustaxonalardagi go'daklar hayoti chidab bo'lmas darajada edi. Kim ham mast-alast etikdo'z qo'lidagi qalin yog'ochi bilan kallasiga urganiga chiday oladi? Bunday bolalarni qishloqdan keltirib, shartnoma asosida bir yillik o'qishga berishar, shu bilan bita nonxo'r kamayganiga shukur qilishardi! Bularning hammasi ham besh yil mobaynida yarim och, yalang'och holda kaltaklarga chiday olmas edi. Kun bo'yi yarim och-nahor yurgan, oyoqyalang yoki yirtiq-yamoq kiyim, juldurvoqi liboslar bilan qishni o'tkazgan bolalar ko'chalarda emin-erkin yurgan bolalarni ko'rib, ularga ergashib ketardi... Shu bois xilvat joylarga qochib ketishardi, chunki endi na sovuq, na ochlik, na turma, na urish-so'kish aslo qo'rqinchli emasdi... Tunda axlat qutilarida uxlash yoki yerto'lalarda tunni o'tkazish qahri qattol xo'jayinning sovuq somoni ustida it yotish, mirza turishdan ko'ra afzal ko'rinar edi. Bu yerda esa qancha xohlasang yotaverasan, qursoq non so'ramaguncha hech kim seni uyg'otmaydi, etik bilan tepib, so'kishga ko'mib yubormaydi.

– Shuncha uxlaysanmi, ablah! Tur o'ringdan, tekintomoq! – chiyilladi beka.

O'n yoshga yetib-yetmagan «tekintomoq» o'zining ish kunini boshlar, qor ustiga yalangoyoq yo'l bosar yoki loy kechib, yoki axlat o'rasiga o'zidan katta bo'lgan jomni ko'tarib borardi.

Olga Petrovnaga yana bir marta o'zining bemorini ko'rishga to'g'ri keldi. U Strastnoy ko'chasidagi bekatda qachon to'daga te-

gishli bolalar hamyonni berar ekan, deb kutib o'tirar edi... U Olga Petrovna maydonni kesib o'tgani, unga tegishli bolalar bir-biriga hushtak chalib, doyalik sumkasini olib qochganini ko'rdi. Olga Petrovna zorlanish ovozi bilan umidsiz holda qichqirib yubordi...

Bir daqiqadan so'ng Koskaga sumkachani keltirib berishdi va u oyog'ini qo'lga olib, zing'illab ketdi. Lekin shartlashilgan Bronniydagi Polyakov bog'iga, bolalar odatlanib qolgan joyga emas, balki Truba xiyoboniga, keyin Pokrov, u yerdan esa Myasniskiy qismiga o'tib, darvoza oldida, bir chekkaga o'tirdi. Sumkani juldur kiyimlari ortiga yashirdi-da, kuta boshladi.

Nihoyat Olga Petrovna ko'rindi, u qandaydir gendiraklayotgan edi... Ko'zlari yoshlangan, qizarib ketgan... Darvoza oldiga... hovliga o'tdi... Koska uning ortidan chopib, tor zinapoyada yetib oldi-yu, tovush berdi:

– Olga Petrovna.

To'xtadi. So'ray boshladi:

– Nima gap, Koska? – o'zi esa yig'lar edi...

– Olga Petrovna, mana sumkangiz, hammasi bus-butun. Biror narsaga qo'l tegizilmagan.

– Bu butun hayotimdagi eng baxtli kun edi, – deb hikoya qilgan edi Olga Petrovna menga.

Ma'lum bo'lishicha, sumkada asbob-uskunalardan tashqari davlatga qarashli pullar ham bo'lgan ekan. Sumkaning yo'qolgani uning uchun halokatli edi: ish sudda ko'rilardi!

– Koska qo'limga sumkani tutqazdi-yu, o'zi g'oyib bo'ldi... Men ortidan chopib, hovliga kelganimda, u allaqachon darvoza oldida edi, so'ng yugurib, qochib ketdi, – deb gapini davom ettirdi u.

Oradan bir yil o'tgach, u menga Koskadan kelgan yagona maktubni ko'rsatdi. Xatda Koska (maktub uning aytib turgani bo'yicha yozilgan edi) o'zining «cho'ntakkesar»laridan qochishiga to'g'ri kelganini ma'lum qilgan edi: «Chunki ularni aldadim, ularga rost gapirish mumkin emasdi... Yaroslavlga vagonlar ostiga kirib qochdim, u yerdan yozda Astraxanga borib qoldim, baliq korxonalarida ishlayapman. Keyin kemaga olishga va'da berishdi. O'qishni o'rganib oldim», – deyilgan edi maktubda.

Bu Koska to'g'risidagi oxirgi ma'lumot edi.

Olga Petrovnaning vafotiga ancha vaqt bo'ldi...

1923-yil. Uy boshqarmasiga boryapman. Eshik oldida bir kishi bilan to'qnash kelib qoldim. Egnida qora shinel va boshida tyulen mo'ynasidan tikilgan shapka.

– Kechirasiz.

– Kechirasiz.

U chap qo'lini ko'tarib, eshikni ushladi va men ko'z oldimda cho'zilgan ikki barmoq – ko'rsatkich va nomsiz barmoqlarni ko'raman, xolos, o'rtadagi ikkitasi yo'q. Kulimsiragan, yoqimtoy, soqoli qirtishlab olingan yuz va shu barmoqlar...

Bir-birimizdan kechirim so'rab, ajralishdik.

Stol atrofida boshqaruvchi. O'tiraman.

– Siz hozir qiziq odamni uchratdingizmi?

– Ha, qo'lida barmoqlari yo'q. Xuddi cho'ltoqning o'zginasi!

– Barmoqlari nima degan gap? Ko'zini-chi: biri – moviy, boshqasi targ'il... Ikkala ko'zi ham kulib turadi...

– Shu yerlikmi?

– Afsuski, bunday emas. Xona olishdan bosh tortdi. Uchinchi kuni uni oltinchi xonaga order bo'yicha olib borishdi, lekin bugun rad etdi. Qanchalik xushmuomala! Uzoq Sharqqa, suzish uchun chaqirishmoqda. O'zi endigina keldi-yu, darrov chaqirishyapti. U dengizchi, butun umri dengizda o'tgan. Amerika, Yaponiya, Hindistonda... O'zi bizning eski 1905-yil inqilobchisi... Xizmat ko'rsatgan. Qanaqa tavsiyanomalar! Bunday aholi vakiliga achinasan, kishi... Biz uni hozir raislik vazifasiga qo'yar edik...

– Qiziqmikan? – deyman.

– Ha, judayam. Mana menga esdalik qolgan. Unga o'zimizning so'rovnomamiz blankini bergan edim. Yozdi, men esa gumonsiradim-u, qayta o'qidim. U esa: «Hammasi to'g'ri. Qanday yozilgan bo'lsa, haqiqatan ham shunday. Men yolg'on gapira olmayman», – dedi.

Boshqaruvchi menga o'zimizning uy so'rovnomamizni uzatadi. Undagi ruknlarni o'qiyman:

«Kosyan Ivanovich Ivanov, 45 yosh.

Tug'ilgan joyi: Moskva, Xitrovkadagi Romeyko uyi.

Onasi: askar xotini, tilanchi.

Otasi: noma'lum».

So'rovnomaning tepa qismida, «vazifasi» degan rukn tepasida «Uzoqqa suzish shturmani» deb ko'rsatilgan edi.



SUXARYOVKA

Suxaryovka – urush qizi. Smolensk bozori – vabo o‘g‘li. U Suxaryovkadan 35 yosh katta. 1777-yilda dunyoga kelgan. Moskva vabosidan keyin hokimiyatdagilar qo‘lga tushgan narsalarning barini faqat Smolensk bozorida yakshanba kuni kasallik tarqalmasligi uchun sotish kerakligini ta‘kidlab buyruq chiqarishgan edi. 1812-yildan so‘ng moskvaliklar Moskvaga qaytishar ekan, o‘zlarining talangan narsalarini axtara boshlagan paytda general-gubernator buyruq chiqardi. Unda «barcha narsalar qayerdan olingan va bu paytda kimning qo‘lida bo‘lsa, xususiy mulkning ajralmas qismiga aylanib qolishi kerak. Har bir egasi uni sotishi, lekin haftada faqat bir marta, yakshanba kuni, bitta belgilangan joyda, aynan Suxarev minorasi qarshisidagi maydonda sotuvga chiqarishi mumkin», – deb ko‘rsatib o‘tilgan edi. Va birinchi yakshanbadan boshlab talab olingan narsalar ulkan maydonda xuddi tog‘day uyulib qoldi. Moskva ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan bozorga aylandi.

Va bu asrlar bilan bo‘ylashgan Suxaryovkani tantanali ochilish marosimidan iborat edi. Suxarev minorasi Pyotr I tomonidan o‘qchi polkovnik Suxarev sharafiga qo‘yilgan edi. Ushbu polk o‘qchilar isyoni paytida Pyotrga yagona tarafdor bo‘lib qolgan.

Suxarev minorasi to‘g‘risida juda ko‘p rivoyatlar tarqalgan: «jodugar Bryus» u yerda qo‘rg‘oshinni oltinga aylantirgan hamda iblis tomonidan yozilgan qora kitob uning maxfiy joylarida saqlanar emish. Yuzlab turli-tuman rivoyatlar, afsonalar bir-biridan ko‘ra bema‘ni saf-satalardan iborat.

Yakshanba kunlari minora yonida savdo gurkiraydi, unda xuddi bayramdagidek butun Moskva oqib keladi, shuningdek, Moskva atrofi hamda kelib-ketuvchi qishloqilar ham to‘lib ketadi.

Sheremetyev kasalxonasining hashamatli saroyi qarshisida yuzlab chodirlar faqat bir kunda, faqat tunda qad ko'taradi. Tong oqargandan qorong'i tushguncha maydonda qanchadan qancha kallalar dengizi bu yerda ikki tomondan keng, mo'l maydonda tor yo'lak hosil qilib, Sadovaya ko'chasida chayqaladi. Odam ko'p, bir-birini turtib, surinadi, har birining o'z maqsadi, niyati bor.

Qadimda bu yerga moskvaliklar o'zlarining o'g'irlangan narsalarini axtarib kelishardi, harakatlari behuda ketmasdi. Chunki Suxaryovka azal-azaldan o'g'rilik mollar to'planadigan joy edi. Yakka o'g'ri bu yerga o'g'irlangan o'ljalarini «ishlatilgan» narsalar niqobi ostida sudrab kelar, olibsotlarlar ularni ko'tarasiga olishardi. Anjomlar Suxaryovkada arzon-garov sotilar, «har ehtimolga ko'ra» deb xarid qilinardi. Suxaryovka «naridan beri» tarzida yashar, ko'pincha baxtsizlikka duch kelardi. Suxarev savdogari mollarni biror xonadonda baxtsizlik ro'y berib, unda yashovchilar hech vaqosiz qolgan bo'lsa yoki muhtoj kishi narx-navoni bilmasa, ba'zan bu odamdan tutun hidi kelib tursa, ba'zida qon to'kib kelgan bo'lsa, achchiq ko'z yoshlari to'kish-ku, doimiy bo'ladi, ana shularning mollari sotilardi. Bu yerda narx qo'ymay olishar, juda arzon sotishardi.

Suxaryovkaning shiori «Bir tiyinga besh so'm»dan iborat edi!

Bu yerga birovni muhtojlik, zarurat, boshqa birovni zarurat, yana boshqasini sport haydab kelar, lekin baribir shior «Bir tiyinga besh so'm»dan iboratligicha qolaverardi. Bittasi zaruriyat bo'lib qolgani uchun oxirgi arziyas matohni sudrab kelar va arziyas narxga berib yuborar edi; olibsotlarlar o'rab olishardi yu, sal bo'lmasa, kuch bilan tortib olishar edi. So'ng shundoq ko'z oldida uch barobar qimmatga sotishardi. O'g'ri esa tezroq sotib yuborsa kifoya! Shu tariqa u olibsotarga o'zining o'ljasini tashlab ketishdan ham qaytmasdi. Xaridor bu yerga cho'ntagida qolgan oxirgi so'mi bilan qadam qo'yar, chunki bu yerdan arzon-garov xarid qilish mumkin, aksar hollarda tovlamachilar aldab ketishardi. Bekordan bekorga ko'yлак, mebel va boshqa narsalar to'g'risida «Suxaryovka ishi», deb aytishmagan.

Bu yerga moskvalik boy-badavlat kishilar ham xuddi o'sha «Bir tiyinga besh so'm» shiorida aytilgan aqchalarni axtarib kelishardi.

Men ko'p yillar davomida maydonlarni kuzatdim, Bakastov va boshqa traktirlarga kirdim. U yerda ertalabdan o'g'rilar va daydilar

bilyard o'ynar yoki qimorga pul tikishar, biks, fortunka o'ynashar edi. Ularning maishiy hayoti bilan tanishib, turli-tuman qirralarini o'rgangan edim. Ko'pincha hammadan tinch, Grigoryevdan sal narida joylashgan, Suxarev ammasi uchun kamtarin bo'lgan traktirga tashrif buyurar edim, bu yerda o'yin yo'q: demak, o'g'rlar kirmasdi.

Men hali yosh, tarbiyali, o'zi o'qib ma'lumot olgan Grigoryev bilan do'stlashdim. Uning xotini tamomila ziyoli ayol, kassa oldida turgan-cha, pul hamda traktirlardagi mis tangalarni yig'ib olardi. Ularni oppoq ko'ylak kiygan yaroslavliliklar, uddaburon olg'irlar uloqtirishgan edi.

Kamina, odatda, kirish joyining o'ng tomonida, deraza oldida xo'jayin stolchasi ortida Grigoryev bilan o'tirar hamda u bilan soatlab suhbatlashar edim. Shunda stol oldiga uning o'g'li, gimnaziyaning birinchi sinf talabasi yugurib kelar hamda ehtiros bilan maydondan sotib olgan kitobini ko'rsatardi (u «sayohat» mavzusidagi kitoblarga qiziqar edi), so'ng pul olardi-yu, yana yangi kitob bilan paydo bo'lish uchun tezgina ko'zdan g'oyib bo'lardi.

Atrofda pastak chekish zallarida mehmonlar tentirar, oqshomga yaqin esa ichib olgan odamlar kelishar edi. Ular orasida mayda mollar bilan savdo qiluvchi olibsotarlar u yoqdan-bu yoqqa zir yugurar, stollar atrofida tasodifan kirib qolgan tilanchilar daydir, rohibalar krujkalarini ko'targan-cha shovqin ko'tarishardi. Bu rohibalar xayr-sadaqa yig'ar edilar.

Yirtiq-sirtiq kiyimli kishi yugurib kiradi. Janjal. Postda turgan savlatli, baqaloq mirshabni chaqirishadi. U gap nimadaligini bilib, yerga tupuradi, keta turib, baland ovozda to'ng'illaydi:

– Besh so'm uchun hukumatni bezovta qilish nimasi!

Kamdan kam hollarda izquvarlar kiradi, lekin bu yerda qiladigan ishlari yo'q. Ularni menga Grigoryev ko'rsatdi hamda talay gaplarni aytdi. Keyinchalik aytganlari menga asqotdi.

Grigoryevning katta ajoyib kutubxonasi bor edi. U Suxaryovkaning o'zida jamlangan edi. Uning talaba o'g'li 1905-yil inqilobida ishtirok etgandi. O'sha yili podsho askarlari tomonidan otib tashlandi. Jasadini Presnen hovlisining bir qismida yotgan murdalar orasidan topishdi. Otasi bu kulfatni ko'tara olmay vafot etdi. Aytish kerakki, Grigoryev ilgari ham shubha ostiga olingan va ko'pincha politsiya bilan ochiqchasiga urishar va izquvarlarni ko'rishga ko'zi yo'q edi...

1881-yilga qadar haqiqiy izquvarlar yo‘q edi. Chunki maxfiy agent politsiyasi idora sifatida faqat 1881-yilda tashkil qilindi. Shunga qadar ayg‘oqchilar faqat ikki pristav – Zamayskiy va Muravyov hisoblanar, ularning o‘g‘rilardan iborat yordamchilari bor edi. Mayda o‘g‘riliklar bilan kelishib ketishar, ammo yirik jinoyatlarni ochishlari hamda ulkan jinoyatchilarni tutishlari lozim edi. Bu ikkovidan tashqari soch-soqoli qirtishlab olingan tiqmachoqday keksa ayg‘oqchi Smolin bo‘lib, eng muhim ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan kishi edi. Uning harakat hududi maydoni Suxaryovka bo‘lib, shu yerda ularning iplari hamma yoqqa taralib ketgan va u faqat yakka o‘zi bularning barini bilardi. Uni «Suxarev gubernatori» derdilar.

U o‘n yillardan buyon o‘zining 1-Meshanskdagi ikki qavatli shaxsiy uyida kampir xizmatkori bilan yashardi. Pashsha va suvaraklardan tashqari, kvartirada bitta jonli maxluq yashar, bu o‘zi bilan birga qariy boshlagan katta toshbaqa bo‘lib, uni o‘z qo‘llari bilan ovqat berib boqar, tizzasida o‘tirg‘izar, toshbaqa ham yalang‘och boshini chiqarib, unga aqlli ko‘zlarini tikib, termilar edi. U deyarli yolg‘iz yashar, kvartirasida ko‘p qimmatbaho narsalar borligini hamma bilar, lekin u hech kimdan qo‘rqmas edi. Ortida tog‘day bo‘lib tomteshar o‘g‘rilar turar, ularni qanday qo‘riqlasa, ular ham uni xuddi shunday muhofaza qilishardi, ayg‘oqchini imkon qadar ko‘z qorachig‘iday asrar edilar. Uyida hech kim bo‘lmas; faqat pichan g‘arami ustida qabul qilar edi. U o‘g‘rilar, tomtesharlar bilan do‘stlashar, asosan g‘irrom qartabozlar bilan orasidan qil o‘tmas, qimorxonalarda bemalol bo‘lar, undan aslo tortinmasdilar. U hammani bilar, hamma narsani ko‘rar va indamas edi. Bordi-yu boshliqlar biror yirik o‘g‘rilikni axtarishni topshirsa, bunday kishi mashhur shaxs bo‘lsa, axtarar, qulfteshar o‘g‘rilarning o‘zlari topar va odamlari sotib qo‘yar edi...

U bilan g‘alati voqea ro‘y bergandi: bir vaqtlar Moskvadan Kremlning mis zambaragini o‘g‘irlab ketishadi. O‘n pud og‘irlikdagi bu zambarakni uch kun ichida topish uchun idoradan topshiriq beriladi. U barcha o‘g‘rilarni oyoqqa turg‘izadi.

– Zambarak menda bo‘lsin! Antropov jarligi oldiga keltirib qo‘yinglar. Supurgi o‘t o‘sadigan jarlik oldida... Qayerga qo‘yish buyurilgan bo‘lsa, zambarak o‘sha yerda tursin...

Ertasi kuni zambarak haqiqatan ko'rsatilgan yalanglikdagi xarobada turardi. Rahbariyat uni Kremlda oldingi joyiga, devor yoniga joylashtirdi. Smolin tashakkurnomaga sazovor bo'ldi.

Bir necha yillardan so'ng Smolin uchun zambarak boshqa joydan o'g'irlab olib kelingani ma'lum bo'ldi. Kreml devorining boshqa tomonidan yirik o'g'rilar tomonidan keltirilib, Antropov jarligi yoniga olib kelingan, Kremlga qaytarildi... Birinchisi esa shu bilan domdaraksiz yo'qoldi.

Smolin ancha yoshga kirib, dunyodan zurriyodsiz ko'z yumdi. Undan keyin faqat toshbaqasi yashab qoldi. O'sha paytda bor-yo'q mol-mulki xatlanganda, ro'yxatda hamma narsa ham qayd qilinmadi, albatta. Faqat yotoqxonasidan ikki paqir oltin va kumush soatlar, zanjirchalar, portsigarlar topildi.

Qulfteshar o'g'rilar va kissavurlar hamdardlik bildirishdi:

– Bizning qanchalik qimmatbaho narsamiz yo'qoldi! Axir u bor boyligimiz, davlatimiz edi-ku!.. Agar Andrey Mixaylovich o'lganini bilganimizda – qo'limiz bilan bergan bo'lardik!

Ayg'oqchi Smolin o'n yillar mavzelarda o'ralashib yurdi. U to'g'risida Suxaryovkada juda ko'p rivoyatlar yurardi. Rus-turk urushi boshlanmasdan Medinsev uyida Zlatoustensk muyulishida mutlaqo yolg'iz boy-badavlat hind chol yashardi. U qanaqa odam bo'lgan – hech kim bilmasdi. Kimdir sharq mollari bilan savdo qiladi, kimdir uni aksiyador, ya'ni muddati to'lmagan vekselni hisobga olish va haqni oladigan kishi, deb hisoblaydi. Aftidan, unisi ham, bunisi ham o'ziga yarasha asosga ega. Uning huzuriga sharqqa mansub qandaydir odamlar kelar, u boshdan oyoq sirli bir maxfiylik bilan qurshalgan edi. Sharqqa mansub odamlar o'sha paytda Ilin va Nikolsk atroflarida yashardi. U esa shunday muyulishda istiqomat qilardiki, kunduz kuni u yerda savdo-sotiq avjiga chiqar, tunda esa biror jon ko'rinmasdi. Kimning nima ishi bor – hindi yashasa yashayveribdi-da! Moskvada qanday xalq yo'q o'zi.

To'satdan hinduni kvartirada o'ldirilgan holatda topishdi. Sirtidan qaraganda, hammasi risoladagidek ko'rinar, talonchilikning biror izi yo'q edi. Burchakda, stolcha ustida bir arzin oltindan Buddaning quyilgan haykali turar, qulf buzilmagan edi. Jinoyatchilarni axtarish maqsadida politsiya paydo bo'ldi. Qimmatbaho mollarni sandig'i bilan Sirot sudi omborxonasiga jo'natishdi; brilliantlar, kumush, marva-

ridlar, feruza toshlar – hammasi o‘lchovli edi! Merosxo‘rlarini chaqirish maqsadida e‘lon chop etishdi. Suxaryovkada savdo avjiga chiqdi! Feruzani hovuch-hovuchlab sotib oldilar, marvaridlar... brilliantlarni...

Bo‘g‘ib o‘ldirilgan hinduning ishini go‘yo suvga uloqtirishdi, hech kimni topisholmadi. Ikki yildan so‘ng marhumning qonuniy merosxo‘ri paydo bo‘ldi. U ham hindu, ammo yevropacha kiyingan edi. U pul bilan keldi, meros to‘g‘risida lom-mim demadi, ammo maqsadi bitta – amakisining qotilini topishdan iborat edi. Uni darhol Smolin hamda politsiya qaramog‘iga topshirishdi.

Smolinning birinchi ishi – uni sharq odamlari Paxrova va Abaz bilan tanishtirishdan iborat bo‘ldi. Hindu izlarini topish uchun o‘g‘rilar tegirmoniga uni olib borishi belgilandi, o‘sha paytda rasm-rusumga kirgan oyoqni taqillatish, qo‘shiq aytishga o‘rgatdi... Yigitni chalkash-tirishdi, boshini aylantirishdi. Ajoyib kunlarning birida u tunda qimorxonada makonidan uyiga qaytar ekan, to‘satdan yo‘qoldi. Yo‘qoldi, vassalom. Gapirishdi, so‘ng unutishdi.

Ko‘p yillardan so‘ng hamma gapdan voqif N.I. Pastuxov bilan qandaydir do‘stona suhbatda hindu to‘g‘risida gaplashib qoldim. Ma‘lum bo‘lishicha, u bu haqda ancha-muncha bilar, «Zamonaviy xabarlar» gazetasida ham o‘sha mahallarda yozgan, ammo hindu to‘g‘risida general-gubernator tomonidan uni tilga olish man qilingan ekan.

– Lekin baribir bu hindu kim edi? – deb so‘rayman men.

– Bu mujmal ish. Aytishlaricha, qandaydir dushman mazhabdagi tabaqaning yashirinib yurgan boshlig‘i emish.

– General-gubernator u haqda yozishni nima uchun man etgan?

– Chunki Zakrevskiy yotoqxonasida oltin Budda haykali turardi!

– Nahotki Zakrevskiy Budda diniga e‘tiqod qilsa?

– Bo‘lmasam-chi, Zakrevskiy shu Buddani olib kelgandan beri shunday bo‘lgan! O‘rta bo‘yli, keng yelkali, soqoli qirtishlab olingan, uringan qora paltoli, lak surtilgan soyabonli bosh kiyim kiygan, savlatli va jiddiy, sipo, kamerdinerga aniq o‘xshab ketadigan Smolin Suxaryovka bo‘ylab sezilmay qadam tashlab boradi. O‘g‘rilar u ko‘ringan hamon g‘oyib bo‘lishadi. Agar ko‘rib qolishsa, uni allaqachon payqab qolishganini bilishadi. Sariqdan kelgan, olifta, po‘rim kiyingan kissavur Pashka Ryabchik do‘kondan nimanidir o‘g‘irlash bilan band edi, yashirinmoqchi bo‘ldi, lekin ayg‘oqchining nigohi uni

to'xtatib qoldi. Bir aylanib, Ryabchik yoniga borib qoldi-yu, Smolin paltosining cho'ntagiga nimanidir tashlab yubordi.

– Shuchka shu yerda... xotini bilan birga... bor pulini yutqazdi... g'azab bilan ishlayapti...

– Annushka bilanmi?

– Ha-ya... Yurka Zamayskka tushdi... Qimorbozlar pul bilan! Keksalardan sotib olmoqda... Vyun... Goliyf... Kukish va Saplyanning o'zi. Shilib olyapti, ana, qaragin...

Tezda bir ko'rindi-yu, g'oyib bo'ldi. Smolin kumush soatni shiminig cho'ntagiga soldi.

Uzoqdan tiqilinchda baland bo'yli, gilamnusxa ko'ylak kiygan ayolga qaradi. Uning yonida echki soqolli Shuchka bor edi. Ayol ham uni ko'rib qoldi-da, soqolliga asta nimanidir shivirladi. Bir daqiqadan so'ng Shuchka xuddi ko'rmay qolgan kishi kabi Smolinning yonida paydo bo'ldi.

– Bugun ichak-chavog'imgacha yechintirishdi... Vaska Tyomniyga yutqazdim!

– Hechqisi yo'q, ko'proq jahling chiqib o'g'irlashni boshlaysan! Shuchka uning cho'ntagiga hamyon solib qo'ydi.

– Annushka ishladimi?

– U... Nima bo'lgan, o'zim ham bilmayman...

– Saplyaga nima qilgan o'zi?

– To'g'ridan to'g'ri to'layman, u tushmagan, balki Tyomniyning ko'nglini topgan! Shunaqa ish bo'lgan! Sashka Utyugdan bugun olti ming olishdi...

– Sashka deysanmi? Axir u Sibirga surgun qilingan-ku!

– Qanaqasiga! Butun qish bo'yi Xitrovkada sanqib yuribdi-ku... kasallangan... Mark Afanasyev boqib turibdi. Chorshanba kuni esa biroz oliftagarchilik qildi. Aytishlaricha, Guslitsada kim bilandir savdogarni shilib ketgan... Bir tiyinga oltita kattasidan bergan... Saplya irg'itgan, Arxivarius ham uloqtirgan. Nazarov esa tilgan...

– Rasplyuyev!

– Ha, ana shu Saplya bilan birga chodir yonida turibdi... Andrey Mixaylovich, birinchi omadni senga berdim! Hech bo'lmasa, baxtim yurishi uchun bir tiyin bersang-chi...

– Ma, muhtojlik sezmay yashagin! – Va hamyonni qaytarib berdim.

– Ana, rahmat! Bir umr unutmayman... Axir birinchi uzatilgan bay har qanday puldan qimmatliroq... Endi yutasan, omading keladi! Ha! Sashka esa bir chaqasi qolmay yutqazdi. Unga ertalab yuz so‘mlik so‘lkavoy berishgan, u esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri Nijniy vokzaliga qarab... Saplya ertaga yangi tegirmonni ochmoqchi, kattagina.

Smolin Saplyaning oldiga keladi.

– Omad yor bo‘lsin! Qachon yangi uylarga chaqirasan?

Saplyaning basharasi cho‘zilib ketganday bo‘ldi.

– Sashkani bugun oltita kattasiga tushirishibdi! Xo‘sh, yangi uylarga qachon?..

Keksa Saplya butunlay shoshilib, o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

– Saplya! Nima uchun uning bor-yo‘g‘ini olib qo‘ygansan? Qandaydir polyak amaldorlarining portretlari bor emish... Senga ularning nima keragi bor?

– Ahmoqlar uchun, Andrey Mixaylovich, ahmoqlar uchun... Mehmonxonaga osib qo‘yaman – avlod-ajdodlarim o‘rniga o‘tadi... Shunday, payshanba kuni astoydil iltijo qilamiz, o‘sha yerga, mening eski kvartiram ustida bugun oppoq qavatni egalladim, kutaman...

– Sashkani Volgaga kuzatib qo‘ydingmi?

Saplyadan undirgan hamma narsadan boxabar holda yana oldinga odim tashlaydi, zargarlik chodirlariga kiradi. U yerda g‘irromlarni yutib olgan pullari oltinlarga aylanadi, yana tegirmonlarda o‘ynalishi uchun...

Har bir kishi bilan gaplashadi, o‘z bilimi bilan hammani ajablantiradi, ulardan ko‘proq narsa chiqarib oladi, undiradi...

– Abazning yonida turgan anovi olifta kim?

– Nevalik g‘oz... nomi nima edi...

– Kixibarjami?.. U nega bu yerda turibdi?

– Savdogarlardan birini ovlamoqchi... «Slavyan bozori»da qirq so‘mlik xonada to‘xtagan. Karaulov ham ular bilan birga...

Smolin yoymachilar bo‘ylab xuddi soya kabi o‘rmlaydi.

Kamarni ko‘rib qoladi.

– Xo‘sh, sening qo‘g‘irchog‘ing qanday?

Smolin qayerda nima bo‘lganini emas, nima qayerda bo‘lishini ham biladi... Biladi-yu, indamaydi, toki boshliqlar unga shipshimagoncha damini chiqarmaydi!

* * *

Suxaryovkada hokimiyatdan qo'llab-quvvatlovchi biror kishi yo'q edi, faqat mashhur politsiyachi N.I.Ogarev bundan mustasno. Moskvada faqat shu odamning qora soqoli ko'kragiga qadar osilib yotgan kallasi ko'pincha yakshanba kunlari qadimiy qimmatbaho narsalar bilan savdo qiladiganlar chodiri oldidagi olomon ichidan yaqqol ko'rinib turardi. Chodirlardan u vaqti-vaqti bilan g'alati devoriy soatlarni xarid qilardi. Va har doim ular uchun naqd pul to'lar, savdogarlar ham yagona bo'lsa kerak, undan mutlaqo ortiqcha so'ramas edilar. Uning devoriy soatlarga nisbatan ehtirosi baland edi. Kvartirasi devoriy soatlar bilan liq to'la, ularning ovozi turli-tuman bo'lib, to'xtovsiz tovush chiqarib chalinadi. Shu bilan birga, u turli mamlakatlar politsiyasining karikatura qilingan suratlarini xarid qilardi. Xonalardan birining devorida shunday karikaturalar osilgan edi. Bu mol bilan uni eski, nodir kitob sotuvchilari hamda bunday nashrlarni man etuvchi senzura qo'mitasi ta'minlab turardi.

Ayniqsa, u bir karikaturani qadrlar edi. Devor chizilgan. Uzoqdan sharlar hamda qizil bayroq osilgan minora ko'rinib turibdi (barcha qismlari jamlangan). Devorda qandaydir rangdor latta-puttalar ilingan bo'lib, orqa oyog'ida tik turgan achchiqlangan it ularni olmoqchi bo'lib irg'ishlaydi, ammo ololmaydi.

Tagso'zi: «Arapkadan lattaga qadar uzoq» (o'sha paytda Peterburgda ober-politsiyachi Trepov, Moskvada esa Arapov bo'lgan).

– Ana, bu telbalarni qarang, – degan edi N.I. Ogarev.

Lekin buni kim ham anglab yetardi! Shu tariqa kalaka qilish sezilmay o'tib ketsa koshki edi... Men «Budilnik»da bu nomerni ko'rgan va unchalik e'tibor bermagan edim. Shunda mirshablar gazeta tarqatib yurganlardan bir jurnalni terib ola boshlashdi. Ular shunda hamma gapni aytib berishdi. O'sha paytda eski va nodir kitoblar bilan savdo qiladiganlar chodiri o'ttiztagacha edi. Bu yerda istaganingni sotib olishing mumkin. Agar ayrim boblari yetishmaydigan asarning kerakli jildi topilmasa, buyursangiz, bas. Kelgusi yakshanbada topib berishadi. Hatto ko'plab nodir kitoblarni ham aynan shu yerdan topish mumkin. Kitobsevarlar biror yakshanbani qoldirmaydilar. Bu kunga ham nodir va eski kitob sotuvchi bukinistlar tayyorgarlik ko'rishardi! Olti kun davomida tinmay axtarishar, uylar, dala hovlilar, qishloqcha, qo'rg'onchalarni ko'rib, mol axtarishar, butun boshli kutubxonalarni

merosxo'rlardan yoki omadi kelmay «sinib qolgan» kitobsevarlardan xarid qilardilar. «Tezyurar o'qchilar» esa hamma joydan kitoblar sotib olishar, so'ng ularni bukinistlarga pullashardi. Bukinistlar Rojdestvensk hamda Katta Kisel muyulishida, Malaya Lubyana dagi traktirlarda to'planishar edi. Suxaryovkada yakun topgan ushbu kitob birjasida har bir doimiy kitobxon nodir kitob sotuvchilarni bilar va sotuvchilar ham bu mijozlarni: ularga nima kerakligi va to'lovni qay tarzda amalga oshirishni bilardi. Bukinistlarning alohida faxriylari professorlar I.Ye. Zabelin, N.S. Tixonravov va Ye.V. Barsovlar edi.

Bukinistlar nochor, kambag'al talabalarni yaxshi ko'rishar, ular uchun istagancha mehr-oqibat ko'rsatishga urinardilar. Masalan, besh kishidan iborat talabalar guruhi kelar, ular umumiy kuchlari bilan bitta kitob yoki yaqinda nashr qilingan arzon ma'ruzalar to'plamini xarid qilishar, shundan barcha talabalar foydalanar edi. Yoki kitobni ijaraga olishar, kuniga besh tiyindan to'plashardi. Bukinistlar kitoblarni garovsiz berishar, talabalar orasida kitob hech qachon yo'qolib qolmas edi.

Bukinistlar va antikvarlar (oxirgisini «eskichilar» deb atashardi) Suxaryovkaning aslzoda qatlami edi. Ular Spassk kazarmasi yaqinidan joy egallagandi. Bu yerda chayqov bozoriga o'xshash tiqilinch, ur-yiqitlar bo'lmasdi. Ko'pchilik ham toza, ozoda kishilar bo'lib, kolleksiyachilar, kutubxona kitoblarini yig'adigan kishilar, eng asosiysi, mashhur savdogarlardan iborat edi.

Barcha bukinistlarga bir to'plovchi kishi ma'lum bo'lib, u har yakshanba kuni nodir va eski kitoblar bilan savdo qiladiganlar chodirida kuymalanib yurar, uni kitob uyumlari yonida ko'rish mumkin edi. O'zidan so'ng qimmatbaho kutubxona qoldirgandi. U doimo og'ishmay bir narsani hisobga olardi: masalan, kitobni savdolashadi, aytaylik, besh so'mga, ikki so'mga sotishni so'rashadi, bukinistni holjoniga qo'ymay, cho'ntagiga qo'l soladi. Ikkita hamyonni chiqaradi, bittasidan bir so'm oladi, boshqasidan bor tanga-chaqani boshqa hovuchiga soladi-yu, bir so'm-u to'qson uch tiyinni beradi.

– Yetti tiyin yo'q ekan... Mana, oling.

Bu tizimni barcha bukinistlar bilishadi, shuningdek, biror miri ham qo'shmasliklarini bilishadi, shu bois kitobni berishadi.

Bir marta bukinist unga shunday degan:

– Akamizdan tiyinlab o'marishingiz vijdonan ish bo'ladimi?

– Sen hech narsani tushunmaysan! Yil bo‘yi u qanchadan qancha yig‘ib oladi?

Bukinistlar yana bir ajabtovur, xaridorni bilishadi. Suxaryovkada ancha vaqt bir eski xizmatkor yurar, qo‘lida xatcho‘p va arshin ushlagancha yaxshi muqovalangan kitoblarni talab qilar, ular albatta ma‘lum hajmda bo‘lmog‘i lozim edi. Narxini surishtirib o‘tirmasdi. Uning shol bo‘lib qolgan sodda, do‘lvor xo‘jayini to‘shakdan turmasdan shunday kutubxona tashkil etdiki, ko‘rinishiyog unga dalda berib, tinchlantirar edi.

Suxaryovkaning ana shu «aristokratik» qismi keyinchalik ham bukinistlar bilan galma-gal aralashib, nodir narsalar bilan savdo qiladiganlar chodiri kabi qad ko‘tarib turar edi.

Oxirgi hurmatga sazovor xaridorlardan biri Pyotr Ivanovich Shukin edi. Uning o‘zi Suxaryovkada juda kam paydo bo‘lar edi. Tovarlarini uning uyiga olib borardilar. Uning Ilinkadagi omboridagi kabinet eshigi boshqalar uchun yopiq-u, ammo nodir narsalar bilan savdo qiluvchi kishilarga hamisha ochiq edi. Omborga eski-tuski sotuvchilar kattakon qoplar bilan hovliqqanicha bemalol kirib kelar, ularni kabinetga hech narsani so‘ramasdan olib kirishardi. Bir necha daqiqadan so‘ng Pyotr Ivanovich chang-to‘zon ichidan, eski latta-puttalar orasidan jandalarni ko‘targanicha chiqib kelardi. Xaltalardan barcha yaxshi narsalar tanlab olinar, qolganlari esa Suxaryovkada chodirlarda yoki uning yonidagi chipta to‘shamalarida paydo bo‘lar edi. Bu chodirlar ortida chordoqqa tashlanadigan har qanday eski lash-lushlar: siniq mis dasta, shamdonning sinig‘i, eski qandil bo‘lagi, siniq idish, xanjar dastasi bor edi.

Havaskorlar mollarga yopirilar va doimo kerakli narsani albatta xarid qilar edilar. Vaqt-vaqti bilan bu chipta qoplar yonida qo‘ng‘iroq quyadigan zavod sohibi paydo bo‘lar, hammasini birma-bir ko‘zdan kechirib chiqar va eng yaxshi bronza siniqlarni tanlab olar, shu zahoti uni uyiga, o‘zining zavodiga jo‘natar edi. O‘zi esa darhol nodir narsalar bilan savdo qiladigan chodir yoniga yo‘l olib, kumush bo‘laklar yoki bronza laxtaklarini tanlash bilan ovora bo‘lar edi.

– Nima xarid qilyapsiz? – deb so‘rayman ba‘zan.

– Kumush qo‘ng‘iroq!

Suxaryovka uchun bir ko‘ngil ochish degan gap.

Qo'ng'iroqlar jaranglab ovoz chiqaradi. Suxaryovka bo'ylab shivir-shivir ovoza tarqaladi, shu zahoti butun bozor bo'ylab, so'ng shaharda bir-biridan bema'ni gap-so'z hamda yolg'on safsatalar tarqaladi. Begonalarning takrorlagani kamlik qilganday, har biri iloji boricha ko'proq yolg'on-yashiqni qo'shishga urinadi, bunda albatta ishtirok etuvchi shaxs, voqeaning vaqti hamda joyi aniq tilga olingan bo'ladi.

– Bugun ertalab nima bo'lganini eshitdingizmi? Kamen ko'prigi ostida kit sayoz joyga chiqib qolibdi... Ur-yiqit odam to'planibdi!

– Darbonning chopish uchun mo'ljallangan shiyponchasida xotini uch nafar egizak tug'ibdi. Hammasining boshi toychanning kallasiga o'xshar emish!

– Hozir Spasskiy minorasi ag'darilibdi! Hammasi! Soati bilan birga! Faqat yuqorisini ko'ra olasan.

Yangi kishilar bunga chippa-chin ishonadi, haqiqiy moskvalik esa eshitadi, ammo buning yolg'on ekanligini bilsa ham, o'zini bilmaslikka oladi, shu bois kulmaydi, o'zi esa yana sal-pal narsa qo'shishga urinadi. Odat shunaqa:

– Qo'ng'iroq qahr-g'azabiga olyapti!

Yuz yildan beri bo'lmag'ur yolg'on ko'paygan sari qo'ng'iroq ovozi tobora avjiga chiqib ketaveradi, degan irim mavjud edi.

Keyin uchrashib qolishadi:

– Nima uchun minora ag'anab ketdi, deb ovoza qilgan eding? Chopib borib ko'rdim, joyida qadimgiday turibdi!

– Finlandiya zavodida juda katta qo'ng'iroq quyishgan! Ha-ha!

Yetmishinchi yillarda Moskvada gazetalar turli-tuman qo'ng'iroq zavodlari e'lonlari bilan ola-bula bo'lib chiqa boshlaganida, Suxaryovkada yolg'on-yashiq gaplarning tarqalishi to'xtadi, chunki o'sha paytda reklamalar xizmat qila boshladi. Suxaryovkada esa qo'ng'iroq zavodcha sohibi paydo bo'lib, «kumush jarang»ni sotib olish bilan mashg'ul bo'ldi. Uning ortidan yurib, eski-tuski ashyolar sotish bilan shug'ullanadigan kishilar xushomad qilishar, u «bir tiyonga beshtasi»ni izlab yuradiganlar toifasiga kirmasdi.

Bu xaridor qat'iy maqsad – «kumush jarang»ni xarid qilishga ega edi. Unga yana bir «choynak» yaqin, u ham biror yakshanbani qoldirmas, biror tiyinni ayamay chinni, billurni ham, suratlarni ham xarid qilaverar edi...

Havaskor kolleksiya yig'uvchilar orasida ayniqsa, billur, kumush va chinnini yaxshi biluvchilar bor edi, ammo bundaylar ozchilikni tashkil qilar, ko'pchilik xaridorlar «qizil so'lkavoy»ga Rafaelning haqiqiy chizgan suratlarini xarid qilish, keyinchalik ularni ming-minglab so'mga qayta sotishni orzu qilishardi. Yoki «birinchi qo'l»dan o'g'irlangan brilliant marjonni yuz so'mning yarmiga sotib olmoqchi bo'lishardi... Mayli, keyinchalik Rafaelning surati uyda chizilgan no'noq rasmdan, marjon esa shishadan iboratligi ma'lum bo'lib qolsa-da, xaridor baribir yana Suxaryovka bozoriga o'shanday orzularga g'arq bo'lganicha boraverar, umrining oxirigacha «besh so'mlik tangalar»ni axtarish bilan mashg'ul bo'laverardi. Na ma'lumoti, na bilimi bor, faqat xolasining mo'maygina jamg'armasini sug'urib olishning tabiiy ko'nikmasidan boshqa hech nimasi bo'lmagan bundaylar anchagina edi.

Bu kabi xaridorlar bir tiyin uchun ko'z yoshi to'kishar, qo'li singan va burni qo'porilgan yalang'och ayol haykalchasini sotib olganiga xursand bo'lar va tanish-bilishlarini «arzon-garovga tushgani»ga ishontirar edilar.

- Venera Milossaning jiyani!
- Nima deyapsan?
- Qo'li qani buning? Siz gapiraverasiz!

Tag'in xafa bo'ladi! Aravakash bilan bir griven ustida savdola-shishdan qaytmaydi. Suxaryovkada bundaylar ko'p tentirar, ammo Suxaryovkaga osori atiqalarni rosmana qadrllovchilar ham tashrif buyurar, ulardan boy kolleksiyalar qolib, xalq mulkiga aylangan edi.

...Lekin ularning ko'plari yo'qolib ham ketdi. Hammasi imi-jimida, suxaryovkaliklarga mos tarzda ro'y berdi.

Va ushbu nodir buyumlar bilan savdo qiluvchilar ham, havaskorlar ham xuddi o'g'irlangan mollarni xarid qilgandek indamas bo'lib qolishgandi. Sotib olishadi, yashirishadi va jim bo'lishadi. Va barchasi yakka-yolg'iz, bir-biridan sir saqlaydi.

Lekin shunday bir voqea ro'y berdiki, ularning hammasi xuddi bo'rilar galasi yoki aniqrog'i, qo'rqib hurkigan qarg'alar to'dasi kabi yirik o'ljaga tashlandilar. Bu saksoninchi yillarda bo'lib o'tgan edi.

O'sha paytda moskvalik taniqli kolleksiyachi M.M. Zaysevs-kiy vafot etgan edi. U qirq yildan ziyod vaqt davomida nodir nafis san'at namunalari, qo'lyozmalar, pergamentlar, dastlabki bosma ki-

tohlarni yiqqan edi. Zaysevskiyini butun Suxaryovka yarim asrdan beri bilardi.

O'n yillar davomida uning butun boyligi, topgan mablag'i shu muzey uchun sarflangan edi. Bu muzey omma uchun yopiq bo'lib, chin ma'nosiga ko'ra, o'zining keksa sohibi uchun hayot mazmuniga aylangan edi. Muzey egasi «yangi osori atiq» va uni qo'lga kiritish uchun hech narsadan qaytmasdan, butun dunyoni unutish darajasiga yetgan edi.

U ehtiros va sabr-toqat bilan biror kumush krujkaning qopqog'ini ko'zdan kechirar, toki uni qo'lga kiritmaguncha sira tinchimas edi. Men M.M. Zaysevskiy bilan shaxsan tanish edim, ammo yiqqan biror nodir anjomini ko'rsatishga ko'ndirish qiyin edi. Ha, ularni hech kimga ko'rsatmasdi. Yolg'iz o'zi bu xazinaga havas bilan qarab, lazzat olar, ularni qunt bilan begona ko'zlardan qo'riqlar edi.

Oradan qirq yil o'tdi, ammo hozirga qadar ko'z oldimdan uning Xlebniy tor ko'chasidagi shaxsiy uyining to'rtta katta xonasidagi nodir buyumlar lipillab o'tib turadi. Xonalar devorlari ko'plab qadimiy suratlar bilan to'lib-toshgan edi. Birinchi planda Avliyo Iyeronimni aks ettiruvchi surat turardi. Bu mashhur rassomning asl nusxadagi surati edi. Ayrim bilgichlar uni Luka Jiordano mo'yqalamiga mansub deyishadi. Bu surat bilan bir qatorda, flamand maktabiga oid ikki ulkan rasm joylashtirilgan. Unda ziyofat hamda qandaydir hukmronning chiqishi aks etgan edi. So'ng Lessuyeraning «Iso Masih bolalar bilan» deb nomlangan surati, Andriana Stade rasmi hamda o'tgan asrning juda ko'p suratlari bor edi.

Keyingi xonada nodir butlar, Stroganov bitikli sanamlaridan boshlab, nasroniylik uchun sal bo'lmasa quvg'in qilingan vaqtga qadar bo'lgan sanamlargacha kolleksiyalar bor edi. Xochlar kolleksiyasi o'sha yerdan joy olgan edi. Ular orasida zarhal bilan yozilgan «Matvey Timofeyevich Sinyagin o'qchilari kallasining iltijosi» nomli buklama bor edi. Uchinchi xona suyak va metallardan ishlangan portretlar bilan band qilingan. Nemis harflarida ishlangan Yekaterina II portretini faqat zarrabin orqali ko'rish mumkin edi. Harflardan uning podsholik qilgan davri tuzilgan desa bo'lardi. Yana graf Orlov-Chesmenskiyning ikki portreti moybo'yoqda chizilgan. Bittasida graf o'zining Bars laqabli otiga mingan holda, boshqasida esa chanada tasvirlangan edi. Chanaga Svirepiy qo'shilgan. Yonida stol ustida taqa turar, ham-

masi feruza bilan qoplangan, Svirepiy ham egar-jabduqlangan edi. Keyin yuzlab soatlar, shoxlar, krujkalar, idish-tovoqlar orasida Yermak Timofeyevichning portreti qo'yilgan bo'lib, uning ko'kragi ulkan yaxlit marvariddan ishlangan edi. U XI asrning kumushdan ishlangan nodir, qimmatbaho idishlari o'rtasida turardi.

Bu zallarda buyumlarning hammasini sanab tugatish mumkin emas. Shuningdek, hovlidagi katta omborxonada turli-tuman bir qadar qo'pol, beso'naqay nodir anjomlar ayqash-uyqash bo'lib yotardi. Shu yerda uning butun kutubxonasi joylashgan edi. Dastlabki bosma kitoblar bo'limida 1467-yili Maynsda kitob chop etish kashfiyotchisi Gutenberg tomonidan Shefer bosmaxonasida bosilgan «Foma Akvinskiy ta'limoti» nomli kitobi bor edi. Qo'lyozmalar bo'limida ikki katta salmoqdor kitob turardi. U relyefli, ya'ni bo'rtma naqshli oltin hal berilgan yuzlab rasmlar bilan pergamentda yozilgandi. Bu Bokachchoning «Dekameron» nomli kitobi bo'lib, fransuz tilida bitilgan edi.

Egasining vafotidan so'ng uning merosxo'rlari muzeyni omma uchun ochishmadi, ayrim buyumlar Tarixiy muzeyga qo'yildi, so'ng uni qaytarib olishdi, o'z muzeylarini sotishga qaror qilishdi. Bu merosni taqsimlash uchun zarur edi. Arxeolog olimlar, professorlar, muzey qo'riqlovchilari ulkan merosning nodir buyumlardan iboratligini ko'rib, ajablanishdi, yuqori baholashdi, ammo ularni o'zlarining eksponat saqlovlari uchun sotib olishga mablag', xarajat yetishmasligini aytib, ancha qayg'uga botishdi.

Muzey xaridorlar uchun uch oy ochiq turdi, ammo ayrim maydachuydalar sotilganini hisobga olmasak, boshqalarini sotishga muvaffaq bo'linmadi. Suxaryovka an'analari ruhida tarbiyalangan moskvalik xususiy arxeologlar to'da-to'da bo'lib kelib ko'rardilar-u, ammo hech nima xarid qilishmasdi. Suxaryovkalik eski-tuski xarid qiluvchilar Ujo toifasidagi kolleksiyalovchilar tanish-bilishlari o'rtasida maqtanish hamda qimmatbaho narsalarni xarid qilish maqsadida mablag'larni bir cho'ntakdan ikkinchisiga o'tkazish uchun o'zlarini og'ir-vazmin tutar edilar.

Ular go'yo o'zlarini bilimdon sanab, xazinani ko'zdan kechirishar, nodir, qimmatbaho buyumlarni obdon ko'rishar, so'ng ehtiyotkorlik bilan:

– Hm... ha.. Lekin bu unchalik nodir emas! Mayli, men uni olaman. Mayli, uyda tura tursin... Ikki yuz so'lkavoy beraman, – deyishardi.

Yetti ming so‘m turadigan emallangan, sirlangan nafis sandiqchani ana shunday baholardilar.

Bu sandiqcha xususida Suxaryovkada shanba kuni indamas, ko‘pincha sukut saqlab turadigan nodir buyumlar shinavandalari gapirgan edi. Uni ikki yuz so‘m evaziga xarid qilmoqchi bo‘lgan kishi boshqa kuni o‘zining odamini yuborib, uch yuz so‘mga olmoqchi ekanligini aytdi. Lekin merosxo‘rlar aslo chekinishmadi. Suxaryovka esa bu muzeydan hech vaqoni mo‘maygina sotib olmasligini anglab, «qo‘ng‘iroq quyish» bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Osori atiqalar orasidagi bir nechta yakshanba orasida eng yaxshi buyumlar sotilgani, merosxo‘rlar pulga muhtoj bo‘layotgani va arzongarovga rozi bo‘layotgani haqida ovozarlar tarqadi, biroq bu suxaryovkachilarning «Bir tiyinga besh so‘m» sotib olishiga yordam bermadi.

Ajoyib kunlarning birida eshikda peshlavha paydo bo‘ldi, unda boshi berk ko‘chada (ikki boshi berk ko‘cha tilga olingan edi) Suxarev eski-tuski olibsotarlari va antiqa mollar sotuvchilarini «ko‘p qo‘ng‘iroq chalish bilan jon kuydirmaslik»ka chaqirishdi.

Men muzeyning keyingi taqdiri va uning qimmatbaho buyumlari to‘g‘risida hech narsani bilmayman.

Yana bir narsa esimdaki, V.M. Zaysevskiy muzeyi sohibining o‘g‘li, aktyor va o‘z vaqtida sahnada muvaffaqiyat qozongan, og‘zaki hikoya ustasi faqat artistligidan tushgan mablag‘ hisobiga yashagan va shu asrning boshlarida vafot etgan. Uni boshqa nom ostida, sahnadagi familiyasi bilan tanishar, do‘stlari oddiygina qilib, Vasya Dneprov deb tilga olishardi. Do‘stlari qiynalib qolganida, Dneprov ularga saxiylik bilan yordam berar edi.

U Zaysevskiy ekanligini hech kim bilmasdi. Dneprov o‘sha kuni meni uchrata olmay, ertasiga qo‘ng‘iroq qilib, kitobni olgan-olmaganimni so‘radi:

– Rahmat, – deb javob berdim men. – Afsuski, sizni ko‘ra olmadim. Darvoqe, otangizning muzeyi bormi?

– Ehe, qayoqda deysiz! Faqat otamning portreti qolgan. Uni ham shu qish paytida Suxaryovkadan sotib oldim».

* * *

Suxaryovkadagi doimiy o‘zgarmas tashrif buyuruvchilar nodir ashyolar bilan savdo qiluvchi do‘kon sohiblari edi. Ulardan biri tong

sahardan kelar, yashik ustida o'tirib, narsalarni qanday taxlayotganlarini ko'zdan kechirardi. O'tiradi-yu, biror qiziqarli narsaga qaraydi, havaskor kolleksiyalovchilar avvalroq ilib ketmasin, deb sotib oladi-yu, so'ng uch barobar pullaydi. Antikvarlar uni ko'pincha haydar edi:

– Keting axir, xalaqit bermang, joylashtirsin, fursat bering!

– Xo'p! Xo'p! – deb javob beradi u aynan bir xildagi so'z bilan va xuddi muzlatib qo'yilganday o'tiraveradi.

Shu bois savdogarlar unga «Keyinroq!» deb laqab qo'yishgandi.

Suxaryovkaga barvaqt kelishni Vladimir Yegorovich Shmarovin ham yaxshi ko'rardi. U suratlar hamda popovcha chinnilarning bilimdoni hisoblanardi. Ba'zan kumush qadahlar xarid qilar, undan ko'pincha «ulfatchiligi»da foydalanar edik. Shuningdek, qadimiy arzon mis hamda bronza uzuklarni sotib olardi. U qadimiy buyumlarni yaxshi bilar, aldab bo'lmasdi, garchi chinni idishlar orasida soxtalari anchagina, asosan, Popov idishlari orasida bor edi. Buni chet elda tayyorlashar, u yerdan bu molni agentlar olib kelishardi.

Suxaryovkada bitta chodir bo'lib, chet eldan maxsus «Popovcha» ishlangan, soxta edi. Barcha sohalarda qalbakilik uchrar edi.

Tajribasiz qadimiy tanga yig'uvchilar ham ba'zan Suxaryovkadagi qarmoqqa ilinib qolardi. Qadimiy nodir buyumlar bilan savdo qiluvchilarning kumush qatorida to'la qadimiy tangalar bilan to'lib-toshgan vitrinalar bor edi. Shuningdek, shisha bilan qoplangan do'konchalar bo'ylab yurib savdo qiladigan numizmatlar tanga sotardilar. Aleksey Mixaylovichning uch, besh so'mlik nodir pullari hamda katta to'rtburchakli soxta, yasama moskvacha mis so'mlar va qozonliklar ishlagan namunalarni savdoga chiqarar edilar.

Rafael, Korrejio, Rubenslarning soxta rasmlaridan qancha ishlangan bo'lsa, barchasini topish mumkin edi. Bu esa eng tajribasiz kishilar uchun maxsus tayyorlangan edi. Haqiqiy biladigan kishilarga ularni, hatto ko'rsatmas, shunga qaramay, mollari sotilar edi.

Bir qiziq voqea bo'lgan. Nodir buyumlar bilan savdo qiluvchi bir antikvarning do'koniga xonim qirib keladi-yu, «I.Repin» deb yozilgan surat oldida to'xtab, ancha vaqt qarab qoladi, unda «10 so'm» deb yozilgan yorliq osilgan edi.

– Mana sizga o'n so'm. Suratni olaman. Agar u haqiqiy bo'lmasa, qaytarib olib kelaman. Men Repinni taniydigan kishilarni bilaman, u bugun o'sha yerda tushlik qiladi. Olib boraman-u, unga ko'rsataman.

Xonim xarid qilgan suratini olib borib, I.Ye. Repinga ko'rsatadi. U xaxolab kulib yuboradi. Patqalam va siyohdon olib kelishadi va suratning tagiga: «Bu Repin emas. I. Repin» deb imzo chekadi.

Mazkur rasm yana Suxaryovkada I.Repinning dastxati bilan paydo bo'lib, yuz so'mga sotildi.

Eski Suxaryovka ancha katta hududni egallab, besh ming gektarni qamrab olgan edi. Atrofida Sheremetev kasalxonasidan tashqari barcha uylarda traktir (oshxona), pivoxonalar, do'konlar, har qanday ko'tara savdo qiladigan savdo nuqtalari va do'konchalar – poyafzal, tayyor ko'ylaklar sotadigan joylar bo'lib, ularga xaridorlarni kuch bilan zo'rg'a sudrab kiritar edilar. Yaqin muyulishlarda mebel omborlari bo'lib, undagi mollarni yakshanba kuni maydonga olib chiqishardi.

Axir Suxaryovka asosiy chayqov bozori va yoymachilikdan iborat edi-da! Ikki timsolli atama so'z bor: xalq bir joyda kun bo'yi tipirchilaydi, kerakli joyga tushguncha urilib-suriladi, keyin esa hamma joyi og'riydi! Yoki yoymachilikni ayting: boshi-adog'i yo'q qatorlarda kerak-nokerak mollar qatorlashgan, har kim har xil mollar bilan savdolashadi: kimdir yirtilgan poyafzalni xarid qiladi, kimdir eski temirni; kimdir qulfga kalit tanlaydi, agar kalit to'g'ri kelmasa, o'sha joyda uni egovlab tekislaydi. Kissavurlar esa o'zlarining gumashtalari bilan suqiladi: atrofni o'rab oladi, tiqiladi va sug'urib oladi. «Qorovul» deb qichqirsang ham hech kim quloq solmaydi, cho'ntakni mahkam ushlaysan, u esa qarabsanki, bo'm-bo'sh, allaqachon shilib ketishibdi. So'ng o'zi: «Qorovul! O'g'irlashdi!» deb qichqirishga tushadi. Kissavurlar o'zlarining to'dalari bilan yurişhadi, shuningdek, qo'g'irchoqbozlar ham tashlandiq bolalardan iborat shaykalari bilan, navbatchilar ham o'z to'dasi, olibsotlarlar ham o'ziga qarashli odamlar bilan yuradi.

Suxaryovkada faqat qallob, muttahamlarga yolg'iz ish qilish qiyin kechadi. Har qanday qallob, mayda o'g'rilarning qancha toifalari bor! Masalan, «o'yinchilar»ni olib ko'ring! Qulay bir burchakda to'g'ridan to'g'ri ko'prik ustiga o'tirib olishadi-yu, o'yin uchun uchta qartani ochishadi – ikkisi qora, bittasi qizil. Qizilini topish kerak. Yoki kamar o'yinini ko'ring: kamar gardish bilan aylantiriladi, unda mixchani shunday tashlash kerakki, toki kamarga qadalib qolsin. Lekin hech kim qizilni topa olmaydi, mix ham hech qachon kamarga kirmaydi. Qo'lning chaqqonligi qoyilmaqom darajada.

Va o'nlab to'dalar Suxaryovkada tentiraydi. O'zini go'llikka solgan, yashashni istagan o'nlab odamlar borki, ular bir tiyin qolguncha qimorga boy berishadi.

Yirik qalloblar ham bor.

Aytaylik, dehqon o'zining oxirgi po'stinini sotish uchun keldi. Uni darrov jalloblar to'dasi o'rab oladi. Har biri savdolashadi, har biri o'zining narxini aytadi. Nihoyat, bir bahoga kelishishadi. Xarid qilgan kishi shoshmasdan cho'ntagiga qo'l soladi, xuddi pulni olayotganga o'xshaydi va po'stinni qo'shnisiga beradi. To'satdan dehonning ortida shovqin-suron ko'tariladi va u ham o'sha tomonga qayrilib qaraydi. Po'stin esa bir lahzada qo'ldan qo'lga o'tib, g'oyib bo'ladi.

– Qani, pulni ber-chi!

– Nima?

– Po'stin uchun pulni!

– Qanaqa po'stin? Axir men hech narsani ko'rganim yo'q!

Atrofda xaxolash, shovqin-suron. Pochapo'stin g'oyib bo'lgan, hech kimdan talab qila olmaysan.

Navbatdagi to'da: tilla soat sotishadi yoki haqiqiy brilliant uzukni pullashadi. Xaridor uyga kelib ko'radiki, soat misdan, marvarid o'rniga shisha solingan ekan.

Aytaylik, buni allaqachon Krechinskiyda qilishgan. Lekin Suxaryovka Krechinskiydan ham balandroq turadi. Soat yoki igna to'g'nag'ichni uzoq vaqt almashtirmaysan! Lekin bir uyum ishtonlarni faqat Suxaryovkada almashtirish mumkin. Bu quyidagicha qilindi: mayda bolalar chayqovchilik qilib yuradi, yelkalarida ishtonlar bir-biriga tugib qo'yilgan, butunlay yangi, yendigina tikilgan, tartib bilan taxlangan.

– Ishtonlar qancha turadi?

– To'rt so'mdan. Yo'q, avval yaxshilab qaragin, mol qanaqa... Tasodifan bir bo'lagi tushib qoldi-da. O'ttiz olti juft chiqdi. Mana, unda ham, bunda ham bor. Faqat hozirgina olib kelishdi.

Xaridor boshqasiga ham qaraydi.

– Faqat uch mingdan... bir juft olaman.

– A-ha!

– Xo'sh, qiziliga uch mingdan beraman. Bo'ladimi?

– To'rt mingdan... Bilasanmi, agar istasang, hammasini, o'n ikki-tasini ham uch mingdan ol...

Xaridorning ko'zlari yonib ketadi: kimga aysang ham uch mingdan sotib oladi, to'rt ming desa ham oladi. Xaridor unga ham, bunga ham qaraydi, sanaydi – to'g'ri, o'n ikki dona. Uchinchi sotuvchi bilan ham kimdir yonida turib savdo qilmoqda.

To'rt mingdan olish uchun kelishishadi. Xaridor pulni qo'liga ushlagancha sotuvchiga beradi va ishtonlarni ip bilan bog'layveradi... To'satdan kimdir xaridorning bo'yniga bir tushiradi. U o'girilib qaraydi.

– Kechirasan, adashibman, tanishim deb o'ylabman.

Xaridor ishtonlarni qabul qilib oladi va uyga kelib, ma'lum bo'ldiki, bir ishton yuqoriga, ikkinchisi pastga qaragan, ular o'rtasida bir to'da latta-putta.

U orqaga o'girilib qaraganida, qutini almashtirib qo'yishgan ekan. Shunday qilib, xaridor «Bir tiyinga beshtalik»ni xarid qilgan!..

Yomg'irdan keyin va yomg'ir paytida poyafzal bilan yaxshi savdo bo'ladi. Chodirlardan biridan ancha uringan shinel kiygan amaldorni tashqariga sudrab chiqarishga muvaffaq bo'lishdi. U ikki savdogar tomonidan sal bo'lmasa ikkala tomonga torta-tort qilib, yirtib tashlanguday bo'lgan edi – biri o'ng qo'lini mahkam ushlab olgan, boshqasi chapini...

Sotuvchilar o'rtasida tortishuv ketmoqda:

– Ketmaydi!

– Ketadi!

– Bir juft pivodan...

– Qancha vaqtga?

– Yigirma daqiqaga.

– Ketdik.

– Yo'q, soqolni olishga to'g'ri keladi.

Amaldor minora yonida turgan ustunchaga o'tirdi. Soqoli olinmagan va irkit sartarosh sochi tikkayib turgan bolaga im qoqdi, u yuvilmagan bankani olib, chopib boradi-yu, ko'lmakdan suv keltirib, unga uzatadi. Bu yerda soqol olish uch tiyin, soch olish esa besh tiyin turardi.

Mijozlar bo'lmagan ertalabki paytda bolalar bu kasbga o'rgatilar, ular iste'foga chiqqan askarlarning soqolini tekinga olib chiniqardilar. Qo'ldan ish kelmagan bola sho'rlik askarning yuzini kesib yuborar, u esa jim o'tirib chidar, chunki chiptasida: «soqol, sochni qirish lozim,

jamo'a bo'lib yurma», – deb yozilgan bo'lardi. Bir haftadan keyin askar yana soqolini olishni iltimos qilib so'raydi!

– Xo'sh, kesilmagan, o'tir! –, deb taklif qiladi uni tagkursiga moskvalik Figaro.

Men bu chuvillashgan to'daga qarashni juda yaxshi ko'rar va ancha vaqt tikilar, ba'zan ixtiyoringa erk berar edim.

Yo'lak bo'ylab do'konchalar yonidan ketaverasan, seni etagingdan tortishadi.

– Marhamat qilib, do'konimizdan xarid qiling!

Tortadi, zo'r berib tortqilaydi. Istasang, istamasang, seni do'konga sudrab boradi. U yerda esa boshqa gumashtalar o'rab oladi. Har biri o'zining ishini bajaradi, yodlab olgan so'zini aytadi. Rollarni mashq qilish, so'ng uni ijro etish hayratga soladigan darajada. Qayta-qayta ko'rishga majbur etishadi va hammasini sal bo'lmasa kiyib ko'rsatishga qistashadi: po'stinni ham, ishtonni ham, uzun burmabel kamzulni ham.

– Axir menga hech narsa kerak emas!

– Hozir kerak emas. Keyinroq zarur bo'lib qolar. Ortiqcha bilim aslo zarar qilmaydi. Bundan faqat foyda tegadi. Balki tanish-bilishlarga zarur bo'lib qolar, qayerdan xarid qilishni bilarsiz, tovar qanaqa – o'z ko'zlaringiz bilan ko'rib, ishonch hosil qilarsiz.

Do'kon oldidagi ko'chada shovqin-suron ko'tarildi. Qattiqqo'l xonim o'tib bormoqda.

– Xonim oyim! Bizdan xarid qiling. Eringiz uchun palto, bolalaringizga kamzul deganday...

Xonim qaddini g'oz tutib, yonboshdan o'tib ketadi. Qistab chorlashning ohangi o'zgardi.

– Xonim afandi! Xonim afandi! Biror shim istaysizmi!.. – deb qichqiradi shosha-pisha uning ortidan umumiy xaxolash sadolari ortidan yana qistab. So'ng yana yangi o'tkinchilarni ovlashga kirishadi.

U yerda qanaqa nusxalar bor edi! Men bittasini bilardim. U xo'jayindan ta'til olar edi-yu, so'ng Maslenitsa, ya'ni qishni kuza-tish bayrami hamda Pasxa iyidini Devichye dalasida bobolarining da'vatiga binoan bo'lar-bo'lmas bemaza tomoshalarga chiqardi. Yoshi qirqlarga borib qolgan, o'g'li bilan bir xo'jayinnikida istiqomat qilardi. Uni Yefim Makariyevich deyishardi. Makarich emas, azbaroyi hurmat yuzasidan Makariyevich deyishardi.

Do'konda vazmin va savlatli bo'lib, tomosha, sayr-sayohatda uni tanib bo'lmasdi. Oq oralagan, xuddi bog'lab qo'yilgandek soqoli bilan antiqa ko'rinardi. Butun dalaga eshitaladigan qilib hayqirar edi:

– Rrrr-a-rrr-ra-a! Boshidan! Bizda Yuliya Pastrinalar – maymundan tarqagan tutingan nevaralar! Biqinida teshigi bor, hammasi ipakdan!.. – Va shu zayl, shu zaylda ketaveradi...

Olomonning qulog'i ding bo'ladi. Hamma bemaza tomoshadan bezib, «Yushka maynavoz» tomonga qarab yuguradi. Unga ko'zimizni chaqchaytirib boqamiz, qorong'ida do'kon ichida boshimizni egib turamiz. U esa oqargan soqoli titrab, ustimizdan kalaka qilib kuladi, yerga uradi. To'satdan olomonga qo'lini bigiz qilib, g'ijillay boshlaydi:

– Sen nima uchun begona cho'ntakni kavlaysan?

Va hamma birdan boshini burib qaraydi, u esa xuddi qarg'ani ko'rib, unga intilgan kabi ancha nariga ketib qoladi.

– Sen ahmoqsan, ahmoq! Seni qanday iblis kuch o'ziga tortadi... Ey, sen, to'qqiz oyoqli, kir o'radan chiqib kelgan bufetchi ayol!... Rrr-ra-ra! Boshidan, boshidan!

Soqolini yuladi, uni boshi uzra silkitadi va pastga tushib, ko'zdan g'oyib bo'ladi.

– Ehe-he-hey! Hurmatli omma, yarim hurmatga loyiq, shunchaki o'zi bilan o'zi ovoralar! Shoshilishni boshlang, sizsiz boshlamaymiz. Biznikilarni bilib ol, tezda o'lib ketma.

To'satdan to'xtaydi, basharasi jiddiylashadi, quloq soladi.

Olomon tarrakday qotib qoladi.

– Oy-oy-oy! Qanday qilib boshladilaring! Shoshil, bolalar!

Yushka baqirgan tekin tomosha doimo odamlar bilan to'lib-toshgan. Bir kuni u bilan choy icha turib, suhbatlashib qoldim. Yushkaning ziyraklik bilan olomoni boshqarishidan ajablanganimni yashirib o'tirmadim. U menga shunday dedi:

– Olomon nima degan gap, u qo'y otariga o'xshab ketadi. Serka qayerda bo'lsa, u ham o'sha yerda. Qayerga istasang, o'sha yerga burasan. Mana, Suxaryovkani sinab ko'rgin! Yakka-yolg'iz erkakni o'rmondagi ayg'irga ro'para qilishga undab ko'r, hammasidan ko'ra cho'ldagi biror jonivorga duch kelishi yana qiyin bo'ladi, shuningdek, uni do'konga kirishga, buning ustiga keraksiz narsani xarid qilishga majbur etib ko'r-chi! Ey, uka, olomon bilan Devichye tagida birga bo'lish yuz barobar og'irroq. Menda o'ttiz yil Suxaryovkada yonim-

dan hech kim o'tgan emas. Sen olomon deysan. Olomonni qishda cho'milishga ko'ndira olaman!

Suxaryovka alohida dunyo edi, hech qachon takrorlanmaydi. U bor bo'yi bilan shu latifada jamlangan.

Shamarin «muhi»ga tegishli bo'lgan restavrator-rassom yakshanba kunlaridan birida dala hovlidan vokzalga to'g'ridan to'g'ri odati bo'yicha Suxaryovka orqali o'tdi. U yerdan ajoyib qadimiy, o'zida bo'lgan juftiga nihoyatda o'xshash bo'lgan guldon xarid qiladi.

Bunday qimmatbaho xazinani qo'lga kiritgan haqiqiy havaskor kishining qanchalik quvonganini tasavvur qilavering!

Uyda uni kutib olgan xizmatkor tomteshar o'g'rilar yaqinda kvartirasidagi bor anjomlarni o'g'irlab ketganini ma'lum qildi.

Shamarin o'zining shaxsiy guldonini sotib olgan edi!





XITOIY DEVORI OSTIDA

Xitoy-shahar Oqshahardan ajratib turadigan Xitoy devori qurilishi XVI asrning o'rtalariga tegishli. Ioan Grozniyning onasi Yelena Glinskaya bu shaharning bo'lagini o'zining ona shahri – Podoliyadagi Xitoy-shaharchasi sharafiga shunday deb atagan edi.

O'tgan asrning boshlarida, 1806-yilda Xitoy-shahar devori to'g'risida P.S. Valuyev shunday yozgan: «Xitoy devorlari suiiste'mol tufayli juda sharmandali ahvolga tushib qolgan. Minoralarida unchalik mavqega ega bo'lmagan amaldorlarning do'konchalari joylashgan; devorning boshqa joylarida ham ko'rimsiz do'konchalar qurilgan, boshqalarida kir o'ra, saroy, otxonalar qad ko'targan... Ko'pdan ko'p istehkomlar, yerto'lalar, qal'a va xandaqlar qurilgan, ular o'tmishda yo'q edi. Ularga shahardan barcha novlardan suvlar oqib keladi. Qo'lansa hid havoni zaharlaydi. Bunday suiiste'mollik poytaxtning Peterburgga ko'chishi bilan boshlandi... Xitoy-shaharning butun devorlari tagida tosh hamda yog'och do'konlar qurib tashlangan».

Shundan keyin 1812-yilgi urush oldidan imkon boricha devorni tartibga keltirishdi. Tashqi tomondagi qo'shimcha qurilgan binolarni gumdon qilishdi, ichki tomoni esa eskiligicha o'zgarmasdan qolaverdi. Bunga qo'shimcha qilib, Ilinskiy va Nikolskiy darvozalari o'rtasida Chayqov bozori ochildi. U yetmishinchi yillarning o'rtalariga qadar o'zining yaroqsizligini ko'z-ko'z qilardi. Uni juda ajoyib tarzda V.Ye. Makovskiy o'zining Tretyakovskiy galereyasida turgan suratida aks ettirgan. Chayqov bozorini faqat saksoninchi yillarda yopishdi, ammo uning izlari qoldi – ular shaharning qoq markazida xilvat, tashlandiq joylarni yanada ko'paytirdi. Bu ishlarni faqat sovet hokimiyati bartaraf etdi. Bular Varvar darvozaga qadar devorlar tagida qurilgan bo'lib, tashqi tomondan Lubyansk maydonidan mashhur Shi-

Kunduz kuni do‘konchalar kissavurlar hamda mayda o‘g‘rilardan turli-tuman buyumlar – oltin soatdan to dastro‘mollargacha yoki boshdan olib qochib ketilgan shapkagacha qabul qilardi; sahar-mardondan ko‘tarasiga, alohida-alohida, «Ivanlar»dan tungi o‘ljalarni, ba‘zan qoni to‘liq qotib qolmagan narsalarni olardi. Pul qo‘lga kirgan «ivanlar» ziyofat tashkil qilar, bu tantana o‘zlarining buzuqxonalarida ro‘y berar yoki yaxshi ko‘rgan mayxonalarini yoki «Do‘zax», yoki Trubada, yoki «Polyakov traktiri»da o‘tkazilardi. Mayda o‘g‘rilar, bezorilar buzuqxonalarda qosh qoraygandan so‘ng qorong‘i oralatib, «ivanlar» esa ertalab, ba‘zida esa do‘konchalarga kirmasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri traktirlarda, maxfiy joylarda biqinib olib, o‘ljalarni bo‘lib olishardi. So‘ng ular bilan o‘sha joyning o‘zidayoq darhol traktir egalari yoki maxsus olibsotarlarni ta‘minlar edilar.

«Shipov qal‘asi» faoliyat ko‘rsatgan kunlarda asosiy qaroqchilar makoni Yauza yaqinidagi «Polyakov traktiri» bo‘lib, alohida xonachalar bilan to‘lib-toshgan edi. Unda o‘g‘irlangan narsalarni taqsimlash va olibsotarlarga pullash bilan bog‘liq ishlar bajarilardi. Bu yerga hech narsadan qo‘rqmaydigan, hech nimani o‘ylab ham o‘tirmaydigan sobiq odamlar yig‘ilardi.

Xonachalardan birida to‘rt nafar talonchi yirik o‘ljani taqsimlash paytida o‘rtoqlaridan birining narsasini o‘zlashtirish maqsadida bo‘g‘ib o‘ldirishgan edi... Aynan shu yerda chordoqda mo‘rilarni tozalayotganlar tomonidan etik kiygan ikkita chopilgan oyoq topilgan edi.

Taqsimlash ishlari tugagach, ayollar bilan aroqxo‘rlik yoki o‘yin boshlanar edi. Jiddiy «ivanlar» aroqxo‘rlik va ayollarga qiziqib o‘tirishmasdi. Ularning ehtirosi o‘yinga qaratilgan edi. Bu yerda «omad, tole hamda taqdir» va albatta, qartabozlik, g‘irromlik ro‘y berardi.

Polyakov traktiri to Shipovkani quvmaguncha gullab-yashnay boshlagan edi. Lekin bu ishni politsiya qilmagan. Insonni haddan sevuvchi general Shilov vafotidan keyin uy imperator insonparvarlik jamiyatiga aylandi hamda eski emin-erkin kvartirantlarni odamsevarlik bilan qabul qilmadi. Butun politsiya va askarlarning kuchi unga yordam berishga safarbar qilingan edi. Qamal uchun mustahkam qal‘a ro‘para qilingan edi. Bu tunni eslagan keksalar shunday deb hikoya qilishgan:

– Zim-ziyo tunda askarlar yopirilib kirishdi. Jimjitlik hamda zulmat butun uyni qoplab olgan edi. Birinchi uyga bostirib kirishadi – qorong‘ilik, sassiq, qo‘lansa hid va tartibsizlik, pollar usti chipta parchalari, somon, latta-putta, g‘o‘la, tarasha bilan qoplangan. Butun kvartirada faqat ikki kishi: xo‘jayin va uning o‘g‘li bor, xolos.

Boshqasida ham xuddi shunday ahvol, uchinchisida – stol ustida yarim shisha vino, non bo‘lagi va bodringlar bor-u, yashaydigan birorta odam ko‘rinmaydi. Barcha kirish joylarida askarlar turgan bo‘lsa, ular qayerdan chiqib keta oladi? Saroy, kir o‘ralar, qaznoqlarning tit-pitini chiqarishdi, faqat bir necha kishini topishdi, ular xuddi gung, soqov kabi indamay turishardi. Ertalab tong nuri va quyoshning ilk yog‘dulari tomni yoritib, sirni ochdi. Tom usti juldur kiyingan, yotgan va o‘tirgan odamlar bilan to‘lib-toshgan edi. Ularni pastga qarab haydashdi, hatto qamoqqa ham tiqishmadi, shunchaki uydan haydab yuborishdi. Ular to‘da-to‘da, olomon bo‘lib Yauza daryosining bo‘sh yotgan joylari hamda Xitrov bozoriga qarab yopirilishdi. U yerda pullik tungi tunash uylari ochilgan edi. Ana shu joylarda Shipovkada yashaganlarning birinchi toifasi boshpana topdi, «Ivanlar» esa dastlabki paytda izg‘ib, to‘zib ketdi, so‘ng ular ham Xitrovkada paydo bo‘lib, yerto‘lalar hamda «Suxoy ovrag»dagi Romeyko uyining maxfiy joylarini egallashdi.

Insonparvar jamiyat imkon qadar uyni ta‘mirladi, unga ham shunday juldurvoqilarni qo‘yib yubordiki, faqat endi ular pasportli edi, shuningdek, chayqovchilik bilan chambarchas bog‘langandi. Uyni butunlay tikuvchilar, poyafzal tuzatuvchilar, olibsotarlar hamda o‘g‘rilik mollarini sotuvchilar, qo‘ldan olib savdo qiladigan kishilar egallashdi.

Butun boshli kvartiralarni o‘ziga xos maxsus ixtisosga ega bo‘lgan tikuvchilar band qilgan edi. Ular kasb-hunar boshqarmasidan guvohnomaga ega bo‘lgan xo‘jayinlar ixtiyorida edi. «Qisqichbaqa» deb atalishlariga esa sabab shuki, bamisoli «qisqichbaqa» kabi sayoz joyda «o‘tirishar», dam olish kunlarisiz «uyalari»da oxirgi ko‘ylagi qolguncha ichish bilan mashg‘ul edilar.

Shipov uyi o‘z nomi va maslagini o‘zgartirmadi. Ilgari u o‘g‘rilik bilan mashg‘ul bo‘luvchi talonchilarga maskan bo‘lgan bo‘lsa, endi unda qonuniy hisoblangan «tijoratchilar» joylashib olgan edi. Ular o‘g‘rilik, talonchilik, bosib olish evaziga bu ishdan aslo bo‘yin tovlamaydigan, o‘z daromadlarini oshirish manbai, deb hisoblaydigan kishilar edi.

Dadil aytish mumkinki, biror uy sohibi shunchalik ishonchli hamda ulkan foizni kvartirani ijaraga olganlardan ololmasdi. O'g'irlangan mollarni qabul qiladiganlar ham katta foiz to'lashardi.

Bu haybatli uch qavatli uy bir necha do'konchalar, oshxonalar, qovoqxonalardan boshqa pastki qavatda bitta traktir buzuqxonadan tashqari qolgan barcha maydoni mayda-chuyda, iflos kvartiralardan iborat edi. Ularning barchasi bozorchi ayollar yoki ularning yerlaridan yoki shunchaki istiqomat qiluvchilarni tashkil etardi.

Kvartiralarning deyarli hammasi ayollar nomida bo'lib, erlari ularning hisobida edi. Kim tikuvchi, kim etikdo'z, kim chilangar. Har bir kvartira burchak va yotoq bilan chegaralanib, bir-biridan ajratilgan edi... Bunday kvartiradagi bir-biridan ayro xonachalarda bolalari bilan birga o'ttizga yaqin odam yashar edi.

Yozda soat beshda, qishda yettida butun kvartiradagilar oyoqda tik turardi. Tezroq bir amallab tanovul qilib, bekalar va uyda turuvchilarning barchasi qo'llariga turli-tuman lash-lushlarni ko'tarib, qo'ltiqlariga iflos va yirtilgan hamyonni qistirganча чайqov bozoriga, biror narsani qo'lga kiritish payida yo'lga tushardilar. Bular kvartirani ijaraga beruvchilar bo'lib, o'zlari ham ertadan kechga qadar ishlar edilar. Unda ijarada yashovchilar ham aynan shunday edi. Hatto bolalar kattalar bilan birga ko'chaga yugurib chiqadi, gugurt va papiros sotish bilan shug'ullanadi. Ular savdo qiladigan chekish mahsulotlari xudo biladi, qanday tamakidan tayyorlangan?

Bekalar haftada bir marta kvartiralarini nari-beri yuvib, yig'ishtiradilar yoki yig'ishtirayotganday bo'lishadi, chunki uy tozalab bo'lmaydigan darajaga yetib, tozalashga qancha urinma, udasidan chiqa olmasan. Lekin shunday bekalar bor ediki, ular hech qachon yoki juda kam hollarda yiliga ikki martadan ortiq o'g'rilar, aroqxo'rlar, fohishalar tomonidan o'ta iflos holatga kelgan uychalarini yig'ishtirib, tozalab chiqardi.

Bu kvartira egalari ham eski latta-putta bilan savdo qilishsa-da, lekin чайqov bozoriga kechroq borishadi, chunki kechqurun albatta ijarada turuvchilar bilan birga aroqxo'rlik qilib, mast bo'lishadi...

Savdo qiluvchilarning birinchi toifasi o'zining erlari hamda kvartirada ijarada turuvchilar bilan birga tong otar-otmas o'zlarini чайqov bozoriga uradilar va darhol yangi mollarni qo'ldan olib, zaxira to'playdilar-u, xaridorlarni shu mollar bilan firibgarlik orqali sog'in

sigirdek sog'ishga tushadilar. Ular xaridorni hamma tomondan o'rab olishadi va o'zlaridagi pidjak, shim, furashka va ichki kiyimlarni sotib olishga qistay boshlaydilar.

Bularning barchasi yirtiq-yamoq bo'lib, rangi o'zgaradigan aynima lash-lushlardan iborat. Kalishlar yoki etiklar yelimgangan yoki moylangan bo'lib chiqadi, qora palto ola-bula – qoramtir, malina tusidan iborat, furashkaning birinchi yomg'irdan keyin qizil gardishi ko'rinib qoladi, syurtuk (erkaklarning uzun belburma kamzuli)ning bir yengi ko'k, ikkinchisi sariq ekanligi ma'lum bo'ladi, yelkasi esa ko'k tusda ko'rinadi. Ichki ko'ylak-ishtonlar birinchi yuvilgan zahoti to'zib qoladi. Bularning bari birinchi toifadagi shipovlik kasb-kor egalarining «mahsulotlari» va kasb-hunarni o'rgatuvchi boshqarma imtihonidan o'tganlarga tegishli bo'lib chiqadi.

Chayqovchilik savdosi ustiga sal-pal yorug'lik tushgan hamon birinchi toifa lash-lush sotuvchilar hamda «Shilov uyi»dagi olibsotarlar shahar kambag'allariga sotishni istab boshlaydilar: joylardan mahrum bo'lgan amaldorlar it terisidan ishlangan oxirgi yoqali shinelni olib kelishadi, kambag'al, nochor talaba ko'mirga to'lash uchun syurtukni sotadi, chunki uni shuning uchun ko'chaga quvib chiqargan edilar. Och-nahor ona esa o'z go'dagining adyoli va yostig'ini sotadi. Kasod bo'lib, kambag'allashgan savdogarning xotini qo'rqa-pisa samovarini peshkash qiladi. Chunki qarzdorlar bo'limida o'tirgan eriga xo'rak sotib olishi kerak.

Bu sotuvchilarning barchasi achchiq zaruriyat tufayli yuzaga kelgan bo'lib, bozor yuholari uchun eng foydalidir. Ular to'dalashib, jabrdiydani o'rab olishadi-yu, uni zaharxanda kulgiga ko'mib yuborishadi, pichinglar, zahar-zaqqum shamalar bilan qo'rqitishadi, oxiri turli-tuman tahdidlar bilan uning tinkasini quritishadi.

– Necha pul turadi?

– To'rt so'm, – deb javob beradi chayqov bozorini umrida ko'rmagan talaba xijolatda qolib, izza bo'lganicha.

– Hm! To'rt degin! Bir so'm bo'lmaydimi?

Uni o'rab olishadi, matoni ushlab ko'rishadi, tortqilashadi, kulib, bir so'mga kelishib turaverishadi va har biri o'zining istehzoli, o'tkir so'zini tashlaydi:

– O'g'irlab olingan!.. Sotib olishga arzimaydi! Yana qo'lga tushib qolasan!

Talaba qizarib, lavlagisi chiqib ketadi... Ko'zlari yoshlanadi. Ular esa matoni tortgani-tortgan...

Och qolgan ona yig'laydi.

– Balki, unchalik toza emasdir!

Va olibsotar endigina xarid qilingan irkit mato bilan birga nafratlanib, adyol va yostiqni nari itaradi, so'ng o'zi belgilangan narxning beshdan bir qismini tavsiya qiladi.

– Bu o'g'rilik mol bo'lishi kerak, – deydi kekxa olibsotar, so'ng savdogar xotindan o'n besh so'm turadigan samovarni uch so'mga berishni so'raydi, boshqa dallol esa bechora bolaning dahshatdan esankirab qolganini ko'rib, zaharxandalik bilan ilova qiladi:

– Budkada turadigan politsiyaga odam yuborish kerak edi...

Bunday usullar hamisha muvaffaqiyat keltirardi: xijolatda qolib, qizargan talaba ham, g'am chekayotgan ona ham va savdogar ayol ham mollarini besh barobar arzonga sotishga rozi bo'lishadi. Chunki amaldorga o'xshash odamni ko'rib qolishgan. Amaldor ham loqayd holda boshqalar uchun narxini kamaytirishni so'raydi, vaholanki, dallollarning o'zi ularni aldayotgan edi. Nihoyat, u o'zining it terisidan qilingan yoqasini ma'qul narxda sotadi, pulini dallollar beradi, faqat uning ko'zlari shodlikdan «charaqlamaydi».

Yuqoridagi manzara faqat tong sahar payti ro'y beradi. Bu vaqtda ikkinchi toifa hali bosh og'rig'ini qoldirish uchun ish bilan band bo'ladi. Mana, nihoyat ular ham o'rmalab kela boshlaydi. Maydon o'zining aholisini o'zgartiradi. Kambag'allik tashvishidan qutula olmagan soatlar endi kamchilik-nuqsonlar hamda insoniy o'zliklarni ekspluatatsiya qilish soatlari bilan almashadi. Chayqov bozorida bir to'da aroqxo'rlar tentiraydi, ular faqat bosh og'rig'ini qoldirish uchun nimanidir o'marish payida bo'lishadi. Bu turdagi kishilar ikkinchi toifadagi dallollarga tegishli bo'lib, ular uchun «ovlash»ning boshqa usuli juda qulay. Chunki bu sotuvchilar vijdonli emas, qo'rqqoq emas, ularni qo'rqitib, gappingga ko'ndirib ham ololmaysan. Bir og'iz gapga o'nta javob berishadi, buning ustiga ota-onasi, yetti avlodini ham eslaydi. Shubhali sotuvchini dallollar o'rab olishadi. Narsalarni birma-bir ko'rib chiqish boshlanadi, hamma tomondan ag'dar-to'ntar qilib, taftishdan o'tkazishadi, yorug'likka solib ko'rishadi, so'ng o'z narxlarini aytib, savdola-shishga kirishadi:

– Ikki so‘m deysanmi? Bir yarim! O‘zing qara, undan ortiqqa yaramaydi!

– Ikki so‘m dedim, undan bir tiyin ham tushmayman!

– Xo‘p, chorak kamiga ber, sen o‘jar ekansan!

– Ikki! – murossasiz ohangda gapini kesadi u.

– Xo‘p, pulni ushla, sen bilan nima qilish kerak! – deydi istar-istamas bu ayol, shosha-pisha sotuvchiga bir hovuch tanga beradi-yu, uning qo‘lidan sotilgan molni tortib oladi.

U pulni sanashga kirishadi, ikki so‘m o‘rniga bir yarim chiqadi.

– Yarim so‘mini ber! Axir senga ikki so‘mga sotgan edim.

Mayda mollar bilan savdo qiladigan ayol uning oldida qaqqayib turadi.

– Narsamni qaytarib ber!

– Ma, ol, azizim, ol. Axir kuch bilan tortib olmaymiz-ku, – deydi mayda savdogar ayol va to‘satdan dahshatga tushib qichqirib yuboradi. – Oh, bu qayerga ketdi axir? Eh, birodarlar, azizlar, o‘g‘irlashibdi, kuppa-kunduzi o‘g‘irlab ketishibdi!

Shu so‘zlarni aytib, olomon ichiga kirib bo‘ladi.

Kecha aroq ichganidan boshi yorilay deb turganlar narsalarini so‘ragan pulga darrov berishadi, toki tezroq vino xarid qilsin, butun ichi yonmoqda.

Peshin boshlangach, hamma joy ochilib qoladi, sotadigan mol qolmaydi. Xarid qilish uchun turli qiyofaga kirib, eski maydondagi Xitoy devoriga yondosh turgan joyga kelishadi. U yerda ikki-uch do‘kondan tashqari hammasi o‘g‘irlangan mollar bilan shug‘ullanayotgan bo‘ladi.

Yangi maydonning burchagida Varvar darvozasida S.T. Bolshakovning do‘koni bo‘lardi. Unda eski kitoblar va Nikonga qadar bo‘lgan sanamlar bilan savdo qilinardi. Ko‘pincha olimlar va yozuvchilar kelib ko‘rishardi. Universitet professorlari va akademiklar ham tashrif buyurishadi. Uning yonida yana xuddi shunday ikkita eski kitob do‘koni bo‘lib, undan so‘ng chayqov bozori yopilgan joygacha istagan kishi o‘g‘rilik mollar bilan suqilib kirishi mumkin edi.

Chayqov bozori butun eski maydonni – Ilinka va Nikolskiy o‘rtasi va yangi, ya‘ni Ilinka va Varvarkaning bir qismini egallagan edi. Bir tomoni Xitoy devori, ikkinchi tarafi baland uylar qatori savdo binolari bilan band edi. Yuqori qavatlarda idoralar va omborlar, pastki qavatlarda – tayyor ko‘ylaklar va poyafzal do‘konlari joylashgan.

Bu mollarning deyarli hammasi arzon, eng asosiysi, ruslarga mansub edi: uzun kamzullar, po'stinlar, chalvorlar yoki palto va pidjak, juft-juft syurtuklar, oddiy kishilar uchun keng-mo'l tikilgan kiyimliklar. Darvoqe, urfga muvofiq e'tirozlar e'tiborga olingan, aynan o'sha tikuvchilar tomonidan tikilgan edi.

Tayyor kiyimlar do'koni. Bu yerda ham xuddi Suxaryovkaday xaridorni kuch bilan sudrab kirishadi. Kirish joyida doimo shovqin-suron, g'ala-g'ovur avjiga chiqqan, unda turadiganlarning majburiyati – yo'lakdan o'tib ketadiganlarni ushlab olib, oyog'ini yerga tegizmay, do'konga olib kirish. Tayyor tikilgan ko'ylak kerakmi, yo'qmi, bunga e'tibor berib o'tirishmaydi.

– Axir menga ko'ylak kerak emas! – deb yoqalashadi kamzul kiygan ikki kishi amaldormi yoki biror savdogarmi, ularning qo'llaridan mahkam ushlab.

– Rahmingiz kelsin, – deydi agar u amaldor bo'lsa, – janobi oliylari, siz bu molni ko'ring.

Va har biri undan ortda qolmay o'z tarafiga, do'koni tomon surgaydi. Agar do'konchaga sudrab kirishga muvaffaq bo'lsa, u sho'rlikni qiynab, kiyib ko'rishga, sotib olishga majbur qilishadi, sizga bo'lmasa, rafiqangizga, bolangiz yoki aravakashingizga, deydi... Bu chaqirib keluvchilar ana shunday mahoratli kishilar!

– Faqat do'konga kiring, sotib olishingiz shart emas! Ko'ndiraman!.. – chaqiruvchilarning eng ajoyib kalomi shundan iborat. Va, haqiqatan ko'ndiradi.

Aynan shunday «chaqiriluvchilar» eski maydondagi tayyor kiyimlar do'koni va Moskvoresk ko'chasidagi Yamsk idorasi burchagida ham bor edi.

U yerda ham, bu yerda ham maxsus keltirilgan oyoq kiyimlari – etiklar hamda boshmoqlar bilan savdo qilinardi. Ular, asosan, kimr mahsulotlaridan iborat. Yetmishinchi yillarda qog'oz buyum qilish boshlangan edi, vaholanki, teri nisbatan qimmat emasdi. Lekin savdogar va ustalarda shunday shior bor: «Bir tiyindan besh so'm to'laysan» va «Aldamasang – sota olmaysan».

Albatta, bularning hammasida ko'proq boy bo'lmagan odamlar aziyat chekar, xaridorni «chaqiruvchilar» tufayli aldash ancha yengil edi. U oxirgi puliga etik sotib oladi, kiyadi, ikki-uch ko'chadagi ko'lmakni yomg'ir paytida bosib o'tib, bundoq qaraydiki, tagligi

qolgan, teri o'rnida etikdan qog'oz chiqib turibdi. U yana aylanib, do'konga qaytib kiradi... «Chaqiruvchilar» allaqachon gap nimada ekanligini bilishadi, uning arzini turli-tuman so'zlar bilan ko'mib yuborishadi va o'zini firibgarga chiqarishadi: kelib, mol yaroqsiz... bozordan etikni xarid qilgansan-u, bizga kelib tirg'alyapsan...

– Xo'sh, xo'sh, qaysi do'kondan sotib olganding?

Esankirab qolgan sho'rlik xaridor qaraydiki, do'konchalar ko'p, peshlavhalar hamda kirish joylari bir-biriga o'xshash, har birida «chaqiruvchilar» to'dalari...

Yig'lab yuboradi-yu, masxara va zaharxanda kulgilar orasidan chiqib ketadi...

Oltmishinchi yillarda Moskvada politsmeyster Lujin bo'lardi. U Moskva yaqinida o'zining ovchi itlar boqiladigan itxonasiga ega ashaddiy ovchi edi. Uning ovdagi bosh sakboni Eski maydonda etiklarni qog'oz tagliklar bilan sotishayotganini aytib shikoyat qiladi, savdogarlarga bu mollar qayerdan, qanday qilib kelayotganidan arz etadi. Lujin uni bu savdoni tafsilotlari bilan bilib kelish maqsadida yuboradi. Ko'p o'tmay ovchi kelib, bugun ertalab Eski maydonga yirik ko'tara savdo bilan shug'ullanadigan eng yirik savdogarga Kimrdan bir necha arava oyoq kiyimi keltirishgani to'g'risida axborot beradi.

Lujin politsiyachilar otryadi bilan ko'rsatilgan poyafzal omborini kutilmaganda o'rab oldi. Mahalliy pristavga hech nima demadi. Savdogarni ogohlantirib qo'ymasin, deb o'yladi. Lujin aynan poyafzallar aravalardan omborga ag'darilayotgan paytda yetib keldi. Hamma hibsga olindi: ombor egalari ham, ularning ishonchli odamlari, Kimrdan aravalar bilan olibsotarlik qiladiganlar ham, shu bilan birga poyafzallar sotgan kishilarni ham qamashdi. Mol va omborlarni muhrlagan Lujin qamoqqa olinganlarni shahar politsiya bo'limiga jo'natdi, u yerda mushketyorlar ombor xo'jayinlarini ham, mol keltirgan kimr savdogarlarini ham kelishtirib kaltaklashdi.

Savdogarlar endi hech qachon bunday mol bilan savdo qilmaymiz, deb kaltak hamda xivich ostida qasam ichishdi, kimrlilar esa qattol azob ostida ont ichib, faqat o'zlari emas, shu bilan birga bolalari, nevaralari va evaralari otalarining ichgan qasami qo'rquvi ostida bundan buyon qog'oztaglik qo'ymasliklarini aytishdi. Va haqiqatan, kimrlilar vijdonan ishladilar, qog'oztagliklar to'g'risidagi gap 1877–1878-yilgi turk urushiga qadar mutlaqo eshitilmadi.

Lekin turk urushida kimrliklarning farzandlari hamda nabiralari «samarasiz kelishuv»ga jalb qilindilar. Ularning sudda izoh berishiga qaraganda, armiya uchun poyafzal tayyorlab berishga katta buyurtma berishadi, ya'ni etiklarni qog'oztagliklar bilan tayyorlash kerak edi. Bolqon va Kavkaz askarlari qor ustida yurganlarida, poyafzallari titilib ketib, ko'pchiligi shamollashdan halok bo'lishdi... Yana shu paytdan e'tiboran qog'ozdan qilingan tagliklar Suxaryovka, Smolensk bozorlari hamda mayda do'konlarda «Aldamasang – sota olmaysan» shiori ostida sotila boshlandi.

Faqat saksoninchi yillarda chayqovchilik bozorlari yo'q qilingach, Eski maydon tozalandi va «Shipov uyi» binoyidek ko'rinishga ega bo'ldi.

Moskva kommunal xo'jaligi obodonlashtirish bo'limi 1926-yili Xitoy-shahar devori – eski Moskva yodgorligining besh yuz yil burungi ko'rinishini tikladi. O'shanda u dushmanlar hamlasidan himoya qilingan, keyingi avlodlar duch kelgan qiyofada emas edi.

O'lmas Gogolni yodga olamiz:

«Bu hovli devori yonida qirq arava har xil chiqindi tashlangan. Qanaqangi xunuk shahar bo'ldi! Faqat biror haykal yoki shunchaki devor ko'tardingmi, bas, jin ursin, qaysi go'rdan har qanday axlatlarni olib kelishadi...»

1934-yilda Xitoy-shahar devori ko'chirib tashlanguncha ana shunday ko'rinishda edi, yaqinda ham eng xunuk, qarab bo'lmaydigan darajada edi. Devorning ko'p joylari butunlay xarobaga aylangan, ba'zi joylari yerdan ikki metrlar chamasi o'sgan, minoralar odamlar joylashgach, abgor holatga kelib qolgan, devorlarida butun xo'jalik ishlari avj olgan, endi dala hovlilar kerak emas edi!

...Qadimiy minora yonida.

Qadimiy devorlar sal bo'lmasa, haydalgan edi. Devor tirqishidan daraxtlar o'sgan, ular Lubyansk, Varvar, Eski hamda Yangi maydonlardan yaqqol ko'rinib turardi.





NEGLINKA SIRLARI

Har bir kuchli yomg'irdan so'ng suv shunchalik oqar ediki, Trubniy maydoni va Neglinniy proyezdi Kuznetsk ko'prigiga qadar, do'kon eshiklari hamda ushbu hududning quyi qismigacha sharshara kabi qoplar edi. Svetnoy bulvar tagidagi Samotekdan tortib Neglinka yer osti axlati oqadigan ariq hech qachon tozalanmasligi bois shunday bo'lardi. Teatr maydoni va Aleksandrovskiy bog'i Moskva daryosigacha bo'lgan joylar suvni sig'dira olmas, uni yomg'irli kunlarda oshirib-toshirib yuborardi. Bu uchiga chiqqan kulfat, ammo «shaharlar otasi» hech qanday e'tibor bermasdi.

Qadimgi davrdan boshlab bu yerda Neglinka daryosi oqardi. Hali Yekaterina zamonida u yer ostidagi quvurga ulangan edi. Daryo asosiga qoziqoyoq qoqishdi, tosh qubba bilan yopishdi, yog'och pol o'rnatishdi, ko'chadagi suv oqimlari yer osti kirib ketmog'i uchun quduq qazishdi va ko'chalar ostida yer osti axlat oqadigan quvur tashkil etishdi. Bu «qonuniy» quvurlardan tashqari boy-badavlat odamlar Neglinkaga maxfiy suv osti novi o'tkazishgandi. Bunda iflos suvlar oqizilar edi. Ularni bochkaga solib tashishdan ko'ra Moskva-da kanalizatsiya qurilganga qadar hech muvofiq kelmas edi. Bu irkit suvlarning bari Moskva daryosiga tushardi.

Buni politsiya ham bilar, mahalliy ma'muriyatning saylangan a'zolari ham yaxshi xabardor edi. Va ular bizgacha shunday bo'lgan, biz bilan ado bo'lmasa kerak, deb o'ylagan bo'lishlari lozim!

Moskva yer ostidagi artezian quduqlarida bo'lib, Parijdagi yer ostidan oqadigan axlat kanallarini Viktor Gyugoning «Xo'rlanganlar» romanidan o'qib, men qanday bo'lmasin, Neglinkani tekshirib ko'rishga qaror qildim. Bu mening Moskvadagi xilvat, pastqam joylarni o'rganish bilan bog'liq doimiy ishining davomi bo'lib, Neglin-

kaga aloqador edi, chunki Grachevka va Svetnoy bulvardagi buzuq-xonalarni bilib olishimga to'g'ri kelgan edi.

Bu sayohatni amalga oshirishga qat'iyat bilan kirishgan ikki kishini topish menga unchalik qiyinchilik tug'dirmadi. Bulardan biri pasportsiz vodoprovodchi Fedya bo'lib, kundalik ishlar bilan band bo'lardi. Ikkinchisi sobiq xizmatkor, savlatli va puxta-pishiq, mulohazali kishi edi. Uning vazifasi narvonni tutib turib, bizni Samotek va Trubniy maydonidagi yer osti iflos suv oqadigan joyga tushirish, so'ng qo'shni oraliqda bizni kutib olib, chiqib ketishimiz uchun narvonni tushirishdan iborat edi. Fedyaning asosiy vazifasi menga hamrohlik qilib, boradigan joylarimizni yoritishdan iborat edi.

Va issiq iyul kunlaridan birida Samotek yaqinidagi Malyushin uyi qarshisiga bordik, so'ng kirish joyidagi quduqning temir panjarasini ko'tardik va u yoqqa narvonni tushirdik. Bizning o'tkazayotgan operatsiyamizga hech kim e'tibor bermadi – chunki juda tezlik bilan bajarilgan: panjarani ko'targan va narvonni darhol tushirgan edik. Ochilgan joydan qo'lansa hidli bug' ko'tarildi. Fedya vodoprovodchi birinchi bo'lib tushdi. Tuynuk ho'l, iflos bo'lib, tor edi. Narvon osilib turar, yelka devorga tegardi. Suvning shaloplashi hamda xuddi yer osti sag'anasidan kelayotganday ovoz eshitilardi:

– Tush, nega qarab turibsan?

Men ovchilarga mo'ljallangan etigimni baland ko'tardim, charm pidjagimning hamma tugmalarini o'tkazdim-u, so'ng tusha boshladim. Barmoqlarim va yelkam quvur devorlariga tegardi. Qo'llarim bilan osilib turgan iflos, tebranayotgan narvonni mahkam ushlashga to'g'ri kelgandi. Narvonni tutgan ishchilar tepada qolgan. Har oyoq qo'yib tushishda qo'lansa hid tobora kuchliroq anqir edi. Qo'rqinchli hol ro'y berayotganday vahima bosardi. Nihoyat, suvning shovqini va shaldirashi eshitildi. Men yuqoriga qaradim. Tepadan to'rtburchak moviy, ochiq osmon hamda narvonni ushlab turgan ishchining yuzi ko'rindi. Sovuq, suyakkacha o'tib ketadigan namlik butun vujudimni qoplab oldi.

Nihoyat, oxirgi zinaga oyoq qo'ydim va tushayotib, etik tovonni suv to'lqiniga urilib ketganini his etdim.

– Dadilroq tushaver, tik turgin, u yer unchalik chuqur emas, – dedi bo'g'iq guldiragan ovoz chiqarib Fedya.

Men chuqurlikda qaddimni ko'tardim va sovuq namligi ovchilarga xos etigim orasidan kira boshladi.

– Chiroqni yoqa olmayman, gugurt namiqib qolgan! – deb shikoyat qiladi hamrohim. Menda gugurt yo‘q edi. Fedya orqaga qaytib, chiqib ketdi.

Men bamisoli uzlatdagi sag‘ana ichida qolgandek yolg‘iz holda tizzamgacha burqirab turgan suv kechib, o‘n qadamlar yurdim. So‘ng to‘xtadim. Atrofim faqat zulmatdan iborat edi. Zulmat nihoyatda qalin, yorug‘lik mutlaqo ko‘rinmasdi. Boshimni hamma tomonga burib qaradim, ammo ko‘zlarim hech nimani farqlamasdi.

Boshim bilan nimagadir tegib ketdim, qo‘limni ko‘tardim-u, ho‘l, sovuq, shilimshiq, yopishqoq tosh ustunni ushladim va asabiylashib, qo‘limni tortib oldim... Bu hol, hatto qo‘rqinchli tuyuldi. Hammayoq jimjit, hatto vahimaga tushdim, faqat pastda suvning oqqani eshitilardi. Ishchi kelgunga qadar har bir soniya olis, abadiylik kabi ko‘rinardi. Men yana oldinga odimladim va xuddi sharshara kabi tovushni ilg‘adim. Haqiqatan shundoq yonginamda millionlab iflos tomchilar sachrar, ular zo‘rg‘a, bilinar-bilinmas, ko‘cha quvurlari tirqishidan tushayotgan oqish-sarg‘ish shu‘lalar orqali namoyon bo‘lardi. Bu yon tomon devoridagi tuynukdan tushayotgan iflos oqova edi. Men shovqin tufayli yonimga kelgan Fedyani payqamay qolgan edim, u yelkamdan yengil turtdi. Burilib qaradim. Uning qo‘lida besh ko‘zli chiroq bo‘lib, boshqa joyda yorug‘ ko‘rinar, ammo bu yerda beshta nursiz yulduzcha kabi ko‘zga tashlanar, deyarli yoritmas, zulmatni yengishga qodir emasdi. Biz oldinga qarab yurdik, ko‘chadan tushayotgan suv oqovalari tovushini eshitib, undan o‘zimizni chetga tortib, odim tashlar edik. Birdan xuddi bino ag‘darilib ketgandek qarsillagan tovush eshitildi. Tepamizda, nazarimda, arava yurib borardi. Men artezian qudug‘i tunneliga sayohat qilganimda, xuddi shunday qarsillashni eshitganimni esladim. Lekin bu yerdagi tovush nihoyat shiddatli edi. Boshim tepasida tez-tez ekipaj o‘tib ketar, uning tovushi baland edi. Chiroq yordamida yer osti devorini ko‘zdan kechirdim, u nam, qalin, shilimshiq parda bilan qoplangan edi.

Biz uzoq yurdik, ba‘zi joylarda engashardik, chunki iflos oqovalar shunchalik qalin ediki, to‘g‘ri yurishning imkoniyati yo‘q edi. Oyoqlarimiz irkit loyga belangan, bu qalin qo‘lansa loyga qarab bo‘lmas, ba‘zan unga qoqilib ketish mumkin edi. Ilgari ham shunday bo‘lganmikan, deb o‘ylab qolasan, kishi.

Birinchi quduqqa yetganimizcha qadam tashlab bordik va pastga tushirilgan narvonga to‘qnash keldik. Men boshimni ko‘tarib, moviy osmonga ko‘zim tushdi-yu, quvonib ketdim.

– Xo‘sh, hammasi joyidami? Chiqaver! – tepadan tovush yang-radi.

– Biz yana biroz yuramiz, oraliqning o‘rtasidan tushirgin.

– Xo‘p, qarasak, qarayveramiz-da, kutib.

Men narvonni ikki oraliqdan so‘ng tushirishlarini aytdim, u tepaga qarab tortildi. Biz yana irkit, oqova suvni kechib, ko‘cha axlatlari oralab, oldinga qadam bosardik.

Yana boshimiz uzra to‘rtburchakdagi osmon ko‘rindi. Oradan bir necha daqiqa o‘tib, oyoqlarimiz tagida supachani sezdik. Bu yerda zich balchiq bo‘lib, aftidan, tagida nimadir uyulgan... Chiroq bilan yoritib, balchiqdan o‘tdik. Men oyog‘im bilan urib ko‘rdim va etigim ostida nimadir yig‘ilib-cho‘zilgan bo‘ldi. Hatlab o‘tib, yana yurdik. Shunday uyumlardan birida men ulkan it murdasining yarmini ko‘rishga muvaffaq bo‘ldim. Ayniqsa, Trubnaya maydoniga chiqish oldidan so‘nggi uyumni bosib o‘tish qiyin kechdi. Bu yerda bizni narvon kutib turardi. Ifloslik o‘ta qalin bo‘lib, oyoqlarimiz tagida hamma vaqt nimadir sirpanib ketardi. Bu haqda o‘ylash qo‘rqinchli edi.

Fedya baribir tortinmay gapirdi:

– To‘g‘risini aytsam, odamlar ustida yuribmiz.

Men indamadim. Tepaga qaradim, temir panjara orasidan ko‘m-ko‘k osmon tovlanar edi. Yana bir oraliqdan o‘tamiz. U yerda bizni ochiq panjara va narvon kutib turadi, shu bilan erkinlikka chiqib olamiz.

* * *

Mening Moskva zamini ostidagi axlat oqadigan kanal to‘g‘risidagi maqolam tufayli shov-shuv ko‘tarildi. Duma Neglinkada qayta qurish ishlarini boshlash to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu ish muhandis tani-shim N.M. Levachevga topshirildi. U taniqli ovchi bo‘lib, biz qishda bir necha bor u bilan bo‘ri ovlashga borgan edik.

Levachev bilan ish paytida Maliy teatr yonidan Neglinkaga ikkinchi marta tushdik. Bu yerda axlat oqadigan yer osti kanali burilish hosil qiladi, ammo boshlanishi shunchalik axlat bilan to‘lib-toshib

ketayotgandiki, suv ensiz oraliqdan zo'rg'a o'tar va bu toshqinning asosiy sababchisi edi.

Nihoyat, Neglinka 1886-yilda qayta qurib bitkazildi.

Reportyorlik yozuvi o'z ishini ado etdi. Mening umidsizlikka tushgan hamrohim Fedyani Devachyov ishchilikka qabul qildi, bir amallab pasport olib berdi va keyin ishboshi (desyatnik) vazifasiga tayinladi.

* * *

Levachev o'tkazgan qayta qurish ishlaridan so'ng yana axlat va qalin oqova Xitoy proyezdi tagidagi kanalda to'planib qoldi, bu joy Maliy teatr yonida edi. Urush paytida toshqin shunchalik kuchli bo'lganki, natijada uylarning pastki qavatlar hamda savdo nuqtalarini to'ldirib yuborgan. Lekin poytaxtning asosiy xo'jayini hisoblanmish shahar dumasi hech qanaqa chora belgilamadi.

Faqat 1926-yilda Neglinka bilan Mossovet shug'ullandi. Maliy teatrdan tortib (o'shanda uning tagidan poydevor ko'tarilayotgan edi) Sverdlov maydonining yarmigacha axlat tiqilgan o'zan tozalandi, shu tariqa suv toshqini to'xtadi.

Men bir marta Neglinniy yonidan o'tib borar ekanman, davlat banki qarshisida, ko'chaning o'rtasida yog'och barakka ko'zim tushdi. U devor bilan o'ralgan bo'lib, ichkariga kirganimda, ish olib borayotgan muhandisni uchratdim. Ma'lum bo'ldiki, u meni tanir ekan. Iltimosimga ko'ra, ishni ko'rib chiqishga rozilik bildirdi. Barakning o'rtasida ensiz tirqish bo'lib, u yerdan narvonning uchi chiqib turardi.

Men tushishga urinib ko'rdim, ammo po'stinim xalaqit berdi. Tushishim o'zim ishlayotgan «Moskva oqshomi» gazetasi uchun qiziqarli xabar bo'lardi. Lekin buni istamadim, chunki u yerda ishlardim. Po'stinimni yechdim-u, pastga tushdim.

Elektr chiroqlari bilan yoritilgan yer osti yo'lagi yorug'lik orasidan xira ko'rinib tursa-da, tanish edi. Har tomondagi novlar ustiga yog'och ko'prikchalar qo'yilgan, har holda eruvchanlik davrida bari-bir turli joylardan suvlar oqib tushardi. Ish deyarli poyoniga yetgan, butun chiqindi yig'ishtirib olingan va yer osti axlat oqadigan kanali to'la-to'kis tartibga keltirilgan edi.

Men Maliy teatr tagiga keldim, gandraklab, oyoqlarim iflos oqova suvga belanganicha, axlat isini hidlaganimcha ho'l narvon-

dan yuqoriga chiqdim. Meni isitishga qurbi yetmaydigan po'stinni kiydim-u, tahririyatga qarab yo'l oldim. Ish jarayoni haqida yozish bilan mashg'ul ekanman, axlat oqadigan yer osti kanalida o'tkazgan sayohatimni esladim.

Boshqa kuni o'zimning maqolamni to'shakda baland harorat ostida yotgan holda o'qir edim. Gripp tufayli nihoyat chap qulog'im butunlay bitib qoldi, o'ngi esa jarohatlanganicha qolaverdi.

Bu mening Neglinka yer osti kanaliga qirq yil oldingi sayohatimga taalluqli xulosam edi.





«SVETNOY BULVAR»DA O‘TKAZILGAN TUN

Cho‘ntakda teshik bor! Bundan yomoni bo‘lishi mumkinmi?

Aynan shu kichkina, o‘z vaqtida bilinmagan teshik mening ko‘p-gina sarguzashtlarimga sabab bo‘lgan.

1883-yil avgust oyi edi. Men besh oydan buyon Moskvada emasdim, endigina qaytgandim. Bu muddat davomida adabiy ish bilan mashg‘ul edim: she‘rlar hamda «Budilnik», «Razvlecheniya», «Oskolka» jurnallarida mayda-chuyda hikoyalar yozar, turli mavzularga doir maqolalar chiqarardim. Moskva gazetalarida ot poygasi hamda musobaqalari to‘g‘risida hisobotlar berardim. Otchoparlar o‘rtasida turli masofa va mavqedagi tanishlar orasida eng qaltis kasbdagi kishilar bilan tanishishga ham to‘g‘ri keldi. Ular doimo bashang kiyinar, yirik o‘yinchi va ot poygasi paytida dov tikadigan kishilar edi. Men bunday tanish-bilishlarni ishtiyoq bilan qo‘llab-quvvatlardim: shular tufayli gazetalar uchun qiziqarli materiallar to‘plar, ba‘zan maxfiy ravishda qimorxonalarga kirib borardim, u yerlarda meni tortinmay kutib olishardi. Shunday odamlarni uchratdimki, ular jamiyatga qabul qilingan, hatto klublar a‘zosi bo‘lsalar-da, aslida yo qartaboz g‘irrom, yo firibgar, yo to‘daning boshliqlari edi. Bu ittifoq to‘g‘risida butun boshli kitob yozish mumkin, lekin men faqat kunda-shunda poygachilardan biri to‘g‘risidagi xotiralar bilan chegaralanaman, xolos.

O‘sha kuni teshik bilan bog‘liq voqea ro‘y bergan paytda u otchoparda maslahat bilan oldimga keldi: navbatdagi mukofot uchun unga o‘zinning otimni yozsam bo‘ladimi? Imkoniyatlarga egami? – deb so‘radi. Poyga tugagach, biz podyezdda tasodifan yana uchrashib qoldik va u yomg‘ir yoqqani tufayli meni o‘zining ekipajida uygacha olib borishni taklif qildi. Men rad etdim, Samotekka bormoqchiman, bu esa yo‘limizga to‘g‘ri kelmaydi, dedim. Lekin u kucherga javob berib, meni birga ketishga ko‘ndirdi, o‘zining bir ot qo‘shiladigan

ikki g'ildirakli arava, ya'ni sharabonida Samotekga qadar olib bordi, u yerda men eski do'stim rassom Pavlik Yakovlev huzuriga kirdim.

Yo'lda biz otlar to'g'risida gaplashib qoldik, u meni bu sohada bilimdon hisoblar va shuning uchun hurmat qilar edi.

Yakovlevnikidan kechasi soat birlarga yaqin chiqdim. Etigim bilan Svetnoy bulvar xiyobonlari bo'ylab, loy kechib borardim. Odatim bo'yicha Andreyev-Burlak sovg'a qilgan, yonimdan aslo ayri qo'ymaydigan kastet (mushtlashish quroli)ni mahkam tutib, o'ng cho'ntagimga qo'limni tiqib boryapman. Darvoqe, bu ehtiyotkorlikning aslo keragi yo'q, bitta ham tirik jon ko'rinmas, chunki:

*Mayin yoqqan yomg'ir tomchisi
Tuman oralab-oraleb tushar.*

Tun ko'rib bo'lmaydigan darajada zim-ziyo. Birorta fonar ko'zga tashlanmaydi, Duma taqvimini bo'yicha o'sha tunda osmonda oy chiqib, atrofni yoritishi kerak. Chunki oyli kecha edi. Yetmaganiga tuman tushgan. U daraxt shoxlari ustida, daraxtlarda osilib turar, bundan olabula sharpalardek ko'zga tashlanardi. Bunday kechada talonchilikdan mutlaqo qo'rqmay xiyobon bo'ylab bermalol yurish mumkin. Aks holda Arbuzov qal'asi va xiyobonda joylashgan sobiq boyning uyi muyulishidagi xilvat joylardan grachyovlik sayoqlar chiqib, o'ldirib ketishdan ham qaytmas edi.

Eng xavfli – Grachyovkadan Svetnoy bulvar orqali Maliy Kolo-sov muyulishiga kirish. U yer fohishaxonalarga boy bo'lib, muassasalarning ko'chaga tomon qaragan podyezdlarida albatta fonar yonib turar, qorong'i, xilvat ichkari tomonlarida uchiga chiqqan sirli buzuqxonalar joylashgan, u yerda hech qanaqa fonarlar ko'rinmas, uy dera-zalari esa ichkari tomondan g'ira-shira yoritilar edi.

O'ziga xos tomoni shuki, bu hovlilarning barchasida it saqlamas edilar... Bu yerda insoniy qiyofasini butunlay yo'qotgan ayollar yashar, ularning «mushuklar» laqabi bilan tilga oladigan erkaklari politsiyadan qochib yuradigan kishilar bo'lib, Xitrovkadan tunash uchun uylarga borish ham nihoyat xatarli edi. Tunda «mushuklar» Svetnoy bulvar va Samotekga chiqishar yoki aroqxo'rlik qilar edilar. Ularni yoki o'z buzuqxonalariga olib kirishar, yoki shu yerning o'zidayoq yechintirib qo'yishardi. Oxirgi buzuqxonalarda jinoyatni amalga oshi-

rish uchun tomteshar o'g'rilar yollanar edi. Bu yerga politsiya qadam bosmas, agar oliy darajadagi rahbarlik talab qilsa, ayniqsa prokuror buyursa, shundan keyin taftish boshlanar, ammo «bekalar» oldindan buni bilishar, xabardor qilinlar, shu bois «to'satdan» o'tkaziladigan tekshiruvlarda hech qachon axtargan odamlari topilmasdi...

Bu kvartiralarining bekalari, sohiblari sobiq fohishalardan iborat bo'lib, soxta hujjatli ayollardan iborat, aslida qochoq jinoyatchilarning jazmanlari edi. Bu jinoyatchilar politsiyadan qochib yurganlar yoki uchiga chiqqan firibgar yoki o'g'rilar edi.

Ayrim qimorbozlar yoki qimor o'yinlarini tashkil qiladigan kishilarning bu yerda maxfiy xonalari bo'lib, qaroqchi va tomteshar o'g'rilar qimor o'ynardi. Bunday xilvat, kimsasiz maskanlarda ular xotirjam ehtiroslarini qondirishardi. Chunki hech qanday begonalar bo'lmasligini yaxshi bilishardi. Qimorbozning ayg'oqchilari – qimor o'yinini tashkil etuvchilar birorta qulfteshar o'g'rining muvaffaqiyatli ishdan keyin pulni qo'lga kiritganidan xabardor bo'lar va shu zahoti uning izidan «ovlash»ga tushardilar. Ma'lum kunda o'ynash uchun «tegirmon»ga taklif qilishar, «tegirmon»da boshqa o'yin o'ynalmasdi. Ma'lum soatda qo'shiq aytgan qartabozlar – ijrochi, har bir qartani benarvon uradigan bankomet (qarta o'yinida: bank qo'yg'an o'yinchi), kerakli kishilar to'planar va barcha pullar ulfatlar ixtiyoriga o'tardi. Buning uchun maxsus shunday «tegirmon»lar ish yuritardi. Shu bilan birga, unda band bo'lmagan «ishbilarmonlar», turli-tuman bezorilar va boshqalar yaxshi daromad ko'rishardi – bankdan o'n foiz chegirib olishardi. Shinam kvartira egalari, «ishbilarmon bqlalar» ehtiyotkorlik vajidan mazkur joylarga borishmasdi. «Tegirmon»lar o'sha paytda asosiy katta ko'chalarda o'ndan ziyod edi.

* * *

Yuqoridagi kabi muassasalar saksoninchi yillarda ancha gullagan edi. O'sha paytda bunday buzuqxona sohiblari eng beg'araz niyatli hisoblanar, siyosiy jihatdan ishonchga sazovor va politsiya tomonidan nojo'ya ishlarga beparvo qaraydigan kishilar, deb alohida qaralar edi. Ularga saxiylik bilan pul to'lashar, qo'riqlash jamiyati bu toifani «davlat tuzumi uchun xavfli» hisoblamas edi. Hatto himoya ostiga olishga kirishilar, buzuqxona tutgan odamlar hamda ularning «tegirmonlari» podshoh dargohi tomonidan qo'riqlashga tushilardi.

O'shanda politsiya faqat inqilobiy kayfiyatdagilar bilan shug'ullanib, ularni qamar, yuzlab odamlarni surgun qilar edi.

Grachyovka hamda Svetnoy bulvarda tinchlik, osoyishtalik hukmron edi...

Men batamom sukunat ichida qadam tashlar ekanman, tuman oralab birdan o'ng oyog'imda qandaydir g'alati og'riqni his etdim; u shunchalik azob berdiki, to'xtashimga to'g'ri keldi. O'tirib olish uchun atrofga nazar tashlab, oyog'imdagi poyafzalni yechmoqchi bo'ldim, ammo hech qayerda o'rindiqlik yo'q, oyog'imdagi og'riqqa esa chidab bo'lmasdi.

Shunda daraxtga suyandim, etigimni yechdim-u, og'riq sababini angladim: mening tig'i o'tkir pichoqcham cho'ntagimdan tushib, etik ichiga kirgan ekan. Pichoqchani cho'ntakka solib, etikni kiya boshlagan edimki, birdan ko'lmakni kimlardir shaloplatib kesib o'tgani va ohista gaplashganini eshitib qoldim. Men daraxt ortiga mahkam yopishdim-u, jimib qoldim. Bezimyanka tomonidan qizil fonarning doirasimon manzarasida ikki kishi bir odamni quchoqlaganicha ohista kelardi.

– Tinka qurib qoldi-ku! Dam olamiz... birorta tirik it ham yo'q...

– Eh, nafas olmayapti, o'lgan shekilli! Xo'p, tushir...

Chekkadagi kishilar engashib, o'rtadagi odamni ehtiyot bo'lib yerga tushirdi.

«Mast odamni olib ketishyapti», – deb o'yladim men.

Jussador kishining jasadiga ko'zim tushgan edi hamki, yonida bukri, qandaydir noqis odam ko'ringanday bo'ldi. U qo'lini silkitib yelpindi.

– Qanaqa sog'lom edi, hamma qo'lini tortdi!

Norg'ul odam esa ko'lmakka uzala tushib yotardi.

– Fokach, uni shu yerga tashlaymiz... chakalak ham yonboshda...

– Budkaning biqini-ku... ahmoq! Ertaga iskovuchlar hamma «joyga» yugurib bong urishadi...

– Anig'i, quvurga, oxiri suvga tushib ketadi!

– Qiladigan bo'lsak yashirin qilaylik. Qani, ko'tardik! Endi qo'lini olishim mumkin.

Kattasi boshidan ko'tardi, kichigi oyog'idan, xuddi g'o'lanini olganday...

Men ularning ortidan sezdirmay yura boshladim. Yomg'ir tindi. Suv tor joydan yo'lak yoqalab jildirab oqardi. So'ng yer ostiga –

Neglinkaga shovqin solib tushardi. Temir panjara orqali quduqqa oqardi. Ana shu yerda «mehnatkashlar» to'xtashdi va jasadni tosh ustiga tashlashdi.

– Panjarani ko'tar!

Kichkina jussali kishi engashdi, keyin qaddini ko'tarib, gavdasini to'g'irladi.

– Chijalo, qilolmadim!

– Eh, razil, ablah!

Jussador zo'r berib panjarani surdi.

– «E-ha, – birdan fikr yuritdim men, – «oxiri suvga tushish» degani shu ekan-da.

Men butalar ichida tipirchiladim-da, butun xiyobonni boshimga ko'tarib qichqirdim:

– Bolalar, bu yoqqa! Manovilarni ushla!

Va cho'ntagimdan politsiyachilarning hushtagini chiqardim, uni har ehtimolga ko'ra doim o'zim bilan olib yurardim. Xilvat joyning u yer-bu yeriga yugurib, uch marta keskin, uzoq davom etadigan hushtak chaldim.

Ikkala qaroqchi ham dastlab yo'lak bo'ylab, so'ng ko'chani kesib o'tdi-yu, yalanglikdagi butalar orasiga yo'qoldi.

Men yotgan odamning oldiga yugurib, yuzini siypalab ko'rdim: soqol-mo'ylovlari qirib olingan... Jussali, katta odam. Botinka, shim, kamzul, oq dog' esa ohorlangan ko'ylakdan iborat edi. Men qo'lini ushladim, u barmoqlarini qimirlatdi. Tirik!

Yana uch marta qattiq hushtak chaldim. Turli tomondan menga javoban ovozlari yetib keldi. To'pirlagan qadam tovushlari eshitildi: qo'shni uyning qorovuli, xiyobon tomondan esa mirshab, aftidan budka ichidan chopib keldi. Men shahar orasida berkindim. Panjara oldida turgan odamni ko'radilarmi, yo'qmi, shunga ishonch hosil qilmoqchi edim. Qorovul yo'lak chetidan yugurib keldi va to'ppa-to'g'ri unga to'qnashib ketdi va hushtak chalib yubordi. Mirshab chopib keldi... Ikkalasi ham yotgan odamga engashib qarashdi. Men ularning yoniga bormoqchi edim, lekin yana oyog'imda og'riqni his etdim: pichoq cho'ntagimning yirtiq joyidan tushib ketgan edi!

Bu keyingi harakatni hal etdi: bekordan bekor tavakkal qilmaslik kerak, ertaga bilaman.

Xiyobonning bu tomoni Sreten hududining birinchi qismiga qarashli edi. Qarama-qarshi tomoni Bezimyankaga tegishli bo'lib, jasadni ikkinchi tomonga olib kelishgan edi.

Trubnaya maydonida men izvosh yolladim-u, uyga keldim.

Ertalab soat o'nda allaqachon Sreten kalavasi tomondagi pristav Larepland kabinetida o'tirardim. U bilan yaxshi tanishman, bir necha bor gazetalar uchun ma'lumotlar olganman. Unda bitta o'jiz jihat bor edi. Sobiq kantonist, ya'ni askarning o'g'li sifatida o'n yillar Moskva politsiyasida xizmat qilib, mirshablikdan uchastka boshlig'iga qadar yo'lni bosib o'tgan, kollej asessori¹ martabasigacha qadar etgan, uni kapitan deb atashsa, xursand bo'lardi, vaholanki, fuqarolik idoralariga xos yuganlarni taqib yuradi.

– Kapitan, men hozirgina ma'lumot oldim, bugun tunda Svetnoy bulvardan murda topishibdi.

– Birinchidan, hech qanaqa o'lim bo'lmagan, balki Grachevka-da tunashgan mast odamni ko'tarib olishgan, sudrab, mening hududimga keltirib tashlashgan. O'g'rilarda shunday qabul qilingan – toki ularning ham, bizning ham mashmashamiz kamroq bo'lsin. Kim ham begona uchastkada axtarib yotadi! Sudrab kelishganini esa isbotlash mumkin emas. Bu, birinchidan. Ikkinchisi esa, sizdan o'tinib so'rayman, bu haqda gazetada yozmang tag'in. Men hatto bayonnoma ham tuzmadim va ishni yopib qo'ya qoldim. Siz bu haqda qayerdan bila qoldingiz, juda ajablanarli! Buni hech kim, mirshab bilan jabrdiydadan boshqa biror kishi bilmaydi... U ham ishni to'xtatishni iltimos qildi. Yo'q, iltimos, tag'in siz yozmang, aks holda meni tashvishga qo'yasiz. Men-ku, ober-politsmeysterga mutlaqo xabar qilmayman.

Va Larepland menga hech nimani sezmay qolgan o'lguday mast odamni tunda olib kelishgani, boshdan oyoq yechintirishgani, o'ng ko'prik ustidagi ko'lmakchaga tashlab ketishganini gapirib berdi.

– Dastavval o'lgan deb o'ylashgan, shuning uchun butxonaga qo'yishgan, u yerda shishib ketgan ikki jasad yotgan ekan, bu esa qimirlab, gapirib yuborgan. Hozir qabul bo'limida, parvarish qilinmoqda, ertalab u bilan gaplashdim. Ma'lum bo'lishicha, bu odam badavlat nemis bo'lib, akasi Vogau idorasida xizmat qilar ekan. Hozirgina uni chaqirishdi va karetda kelib, ukasini olib ketdi. Nemis sayr qilgan, buzuqxonaga kirib qolgan-u, qizlar uni torta-tort qilishgan, ichirishgan, mast qilib, mening hududimga tashlashgan. Bizda bunday ish-

¹ *Asessor* – o'tmishda Rossiyada: kichik amaldorlarga berilgan 8-darajali unvon va shu unvon egasi.

lar bo'lib turadi... Kimdandir menga mukofot kabi tashlab ketishadi, bizning bolalar esa ikkinchisini uloqtirib yuboradilar... U yerdagi kapitan Kapeni (u ham kantonist) mening do'stim, kelishamiz-u, ishni yopamiz. Ha, bundan hech kimga foyda yo'q, hammasi eskicha bo'laveradi, aks holda faqat tashvish, g'alva. Yaxshiyam, tirik qoldi, vaqtda hayot alomati ko'rindi!

Yosh, kelishgan, ko'rkam nemis... Buzuqxonaga mast holda tushgan, uni qizlar bilan pivo ichishga majbur qilishgan. Hamma stakarlarda ichishgani, unga esa qirrali metall qopqoqli krujkada olib kelishganini eslaydi. Qopqog'ida qush surati borligi xotirasida qolgan, xolos.

Men hech nima yozmaslikka va'da berdim. Pristavga tunda ko'rganim haqida ham gapirmadim. Ammo Xitrovka, Arjenovka, Xapilovkaga o'xshab ketadigan va boshqa xilvat joylarni eslatadigan Grachyovkani tekshirish ishlari bilan mashg'ul bo'ldim. Chunki yuqorida tilga olingan joylarga bir necha marta borgan edim.





BURGUT TASVIRLI KRUKA

Bo'sh vaqtlarimdan birida oqshom Grachevkaga tushdim.

«Qrim» traktirida Trubnoy maydonida vengercha xor qo'shiqlarini tinglar ekanman, poygalarda doimiy ishtirok etadigan qartabozlarni uchratib qoldim, ayrimlari menga tanish savdogarlar edi. Men Grachevdagi buzuqxonalarga qarab borardim, rasmiy ravishda emas, balki qizil chiroq yonib turganlariga tomon yo'l oldim. Ular irkit, qorong'i yerto'la va hovlilarda joylashgan. «Kolosovka» yoki «Bezimyanka» deb yuritilardi o'shanda.

Yarim kechasi bu muyulishning havosi haddan ziyod qo'lansa hid bilan to'yindi. Odatdagi shovqin-suron eshitilib turardi. Goh buzuq fortepiano, goh skripka, goh garmon ovozi yangrar, qizil fonar ostidagi eshik ochilgan paytda mast-alast holda aytilgan qo'shiqlar quloqqa chalinardi.

Qorong'i xilvat hovlilardan birida yorug'lik deraza oynasidan ichkariga deyarli kirmasdi. Hovlida esa g'ira-shira noaniq sharpalar harakat qilar, shivir-shivir, uning ketidan tuyqus ayolning faryodi yoki umidsiz so'kinish eshitalardi...

Ro'paramda shunday xilvat joylardan biri namoyon bo'ldi, bu yerda mast-alastlar avrab qo'lga tushirishadi, hamma narsangni shilib olishadi, so'ng kimsasiz joyga, xarobazorga tashlab ketishadi.

Kirish joyida ayollar turadi. «Jonli suratlar»ni namoyish qilishadi, tasodifan tentirab yurgan aroqxo'rlar, mast-alastlarni chaqirishadi, arzimas besh miriga dunyoning butun huzur-halovati va xursandchiligini, boz ustiga aynan shu pulga papiros ham va'da qilishadi...

Men hovlini kesib o'tib, yerto'laga kirish eshigiga yaqinlashganimda, fransuz tilida, undan so'ng rus tilida yangragan taklifni eshitdim:

– Biznikiga kiring, bizda xursandchilik!

Devor tomondan baland bo‘yli ayol ajralib chiqdi-yu, qo‘limdan ushlab, zinapoyadan pastga sudray boshladi:

– Bizda aroq ham, pivo ham bor.

Kirdik. Ko‘z oldimda bug‘ va dud orasidan chiqayotgan qizil yorug‘lik miltirardi. Tovushlar bo‘shlig‘i. Kattakon xona o‘rtasida uchta stol turardi. Eshik yonidagi devorda mis chiroq yarqirab ko‘rinar, dudburonning qora izi sezilmay pol uzra yoyilardi. Ikki stol ustida ham aynan shunday chiroqlar, bo‘shagan shishalar, bir bo‘lak non parchasi, bodringlar, baliq qoldig‘i turardi. Deraza tagidagi stol ustida qizg‘in qimor o‘yini ketardi...

Yarim ochiq eshik ortida xuddi shunday xona ko‘rinib turardi. U yerda ham burchakda stol, ustida esa ikki sham yonib turar, bu stolda ham qarta o‘ynalar edi...

Ro‘paramdagi stol yonida soqoli olinmagan rangi o‘chgan formali furajka kiygan odam mast ayolni quchoqlar, mast ayol tutilib-tutilib, gapirar edi:

– Va choy ich-di-m, bul-ka-ye-dim. Kim bi-lan o‘-tir-ga-nim esda yo‘q.

Ko‘rinishidan o‘n yetti yoshga borgan, ozib-to‘zib, darmoni qurigan, lapanglagan tufli kiygan, vengercha harbiy formada tikilgan kurtkani, yelkasiga yangi kamzulmi tashlab olgan o‘smir yigit stakanining tagi bilan stol ustini taqillatib, jussasi kichik, ko‘rinishi horg‘in, so‘lg‘in odamga nimanidir ishontirish uchun isbotlashga urinar edi:

– Sen quloq sol...

– Nimaga quloq solay? Nimani eshitay? Birga ishladim, o‘rtaga tushganni birga bo‘lib olardik...

– Shunday ikkiga bo‘lgan edik! Sen...

– ... choraktaga ketgan edi, yiqilib qoldimi...

– Quyasan!

– Bir og‘iz gapirsa! Dami ichiga tushadi!

– Ular qayerda?

– Yashab bo‘ldi! Mana laklangan konki, mana, chepchik!..

Cho‘ntagida hemiri ham yo‘q!

– Qaragin, Oska, qanaqa uddaburon o‘rmlab keldi.

Ozib-to‘zgan, so‘lg‘in o‘smir menga qaradi, uning shivirlaganini eshitib qoldim:

– Yolg‘on gapirayotganing yo‘qmi?

- Senga hamma narsa yolg'on gapirayotganday ko'rinadi...
- Hozir hammasini bilib olamiz... – U menga, boshlab kelgan «xonim»ga murojaat qildi:
- Polkovnik, nima, so'zni ham qarzga olamizmi? Olib keladimi?
- Ayol gapirayotgan kishiga o'zining qat'iy, qalin upa-elik surtilgan basharasini burib, katta, chuqur joylashgan shishinqiragan ko'zlarini qisib, qichqirdi:
- Barin ichishni istaydi. O'tiring, o'tiring, marhamat!
- O'tirsang – mehmon bo'lasan, vino sotib olsang, xo'jayin bo'lasan! – qichqirdi soqolli qartada bank qo'ygan o'yinchi.
- Men Oska bilan yonma-yon o'tirdim.
- Xo'sh, barin, vino qo'y o'rtaga, polkovnik, ayolingni mehmon qilgin, – dedi o'smir.
- Ma'zur tutasiz!
- Hammani mehmon qilasan. Ana, baron bosh og'rig'idan qiynalayapti...
- Formali furashka kiygan erkak shahd bilan oldimga yugurib keldiyu, shosha-pisha gapga tushdi:
- Baren Dorfgauzen... Otto Karlovich... Yaxshi ko'rishingiz va rahmingiz kelishini istayman, – u tovonini urib, shaqillatib qo'ydi.
- Siz baronmisiz? – so'radim men.
- Ma parole! Chin so'zim! Baron va gubernya kotibi... Liflandiyada tug'ilganman, Berlinda o'qidim, Moskvada to'daga qo'shilib qolib ichdim-u, to'satdan yutqazib qo'ydim... Ikki grivna qarz berib turasiz. Borib o'yinga qo'shilmoqchiman... Birinchi uchrashuvgacha.
- Ma'zur tutasiz!
- Bir daqiqadan so'ng uning hukmfarmo ovozi yangradi:
- Qartada dov bor... Menda... Menda...
- To'g'ri, janob, u haqiqiy baron, – shivirladi menga Oska. – Hozir kambag'allikka guvohlik berish uchun har xil soxta ishonchnomalar urchib ketgan... Xuddi kuydirilgan oynaga muhrni bosib ketganday moy surtadi! Agar yashashni istaganday ko'ransangiz – to'g'ri unga boraverasiz. Taksi bilan borish ham unchalik qimmat emas... Hozir faqat plakat, blanka emas, yarim so'm, abadiy turish – uch so'm.
- Abadiy deysanmi?
- Ha, dvoryan pasporti yoki iste'fo to'g'risidagi farmon... Unvon va ordenlar bilan birga yozib berishadi...

– Baron... polkovnik ayol... – o‘ylanib gapirib yubordim men.
– Bu polkovnik ayol haqiqiy, qandaydir polkovnik ayol emas, albatta... U o‘z-o‘zicha yashaydi... Muassasa uning nomida.

Shu o‘rinda polkovnik ayol savodsizlik bilan uning turli-tuman fransuzcha iboralarini keltirib, gapga tushib ketdi. O‘smirlikda keksa garnizon polkovnigiga berishgani, qo‘shnisi pomeshchik bilan chet elga qochib ketgani, so‘ng uni Parijga tashlab ketgani, keyinchalik uyga qaytib, nihoyat Bezimyankaga kelib qolgani to‘g‘risida ezmalanib gapirdi.

– Sen, palid, hadeb tilingni aylantiraverma, pivo olib kel! – deb qichqirdi burilib qaramasdan bankomet.

– Olib boraman, haddingdan oshma, katorga!

– Uh, yaramas! Omad chopmayapti... A? Qanaqa? Oltiga dov tikaman. Dovning yarmiga haqqim bor. Oldim. Men tashladim – bita. Yana olaman – dov tikaman – bita! Ketma-ket! Ketma-ket!..

– Demak, yutqazdingiz?

– To‘satdan! Agar oxirgisini berganingizda, men yopgan bo‘lardim! Tikilgan pul tugaguncha o‘yinni davom ettirishni o‘rgangan edim, birdan tugab qoldi!... Yana qarz berib turing... birinchi uchrashuvga qadar... yana o‘sha...

Men unga ikki tanga beraman.

– Ol-rayt! Bu barinlarga xos bo‘ldi... Birinchi uchrashuvga qadar!..

Polkovnik ayol to‘rt stakanga pivo quydi. Menga esa qopqog‘i mis bilan nikel qotishmasidan tayyorlangan billur krujkaga quydi. Unda burgut tasviri yarqirab ko‘rinib turardi.

Baron qarta o‘yindan bir daqiqa chetlandi-yu, yoshlardek xitob qildi:

– Xonimlarning sog‘lig‘i uchun! Ur-ra!

– Siz nima uchun ichmayapsiz? Iching! – menga murojaat qildi ayol.

– Pivo ichmayman... – qisqa javob berdim men.

Shu paytda o‘yin adog‘iga yetdi.

Bankomet qarta va pulni cho‘ntagiga tiqib, chiroq piligini ko‘tardi-yu, o‘rnidan turdi.

– Yetarli, ertagacha! Borini chiqarib, nariroq o‘tiringlar!

Qimorboz o‘yinchilar uning gapiga o‘rganib qolishgan, shekilli, darhol o‘rinlaridan turib, indamay ketishdi. Faqat baron jahli chiqib, ters gapirishga urinar edi. Bankomet unga ikki griven tashladi:

– Olgin-u, tuyog‘ingni shiqillat!... Sen rosa jonimga tegding. Ket, mutlaqo yaqinlashma!

Bankomet baronni yelkasidan mahkam ushlab olib, bir soniya ichida eshik yoniga olib bordi-yu, chiqarib yuborib, eshikni darhol yopdi. Baron, hatto so‘kinishga ham ulgura olmadi. Oska, vengerka kiygan cho‘ntak o‘g‘risi, mast xotin, polkovnik ayol va bankomet qolishdi. U bizning oldimizga keldi.

Qo‘shni xonadan qarta o‘ynayotganlarning xitoblari eshitalardi. U yerda o‘yin, aftidan, jiddiy davom etayotgandi.

Polkovnik ayol yana stakanlarni pivoga to‘ldirdi. Mening oldimga esa qo‘l urilmagan krujkani surib qo‘ydi:

– Iching axir! Bizni xafa qilmang!

– Faqat men emasman-ku! Anovi yosh yigit ham ichmayapti.

– Shumtakami? Unga mumkin emas! – dedi Oska.

– Unga doktor man qilgan... – tinchlantirdi polkovnik ayol.

– Siz, barin, nega ichmayapsiz? Bizda bunaqasi ketmaydi. Ke-chirasiz, ichamiz! – dedi soqolli bankomet va menga cho‘qishtirish uchun uzatdi.

Men rad etdim.

– Buni haqorat deb tushunaman. Bizdan jirkanyapsizmi? Iching! Qani? Gunohga yetaklama, ich!

– Yo‘q!

– Yo‘qmi? Oska, buning og‘ziga quy!

Bankomet stuldan sakrab turdi. Bir qo‘li bilan peshanamdan, ikkinchi qo‘li bilan baqbaqamdan mahkam ushlab oldi-da, og‘zimni ochmoqchi bo‘ldi. Oska krujka tutganicha og‘zimga pivoni kuch bilan quyishga shay bo‘lib turardi.

Bu hal qiluvchi lahzalar edi. Men cho‘ntagimdan mushtlashish qurolini olishga ulgurdim va zarb bilan hamla qilayotganning tishiga soldim. U voy-voylab pol ustiga ag‘darilib tushdi.

– Yana nima bo‘ldi? – orqamdan jaranglagan ovozni eshitib, burilib qaradim.

Eshikdan qora syurtuk kiygan kishi kirib keldi, uning ortida ikki kishi bizga qarab, ostonada to‘xtab qolishdi.

Syurtuk kiygan kishi menga qarab burildi, ikkovimiz ham hayron bo‘lib, qarab qoldik.

– Bu sizmisiz? – deb xitob qildi syurtuk kiygan kishi va poldan sakrab turib menga hamla qilgan ust-boshi qon bankometni bir chekaga zarb bilan uloqtirib yuborar ekan. Bankomet yana yiqildi. Mening qarshimda xijolatga tushgan, hayron bo‘lib qolgan «sportchi», o‘zining yengil ekipajida olib borgan kishi turardi. Qolgan barcha odamlar toshday serrayib qolishgandi.

U hamon stol yonida qo‘lida pivo ushlab turgan Oskaning qo‘lidan krujkani oldi-yu, ichidagini polga sepib yubordi.

– Yig‘ishtir! – deb buyruq berdi u qo‘rqib qaltirab qolgan polkovnik ayolga. – Vladimir Alekseyevich, bu yerga qanday tushib qoldingiz? Mening xonamga kiramiz.

– Jin ursin sizlarni! Men uyga...

Va shapkamni bostirib kiydim-u, eshik tomon qadam qo‘ydim. Polda ihrab, dodlab, qorni bilan yotganacha tishlari orasidan tufflayotgan bankomet uzala tushgandi.

– Yo‘q, yo‘q, men sizni kuzatib qo‘yaman!...

Men tomon irg‘ib o‘tdi-yu, qo‘ltig‘imdan ushlab, o‘rnimdan turishga yordamlashdi, so‘ng toshdan yasalgan zinapoya bo‘ylab ko‘tarilishimga yordam berdi va duduqlanib, kechirim so‘radi...

Men qaysarlik bilan indamasdim. Kallamda: «Suvga tashlaymiz, tamom. Larepland «Malinka» bilan, nemis qush surati solingan krujka bilan...» degan gaplar «lip» etib o‘tib ketganday bo‘ldi.

«Sportchi» kechirim so‘rashlar bilan menga xushomad qilar ekan, shunday dedi:

– Baribir men sizni Samsondan ozod qildim. Axir u sizni majaqlab tashlashi mumkin edi.

– Yo‘q, men o‘z-o‘zimni qutqardim, axir u aytgan pivoni ichmadim-ku!

– Siz qayerdan bilasiz? – deb sarosimaga tushdi u, so‘ng to‘satdan xatosini eslab, boshqacha ohangda ilova qildi: – Yana qanaqa «Malinka» degan pivo?

– Sen krujkadan sepib yuborgan-da. Men ozroq bilamanmi?

– Siz... siz... – tishlar takillar, ammo gap chiqmasdi.

– Hammasini bilaman, shu bilan indamaslikni ham uddalayman.

– Ko‘rib turibman. Shuning uchun xonamga kirishingizni istagandim. U yerda alohida chiqib ketish eshigi bor. Do‘stlar yig‘ilishgan edi... Qarta o‘ynash uchun. Axir men bu yerda yashamayman...

– Koʻrdim... Goliafni, markerni, tanidim.

– Ha... u qoʻlim ostida oʻtirgan edi... Krechinskiyni aylantirdi... U yerda Saplya ham bor edi... Keyin Vatoshnik... soʻng...

– Vatoshnik deysizmi? Timoshkami? Axir u izquvar-ku!

– Kim uchundir izquvar boʻlishi mumkin, ammo bizga doʻst... Yana bir bor chin yurakdan kechiring.

– Esingda boʻlsin: men hammasini bilaman; lekin koʻrganimni birovga aytmayman. Xuddi hech nima boʻlmagandek. Xayr! – deb qichqirdim men unga allaqachon koʻcha eshik tomondan...

Uchrashgan paytlarimizda «sportchi» koʻzimga qaramaslikka harakat qilardi. Lekin bir marta meni xiyobondagi chopish yoʻlagida ushlab oldi-yu, qaltiragan tovush bilan shivirladi:

– Vladimir Alekseyevich, vaʼda bergandingiz, lekin gazetaga nimanı yozdingiz? Yaxshiyam hech kim eʼtibor bermadi, hozircha oʻtib ketdi... Axir hammasi ochiq-oydin-ku. Fenkani polkovnik ayol deb biladi, baronni esa ismi-familiyasi bilan toʻliq qalamga olibsiz, faqat familiyasini boshqacha qoʻygansiz, axir uni butun politsiya biladi, hatto u hisobda turadi. Asosiysi mana shu baron...

– Xotirjam boʻl, boshqa yozmayman.

Haqiqatan men «Xilvatda» deb nomlagan hikoya chop etib, unda oʻzim turgan buzuqxonadagi barcha vakillar haqida batafsil hikoya qilgandim. Qarta oʻyinlari, mehmonni «malinka» pivosi bilan zaharlash, yer osti qudugʻiga tashlash uchun sudrab borganlari, uni oʻlik oʻrnida hisoblaganlari... hammasi joy olgandi. Vaziyatni tafsilotigacha toʻla-toʻkis xuddi tirik harakatlanuvchi shaxslargacha aniq koʻrsatgan edim. Baron Dorfgauzen, Otto Karlovich... va bu haqiqatan ham uning haqiqiy ismi edi.

Hikoya muqaddimasi quyidagicha edi:

«...Neglinniy kanalini tozalayotganda odamnikiga oʻxshash suyaklarni topishdi...»





«KUCHUK ZALI»DAN DRAMATURGLAR

Hammasi xuddi cho‘ntakdagi teshik kabi arzimas narsadan kelib chiqdi. Hozir yozayotgan paytimda shunday bir suhbat ro‘y bergan edi:

– Fors moychechagi! O, siz hazillashmayapsiz, bu hayotdagi ulug‘ voqea hisoblanadi. Agar u hayotda bo‘lmasa, men ham xuddi ko‘rib turganingizdek bo‘lmasdim. Mening himoyachim ham dramatik yozuvchilar Jamiyatiga a‘zo bo‘lmagan va minglab mualliflik qalam haqiga ega bo‘lmasdim, «Kuchuk zali»... Siz «Kuchuk zali» nima ekanligini bilasizmi?..

– Bilmayman.

– Taniqli reportyor emish yana, lekin «Kuchuk zali»ni bilmaysiz!

Bu suhbat imperial vagonda, bizni Petrov parkidan Strastniy ibodatxonasi gacha olib borayotgan ko‘nkada bo‘lgan edi. Mening qo‘shnim qaroqchilar shlyapasini kiyib olgan, shotland sharfini bo‘yniga o‘ragan, iyagidagi tuklar oqargan, aktyorlarga xos basharasi, iyagini soqoli qirtishlab olingan kishi edi. O‘shanda stansiyada vintli zinapoya orqali ko‘tarilar ekanman, u menga familiyam bilan murojat qildi va surilib yonidan joy ko‘rsatib, o‘tirishga taklif qildi. U katta arzon sigareta chekardi. Birinchi so‘zlari shunday edi:

– Iqtisod qilishni qarang: pastki vagonda besh tiyin, bu yerda, ochiq havoda, uch tiyin... men bu yerga tejash uchun yurganim yo‘q, balki boshqa... – Va tutuni burqsigan sigara bilan tahdid qildi. – Aynan shuning uchun chekamanki... chunki faqat shu imperiyada chekish mumkin... imperialist bo‘lishni istamaysizmi? – u menga sigara taklif qiladi.

– Chekmayman, – dedim-u, isboti sifatida tamaki qutisini hidlash uchun ko‘rsatdim.

– Yo‘q, ma‘zur tutasiz. So‘ng uyda aksirish boshlanadi.

Shundan keyin u boya aytgan fors moychechagi to'g'risidagi iborani o'rtaga tashladi... Sigara qoldig'ini ezg'ilab, cho'ntagidan yangisini chiqarib chekdi-yu, o'zini tanishtirdi:

- Men dramaturg Glazov. Sizni esa taniyman, albatta.
- Pyesalaringiz qaysilar edi?
- Menikimi? Xo'sh...

U o'nlab pyesalarni sanab o'tdi. Afishalarga ko'ra, bular tanikli rejissyorlarga tegishli bo'lib, xorij pyesalarini qayta ishlash bilan nom chiqarishgan edi. Men uni tanidim va shu pyesalar muallifi deb hisobladim.

– Quloq soling, axir siz sanab o'tgan pyesalar aslida... – men bir familiyani tilga oldim.

– Ha, unga tegishli, ammo muallifi menman. O'tgan yili unga o'n yetti pyesani qayta ishlab berdim va evaziga uch yuz o'ttiz to'rt so'm oldim. Har yuz so'm uchun o'lib tiriladi, ha, u dramatik asarlar muallifi sanaladi, vaholanki, «it» so'zini xato bilan yozadi. Ilgari sataroshxonalarda ustalarga parda orqasidan ombir, qisqich uzatgan, tilanchilarning soch-soqollarini tekinga qirgan, kasbni egallagan, endi qarang, ana pul, obro'-e'tibor va iste'dodli hisoblanadi... Dramatik yozuvchilar jamiyatida yig'ilishlar o'tkazadi... Katalogda uning hisobida yuzdan ortiq pyesa turadi, ular fransuz, ingliz, ispan, polyak, venger, italyan va boshqa-boshqa tillardan tarjima qilingan. Hammasi «arapchadan» tarjima qilingan!

– Axir bu qanday yuz bergan?

– Shu, oddiy. Ikki yil burun men komediya yozgan edim. U yoqqa olib bordim, bu yoqqa olib bordim – qabul qilishmadi. Teatrqa, buning huzuriga yo'l oldim. Lekin topa olmadim. Uyiga boraman. U meni hashamatli kabinetida qabul qiladi. O'zini savlatdor tutadi, yozuv stoli yonidagi oromkursida yalpayib o'tiradi.

– Men pyesa yozgan edim, nomsiz bo'lsa, olishmayapti. Ismingizni mening nomim bilan birga qo'ya olmaysizmi, gonorar teng bo'linardi, – deb taklif qilaman.

U pyesani oldi va o'qiy boshladi, menga esa sigara va gazeta berdi.

– Sizda iste'dod bor, sahnani ham yaxshi bilasiz, faqat menga ismimni boshqalarniki bilan birga qo'yish noqulay. Teatrimizga ham pyesa to'g'ri kelmaydi.

– Afsus!

- Sizga pul kerak, albatta. Shundaymi?
- Yashash uchun hech narsa qolmagan.
- Unday bo‘lsa, menga manovi pyesani qayta ishlab bering.

Menga fransuzcha pyesani uzatdi. Uni nomi uncha ma‘lum bo‘lmagan tarjimon (u Xarkovda yashaydi) tarjima qilgan.

Men yangi yozilgan, hozirgina senzurdan o‘tkazilgan uch ko‘rinishli pyesani ko‘zdan kechirib chiqdim.

- Qanaqasiga qayta ishlay? Axir u tarjima qilingan-ku!

– Bu oson axir: shunday qilish kerakki, pyesa shu holicha qolaversin, ammo muallif ham, tarjimon ham uni bilmasin. O‘zim qilar edim-u, lekin vaqt yo‘q-da... Buni qanday qilish kerakligini bilish uchun sizga boshqasini beraman.

Men ancha vaqt rejissyorning xohishini anglay olmadim, u esa qayta ishlash usullarini tushuntirdi, ana shunda gap nimadaligini darrov anglab oldim.

– Pyesa bir haftadan so‘ng qo‘limda bo‘lsin. Hafta, bu – faqat boshlanishi uchun, keyin shunday pyesalar borki, uni ikki kunda qayta yozish mumkin.

Bir haftadan so‘ng men pyesani olib keldim. Maqtadi, pul bilan birga yana bitta asar berdi. Shundan so‘ng ishlar ketdi, ketaverdi: ikki kun ichida uch ko‘rinishli fars (komediya) va yigirma besh so‘m pul. Pyesa uniki, imzo uniki, ish esa butunlay meniki.

Men qiziqdim, unga quloq soldim, baribir hech nimani tushunmadim. Vagon Strastnoyga kelib to‘xtadi, Glazov imperialdan tushar ekan, menga xiyobonda Pushkin haykali yonida o‘tirishni taklif qildi. So‘ng qiziqish va shavq bilan hikoya qila boshladi. Men e‘tibor berib tingladim.

– Siz qanday qilib qayta ishladingiz? Rejissyor qayta ishlash uchun buncha pyesani qayerdan olgan? – deb so‘radim.

– Axir u rejissyor-da. Xo‘sh, teatrga o‘ynash uchun pyesani yuborishadi, u esa hozir men bilan birga. Kabinetiga yashirincha boraman. Eshikni ichkaridan qulflaymiz. Eshitaman – mehmonxonadan tanish ovozlar kelyapti, sahnadosh o‘rtoqlarning hammasi shu yerda, men esa xuddi o‘g‘irlanganday. Kabinet eshigi qulf. U hozirgina pochtdan olib kelingan pyesani beradi va shunday deydi:

– Juma kuni ishlagin. Shanba kuni qaytarib yuborish kerak. Ikki kundan ortiq ushlab turish mumkin emas.

Asarga maktub ham qo'shib yuborilgan ekan, demak, u muallifga pyesa tashqi sabablarga ko'ra qo'yilmasligini aytgan. Albatta, o'zining turganda begonani qo'yishning nima keragi bor? Men ikki kunda bu pyesani «ag'darib» chiqdim. Ikki oydan so'ng sahnada o'ynashdi, komediyani esa muallifga men topshirgan kuni qaytarib yuborishdi.

Suhbatdoshim ishqivoz bo'lib qoldi.

– Men uning uchun qanchalab pyesani qayta ishladim! Va bularning hammasi qanchalik oson edi! Yangi pyesani olasan, o'qib chiqasan, birinchi ishing unga mos, qulay nom berishdan iborat. Masalan, muallif pyesani «Qo'lida» deb nomlagan deylik. Men esa darrov «Qo'lqoplarga» deb qo'yaman. Yoki muallif «Baliq ovlovchi» degan bo'lsa, men «Baliq ovida» deyman. Nomini o'zgartirasan, ishtirok etuvchi shaxslar bilan mashg'ul bo'lasan. Kallaga kelib qolgan ismlarni berasan, ular fransuzchaga mos kelsa kifoya. Esingga kelgan birinchi so'zni to'g'ri kelgan zahoti fransuzchaga o'girasan. Kichik personajlarni o'zingcha o'zgartirasan: italiyalikni grek, inglizni amerikalik, xizmatkorni oqsochga aylantirasan... Pyesani mutlaqo bilmasligi uchun unga avtomat yoki to'tini qo'yan. To'ti yoki avtomat sahnaga chiqadi, uning uchun esa kerakli so'zlarni parda orqasidan gapirishadi. Xo'sh, ishtirok etuvchilar ishini tugatganingdan so'ng dekoratsiya va holatlarni boshlaysan. Endi har bir jumlaning o'zingcha o'zgartirish kerak, ko'rinishlarni ham qayta o'zgartirib chiqish lozim. Samarali yakunni o'ylab topishing, asl maqsadini biror uyatsiz latifa bilan almashtirasan va pyesa tap-tayyor bo'ladi.

U darhol ma'yus holatga tushdi.

– Iste'dodli mualliflarning asarlarini o'g'irayapman! Meni kvartiradan haydab chiqarishgandan so'ng shunday qilishga majbur bo'ldim... Keyin esa o'rgandim. Bir burda non uchun shunday qildim, u esa pyesalarga o'z nomini qo'ymoqda, vaholanki, shon-shuhrati va boyligi yetarli. Mualliflik gonorarini xuddi kurak bilan kuragan kabi shilib yotadi, yo'rtib ketaveradi... Men-chi? Barcha xarakterlar zim-mamda, pyesa uchun bor-yo'g'i yigirma so'm olaman, undan besh so'mi qayta ko'chirganga beriladi... Ularni bosh og'rig'iga ichaman, yalang'och qolganlarni choy bilan siylayman... Bosh og'rig'iga ich-masang, bu ishlarga aslo qo'ling bormaydi...

Glazov yana uzoq gapirdi va, albatta tashrif buyurishim kerakligini tayinlab, va'damni oldi.

– Biz xotinim bilan birgamiz. U sobiq qishloq teatri aktrisasi, dramatik yoʻnalishda. Ertaga boʻshman, hozircha buyurtmalar yoʻq. Shunday qilib, ertaga soat birda uchrashamiz.

– Soʻz beraman.

Ertasi kuni «Moldaviya» traktiri yonidagi Jivoderkadagi Glazov uyining yertoʻlasiga tushaman.

Qorongʻi dahlizda ikkita kvartiraning eshigi ochiladi, unda juldur kiyingan uch nafar yupun kishi tik turardi. Toʻrtinchisi ohorlangan koʻylak va kamzulda, katta qutidan juldurvoqilarga qandaydir kukun separd. Qandaydir tanish hid anqiydi.

– Salom, Glazov! – hayqirdim zinapoyadan.

– Bu sizmisiz? Vladimir Alekseyevich! Hozir... Faqat manovi iblislarga sepay. Va u hovuchlab ularning yoqasiga, qoʻyniga, hatto beliga kukun sepd.

Badbaxtlar bezovta boʻlishar, qichiganidan xoxolab, aksa urardi.

– Boʻldi, shoshmang, hozircha oʻrmlab chiqmayapti... Biz ketdik. Rahmingiz kelsin!

U mening koʻz oldimda oʻzining anchagina ozoda kvartirasi eshigini ochdi.

– Bu qanaqa tadbir? – soʻrayman.

– Koʻchirib yozuvchilar kelgan, – jiddiy javob berdi menga Glazov. – Hozir shoshilinch buyurtma olib kelishdi.

– Xoʻsh, unda bu nima?

– Fors moychechagini sepyapman... Ular busiz tura olmaydi... Meni kechirasiz... Hozir kiyinaman.

U pidjagini kiyib oldi.

– Ellen! Mening doʻstim kelgan... Yozuvchi... Bizga biror taom tayyorlab bersang... Ha, bu yoqqa kel.

– Kechirasan, uzr... Men hali kiyinganim yoʻq...

Yotoqxonadan sochlariga jingalak qilish uchun ishlatiladigan nar-salar qistirgan hamda toliqqan yuzida upa-elik izlari koʻrinib turgan yosh ayol chiqib keldi.

– Xotinim... Stasova-Sarayskaya... Dramatik yoʻnalishdagi...

– Oh, Jorj! U bir lahza ham ahmoqona hazilsiz tura olmaydi! – kuldi ayol menga qarab. – Kechirasiz, uyimiz toʻzib yotibdi. Jorj bu yamoq bilan, qayta yozib chiqadiganlar bilan ovora... ular oʻtirib, qashinadi... Har kuni qirq tiyinga fors moychechagi ketadi... Usiz kvar-

tirani bunday ekologik bog'ga aylantira olmaysan, qochib ketasan... Ular «Kuchuk zali»dan.

Glazov uning gapini bo'ladi: *

– Ha. Fors moychechagi – ulug' ish. Uni o'zim kashf etdim. Agar soqoling, boshing va ichki kiyimlaringga sepsang... Keyin yarim soat dahlizda tursang, hammasi joyida bo'ladi: yozishadi, ammo qashinmaydi va xona top-toza bo'ladi...

– Shunday gapiryapsizki, go'yo fors moychechagi bo'lmasa, xud-di pyesa bo'lmaydigandek!

– Bo'lmasdi ham. Axir ularni kvartiraga busiz kiritib ham bo'lmasdi... Axir, savodli va sahnani yaxshi bilishadi. Ayrimlari – sobiq artistlar... Ikki kun ichida pyesani kelishtirib tashlaymiz: men – bir ko'rinishni, boshqasi – ikkinchisini, uchinchi – boshqa ko'rinishni va ish qaynaydi... Ellen, sen mehmonni nonushta bilan siyla, men esa pyesa bilan mashg'ul bo'laman... Eh, meni kechiring... Ertalab tops-hirish kerak... Xotinim bilan o'tiring.

Biz yotoqxonaga yonma-yon xonaga kirdik. Stol ustida bir shisha aroq turardi. Kerosinkada esa go'sht qovurilardi.

Dekabr oyida nam, badanga qattiq sanchiladigan sovuq ufurardi, qor erib ketgan, ko'lmaklar turar, g'ashni keltiruvchi, ko'ngilni aynituvchi Moskvaning to'shama yo'llaridan na chanada, na g'ildirakli aravalarda yurib bo'ladi.

«Jan de Gabriel kuchugi zali» joylashgan Jivoderkada ham ahvol xuddi shunday edi. Aholisi usta, izvoshchi, lo'li va ofitsiantlardan iborat bo'lgan bu joy ko'chalari sershovqin bo'lib, kecha-yu kunduz ovoz tinmasdi. Qachon «ichimlik binolari» yopilsa, ichish payida yurgan kishi hech qayerdan obizamzam topa olmasa, mana shu ko'chadan yurib kelardi-yu, o'zining istak-xohishini «Piter Pitt qovoqxonasi»dan qondirar edi.

Ivan Gavrilovning vino sotadigan do'koni uning shinavandalari tilida «Piter Pitt qovoqxonasi» qoshida «It zali» deb yuritilardi.

Jan Gabrielning aytishiga qaraganda, u ikki ustav asosida ichimliklar bilan savdo qilardi: aroq ertalab soat yettidan kech o'n birgacha ichish uchun, so'ng kechasi o'n birdan ertalab yettiga qadar bosh og'riqqa sotilar edi.

Kechasi soat o'n birda do'kon yopilar, ammo dahlizdagi kichkina xona ochilar, unda ikkita katta bahaybat sandiq turardi – biri to'la,

boshqasi yarim to'ldirilgan shishalar bilan. Ular bilan «buvi» savdo qilar va «It zali»ga pivo olib borardi. Faqat fortochka orqali oldi-sotdi edi. Xaridor tashqi hovlidan turib taqillatar, pulni indamay cho'zar va jim holda shishani olardi. Fortochka «shlanboy» deb nomlangandi. Moskvada bunday «shlanboy»lar anchagina: Grachevkada ham, Xitrovkada ham, uning chekkalarida ham bor. Agar tunda aroq topish kerak bo'lib qolsa, to'g'ridan to'g'ri mirshabning oldiga borib so'rasangiz, qayerdan topish kerakligini aytadi va uyini ko'rsatadi:

– Darvozadan kirsang, o'sha yerda shlanboy bor, pardasi qizil rangda. Kirganingdan fortochka ochiladi... Keyin menga bir griven qistirasan yoki shishadan bir ho'plam berasan.

Tungi soat ikkilarda Maliy Gruzin ko'chasidan uyga qaytar ekanman, Jivoderka yo'lagi bo'ylab sirg'ana-sirg'ana kelardim. Bu lo'lilar ko'chasidagi onda-sonda uchraydigan fonarlardan biri yonida kimdir familiyamni aytib chaqirdi. Bir daqiqadan so'ng ro'paramda butunlay juldur kiyingan, soqoli olinmagan, aktyor basharasiga ega bo'lgan odam paydo bo'ldi. Tanish bashara, ammo hech eslay olmasdim.

U ismini aytdi.

– Adashib qoldim, og'ayni, ichgan edim. «It zali»ga ikkinchi yili kelyapman. Sahnani tashladim, pyesalarni qayta ishlash bilan shug'ullanaman.

Men uni iqtidorli yosh boshlovchi aktyor sifatida bilardim, hozirgi ko'rinishi xarob, basharasi shishgan, qaltiraydi, ko'zidan yosh oqadi, jag'i qaltiraydi, bo'ysunmaydi.

– Aroq bo'lsa edi, – botinmay menga murojaat qildi u.

– Axir kech bo'ldi-da, bo'lmasa jonim bilan mehmon qilardim.

– Yo'q, nimalar deyapsiz! Men bilan yuring, mana shu yerda, yonma-yon...

U qo'limdan mahkam ushlab oldi va muzlagan yo'lak bo'ylab shoshilganча qadam tashlab ketdi. Muyulish burchagida ikki qavatli yog'och uy bo'lib, yonidagi darvoza orqali fonar bilan yoritilgan fligel, ya'ni qo'shimcha qurilgan uy tepasida «Vino do'koni» deb yozilgan yashil peshlavha osilgandi.

Biz darvoza oldida to'xtadik.

Aktyor omborcha eshigini taqillatdi.

– Yana kim? – hovli tomondan xirillagan tovush eshitildi.

– Sim-sim, eshigingni och, – deb javob berdi hamrohim.

– Kim? – hovlida balandroq xirillab so‘radi kimdir.

– Shlanboy.

Bu sehrli so‘zdan so‘ng omborchā ochildi, hovlidan qo‘lansa hid anqidi va biz po‘stin kiygan darvozabon oldidan o‘tib, dahlizda paydo bo‘ldik.

– Meni mahkam ushlab ol, aks holda gumburlab yiqilib ketasan, – deb ogohlantirdi hamrohim. Rollarimiz almashdi: endi men uning qo‘lidan ushlagan edim.

U eshikni ochdi. Yashash joyining iliq, ko‘ngilni ag‘dar-to‘ntar qilib yuboradigan qo‘lansa hidi anqib ketdi.

Manzara batafsil tasvirlashga arzir edi: mo‘jaz xona, bo‘sh butilka idishlar turgan irkit, iflos stol mis chiroq bilan yoritilgandi: chap tomonda bahaybat rus pechi bor edi (xona oshxona tepasida qurilgan), polda o‘n kishidan ziyod odam tiqilishib yotar, ular orasida oyoq qo‘yadigan biror bo‘sh joy bo‘lmay, stolga yetib olish mashaqqat edi.

– Mana uyga ham yetib keldik, – dedi hamrohim va xunuk tovush bilan o‘kirib yubordi: O‘liklar, turinglar, tobutdan bosh ko‘taringlar! Biz aroq keltirdik!..

Juldur, lash-lush kiyganlar to‘dasi qimirladi, norozi ovozlari, so‘kish tovushlari eshitildi.

U esa gapini davom ettirardi:

– Biz aroq keltirdik!

Va pech ustiga chiqib oldi.

– Kampir, aroq!

– Keltirganmish, yarim kechasi izg‘igan iblislar, tinchlik berishmaydi...

– Arkashka, senmisan? – pechdan ovoz eshitildi.

Poldan turishdi, ko‘zlarini artib to‘ng‘illashdi:

– Qani aroq?

– Jin ursin, aroqni bering! Tomog‘im qurib qoldi! – faryod chekdi yarimyalang‘och ayol. Uning sochlari to‘zg‘igan, yuzining rangi qochgan, peshanasi ko‘kargan edi.

– Arkashka, kimni boshlab kelding?.. Tovonbaliqmi?

– Qanaqasiga, kampir?.. Aroq keldi!..

Pech ustidan iflos, irkit basharasini ajin bosib ketgan hamda yoqavayron, uvadasi chiqqan kiyim kiygan aktyor tushdi. U zo‘r be-

rib pensnени taqishga urinar, bir oynasi singan, shu bois bir ko'zini yumib olgan edi.

– U ham artist, ham muallif, – deb tavsiya qildi Arkashka.

Men xonani ko'zdan kechirib chiqdim. Stol ustida, burchakda behayo karikatura chizilgan edi. Unda ko'p sevgan va sevgidan haddan ortiq aziyat chekkan kishi aks etgan, buni basharasidan anglash mumkin edi. Karikatura tagida:

«Jan Gabrielning itga xos zali» deb imzo qo'yilgandi.

Bu yerda savodsiz xo'jayinlari uchun xizmat qiladigan dramaturglar va artistlar yashar edi.





SAVDOGARLAR

Barcha shinam qurilgan shaharlardagi yo‘laklar ko‘chani ikki tomonidan joy olib, ba’zida esa odamlar gavjum joylarda piyodalar yurishiga qulay bo‘lishi uchun ko‘priklar ko‘pincha ko‘ndalangiga goh plita, goh asfaltdan o‘tish joylarida qilingan edi. Lekin Katta Dmitrovkada tosh yotqizilgan ko‘prik kesishmasi granit plitalardan iborat bo‘lib, bu go‘zal yo‘laklardan hech qachon hech kim yurmasdi. Yurishning hojati ham yo‘q: yaqinida muyulishlar yo‘q edi.

Bu granitli yo‘lak uncha katta bo‘lmagan oynavandli dang‘illama qasrning podyezdidan boshlanardi. Aynan granit diagonalining Katta Dmitrovkadagi ikki tomoni ham doimo yarim kechada eng sershovqin ko‘chaga aylanardi.

Bogoslov (Petrov) muyulishida 1883-yili Korsh teatri ochildi. Kechqurun soat to‘qqizda bu yerdan yakka-yakka holda izvoshtar yura boshlar, muyulishning ikki tomonida bir chiziq bo‘lib, tizilar edi. Joy olishga ulgurmaganlari eng chap tomondagi ko‘cha yoniga joylashardi. Chunki chap taraf chaqqonlar hamda juft-juft «kabutarlar» tomonidan band qilinar, bunga birjalar shaharga mo‘maygina pul to‘lar edi. «Vankalar», sariq ko‘zli quvlovchilar, ya’ni oliy toifali izvoshtchilar, shu bilan birga faqat qishda poytaxtga keladigan mavsumchilar politsiyaga «cho‘tal» to‘lab turishar edi.

Tartibga ko‘z-quloq bo‘lib, uni saqllovchi navbatchi farroshlar va qorovullar har bir izvoshtchining oldiga kelib, uchrar, ular ham barvaqt tayyorlab qo‘ygan tanga-chaqalarini uning qo‘liga qistirar edi.

Mirshab o‘zini ko‘rsatib, gerdaygan cha ko‘cha o‘rtasidan yurar, shu bilan birga ot-ulovlarni sanash bilan band edi. Ba’zan olifta izvoshtchi va serhasham izvoshtining oldiga kelib, qo‘lini uzatar, salomlashar, ulardan «olar», birjaga to‘laydiganlardan hech vaqo undirol-

masdi. Faqat ayrim olifta izvoshchi do'stlari uchrab qolsa, papiros bilan mehmon qilardi.

Teatr tomoshalari ko'rsatiladigan soatlarda ko'chada o'tkinchilar kam bo'lardi. Ba'zan yupun kiyingan talabalar o'zlarining yotoqxonalariga kirish uchun yugurib qolishardi. Ularning umumiy yotoqxonasi savdogarning hashamatli dang'illama hovlisining orqa tomonida joylashgandi.

Izvoshchilar to'da bo'lib izvosHLari yonida turishar, chekishar, gaplashishar, asalli choy, sharbat ichishar, ba'zan mirshab ruxsat bermagani uchun sharbat keltirganlar aroq keltirib, ularga «yeng uchida» pullashardi.

Oqshom boshlangach, dang'illama hovliga bir necha qirchang'i ot qo'shilgan aravalarda bochkalar keltirilardi. Bular «tungi brokerlar» bo'lib (mashhur atir-upa firmasi sharafiga shunday nomlangan edi), ular axlat tashlanadigan o'raning og'zini ochib, unga cho'michlarda, quyib, qolganini soqchilar otryadiga ko'tarib jo'nashardi. Ish ketardi. Talabalar yotoqxonaga kirish joyida bochkalar atrofini o'rab olishardi.

To'satdan izvoshchilar qimirlab qolishdi va yo'laklar yonida kutadigan vaziyatda tizilishdi.

– Korsh jo'naydi!

Muyulishdan teatrdan chiqqanlar xursand, shodon holda quyilib kelishdi.

Izvoshchilar tashlanib qolishdi:

– Sizga yo'l bo'lsin? Salomatligingiz yaxshimi, Ivan?

– Bir so'm bo'ladi. Qayoqqa borasiz?

Izvoshchilar bor ovozda baqirar, bir-birini turtib, itarar, xaloyiqning yo'lini to'sib qo'yguday bo'lishadi.

– Qayerga? Qayerga? – degan ovozlar havoda uchadi.

Mirshab xuddi armiyaga buyruq beradiganday vajohat bilan qichqiradi. Shu lahzada hashamatli hovli eshigi ochildi va bochka ortilgan ikkita arava ko'rindi...

– Qayoqqa? Orqaga! – mirshabning gurillagan ovozi yangradi. – Sen qayoqqa qarayapsan, bashara? Ko'rmayapsanmi, hali odamlar o'tib bo'lgani yo'q!

Darvoza oldida o'zini boshliq kabi tutgan qorovul tumshug'ini cho'zadi.

– Uxlab qoldingmi, iblis?

Ikki kishining qistashi oqibatida bir juft qirchang‘i ot orqaga tashlanib, hovliga kiradi-yu, darvoza yopiladi. Lekin xushbo‘y is so‘kinayotgan olomoni zaharlashga allaqachon ulgurgan edi...

Izvoshchilar tarqalishdi. Odamlar o‘tib ketishdi. Yablochkov fonnarlarining yarqirab turgan yorug‘ida savdogarlar klubi podyezdida shaxsiy ot-aravalar yetib keldi hamda klubdan chiqayotgan mehmonlarni shahar tashqarisidagi restoranlarga «havo olish» uchun ziyofatdan so‘ng olib ketishdi. Savdogarlar klubi Yekaterina davrida feldmarshal va Moskva bosh qo‘mondoni graf Saltikovga tegishli edi. Napoleon bosqinidan so‘ng dvoryan Myatlevlar oilasi ixtiyoriga o‘tdi. Moskva savdogarlar klubi qirqinchi yillargacha ularniki bo‘lib turdi.

O‘shanda Katta Dmitrovka butunlay dvoryanlarniki edi: Dolgorukiylar, Dolgorukovlar, Golitsinlar, Urusovlar, Gorchakovlar, Saltikovlar, Shaxovskiylar, Sherbatovlar, Myatlevlar... Faqat keyinroq saroylar savdogarlar qo‘liga o‘ta boshladi. Hozirgi va o‘tgan asrlar arafasida bino tepasidan dvoryanlar gerbi yo‘qoldi, devorlarda yangi sohiblarning peshlavhalari paydo bo‘ldi: Solodovnikov, Goloteyev, Siplokovlar, Shelaputinlar, Xludovlar, Obidinlar, Lyapinlar...

Qadimda Dmitrovka Klub ko‘chasi deb nomlangan – unda uchta klub joylashgan edi: Muravyov uyida ingliz klubi, o‘sha yerda Dvoryan ham bor edi, keyin Muruvvat uyiga o‘tdi; so‘ng Muravyov uyiga Prikazchi klubi o‘tdi, Myatlev uyiga savdogarlar klubi o‘tdi. Zodagonlar palatasi savdogarlar tomonidan band qilindi, shuningdek, zodagon, oqsuyak ohanglari savdogar degan nom bilan almashindi, bu xuddi hashamdor fransuz stoli qadimiy rus taomxonasiga o‘tganga o‘xshar edi.

Ovqatlar, turli-tuman taomlar ham shu tariqa edi. Ular ancha qimmat, turli traktirlarda turlicha baholanardi. Taomga kerakli bo‘lgan go‘sht va boshqa mahsulotlar har xil joylardan keltirilardi.

Savdogarlar klubi butun Moskvada o‘zining kvasi va meva suvlari bilan shuhrat qozongan edi. Uni tayyorlash sirlarini faqat bir kishi – klubning ko‘p yillik xo‘jalik boshlig‘i – Nikolay Agafonich bilardi.

U mehmonxonada paydo bo‘lganidan so‘ng oromkursida obdon to‘yib olgan savdogarlar qahvani likyor (o‘tkir shirin spirtli ichimlik) bilan aralashtirib o‘tirar ekan, bir necha ovoz yangrar edi:

– Nikolay Agafonich!

Har bir kishi o'zining sevimli ichimligini talab qilardi...

Tushlikda bu yerda Stepan Ryabovning orkestri o'ynar va xor kuylardi: goh lo'lilarniki, goh majorcha, ko'pincha ruscha «Yara»ni. Oxirgisi, ayniqsa muhabbatga sazovor edi, unga Anna Zaxarovna rahbarlik qilar, chunki u gashtak qiladigan savdogarlar orasida katta hurmatga sazovor edi. Zaxarova savdogarlarga nima ma'qul kelishini zukkolik bilan anglar, kimga qaysi xonanda ayolni tavsiya qilishni bilardi. Har qanday qo'shiqchi bekaning ko'rsatmasini to'liq ado etar, chunki shartnomalar xonandaga bekaning xordan to'liq foydalanish huquqini berardi.

Faqat xorning bir necha ilk qahramonlari, masalan, ovozi yoqimli Polyva va sohibjamol Aleksandra Nikolayevna tengsiz hisoblanar, shu bois mehr bilan tanlanardi. Boshqalari esa Anna Zaxarovnaning cho'rilaridan iborat edi.

Fyodor Sokolovning «Yara»sidan lo'lilar xori va «Strelni»dan Xristoforni kamdan kam taklif qilishardi, chunki lo'lilar bilan shunchaki kelishib bo'lmasdi. Uni pul bilan sotib ololmaysan. Mojar qizlar ham savdogarlarga yoqmasdi:

– Men u bilan qanday gaplashaman? – deyishardi ular.

Tushlikdan so'ng ovqat shinavandalari taomni qayta qovuri shar ekan, qimorbozlar qarta o'yiniga o'tirar, san'at havasmandlari qo'shiq tinglashga kirishar, Anna Zaxarovna bilan savdolashar edilar. Xor jo'nab ketgach, «Yara» tomon juft-juft bo'lib, shitob bilan yo'l olishardi, tun bo'yi savdogarlar klubidagi birjada bo'lishardi. Klubdan «qumrilarni o'g'irlash»ga ruxsat berilmas, qo'shiqchilarga faqat «Yara» muxlislari bilan birga ketish mumkin edi.

Mavsum davomida ko'chalar har ikki tomondan tun bo'yi ekipajlar bilan butunlay, uzluksiz ravishda band bo'lib turardi. O'ng tomondan podyezddan Glinishev muyulishigacha savdogarlarning shaxsiy otaravalari turar, ular klubda o'tirgan xo'jayinlarini ko'pincha ertalabga qadar kutar edi. Chap tomonda Kozitskiy muyulishigacha dastavval olifta izvoshchilar, undan so'ng uch o'rindiqli izvoshlarida juft-juft bo'lib, «musichalar» childirmalarini yangratib, o'tib ketishardi.

Va olifta izvoshchilar ham, «kabutarlar» ham o'zlarining suvorilarini bilishar, suvorilar ham o'z abjir izvoshchilari hamda «kabutarlar»ini bilishar, shu bois to'g'ridan to'g'ri jo'nashar, shunday o'tirardilar-u, jo'nab ketishar edi. Ba'zan klubda abjir uch ot qo'shilgan olifta izvoshchilar Yechkin yoki Uxardan chaqirilar, ular

childirmalarini chalib, quvnoq ulfatchilikni tashkil etib, soqchilar otryadi uchun xorning orqasidan juft-juft uzun aravalar yo'lga tushardi.

Sayr qilib yurgan savdogarlar ko'pincha qo'shiq kuylab, Tver o'ydim-chuqur ko'chalariga ketib qolishardi. Indamas va savlatdor izvoshchilar minglab yo'rtoqi otlarda juft-juft yoki uch o'tli aravalarda poyga qo'ygan kabi ot qo'yishardi.

– Eh-ehe-eh-hey, kabutarlar, o'marishyapti! – aravakashlarning sevimli, katta yo'llarda qaroqchilar zamonidan qolgan hamda uyquga ketgan Tver ustida qichqirig'i yangraydi. Vaholanki, u yerda faqat talonchilardan emas, hatto o'tkinchilardan ham hech kim bo'lmas edi.

«Yara»ga tushlikda yaxshilab ichib olgan «klub shinavandalari» intilar, shu yoqqa qarab jo'nar, qartabozlar esa qimorxonaga yo'l olar, «yebto'yimas» stol hamda yaxshi yoritilgan oshxonada taom tayyorlaydigan shinavandalar majlis qurishar, dam olishdan qaytib, yumshoq divanlar hamda mehmonxona oromkursilarida yalpayib o'tirgan holda kechki ovqatlanish uchun turli mushkul taomlarni o'ylab topishar, ohorlangan libos, boshiga oppoq qalpoq kiyib olgan oshpaz esa o'zining mulohazalarini bildirar, ba'zan bir so'zi bilan pazandalik xayol-o'ylarini to'zg'itib yuborardi. U ko'pincha stol atrofida moskvalik taniqli savdogarlarning jips kompaniyasi o'tirganini hisobga olmas ham edi. Bordi-yu, biror alohida hurmatga sazovor mehmon taklif qilinsa, u faqat jimgina o'tirib, o'z mulohazalarini bildira olmasdi.

Lekin bir kuni hozir-u nozirlarning stoli atrofida shunday mehmon paydo bo'ldiki, unga hatto oshpaz ham og'iz ochib gapira olmasdi, faqat qullarcha bosh egib, mehmonning aytganlarini yozib olish bilan band bo'ldi.

U shunday taomlarni buyurdiki, ovqat shinavandalari og'izlarini anqaytirib, ertalabgacha bo'kib yedilar. Bu hali ancha yosh, ammo g'o'labirdan kelgan, vazni tufayli stol atrofida o'tirganlardan aslo qolishmaydigan advokat edi. U bekordan bekorga pazandalik bo'yicha kutubxonaga bosma va qo'lyozmalarni to'plamayotgan edi-da. Bu odam haqida shunday she'r ham yurar edi:

*Arxivda men ko'rdim mechkayni,
U taomnomani shirin totadi.
Kavkazdan to Ijorga qadar,
Yuz yilda ham yig'ar erinmay.*

«Ikkinchi» ovqatlar, ayniqsa, ko'p odamlarni yig'a olardi. Bu yerga badavlat savdogarlar qalbini baxshida etgan edi. Ular o'zlarining ombor va idoralarida issiq ovqatsiz bo'lib, traktirga Arsentich yoki «sandiqchilar rastasi»dan mazali taom keltirish uchun odam jo'natishar yoki shahar rastalari hamda Ilinka va Nikolskiy savdo omborlariga ovqat tashiydiganlardan xarid qilishardi.

– Issiq piroglar! – deb qichqirardi taom eltuvchilar.

Haftaning boshqa kunlarida savdogarlar uylarida ovqatlanishardi. Ularni Zamoskvorechye hamda Tagankada samovar yonida rafiqalari kutar, goh go'shtsiz, yovg'on, goho oddiy, lekin hamisha yog'li, kekxa oshpaz ayol pishirgan, taomnomaga yangilik kiritish unchalik yaxshi ko'rinmaydigan, ko'p yillar muqaddam o'zi tayyorlagan taomlarni tanovul qilardi.

Mana, o'sha savdogarlar jamoasi seshanba kuni to'yib ovqatlanish ilinjida klubga borishardi.

Yetmishinchi, saksoninchi yillarda, ayniqsa, «Xludov dasturxonini» shuhrat taratgan edi. Unda savdogarlarning eng yuqori darajasini egallagan, ulkan kutubxona sohibi Aleksey Ivanovich Xludov o'zining ukasi, jiyani va o'g'li Mixail bilan raislik qilardi, ular haqida Moskva bo'ylab afsonalar yurar edi.

* * *

A.N. Ostrovskiy o'zining «Qaynoq yurak» asarida savdogar Xludovni tasvirlar ekan, o'tgan asrning oxirida o'z aysh-u ishrati bilan dong taratgan Xludovni nazarda tutgan edi. O'sha paytda urfda bo'lgan bezakli «Razvlecheniye» jurnali yil bo'yi bosh suratda aroqxo'r savdogarning qiyofasini chop etgan. Butun Moskva bu Misha Xludov ekanligini juda yaxshi bilardi. Misha Xludov millioner fabrikant Aleksey Xludovning o'g'li bo'lib, u haqda Brokgauz lug'ati bir sahifa ajratgan, u qadimiy qo'lyozmalar va mashhur olimlar yozib qoldirgan taniqli Xludov kutubxonasi tashkilotchisi sifatida tilga olingan edi.

Bu kutubxona, vasiyatga ko'ra, muzeyga berildi. Va kekxa Xludov sochlari oqargan holda xuddi navqiron yoshlar kabi har kuni kechki ovqatni tanovul qilish uchun Savdogarlar klubiga borardi. U 1882-yilda uyidan klubga borishda to'satdan olamdan o'tdi. Xludov, odatda, baland poshnali etikda, uzun qora syurtukda va hamisha silindrda yurar edi.

Xludov karetsi kechqurun soat to'qqizda odatdagidek klubga kelgach, darbon kareta eshigini ochganida, Xludov yostiqda boshida silindr bilan jonsiz holatda yotar edi. Uning butun boyligi farzandlariga o'tdi. O'g'li Misha umrini maishat bilan o'tkazdi, Gerasim esa mutlaqo teskari mijozga ega edi. U sezilmay yashar ekan, qalban haqiqiy ishilarmon bo'lib, firma ishini ajoyib holda davom ettirdi.

Misha barcha jihatlardan ko'ra, rivoyatlarga mos edi... Otasining erkasi, har ishning uddasidan chiqadigan kuchli, ehtirosli ovchi va sarguzashtlar izlovchisi! Hali oltmishinchi yillarning oxirida u O'rta Osiyoga qarab yo'l oldi, o'sha paytda Verniy shahri endi barpo etilgan bo'lib, yangi bozorlar axtarish, shuningdek, yo'lbarlar ovlash uchun vaqt o'tkazish bilan band bo'lar va qolib ketardi. Shu paytda u «Rus xabarnomalari»da hali o'rganilmagan o'lka to'g'risida bir qator qiziqarli maqolalar yozdi. U yerda general M.G. Chernyayev bilan do'stlashdi. Shunda o'zi xuddi kuchuk kabi o'rgatgan ulkan yo'lbarlar bilan birga yurardi. Askarlar «yo'lbarlar bilan emin-erkin yurgan» kishiga ajablanib qarab qolishar, dovyurakligi hamda tengsiz jasorati uchun yaxshi ko'rishar, askarlarni boqishda, kimki unga murojaat qilgan bo'lsa, yordam bergan, buning uchun pullarni haddan ortiq sarflagani bois ardoqlar edilar.

Shohidlar Xludov to'g'risida shunday hikoya qilishardi. Xludov Moskvada paydo bo'ldi va yana o'zini tuta olmay, maishatga berilib ketdi.

O'sha paytda u mebellar bilan jihozlangan xonalar sohibining qiziga uylandi. U bilan o'zining singlisining uyida tanishgan edi. Singlisi esa o'zi uchun Tver xiyobonida xarid qilingan uyda uning otasi bilan birga yashardi. Uylangach, Xludov hayotini hech qanday o'zgartirmasdan, yashashni davom ettirdi. Faqat o'zining boshi berk ko'chasida yanada ko'proq mashhur ziyofatlar bera boshladi. Bunda turli-tuman liboslarda: goh kavkazcha, goh buxorocho, goh rimlik yarim-yalang'och gladiator kiyimida yo'lbarlar terisini yopingan holda paydo bo'lardi. Uning ajabtovur gavdasi, mushaklari o'ynab turgan vujudidan moskvalik xonimlar zavq-shavqqa to'lishardi. Chunki ular ziyofatda ko'p ishtirok etardilar. Bir safar u butun badaniga qora bo'yoq surkab, ziyofatda negr qiyofasida namoyon bo'ldi. Va hami-sha xuddi uy iti kabi erkalanib, qo'lga o'rgatilgan, uzoq yashaydigandek ko'ringan yo'lbarlar bilan yurardi.

1875-yilda Bolqon voqealari boshlandi: Gersegovina bosh ko'tardi. Chernyayev maxfiy ravishda uni bosh qo'mondon vazifasiga taklif qilgan serb hukumati bilan yozishmalar olib bordi. Bu yozishma, albatta, Uchinchi bo'lim tomonidan yoqilgan, shu bois Chernyayev ustidan nazorat o'rnatilib, Peterburgda unga xorij pasporti berish man qilindi. Shunda Chernyayev Moskvaga Xludov huzuriga keldi. Xludov uni o'zining uyiga joylashtirib, general-gubernator idorasidan chet el pasporti olib berdi, so'ng hech kimga hech nima demay, uchta uchqur ot qo'shilgan aravada ikkovi Moskvadan zudlik bilan chiqib ketishdi. Chegaraga qadar Chernyayevni Rossiyadan chiqarib yubormaslik to'g'risidagi farmoyish hali yetib kelmagan edi. Xullas, 1876-yilda Chernyayev Belgradga kelib, serb armiyasiga bosh qo'mondon bo'lib qoldi. Misha Xludov undan aslo ajralmay yurdi.

Mening do'stim, bu urushning sobiq ishtirokchisi shunday manzaraning gapirib bergan edi:

– Deligradga Chernyayevga axborot berish uchun kelgan edim. Meni bosh qo'mondon chodiriga boshlab borishdi. Chodirdan norg'ul rus yigiti qizil ko'ylak kiygan va askarchi «Georgiy» hamda serb ordenini taqqan holda chiqib keldi. Ordenlarni jasorati uchun olgan edi. Men ko'rganimda, qo'lida rom shishasi hamda choy solingan stakan bor edi.

– Sen Chernyayevning huzuriga kirasanmi? Mishagami? – deb so'radi mendan.

Men qat'iy javob berdim.

– Shunday bo'lsa ham baribir, u ham Misha, men ham Misha. Ma, ich.

Stakanga rom quydi. Men rad etdim.

– Ichmaysanmi? Sen ahmoq ekansan. – U bir ko'tarishda stakandagini ichib yubordi. Chodirdan Chernyayev qaradi-yu, qichqirdi:

– Mishka, bor, uxla!

– Eshitaman, janobi oliylari! – Va stakan bilan salyut berib, qo'shni chodirga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Xludov Moskvaga qaytib kelib, ikkinchi marta uylandi. Xotini oddiy odamlar qatorida edi, chunki u na savdogar ayollarni, na aslzoda qizlarni yaxshi ko'rardi. Xotinini sevar, ammo hamon oldingidek aroqxo'rlik bilan mashg'ul, o'zining odatdagi ziyofatlarini berar edi.

Hozirgacha uning 17-sentabrdagi tushligini eslaydigan tirik odamlar bor. Bu to‘ydan keyin xotinining tug‘ilgan kuni munosabati bilan o‘tkazilgan bayram ziyofati edi. Ziyofatda butun kazo-kazo ma‘muriyat a‘zolari, savdogar ahli to‘plandi. Tushlikdan so‘ng mehmonlar zalga erning yosh xotiniga taqdim etadigan sovg‘asini ko‘rishga taklif etildi. Ulkan qutini olib kirishdi, ishchilar tuvoqni yirtishdi. Xludov qo‘lida bolta ushlaganicha ular bilan birga bo‘lishga urinar edi. Qopqog‘ini ochib, uning tagini osmonga ko‘tarishdi. Qutidan... ulkan timsoh tushib ketdi.

* * *

Misha Xludovni oxirgi marta 1885-yilda Manejda o‘tkazilgan itlar ko‘rgazmasida ko‘rgan edim. Ulkan olomon katta temir qafas atrofini o‘rab olgan. Qafas ichidagi taburetkada uzun belburma kamzulda silindr kiygan Misha Xludov o‘tirar va kumush qoplangan stakandan konyak ichardi. Oyog‘i ostida yo‘lbars bolasi yotar, dumi bilan temir chiviqqlarni urar, boshini esa Xludovning tizzasiga qo‘ygan edi. Bu uning O‘rta Osiyodan yaqinda keltirgan oxirgi yo‘lbarsi bo‘lib, allaqachon xuddi kuchuk bolasi kabi o‘rgatib olgan edi.

Ko‘p o‘tmay Xludov telbalar uyida o‘ldi, uning Mashka nomli yo‘lbarsvachchasi zoologiya bog‘iga topshirildi, u yerda qafasga solinib, ozib-to‘zib ketdi.

* * *

Ularning barchasi katta pullarni yeb bitirgan odamlar edi. Lekin shu bilan birga, «ikkilamchi» tushlik qiladigan havaskorlar ham bor ediki, bir oyda ziqnaligi tufayli bir marta tushlikka kirardi.

Shulardan biri Firsanovlar vakili edi. Xasisligi tufayli uni «suyak quymoq» deb atashardi. Bu millioner yog‘och bilan savdo qilar va yirik diskonter (muddati to‘lmagan veksellarni hisobga olib, undan haq undiradigan), bir chaqa ustida tishni sindiradigan qurumsoq, ziqna edi. Bunday odamlar juda kam bo‘ladi. Uning bolalaridan tirigi qolmagan, millionlari meros bo‘lib qandaydir uzoq qarindoshlariga o‘tgan, vaholanki ularni tirikligida u ko‘rishni ham istamagan edi. Bu odam kun bo‘yi vaqtini idorada o‘tkazar, idorasi o‘rmon omborining ichidagi mo‘jaz kulbada joylashgan, xilvatda, temir yo‘lning yuk or-

tiladigan stansiyasidan uncha uzoq bo‘lmagan joyda edi. Shu yerda u pulga zoriqqan boylarni qabul qilar, veksellarni ulkan pullar evaziga olar, katta foizlar qo‘yar va bu ishlarni chaqqon bajarar, ammo had-dan ziyod maydakash, bir tiyin ustida yuz yumalar edi.

Ochiq-oydin gaplashadigan odamlarga u shunday derdi:

– Eh, hayotda pullar bilan yashash naq azobning o‘zginasi. Boshqa vaqt uyqudan uyg‘onaman-u, o‘zimni darhol hisob-kitobga ota-man. Bir kunda yuz minglab pul chiqadi. Xo‘sh, o‘n ming u yoq-bu yoqqa ketadi, ular haqida tashvish ham tortmaysan: bilasan, ish uchun ketgan, afsuslanmaysan. Lekin mayda chaqa tangalar! Ana shu meni qiynaydi. Masalan, gumashtam uyimdan mahsulotlar olib keladi, aytaylik, yog‘, tariq, un... deganday. Qabul qilib olasan, u esa qovoqbosh la’nati, oldingda baqrayib tik turaveradi, ko‘zingga qaraydi... Choychaqa so‘ramoqchi, ko‘rdingmi, odati, undan shuni kutasan!... Xo‘sh, kissangdan hamyoningni chiqarasan, bir tiyinlik-ni olasan-u, o‘ylab qolasan: berish kerakmi yoki yo‘qmi? Axir unga oylik to‘layapman-ku, nima uchun yana ortiqcha to‘lash kerak ekan? Keyin esa yana o‘ylaysan: shunday bo‘lib kelgan. Xo‘sh, deysan-u, yuraging g‘ash tortib, bir amallab berasan, so‘ng tunda o‘rningdan turib ketasan, azob tortib o‘ylanaverasan, nima uchun bir tiyin bekor-dan bekor-ga qulog‘ini ushlab ketdi? Shuning uchun men nima qildim, deng. Buni amalga oshirdim ham: gumashtaga uch tiyin beraman-u, shunday deyman: «Mana senga uch tiyin, o‘zingdan yana ikki tiyin qo‘shgin, traktirga borgin-u, choy buyurib, istaganingcha huzur qilib ich!»

1905-yilda uning idorasiga ekspropriatorlar (bosqinchilar) yopiri-lib kirishdi. Xizmatchilarga «qo‘lingni ko‘tar», deb buyruq berishdi, so‘ng «xos» kabinetiga kirishdi-yu, engagiga to‘pponcha tirab, talab qilishdi:

– Javonni och!

Uning o‘zi bu voqea to‘g‘risida shunday hikoya qilgan edi:

– Javonni ochaman-u qo‘lim dir-dir titraydi, yo‘q, pullarga achin-mayman, faqat otib qo‘ymasa edi, deb qo‘rqaman. Ochdim, o‘n ming-dan ko‘p olishdi, o‘zimni ham tintib, oltin soatimni zanjiri bilan tor-tib olishdi, yigirma daqiqa idoradan chiqmaslikni buyurishdi... Ular ketgandan keyin shunchalik xaxolab kuldimki, asti qo‘yaverasiz: axir boplagan edim-da: cho‘ntagimni qoqlashgan paytda kaftimda o‘nta

oltin tangani mahkam ushlab, siqimlab olgan edim, stol ustidan olishga ulgurman edim... Kaftni ochib ko'rish ularning esiga ham kelmadi! Eh, qanchalik bopladim!.. Hi-hi-hi! ♣ va xunuk tez-tez kular edi.

Uning ustidan savdogarlar odatiga ko'ra, ba'zan kalaka qilib kulislar edi, lekin u hech kimdan ranjib xafa bo'lib o'tirmasdi.

Ammo bu odamning familiyadoshi bo'lgan, mo'ylovi xuddi etikdo'zlar cho'tkasi kabi dikkaygan kishi mutlaqo boshqacha edi. Uni hech kim familiyasi bilan tilga olmas, shunchaki Pasha sariqmo'ylov deb chaqirishar, u ham jon-u dili bilan javob berardi. Pasha ham o'zini ovqatni sevadigan kishi deb hisoblardi. Vaholanki, o'zi kaklikdan bulduruqning farqini ajrata olmasdi. Hamsuhbatlari uning ustidan Pasha «ikkinchi ovqat»ga ikki yildan buyon chiqmayotganini aytib kulardilar. So'ng uni ko'ndirishdi. Shundan keyin Pasha yana tushlikka boradigan bo'ldi: eski odat unutildi. So'ng kutilmaganda, bu odati yuzaga qalqib chiqdi. Shundan keyin dasturxondan Pasha bir umr mahrum bo'lib qoldi.

Bu safar tushlik qilayotganlar hisobiga antreprenyer, ya'ni teatr egasi, klubga tez-tez keladigan F.A. Korsh hozir bo'lgan edi. O'sha paytda u aynan sariqmo'ylovning ro'parasida o'tirib qoldi.

– Pavel Nikolayevich, sizni negadir teatrda ko'rmayapman?

– Avf eting, Fyodor Adamovich, juda kam bo'laman... Mana shu dam olish kuni bolalar uchun lojadan joy buyurtirgan edim. Hozir sizlarda nima ketmoqda?

– Yakshanbadami? «Uylanish».

– Nima?

– Gogolning «Uylanish»i.

– Nima uchun siz bu yaramas narsani qo'yasiz?

F.A. Korsh, hatto ko'zlarini katta-katta ochgancha javob berishga ulgurmagan ediki, butun stol atrofida o'tirganlar kulgisidan zirillab ketdi.

– Sizlarning hammangiz ablahsizlar, mana, qanaqasizlar! Ablah! – qichqirdi sariqmo'ylov va stoldan sakrab turib, klubdan chiqib ketdi.

Xaxolash davom etar, hayron bo'lib qolgan F.A. Korshga sariqmo'ylovning qochib ketish sababini darhol tushuntirib berishdi.

Ikki yil burun kechki ovqatlanish paytida har kim o'zining didiga ko'ra taom buyurar ekan, Pasha ham o'zini ovqatni yaxshi ko'radigan bilimdon hisoblab, shunday qildi:

– Menga loyxo‘rak olib kel! – deydi u buyurtmalarni oladigan oshpazga.

– Loyxo‘rak deysanmi? Uning nima ekanligini bilasanmi o‘zi? – so‘radi kimdir.

– Albatta, bilaman... xuddi bulduruq kabi mo‘jaz oyoqlari mana bundoq, burni esa ma-na bun-doq!

Oshpaz qishda loyxo‘rak bo‘lmasligini aytib, e‘tiroz bildirmoqchi edi, ammo quvnoq Korolyov oshpazga ko‘zini qisib qo‘ydi-yu, uning ortidan ergashdi. Kechki ovqatlanish davom etardi.

Nihoyat, mis hamda nikel qotishmasidan yasalgan idishda loyxo‘rakni keltirishadi.

– Burni qayerda qoldi? – deb so‘radi Pasha likopchaga uncha katta bo‘lmagan oyoqlari uzun qushni solar ekan.

– Qishda loyxo‘rakning kallasini kesadilar... Xo‘randa, shuni ham bilmaysanmi? – tushuntirishga kirishadi Korolyov.

– Shunaqami?

Tanovul qilish boshlanadi, nihoyat Pasha oyog‘ini kesadi.

– Nima uchun oyog‘i ip bilan tikilgan?.. Boshqasi ham shunaqami? – so‘raydi Pasha ofitsiantdan.

U kulib, og‘zini qog‘oz sochiq bilan yopadi. Hamma ajablanib qaraydi, Korolyov esa jiddiy ravishda tushuntiradi:

– Chunki men bulduruqqa xo‘rozning oyog‘ini tirkab qo‘yishni buyurgan edim.

Ertasi kuni bu butun shaharga ovoza bo‘lib ketdi, sariqmo‘ylovning boshqa laqabi yo‘q edi, shu bois «Xo‘rozning oyog‘i» bo‘lib qoldi!

Bir kun do‘stlari uni Maliy teatrda «Uylanish» spektaklini ko‘rish uchun sudrashdi. Va o‘sha yerda: «Sizning oyoqlaringiz xo‘roznikimi?» – degan gapni eshitdi-yu, teatrdan yugurib qochib chiqib ketdi.

Gogolga haykal qo‘yishar ekan, Pasha so‘kinishga tushdi:

– Ungami! Hammaning ustidan kuladi-ku!

«Ikkinchi» tushlikda yana bir do‘lvor, anoyi kishi bor edi – Ivan Savelyev. Garchi beo‘xshov syurtuk hamda ko‘kish tusli etik kiyib yurgan bo‘lsa-da, o‘zini mag‘rur tutardi. Uning Pokrovkada non sotadigan do‘koni bo‘lib, o‘zi aytganidek, barcha ishlar «harbiy –

davlat»chasiga amalga oshirilardi. U o'zini feldmarshal deb atar, boshqa non do'konni boshqaradigan o'g'lini komendant, qolgan kalava non va non sotuvchilarni gvardiya, nonvoylarni esa garnizon deb atardi.

Aybdorlarni jazolashni hech qachon yakka hal qilmas, balki rasmiy sudlar tashkil etardi. Stol yashil mato bilan qoplanar, kumush tuzdonda non qo'yilar, sudlanadigan kishilar uchun oshxonadan o'rindiqlar olib kelardilar.

Jazo turlari xilma-xil: surgun ishlari – demak, hojatxona hamda axlat tashlanadigan o'ralarni tozalash, surgun – bir do'kondan ikkinchisiga o'tib ishlashdan iborat bo'lardi. Qamoqqa olish jarima bilan almashardi. Huquqdan mahrum etish – oyligini kamaytirish, o'lim jazosini rad etishdan iborat edi.

Barcha yoshi katta xizmatkorlar qahramonlar hamda davlat odamlari nomi bilan atalardi: Skobelev, Gurko, Radetskiy, Aleksandr Makedonskiy va hokazo. Ular shu nomga muvofiq javob berishar, o'zlarining asl ismlari esa unutilgan edi. Kitoblarda maosh shunday yozilgan edi:

Aleksandr Makedonskiy – nonni zuvala qilgich, 6 so'm.

Gurko – o'rama non yasovchi, 4 so'm.

Napoleon – suv tashuvchi, 4 so'm.

Xizmatkorlar hamda barcha kekxa xaridorlar ham shunday atalardi. Aytish kerakki, bu «qahramonlar»ning barchasi o'zini nihoyatda mag'rur tutar va nomi sharafini juda ulug'lar edilar.

Ovqat shinavandalari o'z stollariga klubga onda-sonda kirib keldigan Ivan Savelyevni bajonidil taklif etishar, chunki u bilan o'tirish xursandchilik edi. Ermak uchun-da! Savelyev, hatto haddan ziyod jiddiy hisoblangan aka-uka Lyapinlarni kuldira olardi. Aka-uka Lyapinlar birorta tushlikni o'tkazib yubormasdi. Ularni «ajralmaslar» deb atashardi. Yana bitta laqablari bor edi: «Juftmi, toq», lekin u unutilgan, faqat yosh bo'lgan paytida bilganlar eslar edi, xolos.

Ular klubga tushlik qilish uchun kelishar va kechki ovqatdan keyin ketishardi. Qarta o'ynashmas, balki butun oqshom klubda o'tirib, vaqt o'tkazishar, ichishar, ovqat tanovul qilib, tanish-bilishlar bilan suhbatlashishar yoki doimo bo'rtib turadigan o'quv zalida vaqt o'tkazishardi. Kutubxona ajoyib bo'lib, deyarli barcha rus va chet el jurnallariga obuna bo'lgan edi.

Aka-uka Lyapinlar keksaygan, deyarli tengdosh kabi edi. Kattasi Mixail Illiodorovich – to‘ladan kelgan, baqaloq, xomsemiz, lunjlari osilgan, kamharakat, yuzi sarg‘aygan, Arkashka Schastlivsevning so‘zlari bilan aytganda, kallasida soch o‘rnida «qandaydir qiltiq o‘sgan» edi.

Kichigi – Nikolay – g‘ayratli, sersoqol, akasining butunlay teskarisi edi. Ular bo‘ydoq bo‘lib, ikkovi qishki boqqa ega bo‘lgan dang‘illama hovlini egallagan edi. Lyapinlar yaxshigina boylikka ega, uni muhtojlarga yordam berish maqsadida sarflar edilar...

Lyapinlar aslida tambovlik ham, saratovlik ham dehqonlardan emas. Kattasi yoshligida olibsotarga xizmat qilib, Moskvaga poda haydagan. Shunday sayohatlarning birida Morshanskda bichilgan odamlar bilan tanishib qoldi. Ular uni o‘zlarining mazhabiga o‘tishga ko‘ndirdilar, evaziga katta pullar va‘da qilishdi.

Uni operatsiyaga ko‘ndirishdi, ammo faqat yarmini o‘tkazishga muvaffaq bo‘lishdi va va‘da qilingan pulning yarmini berib, bir yildan so‘ng operatsiyani yakuniga yetkazishga qaror qilishdi, qolgan pulni o‘shanda beradigan bo‘lishdi. Lekin shu olingan pul tufayli Lyapin bir yilda boyib ketishga ulgurdi va operatsiya o‘tkazilishiga ko‘nmay, rad etdi.

Baribir Mixail Illiodorovich eti osilib semirib ketdi, to‘lishdi, ko‘pincha hansirab qolar, kasalligining sababi bitta – bo‘kib ovqat yeyishi edi.

* * *

Saksoninchi yillarning yarmi qorsiz qishdan iborat bo‘ldi. Butun Moskvada hamma chang‘i uchgan qishni kuzatish bayrami – Maslenitsada havo shunchalik qizib ketgandiki, to‘shama yo‘llarning usti yalang‘ochlashib, chanalar o‘rnida ekipaj va to‘rt g‘ildirakli aravalar muzlab qolgan toshlar ustidan temir shinalar bilan gumburlab yura boshladi, o‘sha paytda rezina shinalarni bilmasdilar.

Juma va shanba kunlari Maslenada savdogarlar klubi va Lyapinlarning dang‘illama hovlisi o‘rtasidagi yo‘lda tartib bilan qalin somon to‘shamasi yotqizildi.

Somon tagidan, hatto granit yo‘lakning ko‘ndalang kesimi ko‘rinmas, Lyapinlar qulay bo‘lishi uchun buni savdogarlar klubidan o‘zlarining podyezdiga qadar o‘tkazgan edilar.

Va mana shu podyezdda somon ustida shuvillab faytun kelib to'xtadi. Undan Lyapinning ukasi tushdi va mashhur professor Zaxarinning tushishiga ko'maklashdi.

Bir daqiqadan so'ng professor qator hashamatli xonalardan o'tib, tor yog'och zinapoyalardan yuqoriga ko'tarila boshladi va past shiftli mo'jaz yotoqxonaga kirib keldi.

Bu yerda yog'och moyi va skipidar hidi anqir edi. Burchakda ulkan qizil daraxtdan yasalgan karavotning yumshoq o'rindig'ida to'ng'ich Lyapin yotar va og'ir nafas olar edi.

Doktor unga achchiqlanib qaradi, chunki bemorning ukasi allaqachon «ikkinchi» tushlik to'g'risida gapirib bergan, akasi bilan, ya'ni qumoqsimon xamir ovqatdan yeb, zo'riqib qolgan, bor-yo'g'i tushlikda o'n ikkita yeganini aytgan edi.

– Bu nima? – deb hayqirib yubordi professor karavot ustidagi devorga barmog'ini nuqib.

– Qandala... – dedi bemor oldidan sira qo'zg'almay ishonch bilan o'tirgan Mixalich.

– Xuddi cho'chqalardek yashayapsizlar. Teshikka tiqilib olgansizlar, yoningizda turgan zallar bo'shab yotibdi. Yotoqxonani yorug'xonaga o'tkazing! Mehmonxonaga! Zalga!

Tomir urishi, tilini ko'rdi, susaytiruvchi dori yozib berdi, yana so'kindi, so'ng dedi:

– Ertaga tura olasanmi?

Kelgani uchun besh yuz so'm oldi-yu, jo'nab ketdi.

Ertasi kuni ko'chadan somon yig'ishtirib olindi, ammo Zaxarinning ko'rsatmasi ukasi tomonidan amalga oshmadi: o'zining yotoqxonsi ko'chirilmadi...

Ular devor ichiga o'rnatilgan ko'zgulariga qarashdi. Ko'zgularning har biri o'z tomonidagi ko'chani aks ettirar, aka-ukalar bir-biriga ko'rganlari to'g'risida axborot berishar edi:

– O't o'chiruvchilar Stoleshnikovlarning pastki tomonidan o'tishdi.

– Talaba podyezdga yaqinlashdi.

Nikolay ertalab Ilyinkadan idoraga o'tar, u yerda katta movut bilan bog'liq ish bor edi. Kattasi kun bo'yi deraza oldidagi qulay yumshoq charm oromkursida o'tirar va oynaga qarab, keluvchilarni kutar

edi. Darbon ularni bermalol, xabar bermay kiritib yuborardi. Mixail Illiodorovich tashrif buyuruvchilar bilan shaxsan o'zi gaplashar edi.

Xullas, kelganlar yotoqxonaga so'rab kelgan talabalar edi.

Darbon kimni kiritib yuborishni bilar, eshikka yaqin kelgan kishi oldindan oynada ko'rinar edi.

Yupun kiyingan o'smir kirib keldi.

– Siznikida yashasam edi...

– Bo'lmasa-chi, mumkin. Siz kim bo'lasiz?

Agar talaba universitetdan bo'lsa, Lyapin qaysi fakultetdan ekanligini so'raydi, so'ng professorlar nomini aytib beradi, agar talaba rasomlar maktabidan bo'lsa, qaysi sinfda ekanligi, kimlar dars berishini surishtiradi, boz ustiga ularning ism-familiyasiga qadar tilga oladi.

– Shunday qilib, bizda yashashni istaysizmi?

Yashayotganlar kitobini ochadi, belgilarni ko'zdan kechirib chiqadi, agar bo'sh joylar bo'lsa, so'ng qog'oz uzatadi.

– Mana shu xat bilan yotoqxonaga borasiz, mudir Mixalichni so'raysiz-u, joylashasiz.





LYAPINLAR

Lyapinlarning ulkan mulki hovlisining orqa tomonida katta tosh turar, u bir zamonlar mol ombori vazifasini o'tagan, yetmishinchi yillar oxirida Lyapinlar uni turar joyga moslashtirib, qayta qurgan edilar. Bu yerda universitet talabalari, rassomlik va haykaltaroshlik bilim yurti o'quvchilari uchun bepul yotoqxonaga ochishdi.

Joy olgan o'smirlar kurs oxirigacha shu yerda yashar edi. Kurs tugagandan so'ng ko'pincha qolib, toki joy topgunga qadar «Lyapinka»da yashab qolishardi.

Umuman, o'quvchilar orasida kam qismi ta'minlangan bo'lib, ko'pchiligi kambag'allardan iborat edi. Talabalar ham, o'quvchilar ham shunday edilar. Rassomlik bilim yurti keskin ravishda boy-badavlat va ko'p sonli uy-joyi yo'q, boshpanasizlarga bo'lingan edi.

Bu ikki toifa ruhan va ko'rinishi jihatidan bir-biridan keskin farq qilar, o'zlarini bir-biridan juda uzoq tutar edi. Kambag'allarning tanish-bilishiari yo'q, hech qayerga bora olishmasdi, nimaga ham borsin! Ular burchaklar, xonachalarda biqinib olishar, pul to'lab, eng arzon traktirlarga borib sayr qilishga hozirlanishar edi. Bu odamlar yaxshi ko'rgan traktir bilim yurtidan uncha uzoq bo'lmagan Sreten xiyobonining Ulan tor ko'chasi burchagidagi bir qavatli uyda joylashgan yoki «Qo'ng'iroq» deb atalgan Sretenkadagi traktir bo'lib, u yerda aksariyati cherkovda ishlaydigan rassomlar to'planar edi. Ularning barchasi o'rtoqlarcha yashar, kimning bir so'mi bo'lsa, u mehmon qilishi rasmga kirgan edi.

Ko'pgina talabalar lyapinchilarga havas qilishardi – u yerga faqat baxtli kishilar tushib qolishardi: doimo to'la, navbatni kutib o'tirmaysan.

«Lyapinchilar» orasidan taniqli doktorlar, advokatlar, rassomlar chiqqan. U yerda bir oz vaqt taniqli jarroh P.I. Postnikov yashagan

edi. Vazifaga tayinlanguncha rassomlik bilim yurtining professori rassom Korin istiqomat qilgan; Petrovichev, Pirin yashagan. «Lyapinka» ko‘plab kishilarni muhtojlik hamda halokatdan saqlab qolgan.

Shu bilan birga, «umrbod lyapinchilar» ham bo‘lgan. Uch rassom – A., B. va X. u yerda o‘n-o‘n besh yildan yashagan va bilim yurtini bitirgandan keyin ham ancha vaqt qolishgan. Shu yerda istiqomat qilib, yalqovlashib ham qolishgan. Turli usullar mavjud bo‘lgan: Suxaryovka uchun suratlar chizishgan, bo‘yoqchilik qilib, ter to‘kishgan hushyor bo‘lgan paytlarida... Lyapinlar bularning hammasini bilgan, ammo haydab yuborishmagan: mayli, yashayversin, aks holda Xitrovkada yo‘qolib qolishi mumkin.

«Lyapinka» ko‘pgina talabalar uchun baxt-iqbol edi. Uysiz, joysiz talabalarning xiyobonlarda tunni o‘tkazishi kamdan kam ro‘y berardi.

* * *

Saksoninchi yillarda, aniqrog‘i, 1884-yilda doktor Vladimirov Moskva universitetini bitirib chiqdi, u aslida Galichdan chiqqan seminarchi edi. To‘rtinchi kursda yarim och-nahor Vladimirov joysiz qoldi va ikki haftani may oyida Tver xiyoboni bo‘ylab sayr qilib, Pushkin haykalidan Nikita darvozasiga qadar yurib o‘tkazdi. Shu paytda yarim kechaga yaqin o‘zining podsholikka qarashli uyidan chiqib, ober-politsmeyster Kozlov xiyobonni kesib, xiyobonning qarama-qarshisidagi tomonga yo‘l olardi. U yerda moskvalik taniqli tikuvchi sohibjamol ayol yashar edi. Kozlov ertalab, soat to‘rt-beshlarda yana o‘sha ayol bilan uyga qaytar edi.

Vladimirov boshqa uysiz-joysiz kishilar kabi Tver xiyobonida tunni o‘tkazgani uchun Kozlovning sirli sayohatini bilardi. Rangi sarg‘aygan o‘smir gardishi katta shlyapa kiyib, talabalar o‘rtasida o‘sha paytda modaga aylangan libosda (hozir bunday kiyimlar faqat teatr rekvizitlaridagi shiller qaroqchilarida uchraydi) Kozlovning diqqatini o‘ziga jalb etdi. Ertalab ular qandaydir to‘qnashib qolishdi. Va Kozlov o‘zining haqiqiy harbiylarga xos bo‘lgan mo‘ylovlarini burab, undan so‘radi:

– Yigitcha, sizni tunda xiyobon bo‘ylab sayr qilayotganingizda uchratayotganimning sababi nimada?

– Gap shundaki, xiyobonni har kecha kesib o‘tib, sayr qilish baxti hammaga ham nasib qilavermaydi.

«Lyapinka», albatta, iflos joy, ammo hech qanaqa xo‘jayin yo‘q edi. Har bir xonada to‘rttadan karavot, stolcha, qutilar bilan birga stullar ham qo‘yilgan. Bino tuhfa qilingan, stol uchun esa pul olinar edi.

Pastda oshxona bo‘lib, u yerda o‘n besh tiyin evaziga ikki xil ovqat – go‘shтли tushlik, karam sho‘rva, bo‘tqa hamda kuniga faqat bir marta tekin choy bilan non berilardi. Bu oshxona klub bo‘lgan, u yerda «isyonkorona» nutqlar aytilar, qo‘shiqlar kuylanar, inqilobiy shiorlar, xitoblar birinchi bo‘lib «Lyapinka»ga kirib kelgan va ochiq-chasiga o‘qilardi: izquvarlari u yoqqa kirmas, o‘zlarining ig‘vogarfitnachilari hamda xabar beruvchilari yo‘q edi. Sal-pal shubhali kishi paydo bo‘lsa, darhol lyapinchilar sezib qolardilar-da, o‘rab olib, lyapincha so‘roq boshlanib ketar, shu bilan izquvarlar ovini barbod qilishar edi. Eng kamida «Lyapinka»da tintuvlar bo‘lar, ko‘pincha o‘smirlar qamoqqa olinar, bu ishni jandarmlar bajarar, ular bino ichida to‘qnashuv bo‘lishidan xavfsirab, ko‘chalarda esa bitta-bitta ovlar edilar. Talabalar ko‘targan isyon to‘lqini avj olganida, bu yerda maxfiy yig‘inlar bo‘lib o‘tdi. «Lyapinka» o‘n yillar emin-erkin bo‘ldi, unda yoshlar, o‘quvchilar ishtirok etdi. Faqat bitta voqea ma‘lum: aka-uka Lyapinlar «Lyapinka»da rassomlik bilim yurti o‘quvchisini qabul qilishdan bosh tortgan edilar, vaholanki ular musavvirlarga alohida ehtirom ko‘rsatishardi.

Rassomlik bilim yurtida o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan ko‘rgazmalardan birida hammani «O‘lik ko‘l» deb nomlangan rasm nihoyatda lol qoldirgan edi. Bu surat go‘zal, ammo qo‘rqinchli edi: toshlardan iborat tekislik, u oftobning yog‘dularidan qontalash tusga kirgan, o‘rtada qon tusidagi ko‘l. Surat muallifi – beso‘naqay, juldur libos kiygan kishi bo‘lib, yoshi ancha o‘tgan, xunuk, ko‘z ifodalari g‘azabga kelgan, sochlari to‘zib, shapkadan chiqib turibdi, ko‘pdan buyon taroq ko‘rmagan. Bu o‘quvchi Jukov edi. U Lyapinning oldiga kelib, yotoqqa joy so‘radi, ammo g‘azabga to‘lib, keskin, ters gapirgani uchun aka-ukalarda noxush taassurot qoldirdi va natijada yotoqxonadan joy berishni rad etdilar. U chiqib ketdi, ko‘chada bilim yurtiga kirgunicha bir qishloqda volost kotibi bo‘lib ishlagan tanish kucherni ko‘rib qoldi. Kucher qandaydir bekaoyim qo‘l ostida xizmat qilardi. Jukovning yashash joyi yo‘qligini eshitib, o‘zining otxonasi yonidagi mo‘jaz xonaga joylashtirdi.

Jukovning yana allegorik mazmundagi «Toshqindan so‘ng» deb nomlangan rasmi bo‘lib, unga professorlar kengashi birinchi o‘rinni bergan, ellik so‘m bilan mukofotlagan edilar. Lekin pul berilmadi, chunki Jukov erkin tinglovchi, mukofot esa faqat shtatdagi o‘quvchiga berilardi. U o‘sha paytda professor Savitskiyning sinfida bo‘lib, bu murabbiy tomonidan shunday tavsiyaga muayassar bo‘lgan edi:

– Maktabning javohiri!

Va shu maktabning javohiri halok bo‘ldi.

Uni aravakash xonasidan eski dvoryanning uyiga o‘tkazishar ekan, xizmatkor ayol ustidan masxara qilib kulgan va «Ishyoqmas, tanbal», – degan dahshatli so‘zlarni bir necha bor eshitgan edi.

Ana shu qayg‘uli kunlardan birida uning xonasini yig‘ishtirayotgan oqsoch ayol bir manzarani ko‘rib qoldi: kamin pechkadan oyoq chiqib turar, kaminda lovullab yonayotgan o‘tinlar orasida sho‘rlik rassomning kuyib, ko‘mirga aylangan jasadining yuqori qismi yotar edi. Maktab direktori Lvov Jukovni dafn etish uchun yuz so‘m berdi, o‘rtoqlari uni Danilov qabristoniga dafn etishdi. Eng yaqin do‘stlari – ular juda kam edi – aytishlariga qaraganda, Jukovdan katta hajmdagi doston qolgan bo‘lib, u o‘zi tanimagan notanish qizga bag‘ishlangan edi. Ammo Jukov qizni yashirincha sevar edi. Ularning hikoya qilishlariga ko‘ra, unga butun vujudi bilan intilar, chunki ortiq darajada kuyinchak, ta‘bi nozik bo‘lgan. Bilim yurti har holda ellik so‘m berganida, biz balki tirik, o‘ziga xos rassomni ko‘rgan bo‘larmidik – Savitskiy va o‘rtoqlari, uning iste‘dodli ekanligiga ishongan kishilar ham shuni kutgan edilar, deb o‘ylanib qolasan kishi.

Ko‘p iqtidorlar kambag‘allik tufayli o‘lib ketishgan. Volgujevning taqdiri ham shunday bo‘ldi. U chilangar, keyin maktab o‘quvchisi, yirik ko‘rgazmalar ishtirokchisi, «Lyapinka» istiqomatchisi edi... Volgujevning Volga bo‘yi tasvirlangan peyzajlari go‘zal edi. U sil kasalligidan vafot etdi: davolanishga hech vaqosi yo‘q edi. Volgujev ham mag‘rur, aslo ortga chekinmaydigan odam bo‘lgan... U bilan bir voqea ro‘y bergandi. Kursni tugatish oldidan bir necha nafar o‘quvchi, eng yaxshi peyzajchilar Moskva general-gubernatori Sergey Aleksandrovich tomonidan uning Moskva yonidagi «Ilyinskiy» mulkiga dam olish hamda etyudlar chizish uchun taklif qilingan edi. Ular orasida Volgujev ham bor edi. Rojdestvoga bag‘ishlangan o‘quvchilar

ko'rgazmasida, bunday ko'rgazmalarni qoldirmay ishtirok etadigan Sergey Aleksandrovich, Volgujev chizgan rasm qarshisida to'xtab, uni maqtadi va narxini so'radi.

Volgujevni chaqirishdi. U uringan, o'sha paytlardagi ko'pgina o'quvchilar kabi eski pidjak kiygan holda general-gubernatorning oldiga keldi. General-gubernator Volgujevdan ikki bosh hajmida baland edi, Volgujev uning mundiridagi tugmani ushladi. Bundan butun ma'muriyat vahimaga tushdi.

– Bu rasmning narxi qancha? U menga yoqdi, sotib olmoqchiman, – dedi Sergey Aleksandrovich.

– Besh yuz so'm, – deb uning gapini kesdi Volgujev knyazning tugmasini o'ynar ekan.

– Bu nihoyatda qimmat.

– Qimmat bo'lsa, keragi yo'q, arzonga sotmayman! – Volgujev tugmani o'ynashni bas qildi va nari ketdi.

Narx haddan ziyod baland edi, bundan tashqari, ko'rgazma komissiyasi belgilagan bahoga muvofiq u yuz so'mga narxlangan edi. Buni Volgujevga ko'rsatishdi.

– Bilaman; har qanday boshqa kishiga yuz so'm, ammo bunga besh yuz. Chunki u juda nufuzi baland kishi. Men ham o'zimni baland tuta olaman...

* * *

Bir paytlar ko'rgazmada V.A. Serov sinfidan bir o'quvchining ayol portreti paydo bo'ldi. Uning muallifi o'sha paytda «Lyapinka»da yashar edi. Portretida yosh ayol oq ko'ylakda oq fonda, oppoq ramka ichida tasvirlangan bo'lib, shunday taassurot uyg'otdiki, uni ko'rgan bir yosh juvon rassom bilan tanishishni xohlab qoldi. Xonimga muallifni tanishtirishdi: lyapinkalik bo'lganda qandoq. Juvon uning kiyimiga e'tibor berib o'tirmadi va o'zining portretini chizib berishni so'radi. Boshqa kuni muallif o'zining yagona pidjagida general-gubernatorning uyi qarshisidagi g'oyat hashamdor xonaga kelib, bir paytning o'zida xonim va qizining suratini chizishga kirishdi. Jimjitlik hamda tortinchoqlikdan iborat vaziyat dastavval rassomni tetiklashtirib, so'ng ruh berdi, u gapira boshladi. Xonim undan rassomlar hayoti to'g'risida ko'p so'radi va ular uchun uyida kechki ziyofat uyushtirish istagi borligini ma'lum qildi.

– Mening uyimga o‘rtoqlaringizni chaqirsangiz, faqat ularni nima bilan qanday mehmon qilish kerakligini aytasangiz.

– Aroq, selyodka, bodring, kolbasa, iloji bo‘lsa, yaxshi pivo. Choyning aslo keragi yo‘q. Necha kishini aytish kerak? Besh kishi unchalik ko‘plik qilmaydimi?

– Nimalar deyapsiz? Qancha bo‘lsa, chaqiravering, qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi.

– Men o‘ttiz kishini tanlayman!

– Yaxshi, o‘ttiz kishiga ovqat tayyorlaymiz, juda xursandman.

Belgilangan kuni kechqurun soat yettida «Lyapinka»dan o‘ttiz kishilik hamkasblar guruhi sudralib yo‘lga tushdi. Darbon vahimadan qotib qolgan, hech kimni ichkariga qo‘ymaydi. Uy bekasi kelib, hammasini zimmasiga olgach, knyazlik darboni shuncha palto va yarim po‘stinlarni yechdirib oldiki, vestibyul bunday odamlarni hech qachon ko‘rmagan edi. Faqat kalishlar uchun bo‘sh joy qoldi, xolos.

To‘da uzun-qisqa bo‘lib, gilamlarni bosib, hashamatli oshxonaga kirib keldi-da, darrov ulkan stol atrofiga o‘tirib oldi. Stol usti turli-tuman gazaklar, vino, pivo, aroq bilan to‘lib-toshgan edi. Uy bekasi va ikki tanish xonimi stol oxiridan joy olishgandi. Ziyofat tashkilotchisi ehtiyotkorlik bilan xonimlar o‘rtasiga jo‘rttaga taklif qilingan lyapinkalik bo‘lmagan kishilarni o‘tqazib qo‘ydi. Ular oqsuyaklar jamiyatiga o‘ralashib yuradigan po‘rim rassomlar, go‘zal yigitlar edi. Uy bekasi hamda sheriklari bo‘lgan xonimlar, boshqa begonalar yo‘q. Uy bekasi-ning eri, keksa general chiqdi-yu qaradi, ta‘zim qildi va g‘oyib bo‘lganini biror kishi ham sezmay qoldi. U eshikni asta yopib, ko‘zdan yo‘qoldi.

Ulfatlar har bir ryumkadan so‘ng jonlanar, qadah urishtirar, ichar, bir-biriga quyar, shovqin ko‘tarar, lyapinliklardan biri butunlay mast bo‘lib qolib, hatto baland ovozda «ota-onalarni yo‘qlash»ni boshladi. Ancha hushyor o‘rtoqlari uni ketishga ko‘ndirishdi. Darbon uni kiyintirishga ko‘maklashdi. Yana olti nafar kishi «ustalik bilan» o‘rtoqlarini shunday yo‘l tutib kuzatdilar. Hammasi ichilib, tanovul qilib tugatilgach, mehmonlar birin-ketin keta boshladilar.

Bu ziyofatni uning ishtirokchilari ancha vaqt eslab yurishdi.

* * *

Lyapinliklarning o‘z vaqtini xush qiladigan mashg‘ulotlar ham bor edi. Korsh teatri haftada besh marta teatr zalining yuqori qismi

uchun bepul patlar tarqatardi. Sulaymon sirki esa shanbadan tashqari hamma kuni yigirmata mis ko'krak nishoni jo'natar, mudir Mixalich uni talabalarga tarqatar, negadir, har bir nishon uchun bir tangadan talab qilardi. Talabalar jon-u dili bilan to'lar, lekin bu tangalar qayerga ketadi, hech kim bilmasdi.

Shu bilan birga, lyapinchi talabalar uchun qoniqishlarini ta'minlaydigan hech narsa yo'q edi, faqat ularni badiiy ko'rgazmalarga bepul kiritardilar, xolos.

Lyapinchilar talabalar g'alayonlari davrida vaqtichog'lik qilishar, hamisha bu harakatning boshida turardilar. Shunday bo'lgandiki, «Lyapinka»ning deyarli yarmi ko'chma turmada tunni o'tkazar edi.





RASSOMLAR «MUHITI»

Narishkin skveri ortida, Kichik Dmitrovka burchagida, Strastniy monastiri qarshisidagi eski dvoryan uyida ko'p yillar mobaynida «Badiiy havaskorlar jamiyati» joylashgan bo'lib, bu yerda o'sha paytda rusumga kirgan «Davriy ko'rgazmalar» o'tkazilardi.

Ularda eng yaxshi suratlar pul mukofotlariga sazovor bo'lar hamda yaxshi narxlarda sotilardi. Qishki mavsum paytida jamiyat «jumalik»lar uyushtirardi. Unda oqshomlari rassomlar to'planar, natura qo'yilar, ular jim holda diqqatlarini bir joyga jamlab surat chizishar, choy ichishar, bir-birlari bilan onda-sonda gaplashib qolishardi.

Ba'zan kimdir shu paytda royal chalib, birorta mehmon qo'shiqchi kuylar yoki she'r o'qirdi. Oqshom soddagina gazakni tanovul qilish bilan nihoyasiga yetardi. Ularda faqat rassomlarning yirik arboblari: Makovskiy, Polyanov, Sorokin, Ge, Nevrev va Jamiyat a'zolari – boy-badavlat metsenatlar, ya'ni homiylar: M. Tretyakov, Sveshnikov, Kumanin ishtirok etardi. O'quvchilar hamda yosh rassomlarga kirish mumkin emas, chunki «jumaliklar» jonga tegadigan va zerikarli bo'lib, ularni bekordan bekorga «siyqasi chiqqan jumaliklar» deb atamasdilar. Unda deyarli hamisha havaskor rassom K.S. Shilovskiy ishtirok etar, keyinchalik Maliy teatrning aktyori bo'lgan Loshivskiy, tiyrak, talantli, yuksak darajadagi ma'lumotli odam ham bo'lardi. U bunday majlislarda zerikar, shunda «jumalik» a'zolaridan birini o'zining huzuriga «shanbalar»ga taklif qilardi.

Va uning Pimenov muyulishidagi kvartirasida rassomlar yig'ilishardi. Ular chizishar, choy ustida vaqt o'tkazishar, quvnoq tarzda suhbatlashar, musiqa eshitishar, o'qishar, qo'shiq kuylashar edi; yoshlar ham ko'p qatnashardi. «Shanbalar»da rassomlik bilimdoni va kolleksiyachisi V.Ye. Shmarovnin hozir bo'lgan edi. Bularning barchasi kechki ovqat bilan yakunlanardi. O'quvchilar

ko'rgazmalaridan birida u Levitanni birinchi bo'lib «ko'rib» qoldi va etyudini xarid qildi. Bu Levitanning birinchi asari bo'lib, ular do'stligining boshlanishi edi. Shmarovin ko'pincha rassomlik bilim yurtining yarim och yoshlari bilan do'stlashgan edi, ularning chizganlarini xarid qilar, ayrimlarini esa huzuriga taklif qilardi. Shu bilan birga, katta rassomlar ham bo'lardi. «Shanbalar»dan birida Shilovskiy va uning mehmonlarini kelgusi «chorshanba» kuniga taklif qildi. Shuning uchun «shanbalar» doimiy ravishda jimjit va kimsasiz bo'la boshladi. Shilovskiyning «Shanbalari» dastlab diqqatini tortgan rassomlar ham odatlana olishmadi. Mehmondo'st Shilovskiy oxirgi so'miga o'zining uncha katta bo'lmagan, chiroyli jihozlangan kvartirasida mehmonlarini kechki ovqat va vino bilan siylardi, rassomlar boshqalar hisobiga taomlanishdan uyaladigan, ustiga-ustak odatdan tashqari zodagonlarga xos vaziyatga tushib qolganlaridan tortinadigan bo'lishdi.

Shmarovinlar muhiti ancha demokratik tarzda edi. «Muhit» a'zolarida turadigan har bir rassom ham, mehmonlar ham bu yerda o'zini xuddi uyidagidek his etardi. Ular o'z hisoblaridan yeb-ichishar, uy sohibi «Volodya amaki» esa faqat tashkilotchi va ko'rsatma beradigan direktor, deyish mumkin edi.

«Muhitlar»da barcha rassomlar butun kecha davomida akvarel bilan chizar edilar: Levitan – peyzajni, fransuz batalisti Dik de Lonley – jangovar sahnalarni, Klod – karikaturani, Shestyorkin – natyurmortni, Bogatov, Yagujinskiy va boshqalar – o'ziga yoqqan narsalarni chizish bilan band edi. Rasmlarga narx havola qilinardi, unda musavvir o'zining akvareli uchun bir so'mdan besh so'mgacha pul olardi. Bu suratlar darhol «ommaga ko'rsatish uchun» belgilangan o'sha zalga qo'yilar, kechki ovqatdan oldin chiptasi bir grivennikdan iborat lotereya tashkil qilinardi. Kimdir bitta chipta, boshqa boy-badavlat mehmon o'ntalab va ikkita olib, Levitan chizgan rasmlarni yutib olishga jo'rttaga urinardi! Qolgan suratlar Datsiaro va Avanso do'konlarida sotilardi. Lotereyadan tushgan mablag' o'sha yerning o'zidayoq rassomga suratning narxi hisobiga muvofiq berilar, qolgani esa oddiygina kechki ovqatga to'lanardi. Bundan tashqari, stollar ustida akvarellar solingan papkalar turardi, ularni mehmonlar ishtiyoq bilan xarid qilishardi. Va har bir kelgan kishi «muhit»da shuni anglardi ediki, uning yeb-ichgani behuda emasdi.

«Shanbalar» va «chorshanba»da deyarli bir xil, aynan o'sha omma hozir bo'lardi. «Shanbalar»da surnay tovushi ostida ichishar va tanovul qilardilar, «chorshanbalar»da «Katta burgut qadahi»dan gimn sadolari ostida sipqorishar va bir misradan gimn musiqasi ostida ijro etar edilar.

Ana shunday «chorshanbalar»dan birida 1886-yilda K.S. Shilovskiy qizg'in suhbat asnosida V.Ye. Shmarovinga shunday degan edi:

– Burgut va surnay bir joyda bo'lishi kerak, mayli, ular sening «chorshanba»laringda bo'laversin.

«Shanbalar» tugadi, «chorshanbalar» qoldi.

Faxriy «Katta Burgut» qadahi Shilovskiy surnayi sadosi ostida Shmarovinga har bir yangi qabul qilingan a'zo uchun chalinar, gimn sadolari ostida ichilar va surnay gumburlar edi...

Bu to'garakka yangi a'zo qabul qilishga bag'ishlangan odat edi. «Burgut» har bir «chorshanba» ishtirokchisi uchun olib borilar, bu ishtirokchi chiroyli nutq, muvaffaqiyatli badihaga ega bo'lishi, yaxshi rasm yoki karikatura chizmog'i lozim edi. Ular xushchaqchaq yashar edilar. To'planishar, chizishar, ichishar va tong otguncha qo'shiq kuylashardi.

Artistlik dunyosida bu vaqt mobaynida «San'at va adabiyot jamiyati» tashkil qilindi, ularning ko'plab a'zolari «muhitchi»lardan edi.

1888-yilda «San'at va adabiyot jamiyati» olijanob yig'inda ajoyib bal uyushtirdi. Aniq tarixiy liboslar, dekoratsiya, vaziyat, badiiy grim – bularning deyarli barchasi to'la-to'kis «muhit» a'zolari tomonidan bajarilgan edi.

I. Levitan, Goloushev, Bogatov, Yagujinskiy va boshqa ko'pgina kishilar qo'l qovushtirib o'tirmasdan ishtar edilar. Bal muvaffaqiyat qozondi – «muhit» mustahkamlandi.

1894-yilda, odatdagidek, rassomlar o'zlari rasm chizadigan ulkan stol ustiga V.Ye. Shmarovin bristol varag'ini qo'ydi-yu, tepa qismiga balandparvoz ohangda: «1-chorshanba, 1894-yil» deb yozib qo'ydi. Uni o'sha zahoti ishtirokchilar to'ldirdilar. Bu «chorshanba»ning ilk bayonnomasi edi.

Shundan keyin har bir «chorshanba» o'z bayonnomasiga ega bo'ldi... Yirik nomlar ushbu bayonnomalarda zamonasining maishiy turmushini aks ettirib turgan rasmlar ostida yarqirab ko'rinar. Rassomlardan tashqari shoirlar she'r yozardi. M.A. Loxvitskaya, Ye.A. Bulanina, V.Ya. Bryusov bayonnomalarda bir necha she'rlar yozgandilar.

Endi Katta Molchanovkadagi hashamatli koshonani egallagan yangi binoda yuzdan ortiq ishtirokchilar va mehmonlar yig'ilishgan edi. U yerda, Savelovskiy boshi berk ko'chasida esa yana bitta «chorshanba» boshlanayotgan edi. Kelganlarning qo'ng'irog'iga V.Ye. Shmarov chiqdi.

– Mana, do'stim, kelganing uchun rahmat! Sensiz esa nimadir yetishmay turgan edi... Bor, jinday isinib ol, – u odatda keluvchilarni shunday kutib oladi.

Atrofdagilarning barchasi tanish-bilishlar... Peshvoz chiqqan V.Ye. Shmarov ba'zan kirgan kishi oldida turib qolardi. Uning bir qo'lida Pyotrgacha bo'lgan davrning kichik kumush qadahi, boshqasida Yekaterina davrining sharobi, uni «muhit»dagilar «kvintel» deb yuritishardi.

Mehmonlarning asosiy qismi soat o'nda keldi. Umumiy do'st hisoblangan keksa enaga yechinishga yordam beradi... «Volodya amaki»ning o'zi chiqadi, o'pishadi... Rasmlar ilib tashlangan butun boshli zal eshigi ochiladi... Kerosinli chiroqlar va qandillar bilan yoritilgan stol o'rtada turibdi... Atrofida o'nlab rassomlar o'tirishibdi – kimdir alohida rasm chizish, kimdir bayonnoma to'ldirish bilan band... Stol atrofida mehmonlar yurib, ishni ko'zdan kechiradilar... To'satdan kimdir royal chalish uchun o'tiradi. Bu «kimdir» musiqa dunyosida albatta mashhur shaxs: yoki Lentovskaya, yoki Asperger violonchelga tutinadi, shu bilan musiqa ostida yanada quvnoq tarzda ishlashadi... Kirganlar salomlashmaydi, ishga xalaqit berishmaydi va nariga yoki zal orqali mehmonxonaga chiqishadi, yoki o'ng tomonga kabinetga kirishadi. Bu joy ham rasmlar, boshqa ashyolar bilan yasatib qo'yilgan. Mehmonlar yumshoq mebellarga joylashib suhbatlashmoqda... Surnay, gitara, balalayka yotibdi... Yo'lak orqali oshxonaga chiqiladi, u yerda samovar qaynamoqda, beka pechenye, qiyom bilan birga choy ham quyib, ularni mehmon qilmoqda. Undan narigi tomonda arfa tovushi eshutiladi – to'planadigan dugonalari uchun xo'jayinning qizi chalmoqda... Keyinroq u kvartet chaladi, mashhur kishilar bilan birga. Katta zal molchanovkacha ko'shka ega.

Yana bitta xona bor: «o'likxona».

Bu shiftiga qadar qoramtir-qizil fonar o'rnatilgan eng quvnoq xona hisoblanadi. Devorlarda turli qazilmalardan topilgan qo'rg'on

ashyolari, eng qadimiy uzuk va ziraklar, qurollar – tosh asridan boshlab, sovutlar, dubulg'alar, oyboltalar, egri qilich, shamshirlarga qadar.

Devor yonida keng turk divanlari, ularning yonida havaskorlar uchun stolcha qo'yilgan bo'lib, ustida gugurt, kuldonlar va chilim turibdi. O'tirib, xaxolashadi, to'xtovsiz gapirishadi, vaysashadi... Kimdir balalaykada bilar-bilmas chaladi, kimdir uyqu bosib mudraydi. «O'likxona» deb nomlanishiga sabab shuki, bu divanlarda tong oti-shidan avval, odatda ortiqcha ichib olgan yoki uyi uzoq bo'lgan kishi qotib uxlab yotgan bo'ladi...

Yarim kechada «Volodya amaki» qo'lida childirma sadolari tarqalar edi... Bu birinchi signal. Rassomlar ishlarni to'xtatdilar. Oradan o'n daqiqa o'tgach, yana childirma ovozi yangraydi...

Cho'tkalar, qog'ozlar yig'ishtiriladi, hali qurishga ulgurmaganlari royal ustiga qo'yiladi. Hamma stol atrofidan turib, xonalarga tarqalib ketadi – zalda kechki ovqat uchun dasturxon tayyorlashadi. Ko'p chizgan rassomlar likopchalariga bayonnomadagi taomnomada ko'rsatilgan gazaklar qo'yiladi. Kolbasalarning barcha xillari, aroq, vino va boshqa ichimliklar... tortiladi dasturxoniga. Bularning hammasini V.Ye. Shmarovin Suxaryovkada o'n yillar davomida yiqqan. Stol o'rtasida pivoli bochkacha qo'yilgan. Uning ro'parasida «Volodya amaki»ning shaxsan o'zi o'tiribdi, navbatchi soqiy esa pivo quyadi. Ichishdi. Tanovul qilishdi. «Volodya amaki» o'rnidan turdi-yu, childirma chaldi. Hamma jim bo'lib qoldi.

– Qadrli o'rtoqlar, so'z sizlarga!

U hech kimni ogohlantirmay, bir kishini ko'rsatar edi – baribir gapirishga to'g'ri keladi. Rassom Sinsov allaqachon royal oldida o'tirar, nutqini gimn bilan tugatishga hozir-u nozir edi... Kim yaxshi, deb aytilsa, stol atrofida o'tirganlar:

– «Burgut»! – deb qichqirib yuborishardi.

Qadah musiqa sadolari ostida ko'tarilar va «Yomon qo'yilmagan» gimni ostida umumiy qo'shiq bilan ichilar edi.

Tong. Pardalar oralab yorug'lik kira boshlaydi. Oilasi borlar va xonimlar ketishdi... Pivo bochkachasi allaqachon bo'shab qolgan... «O'likxona»dan xurrak tovushi eshutiladi. Rassomlardan kimdir yorqin bo'yoqlar bilan natura, ya'ni andazaga qarab rasm chizmoqda: stol ustidagi idish-tovoqlar yig'ishtirilmagan, «Burgut» ag'darilib yotgan qadahlar orasida osilib turibdi, bochkachaning jo'mragi

ochiq holda stol ustida tayangan, «Volodya amaki» mudramoqda. Shoir yozib bitirmagan bayonnomadagi rasmga imzo qo‘ymoqda:

*Ha, ayriliq oni yaqindir,
Oppoq kun egallar borliqni.
Bochkacha esa turibdi bo'shab,
«Burgut» endi butunlay bo'm-bo'sh...*

1922-yil. Baribir «chorshanba»chilar yig‘ilishdi. Endi ular Katta Molchanovkada emas, balki Katta Nikitskiyda, S.N. Lentovskiy kvartirasida edilar. Ular endi doimiy tarzda yig‘ilishmasdi. Vaqt-vaqti bilan «Volodya amaki» quyidagicha iboralar bilan yakunlanadigan taklifnoma yuborardi:

«22-fevralda, chorshanba kuni «chorshanba»chilar uchun choy-xo‘rlik tashkil etiladi. Shartlari quyidagicha: 1. Samovar va choy «chorshanba»chilardan; 2. Shakar va boshqa shirinliklar ishtahaga qarab, o‘ziga tegishli hissani o‘zi olib kelishi, miqdorini belgilashi ixtiyoriy...».





BOSHLOVCHI RASSOMLAR

Yosh rassomlarning taqdir yo‘liga chiqqan haqiqiy havaskorlar eski Moskvada kam edi. Ular o‘z galereyalari uchun eng ko‘p yangi rasmlar sotib olish bilan chegaralanishar va har bir tiyin ustida tala-shib-tortishardilar.

Haqiqiy metsenat, ya’ni homiy P.M. Tretyakov hamda K.T. Soldatenkodan tashqari, yana S.I. Mamontov bo‘lib, uning o‘zi qiziqadigan va intiluvchan rassom edi.

Mamontov atrofida bir guruh odamlar davra qurgan, ularning ko‘pchilik qismi mashhurlardan iborat bo‘lib, yoshlarning dastlabki kunlardan boshlab, zo‘r rasmlar chizadigan yirik rassomlar chiqishi mumkinligini bashorat qilardilar. Keyinchalik haqiqatan ham shunday bo‘lib chiqdi.

Qashshoq, mag‘rur va omadsizlar ba‘zan homiylarga nafrat bilan qarar edilar:

– Po‘rim bo‘lib qoldilarmi, yoqalarini ohorlashdimi! – deyishar edi Mamontov to‘garagiga tushib qolgan kambag‘a‘llar.

Bu odamlar uchun kambag‘allikdan chiqish og‘ir edi. Ko‘pchilik bolalar ota-onasiz – dehqonlar, meshchanlar rassomlik bilim yurtiga haddan ziyod san‘atga ishtiyoqi baland bo‘lgani tufayli kirgan edilar. Ko‘pchiligi kursni yarim och holda tugatgan. Ammo iste’dodli odamlar bo‘lib, biror boshqa mashg‘ulotni izlab topishi lozim edi. Ularning aksariyati cherkov rassomiga aylandi. Devoriy rasmlarni ishlardilar. S.I. Gribkov shunday edi, Bajenov aynan shunday edi. Ikkovi ham bitirish arafasida mukofotlandi, ular bilim yurtining umidi edi. Bundaylar ko‘p edi.

Gribkov bilim yurtini tamomlagandan so‘ng ko‘p yillar rassomlik ustaxonasini saqlab yurdi, cherkovlarga rasmlar chizdi, uzluksiz ravishda ko‘rgazmalarda ishtirok etishni davom ettirdi, o‘sha davrning talantli rassomlari bilan do‘stlikni hech qachon uzmedi. U ke-

lib chiqishi – asli qosimovchi meshchan bo‘lib, kambag‘al toifaga mansub edi. Kursni tamomlashda o‘zining «Ivan Ivanovich va Ivan Nikiforovich o‘rtasidagi janjal» nomli surati uchun mukofot olgandi. Keyinchalik Badiiy Ijod havaskorlari Jamiyatidan tarixiy suratlari uchun mukofotga ham sazovor bo‘ldi. Uning cherkov rassomligiga mo‘ljallangan katta ustaxonasi Kaluga darvozasi yonidagi uydan xarid qilingan edi.

Uy ulkan, ikki qavatli bo‘lib, aholisi kambag‘al kishilar – kir yuvuvchilar, ustalardan iborat edi. Ular kvartira uchun haq to‘lamas edilar, u nafaqat ijara haqi talab qilar, balki kvartiralarni o‘zi ta‘mirlar, shogirdlari uni bo‘yar va oqlar edi.

Uning katta ustaxonasi hamma uchun ochiq edi. Qishloqdan biror rassom kelsa unikida yashab qolar, albatta, hech ish qilmas, joy topgunga qadar o‘sha yerda turib, yeb-ichar edi.

Rassom yashash joyidan mahrum bo‘lib qolsa, unikiga kelar, vaqtincha yashar, ishgacha o‘sha yerda turardi.

Shogirdlari orasida doimo olti nafar boladan kami bo‘lmasdi. Ular xo‘jalikda ishlar, dastyorlik qilar va bo‘yoqchilik bilan shug‘ullanib, tom ustini bo‘yashar, lekin har oqshom ular uchun natura, ya‘ni andoza qo‘yilar, shu tariqa Gribkovning shaxsan o‘zi rahbarligi ostida naturadan qarab, rasmlar chizar edilar.

S.I. Gribkov shogirdlaridan anchagina ajoyib rassomlar yetishib chiqdi. Vaqt-vaqti bilan ularning ko‘ngil chigilini yozar, bayramlar paytida ziyofatlar uyushtirar, bunda aroq va vino ichishlariga yo‘l qo‘ymas, faqat choy, pryanik, yong‘oqlar iste‘mol qilishar, gitara uyg‘unligi ostida raqslar ijro etilar edi. Uning o‘zi bunday ziyofatlarda yarim kechaga qadar oromkursida o‘tirar va yoshlar qanchalik gashtini sursa, u ham xursand bo‘lardi.

Ba‘zan bunday ziyofatlarda Gribkovning uyiga keladigan rassom do‘stlari: Nevrev, Shmelkov, Pukirev va boshqalar u bilan yonma-yon o‘tirar, mashhur rassom Savrasov unikida oylab yashar edi.

Keyingi yillarda A.K. Savrasov butunlay ichkilikka berilgach, ba‘zan Gribkovning ustaxonasida juldur kiyimda paydo bo‘lardi. Shogirdlar xursand bo‘lib, mashhur rassomni kutib olishar va to‘ppa-to‘g‘ri S.I. Gribkovning kabinetiga olib kirishardi. Do‘stlar quchoqlashib ko‘rishar, keyin A.K. Savrasovni shogirdlarning birortasi bilan Qrim ko‘prigi yonidagi hammomga jo‘natar, u yerdan esa Savrasov

sochlarini tekislab, Gribkovning ichki liboslari hamda ko'ylaklarini kiygan holda qaytib kelar va hushyorligi tiklanar edi.

Bularning bari Gribkov uchun shodlikka g'arq bo'lgan kunlar edi. Bir oy, ikki oy yashar, keyin yana g'oyib bo'lar, qimorxonalarda tentirab yurar, bufetchilarning bergan aroq va ovqati uchun buyurtmachilar iltimosiga ko'ra traktirlarda chizish bilan band bo'lardi.

S.I. Gribkov barchaga yordam berar, uni dafn etish do'stlari zimmasiga tushgan edi: shunda uyda biror tiyin yo'q ekanligi ma'lum bo'ldi.

S.I. Gribkov hayotlik chog'ida o'rtoqlarini hech qachon unutmagan. Mashhur V.V. Pukirev shol bo'lib qolganida va Prechistenkadagi tor ko'chalardan birida joylashgan nochor xonada yashar ekan, S.I. Gribkov har oy unga ellik so'm pulni o'zining shogirdlari orqali yuborib turgan. V.V. Pukirev haqida so'z ketsa, S.I. Gribkov hamisha ehtiros bilan uni tilga olar edi:

– Axir bu Dubrovskiy-ku, Pushkinning Dubrovskiysi! Faqat u qarqochi emasdi, ammo butun hayoti xuddi Dubrovskiyning o'zi edi – ham go'zal, ham qudratli, ham iqtidorli, shu bilan birga taqdiri ham aynan o'xshash!

U V.V. Pukirevning yoshlik davridagi o'rtog'i va do'sti, uning «Tengsiz nikoh» deb nomlangan surati tarixini yaxshi bilar va muallif hayotidagi butun fojidan xabardor edi: suratdagi kekxa savlatli amaldor jonli qiyofaga ega. Kelin u bilan yonma-yon turibdi – bu V.V. Pukirev qallig'ining portreti edi, qo'lini qovushtirib turgan kishi – V.V. Pukirevning o'zi, xuddi tirikday ko'rinadi.

S.I. Gribkov tufayli N.I. Strunnikov o'zining badiiy mavqeyini boshlab, unga shogird bo'lganida, o'n to'rt yashar bola edi. U ham xuddi boshqalardek bo'yoqchilik qildi, mo'yqalamlarni yuvdi, kechqurunlari andazaga qarab rasmlar chizdi. Bir marta S.I. Gribkov shogirdi Strunnikovni Kaluga zastavasidagi qandaydir eski suratni restavratsiya qilish maqsadida eski nodir narsalar bilan savdo qiluvchi kishining huzuriga jo'natdi.

Shu paytda P.M. Tretyakov Tropinin ishlagan ruhoniyl Feofan portretini xarid qilish uchun uning huzuriga kelgan edi. P.M. Tretyakovni ko'rgan antikvar uning po'stini va kalishini yechish uchun yordamga shoshildi. So'ng xonaga kirganlarida, surat ustida ishlab turgan Strunnikovni ko'rib qoldi-yu, uni polga egilib ta'zim qilishga undadi:

– Oyog'iga bosh urgin, tizzala. Bilasanmi, bu kishi kim?

N.I. Strunnikov ajablanib, hang-mang bo'lib qolganini ko'rib, P.M. Tretyakov unga qo'lini uzatib, shunday dedi:

– Salom, navqiron rassom!

Tropininning chizgan portretini o'sha zahoti to'rt yuz so'mga sotib oldi, nodir narsalar bilan savdo qiladigan kishi P.M. Tretyakov ketganidan so'ng xona bo'ylab o'zini u yoqdan-bu yoqqa urib, ingray boshladi:

– Eh, arzon sotdim-a, eh, arzon ketdi-ya!

N.I. Strunnikov dehqon farzandi bo'lib, shaharga cho'ntagida bir miri bo'lmagan holda kelgan, niyatiga oson erishmagan edi. S.I. Gribkovdan keyin u rassomlik bilim yurtiga o'qishga kirdi va ulkan badiiy galereya sohibi, Moskvaning mashhur atir-upa ishlab chiqaruvchisi Brokar huzurida suratlarni restavratsiya qilish bilan mashg'ul bo'ldi.

Ishi uchun N.I. Strunnikovga Brokar pul bermas, faqat bilim yurtida «hamma narsaga tayyor» holatda bo'lishi uchun ellik so'm to'lar edi. «Har narsaga tayyor» quyidagicha edi: rassomni to'shakka boshlab borib, ishchi bilan birga yotqizardi. Shunday qilib, ular bir karavotda yotar, xizmatkor bilan oshxonada birga ovqatlanar edi. N.I. Strunnikov bir yil ishlagach, Brokarning oldiga keldi:

– Men ketaman.

Brokar indamay cho'ntagidan yigirma besh so'm chiqardi. N.I. Strunnikov rad etdi.

– Qaytarib oling.

Brokar indamay hamyonini oldi-yu, yana ellik so'm qo'shdi. V.I. Strunnikov oldi, indamay burildi va chiqib ketdi.

Hech kimi yo'q, ota-onasi, qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlari bo'lmagan, yashash uchun kerakli mablag'i yo'q bunday boshlovchi rassomlarning hayoti yengil emasdi.

Boshqa odamlar hayot yo'lida niyatini oson qo'lga kiritishardi, ularni «yoqasi ohorlangan», – deb aytishardi. Bundaylar tanish-bilishlarni o'rtaga solishar, chunki ularni qo'llab-quvvatlash kerak edi. Buning uchun esa yaxshi tarbiyalangan va bilimli bo'lish lozim edi.

Jukov, Volgushov va boshqalarda unisi ham, bunisi ham yo'q edi. Yoshlikda tarbiyani qayerdan olar eding; Bilim yurtida esa bilim berilmas, umumiy ma'lumot beradigan predmetlar sust edi. Buning

ustiga bilim berishga arzimagan narsa deb qaralar, rassomga faqat mo'yqalam kerak, bilim esa ikkinchi darajali narsa, der edilar.

Bu xato fikr mustahkam o'rmashib qolgan, shu bois bilimdon rassomlar o'sha paytda deyarli yo'q edi. Tabiatdan qoyilmaqom tarzda nusxa oladi, jonli portretlar chizadi, shuning o'zi yetarli, deyishardi. O'zingni oz bo'lsa-da, risoladagidek tutish bo'yicha malaka oshirishning imkoniyati hech qayerda yo'q. Har qanday tartibli jamiyatga nisbatan butunlay nafrat bilan qarash, «yoqasi ohorlanganlar»ni yoqtirmaslik bilim olishga, umumiy ma'lumotga ham yetib kelgan edi. Shunday rassomlar bor ediki, ularda na kvartira, na kiyim-kechak, libos bor, etigining tumshug'idan barmog'i chiqib qarab turardi, ishtonlari shunday holatdagi, ko'pincha devorga orqasini o'girib turishga majbur. Shunday ekan, o'qish, fanlarni o'zlashtirishga yo'l bo'lsin. Bu kiyimda rassom badavlat kishining uyiga borib, portretini ishlay olarmidi, vaholanki, boshqalarga nisbatan yaxshi chizish mumkin edi... Axir shunday sharoit tufayli Jukov, Volgushev halok bo'lishmadimi? Bunday yashash vositalaridan mahrum, har qanday qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan, shu bois o'lib ketganlar yuzlab topiladi.

Faqat kam odam hayotdan o'z o'rmini topgan edi. I. Levitanga yoshlik chog'idan boshlab Anton Chexovning to'garagiga tushish baxti nasib etgan edi. I.I. Levitan kambag'al edi, ammo imkon qadar binoyidek kiyinishga, chexovcha to'garakka munosib bo'lishga urin-ar, ayni damda nochor bo'lishiga qaramasdan, talantli hamda quvnoq edi. Keyinchalik tanishlar orqali iste'dodli o'smirni badavlat kampir Morozova qo'llab-quvvatladi, vaholanki bu saxiy momo uni yuzidan aslo tanimasdi. Qulay, ajoyib mebellar bilan jihozlangan uyga boshlab bordi, Levitan o'zining eng yaxshi asarlarini o'sha yerda yaratdi.

A.M. Korin ham odamlarga bemalol qo'shildi, lekin uzoq yashay olmadi. Lyapinda o'tkazgan hayoti uning sog'lig'ini barbod qilgan edi. Uni bilim yurtida sobiq lyapinchi, o'zlariga o'xshagan kishi ekanligidan faxrlanishar, chin yurakdan otashin muhabbat bilan yaxshi ko'rishardi. Ulug'lar oldida ta'zim qilsalar-da, uni xuddi A.S. Stepanov kabi yoqtirar edilar. Ustaxonasi Yushkov muyulishidagi darvozaning o'ng tomonida joylashgan ayvon ostida edi.

Keng-mo'l beo'xshov xona. Sovuq. Pechka tutaydi. O'rtadagi to'shama ustida qandaydir hayvonlar: echki, qo'y, it, xo'roz... Yana

tulkicha ham bo'lishi mumkin. Bu epchil, chaqqon jonivor quv ko'zlari bilan atrofga alanglaydi; mana, yotmoqchi bo'ladi, lekin shogird molbertdan ko'z uzadi-yu, xivich bilan uning oyog'i va tumshug'iga tegishadi, erkalab po'pisa qiladi, ammo tulkicha oldingi ko'rinishda harakatini o'zgartirmay turaveradi. Atrofdagi shogirdlar unga qarab chizadilar, orada turgan A.S. Stepanov tanbeh berib, ularga kamchiliklarini ko'rsatib turadi.

A.S. Stepanovning shogirdlari qandaydir o'ziga xos, qandaydir kamgap va kamtarin kishilar bo'lib, uning o'ziga o'xshash edilar. Shu bois bu tulkicha ham jim hamda itoatgo'y bo'lib qolganining sababi shundaki, uni shu xotirjam o'nlab ko'zlar tinchlantirdi, shularning ta'siri ostida u qobil, mo'min, shuningdek, ongli ravishda itoatgo'y ko'rinar edi.

Bu tulkichadan olingan etyudlar va boshqa sinf ishlarini Suxaryovka hamda «darvoza ostida»gi sotuvchilarda ham ko'rish mumkin edi. Ular professorlar tomonidan yopiq hisobot ko'rgazmalarida ko'rib chiqilgach, tushib qolar, chunki ularni qo'yadigan joy yo'q edi; o'quvchilar ko'rgazmalarida sinf ishlari qabul qilinmas, qanchalik yaxshi bo'lmasin, e'tiborga olinmasdi. O'quvchilar arzimas chaqaga ham sotib yuborishar, ba'zan maktab etyudlari orasida ajoyib narsalar uchrab qolar edi.

O'quvchilar ko'rgazmalari yilda bir marta – 25-dekabrda 7-yanvargacha o'tkazilardi. Ular hali yetmishinchi yillarda yuzaga kelgan bo'lsa-da, ammo saksoninchi yillarning boshida ommalashgan, bular da I. Levitan, Arxipova, aka-uka Korovinlar, Svyatoslavskiy, Aladjalov, Miloradovich, Matveyev, Lebedev va Nikolay Chexov (yozuvchining akasi) nomi tilga olingandan so'ng, nihoyat tanilib ketgan edi.

Ko'rgazmalarda o'quvchilarning yozgi ishlari namoyish qilinar edi. Bahorda rassomlik bilim yurtida mashg'ulotlar poyoniga yetgach, o'quvchilar to'g'ri kelgan joylarga jo'nab ketar hamda bu ko'rgazma uchun etyud va rasmlar chizishardi. Moskvada faqat boradigan joylari bo'lmagan bolalar qolardi. Ular Moskva atrofida etyudlar chizish uchun yurishar, rasmdan mashg'ulotlar o'tkazishar, cherkov devorlariga rasmlar ishlash bilan mashg'ul bo'lardilar.

Bu eng serdaromad mashg'ulot edi; yozgi paytda o'quvchilar ko'pincha butun qish mavsumiga yetadigan, tirikchilik uchun zarur bo'lgan moddiy tirikchilikka doir mablag'larni yig'ishardi.

O'quvchilar ko'p sarmoya yig'ish uchun Qrim, Kavkazga borishar, kimdir chet ellarga chiqar, ammo bundaylar haddan ziyod kam edi. Yozda biror tanga topa olmagan o'quvchilar o'z'lari ishlagan rasmlar-ni sotishdan umidvor bo'lishardi, xolos.

O'quvchilar ko'rgazmalari ommalashib ketgan bo'lib, ularni kelib ko'rishar, bu haqda yozishar, ularni Moskva yaxshi ko'rardi. Va galereya egalari, Soldatenkov kabi sohiblari, ayni paytda o'quvchilarni tanimaydigan moskvaliklar ham ba'zan arzon rasmlarni xarid qilib, bo'lajak mashhurlarga ulkan qiymat kasb etishardi.

Bu xuddi sportdagidek edi: mashhurlikni egallasang, baribir yigirma ming yutib olasan. Bir yil (aftidan, 1897-yilgi ko'rgazma edi) barcha yaxshi suratlarni moskvalik ajnabiylar: Prove, Gutxeyl, Klop, Katur, Brokar, Gopper, Moris, Shmidt va boshqalar xarid qilishgan edi...

Ko'rgazmadan so'ng suratlarini sotishga muvaffaq bo'lgan baxtli bolalar pullarga ega bo'lib, qayta kiyinib olishar, kvartira bekalari bilan hisob-kitob qilishar, birinchi navbatda Moiseyevna bilan ishni oxiriga yetkazishardi.

Bilim yurti joylashgan uy hovlisida Volnuxinning haykaltaroshlik ustaxonasi bo'lib, unda uzoq yillardan buyon oshxona ham ishlar edi. Unda ikkita gumbazsimon xona va har birida nari-beri yuvilgan oddiy yog'och stolda anchagina qora non bo'laklari bir uyum bo'lib turardi. Aylana qo'yilgan o'rindiqlarda tushlik qiluvchi kishilar o'tirishardi.

Oshxona har kuni ochiq, faqat yakshanba bundan mustasno edi. U soat birdan uchgacha doimo odam bilan to'la bo'lardi. Yechingan, to'g'ridan to'g'ri sinfdan yugurib kelganlar darhol likopcha, metall qoshiqni olganicha to'ppa-to'g'ri yonib turgan plita oldiga borishar, ko'zi yarim ko'radigan Moiseyevna va qizi taomlar berish bilan band bo'lardi. O'quvchi issiq taom bilan stolga o'tirar, keyin ikkinchi ovqatga kelar, pulini kampirga to'lab, chiqib ketardi. Ba'zan pul bo'lmay qolar, kutib turishni iltimos qilar, Moiseyevna esa hammaga ishonar edi.

– Sen keltirsang bo'ldi... aks holda unutilib qo'yaman, – derdi u.

Taomlardan biri – bir bo'lak mol go'shti bilan pishirilgan sho'rva o'n yetti tiyin, go'shtsiz bo'lsa, o'n bir tiyin edi. Ikkinchi taomga goh kotlet, goh bo'tqa, goh kartoshkadan nimadir tayyorlab berilar, ba'zan likopcha to'la klyukva (qizil, nordon mevali buta) kiseli va bir stakan

sut bo'lardi. O'sha paytda klyukvaning stakani uch tiyin, sut esa ikki tiyin edi.

Hech qanday kassir, hech qanaqa chipta-mipta yo'q edi. Moiseyevnani chuv tushirib, aldab ketadiganlar kam, deyarli hamma naqd to'lar, kimdandir o'n bir tiyin olishardi-yu, shu zahoti to'lashardi. Ko'rgazmalardan keyin barcha deyarli to'liq hisob-kitob qilar edi.

Shunday voqealar ham bo'lib turardi. Birorta po'rim kiyingan kishi Moiseyevnaning oldiga kelardi-yu, unga pul qistirardi.

– Bu senmisan, azizim, bu nima uchun ekan?

– Sizdan qarzdor edim, Moiseyevna, oling!

– Axir sen kim bo'lasan? – U xira ko'zlarini yuziga tikib qaraydi.

Qizi darrov kelgan kishini taniydi-yu, familiyasini aytadi. Ko'pincha o'sha odamning o'zi nomini eslatardi.

– Eh, azizim, bu senmisan, Sanka, o'zingmisan? Men esa tani-mabman, degin... Eh, qanday po'rim bo'lib ketibsani!.. Nega buncha ko'p pul beryapsan?

– Oling, olavering, Moiseyevna, axir sizning qo'lingizdan qancha bepul taom yeganmiz.

– Mayli, shunisiga ham rahmat, lochinim!





TRUBADA

...Tishlari orasiga papiros qistirgan ikki boyon ketib borardi.

Mahalliy politsiya ko'chada edi...

O'tgan asrning oltmishinchi yillarida «Iskra» jurnalida bosilib chiqqan karikatura ostida aynan ana shunday yozilgan edi.

Uchta ot qo'shilgan chana ko'chani o'rtasida turibdi. Chana-da to'rt nafar olifta papiros chekishyapti, ikki mirshab esa otlarini to'xtatyapti.

Bu karikatura satirik jurnalda bosilgan bo'lib, ko'chalarda chekishni taqiqlashga qarshi javobdan iborat edi. O'shanda aybdorlarni politsiyaga jo'natishardi, «unvon va martabasidan qat'i nazar» hech nima inobatga olinmas edi. Gazetada ober-politsmeysterning buyrug'i chop qilingan edi.

Bu buyruq anchayin janjal, nizolarni qo'zg'atgan, ko'plab yong'inlarga sabab bo'lgan: chekuvchilar shoshilib, qo'rqanlaridan papiroslarini duch kelgan joyga uloqtirgan edilar.

O'sha yillari papiros faqat burnaki, ya'ni burunga tortib hidlanadigan tamakini qisib chiqarib qolmay, ancha vaqt uni urfda saqlab ham turdi.

– Shuni hidlash ham ish bo'ptimi! Hamma joyda mumkin, uydagi havoni ham buzmaysan... Eng asosiysi, arzon-u juda soz!

Ko'chada bir-birini uncha tanimaydigan odamlar uchrashib qolishadi, salom-alik qilishadi-yu, tanishishni davom ettirishni istasa, tamakidonni chiqarishadi.

– Marhamat qiling.

– Yaxshi. Endi, qani, biznikini ham...

Shundoq deb tamakidonning qopqog'ini «shap» etkizib ochadi.

– Sizdagi yaxshi ekan. Meniki kostromaniki, ancha bo'sh...

– Mana, janobi oliylari, knyaz Urusov (u kishiga suli yetkazib beraman) meni tortiq qilingan tilla tamakidondan mehmon qilgan edilar. Tamakidon Xra... Xra... Ha... Xrappe edi.

– Rappe. Parijniki. Bilaman.

– Ha, shu... Xushbo‘y, ammo dimoqqa yoqmaydi. Menga ma‘qul bo‘lmadi... «Janobi oliylari, menikidan ham bir totib ko‘ring, tag‘in jirkanmang, avf eting, aybga buyurmaysiz...» deyman unga. Shunday qilib, men farang binafshasini qayin po‘stlog‘i bilan tutaman... Knyaz darhol burni bilan hidladi, ko‘zlari chaqchayib ketdi, yana tortdi. Ha, qanday aksa urdi!.. Aksa uradi-yu, bu qanaqa tamaki ekanligini so‘raydi... Agleskiymi? – deb surishtiradi... Unga: «Sizniki fransuzcha Xrappe, mening uyda yetishtirganim esa – Butayre...» – deyman. Va buni Nikitskiy xiyobonidagi budka qorovulidan olgan edim, deb tushuntirdim. Va knyaz o‘zining Xrappesini uloqtirdi va «samtre»ga o‘tdi, mening budkamdagi birinchi xaridorga aylandi. Ertalab xizmatga yo‘l olganida, shaxsan o‘zi o‘sha yerga bordi... Keyin budkachini kvartalga ko‘chirdi...

Savdoda turli tamakilar bo‘lardi: Yaroslavniki – Dunayev va Vaxramyevga, Kostromaniki – Chumakovga, Vladimirniki – Golovkin, Voroshatinskiy, Bobkoviy, Muattar, Suvorovski, Pushti rang, Yashil, Yalpiz ta‘m va boshqalar. Tamakilar turli-tuman nomlar bilan atalar edi. Baribir Moskvada ko‘proq o‘zlarining tamakilarini hidlashar, har biri o‘ziga xos hiddan didiga muvofiqni tutishga harakat qilardi. Har bir havaskor o‘zining tashxisini sir saqlar, go‘yo ularni bobosidan yashirar edi.

Eng yaxshi tamaki urfda «Pushti rang» deb yuritilardi. Uni Troisev Liste cherkovi hovlisida yuz yoshga yetib, vafot etgan ruhoniy chol tayyorlardi. Bu tamaki Sretenkada barpo etilgan chuqur yer ostidagi kichkina do‘konchani darichasidan sotilardi. Cholning o‘limidan keyin undan bir necha shisha idishda tamaki va o‘ziga xos bo‘lgan retsept qolgan edi...

«Ermitaj» qurilgunga qadar Grachyovka hamda Svetnoy bulvar o‘rtasidagi burchakda, Trubnoy maydoniga chiqishda uch qavatli Vnukovlar uyi bo‘lardi, hozir ham bor. Endi u pasaygan, chunki tagidagi zamin ancha cho‘kkan. «Ermitaj» restoranigacha ancha vaqt unga «Krim» nomli aysh-ishratga xos traktir joylashgan edi. Oldida doim uch nafar ot qo‘shilgan uchliklar, olifta, po‘rim izvoshchi-

lar hamda bir juft «kabutarlar» qishda turishar, yomg'ir paytlarida Trubnoy maydoni o'tib bo'lmas balchiqqa aylanardi. Suv Neglinniy proyezdiga quyilar, ammo Svetnoy bulvar va Vnukov uyigacha hech qachon yetib bormasdi.

«Krim» traktiri ikki qavatni egallagan edi. Uchinchi qavatda ikkinchi toifali bekalar, qimorbozlar, tovlamachilar hamda ancha bashang kiyingan, har qanday mayda o'g'rilar, qalloblar sayr-tomosha qilardi. Bu ommani qo'shiqchilar hamda garmonchilar tinchlantirar edi.

Qavatlar yorqin hamda qo'pol tarzda ajratilgan bo'lib, zeb-ziyatga e'tiroz bor edi. Zallarda orkestr va lo'li, rus xori uchun estrada ajratilgandi. Ovozi baland organ xorlar o'rtasida hamda ko'pchilikning talabi bilan kimga nima yoqsa, opera ariyalari komarin bilan, gimn esa sevimli «Luchinskaya» qo'shig'i bilan almashinib turar edi.

Bu yerda sayr-tomosha qilgan yosh savdogarlar hamda turli-tuman qishloqlardan kelgan kishilar o'z hovurini bosar edilar. Pastki qavat savdo xonalari bilan band bo'lib, uning tagida, chuqur yer ostida, Grachyovka hamda Svetnoy bulvar o'rtasidagi barcha uylar tagida ulkan yerto'ladan iborat qavat turar, u butun boshli traktir edi. Eng yomon, xunuk ishlar bilan mashg'ul bo'lgan turli toifadagi kishilarning qaroqchilik maskani hisoblanar edi.

Ko'p yillar davomida «Ermitaj»ning shon-sharafi kishilarning ko'ziga singib qoldi. «Qrim»da esa mast-alastlar qiyqirig'i eshitilmas va yovuz tarzda jim turardi. Yer ostidagi maskandan ko'chaga biror tovush chiqmasdi. Yetmishinchi, saksoninchi yillarda u xuddi oldingidek edi, lekin keyin yigirma yil davomida nam devorlar va pollarga haddan ortiq singib, gaz naychalari shu vaqt mobaynida shift tirqishlariga tutab kirib borgan edi. Chiqish va kirish alohida. Podyezdni ham, ayvonni ham axtarib yotmang... Yo'q u.

Svetnoy bulvardagi o'rindiqda bir odam o'tirib, ko'chaga, Vnukovning ulkan uyiga qaraydi. Ko'radiki, yo'lakdagi bu uy yonidan bir kishi yurib kelayotir. Va birdan hech kim ko'rinmay qoldi! Ular qayerga gumdon bo'lishdi ekan?.. Qaraydilar – yo'lak bo'm-bo'sh... So'ng yana mast-alast olomon qayerdandir kelib qoladi, shovqin ko'taradi, yoqalashadi... Va to'satdan yana g'oyib bo'ladi... Do'kon qorovuli shosha-pisha qadam tashlaydi va u ham yer bag'riga singib ketadi va yana besh daqiqadan so'ng yerdan o'sib chiqqanday

paydo bo'ladi hamda bir qo'lida aroq shishasini mahkam tutganча, boshqasida esa o'ralgan narsani ushlab, yo'lak bo'ylab qadam tashlaydi...

Bunga qiziqib qolgan kishi o'rindiqdan turadi, uyga yaqinlashadi va sir ochiladi: devorda yo'lakdan past keng eshik bo'lib, unga zina pillapoyalar orqali tushib ketadi. Qarshidan so'kinib beodob, betlari qonagan ayol yugurib keladi, uning ortidan juldur kiyingan isliqi paydo bo'ladi-yu, uni yo'lak tomon sudraydi, o'lguday qilib uradi-da, baqiradi:

– Bizda yashasa, shunday qilib yashaydi!

Yana ikki kishi paydo bo'ladi-da, juldurvoqini kelishtirib do'pposlaydi va ayolni yana zina orqali pastga tushirib ketishadi. Kaltak yegan kishi zo'r berib o'rnidan turishga harakat qiladi va to'rt oyoqlab o'rmalashga tushadi, oh-vohlab so'kinadi, ko'prik orqali o'tadi va xiyobon o'tlari ustiga uzala tushadi...

Ochilib qolgan eshikdan tamakining kishini bo'g'adigan tutuni bilan birga, mast-alast odamlardan kuyindi hidi va har qanday odamning qo'lansa isi bir-biriga mutlaqo uyqash kelmagan tovushlarining aralashib ketgani bosib ketadi. Bu shovqin-suron orasida baland ovozda kuylangan yuqori notadagi jo'r bo'luvchi ovoz aralashib ketadi-yu, mast-alast ovozlarning jo'r bo'lishi qo'qqisdan gumburlaydi, boz ustiga singan derazaning jarangi, xotinning allaqanday xunuk qichqirishi, ko'p tovushli so'kinish bir-biriga singib ketadi.

Xorda kuylanayotgan yo'g'on ovozlار gumbazlarda aks-sado berib, shovqin-suronni butunlay qoplab oladi, hozircha ularning yarim tovushi uni yorib o'ta olmaydi, shuningdek, o'z navbatida, skripkaning soxta notasi o'chirolmaydi...

Va yana barcha tovushlar bir-biriga tutashib ketadi, ammo iliq bug' va qayerdandir quvurdan kelayotgan gaz hidi bir daqiqada nafasni to'xtatib qo'yadi...

Yuzlab odamlar devor yoni va ulkan «zal»ning o'rtasidagi stollar atrofini egallab olishadi. Qiziquvchi kishi iflos hamda qipiqdan irkit holga kelgan, nihoyat katta plita yoniga siljib yaqinlashadi, u yerda xuddi bufetdagi kabi pishirib, kuydiriladi, tokchalarda turli-tuman ichimlik va romlar qatorlashib ko'zga tashlanadi, yarim tangaga to'kiladigan shishasiga taxtakanalar yopishgan bo'lib, bu romni choy bilan birga yarim taqsimlashga xalaqit bermaydi. Ularni Sibirdan

qaytib kelganlar hamda turmadan qochganlarning turli nomlari bilan yuritishadi.

Hamma mast-alast, hamma chuldiraydi, kuylaydi, so'kinadi... Faqat bufet ortidagi chap burchakda jimlik hukm suradi, u yerda kamar bilan o'yin ketmoqda... Va hech qachon hech kim qimorbozlarni yutmagan, lekin baribir bu mast-alastlar o'yinida ish o'ngidan keladi... Bu juda oddiy.

Masalan, angishvona o'yinida angishvonalardan biri tagida xamirdan yasalgan soqqa yashirilgan bo'lib, uni topish talab qilinadi, qimorboz barchaning ko'z oldida uni angishvona tagiga qo'yadi, aslida esa tirnoqqa bu soqqani yelimlab, shu tariqa angishvona ostida hech nima yo'q bo'lib chiqadi...

Kamar bilan o'tkaziladigan o'yin ham oddiy: ensiz charm kamar to'garak ichiga bir necha marta aylantiriladi. Sherik kamarni bo'shatishdan oldin uning o'rtasini topishi, ya'ni o'zining barmog'i yoki mixni shunday qo'yishi kerakki, ular kamar aylanayotganda, doira hosil bo'lganda, sirtmoqda turishi lozim. Lekin kamar shunday holatga keladiki, sirtmoq bo'lmaydi.

Bunday sodda o'yinlarning barchasida ko'pchilik yutqazadi, ni-maiki bo'lsa, pulmi, o'g'irlangan narsalarni, paltomi, ular hozirgina Svetnoy bulvardagi biror kishidan yechintirilgani uchun hali iliqqina. O'ynayotganlar yonida tikuvchi xonimlar tik turadi, ular o'sha zahoti barcha mayda-chuydalarni sotib olishadi, baribir «Iblis»ga barcha qimmatbaho va yirik narsalarning hammasi borib tushadi. «Iblis» xo'jayinimizning ismi bo'lib, shu vaqtgacha hech kim uning basharasini ko'rmagan. Barcha ishni bufetchi va ikki baquvvat mushti yo'g'on uddalaydi – o'g'irlangan narsalarning hammasini xarid qilishadi.

Ular barcha yirik janjallar ichida «suzib» yurishadi va o'ng-u chapga o'zlarini urishadi. Kunda-shundalar yordamga shay bo'lib turishadi, xuddi kerakli odamday ular bilan do'stlashadi, birga «ishlarni bartaraf» qilishadi, o'g'irlangan narsalarni yig'ib, boshpanalaridan foydalanishadi, chunki tunash yoki tunagan joylarida «xavf-xatar» paydo bo'lishi mumkin. Bu yerga hech qanday politsiya bosh suqmaydi, faqat ba'zida qo'shni budkadan mirshablar yaxshi maqsad bilan, ya'ni bir shisha aroq olish uchun murojaat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, bundan keyin umumiy zal tomonga qadam qo'ymasdilar. Zalning faqat yarmi «do'zax» deb atalar, qolgan yarmini «Treispodnya» deyishar, unga faqat taniqli bufetchi hamda mushtumzo'rlar kira olar, ya'ni xizmat ko'rsatgan «blox»lar, bami-soli «hovliga kirish huquqiga ega bo'lgan» mansabdorlar kira olardi. Mana shu «hovliga kirish huquqiga ega bo'lgan» mansabdorlar ko'rsatgan «boldox»lar yoki «Shipa qal'asi»dan hisoblangan «Ivanlar» hamda «Quruq jar»dan bo'lgan «bo'rilar» uchun Xitrovkaga kirish joyi ikkita – biri umumiy xiyobondan, boshqasi Grachyovkadan edi. Shuningdek, to'g'ridan to'g'ri yo'lakdan kirib, g'oyib bo'lgan. Bu zaldan kesib o'tish qandaydir noqulay yoki tugunlarni topishga to'g'ri kelgan paytda ro'y bergan.

«Treispodnya» xuddi shunday kengligi jihatdan yer ostidagi imoratlarining deyarli yarmini egallagan yo'laklardan iborat edi, ikkala tomondan katta-katta xonachalar bo'lib, kichiklari «do'zax temirchixonalari», qolgan ikkita kattasi «iblis tegirmonlari» deyilardi.

Bu yerda grachyovkalik g'irromlar «bank irg'itish» degan yagona o'yin bilan band bo'lib, «Ivanlar» hamda «boldoxlar» tomonidan e'tirof etilgan o'yinda ular ulushlarini boy berishardi. Gohida anchagina o'pirilish bo'lardi.

Ikkinchi yarmida doimo sokinlik hukm surgan; qimorbozlar mast-alastlarni qo'yishmagan, bir so'z yoki jimgina imo va harakat bilan ularning tovushi o'chgan, ulardan juda qo'rqishgan. «Iblis tegirmonida»gilar butun boshli sutkada hozir bo'lishgan, o'yin paytida boshdan oyoq tik turishgan. Sutka davomida kichik xonachalarda barcha ishlar saranjom qilingan; ya'ni ishtirokchilarning o'ljalarini bo'lib olish, sotish bilan mashg'ul bo'lishgan yoki soxta pasportlar bilan, shuningdek, boshqa qalbaki hujjatlar asosida buyurtmalar bajarilgan. Bir necha xonachalar yotoqxonasi sifatida tayyorlangan (ikki kishilik karavotga poxol tiqilgan matras solingan), bu baribir izzatli mehmonlar hamda ularning «jonon»lari uchun edi... Bu yerga ba'zan sochlari to'zg'igan talabalar kirishar, «Dubinushka» qo'shig'ini kuy-lashar, zalda daydilarning hurmat-ehtiromidan foydalanib, shov-qin-suron ko'tarishar, ba'zan ularni xonachalarga kiritgan mushti yo'g'onlarning o'zlariga ham zalda joy topilmasdi.

Oltmishinchi yillarda ham, yetmishinchi yillarda ham «Do'zax»da ahvol xuddi shunday edi. Ilgari ancha durust edi: «Treispodnya» va

«Do‘zax temirchixonolari»da ko‘chadan juftliklar qo‘yib yuborilar, xonachalarda zaldan yolg‘iz qolishni istagan har qanday mehmonlar yuraverishardi. Ba‘zan yetmishinchi yillarda «Do‘zax»ga hurmatga sazovor mehmonlar – Xalq teatri va tiplarni o‘rganuvchi Artistlik teatri to‘garagi aktyorlari kirishardi. Kireyev, Poltavsev, Vasya Vasilyevlar kelishgan. O‘shanda politsiya u yerga qaramas, keyin ham hech qanaqa tekshiruvlar o‘tkazilmasdi. Axir nimani ham ko‘rishardi – uylarning tagida vodoprovoddan qolgan, Yekaterina davrida qurilgan yer osti yo‘llari bor edi.

O‘tgan asrning oxirida kanalizatsiya bilan bog‘liq ishlarda shunday yurish yo‘llaridan biriga duch kelishdi, u uying darvozasi tagida bo‘lib, «Do‘zax» hali yo‘q, faqat yerto‘la maskanlari mavjud edi, xolos (ulardan birida kunduz kuni ham kerosin chiroqlari bilan yoritiladigan traktir xizmatchilarining yotoqxonasi joylashgandi).

«Do‘zax» traktiri bilan 1866-yil 14-aprelda Aleksandr II ga qilingan birinchi suiqasd tarixi bog‘langan edi. Podshoga hujum qilish rejasi ishlab chiqilgan yig‘inlar shu yerda o‘tkazilgan.

1863-yili Moskvada hukumat bilan faol kurash olib borishga qaror qilgan yoshlar to‘garagi tashkil etildi. Ular Qishloq xo‘jaligi akademiyasi hamda universitet talabalaridan iborat edi. 1865-yilda ishtirokchilar ko‘paydi, shundan so‘ng to‘garak «Tashkilot» degan nomga sazovor bo‘ldi.

To‘garak tashkilotchisi va uning tani-joni talaba Ishutin bo‘lib, guruh tepasida turardi. U Karetta qatorining Bolshoy Spasskiy tor ko‘chasidagi meshchan beka Ipatinaning uyda ijarada turardi. Uy nomidan kelib chiqib, ushbu guruh Ipatovchilar deyilardi. «Tashkilot»ning boshqa a‘zolariga ma‘lum bo‘lmagan podshohga suiqasd uyushtirish fikri ham shu yerda tug‘ildi.

Ipatovchilar o‘zlarining maxfiy yig‘inlari uchun eng qulay joy – «Do‘zax» traktirini tanlashdi. «Do‘zax o‘chog‘i»da to‘planishlariga hech kim xalaqit bermasdi. Mana shu buzuqxona nomidan kelib chiqib, guruh o‘zini «Do‘zax» deb atadi.

Traktirdan tashqari, ular yarim oygacha Chebishevning yarim xonavayron uyida ham yig‘ilishardi. Shu yerda Ishutin uncha katta bo‘lmagan muqovachilik ustaxonasini jihozladi, u ham «Do‘zax» deb nomlandi. U yerda ayrim «Do‘zax»chilar joylashib, o‘zlarini «o‘limga mahkumlar» deb atadilar, ya‘ni o‘zlarini ajalga tik boquvchilar, deb

nomlashdi. Ular orasida podshohga muvaffaqiyatsiz o'q uzgan Karakozov bor edi.

Shuning izidan yoppasiga qamoqqa olishlar Moskvani terror uyasiga aylantirdi. To'qqiz nafar «Do'zax»chilar surgunga jo'natildi (Karakozov osib o'ldirildi). Moskvada shunchalik esankirab qolgandilarki, hech kim Karakozov suiqasdi bo'yicha gapirishga botina olmasdi. Shunday qilib, hammasi unutildi.

Hali o'tgan asrda «Do'zax»ning karakozovchilik jarayonlariga aloqasi borasida eslatilsa-da, bu haqda yozish mumkin emasdi. Faqat do'stona suhbatlarda keksa yozuvchilar N.N. Zlatovratskiy, N.V. Uspenskiy, A.M. Dmitriyev, F.D. Nefedov va Pyotr Kicheyev «Do'zax» va «Chebish»ni eslashar, «Rus axborotnomasi»ning ayrim yoshi o'tgan xodimlari orasida buning tafsilotlarini biladiganlar bor edi. Ulardan biri «Do'zax» guruhining asosiy ishtirokchilaridan bo'lib, o'limga tik boruvchilarning yig'ilishlarida ishtirok etgan edi. Bu N.F. Nikolayev edi. U karakozovchilik jarayonida birinchi guruhga mansub bo'lib, yigirma yil surgun ishlariga hukm qilingan edi.

Saksoninchi yillarning oxirida u Moskvada paydo bo'lib, «Rus axborotnomasi»ning doimiy xodimiga tarjimon sifatida mehnat qildi. Shu bilan birga, «Rus tafakkuri»ga ham yozib turdi. Moskvada uning yashashi xatarli, shu bois kichkina shaharda ko'zdan g'oyib bo'lib, ba'zi paytlarda kelib qolar va do'stlarinikida to'xtar edi. Tahririyatda eng yaqin do'stlaridan tashqari, uning o'tmishidan kam kishi xabardor edi. Ammo u do'stlari bilan birga xotiralarini baham ko'rardi.

Karakozov guruhining bu oxirgi ishtirokchisi 1926-yilgi inqilob muzeyi tomonidan o'tkazilgan «Karakozov ko'rgazmasi»gacha yashashga muayassar bo'la olmadi.

Oltmishinchi yillarning birinchi yarmi Moskvaning gullab-yashnash yillari bo'ldi. Uning xilvat burchaklaridan pomeschiklar «Ozodlik» islohotlaridan so'ng garovga qo'yilgan narsalarini qaytarib olish maqsadida Moskvaga intila boshladilar. «Zeb-ziynat va modalar» do'koni sohiblari hamda eng yaxshi traktirlar boyib ketdi; lekin keyingilari baribir chet ellarga allaqachon borib kelgan janoblarning tomir yoygan hashamatga o'ch didini qondira olmasdi – tirik sterlyadey balig'i va juft uvildiriqlar ularda kam edi. Taniqli mansabdor to'ralar o'zlarining dang'illama hovlilarida ziyofatlar berishar, tush-

liklar uchun chet ellardan turli-tuman yeguliklarga mo'may pullar hisobidan buyurtmalar berishardi.

Ayniqsa, tushliklarni fransuz oshpazi Olivye tayyorlagan payt alohida hashamat hisoblanardi. U o'zining «Olivye salati» bilan dong qozongan, busiz tushlik tushlik emasdi, sirini aslo ochmasdi. Ovqatga havasmandlar qanchalik urinishmasin, unikiday chiqmas edi.

Trubada uning yirik nok solingan tovuq go'shtiga havasmand ikki kishi tez-tez uchrashib turardi. Bu Olivye va aka-uka Pegovlardan biri bo'lib, har kuni o'zlarining obod uylaridan (u Gnezdikov tor ko'chasida joylashgan edi) yaxshi ko'rgan sersuv noklarini olish uchun borishar, uni bir tiyinga xarid qilib, yangidan paqqos tushirishni istardilar. Shu yerda ular Olivye bilan gaplashib, kelishar edilar. Pegov Popovdan uning nihoyatda keng-mo'l, tekis, deyarli bir yarim desyatin yerini sotib oldi. Budkalar va «Afonkin qovoqxonasi» o'rniga Pegovning yerida o'sib chiqqandek, «Olivye Ermitaji» vujudga keldi, shu tariqa yurib bo'lmaydigan maydon va ko'chalar yangilandi.

U yerda botqoqlikda tunda qurbaqalar qurillar va talangan kunda-shundalarning baqir-chaqirlari traktirdan yetib kelar, o'lguday bo'kib yegan kishilarning hashamatli hovlisi derazalaridan olov yallig'i yarqirab ko'rinar, hovli oldida kecha-kunduz qimmatbaho dvoryan izvoshlari shay turib, ba'zan zar uqali xizmatkorlar ham kelib qolishardi. Talabchan mijozlarni Olivye fransuzcha uslubga qulay moslashga urinardi. U faqat bitta rusni qoldirdi: restoranda frak kiygan xizmatkorlar yo'q edi, balki moskvalik egniga golland matosidan tikilgan ko'ylak kiyganicha xizmat ko'rsatardi. U shoyi kamar bog'lab olgan edi.

Va birdan ko'z ko'rib, quloq eshitmagan muvaffaqiyat ro'y berdi. Dvoryanlik shu tariqa yangi fransuz restoraniga suqilib kirdi, u yerda umumiy zal va kabinetlardan tashqari, oppoq ustunli oq zal ham bo'lib, Olivye amaldorlarning hashamatli, dang'illama hovlilarida tayyorlangan tushliklarga buyurtma berish mumkin edi. Bu tushliklarga ham chet ellardan keltirilgan tansiq taom va eng yaxshi sharoblar «Lyudovik XVI saroyi yerto'lasidan keltirilgan» degan yorliq hamda «Trianon» yozuvi bilan tortilar edi.

Ballarda sho'xlik bilan orttirilgan pullarni qayerga sarflashni bilmaganlar o'zlarini shirin, lazzatli ovqatga urishdi.

Barcha ishni uch nafar fransuz olib borardi. O'shanda hali aslzoda to'ralar, boyonlar amaldorlik hamda savdogarlik dunyosidan ajralmagan edi. Ular alohida xonalarda ziyofatxo'rlik bilan band edilar.

So'ng asta-sekin to'ralikdan chekina boshlashdi. Birinchi bo'lib katta zalda moskvalik ajnabiy tijoratchilar – Kloplar, Vogau, Gopperlar, Marklar paydo bo'lishdi. Ular to'g'ridan to'g'ri birjadan, o'taketgan rasmiyatchilik bilan hamda qat'iy tarzda kelishar, har bir kompaniya o'zining stolini egallar edi.

Uning ortidan rus savdogarligi a'zolari endigina liboslarini o'zgartirib, «Ermitaj» zalini chet ellarning firmalari namoyandalari bilan egallashdi.

Olivye ko'rinmay qoldi. Uning sherigi Marius savdogarlarga xizmat qilar, ammo ular bilan betakalluf, odobsizlarcha muomalada bo'lar, oshpaz Dyuge esa savdogarlar uchun yangi taomlar o'ylab topmasdi. Nihoyat, u vataniga jo'nab ketdi.

Ish shu tariqa ajoyib tarzda davom etardi.

«Ermitaj» oldidagi maydonda boyonlarning izvoshlari o'rmini chaqqon, olifta hamda noqulay chanalarning haydovchilari olishdi. Olifta, po'rim izvoshchilar va ularning serhasham izvoshlari Strastnoy maydoni hamda «Drezden», «Slavyan bozori», «Katta Moskva» va «Praga» mehmonxonalari oldida turar edi. Lekin eng yaxshilari «Ermitaj» yonida edi. Buning uchun shaharga yiliga besh yuz so'mgacha to'lar edilar. Boshqa birjalarda esa to'rt yuz so'm.

Olifta, po'rim kiyingan izvoshchilar mag'rur holda o'tayotgan ommaga nazar tashlar va restorandan chiqayotgan «xos kishilar» bilan gaplashar edi.

– Janoblari!..

– Janoblari!..

Moskvaliklarga bu knyaz unvonini olish uchun faqat olifta izvoshchi oldiga kelish, shishgan shina o'rnatilgan to'rt g'ildirakli yengil aravachaga o'tirish va ovozi boricha hayqirish kerak edi:

– «Yar»ga qarab hayda!

Va shu zahoti moskvalik «janoblari», deb murojaat qila boshlardi.

Volanlar achchiqlangan boyon krepostnoy kucherni mushtlab urib, oyog'i bilan yelkasiga tepgani allaqachon unutilib yuborilgan paytlarda paydo bo'ldi.

O'shanda volan kucherini majag'i chiqquncha urib, so'ng mayib qilar, endi esa uni omon qoldirar, bu xuddi «barin» degan unutilgan so'zni tiklash, olifta izvoshchilarning «janoblari» deb takrorlashiday gap edi...

Har bir kishi uchun «janoblari» so'zini eshitish yoqimli edi!

Bunday kishilar, ayniqsa, Moskvada yapon urushidan so'ng ko'paygan edi. Ular armiyaga odam oladigan kishilar, homiylari – intendant, ya'ni armiyada moddiy ta'minot xizmatini bajaruvchi harbiy xodimlardan iborat edi. Ularning asta-sekin o'sishini Yeliseyev do'koni gumashtalari kuzatishar, «Ermitaj»da esa allaqachon «janoblari»ga aylanishgan edi.

Yapon urushidan oldin baqaloq shtabs-kapitan bo'lib, dastlab Strast olifta izvoshchilari polkovnik, keyin «Ermitaj» olifta aravakashlari «janoblari» deb nomlashdi, vaholanki uning pogoni baribir shtabs-kapitanligicha – to'rt yulduz va bir chiziqlicha qolgan edi. Bungacha shtabs-kapitan piyoda yurar yoki ippodromdan ko'nkada (ot qo'shib yuriladigan vagonda) besh tiyin bilan qatnar edi. Keyin u qandaydir komissiyaga kirib qoldi va boy-badavlat odamlarni urushning uzoq masofalaridan ozod qila boshladi, so'ng askarlik shineli-dan ozod qilish bilan mashg'ul bo'ldi. Uning kotibi, chalasavod askar Moskva yonidan o'zining jazmani uchun dachani ijaraga oldi.

– Janoblari! Ivan bilan birga! Janoblari Fyodor bilan! – uni «Ermitaj» podyezdi oldida ko'rgan aravakashlar shunday deb qarshi olishardi.

Oriq ofitser bolalar modaga kirmagan shinellarda ot poygasi va yugurish musobaqalarida chopar, pul to'plab harifona qilishar, pul tikib o'ynashar, oxirgi qizil o'n so'mlik pulini yutqazar, Oxotniy devor-da meva-cheva, kolbasa olish uchun savdolashar va to'satdan...

Yapon urushi!

Jonlanib qolishdi!

Dastavval Yeliseyevga pishirilgan kolbasa, olmalar sotib olish uchun kira boshladilar... Keyin uvildiriq... Marmelad va 137-raqamli portveyn. Yeliseyev do'konida kuzatuvchan gumashtalar ularning intendant xaridorlari qanchalik to'lishib semirgani, yanada o'sganini sezib qolishgan edi.

Endi izvoshlarda yuradigan bo'lishdi. So'ng hashamdor izvoshda, undan keyin o'zlarining ekipajlarida...

– E... e... A?.. Shu maktub asosida menga yuboring... va nimani kerak hisoblasangiz kiriting... hisob-kitob varag'ini ham... Bilasizmi?.. – deb g'ong'illadi boshliqlarga xos ravishda «yo'g'on ovozda osmondan tushganday bo'lib»...

Keyin «Ermitaj»ga bordi-yu, o'ziga o'xshash o'nlab kishilar kunda-shunda odamga aylandi.

Ammo ularning aksariyatini «Ermitaj» hamda olifta izvoshchilar «oyoqqa turg'azdi!»

«Tabiiy» to'ralik, boyonlik «Ermitaj»da teshilib, kemirilib, poyoniga yetay deb qoldi. Bunday sakrash me'yorini tutib turish ancha og'ir, boz ustiga urushdan kelayotgan foyda ham to'xtadi. Ammo to'ralik qiliq, odatlari qolaverdi. To'rt g'ildirakli aravada «Ermitaj»dan «Yara»ga qadar, «Ermitaj»ga doir tansiq taomlar, lo'li ayollar, mo'jor juvonlar, Anna Zaxarovna boshliq xor ishtirokchilari bilan kechki ovqatni birga tanovul qilish uchun uch ming askarni yechintirish kerak: ip-ignalar chirib, ishdan chiqqan; gurs etib tushgani qancha, ko'ylagi esa o'ziga yarasha o'lchovda emas...

Kim bosh kiyim qismiga tegishli bo'lsa, ikki ming telpak bir ver-shokdan¹ kichik kelgan, eski zig'irpoyaning dag'al poyasini momiq astar o'rniga o'rnatish kerak.

Askarlar yarimyalang'och holda sasigan, junlari to'kilgan po'stinda yurishar, shu paytda esa intendant «janobi oliylari» yasangan, bo'yalgan jazmanlari bilan «Yara»da yurishardi... Po'stinlar hisobidan sobol mo'ynasidan qilingan issiq kiyimni ularga xarid qilib berishar edi.

Va janoblar, intendantlar chet eldan keltirilgan tansiq taomlarni tanovul qilishar, armiyaga esa qurtlagan un yuborilardi.

Vaqt o'tardi!..

«Ermitaj boshqaruvi savdo shirkati ixtiyoriga o'tdi. Olivye va Marius o'rniga yangi direktorlar ish boshladi: Polikarpov, baliqchi Mochalov, bufetchi Dmitriyev, savdogar Yudinlar o'rinlarini almash-tirishdi: xalq aynan yangi ommaga taqlid qilib, kalaka qilardi.

Ularning birinchi ishi – «Ermitaj»ni hashamatli qilib qayta qu-rishdi, aynan shu binodan shinam hammom xonalarini ajratishdi va uchrashuv raqami nomi ostida yangi uy barpo etishdi. «Ermitaj»

¹ *Vershok* – 4 sm ga teng uzunlik o'lchovi

oynavand galereya hamda yozgi bog' bilan boyidi, alohida kirish joyi, hashamatli bezatilgan kabinetlar, estradalar hamda xushbo'y iforli gulxonaga ega bo'ldi...

«Ermitaj» katta foyda keltira boshladi – hamma joyda aroqxo'rlik va aysh-ishrat avj oldi. Moskvaning «dongdor, nomi chiqqan savdogarlari va boy-badavlat kishilari soch-soqoli oqargan bo'lsa-da, to'g'ridan to'g'ri kabinetlarga kirib borar edilar-u, u yerda darrov kamarini yechib, haddan oshib ketardilar...» Serdon uvildiriqni kumush paqirlarda uzatishar, sterlyad sho'rvasini to'g'ridan to'g'ri kabinetga olib kelardilar-u, ularni o'sha yerda totib, pichoq bilan maydalar edilar. Kabinetlardan ayniqsa qizil tusdagisi ulug'lanar, chunki unda moskvalik maishatparastlar masxaraboz Taitining olim sanalgan cho'chqasini so'yib, paqqos tushirishgan edi...

Ayniqsa, kechki taomlar dong qozongan edi, ularga aysh-ishratga mukkasidan ketgan Moskva spektakllaridan keyin duch kelishardi. Zalni frak, smokinglar, mundirlar va ochiq-sochiq, marvaridlari yariqirab turgan ko'ylaklar kiygan xonimlar to'ldirar edi. Orkestr xori gumburlar, shampan vinolari daryo bo'lib oqardi... Kabinetlar to'lib-toshardi. Uchrashuv xonasida savdo butunlay avjida edi! Bir necha soatga besh so'mdan yigirma besh so'mgacha edi. Kimlar kelmagan deysiz! Va hammasi sir saqlanardi: politsiya bu ishga aslo aralashmasdi: boshliqlar bunga aralashmagani ma'qul!

«Ermitaj»ning oq ustunli zali muhtasham ko'rinishga keldi. Bu yerda yubileylar o'tkazish odatga kirdi. 1899-yilda Pushkin kunlari o'tkazilar ekan, ulug' shoirga atab tushlik uyushtirildi va o'sha davrning barcha yozuvchilari shu tadbirda ishtirok etishdi.

Boy-badavlat savdogarlarning bir necha yuz kishiga mo'ljallangan to'ylarini o'tkazish odatga aylandi.

Va «isqirt» qo'llar bilan Saksoniyadan keltirilgan idish-tovoqlarda barcha narsani: Fransiyadan chaqirtirib olingan ruan o'rdaklari, Shveysariyaning qizil kakliklari va O'rta Yer dengizining sho'r baliqlarini paqqos tushirar edilar...

Kalvil olmalarining har birini besh so'mdan xarid qilishardi... Va zamoskvares mehmonlari keng-mo'l syurtukning orqa cho'ntaklariga toshnok va olmalarni yashirar, ularni Tagankaga, o'zlarining eski rusumdagi uylariga, yog'och moyi hamda achchiq karam hidi anqigan xonadonlariga olib borishni niyat qilgan edilar...

Oq zalni ko‘pincha moskvalik ajnabiylar o‘zlarining kelgan mashhur vatandoshlari sharafiga banket uchun band qilar edilar...

Aynan shu yerda ajnabiylar yangi yilni va nemis maslenitsasi bayramini nishonlar edilar; barcha tantanalarda bu zalda Ryabovning eng yaxshi moskvalik orkestri ijro etar edi.

1917-yilda «Ermitaj» yopildi. Kabinetlarda qandaydir to‘garaklar yig‘ilishar, lekin shunga qaramay kabinetlar huvillab yotardi...

«Ermitaj» tund ahvolga tushdi, atrofda biror jondan asar yo‘q, yonidan o‘tishga qo‘rqasan, kishi.

Yana «Ermitaj» yonida olomon paydo bo‘ldi... Kirish joyida uzundan uzoq navbatda turishlar... O‘nlab aravachalari buyurtmachilarni, «ARA»dan paket oluvchi baxtli kishilarni kutib turar edi; ular «Ermitaj»ning barcha zallari hamda xizmat joylarini egallab olishgan edi.

Yangi iqtisodiy siyosat (N.E.P) kirib keldi so‘ramay-netmay. Yana «Ermitaj» tungi olovlar bilan yarqiradi. Atrofga juldur, isliqi libos kiygan izvoshchilar, eski-tuski kiyilgan olifta izvoshchilar to‘planishdi, ammo ular endi shishirilgan shinali to‘rt g‘ildirakli aravalarda yurar edilar. Mast-alast boshqarilayotgan avtomobillar kelib-ketib turar edi. «Ermitaj»ning sobiq bosh sohibi urfga kirgan restoranni makr-hiyalalar bilan takrorlashga urindi. Kartochkalarda yana turli-turli nomlar: Tompadur kotletlari, Mari Luiz, Vallaua, Olivye salati... paydo bo‘ldi. Lekin qiynamaydigan kotletlar kanakunjut moyi bilan pishgan, Olivye salati esa g‘ajib tashlangan narsalardan tayyorlangan...

Darvoqe, butunlay keluvchi – nemanlarga to‘la-to‘kis yuzma-yuz keladi.

Shveysariya zaliga – mushuk mo‘ynali manto, qunduz yoqalar, suvsar terisidan tikilgan po‘stinlilar...

Katta zalda o‘sha qandillar, oppoq dasturxonlar, idish-tovoqlar yaltiraydi...

Devorda, bufetning ro‘parasida hamon M.P. Sadovskiyning yozuvlari bus-butunligicha turibdi. U shu yerda nonushta qilgan, mai-shatparastlar ustidan kulgan va turli toifadagi odamlarni kuzatgan edi. Oppoq ko‘ylak kiygan xizmatkorlar bilan birga yag‘iri chiqqan, moy tekkan pidjakli xizmatchilarga ham birga taom berishar, chaqiriqqa darrov chopib kelishardi... Omma charm kurtka kiygan keluvchi kishilarga qing‘ir ko‘z bilan qarar edi.

Mana shampan vinosi bilan shovqin-suronli tushlik tugaydi... Kimdir irg'ishlaydi, kimdir basharasini burishtirib, smoking kiygan kimnidir ishontirishga urinadi. Upa surtib, betini oqartirgan, lablari bo'yalgan xonim papiros chekadi va tutunini yuzga qarata pufalaydi va french (harbiy forma) kiygan kishiga bir stakan vino quyadi. Unga, aftidan, bu kompaniyada o'tirish ancha noqulay. Lekin shunga qaramay, diqqat markazida ekanligini sezadi. Ishonchli ko'z qarashlari, harakatlar semiz olifta tomonidan unga aloqador. Boshqa tomondan, yonidagi qandaydir abjir kishi qandaydir qog'ozni ko'rsatmoqda. Xushomad qilayotgan odamdan qo'lini tortadi, ammo u hadeb suqilgani-suqilgan...

Xuddi Inqilob Teatrida muvaffaqiyat bilan qo'yilayotgan «Osmondagi pirog» nomli pyesadagi ko'rinishning aynan o'zi. Hammasi tirikday!..Undagi Semyon Rak xuddi shunday xatti-harakat qiladi, bo'yalib olgan raqqosa Rita Kern xuddi shu tarzda surbetlik qiladi... Uning yonida o'zini noqulay his etayotgan bank direktori Ilya Koromislovdan jurnali uchun subsidiya so'ragan Miron Zont kuymalanaadi... Undan keyin kotiblar, kotibalar, direktorlar, savdogarlar va bari-bir yana o'sha Semyon Rak, semira boshlagan, o'ziga bino qo'rgan...

Boshqa stollarda ham ahvol shu.

Bir yildan so'ng «Ermitaj»da tantanali ravishda Dehqon Uyi ochildi.





MOSKVANING ICHKI QISMI

Oxotniy ryad – Moskvaning ichki qismi.

Oldingi yillarda Oxotniy ryad bir tomonlama eski uylardan qurilgan bo'lsa-da, boshqa tarafdin bir tom ostida bir qavatli binolardan iborat edi, lekin shunga qaramay, ular o'nlab kishilarga qarashli edi. Bu binolardan faqat ikkitasi odamlar turar joyi hisoblangan. «Kontinental» mehmonxonasi, u bilan yonma-yon turgani Yegorov traktiri bo'lib, o'zining quyqasimon xamir ovqatlari, ya'ni blinlari bilan mashhur edi. Qolgan barchasi do'konlardan iborat bo'lib, Tverskiyga qadar cho'zilib ketgan.

Yegorovning traktiri bir paytlar Voroninga qarashli bo'lgan. Uning peshlavhasida tumshug'ida quymoq tishlagan qarg'a tasvirlangan. Oxotniy ryadning barcha do'konlari go'sht, baliq sotishga mo'ljallangan, ularning tagida ko'kat xarid qilinadigan yerto'lalar bo'lgan. Do'konlarning orqa eshiklari orqali keng-mo'l Monetniy, ya'ni tanga-chaqa zarb qiladigan hovliga chiqilgan. Uning ham bir qavatli go'sht, tirik baliq, tuxum do'konlari, o'rtasida «Monetniy» deb nomlangan traktir bo'lgan. Hovlining orqa qismida qator saroycha, ombor, kir o'ralari va sichqon, kalamushlar bilan to'lib-toshgan mo'jaz omborxonalar mavjud edi.

Oxotniy ryad o'z nomini oldingi davrda, Moskva yonidagi ovchilar keltirgan parrandalar bilan savdo qilishga ruxsat berilgan paytdan olgan.

Do'konlar oldida, maydonda keng yo'lakning yonida ko'chma chodirlar tikilgan bo'lib, sumka, qop, xalta ko'targan, ularni imkon qadar mahsulot bilan to'ldirgan savdogarlar uymalanishardi. Beliga o'rdak, quyon osib olgan ovchilar yurardi. Xotinlarning savatlaridan tovuq va jo'jalarning boshi ko'rinib turar, qoplarda cho'chqa bolasi chiyillar, sotuvchilar ularni olar ekan, xaridorga ko'rsatish uchun orqa

oyoqlarini bog'lab, boshlari ustiga ko'tarishar edi. Chodirlar oldidagi to'shama yo'lda somsa, quymoq, grechixa, qovurmalar sotuvchi kishilar zir yugurgancha u yoq-bu yoqqa borib-kelaverardilar. Sharbatfurushtar stakanni bir tiyinga to'ldirib berishar, o'shanda qaynoq asalli ichimlik sevimli bo'lib, izvoshchi va xizmatchilarni, sovuq do'konlarda sovqotib o'tirganlarni isitar edi. Yozda sharbatfurushtar-ni kvas sotuvchilar almashtirar, ular uchun eng sevimplisi olxo'ridan tayyorlangani bo'lib, qaynatilgan olxo'ri ivitilgan holda sotish uchun do'konlarda ehrom shaklida yotar, kvasni krujka bilan paqirdan suzib olishardi.

Go'sht va baliq do'konlari ikki bo'limdan iborat edi. Birinchisida turli navdagi – parranda, tovuq, g'oz, tustovuqlar, cho'chqa bolasining tuki kuydirilgan nimtasi qaynoq hamda muz solingan vannalarda turar edi. Devordagi ilmoqlarda qo'zichoqlar, buzoqchalar nimtalari ilib qo'yilgan. Butun shiftni esa turli hajmdagi son go'shtlari – dudlangan, qovurilgan, tayyor holda osilib, egallangan edi. Ikkinchi bo'limda qorong'i, faqat hovli eshigidan tushadigan yorug'likda o'nlab go'sht nimtalari osilgan holda turardi. Barcha do'konlar ostida yerto'lalar bor edi. Oxotniy ryad, ayniqsa katta bayramlardan oldin jonlanardi. Do'konlarga minglab yo'rtoqi otlarda olifta kiyingan, o'zlariga o'ta oro bergan savdogar xotinlar kelishar, ularning ortida savat ko'targan xizmatchilar mollarni chipta qop, qog'oz xaltalarga ortmoqlab, so'ng ularni chanalarga ag'darishardi. Shunday bo'lardiki, chipta xalta suvsar terisidan tikilgan po'stin bilan yonma-yon tushib qolar, millioner ayolning po'stini oldida son go'shti, ayiq po'stagi ustiga muzlatilgan osyotr baliq'i ko'ndalang tushib qolardi.

Yerto'lalardan bijg'igan, palag'da hid anqir, birinchi navli mollar esa tokchalarda yotardi. Baliq sotiladigan joylarda eng yaxshi baliq sotilar, go'sht bo'limida tovuq, g'ozlar, tustovuq, cho'chqa bolalari eti turar edi.

Peshtaxta yonida jonsarak bo'lishib, tovarlarni zo'r berib maqtashar, gumashtalar to'xtovsiz yolg'on to'qib, uzun burmali kamzul va eskirib, dag'allashib qolgan fartuklar kiyib olgancha tinim bilmasdilar. Bellaridagi kamarida turli-tuman o'lchamdagi pichoqlar bo'lib, ularni faqat tunda tozalar edilar. Bu yerda ozodalik rasm emasdi.

Eng yaxshi traktir hamda restoranlarning oshpazlari asosiy xaridor edilar. Keyin boyonlar va oshpazlar, savdogar xotinlar va oshxo-

naning oshpaz ayollari edi. Bularning hammasi tortishar, savdo qilib, bir tiyin ustida janjallashar, oxotaryadlik esa xaridor oldida yagona yodida qolgan shiorni esga solardi: «Agar aldamasang, sota olmay-san».

Kambag'allar chodirlar va do'konchalardan oxirgi nav go'sht, qobirg'a, yon, tos suyaklari, ichak-chavoqlar hamda arzon ori qo'y go'shtini xarid qilishardi. Yaxshi do'konlarning molini cho'ntaklari ko'tarmas, Gogol aytganidek, ular «abadiy pokizalar uchun» edi.

Lekin u yoki bu sotuvchilar do'kon va ko'chalarda boy-kambag'alni mutlaqo farqlamay, bir xilda aldab, bir xilda firib berishardi. Bu oxotaryadlik savdo ishi bilan mashg'ul bo'lganlarning azaliy odati; ularning ishonch bilan rad etib bo'lmaydigan qoidasi edi: «Agar aldamasang – sota olmay-san».

Oxotniy ryad saksoninchi yillarda o'sha davrning sanitariya ko'rigi holatini ochiq-oydin namoyon etadi: ko'rik bayonnomasi quyidagilardan iborat. U Monetniy dvor hamda go'sht do'konlaridan boshlangan.

«Do'konlar borasida shuni aytish kerakki, tashqi tomondan qaraganda, ular hali qanoatlanadigan darajada, lekin bino xaridorning ko'zidan pana holda dahshatli ko'rinadi. Hamma «chodirlar» deb ataydigan maskan tovuqxonaga o'xshaydi, go'yo tirik parranda saqlanadi va shu yerda nobud bo'ladi. Chodirlarga eltadigan zinapoyadan boshlab pollar hamda qafaslar nihoyatda e'tiborsiz saqlanadi, axlat, tezaklar tashib ketilmaydi, hamma joyga qon sachragan, do'kon devorlariga singib ketgan, ular bo'yalmagan. Aslida sanitariya shartlariga ko'ra, moybo'yoq bilan bo'yalishi lozim edi; polning hamma burchaklarida axlat, pat, chipta qiyqimlari, titilgan po'stloqlarga to'lgan... go'sht maydalaydigan kunda majaqlanib yotibdi va pala-partish, iflos saqlangan. Go'sht nimtalari zanglagan temir ilgaklarga ilingan; xizmatchilar do'konlarda sho'rlanib ketgan ko'ylak kiyib, iflos peshband taqib ishlamoqda, pichoqlar esa kir, iflos holatda qassobning belidagi kamarga taqiladi va umrida biror marta yuvilmagan. Pichoqlarda qon qotib qolgan... Ayrim do'konlarning omborlarida bir tomoni ochiq yog'och bochka turibdi, ularning ayrimlarida so'yilgan mollarning terisi ivitilib bo'ktiriladi, undan chidab bo'lmaydigan qo'lansa hid anqiydi».

Komissiya do'konlarni ko'zdan kechirib chiqib, Monetniy dvor (Zarbxona) tomon yo'l oldi. Uning o'rtasida axlat o'rasi bo'lib, hay-

von qoldiqlari va o'simliklarning chirindilari, axlatlari va bir necha yog'och to'nkalari tashlanardi. Ushbu o'ra butun Oxotniy ryadning chiqindi suvlari va axlatlari uchun mo'ljallangan edi. Undagi qalin massa yer sathi bilan deyarli baravarlashgan, qo'lansa hid taratib, irkit ahvolga kelgan, sirtidagi ivirsiqlik o'rtasida suzayotgan ichak-chavoq va qon ko'zga tashlanadi. Bu barcha iflos chiqindilar mahkama-ning ruxsatisiz filtrsiz shahar quvuriga o'tkazilib, Moskva daryosiga quyiladi.

Orqa hovlidagi irkitlik «har qanday ta'rifdan yuqori» turadi. Uning deyarli yarmini mayda qoramollar so'yilganidan keyin qolgan chiqindi tashkil etadi. Bu chiqindi katta, ikki qavatli tosh omborning deyarli hammasini tashkil etadi. Qassobxonona ichi haddan ziyod darajada ko'ngilni aynitadi. Oqqan qon qalin qatlam bo'lib, asfalt polni qoplagan va bo'yalmagan devorlarga singib ketgan. «Nihoyat darajada keng kushxonaning barcha binolarida butun boshli Oxotniy ryad uchun mayda mollar so'yiladi va tetik odam chiday olmaydigan qo'lansa hid tarqaladi. Bu omborxonona kichik bo'lmaga ega va u yanada ko'proq badbo'y is chiqaradi. Unda qassobxonani tozalash mudiri Mokeyevning qorovuli yashaydi. Hovli maydoni qalin qatlam bilan qoplangan toshlar orasida qolib, unda qon qotgan, ichki tomoni chiqindiga to'lgan, devor yonida go'ng, ichak-chavoq va boshqa chiqindilar tiqilib yotadi. Hovli kir o'ralar bilan o'ralgan, omborlar qulflog'liq bo'lib, yarim vayrona, chala qurilishlarga joy bo'lgan».

«Darvoqe, uzoq talablardan so'ng qassob Ivan Kuzmich Monovga qarashli ombor kalit bilan ochildi. Bu yerdan hovliga bir necha yuzlab chirib yotgan teridan oqqan qonli suyuqlik oqib chiqdi. Keyingi ombor qoramolni so'yishga mo'ljallangan bo'lib, uni tozalash kerak edi, ammo aka-uka Andreyevlarga qarashli bu omborning ahvoli birin- hisidan ham badtar. Tuzlangan go'shtlar butunlay qurtlab ketgan va hokazo. Eshikni ochishganda, kalamushlar galasi sasib-bijg'ib ketgan go'sht solingan qutilardan qochib, ko'zdan g'oyib bo'ldi!... Hamma joy aynan shunday edi... hammasi».

Bu tekshirish bayonnomasi tarixiy ahamiyatga ega. U shahar dumasida o'qib berilgan, qizg'in muzokaralarga sabab bo'lgan va, agar Jadayev oshkor qilmaganida doimgidek natijasiz tugagan, imi-jimida qolaverardi.

Chalasang quti yasovchi hunarmand usta, kichik jussali, sochi tikkaygan bu kishi hamisha bir xil kamzul va moylangan etik kiyib yurardi. Muzokaralar tugagach, u so'z so'radi; keskin jarangdor ovozi Oxotniy ryad dahshatlari to'g'risida fikr yuritgan vrach Popandopolo so'zlarining maromini butunlay o'zgartirib yubordi. Zaharli chiqindi bug'lari – miazmalar, batsilla, bakteriyalar, antisaniitariya holati, ammiak... vrachning nutqini bezagan edi.

– To'g' rri! Vasiliy Konstantinovich aytayotgan gaplar to' o' g' rri! Biz Oxotniyga qutilarni shunday qo'yamiz, shu bo'yicha unga qaramaymiz... U yerda zararli chirindi bug'lari qanchalik ko'p... Bochkaga shundoq qaraysan, nimalar bijg'ib yotmabdi, deysan!.. Xuddi shunday har balo tuzlangan go'shtlarga o'rmalab yotadi... Baxtiralar oyoq ostida o'ralashadi, ola-bula, dumli... Qarasang, senga yopishishdan qaytmaydi, qoqilib ketasan.

Qahqaha yangradi. Jadayev ko'zini chaqchaytirdi, uning tovushi shovqinni bosib ketdi.

– Nega kulasizlar? Men aldayapmanmi yo? Mana, qandoq kuladigan maqtanchoqlar! Ana qanaqasizlar! Oyoq ostida o'ralashadi... – va u qo'lini yarim arshin yoydi.

Jadayevning nutqi gazetada yoritildi, butun Moskva kuldi, shu zahoti Oxotniy ryadni tozalashga kirishdilar. Birinchi ish barcha do'konlarda mushuk saqlashga buyruq berildi. Lekin mushuklar ko'plab do'konlarda bor edi. Ammo bu sport toifasi – mushuk katta bo'lishi kerak edi. Qorni to'q, semirib ketgan mushuklar kechasi kirmas, chunki ulardan birini kechasi kalamushlar g'ajib tashlagan edi.

Shunday qilib, kalamushlarni bir yoqli qila olishmadi. Nihoyat, Oxota ryadlik Grachyov bu vahshiylardan qutulish usulini topdi. Faqat Jadayev tufayli uddasidan chiqdi.

«Tabiat va ov» jurnalining muharriri L.P. Sabaneyev Jadayev to'g'risidagi xabarni o'qigach, Grachyov bilan uchrashdi. «Dumli bakteriyalar» ustidan kuldi-yu, so'ng Grachyovga foks – kalamush ovlovchi kuchukvachchani sovg'a qildi. Uni «Grachyovning bolasi» deb nomladi va do'konga joylashtirdi. Mushukni faqat go'sht berib, o'lguday to'ydirishardi. Qo'shnilari Grachyovning ustidan kulishardi. Chunki kalamushlar to'da-to'da bo'lib, u yoqbu yoqqa qarab chopardi. O'g'il o'sib, tetiklashdi. Bir kuni ertalab do'konni ochgan edilar, ikki bo'g'ib o'ldirilgan kalamushni topish-

di. Kuchukvachcha uning yonida turib, dum bo'lagini qimirlatar edi... Boshqa kuni uchta kalamush... so'ng bittasi... Shunday qilib, do'konlarda birorta ham kalamush qolmadi, ularning hammasi bo'g'ib o'ldirilgan edi...

Shunday qilib, «Grachyovning bolasi» omborlarning barini «tozaladi»... Grachyovga qo'shnilari murojaat qilishdi. Bola gastrolga chiqqa boshladi, kalamushlarni do'konlardan quvib chiqardi. Grachyovning izidan boshqa savdogarlar ham birinchi navli ozuqa mahsulotlarini saqlash uchun kuchukcha saqlashga kirishdilar. Ayniqsa, katta bayramlar oldidan oziq-ovqat mahsulotlari ko'p yig'ilar, boy Moskva bayram sovg'alari hamda nihoyat ko'p ovqatlanish uchun pullarni ayamay sovurardi. Inqilobdan so'ng Oxotniy ryaddagi do'konlar ancha toza holatga keldi, uning o'rniga «Moskva» mehmonxonasining o'n bir qavatli binosi qad ko'tardi. Shunday qilib, Oxotniy ryaddan maydonning boshqa tomonida faqat ikki eski uy qoldi, xolos. Bu uylar yuz yillab turdi, ifloslik, irkitlikka belanib, «Eski Moskva» bo'ylab komissiya e'tibor bermaguncha, shuningdek, Fan Qo'mitasining Muzei bo'limi ularni restavratsiya qilishga kirishmaguncha shu holicha turaverdi.

Barcha og'il, molxona va omborchalarni buzib tashlashdi, Golitsin tomonidan qurilgan uyni iflosliklardan tozalashdi, chunki ilgari unda tovuqlarni so'yishar va hamma narsa solinadigan omborxonaga aylantirishgan edi. Devorlardagi naqshlar, karnizlar va boshqa bezaklarni qo'porib tashlagandilar. Bu bezaklar g'ishtning o'ziga o'yilgan edi. Yerto'ladan seld balig'i solinib, qo'lansa hid taratadigan bochkalarni chiqarib tashlashdi, korxonani yo'qotishdi. Baliq bochkalari chiqarib tashlangach, pol ostida yana oq marmardan qurilgan xona borligi ayon bo'ldi. Moskvaliklardan biror kishi bu «dudxona» oq marmarli palatalarda ekanligini bilmagan.

Malika Sofyaning jazmani hisoblangan Vasiliy Golitsin o'z davrining bilimdon kishisi bo'lib, bu xonalarni 1686-yilda qurdirgan. Unda chet ellarda aytilganidek, «dunyoning sakkizinchi mo'jizasi»ni ko'rishni o'zining burchi deb hisoblagan mashhur, taniqli chet elliklarni qabul qilgan.

Golitsin xonalari bilan yonma-yon xuddi shunday keng joy uning uchiga chiqqan ashaddiy dushmani – o'qchi mahkamasi boshlig'i boyon Troyekurovga tegishli edi. «Vaska Golitsin»da shunday xonalar

borligi bois «Boyaringa kulfati uchun, buyuk ranj-alamlar uchun» edi bu!

O'sha paytda Pyotr I o'zining sevimli odami hisoblangan aynan Troyekurovga Suxarev minorasi qurilishini nazorat qilishni topshirdi.

Minora bilan Troyekurov ham uy qurishni boshladi, u Golitsin inshootiga yonma-yon edi. Baayni «burnini yerga ishqalash uchun» qurdi. Materiallar qo'lida – Suxarev minorasi ashyolaridan o'marar edi. Pyotr I bundan xabar topdi, Troyekurovni davlat mulkini talon-toroj qilishda aybladi. Shunga qaramay, baribir 1691-yili Golitsinning uyi yonida koshona paydo bo'ldi, u ham ikki qavatli edi. Keyin Troyekurov o'zining ikki yarim sajenga ega gumbazli uchinchi qavatini qo'shdi. Bunday xona ungacha ham, keyin ham bo'lmagan edi. Vasiliy Golitsinni dushmanlari fitnalari oqibatida (ular qatorida Troyekurov ham bor edi) surgunga yuborildi, barcha mol-mulki musodara qilindi. Pyotr I uning uyini gruzin shahzodasiga sovg'a qildi. Golitsinning avlod-ajdodlari bu dargohda yashamadilar, balki savdo binosi sifatida ijaraga berildi. 1871-yilda uy qandaydir savdogarga sotildi. Saroy odam yurmaydigan ovloq, xilvat joyga aylandi.

Troyekurov uyi bilan ham xuddi shunday bo'ldi. Troyekurovlar avlodi XVIII asrning birinchi yarmida qirilib bitdi va uy Sokovnin nomli dvoryan ixtiyoriga o'tdi. Keyin Saltikovga, so'ng Yurevga, nihoyat 1817-yilda «Moskva meshchanlar jamiyati»ga sotildi va uyga butkul meshchanlarga xos munosabatda bo'lishdi: dastlab «London» mehmonxonasi ixtiyoriga o'tdi, ko'p o'tmay irkit izvoshchilar ovqatlanadigan traktirga aylandi. Inqilobga qadar qimorbozlar, firibgarlar, qochqinlar, qaroqchilar va har qanday jinoiy odamlarning buzuqxona-siga aylandi.

Bu ikki uy bilan birga Vaska Golitsinning, davlat xazinasini o'margan Troyekurovning «tumshug'ini yerga ishqash uchun» knyaz Gagarin Tverskiyda o'zining uyini qurdi. U ham davlat xazinasini o'margan Troyekurovdan badtar ediki, bu to'g'rida qo'shiqlar to'qilgan:

*Eh, sen itvachcha Gagarin,
Sen itsan, emassan barin.
Yeganing faqat karcha osh,
Cho'ntagimizdagi maosh.
Pullarimizdan solding uy,*

*Tverning o'rtasida u.
Neglinniy orti, daryo adog'i,
Shifti erur shishali.
Sharshara ham qurildi,
Tirik baliq qo'yildi.*

Matvey Gagarin o'z uyi bilan Golitsin, Troyekurovning tumshug'ini yerga tegizdimi-yo'qmi, bu noma'lum, ammo Pyotr I uning boshini judo qilgani aniq.

Golitsin va Troyekurovlarning restavratsiya qilingan uylari – Oxotniy ryaddan qolgan so'nggi xotira... Agar «Pyotr Kirillov»ni hisobga olmasa, bu yagona ham edi.

Agar Oxotniy ryaddan molni nohaq ravishda chiqaradigan bo'lishsa:

– Sen menga Pyotr Kirilichni tiqishtirma! – degan gapni ba'zan eshitish mumkin edi.

Pyotr Kirillov haqiqatan traktirlarda hisob-kitob qilish uchun markani joriy qilgan tarixiy shaxs bo'lib, o'z nomini nafaqat Moskvada, balki qishloqlarda ham abadiylashtirgan edi. Hatto uzoq Sibirda ham savdo ishlari bilan mashg'ul odamlar orasida shunday gap-so'z bo'lib o'tardi:

– Sen yana menga Pyotr Kirilichni tiqishtirding-a?

Pyotr Kirilich qirqinchi yillarda sobiq Uglitskiy uyezdining qishlog'ida tug'ilgan edi. O'n yoshligida Moskvaga olib kelishadi va Yegorovning traktirida xizmatkor qilib tayinlanadi.

U Oxotnoryad savdogarlariga qarab turib, ularni kuzatar ekan, o'lchov, tortish hamda aldashlarni amaliyotda qo'llab, ziyaraklik bilan ular usulini o'zining kasbiga qo'llagan edi.

Taomlar o'sha paytda so'z bilan buyurilar, mehmondan olinadigan pullarni xizmatkorlar hech qayerga chiqmay, to'g'ridan to'g'ri bufetga to'lardilar, qaytimini olib, likopchaga solgancha hech qayerda to'xtamay, mehmonga keltirib berardilar. Agar oxirgisi choychaqa berguday bo'lsa, bu pullar ham bufetga qaytarilib, hisobga olinar va keyin taqsimlanar edi. Demak, hech nimani o'g'irlash mumkin emas, lekin Pyotr Kirilich ayyorlik qildi. Qandaydir yo'l bilan pulni qo'lga berkitdi, divanga yashirdi, pulni divanga o'tirgan tanish pudratchi olib ketdi. Faqat uyga borgach, Pyotr Kirilich bilan hisob-kitob qilardi. Buni ko'pchilik bilar, ammo ushlay olmasdilar. U juda chaqqon edi. Masalan, mehmon yuz so'mni maydalash uchun berdi, deylik. Darrov

maydalab, mehmonning ko'z oldida sanaydi va u cho'ntagiga soladi, shu bilan ish tamom. Boshqa mehmon esa qayta sanay boshlaydi.

– Sen nimani olib kelding? Bu yerda besh so'm yo'q-ku, hammasi bo'lib to'qson besh-ku...

Pyotr Kirillov hayron bo'ladi. U sanaydi, pulni stol ustiga qo'yadi-yu, tepasiga likopchani bostiradi yoki tuzdonni qo'yadi.

– To'g'ri, besh so'm yetmayapti! Hozir, bufetda tushirib qoldirgan bo'lsam kerak, – deya yugurib ketadi.

Bir daqiqadan so'ng yuzi yorishib qaytib keladi va besh so'mlikni tashlaydi:

– To'g'ri aytgan ekansiz... Bufetda unutib qoldiribman...

Mehmon minnatdor, Pyotr Kirilich esa ikki barobar xursand.

O'sha paytda pulni sanayotganida, u bitta «qizili»ni o'marishga ulgurgan, lekin faqat besh so'mni qo'shgan edi.

Agar mehmon mast bo'lib qolgan bo'lsa, undan quyidagicha pul olinar edi:

Mehmon o'tirib, burnini tortib-tortib qo'yadi:

– Mendan qancha bo'ladi?

– Sizdan, hisoblashga izn bering, – Pyotr Kirilich sanab, barmoqlarini bukadi: – Bir ryumkadan uch qadah ichdingiz, bir grivennikdan uch grivennik, bu – o'ttiz, uch somsa bir grivennikda o'ttiz, uch somsa o'ttiz, uch ryumka o'ttiz. Papiros so'raganingiz yo'qmi mabodo? Ikki so'm o'ttiz.

– Qancha?

– Ikki so'm-u o'ttiz.

– Nega bunday?

– Qanday bo'lsin? Aroq ichdingiz, somsa yedingiz, papiros, sigareta so'raganingiz yo'q, albatta, – u barmoqlarini bukib, tez-tez sanashga tushadi.

Xullas, u boya aytgan gaplarini yana tez-tez takrorlaydi...

Hech nimani tushunmagan mehmon o'ttiz so'm tashlaydi. Ba'zan sarosimaga tushib, qaytimini ham olmaydi.

Aslida esa uch qadah va uchta somsa uchun bufetga 60 tiyin topshirish kerak edi.

Barcha Pyotr Kirilich kelishtirib aldayotganini bilar, ammo hech kim buni aynan qanday qilayotganini tushunmasdi. Xizmatkor o'rtoqlari xursand bo'lishardi:

– Yashavor, boplading!

Undan o'rganishar, ammo hamma ham eplay olavermasdi.

Traktirlarda hisob-kitob «marka» bilan olib borilgandan so'ng Pyotr Kirilich ishini tashladi-yu, o'zining Volga, Uglichning qayeridadir dang'illama qurilgan uyiga dam olish uchun jo'nab ketdi. Va hamshaharlari u savdo qilish uchun Uglichga kelganida, savdogarlar odat bo'yicha hisob-kitob qilganida, xafa bo'lib:

– Sen Pyotr Kirilichni hech bo'lmasa, menga tiqishtirma! – degan ekan.

Pyotr Kirilich keyingi avlodlar uchun og'zi ochiq, ichida qiymasi ko'rinib turadigan somsa tayyorlash usulini ham qoldirdi.

Yegorov traktiri quymoqlardan tashqari baliq somsalari bilan ham nom chiqargan edi. Bu butun boshli likopchani egallaydigan aylana pirog bo'lib, baliq qaylasi qo'yilar, o'rtasi ochiq edi. Bir bo'lak osyotr bo'lagi va jigjar tortilardi. Somsaga baliq qaylasi bepul berilardi.

Chaqqon, ildam Pyotr Kirilich bunday pirogni «san'atkorona» tarzda kesish usulini birinchi bo'lib o'ylab topgan edi. U bir qo'lida sanchqi, boshqasida pichoq ushlab, qo'lini bir necha bor silkitar, bir lahzada o'nlab yupqa bo'laklarga ajralardi. Shu tariqa qip-qizil qalin pirogga aylanar, o'z shaklini saqlar edi. Bu usul butun Moskva bo'ylab yoyildi, lekin Pyotr Kirilich kabi «san'atkorona» tarzda somsani kam kishi kesa olardi.

Yegorov traktiri eskilikka amal qiluvchi, o'ziga xos yagona traktir hisoblanadi. Eski odat, udumlarga amal qiladigan sohibi unda tamaki chekishni taqiqladi.

– Toki irkit ko'kat bu yerning havosini buzib, anqimasin.

Traktirning pastki qavati «Nizok» kattakon pechga ega. Bu yerga keluvchilarga quymoqli xamirli ovqat to'g'ridan to'g'ri pech oldidan beriladi. Hammaning ko'z oldida ertadan kechgacha to'xtovsiz pishiriladi. Qalin, qip-qizil, turli-tuman o'lchamdagilari «Yegorov blin»larini tezroq tanovul qilishardi.

Ushbu zalda po'stinda o'tirgan mehmonlar blinlarni, sovuq oq baqra go'shti yoki bakrabaliqni yerqalampir va qizil sirka bilan qo'shib apil-tapil iste'mol qilardilar.

Ikkinchi qavat «toza, asl» omma uchun ajratilgan, devorlarda yozuvlar ilingan, turli-tuman baliq mahsulotlari boy-badavlat kishi-

lar – rus dasturxonining havasmandlari uchun ochilib, blinlar bu hisobga kirmas edi.

Tver muyulishidan Oxotniy ryad darvozasi ro‘parasida tor Loskutniy boshi berk ko‘cha o‘tadi. U Objorniy tomon o‘tib, Manej va Moxovoy tomonga buriladi; pastki qavatlar eskirib, titilib ketgan uylardan iborat. Unda, asosan, «tirqishlar» o‘rin olgan. Bu yerda uch, besh tiyinga arzon taomlar beriladi.

Objorniy ryad tong otgandan yarim kechaga qadar ishchi xalqi bilan to‘la: kimdir yarimoch holda qornini bir amallab to‘ydiradi, kimdir tezroq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chada sopol xumchalarda baliq sho‘rvasi hamda sasigan kolbasa bilan qo‘shib yeb ketaverishardi.

Bu yerda do‘kon peshtaxtalari va, hatto Oxotniy chodirlarida sotish mumkin bo‘lmagan barcha mahsulotlar iste‘mol qilinardi. Kambag‘allar uchun mollar yengil darajada hidlangan, «kalamushlar tomonidan keltirib tashlangan» bo‘lard.

Bayramlardan oldin Oxotniy ryad Skvoznik-Dmuxanovskiylarga poralarni yeb bo‘ladigan tarzda keltirishar, «qurug‘i»ni konvertlarga ham solib uzatishar edi.

U yerda faqat «qurug‘i»ni har chorakda olishar, postda turganlar budkada natura bilan kifoyalanishar, aroqqa gazak bo‘lsa kifoya edi.

– Qani, quygin-chi, tomoqni yarim ho‘llab olaylik! Ha, yengilgina qilib orqasidan ulab yubor...

Yapon urushi davrida ko‘pgina traktirlar restoran deb atala boshlandi, hatto Testovning traktiri azaldan shunday deb atalsa-da, darhol peshlavhasini o‘zgartirdi:

«Testov restorani».

Testov traktiridan faqat ikki-uchta zalida qadimgi mebellar qoldi, qolganini bilolmaysan! Hatto stendlar ham yangilandi.

Eski moskvalik ovqatsevarlar Testovga kelishni bas qila boshladilar. Moskvada bir necha yil bo‘lmagan savdogarlar traktirni taniy olishmadi. Ularning birinchi ishi vestibulning oynavand derazasidagi dekadent kartinasi bo‘ldi... Katta zalda – modernistik mebel qo‘yilgan bo‘lib, o‘n puddan iborat bo‘lgan savdogar ayol unga o‘tirmoqchi bo‘lganda qo‘rqar edi.

Kelganlar ikkinchi zalga kirishar, u yerda pastak, keng, dubdan yasalgan oromkursilar qo‘yilgan edi. Ular o‘rganib qolgan sevimli stollarini egallashar, divanlarda joylashib o‘tirar edilar...

– Xuddi Testovnikiga o‘xshaydi, oldingi paytdagidek!

Ikki xizmatkor stol oldida paydo bo‘ladi. Ular oppoq ko‘ylak kiyib olgan, bellarida yashil belbog‘ o‘ragan, ammo bu belbog‘da odatda pul va marka solinadigan hamyon ko‘rinmasdi.

– Sening ichgan qasaming qayerda qoldi? Marka bilan to‘laydigan kurak suyakcha qayerda?

– Biz marka bilan hisob-kitob qilmaymiz, endi bizda talonlar yuritiladi...

– Kuzma qayerda? Ivan Semyonich qayga qolgan?

Xizmatkor xijolat bo‘ldi: ko‘rdiki, mehmonlar juda izzatli odamlar.

– Dam olishga, keksargani uchun qishloqqa ketgan...

– Sen-chi, Uglitskiydanmisan?

– Yo‘q, podmoskva atrofidanman... Endi yaroslavliliklar ham bizda kam qolishdi...

– Sen nima uchun xuddi to‘nkaday qaqqayib turibsan? Nima uchun mehmonlarga manzirat qilyapsan? Agar Kuzma Yegorich bo‘lganida...

– Bu endi bizning ishimiz emas... Endi bizda bosh ofitsiant bor buning uchun...

Bosh ofitsiant keldi, u smoking va oq galstukda edi, kartochkasini berdi-yu, yoddan sharillatib, gapirib tashladi:

– Kaklik go‘sh tidan biqin lahmi... provansal sousi... Shoffrua... Bef bruk... Portyugez biqin go‘sh ti... elchi pudingi... so‘ng kutilmaganida: – Kavkazcha kabob, ingliz qo‘zichog‘idan tayyorlangan, – deb yubordi.

Va yana kavkazcha taomlar sanab o‘tilgan kartochkani berdi, unda kabobpaz Georgiy Sulxanov, ya‘ni knyaz Argutinskiy-Dolgorukovning jiyanining imzosi turardi.

Uning hamma gapini tinglashdi va mehmonlar kartochkani o‘qib chiqishdi.

– Axir qanday mashhur traktir edi-ya, – deb xo‘rsindi soch-soqoli oqargan jussasi katta keksa kishi.

– Endi traktir emas, restoran! – dedi ta‘kidlab bosh ofitsiant.

– Restoran deb aytarmishmiz! Bu yerga mashhur Testov cho‘chqalari go‘sh tini yeymiz, deb kelganmiz. Turli-tuman taomlardan tano-

vul qilmoqchi edik, bu yerda esa mana... Ef brui... Tuxum-ku cho'lda jonimizga tekkan edi!

Katta odamlar bilan gavjum zalda musiqa ovozi yangrar edi.

– Axir sizning mashhur mashinangiz qayerda? Qayerda u? «Luchinskaya»ni chalardi... Operalar...

– Anovi yerda; ha, uni ishlatmaymiz: ko'pgina mehmonlar mashinadan ranjimoqda, eski daydilar! Endi bizda rumin orkestri bor... – bosh ofitsiant shunday deb burildi-yu, boshqa stolga shoshilib ketdi.

Og'zi ochiq, qiymasi ko'rinib turgan somsa tortishdi.

– Nahotki bu somsa bo'lsa? Bu kalish, somsa emas! Somsa aylana bo'ladi! Xo'p, sen uni qanday qilib kesasan?

– Endi mehmonlarning o'zi kesishadi.

Chol qo'shnisiga:

– Traktir sohibini ayblash mumkin emas: uning ishi savdo qilish, xolos. Demak, ommaning o'zi shunday ahvolga kelib qolgan, unga mashina ham, qishloqi ayol ham, somsaning ham aslo keragi yo'q. Rumin ayolini, toshbaqadan pishirilgan turli-tuman sho'rvalar va file burdalezlar bergin... Yegorovda chekishga ruxsat yo'q edi, endi esa qancha xohlasang, shiftga qarab dudlayvergin. Chunki ilgari Moskva-da xalq bor edi, endi esa omma.





LUBYANKA

O'tgan asrning to'qsoninchi yillarida boyib ketgan sug'urta jamiyatlari kassalari puldan to'lib-toshib ketgani uchun ulkan mablag'lari ni ko'chmas mulklar sotib olishga yo'naltirib, uni foydali, deb hisobladilar. Shu bois Moskvadan yer xarid qilib, ularda daromad beradigan uylar qurishga kirishdilar. Shunday qilib, Lubyansk maydonida, Katta va Kichik Lubyanka o'rtasida ulkan uy qad ko'tardi. U «Rossiya» sug'urta jamiyatiga qarashli bo'lib, N.S. Mosolov mulkida qurildi.

Saksoninchi yillarda N.S. Mosolov, boy-badavlat pomeshchik, akademik, mashhur gravyura ustasi hamda nodir gravyuralar to'plovchisi sifatida bu yerda alohida korpusni egallagan edi; mazkur korpusning boshqa qanotida, ya'ni Mosolov kvartirasiga ulanib, Mebiusning rasmxonasi joylashgan edi.

Mosolov kattakon kvartirasida yolg'iz yashar, o'zining sobiq krepostnoy dehqonlaridan bo'lgan xizmatkorga ega edi. Yarim yilni u odatdagidek chet elda, qolgan yarmini hech kimni qabul qilmay, Moskvada o'tkazdi. U ba'zan ish bilan uydan qimmatbaho qadimiy karetasida chiqar, karetaga bir juft chiroyli otlar qo'shilar, kucherning nomini hech kim bilmas, oddiygina «Lapsha» deyishar, u sobiq krepostnoylardan edi.

Mosolovning Lubyansk maydonidagi uyi ro'parasida karetalarni ijaraga beradigan birja joylashgan edi. Mosolov uyini «Rossiya» sug'urta jamiyatiga sotganida, kareta va otlarni o'zining kucheriga sovg'a qildi va «Lapsha» birjada turib qoldi. Ajoyib ot-ulov unga yaxshigina pul topish imkoniyatini berdi: «Lapsha» bilan kareta yurish dabdaba hisoblanar edi.

Mosolov 1914-yilda vafot etdi. U muzeyga qimmatbaho gravyuralar hamda o'zining va ajnabiy rassomlarning naqsh va suratlarini

ixtiyoriy ravishda hadya qildi. Mosolovning turgenevcha qaddi-qomatini eski moskvaliklar yaxshi eslashadi, ammo kam kishi u bilan ko'rishishga muvassar bo'lgan. Mòsolov o'z uyida ish bilan mashg'ul bo'lib, butun kunni o'tkazar, ba'zan deraza oldida uzun nayli trubkasini chekkanicha o'tirar, hovli esa saksoninchi yillarda Generalov do'koni joylashgan joyda edi.

Do'konda kolbasa bo'limi bo'lib, undagi mahsulotlarning arzon bo'lishini istab, xo'jayin ichaklarni katta miqdorda barvaqt xarid qilar va ular boshqalarda sasib, nihoyatda qo'lansa hid chiqarardi. Hovlida yomon qopag'on it Yenotka bo'lib, politsiyachilarni yoqtirmas, politsiyachini ko'rgan hamono tashlanib qolar edi. Hovlida ko'ringan har qanday itni parchalab tashlar edi.

Qo'shni qanotda, Mosolov uyi yonida Gusenkovning traktiri joylashgan bo'lib, ikkinchi, uchinchi qavatlar – mebel bilan jihozlangan xonalardan iborat edi. Ikkinchi qavatda yigirmaga yaqin xonalar bo'lib, yuqorida biroz kamroq edi. Men u yerda 1881-yilda birinchi marta aktyor A.D. Kazakov huzurida bo'lgan edim.

– Bu yerdagilar barchasi o'zimizniki, tambovliklar! – dedi u.

Mosolovning o'zi tambovlik pomeshchik bo'lib, uyini qandaydir hamshahar tadbirkorga bergan edi. Saksoninchi yillarning oxirida vafot etdi va o'rnida qolgan kishi uning an'alarini saqlab, davom ettirdi.

Xonalarning barchasi oylik bo'lib, doimiy yashaydigan kishilar tomonidan band etilgan edi. Ular orasida o'lmaslaridan oldin tambovlik pomeshchiklar ham bor edi (Mosolovning o'zi ham o'shalar qatorida edi). Ular yetmishinchi yillarda Moskvaga kelib, qolgan umrlarini «ozod qilingan» dehqonlar tomonidan olingan tovon pullari hisobiga o'tkazar edilar.

Mebellar o'ziga xos edi! Xuddi tunnelga o'xshash ensiz, yo'lakchalarni eslatar, «xona»ning spetsifik hidiga ega edi. Yo'laklarda qadam tovushlari deyarli eshitilmas, ular tovushsiz «uchar», yuvilmagan samovarlar bug' chiqarar, bu is gazi yana xonaga aylanib kirar edi... Xo'jayinning talabiga ko'ra, yumshoq poyafzalning ovozi eshitilmas va ularning xizmatkorlarga xos ziyrak xatti-harakatlarida ham axloqiy va jismoniy tipik axloqsizlik his etilar, ammo xizmatkorlar yetarli darajada ishchan, oldingi pomeshchik xonadonlaridagi sodiq yugurdaklari bundan mustasno edi.

Haqiqatan, 1881-yilda krepostnoylarning Tambov mulkidan kelganlar orasida hali bunday nusxalar qolgan edi. O'sha yillari mebel bilan mashg'ul bo'lgan aholi shahar sharoitida cho'l mulkining pomeshchigidan boshqacha ko'rinmasdi. Bir necha yildan so'ng ular dunyodan ko'z yumishdi – dastlab xizmatkor ayol, sobiq krepostnoy xotin, so'ng sobiq pomeshchiklar ham dunyodan o'tishdi. Hammadan ko'ra ot zavodi sohibasi tambovlik Yazikova uzoq yashadi; u bu xonalarda ancha keksayib, uzoq yashadi, atrofida sevimli kuchukchalari hamda ikki nafar sodiq juvon – ular ham kampirlar bo'lib, girdikapalak edi... Bu yerda iste'fodagi kavaleriya polkovnigi kun bo'yi divanda yotib, trubka chekkanicha unga vaqt-vaqti bilan kvartira haqini to'lab turadigan eski do'stlariga iltimos so'rab, maktublar yuborar edi.

Ayrim istiqomat qilgan kishilarga, keksalar, qip-yalang'och bo'lib qolgan tambovlik pomeshchiklarga Mosolovning o'zi yordam berardi.

So'ng kam-kamdan vafot etgan pomeshchiklar o'rnini yangi odamlar uzoq yillar davomida to'ldirib yashadilar. Bu yerda uzoq yillar yozuvchi S.N. Filippov va doktor Dobrov, moskvalik aktyorlar, bir so'z bilan aytganda, uncha boy-badavlat bo'lmagan, ammo xotirjamlik va tinchlikni yaxshi ko'rgan kishilar yashagan edilar.

Kazakov o'zining do'sti, tambovlik pomeshchik Oznobishin huzurida yashadi. U dramatik yozuvchi, ajoyib aktyor-havaskor Ilya Oznobishinning akasi bo'lib, Moskvaga qishki mavsumga kelganida, bu nomerga to'xtab o'tar edi.

Nomer maydonga qaragan katta derazali uchta baland xonadan iborat edi. Polga g'oyat katta fors rasmlari chizilgan yumshoq gilam tashlangan bo'lib, uni bir paytlar krepostnoy to'quvchi ayollar tikkan edilar. Butun mebel – qizil daraxtning bronza bilan qoplanganidan iborat, rokoko uslubidagi tryumo ham aynan shunday edi. Stol ham qizil daraxtdan yasalgan bo'lib, ikki burji ikki tomonga qaratilgan, turli quti va qutichalardan iborat, uning oldida esa valter oromkursisi turardi. Derazalar orasidagi devorda qimmatbaho va katta ingliz soati vazmin jaranglaydi... Devorlarda – tepada avlodlar portretlari, uning tagida ovchilar hayotidan akvarel bilan chizilgan rasmlar, fotosuratlar, barchasi qizil daraxtdan yasalgan ramkalarga solingan... Kamin ustida qimmatbaho bronza qandil shamlar bilan birga turibdi, ular o'rtasidagi soat chinni va bronza aralashmasidan iborat:

Yotoqxonada ham juda katta qizil daraxtdan yasalgan karavot turibdi, uning tepasida ov shoxi, zanji, xanjarlar va tozi itlarning portretlari bilan bezatilgan gilam osilgan. Aleksandr II portreti bilan ola-bula tashrif qog'ozida, itlar oyog'i ostida Gersen va Ogarev fotosuratlari, boshqa tomonida Malika Dagmarning qo'lida kuchukchani ushlagan holati hamda to'garak shapka kiygan Garibaldining rasmi turibdi. Qarshisida – turkcha divan; uning tepasida qandaydir xushsurat amazonkaning moybo'yoqda ishlangan portreti va yana fotosuratlar hamda gravyuralar...

Ulkan boy-badavlat barinning mol-mulkidan qolgani shu bo'lib, qariyaning hayotini yashnatib turardi. Bir paytlar ishratparast bo'lgan bu boyon Moskvaga umrining oxirgi yillarini o'tkazish uchun kelgan edi.

Kazakovning huzuriga aktyorlardan Kireyev va Dalmatov hamda adabiyotchilardan biri mehmon bo'lib kelishadi. Chol yolg'izlikdan zerikkan. Keyin to'satdan so'radi:

– Bilasizmi, nima, siz biror marta xizmatkorlar teatrini ko'rganmisiz?

– Tushunmadik.

– Unday bo'lsa, ko'rasiz!

Va qo'ng'iroq qildi. Xizmatkor kirdi, ancha to'zigan, usti-boshi juldur, ammo viqorli, chekka sochlari oqargan, boshi butunlay kal. Baland bo'yli, barvasta, ko'rinishi barinlarga monand.

– Samovarni keltirishni buyurdilarmi, Aleksandr Dmitriyevich?

– Ha, shunday. Juda zerikarli...

– Vaqt o'zi shunaqa, hamma jo'nab ketgan... Butun yo'lakda faqat Yazikovning ayoli bor, xolos... Kimdir parkka ketgan, kimdir xiyobonda o'tiribdi... Uxlamoqchi bo'lsang, hali quyosh ham botgani yo'q.

Chol qo'lini oromkursi suyanchig'iga tirab turibdi, aftidan, gapi-rishni istayapti.

– Nikanor Markelich! Sizga iltimos qilmoqchi edim... Bu mening do'stlarim – aktyorlar... Keksa barinni bizga tanishtiring. Grigoriy shu yerdami?

– U o'zining katalagida, sakkizinchi xonada papiros chekmoqda.

– Bu yoqqa chaqiring, tanishtiring axir... Sizga bir so'mdan to'lab beramiz.

– Rahmingiz kelsin, axir nima uchun... Axir shusiz ham sizdan xursandman.

– Zerikkanimizdan o‘lay deyapmiz, bizning ko‘nglimizni chog‘ qiling...

– Hozir chopib borib, Grishani olib kelaman.

U katta oromkursini oldi-yu, qarama-qarshi tomondagi burchakka – deraza tomonga qo‘ydi va «hozir» dedi-da, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Kazakov bizning savollarimizga faqat bir gap bilan javob berdi:

– Ko‘rasiz, hozircha bir so‘mdan bering.

Bir necha daqiqadan so‘ng eshik yengil taqilladi va xonaga basavlat barin qo‘lida kichkina cho‘tkacha ushlagan, qizil ipli turk xalati kiygan odam kirib keldi. Bizga e‘tibor ham bermay, go‘yo xonada hech kim yo‘qdek oromkursiga cho‘kdi-yu, barmoqlari bilan suyan-chig‘ini cherta boshladi. So‘ng xuddi pinakka ketganday ko‘zlarini yumdi. Kichik mo‘jaz dahlizda kimdir yo‘taldi. Barin ko‘zini ochib, uzoq esnadi va qarsak chaldi.

– Vanka, trubkani olib kel!

Trubkani, uzun olxo‘ri tusli chilim nayini ko‘tarib chopgan kishi-ning ikki tomonidagi sochlari oqargan va qirtishlab qirilgan edi. Bir oyog‘ida eski etik, boshqasida tuflari. U baringa trubkani berdi, o‘zi esa tizzalab, gugurtni ishtoniga chizdi-yu, qog‘ozni yondirdi va trubkaga qo‘ydi.

Barin chekdi va kerishdi.

– Anovi ablah Proshka qayerda?

– U botqoqdan jinlarni ovlayapti...

– A! – barin tutunni puflab, o‘ylanib qoldi.

– Vanka, azizim! Yarim stakan aloy solingan aroq olib kell

– Uni qayerdan olaman, barin?

– Eh, seni qara-yu! Anovi yerga qo‘ygin!

– U yerga sen uchun jin qo‘ygan...

– Bizda qanaqa shampan vinosi bor?

– Ularga darvozani ochishadi.

– Nima deding? Yaxshi eshitmadim!

– Nima degan bo‘lsam – dedim, xotinboz tili bilan g‘oyib bo‘ldi!

– Vanka kichkinam, sen epli-shudli odamsan, men uchun birorta qalliqni ko‘z ostiga olganing yo‘qmi?

– Dunyoda hammadan bordir yaxshisi, yarim pud go‘ng ko‘tarib yurar, chiroyli. Bir oyog‘i oqsaydi, bir ko‘zi g‘ilay, salgina cho‘tir, ammo rosayam uchiga chiqqan boy!

– Xo‘p, bu kulfat emas, uni bu yoqqa olib kel... Lekin sepi qanaqa?

– Mulki katta, adog‘i ko‘rinmaydi. O‘rtasida saroyi bor, ikkita qoziq qoqilgan, qatron bilan yopilgan, omborlari liq to‘la, dengiz ortidan keltirilgan mollar, nimalar yo‘q deysiz, oziq-ovqat zaxirasi-ku, oshib-toshib yotibdi, aslo o‘ta olmaysan: qirqta yog‘och bochkada tuzlangan qurbaqa, qirq omborda quritilgan suvaraklar, qoramollarni aytmaysizmi – xo‘roz-u tovuqlarni-chi, mis idish-tovoqlar – hammasi batartib, rasamadida! Javdarni-chi, har bir boshog‘i shunday yetilgan-ki, asti qo‘yaverasiz!

– Vanka kichkinam! Qishlog‘im to‘g‘risida nimalar yozishyapti? Mening krepostnoylarim badavlat yashayaptimi?

– Ha, nafas olyapti, deb yozishyapti, lekin ehtiros bilan boy kun kechirmoqda, oltinni xaskash bilan to‘playotgan ekan, ammo tilini tiygan, lom-mim demaydi! Mana sizga yana burmistr maktubini olib keldim...

– Qayerda u, keksa alvasti?

– U narigi dunyoda yaratgan egam uchun qatron qaynatib bermoqda!

Xizmatkor yirtiq-sirtiq etigining qo‘njidan qog‘oz parchasini olib, baringa uzatadi.

– Eh, itvachcha! Nima uchun maktubni kumush patnida bermaysan?

– Axir kumush bizda tashlandiq holda, oltinga solib bermoqchi edim, lekin odamlar juftakni rostlab, qochib ketishdi...

Zodagon barin ovozini chiqarib, o‘qiy boshladi.

– «Birodarim barin, sizning ayg‘ir otingiz Mixaylo Petrovich o‘ldi, terisini shilib sotishdi, so‘ng qo‘lga kiritilgan pulga pishiq no‘xta sotib olishdi, sizning mehribonligingiz tufayli, cho‘chqalar yarmarkasida sizdagi zoti ajoyib chiqdi».

– Vanka! Hayvon! Axir bu maktub eski-ku...

– Yarmini chekib tashlashdi – uzun edi...

– O‘shanda mening saroyimda gerb, oltin dalada esa yashil to‘siq bor edi...

– Endi esa, barin, sizning yaydoq dalangizda mana bu bor, – u katta bosh barmog‘ini ko‘rsatkich va o‘rta barmog‘i orasidan chiqarib, baringa ko‘rsatdi.

So‘ng bizga murojaat qildi:

– Tomosha tugadi; shu bilan birga bizda barin bilan hech narsa yo‘q...

Mehmonlar olqishladilar va ruhlangan Kireyev o‘rnidan sakrab turdi-yu, artistlar qo‘lini qisdi.

Biz uni pul olishga majburan ko‘ndirdik.

«Vanka»ni o‘ynagan artist «bu «tomosha» g‘alati ekanligi va yana krepostnoy huquq davrida dehqonlarni ovuntirish, xursand qilish uchun xizmat qilgan, xavf-xatarda qolguday bo‘lsa, ta‘qib ostiga tushishi va askarlikka olinishi mumkin edi», dedi.

Xuddi shuni kekxa Kazakov ham tasdiqladi, bu sobiq krepostnoy aktyor buni kuch bilan yashirdi.

Mosolov uyi bilan yonma-yon, Konsistoriya yeriga tegishli yerda oddiy xalq uchun «Uglich» deb nomlangan traktir bo‘lardi. Garchi uning hovlisi bo‘lmas-da, traktir izvoshchilarga mo‘ljallangan, odatda u yerda egalari choy ichib olguncha otlarga yem-xashak berilardi. Ammo shu paytda Moskvada «oddiylik» urfga kirgan, uni to‘qsoninchi yillarning yarmida ober-politsmeyster Vlasovskiy tatbiq etgandi.

Unga qadar Lubyansk maydoni izvoshlar hovlisiga aylangan edi: Mosolov uyi bilan favvora o‘rtasi izvoshchi kartalar birjasi edi, favvora bilan Shilovning uyi o‘rtasida yuk tashiydigan aravalar birjasi, Myasniskiyning Katta Lubyanka yo‘lagining barchasi yengil izvoshlar qatoridan iborat bo‘lib, otlarning yonigacha tiqilgan edi. O‘sha paytlarda izvoshchilarning o‘rindiqa o‘tirishi shart emas, bu talab qilinmasdi. Otlar bo‘yniga to‘rva ilingan holda turar, suvlig‘i olinar va shu holida boqilardi.

Yo‘lak chizig‘i yonida, ko‘prik ustida pichan nishxurdleri hamda oqimlar ifloslangan edi.

Otlar qarovsiz holda boqilar, kaphtarlar va qarq‘alar galasi oyoq ostida o‘ralashar, izvoshchilar esa traktirda choy ichishardi. Traktirdan chiqqan izvoshchi basseyndan to‘g‘ridan to‘g‘ri iflos paqir bilan suv oladi-yu, otlarni sug‘oradi, basseyn atrofi esa bochkalar to‘la suvli aravalarga to‘lib-toshgan. Birdaniga sakkizta bochka kelib, basseyn

atrofida tiziladi, dastasi uzun cho‘michlar bilan bochkalarga suv solinadi hamda butun maydon ertalab tong sahardan kechga qadar so‘kinish, shovqin bilan g‘uvillaydi..

«Uglich» bilan yonma-yon Myasniskiy burchagida – «Myasniskiy» nomli mebellar xonasi bor. U keladigan savdogarlar hamda tovar namunalardan olgan kolleksiyachilar tomonidan egallangan. Ular joylashgan uy Malyushin tomonidan Konsistoriyadan ijaraga olingan yerda qurilgan edi.

Konsistoriya! Bu so‘z hozir ko‘pchilik kitobxonlar uchun tushunarli emas. Iblis katta baliq ovlanadigan to‘rga tushib qolibdi va qo‘rqib, talvasaga tushganicha:

– Men Konsistoriyada emasmanmi mabodo? – der emish!

Bu tashkilotni chuqur ifodalaydigan shunday latifa bor. Lekin u o‘ziga mahalliy cherkov boshqarmasini birlashtirib, yirik diniy martabalar, kengash, kichik amaldorlarni qamrab oladi. Ulardan yuqorida turuvchi kotib – asosiy kuch bo‘lib, Kengashga ta’sir qiladi. Kotib, bu – hammasi demakdir. Amaldorlar arzimas maosh olishar va faqat pora bilan tirikchilik qilishardi. Bu mutlaqo ochiqchasiga amalga oshirilardi. Qishloq ruhoniylari amaldorlarning kvartirasiga poralarni aravada olib borishardi. Bu pora un yoki turli hayvonlar ko‘rinishida bo‘lar, moskvaliklarga naqd to‘lanardi. Poralarni kichik ruhoniylar, rohibalar, quyi unvonli ruhoniylar hamda akademiya yoki seminariyani tugatgan talabalar berishar, ya’ni ruhoniylar ularga o‘rmini berishini ko‘zda tutar edilar. Konsistoriya Myasniskiydan Lubyansk maydonidagi muvulishga qadar bir parcha katta yerni qamrab olgandi. U kazarma tipidagi ikki qavatli binoda joylashgan bo‘lib, katta boqqa ham ega edi. Keyin bu uy buzildi, so‘ng yangi, hozir mavjud bo‘lgan beshinchi uy qurildi. Lekin yangi uyda ham porani eskichasiga olishardi. Bu yerga ta’zim bajo keltirish uchun kelishar, bu yerda aybdorlarni sud qilishar, bu yerda ajralish bilan bog‘liq ishlar yakunlanar, ulkan pora talab qilingan hamda sotib olingan guvohlar u yoki bu rafiqani xiyonatda ayblashda eski qonun bo‘yicha ajralish uchun zarur bo‘lganida, soch-soqoli oqargan arxiyereyevlardan iborat sudda jismoniy xiyonating barcha tafsilotlarini go‘yo o‘zlari bo‘lgani kabi gapirib berishlari lozim edi. Sudga oilaviy sadoqatga xiyonat karavotdan boshlangani to‘g‘risidagi dalillar kam edi; yana uchinchi shaxs hech qachon ko‘rishi mumkin bo‘lmagan tafsilotlar talab etilardi. Lekin guvohlar

«ko‘rishgan» va ehtiros bilan hikoya qilishar, sudyalalar esa zavq bilan eshitib, qoralar edilar.

Konsistoriyadan yuqorida Muqaddas Sinod turardi. U Peterburgda, peshtoqlar ostidagi binoda bo‘lib, xuddi Hukumat senati kabi u ham peshtoqli bino ostida joylashgan edi.

Bu yerda shunday hazil yurar edi:

– Ko‘r bo‘lib qolgan sinod va talon-toroj qiladigan senat mukofotlar bilan yashaydi.

Konsistoriya va «Myasniskiy» binolari orasida uch qavatli eski uy bo‘lib, amaldorlarning kvartiralarini joylashgandi. U har qachongidan ham dahshatlardan iborat uy edi.

Menda bu ovloq joyda bo‘lgan guvohning yozuvlari saqlanib qolgan: «Bu uyda istiqomat qiladigan amaldorlardan birining huzurida bo‘lishimga to‘g‘ri kelgan edi, – deb yozadi bitik muallifi. – Kvartira uch qavatli eski uyning pastki qavatida pastak gumbazsimon xonalarda edi. O‘rtacha oilaviy vaziyati to‘la-to‘kis darajada tartibli bo‘lishiga qaramay, taassurot qo‘rqinchli; hatto bir juft kanareyka kichkina derazaning pastida g‘oyat nochor ahvolda bir-birini chaqirib turardi. Qubbalar va devorlar haddan ortiq darajada qalin. Shift va devorlardan qandaydir qalin zanglagan ilgaklar hamda kattakon temir aylanalar chiqib turardi. Choy ichib o‘tirar ekanman, qubbalarga ham, ilmoqlar va oynalarga ham hayron bo‘lib tikilib qarardim.

– Bu qanaqa g‘alati bino bo‘ldi? – deb so‘radim amaldordan.

– Haqiqatan qiziqarli. Masalan, biz bundan yuz yil muqaddam maxfiy ekspeditsiya boshlig‘i Stepan Ivanovich Sheshkovskiy qamoqqa olinganlarni qiynagan xonada o‘tiribmiz. Mana bu tepamizda turgan ilmoqlarga qiynoqqa olingan kishilar ilib qo‘yilgan. Mana bu javonda turli suyuqlik hamda har xil idishlar turgan. Bu shkafcha katta ham, kichik ham emas, balki tosh xaltaga o‘xshagan. Temir eshik olinib, endi yog‘ochiga almashgan, ko‘rib turganingizdek, unda tinch uyda shira bilan tayyorlangan suyuqlik turibdi. Hozir sinab ko‘ramiz. O‘sha paytlarda bu yerga jinoyatchilarni tik joylashtirishgan. Ko‘rdingizmi – chuqurligi bir arshin, eni bir yarim, bo‘yi ikki arshindan ko‘proq. Tagimizda esa, ha, arxiv ostida biz bilan yonmayon yerto‘la turmalarida qo‘rqinchli vahshatxona bo‘lib, u yerda ishlatilgan ilmoqlar hozir ham butunicha turibdi, ularda jinoyatchilar

parchinlab tashlangan. Dahshat hukm surgan. Yana bir tosh solingan xalta temir bilan qoplangan eshik bilan birga to'liq saqlangan. Yerto'la hozir turlicha lash-lushlar bilan to'lib-toshgan.

Keyin suhbat chog'ida amaldor quyidagilarni hikoya qildi:

– Mana, qirq yildan buyon bu yerda yashayapman-u, hozirgacha Sheshnovskiy va uning yordamchilari Cheredin, Agapich va boshqalar, hatto Vanka Klinning o'zini biladigan kishilarni uchrataman. O'sha paytda bosh qorovul, keyin bizning amaldorlarga aylangan kishining hali o'smir bo'lgan o'g'li bu yerda ro'y bergan dahshatli voqealarni hikoya qilib berdi. Uning davrida qiynoqlar ancha kam bo'lgan. Pavel I podshoh bo'lgach, maxfiy ekspeditsiya turmalaridan Yekaterina II va uning izdoshlari davrida qamalgan barcha kishilarni ozod qilish to'g'risida amr qilgan. Ularni hovliga chiqarishganda, mutlaqo odamga o'xshamasdilar; kimdir qichqirar, kimdir o'zini bilmas, kimdir o'likday yerga yiqilgan...

«Hovlida ularning kishanlarini yechishdi, kimlarni qayergadir yuborishdi, ko'plarini tentakxonaga jo'natishdi... Keyin, ayniqsa Aleksandr I davrida aybdorning tanasini cho'zishga qaratilgan qadimgi qiynoq qurilmasini sindirib tashlashdi, qiynash dastgohini yo'qotishdi, turmani tozalashdi. Lekin Cheredin hamon barchaga ko'rsatmalar berish bilan band, mening davrimda ham tirik edi. U Pugachyovni qanday qilib qiynaganlarini gapirib bergan, otam ham buni eslar edi... Va Saltichixani ham shu yerda ko'rgan, ana shu xonada, aynan biz o'tirgan joyda... Keyin uni Ivanov monastiriga olib ketishgan, u yerdagi yer osti sag'anasida o'ttiz yil, ya'ni o'limiga qadar o'tirgan. Ivanov monastirida shaxsan o'zim ko'rganman... U yer osti turmasida saqlanar, panjara ortidan qarab, tuynukdan chinqirar, so'kinar va bizga tupurar edi. Hech qachon tashqariga chiqarishmas va yegulikni ham yakka-yu yagona teshikdan berishardi. O'shanda sakkiz yoshda edim, onam bilan birga monastirga qatnar va hammasini juda yaxshi eslar edim...»

Bu yozuvlarga ham yigirma yildan ortiq vaqt o'tdi. Joriy asr boshida Myasniskiydan Kursk vokzali orqali uyga uzoq davom etgan safardan qaytar ekanman, to'satdan qarasam, uy o'rniga tosh-tuproq, axlat yotibdi, chiqindilar to'plami. Tosh teruvchilar ishlayapti, poydevorni buzishyapti. Men izvoshdan to'g'ri ularning oldiga sakrab tushdim, yangi uy qurmoqchi bo'lishayotgani ma'lum bo'ldi.

– Endi yer osti turmasini buzishni boshlashdi, – dedi menga o‘nboshi voqeani tushuntirib.

– Men esa uni ko‘zim bilan ko‘rdim, – deyman.

– Yo‘q, siz yerto‘lasini ko‘rgansiz, biz uni allaqachon buzib tashladik. Uning ostida yanada dahshatli bo‘lgan. Bo‘lmalardan birida kartoshka va o‘tin yotardi, boshqa yarmi esa butunlay berkitib tashlangan edi... u yerda boshpana borligini biz ham bilmasdik. Buzish bilan mashg‘ul ekanmiz, dubdan yasalgan, temir bilan qoplangan eshikka duch keldik. Kuch bilan bir amallab sindirdik, eshik ortida esa odam skeleti... Eshikni qo‘porar ekanmiz, qarsillab ketdi, kishanlar jaranglaydi... Suyaklarni ko‘mishdi. Politsiya keldi, pristav esa kishanlarni qayergadir olib ketdi.

Biz buzilgan yoriqdan yana to‘rt zina pastga, tosh pol ustiga tushdik; bu yerdagi yer osti zulmati, zim-ziyo qorong‘ilik shiftdagi buzish tufayli hosil bo‘lgan tirqishdagi yorug‘lik hamon yer ostining boshqa tomonidan qorong‘ilik bilan kurash olib borardi. Nafas olish qiyin. Hamrohim, meni boshlab borgan kishi cho‘ntagidan sham qoldig‘ini oldi-yu, yoqdi... Qubbalar... halqalar, ilgaklar...

Undan keyingisi yorug‘ edi, shu bois shamni o‘chirdilar.

– Mana shu yerda zanjirband qilingan skelet bor edi.

Dub eshikka qoqilgan temir zanglagan, hamma joy po‘panak bosib, mog‘orlab ketgan, kichkina darcha ortidan pastak tosh to‘ldirilgan xalta ko‘zga tashlanadi, u tor, chuqur, chol ustida osilib turgan kabi, shu bilan birga qandaydir tor, epsiz teranlik kabi...

Devorlarni ko‘zdan kechirganimizda, yana allaqanday tokchalar ko‘rindi, aftidan, bu ham toshli xaltalar edi.

– Men ertaga fotograf bilan birga kelaman, buni suratga tushirib, jurnalda chop etish kerak.

– Marhamat, keling. Odamlarni qanday qiynashganini ko‘rishsin. Keling.

Men ko‘chaga chiqib, endi izvoshga o‘tirmoqchi edim, jurnalda birga ishlaydigan o‘rtog‘im, rassom N.A. Bogatovni ko‘rib qoldim.

– Nikolay Alekseyevich, senda qalam bormi? – deb uni to‘xtatdim.

– Albatta, axir qalamsiz, albomsiz men bir qadam ham bosmayman-ku!

Men qisqa qilib, unga ko‘rganlarimni aytib berdim va bir necha daqiqadan so‘ng biz yer ostidagi joyda edik.

Biz Bogatov bilan birga bu yerda uch soatni o'tkazdik. U bir nechta ajoyib rasmlarni chizishga muvaffaq bo'ldi, chunki o'nboshi yer ostidagi uyning aniq o'lchamlarini bergan edi...

Uyni buzib tashlashdi va o'rniga yangisi qurildi.

1923–1924-yillarda «Myasniskiy»ning mebel bilan jihozlangan xonalari o'rnida savdo maskanlari barpo etildi. Uning tagida ham xuddi «sirli buyruq» turmasiga o'xshash chuqur yerto'lalar borligi ma'lum bo'ldi. Undagi gumbazlar, qandaydir ustunlar, shubhasiz, o'shalarga tegishli edi. Endi hammasini ko'mib tashlashdi, ammo inqilobga qadar u Shishkinning sut mahsulotlari uchun foydalanadigan savdo markaziga aylangan edi.

* * *

Myasniskiyning boshqa tomoni, Lubyansk proyezdida Romeyko mulki bor edi. O'tish yo'liga chiqadigan joydagi uyda Arsentich traktiri joylashgandi. Orqa tomondagi fasad deyarli Zlatoust muyulishiga qadar cho'zilib ketgan ulkan hovliga chiqardi. Hovlida ko'tara savdo qiladigan do'konlar qurilgan. Ular mavsumiy mollar bilan savdo qilardi: bahorda bodring va ko'katlar, yozda mevalar, kuzda ho'l mevalar, asosan, olmalar bilan, qishda muzlatilgan baliq hamda butun yil davomida tirik qisqichbaqalar bilan savdo qilinardi. Qisqichbaqalar Oka va Volgadan, asosan, Dondan qo'lda to'qilgan kattakon savatlarda olib kelinardi. Bu ko'tara savdo shaxsan bir xil xaridorlar – peshtaxtada savdo qiluvchilar hamda ko'tarib yurib sotadiganlar, ko'tarmachilardan iborat edi. To'qsoninchi yillar boshida bu kattakon ulkan ish to'xtatildi, Romeyko mol-mulki, yer-suvini sibirlik boy-badavlat N.D. Staxeyev sotib oldi va buzib tashlangan traktir o'rniga katta uy ko'tardi, keyinchalik uyni qartada yutqazib qo'ydi.

«Shipov qal'asi» orqasida kattakon yalanglik bor edi, u yerda qishda muzlatilgan go'sht, baliq va parranda go'shti, boshqa vaqtlarda sabzavot, har xil mayda mollar va mevalar bilan arava-arava savdo qilishar edi. Yurib sotadigan kishilar ko'pchilik bo'lib, bu yerda mollar sotib olishardi-yu, butun Moskva bo'ylab odimlab, uning eng chekkasiga qadar boshiga bir pud keladigan narsani qo'ndirib olishar, doimiy xaridorlariga mahsulot yetkazib berishardi. Ulardan yirik bakra balig'ini, mushuklar uchun besh miriga jigar sotib olish mumkin edi. Yetkazib beruvchilarni bahor va kuzda yo'llar chang yoki qishda

izg'irin sovuq bo'lib o'ta olmaydigan darajaga yetganida, uy bekalari qadrlar edilar. Moskvada yaxshi do'konlar kam bo'lib, bozorlar uzoq edi.

Bir zamonlar, hali krepostnoylik davrida Lubyansk maydonida muvaqqat yog'och tomoshaxona paydo bo'ldi, unda hayvonotxona va ulkan fil bo'lib, hammaning, asosan, ommaning diqqatini butunlay jalb etgan edi. Bahorda fil to'satdan quturib, zanjir bilan bog'lab qo'yilgan xarini devordan qo'porib oldi. Va tomoshaxonada xarini aylantira boshladi, g'olibona na'ra tortib, atrofdagi kishilarda qo'rquv uyg'otdi, hamma vahimaga tushdi. Fil olomonning qichqirishlaridan badtar achchiqlanib, chiqib ketishga intildi, ammo uni mahkamlab qo'yilgan xari tutib turardi. Xari tomoshaxona bo'laklari orasiga tushib qolgan edi. Fil bitta xarini sindirishga urindi va xaloyiq ustiga hamla qildi. Ammo shu paytda politsiya bir rota askar olib kelib, bir nechta o'q bilan bu ulkan polvonni otib o'ldirishdi. Hozir tomoshaxona o'rnida politexnika muzeyi turibdi.





O‘T O‘CHIRUVCHILARNING KUZATISH MINORASI OSTIDA

Bir yuz ellik yildan buyon turgan Tverdagi uyda endi Mossovet joylashgan. U mashhur arxitektor Kazakov loyihasi asosida Moskva general-gubernatori Chernishev tomonidan 1782-yilda qurilgan. Shu paytdan boshlanib, inqilobga qadar muttasil gubernator uyi bo‘lib keldi. Fasadi sovet maydoniga chiqar, ilgari Skobelev, undan oldinroq esa Tver maydoni deb yuritilardi. Bu uyda tantanali qabullar, g‘oyat go‘zal ballar o‘tkazilgan. Ularni o‘tkazishni saksoninchi yillarda knyaz V.A. Dolgorukov yaxshi ko‘rgan, u o‘sha yillari poytaxtni patriarxal tartibda boshqargan edi. Dolgorukov o‘tkazgan ballarda butun Moskva ishtirok etardi. Yarqiragan hashamatli zallarda brilliantlarga ko‘milgan oqsuyak xonimlar, shuningdek, hashamatli mundirlilar orasida zamoskvovresklik millionerlar etigini, shahar dumasi a‘zosi David Jadayev kamzulini, sudxo‘r Kashinning etagi keng syurtugini ko‘rish mumkin edi... Sudxo‘rlar va, hatto o‘g‘rilik mollarini xarid qiluvchi olibsotarlar hamda qaroqchilar uyasi sohiblari ham ushbu balda hozir bo‘lishar, mundirlari bilan yopilgan xayr-sadaqa jamiyati hamma uchun ochiq, har kim unga bemalol kirishi, pullarni xayr-saxovat yo‘lida sarflashi mumkin edi. Ulardan ayrimlari martaba va ordenlarga sazovor bo‘lishgan, jinoyatkorona ishlarini, politsiyaga sezdirmay yashirishga tirishar edi.

Bal uyushtiriladigan kuni general-gubernator saroyi podyezdiga qandaydir Vanka Kulakov oppoq ishton va «xayr-saxovat» mundirini kiyganicha «shtatdagi general» unvoniga ega bo‘lib, vestibulga kirar, darbonning qo‘liga suvsar terisidan tikilgan po‘stinni tashlar, amaldor vajohati bilan salyut berar, so‘ng vestibulda navbatchi bo‘lib turgan hudud pristavi bilan ko‘rishib, zinapoyadan xonimlar hamda faxriy mehmonlar qurshovida yuqoriga ko‘tarilar edi. Sobiq gvardiya zobi-

ti bo'lgan pristav unga javob berishga majbur bo'lib, bosh kiyimini yechib, xuddi general-gubernator mehmoni va muruvvat ko'rsatish jamiyati xazinadori kabi o'zini oliy darajali kishidek tutar edi... Xo'sh, shundan keyin bu pristav «Katorga» qaroqchilar maskanining sohibi ustidan bayonnoma tuza olarmidi? Yoki Xitrovkadagi traktir haqida nojo'ya gapirishi mumkinmidi?!

Ushbu ballarda kerakli tanishuvlar boshlanib ketar, turli ishlar amalga oshiriladi, ko'ngli ochiq, o'sha paytda aytilganidek, «poytaxtning xo'jayini» Dolgorukov o'zini amaldorlardan uzoq tutib, devor bilan o'rab olgan, ularni ko'rishni istamas, shu bois go'zal xonimlarning har qanday qiziquvchanlikdan iborat davrasiga singib ketganday ko'zdan yo'qolgandi.

Knyazning o'zi keksa bo'ydoq bo'lib, podshohlarga xos yashar, har qanday tantana, bazmni sevar, unda o'zini namoyon etishga harakat qilardi. Ma'lum kunlarda u o'z huzurida arizachi, shikoyatchilarni qabul qilar, keluvchilar oldinroq amaldorlar tomonidan yaxshilab filtdan o'tkazilar, so'ng knyazga kim, nima uchun kelganligi ma'lum qilinar hamda kelgan kishining shaxsiyati tavsiflanar edi. Darvoqe, knyazga tanish kishilar uning kabinetiga bemalol kirish imkoniyatiga ega bo'lib, ularni yolg'iz qabul qilib, arzini eshitar va amaldorlarga nima qilish kerakligi bo'yicha turli buyruqlar berardi, ammo ko'p o'tmay hammasi unutilar, buyrug'i hamisha ham bajarilavermasdi. Dolgorukovning knyazligi to'g'risida ko'p latifalar tarqalganini eslash mumkin edi. Lekin men ulardan bittasini aytish bilan kifoyalanaman. Bu shaxsan general-gubernatorning uyiga bog'liq. Mening qaydlarimdan eng asosiy maqsad – Moskva uylari va uning atroflarini eslashdan iborat.

Yetmishinchi yillarning oxirida Moskvada «Qizil oltin» hamlisi nomli firibgarlar to'dasi ishlagan. Uchiga chiqqan bu firibgarlar keyinchalik okrug sudi tomonidan sudlanib, turli muddatlarga hukm qilindi. To'da boshlig'i ataman Shpeyerdan boshqasi surgun qilingan, boshlig'i esa qayergadir g'oyib bo'lgan, shu bo'yi badar ketganicha qaytib kelmagan, eng qizig'i sud jarayoni oxirida bo'lgan edi: hukm o'qilgach, sud zalidan hurmatga sazovor bo'lgan, ko'rinishi professorga o'xshash kishi chiqqan, so'ng hashamatli yasatilgan izvoshga o'tirib, mirshabni chaqirgan, unga sud raisiga yo'llangan

konvertni bergan-u, keyin jo'nab ketgan. Konvertda Shpeyerning tashrif qog'ozi bo'lib, unda qalam bilan: «Bugungi spektakl uchun minnatdorchilik bildiraman. Men xursand bo'ldim. Shpeyer», – deb yozilgan edi.

Mana shu Shpeyer boy-badavlat pomeschchik qiyofasida V.A. Dolgorukov ballariga bemalol kirib boravergan, birinchi marta u bilan tanishganida, cholni o'z iltifoti hamda qiziquvchanligi bilan maftun etgan, keyin uning qabulida ham bo'lgan. O'zining Moskvaga kelgan do'sti ingliz lordiga general-gubernatorning uyini ko'rsatishga ruxsat berishini so'ragan edi. Knyaz ruxsat beradi, ertasiga Shpeyer lordni boshlab kelgan, navbatchi amaldor hamrohligida butun uy, hovli, hatto otxona va otlargacha unga ko'rsatgan. Amaldor jimgina ishtirok etib, ular bilan yuravergan, chunki inglizchadan hech baloni bilmadi. Oradan ikki kun o'tgach, Dolgorukov uyda bo'lmagan paytda eshik oldida arava to'xtagan, unga sandiq va jomadonlar ortilgan edi. Izidan karetada lord o'zining kotibi bilan birga tushib, narsalarni to'g'ridan to'g'ri knyazning kabinetiga olib kirishni buyurgan... Bu chigal janjalning tafsilotlarini bilmayman, chunki turlicha gapirishgan edi. Faqat ish general-gubernatorning idorasidan maxfiy bo'limda poyoniga yetgan. Ingliz janjal ko'tarib, bu uning shaxsiy uyi ekanligini isbotlagan. Chunki u bu uyning sohibi, dvoryanin Shpeyerdan 100 ming so'mga butun ashyo-anjomlari bilan sotib olganini, endi unga yashash uchun kelganini aytgan va asoslagan. Buning isboti sifatida notarius tasdiqlagan, xarid qilingan qal'a vasiqasini ko'rsatgan, pullarni ham to'liq to'laganini aytgan. Shpeyerning bu firibgarligi sudda muhokama etilmagan, u haqda indamaslikni ma'qul ko'rishgan, ingliz bilan qanday kelishilgan – bu noaniqligicha qoldi. Faqat 2-Yam ko'chasida faqat bir kunga soxta notarius idorasi qurilgan va uyni sotish bilan bog'liq ishlar poyoniga yetgan. Shundan so'ng «Qizil oltin hamlasi»ni ovlash boshlandi, ammo Shpeyerni baribir topisha olmadi. Butun Moskva bu haqda sukut saqladi, faqat «Zamonaviy xabarlar» gazetasining fele-tonchisi Pastuxov xabardor edi.

Lekin Dolgorukov undan bu haqda churq etmaslikni, hech qachon gapirmaslikni tayinlab qasam ichirgandi. Ko'p yillar o'tgandan keyin Pastuxov bilan birga baliq oviga borganimizda, shu voqea to'g'risida gapirib bergan edi. Buni keyinchalik o'z vaqtida qartabozligi bilan

nom chiqargan N.V. Popov tasdiqlab berdi. U bu to'daning barcha a'zolarini yaqindan bilgan, ular bilan birga hamkorlik qilgan va, hatto Pastuxovga ham ma'lum bo'lmagan tafsilotlarni qo'shib gapirib berdi. Undan bu firibgarlik bilan mashg'ul bo'lgan to'dada Shpeyer ikkinchi shaxs ekanligi, boshliq esa qandaydir ishning pachavasi chiqqan graf ekanligini, bu ish uchun emas, balki boshqa firibgarlik uchun Sibirga surgun qilinganini bilib oldim.

Dolgorukov pora olmasdi. Unga buning keragi ham yo'q edi. Qari bo'ydoq, hisobsiz boylik va bir necha merosga ega bo'lgan bu odam hech nimaga muhtoj emas, maishatparastlik xayoliga kelmasdi. U hech qachon qarta o'ynamas, ammo ballar uyushtirishni yaxshi ko'rar, pulning hisob-kitobidan bexabar, ularni biror marta qo'liga ushlab ham ko'rmagan edi.

Dolgorukovning xizmat bilan bog'liq ishlarida o'ng qo'li general-gubernator kanselyariyasi maxfiy bo'limi boshlig'i P.M. Xobinskiy bo'lib, moskvaliklar «tilida bir umr rivoyat bo'lib kelgan». Omilkor va puli bor odam u orqali mohirlik bilan hamma ishni qila olishi mumkin edi.

Knyazning boshqa qo'li o'ziga yaqin kishi bo'lib, bu uning bir umrlik kamerdineri (shaxsiy uy xizmatkori) Grigoriy Ivanovich Vel-tishev bo'lib, jussasi kichik, mo'ylovi katta kishi edi.

Knyazning barcha xarajatlari hamda pul bilan bog'liq ishlarni o'sha boshqarar edi.

– Grigoriy, bizda yangi yil bali uchun hamma narsa tayyormi?

– Unchalik emas, hazratim. Pullarni hali yuborishmadi. Hozircha yigirma ming olib turishimizga to'g'ri keladi. Ro'paramizda yashaydigan naqqosh to'g'risida o'ylayapman, oldiga qarindoshlari kelyapti, u esa hammasini quvib yubormoqda.

– Hech nimani tushumayapman! Jonli gullarni ko'proq olish kerak!

– Mana Lazar Solomonovich Polyakov ham shuni so'rayapti...

– Ha, u ajoyib odam. Pavel Mixaylovichga men buyurganimni ayt.

Yangi yil balida bankir Polyakov rafiqasi bilan oq ishton va shtatli general-gubernator qiyofasida muhtojlarga yordam berish jamiyati boshlig'i sifatida uning qo'l ostida turadi. Bu kishi to'g'risida shunday latifa yurardi:

– Sizga tilingiz qiyinchilik tug'dirmaydimi? Lazar Solomonovich, Lazer Solomonovich! Oddiy qilib, janobi oliylari deb qo'yavering!

Mossovet uyining derazalari oldida sovet maydoni yastanib yotibdi. Skver fonida sayr qilib yurgan bolalar guruhlari kun bo'yi tinim bilmaydi, Marks – Engels – Lenin instituti binosi.

Derazalar qarshisida hashamatli qabulxonalar, maydonning hozir skver joylashgan boshqa adog'ida o'sha paytda o't o'chirish bo'limining Tver qismi mavjud bo'lgan. Bu notinch joy edi.

Kun bo'yi tongdan boshlab tosh yo'l taraqлагani taraqлагan. To'rt g'ildirakli aravalar quloqni teshadigan darajada guldiraydi, gursillab qadam tashlashlar, erkaklar sudragan telejkalar qarsillaydi, xullas, bu maydon Stoleshnikov tor ko'chasi orqali shaharning ikki hududini birlashtiradigan joydan iborat.

O'tgan asrning oxirida poytaxtda ko'cha qoidalari to'g'risida tushuncha ham bo'lmagan: na o'ng tomon, na chap tomonni tan olishgan, qanday xohlashsa, shunday yurishgan, bir-birlari bilan to'qnashgan, ag'darilib ketishgan... Butun boshli sutka davomida shovqin-suron tinmaydi.

Bu eshitish uchun. General-gubernatorning saroyi serhasham derazalardan ko'ringan manzara ham kishini shod qilmaydi: goh mast-alastlar yoki urishqoq battollarning shovqini avjiga chiqadi, goh ularni ko'chada to'polon ko'targani uchun qabulxonaga sudrashadi...

Va har doim ham ularni sezish muvaffaqiyatli kechmaydi.

Garchi oy chiqmagan bo'lsa-da, дума taqvimi bo'yicha oy chiqqan tunlari butun Moskvada ko'cha fonarlari o'chiriladi.

Qorong'ida tungi muattar hid taratadigan arava – o'n yarim bochka to'ldirilgan kayfiyatni ko'taruvchi, ruhlantiradigan, aravani dir-dov qirchang'i otlar tortib boradi. Bochka va arava o'rtasida arqon o'tirg'ich o'rnatilgan, unda «zargar» – assenizator mudrab boradi. (Moskvada o'sha paytlar assenizatorlar, ya'ni axlat va najaslardan tozalovchilarni shunday deb atar edilar).

Arava ko'prik ustida sakraganday bo'ladi, bochkadagi narsalar chayqalib, tosh ustiga to'kiladi, qarsillagan tovush butun mavzega eshutiladi. Yarim tundan so'ng arava zo'rg'a sudralib, imillab Tver bo'ylab, saroy yonidan yurib boradi.

Aravalar karvoni to'xtadi... Oxirgi bochkalar cho'loq otlar tufayli ortda qoldi... Bu «zargar» uxlab qolgan. Boshqasida katta kalava non bor, uning bandidan mahkam ushlab olgan.

– Din... Din... – minora tepasidan qo'ng'iroq ovozi eshutiladi va qorovul ikki fonusni ko'tarib qaraydi.

– Qaysi raqam? – pastdan baqiradi o't o'chiruvchilar jamoasining boshlig'i.

– Uchinchisi, universitet yonidagi, – deb javob beradi tepada turgan o't o'chiruvchi aynan qayerda yong'in ekanligini ko'rsatar ekan. «Uchinchi» – demak, olov ichkariga urganini anglatadi.

Xuddi quturgan kabi mash'ala ko'targan xabarchining orqasidan o't o'chirish aravasi jadallab yo'lga tushadi. Otlar-hayvonlar bamisoli voronejlik oq-sariq ola-bula zotli arg'umoqlarga o'xshaydi.

Ko'prik toshlari titraydi, shishalar jaranglaydi va bino devorlari zirillaydi.

Telbalangan to'rtta ot qo'shilgan, dastasi uzun changaklar ortgan arava maydon orqali Tverskoydan Oxotniy ryad orqali jadal yuguradi, bochkalarni tashlaydi-yu, undan nariga uchadi... Bochka g'ildiraklar tepasida... Ko'lmakka suyuq atalasimon loy quyuladi, «zargar» tipirchilaydi... U qo'lini baland ko'taradi va hammadan ko'ra non to'g'risida o'ylab qayg'uradi... Kalava non, bu – ularning maxsus shirinligi: u qulay, dastasidan ushlab mumkin, bulka nonni yesa iflos qo'l bilan ushlab noqulay. O't o'chiruvchilar Tverskiy bo'ylab pastga enadilar, bochkalar esa tobora tepaga, zastavaga qarab yumalaydi. Qarshidan tungi sayr qilib yurganlar duch keladi. Ular Petrov bog'idagi restorandan qaytishmoqda. Uch ot qo'shilgan aravalarda, «kabutarlar» esa hashamatli izvoshlarda o'ziga atir sepgan xonimlarni quchoqlaganlaricha shiddat bilan maydonni kesib o'tdilar, Tver bo'ylab yoki pastga – Stoleshnikovdan Petrovkaga jadallab o'tib ketishadi.

Notinch joyda yashagan general-gubernatorlar!

Ba'zan Tverskiydan issiq yoz kunida to'rt g'ildirakli izvosh so-yabonini tepaga ko'targanacha o'tib qoladi, ob-havo yaxshi bo'lishiga qaramaydi; undan olti oyoq ko'rinadi: to'rttasi shporli (temir tepkili) etik kiygan, ikkitasi botinkali, shim pochalarini tushirmagan.

Bu o'tkinchilarning diqqatini tortadi.

– Siyosatchilarni «sharlar ostida» Tverskiyga olib ketishmoqda!..

Haqiqatan arava maydondan burilib, Tverskiy qismiga tegishli hovlida ikki qavatli iflos, irkit bino oldida to'xtaydi. Pastda o't o'chirish ombori bo'lib, yuqori qavatda siyosiy va xavfli jinoyatchilar uchun kameralar mavjud. Qavatda maxfiy turma joylashgan.

To'rt otli arava to'xtadi. Undan enkayib uch nafar mahbus va ikki jandarm sirg'alib chiqadi, «siyosatchi» ham ular bilan birga.

Uni bir kameraga kiritishadi, kichkina derazalari to'g'ridan to'g'ri general-gubernator uyi tomon qaragan, lekin tashqaridan ularga hech narsa ko'rinmaydi: chunki temir panjaraning yuqori tomoni sho'r bilan qoplangan, ular chang bilan butunlay to'silgan.

Bu turmani «qandala uyasi» deb atashgan.

Asosiy binodagi pastki qavatning markazida gaupvaxta joylashgan bo'lib, uning eshigi ustunlar o'rtasida, oldida platsdarm podsholikka qarashli bo'yoqlar – qora va burchakli uchburchaklar bilan ihotat qilingan. Xuddi shunday yo'l-yo'l qilib bo'yalgan budka tepasida qo'ng'iroq osilgan bo'lib, unda qo'riqchi turar, asabiylashgan cha butun tevarak-atrofga nazar tashlardi. Borayotgan kishini qo'yib yuborishi, qorovulni «chalish» kerak edi. Uni chaqirish lozim edi.

Tverskiydan boshlanib yoki Stoleshnikov muyulishidan, yoki «Drezden mehmonxonasidan, yoki general-gubernator podyezdida navbatchi zobit ikki marta qo'ng'iroq chaladi va butun qorovul qismi, yigirma kishi ofitser bilan hamda barabanchilar boshchiligida oyoqni qo'lga olib, yeldek yugurib, zinapoyalardan sakrab, budka yonida qator bo'lib, barabanning sadolari ostida multiqlarini «qorovul» tarzida shay tutib, tik turishadi...

Va generallarni kutish asnosida ularga necha o'n martalab tik turish to'g'ri kelgan! Tver maydoni orqali ularni har kuni «ta'qib etish» hali kammi! Ko'pgina generallar qorovulga qo'l silkitib, qo'ng'iroq chalishning hojati yo'q, deganday bo'lishadi. Lekin endigina general safiga o'tgan havaskorlar, ayniqsa, ofitserlar o'z yuraklarini qanoatlantirish uchun jo'rttaga ortiqcha ravishda gaupvaxta yonidan qator turgan qorovullarga o'z shapkalariga qo'l tegizish uchun o'tishardi.

Va har kuni «erta»dan «kech»gacha shunday bo'lardi.

«Ertalab» degan so'z alohida harbiy yuklama bo'lib, gaupvaxtada ertalab va kechqurun qorovullik paytida ijro etilardi.

Belgilangan vaqtga qadar chorak soat davomida gornchi chiqadi va trubada «tong oldidan yo'qlama»ni chaladi. Shu chorak soat

davomida butun qorovul qismi budka yonida baraban sadosi ostida «ertalab» rusumini ado etadi.

Kechki paytdan ertalabki marosimga qadar generallar «chest» berish tantanasini bekor qilishgan edi. Askarlar qorovulxonada mudrashadi, har soatda almashadilar, qamoqdagilarga ikki postda ko‘z-quloq bo‘lishadi: biri «qandala» derazasi ostida, boshqasi esa hovliga qaragan gauptvaxta derazasi tagida, ularning ikkisi ham hovliga qaragan bo‘lib, bunda alohida kameralarda qamoqqa olingan zobitlar saqlanar edi.

«Qandalali» xonadondan tashqari, qabulxona yonida «mast-alast» kamera joylashgan bo‘lib, mastlarni va janjal ko‘targanlarni olib kelar edilar.

O‘t o‘chirish hovlisi keng bo‘lib, har kuni otxonadan chiqarib tashlangan go‘ng to‘dasi bilan to‘lib-toshgan edi. Go‘ngning ostidan ayniqsa, yomg‘irdan so‘ng irmoq bo‘lib qoramtir, qo‘lansa hidli suyuqlik oqib chiqar va butun hovli bo‘ylab darvozasi yopiq, boshi berk ko‘chaga chiqadigan joydan o‘tib, ko‘prikka, keyin Petrovkaga «yugurar» edi.

Darvoza bilan yonma-yon pastak, derazasiz, faqat hovli tomonga qaragan bir eshikli tosh bino bo‘lib, bu – o‘likxona edi. Uni kichik ibodatxona deyishardi. U kamdan kam hollarda bo‘sh qolardi. Ko‘pincha bu yerga ko‘chada o‘lib qolgan yoki jinoyat tufayli qurbon bo‘lgan odamlarning jasadini olib kelishardi. Ularni yorib ko‘rish uchun sud-tibbiy ekspertizasi o‘tkazish maqsadida anatomik teatrga yoki sud idoralarining xulosasiga ko‘ra, dafn qilish uchun qarindoshlariga berardilar. Boshpanasi bo‘lmagan yoki pasportsizlarni shu zahoti to‘rt g‘ildirakli uzun aravaga ortib, taxtadan qilingan tobutlarga solib, qabristonga olib ketishardi.

Navbatchilar xonasi pastki qavatning o‘ng tomonida joylashgan, gauptvaxta bilan devori yonma-yon edi. Uning boshqa tomonida politsiya vrachining kvartirasi bor. Uchastka ustida pristavning kvartirasi, qorovulning uyi, gauptvaxta va vrach kvartirasi ustida o‘t o‘chirish kazarmasi joylashgan bo‘lib, irkit hamda iflos edi.

O‘t o‘chiruvchilar pastda va dushxonada tiqilinch, xuddi bochkadagi bakrabaliqlar singari kat ustida yumalab-yumalab yotishar, tevarak-atrofdagi esa tortilgan iplarda yong‘in paytida ho‘l bo‘lgan ko‘ylak va ichki liboslar quritilar edi. Komandaning yarmi, navbatchi qismi yechinmasdan, o‘sha joyning o‘zida kiyim bilan va etikda uxlar edi.

Va o't o'chirish minorasidan salgina bo'lsa-da, yong'inni payqab qolgach, navbatchi arqonni tortib, qo'ng'iroqni chalar, o't o'chiruvchilar hali qurilmagan qo'shimcha ko'ylakni kiyganlaricha yugur-ar edilar.

General-gubernatorning uyi yonida o't o'chirish karvoni – to'rt ot qo'shilgan aravada uzun dastali ilgaklar, uch ot qo'shilgan uchlikda o't o'chirish mashinasi, bir juft ot qo'shilganida suv solingan bochka ortgan aravalar qator tizilishar edi.

Oldinda esa mis trubani o'lguday chinqirtirib chalganicha otliq kishi mash'ala yoqib, yo'rtib borardi. Maydon kecha-yu kunduz shovqin-suron ko'tarar va guvillar edi. Faqat turma «churq» etmay, sukut saqlardi.

Uning maxfiy xonalarida turli davrlarda qiziq odamlar saqlanar edi.

1877-yilda bu yerda «shlisselburglik» Nikolay Aleksandrovich Morozov o'tirgan edi. Gugurt bilan kameraning is va qurum bosgan devoriga uning adabiy ijodini boshlashga turtki bergan birinchi she'ri yozilgan edi:

*Atrofni chulg'agan zulmat,
Cho'llar kiydi qop-qora libos.
Soqov dala xira va xilvat,
Unda na nur va na hayot xos.*

Keyin she'ning bu bandiga boshqalar ham qo'shildi. Ushbu doston dastlabki ko'rinishda 1878-yili «Vpered» nomli jurnalida bosilgan edi. Uning «Yulduzli qo'shinlar» nomli kitobining ilk nashriga shu she'r kiritilgandi. Shu bois N.A. Morozovni Dvinsk qal'asiga qamoqqa tashladilar. Doston qayta ishlanib, so'ng «Shlisselburg mahbusi» nomi ostida nashr qilingan edi.

1862-yilda aynan shu burchakdagi kamerada Pyotr Grigoryevich Zaychnevskiy saqlangandi. U «Navqiron Rossiya» ishi bo'yicha mashhur bo'lgan, proklamatsiya, ya'ni xitobnomasi o'sha paytda hukumatni larzaga solgan edi.

Undan sal oldinroq, 1854-yili «qandalali» kamerada emas, balki ofitserlar saqlanadigan kamerada fransuz ayoli Demanshni o'ldirishda

ayblanib, A.V. Suxovo-Kebilin saqlangan edi. U shu yerda «Krechin to'yi» nomli pyesasini yozgandi. Bu asar hozirgacha sahnadan tushmay kelmoqda.

Inqilob dadillik bilan turma, avaxtaxona, o'likxona, uchastkalarini boshqa joyga ko'chirdi. Tver o't o'chirish jamoasining bayramini o'tkazishga muvaffaq bo'lishdi. Chunki 1923-yilda bu komanda o'zining 100 yillik yubileyini shu sevimli joyda o'tkazgan edi.

Butun Moskvaning ko'z o'ngida 100 yil davomida fidokorona, xavf-xatarga to'la qaltis ishlar bilan bir necha avlod o'tdi. O'shandan buyon hozirgacha anchagina moskvaliklar bu uddaburon kishilarning jasoratini unutishmadi. Podshohning 1896-yil toj kiyish marosimi chog'idagi Xodin fojiasida, suv bosgan paytda, nihoyat 1920-yili Xodinda artilleriya omboriga o't ketganida qo'l urgan qahramonliklarini esdan chiqarmaganlar.

Moskva o't o'chirish komandasini ancha oldin graf F.V.Rostopchin tuzgan edi. Ilgari tasodifan o't o'chirish asbob-uskunolari yig'ilar, chunki u shahar bo'ylab sochib tashlangan edi. Va alohida navbatchi, bir joyda muqim yashaydigan kishilar cherkovning chaqirig'iga binoan yong'inni o'chirish uchun oshiqar, kim ilgak, kim paqir bilan yugurar, u yerda brandmayor ham paydo bo'lardi.

1823-yilda o't o'chirish komandasi shahar idorasiga aylandi. Shahar tarkibi hisobga olinib, o't o'chirish qismlari shunga muvofiq tuzildi, asta-sekin asbob-uskunalar, arava, otlar paydo bo'la boshladi.

Faqat 1908-yilga kelib, Prechistenkadagi o't o'chirish deposida birinchi o't o'chirish avtomobili vujudga keldi.⁶ Bu uncha katta bo'lmagan mashina tepasida harakatlanuvchi narvon birkirilgan bo'lib, u yuqori qavatlarida o't ichida qolib ketgan kishilarni qutqarishga mo'ljallangan, lekin uchinchi qavatdan oshmas edi. Ushbu avtomobilda birinchi bo'lib yong'inda brandmayor brandmeyster bilan birga ko'tarildi, ular bilan birga feldsher hamda bir nechta botir kishilar – o't o'chiruvchi boltakashlar ham bor edi.

Avtomobil o't o'chirish karvonidan nihoyat o'zib ketdi, chunki unga a'lo darajadagi otlar qo'shilgan edi. Telefonlar o'sha paytda yo'q edi. O't ketganini minoradan turib, o't o'chiruvchilar aniqlashardi. O'sha paytda osmonga cho'zilgan baland binolar yo'q edi, butun Moskva minoradan xuddi kaftdagidek aniq ko'rinardi. Minora-

da, sharlar ostida qorovul tun-u kun yurardi. Ushbu «yuqori darajada turgan shaxs»ga boʻron, yomgʻirlar paytida ancha ogʻir edi, ayniqsa qahraton qishda, yozda yanada qiyinroq edi: quyosh kuydiradi, buning ustiga qishga nisbatan yozda yogʻingarchilik ancha kam, faqat yaxshilab qaralsa, esnamasa, shuning oʻzi kifoya! U faqat yurib, atrofni sinchiklab «kuzatadi», xolos.

*U jasur, u – kuchli, yuragi toza,
Turmush tashvishlari unga begona.
Yuqori kursini egallar hamon,
Minorada edi navbatchi.*

Birdan tutun buluti oʻrladi... olov shuʻlasi chaqnadi... Qorovul shiddat bilan yongʻin ipini tortadi va devor oʻrtasida oʻrnatilgan ustundagi signal qoʻngʻiroq chaladi... Oʻsha paytda hali elektr signallari yoʻq edi.

Oʻt oʻchiruvchilar yugurib kelishdi, yoʻl-yoʻlakay hali qurishga ulgurmagan koʻylakni kiyib olishadi, soʻng tayyor turgan otga mis koska, yaʼni dubulgʻani kiygancha minishadi. Brandmeyster ham sakrab chiqadi, boshini chayqaganicha baqiradi:

– Avtomobil. Qayerda? Qanaqa boʻlib?

– Oxotniyda! Uchinchi! – deb javob beradi navbatchi tepadan.

Oʻzi esa ikki sharni dastak bilan minoraning tepasiga koʻtaradi. Bu – Tver qismining belgisi. Shaharniki – bir shardan, juma kuni – Pyatniskiyniki – toʻrt, Myasniskiyniki – uch shardan iborat. Qolganlar shar va xochdan iborat, qayerda ikki shar va xoch tasviri boʻlsa, shundan koʻngilli kishilar shaharning qaysi qismida yongʻin roʻy berganini bilib olishadi. Shu payt toʻsatdan tepadagi navbatchi hirqiroq tovush bilan baqiradi:

– Beshinchi, Ilyinkada! Beshinchi!

Va shaharni anglatuvchi yagona sharning yoniga boshqa tomondan qizil bayroq ilinadi; barcha qismlarni yigʻish kerak, yongʻin kuchli tahdid soladiganga oʻxshaydi.

Tosh toʻshalgan yoʻldan temir shinali oʻt oʻchirish aravalari karvoni shunday shiddat bilan yuguradiki, shishalar shiqirlaydi, idish-tovoq solingan shkaflar qimirlab, xuddi yuradiganday boʻladi va beparvo

kishilar o'zlarini derazalarga urib yoki ko'chaga chiqib, minora ustiga qaraydilar.

Tunda sharlar o'rniga fonarlarni osib qo'yishardi: shar bo'lsa – oq fonar, xoch – qizil fonar. Agar qizil fonar yon tomonda bo'lsa, kunduz kuni qizil bayroq ilingan bo'lsa, demak, barcha qismlarni yig'ish kerakligini anglatadi. Uchinchi raqamga muvofiq barcha qismlarining o't o'chirish komandalaridan uchtasi, beshinchisi bo'lsa, barcha qismlari yetib kelishar edi.

Agar yuqoridan: «Birinci!» – deb qichqirsa, bu yopiq yong'inni anglatgan: tutun ko'rinadi, ammo olov yo'q. Shunda otliq bilan qorovul ko'rsatgan joyga qarab ot qo'yadi, tekshirib, yong'in qayerda ekani aniqlab, trubasini chaladi va trubkadan na'ra soladi. Xalq hamma tomonga shoshilib qaraydi... Va oqsoch ayol g'ashi kelib, oshpaz ayolga derazani ko'rsatadi:

– Qara, seniki kelibdi...

O'sha paytlarda o't o'chiruvchilar, Nikolayev askarlari yigirma yil majburiy xizmatni o'tar edi, shu bois deyarli barchalari bo'ydoq edi, «qat'iy» sevishganlar – oshpazlarga ega edilar.

Yong'indan bo'sh paytlarida ularnikiga mehmonga borishar, oshxonada ovqatlantirilar, bekalar xuddi o'zlarining odamlari kabi qarashar, biror muttaham, qallob emas, balki davlatga tegishli kishi deb munosabatda bo'lishar, shu bois ularga suyanish mumkin, deb o'ylardilar.

Oshpaz ayollar yollanayotganda, bekalarga shart qo'yishardi, ya'ni huzurlariga «og'ayni, birodar» olib kelishini tushuntirardilar. Va uy bekalari rozi bo'lishar, hatto savdogarlar xonadonida ularni rag'batlantirishardi.

Axir qanday qilib rag'batlantirishmasin! Chunki o'sha vaqtda shunday maqol xalq o'rtasida yurardi: «Har bir savdogar xotin erga ega – bu qonunga ko'ra, zobitni – his-tuyg'u uchun, kucherni esa rohatlanish uchun egallashga haqi bor». Shunday ekan, oshpaz o't o'chiruvchini jazman qilib olishga nima uchun haqi yo'q ekan?

Har bir o't o'chiruvchi – qahramon, uning butun hayoti urush maydonlarida o'tadi, har daqiqada xavf-xatarga boshini suqadi. Ishi ham o'ziga xos: qishda tomga, yaxvonlikka chiqadi, qo'llaridagi titilib ketgan qo'lqoplardan suv sharillab oqadi, qalin matodan qilingan

kurtka va ishtonlar (quruq liboslarni quritilmaysan ham) xuddi tax-takach bog'lab qo'yilgandek tuyuladi. Beso'naqay katta etiklar temir mixlari bilan mustahkam cho'yandek ko'rinadi. Va sovuqda qotib qolgan amaki muzlab, tarashaga aylangan etiklar bilan muzlagan zinalar bo'ylab qalqib turgan tomga tirmashadi, shu tariqa bosh aylanib ketadigan akrobatik mashqlarni bajaradi: ba'zan karnizga olovning taftiga chiday olmay yopishasan, qutqaruvchi zinapoyaga jon saqlash uchun o'zingni olasan, tanangning yarmini devorga tiraysan, qolgan yarmi esa tubsiz chuqurlik ustida muallaq qolgandek... Bolta ishlatuvchilar, ularning boshidagi mis dubulg'alar qora tutun yallig'ida yaraqlaydi, temir, tunuka tomni ochar ekansan, doimiy ravishda olovli girdob ustiga qulab ketganday sezasan o'zingni.

Asbob-uskunani ko'targan o't o'chiruvchi brandmeyster ortidan notanish uyga kiradi, u yer tutun bilan to'lgan, bo'g'ilib o'lishi yoki biror kerosin zaxirasiga duch kelib, portlab ketishi mumkin; u esa olov chiqayotgan joyni axtaradi va bartaraf etadi... Qishda og'ir, yozda esa chiday olmaysan, yaxshiyam, bu paytda yong'inlar onda-sonda bo'ladi.

Men saksoninchi yillarning o'rtalaridagi odatdan tashqari quruq kelgan yozni yaxshi eslayman, o'shanda bir kunda o'n bir marta yong'in ro'y bergan edi. Ularning ikkitasida hamma joy yonib ketgan edi. Zaryadye va Rogojskayada bir vaqtning o'zida o't tushdi... Atrofda esa kichik yong'inlar ro'y bergan edi...

O'tgan asrda Moskva gazetalaridan birida «O't o'chiruvchi» deb nomlangan she'r bosilib chiqqan. O'sha paytda u ommalashib, har bir o't o'chiruvchi bu she'rni aynan o'zi haqida aytilgan, deb his etar, bundan faxrlanar, kuch va jasorat tuyar edi:

*Uchqunlar uchadi, avjda alanga,
Olooli til soladi dahshat.
Ko'taraman bayroqni baland,
Xavf-xatarga qildim-ku odat.*

*Haftalab yo'q tinim, halovat,
Qo'riqlab turasan kecha-yu kunduz.
Ko'zing oldida sinadi zina,
Pillapoyalari to'kilar bir-bir.*

*Alanga shiddati, tutun bo'roni,
Karnizlar tagi, hammayoq olov.
Kecha-yu kunduz charchamay, tinmay,
Og'ir xizmat zimmamda axir...*

Bizning kunlarimizda o't o'chirishda otlardan foydalanishmaydi, o'rnini avtomobillar almashtirgan. Eski zamonlarda ulardan o't o'chiruvchilar faxrlanishgan. Oltmishinchi yillarda politsmeyster, keksa kavalerchi Ogarev balet ishqibozi, o't o'chirish ishlarining ashaddiy havaskori hamda chavandoz bo'lib, o't o'chirish komandalari maxsus ta'minlashni tashkil etgandi. Moskvada o't o'chirishda ishtirok etadigan otlar eng yaxshilari edi. Uni yaxshi ko'rmaslik mumkin emasdi. Ogarevning o'zi yiliga ikki marta Voronej va Tambov ot zavodlariga borib, otlarni tanlar, ularni Moskvaga olib kelar va o'n yettita o't o'chirish qismlariga taqsimlar edi. Ularni parvarish qilishni shaxsan o'zi nazorat qilardi. Ogarev to'satdan qismga kelar, otxonaga kirar, cho'ntagidan dastro'molni chiqarar va otlar qanday tozalanganini sinab ko'ramiz, der edi. U Moskva otlarini saralashga majbur edi: otlar rang-tusiga qarab tanlanardi: har bir qism o'zining «libosi»ga ega va moskvaliklar uzoqdan qaysi komanda o't o'chirish uchun yo'l olganini payqar edilar. Tverskaya – sariq-zangori zotli ot, Rogojskaya – tim qora chovkar, Xamovnikaniki – dumi qora saman va hokazo.

O't o'chiruvchilar o'z otlarini qanchalik yaxshi ko'rishardi! Ular bilan naqadar faxrlanishardi! Brandmeyster Bespalov, Birinchi Don polking sobiq vaxmistri sifatida butun hayotini otxonaga bag'ishlagan, kecha-yu kunduzni o'sha yerda tunab o'tkazgan edi.

U vafot etgach, Tver brandmeysteri lavozimi meros tariqasida o'g'liga o'tdi. Bu yigit bolaligidan xuddi otasi kabi dovyurak, mard bo'lib, otxonada tug'ilib, shu yerda o'sgan edi. U o'zining postida halok bo'ldi: yong'in chog'ida uch qavat o'rtasiga tushib, aqldan ozib qoldi va vafot etdi.

Korolyov, Yushin, Simonov, Alekseyev, Koreto, Vishnevskiy o'n yillab brandmeyster, ya'ni o't o'chiruvchilar komandasining boshlig'i bo'lib xizmat qilishdi, hamisha olov qa'rida, boshqa o't o'chiruvchilar qatori o'lim yoqasida edilar!

Ilgari o't o'chiruvchilar o't bilan kurashishdan tashqari, hamma ishga aralashib ketishar, quduqlarga tushib, bo'g'ilib qolgan ishchilarni tortib chiqarishdan tortib, yerto'lalarda gaz bilan zaharlanganlarni, sanitarlarga xos vazifalarni ado etib, ular o'ziga kelib tuzalguncha bo'lgan ishlarni bajarardilar. Bularning hammasini hech qanday ehtiyot choralarsiz bajarishardi.

Xodindagi baxtsiz falokat ro'y berganida, tong otish paytida halok bo'layotganlarning qichqirig'i hali atrofga yoyilmasdan turib, barcha qismlarning o't o'chiruvchilari yuk aravalarda yetib kelishdi, ular tirik qolganlarni qutqarib, kasalxonalarga eltishdi. Keyin dabdalasi chiqqan jasadlarni yig'ishtirib olishdi va aravalar shoshilib, marhumlarni qabristonga olib bordi. Ular yana tezroq qaytish, ularni yana va yana olib kelish uchun nihoyatda shoshilardi...

O't o'chiruvchilarning yana bir mashg'uloti bor edi. Darvoqe, bu hamma uchun emas, balki faqat Sushevsk qismi uchun edi, xolos: ular senzura man etgan kitoblarni yoqib yuborardilar.

– Sushevskiy qismi ustidagi tutun nimadan ekan? Bu yong'in bo'lmasin tag'in?

– Tashvishlanmang, hechqisi yo'q, «Russkiy misl»ni yoqishmoqda.

U yerda, orqadagi omborda ulkan temir qafasli pech turardi. Qafasga o'xshardi. Bir paytlar unda Pugachyovni qatl qilish uchun olib borishgan (endi Inqilob muzeyida turibdi).

Qachon kerak bo'lsa, ombordan hovliga olib chiqishar, kitob va qog'ozlarga kerosin sepishar va rahbarlar ishtirokida yoqib yuborishardi.

O't o'chiruvchilarni xuddi krepostnoylar kabi majbur etishga o'sha rahbarlarni nima undagan ekan! Ulardan o'z kvartiralarida foydalanishgan va, hatto ijaraga ham berishgan edi. Xuddi shunday yetmishinchi yillarda Ober politsmeyster Arapov o'z do'stlariga klub teatrlari sohiblariga o't o'chiruvchilarni statistlar rolini bajarishga ruxsat bergan edi...

Petrov parkida o'sha paytda ikki teatr bo'lardi: kattakon yog'och Petrovsk sobiq davlatga qarashli bo'lib, vaqt o'tib, Arapov ruxsati bilan bayram kunlari A.A. Rasskazov truppassi o'ynar, nemis klubining yozgi teatri klubi adog'ida Kirgof dala hovlisida bo'lardi.

Yakshanba kunlaridan birida Rasskazovning «Tom togʻaning kulbasi», nemis yozgi klubida esa iblislar bilan qandaydir melodrama oʻynalardi. Petrovsk teatri oldida oʻt oʻchiruvchilar ot-aravalari bilan turardi. Otlar ochiq oltin tusli boʻlib, nemis klubiga doir boʻlganlari Tverskiy qismidagi chavkarlardan iborat edi.

Soat sakkiz. Odamlar yigʻilmoqda. Artistlar kiyingan. Oʻt oʻchiruvchilar Petrovsk teatrida orqadagi hovlida tik yoʻl-yoʻl kurtkada grim qilingan negrlar bilan oʻtirishibdi: yuzi, boʻyni va qoʻllari xuddi etik kabi qop-qora.

Orkestr allaqachon uvertyurani chalib tugatganida, toʻsatdan nemis klubidan otliq kishi kelib qoldi. U toʻppa-toʻgʻri Koritoga Susheskiy qismining oʻt oʻchirish komandasi boshligʻi, yaʼni brandmeysteriga uchrashdi. U mundir va dubulgʻa kiyib olgan va teatrning kirish joyida oʻtirardi. Otliq kishi konvertga solingan xabarnomani berdi, bir daqiqa muqaddam u xuddi shunday maktubni Tverskiy qismiga topshirgan edi.

Korito oʻrnidan sakrab turdi va oʻt oʻchiruvchilarga qarab:

– Yigitlar! Qismlar yigʻinga! Nikolskda yongʻin! Kimda nima bor, yoʻlga tush, tezroq! – deb hayqirdi.

Va Tver qismidagi oʻt oʻchiruvchilar xiyobon boʻylab, undan keyin Petrovsk shossesi boʻylab borar, klublar oʻrtasidan chang koʻtarilardi.

Oldinda butun qizil tusli – dumi qizil tusli otlar va yarqiragan qizil dubulgʻa kiygan odamlar ulkan chovkar otlarda shiddat bilan uchib borardilar... Orqada esa changaklar koʻtargan arayalar shotisi koʻzga tashlanar, arava shotilariga qizil chiziqlar tushirilgan...

Park yoʻlaklarida yopirilgan olomon hali oʻziga kela olmayotgandi: oltin tusli otda qora iblis qoʻlida lovullayotgan mashʼal bilan shiddatli tarzda chopmoqda, ortidan uzun aravalarda mis dubulgʻalar kiygan qop-qora iblislar borayotir... Xalqni ana shu qora iblislar koʻproq qoʻrqitib yubordi... Qarsillash ovozlari, alanga, tutun...

Tver boʻylab iblislar bir-biriga tizilishib, general-gubernatorning uyi yonidan, Tver qismi yonidan, qizil bayroq lovullab hilpirayotgan joyda barcha qismlar yigʻiladi. Oʻt oʻchiruvchilar orqasida toʻrt gʻildirakli yengil aravada bir qoʻli bilan kucherning yelkasidan mahkam ushlab olgan Tver polkovnigi Arapov oʻzining argʻumogʻida boʻlsa-da, oʻt oʻchiruvchilarni quvib yeta olmasdi...

Ilyinkada esa qizil va qora chizikli kishilar allaqachon tom ustiga chiqib olishgan, qip-qizil tutun, alanga tillari orasida ko‘rinardi.

Boshqa kuni butun Moskva ana shu iblislarning bir tizim bo‘lib kelishi to‘g‘risida gapirardi. Bir necha kundan so‘ng o‘t o‘chiruvchilar komandasi boshlig‘i, ya‘ni brandmayor polkovnik Potexin farmoyish oldi, u quyidagi so‘zlar bilan yakunlangan edi: «...o‘t o‘chiruvchilardan teatrlar hamda boshqa mumkin bo‘lmagan joylarda foydalanishni qat‘iy man etaman. Polkovnik Arapov».

Endi Moskvada o‘t o‘chirish ishlari mukammal darajaga yetgan, odamlar tarbiyalangan, og‘ir-vazmin, barcha kerakli vositalar bilan ta‘minlangan. Tartib-namuna olsa bo‘ladigan darajada, buning ustiga o‘ta muvaffaqiyatli, mardonavor dadillik, ammo ongli, texnik tayyorgarlik bilan qurollanish, gimnastika, bilim bilan qurollanish... O‘t o‘chirishga kelish endi soniyalar bilan o‘lchanadi. Kazarmaning o‘zida, ikkinchi qavatda navbatchi qism kiyinib, butunlay shay holda turadi. Kazarmadagi pol ustida keng tirqish bo‘lib, u yerda qalin, silliq ishlov berilgan ustunlar ko‘rinadi.

Chaqiriq qo‘ng‘irog‘i chalingan hamono hamma o‘zini ustunlarga otadi, mahkam quchoqlab oladi-yu, undan sirg‘anib, pastki omborga tushadi, so‘ng bir necha soniya ichida har bir kishi o‘zining avtomobildagi belgilangan o‘rmini egallaydi: dubulg‘a boshda, yo‘lda shitob bilan yugurib ketayotgan avtomobilda kiyimini to‘liq kiyib oladi.

Va to‘satdan:

– O‘t o‘chiruvchilar kelyapti! O‘t o‘chiruvchilar kelyapti! – qichqiradi bir to‘da bolalar.

Men hayotimda ilk bor bu so‘zni imperialistik urushning birinchi yili oxirida eshitgan edim. O‘shanda domimiz ahli, ayniqsa, qo‘shimcha qurilgan binoda yashovchilar soni Polshadan kelgan qochoqlar hisobiga ancha oshib ketgan edi.

Meni, qari moskvalikni, eng asosiysi, kekxa o‘t o‘chiruvchini bu so‘z titratib yubordi. Moskva sevimli o‘t o‘chirish aravasida mehr bilan ko‘zga tashlanardi – dastlab chiroyli otlarda, belgi, tuslariga qarab, so‘ng tovushsiz avtomobillari, yarqirab ko‘rinadigan mis dubulg‘alarida faxr-iftixor bilan dedi:

– O‘t o‘chiruvchilar!

So‘ng to‘satdan:

– O‘t o‘chiruvchilar!

Qandaydir mayda gap, ranjitadigan, kaltafahmlik bilan aytilgan-
day tuyuladi.

Ko‘z oldimda qaysidir uyezd shahri gavgdalanadi. U yerda butun shahar uchta teshik o‘t o‘chirish bochkasi, bir yarimta uzun dastali changak, qo‘l bilan suv sepiladigan g‘ildirakli zanglab ketgan mashina, loy, bo‘tana bo‘lib yotgan tor ko‘cha, muyulishlardan o‘ta olmaydigan holati, uning ortidan esa o‘ntagina qiltillab turgan nogiron o‘t o‘chiruvchi.

Moskvada bu so‘z azaldan ko‘p ishlatilar, ammo butunlay boshqa mazmunga ega edi: Moskvaga qishki mavsumga o‘z xo‘jayinlari, boy-badavlat mulklarning egalari bilan birga keladigan tilanchilarning alohida toifalariga nisbatan aytilardi. Pomeshchiklar poytaxtga mulklaridan keladigan foyda evaziga yashash uchun tashrif buyurishsa, krepostnoylarining bir qismi janoblarning cho‘ntaklariga kiradigan to‘lov – obrokka ega bo‘lish, shu pulni qo‘lga kiritish uchun kelar edilar.

Bu ish «kuyib ketgan joylar uchun» yig‘im undirish niqobi ostida o‘tkazilardi. Uyiga o‘t tushgan kishilar – haqiqiy va soxta bo‘lib, Moskvaga oilasi bilan kelib-ketardi. Xotinlar bolalari bilan chanalarda o‘tirib, gerbli muhr urilgan guvohtnomalarni ko‘rsatib, sadaqaga pul hamda lash-lushlar yig‘ar, yonib ketgan qishlog‘i yoki uylari uchun homiylik qilishlarini so‘rar edi. Ayrimlari shotising cheti kuygan xos chana xarid qilar, o‘t-olov ichidan faqat shu chanani bir amallab chiqarishga muvaffaq bo‘lganini aytib, ishontirishga urinardi.

«Butunlay kuyib ketganlar» – moskvaliklarning achchig‘ini chiqarsa-da, baribir haqqini berishardi. Biror uy darvozasi oldida yoki xilvat burilishda chanalarni to‘xtatishsa, bolakaylar uyga yugurib kelib, xabar qilishardi:

– Ona, kuyib ketganlar kelishdi!

Butun Moskva bo‘ylab ikkita joy «kuyib ketganlar» jumlasiga kirardi. Bular Bogorodsk va Vereyskiy uyezdlari edi. Birinchisini «guslyaklar», ikkinchisini «shuvaliklar» deb atashardi. Ayniqsa, bogorodsklik «guslyaklar» sharaflanar edi.

– Qishloq bo‘ylab ketaverasan, uylarning derazalari mahkamlab tashlangan, bu uyi yonganlar butun oilasi bilan biror narsani qo‘lga

kiritish uchun ovga chiqib ketganini anglatadi, ammo qishloqda yong'indan asar ham yo'q!

Vereyskiy uyezdida katta mol-mulki bo'lgan graf Shuvalov krepostnoylik davrida birinchi bo'lib dehqonlarni Moskvaga «yonib ketgan joylar uchun» yig'im yig'ishga chiqarib yuborgan, chunki ular baland miqdorda obrok to'lashardi, bu esa pomeshchikka foydali edi.

Ba'zan shunday «uyi kuyganlar»ni ushlab, so'rashardi:

– Qayerdansen?

– Biz shuvaliklarmiz, – deb javob berishardi qo'lga tushganlar.

Albatta, ular orasida rostdan ham yong'indan aziyat chekkanlar bor edi, qishloq oqsoqollaridan olgan haqiqiy guvohnomalarga ega, ba'zan mazkur hujjatlarni uyezd politsiyasidan olishgan, ammo bundaylar politsiya bayonnomalarida «uyi yonganlar» deb yozilgan, soxtalarini esa «o't qo'rganlar» deb ko'rsatishardi.

Keksa o't o'chiruvchilarni xafa qilgan «o't qo'rganlar» degan so'z ana shundan kelib chiqqan.





BULKA PISHIRUVCHILAR VA SARTAROSHLAR

Tverda, Leontev muyulishida bulkachi Filippovning imorati yuk-salib turadi. Uni o'tgan asrning oxirida ikki qavatli uzun uydan qayta qurib olgan edi. Bu bino Leontevning otasiga tegishli bo'lib, butun Moskvaga oq hamda sayka deb nomlangan nonlari bilan tanilgan edi.

Filippov shunchalik mashhur ediki, taniqli moskvalik shoir Shumaxer uning o'limini quyidagi to'rtlik bilan qayd qilgan, buni butun Moskva bilardi:

*Kecha bir insonning chirog'i so'ndi,
Moskvada edi u mashhur va tanish.
Suvaraklar knyazi Ivan Filippov,
Motamiga qoldirdi bir to'p hasharot.*

Filippovning bulka pishiradigan nonvoyxonasi doimo xaridor bilan to'la edi. Uzoq burchakda issiq temir yashiklar atrofida olomon mudom qaynab turar, Filippovning issiq go'shtli, tuxum, guruch, qo'ziqorin, tvorog, kishmish va murabbo solingan somsalarini kutardi. Kelganlar o'quvchi yoshlardan tortib, keksa amaldorgacha, olifta libosli xonimdan yupun kiyingan ishchi ayolgacha kishilardan iborat edi. Ajoyib yog' va yangi qiyma bilan tayyorlangan pirog shunchalik ajoyib ediki, uning ikkitasi bilan nonushta qilinsa, bemalol to'yish mumkin edi. Nonvoyxona asoschisi Ivan Filippov ularni boshlab kelar, eng asosiysi, ajoyib sifatli qora non bilan birga sayka va kalach nomi ko'p joyga taralgan edi. Nonvoyxonaning chap tomonidagi peshtaxta va tokchalarda alohida kirish joyi bo'lib, odamlar bilan doimo gavjum, ular qora non va kepaksiz nonni qadoqlab xarid qilishardi.

– Qora nongina mehnatkashga birinchi ozuqa, – derdi Ivan Filippov.

– Nima uchun u sizda ajoyib chiqadi! – deb so‘rashardi undan.

– Chunki nongina g‘amxo‘rlikni yaxshi ko‘radi. Nonni-ku yopasan, ammo kuchning hammasi unda. Menda sotib olingan un bo‘lmaydi, hammasi o‘zimizdan chiqadi. Saralangan qora bug‘doy donini joylardan xarid qilamiz-u, tegirmonlarda o‘zimizning odamlar qo‘yilgan, unda chang zarrasi va cho‘p, xas, gard bo‘lmasligi uchun ko‘z-quloq bo‘lib turishadi... Baribir javdar bug‘doyi har xil bo‘lishi mumkin, ularni saralab tanlash kerak. Mendagi ko‘proq Tambovniki, Kozlov bo‘yidan ko‘proq olinadi. Rominskiy tegirmonidan chiqadigan un – eng yaxshisi. Va juda oddiy! – deb doimo so‘zini sevimli maqol bilan tugatardi u.

Qora non, kalach va sayka nonlarini har kuni Peterburgga, podsho saroyiga jo‘natib turishardi. Shu joyda pechda pishirib ko‘rishdi, yaxshi chiqmadi va qariya Filippov Peterburgda kalach, ya‘ni kalava non va sayka yaxshi chiqmasligini aytib ta‘kidladi.

– Nima uchun axir?

– Juda oddiy! Neva suvi yaroqsiz!

Bundan tashqari – u paytda temir yo‘llar yo‘q edi – qishda uning qoq nonlarini ortib, kalach va saykalar bilan, somonda yopilganlari, hatto Sibirga ham aravalarda yetib borgan. Ularni qandaydir, alohida usul bilan to‘g‘ri pechdan chiqarib muzlatishgan, so‘ng ming chaqirim joyga olib borishgan. Ovqatlanishdan oldin uni isitishgan, bu ham alohida usulda amalga oshirilgan, nam sochiqlarda va xushbo‘y, issiq kalava nonlarni Barnaulda yoki Irkutskda to‘g‘ridan to‘g‘ri dasturxonga tortishgan.

Kalach kepakda, sayka poxolda... To‘satdan yangilik paydo bo‘ldi, unga xaridorlar to‘da-to‘da bo‘lib yopirilishdi – bu uzum kishmishi solingan oppoq non edi...

– Buni qanday o‘ylab topdingiz?

– Juda oddiy! – javob berdi qariya.

Haqiqatan bu juda oddiy ekanligi ma‘lum bo‘ldi. O‘sha paytda Moskvaning butun boshqaruvi diktator general-gubernator Zakrovskiy qo‘lida edi. Uning oldida hamma titrab-qaqshar edi. Har kuni ertalab Filippov nonvoyxonasidan oppoq nonlar, ya‘ni saykalar choy oldidan uning dasturxoniga tortilardi.

– Bu-u-u q-qanaqa-a qabihlik! Bu yoqqa bulkachi Filippovni keltir! – baqirdi mirg‘azab ertalabki choy oldidan.

Xizmatkorlar gap nimada ekanligini bilmay, kapalagi uchgan Filippovni uning oldiga sudrab kelishdi.

– Bu-u-u nima? Suvarakmi?! – va oppoq non orasidagi suvarakni ko‘rsatadi. – Bu-u-u n-ni-ma?! A?

– Juda oddiy, janobi oliylari, – o‘zining oldiga oppoq nonni tortadi chol.

– Ni-ma?.. Ni-ma-a?.. Oddiy?!

– Bu kishmish!

Va u suvarakli bo‘lakni yeb yubordi.

– Aldayapsan, razil! Nahotki oppoq non kishmish bilan yopilsa? Yo‘qol!

Filippov nonvoyxonaga zudlik bilan keldi-yu, kishmishni olib, xamirga aralashtirib, nonvoylarni hayron qoldirgancha uni pishirtirdi.

Bir soatdan keyin Filippov Zakrevskiyini kishmish qo‘shib pishirilgan oppoq non bilan siylar ekan, bir kun o‘tgach, xaridorlardan hech qanday e‘tiroz bo‘lmadi.

– Juda oddiy! Hammasi o‘z-o‘zidan kelib chiqadi, faqat uni ep-lash kerak, – derdi Filippov nonning kishmishli turini eslar ekan.

– Mana, hech bo‘lmasa, konfetlarni oling, ularni «landrin» deyi-shadi... Landrin kim? Monpansye nima? Eng avvalo, bu monpansye-ni biznikilar fransuzlardan o‘rganishdi, faqat uni qog‘ozlarga o‘rab, barcha qandolat do‘konlarida sotishdi... Bu yerda, mana, Landrin... Bu so‘z ham shimol sovuqlaridan kelib chiqqan, ammo savdo uchun kerak. Lekin ish juda oson chiqib qoldi.

Grigoriy Yefimovich Yeliseyevning qandolat-do‘konida Fedya ismli hunarmand bu monpansye ustida ishlar edi. Har kuni ertalab shunday bo‘lardiki, do‘konga monpansye keltirishar, buni u o‘ziga xos ravishda – yarmini oppoqqina va qizilga, ola-bulaga bo‘yar, bu ishni boshqa kishi uddalay olmas, shuningdek, qog‘ozga o‘rar edi. Keyin bosh og‘rig‘iga ichib olardi-yu, tovarni yugurib Yeliseyevga olib borardi.

Ko‘rdiki, do‘kon ochilib, tayyor bo‘lib turibdi. Molni darrov changallab oldi-yu, kechikmaslik uchun chopdi. Keltirdi. Yeliseyev unga qichqirdi:

– Sen nima olib kelding? Nima?

Fedya shunda konfetlarni qog‘ozga o‘rashni unutganini payqadi-yu, tugunni changallab olib, yugurib ketdi. Charchadi va ayollar gim-

naziyasi yaqinidagi ustuncha ustiga o'tirdi... Gimnaziya talabalari yugurib keldi, biri, ikkinchisi...

– Konfetlar necha puldan?

U tushunmaydi...

– Ikki tiyindan olasanmi? Beshta bergin.

Bir tiyin cho'zadi... Keyin izidan boshqasini... U pullarni oladi va foydali ekanligini angladi. Keyin ular ko'pchilik bo'lib yugurib kelishdi, chakana savdodagi hammasini xarid qilishdi va tayinlashdi:

– Ertaga hovliga kel, soat 12.00 da, tanaffusda... Isming nima?

– Fyodor, familiyam Landrin.

Yeliseyevga sotgandan ko'ra, bu yerda sotish foyda keltirishini hisoblab ko'rdi. Ha, zarhal tusli qog'ozlar ham foyda keltiradi.

Ertasi yana gimnaziya keltirdi.

– Landrin keldi.

Dastavval har joyda savdo qildi, keyin joyida sotdi, so'ng fabrika ochdi. Bu konfetlar «landrin» deb atala boshlandi. So'z xuddi fransuzchaga o'xshab ko'rindi... landrin bo'lsa landrin-da! Uning o'zi novgorodlik mujik, familiyasini qishloqdagi Landra daryosi nomidan olgan edi.

– Juda oddiy! Faqat qulay fursatni qo'ldan chiqarmadi. Siz esa: «Su-va-rak» deysiz!

Filippov qanday bo'lmasin, yaxshi-yomonni farqlaydigan didi baland odam bo'lsa-da, pul orttirib olish mumkin bo'lgan holatlarning barchasidan ham foydalanavermasdi. Unda o'ziga xos poklik mavjud edi. Boshqa bulkapazlar firibgarlik yo'li bilan pul topishni gunoh deb hisoblamasdilar, ammo Filippov bunga boshqacha yondashardi.

Bulkapazlarni bayramlar oldidan katta xarajatlar qiynar, turib qolgan mollarni to'la-to'kis narxida saxovat, xayr-sadaqa sifatida mahbuslarga berishga to'g'ri kelardi.

Asrlardan buyon katta bayramlar – Rojdestvo, Cho'qintirish, Pasxa, Maslenitsa, shuningdek, «marhumlarni eslash» va «ota-onalar shanbasi» kabi marosimlarda turmadagi qamalanganlar, o'sha paytda aytilganidek, «baxtsizlar»ga xayr-saxovat qilish odatga aylangan edi.

Moskvada bu hol, ayniqsa keng quloch yoygan edi.

Bulkapazlar homiylardan minglab nonlarga buyurtma olishar, hatto bu ikki mingdan ham oshib ketar, bular bayram arafasida olib borilib, mahbuslar o'rtasida taqsimlanar edi. Bunda hech qachon qoro-

vuldagi askarlar hamda Moskvada kvartirada turgan polkdagilar ham esdan chiqmasdi.

Qorovullikda turish umuman qiyin va qaltis majburiyat sanalar, ammo katta bayramlar oldidan askarlar qorovullikka qo'yishlarini iltimos qilib so'rar edilar. Ular uchun hech qachon oppoq non bo'lagini ko'rishga muyassar bo'lmagan kishilar uchun bu kunlar haqiqiy bayram edi. Xayr-saxovat katta bo'lgan paytda ular nonni, hatto kazar-maga olib kelib, o'rtoqlari bilan birga baham ko'rishardi.

Asosiy nazr beruvchilar savdogarlar bo'lib, o'z ruhlarini qutqarish uchun «baxtsizlar»ning qornini to'ydirishni zarur, deb hisoblardilar, toki ibodatlarida qurbonlik qilgan kishilarni eslasalar, mahbuslarning ibodatlari maqsadga erishishni tezlashtiradi, deb haddan ortiq darajada ishonar edilar.

Bu eski odatga e'tiqod qiluvchilar yanada ko'proq o'zlari amal qiladigan qonunga muvofiq, dajjol, iblisdan aziyat chekkanlarning barchasiga yordam berishga majburiyat sezar, bunday aziyat chekkanlarni ular «zindonga tushgan mahbuslar» deb hisoblashardi.

Xayr-sadaqa yo'llanadigan bosh markaz markaziy qamoqxona «Butilkaturma saroyi» edi. Bu yerga butun Rossiya bo'ylab Sibirga yuboriladigan mahbuslar tushar, shu yerdan Moskva-Nijegorod temir yo'li qurilguncha Vladimirkaga qadar piyoda yo'l olishardi.

O'sha paytda, 1870-yilda Vladimirkaning ko'rinishi mudhish edi!

*...Mana buralib chiqayotir,
Chang-to'zon. Tobora yaqin... Qadam tovushi.
Temir zanjirlarning zarli maromi.
Aravalar g'ijirlar, nayzalar yaltirar,
Tobora yaqin. Balandroq. Mana quyoshda
Multiqlar tovlanar. Goh konvoy;
So'ng uzundan uzun qatorlar,
Ola-bula matolar. Qattol, g'azabnok,
Raqib va o'zniki, begona, yaqin.
Hammasi boshi xam, qator tizilgan,
Barini bir temir parchinlab qo'ygan...*

Vladimirka esa Rogojdan boshlanadi va avlodlar yilda bir necha bor bu dahshatli qatorlarni ko'rishgan, ular uylarning yonidan o'tib ketishardi. Ularni bolalar birinchi bo'lib ko'rishar, keyin soch-

soqollari oppoq oqargan chollar, kampirlarning barchasiga bu manzalar ko'rinar, eshitishardi:

*...Va oh-voh, fig'on, faryodlar,
Va temir zanjirlar jarangini ham...*

Albatta, har kim iloji yetguncha nazr berar, imkon qadar shaxsan berishga urinar edi. Buning uchun bermoqchi bo'lgan xayrsadaqalarini ko'pincha o'zlari turmalarga olib borishardi. Yolg'iz kambag'al kishilar esa kalach noni yoki uyda pishirilgan bulkani olib, yo'l bo'ylab kelayotgan mahbuslar qatorini kutar, zanjir kabi tizilgan qatorni buzib, o'rtaga chiqqan aristonning qo'lga o'zining mehnati tufayli qo'lga kirgan bir bo'lak nonni berar, buning uchun qorovuldan tarsaki ham yerdi.

Bu qatorlarning harakati qo'rqinchli edi.

Butun Sadovaya hamda yo'llar bo'ylab, yo'laklar yonida zanjir tortib, qo'llarida qurollar tutib, qo'riqchilar turishardi...

Va ba'zan minglab odamlar temir kishanlarni jaranglatib, ko'chma turmalardan Sadovaya bo'ylab Taganka, Rogoja tomon borishar edi... Qatorning boshida qo'l-oyoqlariga kishan urilgan, beligacha yalang'och, sochi yarim qirib olingan, surgunga yuboriladiganlar odimlardi. Yo'l-yo'lakay ularga tashlangan xayr-ehsonni qo'lga kiritish uchun askarlar, nonvoylar bilan urishib, talashishga to'g'ri kelardi.

Adog'i yo'q qatorlarda ola-bula bushlat kiyganlar, sariq tusli matodagi tuz tasviri ustida «S.K» harflari ko'rinib turadi.

«S.K» – bu surgun qilingan, katorgachi, degan ma'noni bildiradi, xalq esa buni o'zicha: «Kuchli surgun qilingan», – deb tarjima qiladi.

Uylar tomi, devorlar va panjaralar orasidan mahbuslar qatori ko'zga tashlanadi... Sibirga surgun qilinadiganlar ortidan ergashgan, qo'l-oyoqlariga kishan urilganlar bir necha saf bo'lib yo'lga tushadilar, ularning izidan pasportsiz sayoqlar, «etap»chilar va vataniga «yozuvsiz» qaytmoqchi bo'lganlar tiziladi. Undan so'ng tugun va qop ko'targan kasal hamda bolali ayollar soyaboni ko'tarilgan izvoshlarda boradilar, ular hammaning rahmini qo'zg'aydi.

Bu harakat paytida ko'chalarda yurish man qilindi... Tagankani chetlab o'tishdi. Soqchilar otryadini o'zgartirishdi... U yerda, soqchilar otryadi ortida, Vladimirkada, minglab odamlar ot-aravalarda ku-

tib turishdi – bular moskvaliklar va yaqin qishloqlardagi dehqonlar hamda bo'sh qop-qanorni ortmoqlagan, Moskva va uning atrofidagi bozorlarning olibsotarlari edi.

Mahbuslar partiyasi tashrifiga qadar askarlarning katta otryadi kelib, xalqdan Vladimirka va katta maydonni tozalaydi. So'ng uni qurshab oladi.

Bu birinchi bosqich. Bu yerda partiyaning so'nggi yo'qlamasi o'tkazildi, mahbuslar tekshirildi hamda xayriya ulashildi, shu zahoti ular qoplarini kalava non va oppoq nonlarga to'ldirgan jalloblarga sotishadi, evaziga pul olishadi, pullar esa mahbuslar tomonidan qadrlanadi. Aroqni yanada qimmat sotishadi, partiyaning qarzga botirish uchun aldashga harakat qilib ko'rishgandi.

So'ng aqlni shoshirib qo'yadigan vidolashuv sahnasi ro'y berdi, ko'z yoshi to'kishlar, janjallar, tortishuvlar. Allaqachon ko'plab mahbuslar aroq ichib olishga ulgurgan, shuning uchun to'polon, mast-alastlar mushtlashuvlari boshlanib ketdi... Nihoyat, konvoy partiyani tinchlantirdi, to'dani safga tizib, Vladimirkaga qarab olis yo'lga olib ketishga erishdi.

Buning uchun ba'zan kuchaytirilgan askarlar naryadini chaqirishga va temirchilar ishtirokida mast-alastlarni qo'shimcha ravishda kishanlashga to'g'ri keldi.

Asosan ichib, to'polon ko'taradigan mahbuslar, surgunga jo'naydiganlar emas, balki «bezori», etappa tushganlardan iborat edi.

Nijegorod temir yo'li qurib bitkazilgach, Vladimirka piyodalar yuradigan Stiks bo'lmay qoldi, undan Xaronalar miltiq nayzalarini o'qtalib, gunohkorlarning ruhini do'zaxga yo'llamasdilar. Yo'lda kishanlar tovushi ostida yurish o'rniga –

*Qoraygan dalalar bug'lanib,
Omoch ostida ko'tarilar.
Tasma kabi cho'zilar yo'llar,
Zumrad misol namoyon ko'kat.
Endi hamma narsa boshqacha,
Endi ikki qayrag'och tikka,
Uning ohin eshitding, xolos.
Ko'z yoshini endi ko'rolding.
U ham edi xuddi o'zidek...
...Lekin qanchalik ajib.*



*Bahor ham shu qadar raso,
Barcha narsa atrofida uning!
Faqat yomg'ir bu o'tlarga kuylamas,
Balki odam ko'z yoshlari, terlari, xolos.
O'shal kunlar daryolar oqar, uzod,
Gullaydi atrof-javonib endi.
Barcha gullar endi ko'z yosh o'rnida,
Endi changni bosardi yana.
Shovqin solib yopiq izvoshtar,
Ustun turgan yo'llarda uchar.*

Vladimirka yo'li yopildi, soqchilar otryadi ortidagi birinchi etap yo'q qilindi, u yerda so'nggi xayr-ehson ulashilgan edi. Vokzal yonida nazr-niyoz berish, uni qabul qilish taqiqlandi, faqat odamlar guruhi jo'nab ketgandan so'ng olib kelishga, ko'chma turmaga keltirib, boshliqlar orqali mahbuslarga tarqatishga ruxsat berildi. Bundan rogojalik eski urf-odatga rioya qiluvchi kishilar ranjib qolishdi.

– Axir bu baxtiqarolar ularga kim nazr-niyoz qilganini qayerdan biladi? Kim uchun ibodat qilishadi?

Rogojaliklar xayr-saxovatni ko'chma saroyga tashib borishdan butunlay bosh tortishdi: endi taqsimlash Rogoja politsiya uyi hamda Lefortovoda o'tkazilardi.

Belgilangan kunlari bu ehsonlarni ikkiga bo'ldilar, vaholanki Moskva hamon oldingidek barcha qamoqxonalarga yuborib turardi. Bundan mug'ombir kishilar xabar topib, foydalanib qolishardi.

Boshliqlarni hayratga solib, katta bayramlar oldidan Lefortovo va Rogojka qismlari mahbuslar bilan to'lib ketar hamda butun Moskva bo'ylab mushtlashuv va janjallar avj olardi. Chunki shu paytda haddan ziyod ko'plab sayoqlarni tutishar, ular o'zlarining yashash joylarini Lefortovo va Rogoja deb ko'rsatar, natijada shaxsini aniqlash maqsadida konvoy qo'shib berilardi.

Ularni aravaga solib, xayr-ehson bilan birga olib borishardi. Keyin shu joyning o'zida mahbuslarga tarqatib berishardi. Ular esa aroqqa almashib, darrov ichishga tushib ketishardi.

Bayramdan so'ng bu jinoyatchilarning barchasi mayda o'g'rilar yoki oddiy moskvalik meshchanlar, yoki kosiblarning sayoq bolalari ekanligi ma'lum bo'lardi. Shaxsi oydinlashgach, uylariga javob

berishar, ular esa bayramni homiy valine'matlar hisobidan to'yib ovqatlanib, qizg'in ibodatni kutishardi. «Iblis xizmatchilaridan butunlay yuz o'g'irish, badbaxtlar ruhini o'z ibodatlari bilan yarlaqash»ni Yaratgandan so'rar edilar.

Bu xayr-u saxovatlar boshida bulka pishiruvchi va nonvoylar turardi. Faqat kekxa Filippov suvarakni kishmish o'rnida yeb ko'rib, o'z ishida vijdonli ekanligini namoyon etgan edi.

Birinchidan, u buyurtma berilganda, hech qachon mahbuslarga o'tmay qolgan, tashlandiq mollarni yubormas, hamisha yangi kalach, ya'ni kalava va oppoq nonlarni yuborar edi. Ikkinchidan, alohida hisob yuritilardi. Shunga ko'ra, qancha olibsotar bu nazr-niyozga buyurtma bergani aniq bo'lardi. Va bu olibsotarni turmaga o'zi olib borar va kasal mahbuslarga xayr-sadaqani ularning tuzalishi uchun o'zi tarqatib berar edi. Bularning barchasini «juda oddiy» ado etar, foyda olish yoki homiy tashkilotlarning biror medali yoki mundir evaziga nimanidir ko'zlamasdi.

Bir necha yillardan so'ng Filippovning o'g'li ota ishini davom ettirib, o'sha ikki qavatli uy o'rniga xorij uslubiga ko'ra uy ko'tardi va «Filippov kafesi» nomli mashhur, atrofi butunlay oynavand derazalar bilan qoplangan binoga aylantirdi. Undagi marmar stollarda smoking (qora movutdan qilingan, qaytarma shoyi yoqali kostyum) kiygan xizmatkorlar xizmat qilishardi...

Parijni eslatuvchi ushbu muassasa «astarli birja» deb ham yuritilardi. Unda ham xuddi eski vaqtdagi kabi issiq somsalar bilan to'lgan qutilar oldida odamlar doimo gavjum bo'lardi...

Lekin kafeda mutlaqo boshqa omma – «astarli birja» ommasi qator turardi.

«Astarli birja»ning doimiy mijozlari. Bu shinavandalarni kam kishi bilar, lekin ular hammani bilar, ammo bir-birini tanimaganga olish, odatlari edi. Yonma-yon o'tirib, bir-biriga so'z tashlab, stolni allaqachon band qilgan kishi oldiga kelar, so'ng xuddi notanish kishidek uning yoniga o'tirishga ruxsat so'rar edi. Sevimli joy derazadan uzoq, qorong'i burchakning yaqinida edi.

Bu omma – firibgarlar, kolleksiya yig'uvchilar, o'g'rilikka da'vo qiladiganlar, xufiyona ishlarni bajaruvchilar, qimorxona agentlari, o'zlarining buzuqxonalariga tajribasiz, o'yinga kuchli havas qo'ygan

kishilarni jalb qiluvchi aldoqchi va qalloblardan iborat edi. Bu oxirgi odamlar buzuqxona va klublarda son-sanoqsiz tunlarni o'tkazib, so'ng peshinda uyqudan uyg'onib, Filippovda choy ichish va kelgusi tunda bo'ladigan ishlar rejasini tuzish maqsadida to'planishardi.

Izquvarlar orasida kafega yuguradigan bu odamlar «o'ynaydiganlar» degan nom ostida ma'lum edi.

Poyga hamda otlar musobaqasi o'tkaziladigan kunlari o'yin boshlanishidan ikki soat oldin qahvaxona qo'llarida poyga va musobaqa to'g'risidagi afishalar bilan to'lgan odamlarga to'lib-toshardi. Ular orasida savdogarlar ham, amaldorlar ham va boy-badavlat yoshlar ham bo'lar, barchasi uchiga chiqqan o'yinchi va pul tikib o'ynaydiganlar edi.

Bu yerga otchoparlarda qaysi otga pul tikish mumkinligini ko'rsatuvchi «o'ynovchilar» va «laychalar» bilan tanishish maqsadida kelishardi. «Laychalar» ularni qalloblar, muttahamlar oldiga boshlab boshlar, shu tariqa buzuqxonalarga yollash boshlanar edi.

Poygadan bir soat oldin kafe butunlay bo'shab qoladi – hamma otchoparda, tasodifan keluvchilardan tashqari. «O'ynovchilar» boshqa ko'rinmaydi: ularning yo'li otchopardan klublarga, qimorxonalariga bo'ladi.

«O'ynovchilar» degan so'z allaqachon odatiy so'zga aylanib ulgurgan, sal bo'lmasa, toifa, shuningdek, Moskvada yashash huquqini berishni anglatadigan darajaga yetgan. Politsiyada ham qamoqqa olinganlarni «kasbingiz» degan savolga bitta so'z bilan «o'yinchi» deb javob berishlarga o'rganib qolishgan edi.

Mana uchastkada so'roq paytida ro'y bergan suhbatning so'zmaso'z ko'rinishi:

– Mashg'ulotingiz?

– O'yinchi.

– Tushunmadim! Men sizdan yashash uchun qanday vositalarni qo'lga kiritasiz? – deb so'rayapman.

– Men o'yinchiman! Imperator poygalari hamda yugurish bilan shug'ullanadigan jamiyatlarda qarta yoki boshqa vositalar bilan imperator tarbiya uyida ruxsat berilgani bo'yicha mashg'ul bo'laman... Hukumat ruxsat bergan o'yinlarni o'ynayman...

Va qo'yib yuborilgan kishi bemalol Filippov oldiga keladi-yu, o'zining ertalabki qahvasini icha boshlaydi.

Lekin kafega kirishga hamma ham muyassar bo'lmadi. Devorda ola-bula qilib peshlavha yozib qo'yilgan: «Itlarni olib kirish mumkin emas» va «Past tabaqali kishilarning kirishi taqiqlanadi».

Bir voqeani esga olish kerak. Yapon urushiga qadar deraza oldida harbiy-feldsher maktabi talabasi o'zining xonimi bilan o'tirardi. Undan narida, boshqa deraza oldida bir chol jurnal o'qishga mukasidan berilgan edi. Uning yelkasiga tashlab olgan yengsiz kiyimi rezina singdirilgan yoqasiga qadalgan edi. Shunda qilich osgan yosh gusar zobiti o'z xonimini qo'ltiqlab kirib keladi... Xonimning shlyapasi sal bo'lmasa aeroplan kabi katta edi. Darbonga paltosini topshirgan zobit joy topa olmadi, hamma stollar band qilingan edi... Birdan uning ko'zi yosh harbiy kishiga tushadi. Zobit tezda oldiga borib, tik turadi. Talaba boshliq oldida qaddini rostlaydi, zobitning xonimi esa o'zini to'la haqli his etgani bois uning o'rniga o'tirib oladi.

– Qarang, peshlavhada nima yozilgan, ko'rmayapsizmi? Kafedan chiqib keting! – zobit peshlavhani ko'rsatadi.

Lekin u peshlavhani ko'rsatgan qo'lini tushirmasdan to'satdan ovoz yangraydi:

– Kornet¹, bu yoqqa marhamat qiling!

Hamma burilib qaraydi. Yelkasiga tashlab olingan kiyimli kamtarin chol o'rniga harbiy akademiyaning professori, general Dragomirov o'tirardi.

Kornet o'zining xonimini tashlab, generalning oldiga yugurib bordi.

– Kafeni tark etishga harakat qiling, siz faqat mening ruxsatim bilan joy olishingiz mumkin. Mansabi past bo'lganga izn berdim. Boring!

O'sal bo'lgan kornet qilichini olib, shosha-pisha chiqish joyiga qarab yugurdi. Yosh harbiy yigit esa o'zining ulkan deraza yonidagi joyini egalladi.

Bir yildan so'ng, aynan 1905-yil 25-sentabrda bu oynavand deraza tutday to'kildi. Shu kuni ro'y bergan bu voqea ham butun Moskvani larzaga solgan edi.

¹ Kornet – otliq askar ofitserlarining eng kichik unvoni.

Bu poytaxt markazida ishchilarning birinchi inqilobiy chiqishi va birinchi qurolli otishmasi edi, boz ustiga general-gubernator uyi yonida!

1905-yil sentabri o'rtasida Moskva notinch edi, ish tashlashlar davom etar, ishchilarning talabi butunlay qat'iy tus ola boshladi.

Shanba kuni, 24-sentabrda D.I. Filippov oldiga ishchilardan vakillar kelib, yakshanba kuni ish tashlashga qaror qilishganini aytishdi. Ertalab soat 10.00 da doimgidek bayramda ishchilar to'da bo'lib, darvoza oldida turishardi. Hamma yoq tinch, osoyishta edi. To'satdan soat o'n birga yaqin mutlaqo kutilmaganda chiqish zinapoyalarida Glinishevskiy muyulishidan bir vzvod mirshablar qilichlarini yalang'ochlab chiqib kelishdi. Ular darhol yashirin eshik orqali hibsonaga kirib, hovlida paydo bo'lishdi.

– Politsiyachilar, jo'nab qol!

Birdan toshbo'ron boshlandi. Fabrika korpusidan butilka va g'ishtlarni uloqtirishdi. Politsiyachilarni quvib yuborishdi.

Hamma tinchlanib qoldi. Birdan uy oldida politsmeyster jandarm va kazaklar hamrohligida paydo bo'ldi-yu, Glinishevskiy muyulishiga qarab shoshildilar, so'ng kutilmaganda, besh qavatli binoning yuqorisiga qarab, ikki marta to'pdan o'q uzishdi. Bunda shaxsiy uylar nishonga olingan edi. Fabrikaning korpusidan g'isht olib, ularni derazadan uloqtirishardi. Mirshablarning xabar berishiga qaraganda, hatto o'q uzishgan (bu ularni oldinga qarab chopishga majbur etgan,) shunda hovli ichida bo'lishgan.

Shishalar uchgan... Shuvoqlar ko'chgan... Tinch aholi – uyda turganlar vahimaga tushgan. Politsiya boshlig'i bir rota askarlarni kafega boshlab kirdi va bolta hamda lomlarni talab qildi – ular aslida bo'lmagan barrikadalarni yakson qilish uchun zarur edi. So'ng askarlarni hovliga olib chiqib, barcha ishchilarni o'z huzuriga chaqirishni buyuradi. Agar kelishmasa, ularga o'q uzishni aytib ogohlantirdi. Us-taxonalarga politsiyachilar jo'natildi. Askarlar oshxonada ovqatlanayotganlar, yotoqxonalardan esa dam olayotganlarni olishdi. Hovliga ishchilar, bolalar, qorovullar va supuruvchi farroshlarni haydab kiritishdi, ammo politsiya katta xizmatchilarga ishonmadi, hamma ham chiqmagan, deb o'yladi. So'ng fabrika korpusining yettinchi qavatiga o'q uzishga buyruq berdi...

Ikki yuzga yaqin ishchini konvoylar qurshovida Gnezdikov burilishiga olib borishdi. U yerda qo'riqlash bo'limi va shahar boshlig'ining katta hovlisi va darvozasi joylashgan edi.

Soat to'rtga yaqin politsiya hamrohligida Filippovning idorasiga uch nafar o'smir ishchi boshini bint bilan o'ragan holda kirib keldi, bu yaradorlar ortidan yana va yana ishchilar kelishdi. Ularning aytishicha, yo'lda konvoy bilan borishda va shahar boshlig'ining uyi hovlisida kaltaklanishgan. Ayrim kaltaklangan kishilarni, hatto tez yordam karetaalarida kasalxonaga olib ketishgan ekan.

Ro'y bergan hodisadan esankiragan moskvaliklar Leontev muylushiga talpindilar. U Tverskiydan politsiya qurshovi tufayli ajratilgan edi. Filippov bulkaxonasi burchagining qarshi ayvonida, shundoq yopiq eshikning zinasida Leon Embo ning sobiq sartaroshxonasi oldida hangomatalab odamlar to'dasi g'uj bo'lib turar, ular qayerga borishni bilmasdi: muyulishdan o'tib bo'lmaydi, tiqilinch, ur-yiqit, Tverskiyda esa politsiya va askarlar. Zinapoyaning yuqorisida, shundoq eshik yonida qorachadan kelgan chiroyli yigit oqargan mo'ylovlarini burab, xotirjamlik bilan o'ziga beixtiyor diqqatni tortib turardi.

Bu Jyul edi. Unga nigoh tashlash bilan Nekrasovning «Rus ayollari» poemasiidagi misralar esga keldi:

*Xalq tentirar, xalq anqayar,
Yuzdan biri buni anglarmi?
Bunda nelar yuz berar azal,
Mo'ylov osti kuladi zimdan...
Unga tanish farang to'foni,
Poytaxtdagi ayyor quvg'indi.*

Jyul parijlik, u Parij Kommunasini janglarini eslaydi, Leon Embo qo'li ostida bosh usta bo'lib ishlagan, knyaz V.A. Dolgorukovning «Saroy» sartaroshi bo'lgan.

Leon Embo o'rta bo'yli fransuz yigiti bo'lib, yumshoq, nozik mo'ylovli, Parijning so'nggi urfiga monand po'rim kiyinar edi. U har kuni knyazning ajinlarini tekislab tortar, butunlay tepakal bo'lib qolgan boshiga parik kiygizar, sochlariga soch ular, yashargan qariyaning mo'ylovlarini gajak qilib burar edi.

Seans paytida u knyazni chaqirib, quloq-maynasini teshguday bo'lar, poytaxtdagi barcha g'iybatlarni yetkazar, aynan shu vaqtning o'zida yirik ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'lar, shuning uchun Moskvada ta'siri kuchli odamlardan biriga aylangan edi. O'z sartaoshini yaxshi ko'rgan poytaxtning qudratli xo'jayini orqali u ko'p narsaga erishishi mumkin edi.

Embo chet elga safarga ketganida, o'rmini yo Orlov yoki Rozanov egallardi. Ular ham kekxa knyazning saxovatiga sazovor va imkoniyatni qo'ldan bermasdilar. Sartaroshxona general-gubernatorning uyi qarshisida, «Drezden» mehmonxonasi ostida joylashgan bo'lib, ustalar ham fransuzlar edi va o'sha paytda bu Moskvada urfga aylangandi.

Poytaxtdagi eng yaxshi sartaoshxonalarining deyarli yarmini fransuzlar egallagan va bu dargohlar taralabedod savdogarlarning bilim yurtiga aylangan edi.

G'arb madaniyati bizda qadimdan boshlab sartaoshlar hamda urfga muvofiq tikuvchilar orqali singgan edi. Va «Bordolik fransuz Tagankadan kelgan biror Lyonka yoki Seryonka yonida aylanib, girdikapalak bo'lishga urinar, qandaydir egilib, bukilar, kichik jingalak qilib burar va qichqirar edi:

– Kish-kina!.. Qisqich!..

Bola darhol unga issiq qisqichni uzatadi. Lyonka va Seryonka atirga cho'milganday bo'lib, burnini kavlaydi-yu, ikkalasi ham jo'r bo'lib, murojaat qiladi:

– Sen meni shunday tarab qo'yki, dadajonsiz a-lya kapul, dadajonning oldida esa ruscha turmaklanish bo'lsin.

Bu yerda ular ustalarning uslubi, soch turmaklari hamda zamoskvovreslik kelinlar, yarovlik qo'shiqchilarni shaydo qiladigan darajada yasantirishga urindilar, shu tariqa yaxshi uslubga erishdilar.

Birinchi navli sartaoshlar eng yaxshi parijlik sartaoshlarga taqlid qilib, ulardan namuna olishardi. Hamma ishlari chet elnikiga o'xshar, eng yaxshi materialdan foydalanilardi. Atir-upa London va Parijdan, moda jurnallari oshig'ich ravishda Parijdan keltirilardi... Ayollar zaliga soch turmaklari bo'yicha buyuk rassomlar, ijodiy sartaoshlik fantaziyasiga ega odamlar, uslub bilimdonlari, ajoyib ruhshunos va vaysaqilar kelishardi.

Modaga ega bo'lgan xonimlar, yasharib ketgan savdogar ayollar hamda millioner kelinlarning alohida xonalarida ular ko'pgina sirlardan voqif bo'lib, sir saqlashni uddalay olardilar...

Bu xonadonlardagi oqsochlar bilan do'st bo'lib olishar va xizmatkor xotinlar o'z bekalari, xo'jayinlariga bog'liq barcha g'iybatlarni to'kib solishardi... Ular barcha yangiliklardan xabardor va mijozlarining boshdan oyoq sirlaridan voqif bo'lib, bu haqda kimga aytish, kimlar oldida o'zini qanday tutishni yaxshi bilishardi... Boz ustiga, kuzatuvchan va o'tkir aql egasi edi ular...

Shundaylardan biri, xuddi boshqalar kabi qisqichlarni uzatish bo'yicha ish boshlamoqchi bo'lgan kishi tahririyatlardan birida o'zining kundaligini qoldirdi, unda o'ziga xos ajoyib qaydlar bor edi. Masalan, «buduar» so'zini u «bluduar» deb yozgandi. Shuningdek, «kelin» so'zini ajratib yozardi. Bu grammatik xatoni o'ziga ko'rsatganda:

– Shunday yozsa, to'g'riroq bo'ladi, – dedi.

Bu kundalikda Moskvada bo'lgan birinchi «elektrik» bal bayon etilgan edi. Voqea saksoninchi yillarning yarmida ro'y bergan. Birinchi elektr bilan yoritish yosh millioner bevaning savdo uyida bo'lgan va elektr yoritish bilan belgilangan edi.

Hashamatli saroyning ko'plab xonalari va imkoniyati bo'lgan qulay burchaklarda turli rang – dvoryandan savdogargacha to'plangan edi.

Kundalik muallifi balda ishtirok etgan, albatta, o'zining barcha do'stlari, xizmatkorlari, bekaning alohida xonasida bal oldidan grim qilingan, bekaning o'zi boshqacha yasangan edi.

U ajoyib edi, lekin butun moskvalik olifta, satanglar marvaridga belanganicha raqs zalining elektr yorug'ligida mudhish bo'yalgan qo'g'irchoqlarga o'xshab ko'rinar va mehmonlar ham sun'iy ravishda qimmat sharoblar ta'siri ostida alvon tusga kirgandilar. Sohibjamol beka, faqat u yuzining haqiqiy rangi bilan ko'zga tashlanar edi.

«Ermitaj»dan mashhur Mariusning o'zi tayyorlagan kechki ovqatga qadar rosa raqsqa tushdilar.

Oshxonadagi binafsharang yorug'lik tufayli barcha basharalar o'lik tusga kirdi va mehmonlar yuzlariga sun'iy ravishda alvon rang kiritish maqsadida qimmatbaho vinoni mo'l-ko'l iste'mol qilishga kirishdilar. Qanday bo'lmasin kechki ovqat quvnoq, shovqin-suron ichida o'tdi va birdan... elektr o'chib qoldi!

Oradan besh daqiqa o'tgach, yana yondi... Janjal! Kimdir stol tagiga kiradi... Kimdir stol ostidan chiqib keladi. Turli holatlarda yoritilgan edi... Xonimlarni aytmaysizmi!

– Shu paytgacha ulardan biri, – deb hikoya qildi menga kundalik muallifi va bu voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan guvoh, – o‘shanda ham unchalik yosh emasdi-yu, endi butunlay kampirga aylangan edi. Men har yakshanba kuni unga ulama soch yopishtirishga harakat qilaman, har safar o‘zining alohida xonasida bu kecha to‘g‘risida kula-kula gapirib beradi... «Endi buni unutish payti keldi», – dedim unga bir kuni. «Senga nima bo‘lgan o‘zi?.. Yaxshi narsani ortiqcha eslab turish yoqimli-ku!»

Moda bo‘yicha sartaroshlar Parijga xos hashamat, zeb-ziynatni oltmishinchi yillarda avjiga chiqardilar, krepostnoy huquqi bekor qilingandan so‘ng yer uchun hamda tirik odamlarni sotib olishning barcha yo‘l-yo‘riqlarini o‘zlashtirib, maishatga berilib ketishdi. Moskva hamma tomondan hashamatga berildi va Parijdan fransuz sartaroshlar suqilib kirib kela boshlashdi, ortidan ruslar fransuzlashdi va qandaydir sartarosh Yelizar Baranov Yamskda do‘koni peshtaxtasini yangilashga ulgurmagan edi: «Sartaroshxona. Zuluk qo‘yiladi, qon olinadi va Baranov soch-soqol, mo‘ylov oladi», – deb yozib qo‘yilgan edi. Uning o‘zi esa echkisoqol qo‘yib, o‘stirib yuborgan va Nojev tarmog‘idan yollagan sarkorini burab, qichqirardi:

– Bolakay, qisqichni uzat! Tezroq bo‘l, iblis!

Va hamma minnatdor. Bungacha birinchi bo‘lib Moxovoydagi parijlik sartarosh Givartovskiy gullab-yashnadi. Uning izidan Prechistenkada yashagan Glazov chiqdi va darrov mijozlari tufayli boyib ketdi, chunki Moskvaning dvoryan hududlaridan aslzodalarni jalb qilgan edi. U o‘nlab uylarni sotib olgan, shu bois tor ko‘cha ham Glazovskiy deb atalardi.

Ulardan eng yaxshisi Gazeta tor ko‘chasidagi Uspenskiy cherkovi bilan yonma-yon joylashgan Agapovniki hisoblanardi. Oldin ham, keyin ham unga o‘xshashi bo‘lmagan. Katta ballar uyushtiriladigan paytlarda uning uyi yonidagi tor ko‘chadan aslo o‘tib bo‘lmasdi: karetalar ikki qator tizilgan, ikki otliq jandarm tartibni saqlash va kucherlarni chaqirish bilan mashg‘ul edi.

Agapov barcha fransuzlarning qonini qaynatar, jig‘iga tekkan edi: to‘qqiz nafar xonimga xizmat ko‘rsatadigan birinchi toifali ustalar har kuni o‘n besh-yigirmata uyga kirib chiqishardi. Agapovning mijozlari faqat asl dvoryanlar, knyazlar, graflardan iborat edi.

Oltmishinchi yillarda shinon, ya'ni sochlar orqaga turmaklab qo'yilardi. Ulama sochlar hamda zulflar, hurpayib turgan sochlardan «savlatli» yasatish shu yillarda rasm bo'lgan edi.

Sartaroshlik ishi saksoninchi yillarda gullab-yashnadi. Shunda yasama sochlardan turmaklar, oldingi tomondan ulama sochlar, keyin bosh atrofiga chirmashib turadigan sochlardan «transformation» qilish kirib keldi, ularning barchasi eng yaxshi, haqiqiy sochlardan amalga oshirilardi.

O'shanda eng yaxshi bo'yaladigan sochlar ruslarniki, eng qimmatlari fransuzlarniki bo'lgan. Pullarni ayamasdilar. Sochlarni qo'lga kiritish uchun qishloqlarda «kesuvchi» kishilar yurar, ular dehqon qizlaridan tasmalar, dastro'mollar, uzuk, bilaguzuklar hamda mayda chaqa turadigan arzon narsalar berib, sochlarni xarid qilishardi.

Soch turmaklari turli uslubda edi. Eng ko'p rasm bo'lgani: «Yekaterina II» va «Lyudovik XV va XVI lar» edi.

Aleksandr II o'ldirilgach, 1881-yil mart oyidan so'ng moskvalik barcha dvoryanlar motam yilini o'tkazishdi va sartaroshlar ularda ishlamadilar. Oqsuyak, aslzodalarga xizmat ko'rsatadigan sartaroshlar bu muddat davomida motamda edi. 1885-yildan boshlab fransuzlar butunlay rus ustalarini egallab olishdi, ayniqsa, Teodor usuli urfga kirib, ishi avj olgan edi...

Ammo shunga qaramasdan, fransuzlar qanchalik hashamatli bo'lmasin, rus sartaroshlaridan Agapov va Andreyev (oxirigisi 1880-yildan boshlab) o'z ishining mohir musavvirlari sifatida birinchi o'rinni egallashdi. Andreyev, hatto Parijda sartaroshlik bo'yicha professor unvoni hamda bir qator mukofot va faxriy diplomlarga sazovor bo'ldi. Gazeta tor ko'chasida yana sartarosh Bazil dong qozongan edi. Hamma uni fransuz deb o'ylagandi, aslida esa moskvalik faxriy Vasiliy Ivanovich Yakovlev edi.

* * *

Modaga muvofiq ishlaydigan sartaroshlar juda yaxshi pul topardilar: hech qanaqa qat'iy narx yo'q edi.

– Qirqishadi, kesishadi va cho'ntakni isitishadi! – deb qochirim qilishardi fransuz sartaroshlari to'g'risida.

Bunga Strastnoy bulvarida erkaklar uchun keng-mo'1 zal ochgan Artemev nuqta qo'ydi. U shunday e'lon yozdirgan edi: «Soch-soqol olish o'n tiyin, odekolon sepiladi. Ustalar choychaqa olishmaydi». O'rta toifadagi odamlar Artemevning sartaoshxonasini to'ldirib yuborishadi. U shu bilan birga «Zuluk deposi» ham ochdi.

O'sha paytda Moskvada yagona «zuluk deposi» mavjud bo'lib, yarim asrdan ko'proq vaqt Strastnoy monastiriga yondosh kichkina ola-bula uyda joylashgan edi. Derazalarida turli o'lchamdagi zuluklar solingan katta-katta akvariumlar turar, o'ynab yurgan bolalar uchun u ermak edi. Zuluklarni qayerdandir janub tomondan olishar va «depo»ga kasalxona, feldsher va markazdan ancha uzoq sartaoshxonalar uchun berilar, ularda sartaoshlar hanuz zuluk qo'yish bilan mashg'ul bo'lishardi. «Depo» esa Molodsov degan kishiga tegishli bo'lib, uning oilasidan oltmishinchi-yetmishinchi yillarda mashhur tenor qo'shiqchisi P.A. Molodsov chiqqan edi. O'sha vaqtda u eng yaxshi Toropka deb yuritilardi. U bu rolni Bolshoy teatrdan muvaffaqiyatli o'ynagan edi, ammo amaldorlardan biri bilan janjallashib qolib, u yerdan qishloqqa ketdi va katta obro'-e'tibor qozondi.

– Petrushka, sen nima uchun Moskvadagi imperator teatrini Tambovdagisi bilan almashtirding? – deb so'radi uning do'stlari.

– Zuluklar tufayli! – javob berdi u.

Shunday ulug' mohir kishilar bor ediki, ular ayollar sochini had-dan ziyod mahorat bilan turmaklar edilar, lekin erkak sartaoshlari orasida ham oliy mahoratlilari bor edi. Ayniqsa, mo'ylovni mohirona oladiganlar orasida Lipunsov va To'ng'ich Nikitskiy, so'ng hali yosh bo'lgan Lyagin, uning ustozlari Nikolay Andreyevichlar dong taratgan edi.

Lyagin huzuriga doimo keksa aktyorlar kelishar, Dalmatov esa uni «mening do'stim» derdi.

1879-yili Penzada teatr sartaoshi Shishkovning bir shogirdi bo'lib, uni Mitya deb atashardi. Bu penzalik teatr va sirk sohibi V.P. Dalmatovning sevimli kishisi edi, faqat yagona unga sochlariga tegishga ruxsat berar va grimmi o'rgatar edi. Bir marta V.P. Dalmatov o'z benefisiga atab «Telba odamning kundaligi» asarini sahnaga qo'ydi va Mityaga tepakal kishining parigini tayyorlashni buyurdi. U spektaklga buqaning ho'l pufagini olib kelib, Dalmatovning oro

berilgan turmagini taray boshladi... Aktyorning baqirig'iga pardoznaga artistlar yugurib kirishdi.

– Siz buyuk artistsiz, Vasiliy Panteleymonovich, lekin menga o'z ishimning artisti bo'lishga izn bering! – novcha V.P. Dalmatovning boshini baland ko'tarib, o'zini oqlardi bolakay. – Faqat bir marta ki-yib, sinab ko'ring!

V.P. Dalmatov nihoyat rozi bo'ldi, bir necha daqiqadan so'ng pu-fakni tortib ko'tardi, qayeridir moylandi. V.P. Dalmatovning ko'zlari mamnunlikdan charaqlab ketdi: uning mutlaqo yalang'och kallasi jonli grimda kuchli taassurot qoldirgan edi. Va hozir ham Moskvada soqoli toza qirilgan va tetik sakson yashar chol hamon mehnat qilmoqda.

– Men hammasini – dard-g'amni ham, shon-shuhratni ham ko'rdim, lekin doimo ishlab, ter to'kdim, hozir ham kuchim yetganicha ishlayapman, – deydi u o'zining mijozlariga.

Men Kaluga guberniyasida krepostnoy edim. 1861-yilda bizga erkinlik berishgach, Moskvaga yo'l oldim – uyda yegulik yo'q edi; hamshaharimga qorovul bo'lib ishga kirdim, u meni sartarosh Artyomovga olib keldi. Artyomov Sretenkadagi Malyushinning uyida turardi. Men polda yotar, yirtiq-yamoq po'stin kiyardim, boshim ta-giga kunda qo'yardim. Qishda sartaroshxona sovuq edi. Bizga sochi-ni qirdirish uchun xalq Suxaryovkadan kelardi. Ertalab soat beshdan beka uyg'otib, suv keltirish uchun basseyn, Suxaryovka yoki Truba degan joyga jo'natardi. Qishda ikki qo'sh quloqli chelakda chana bilan, yozda paqirlarni obkash bilan tashishga to'g'ri kelgan... Po-yafzalim xo'jayinning titig'i chiqib ketgan eski etigi edi. Samovar qo'lasan... Xo'jayinning etigini tozalaysan. Qo'shni hovli qudug'idan idish-tovoqni yuvish uchun suv olib kelasan.

Xo'jayinlar soat yettida choy ichgani turishadi. Ikkalasi ham o'lgu-day serjahl. Xo'jayin sil kasaliga yo'liqqan edi. Nimadir ma'qul tush-masa, qo'llariga tushgan narsa bilan urishardi. Skameykaga bog'lab, orqaga xipchin bilan savalardilar. Bir safar shunday kaltaklanishdan so'ng ikki oy kasalxonada yotganman – yelkam shishib, yara bosib ketgan edi... Bir marta qishda ko'chaga haydab chiqarishdi, eshikni berkitib olishdi. Uch oy kasalxonada isitmalab yotganman...

Soat o'nda ishga kirishardim, parik yasardim, sochlarni bittalab ulardim: bir kunda o'ttizta shunday soch donasidan uch qator yasa-

shim asosiy mashg'ulotim edi. Bir marta ish paytida uxlab qolganman, sochning farqini buzganman va buning uchun qattiq jazolandim. Ustamiz aroqxo'r edi, u ham'meni urardi. Bir gal ustamizning maktubini kvartalga olib bordim. Uni shu maktubga ko'ra xivichlab savalardilar. O'sha paytda shunday qonunlar bor edi. Politsiyada ham xo'jayinning maktubiga ko'ra savalashardi. To'qqiz yildan so'ng men uning sartaroshxonasini tark etdim, usta yordamchisi degan unvon oldim. Agapovga shartnoma asosida usta bo'lib xizmat qildim, so'ng o'zimning sartaroshxonamni ochib, ishlay boshladim. Keyin Parijda professor unvoniga sazovor bo'ldim.

Bu Ivan Andreyevich Andreyev edi.

U 1888 va 1900-yillarda Parijdagi fransuz sartaroshlari tanlovida qatnashdi va sochlarni turmaklash bo'yicha bir qator mukofotlar hamda «Sartaroshlik san'atida xizmat ko'rsatgan haqiqiy professor» unvoni faxriy diplomini oldi.

1910-yilda Ivan Andreyev keyingi yarim asr davomida soch turmaklari bo'yicha mashhur qilgan yuzta suratni o'z ichiga olgan kitobni nashr ettirdi.





IKKI TO‘GARAK

Moskva artistlik to‘garagiga oltmishinchi yillarda asos solingan va u saksoninchi yillarning boshida faoliyatini to‘xtatdi. To‘garak ulkan sobiq Golitsin saroyining yuqori qavatini egallagan bo‘lib, bu saroyni savdogar Bronikov qirqinchi yillarda sotib olgan edi. To‘garakka qator zal va mehmonxonalar mansub bo‘lib, bir tomondan, Katta Dmitrovning bahaybat derazalari bilan doira tashkil qilgan, boshqa tarafdin, Teatr maydonini ishg‘ol qilgan Golitsin zali derazalari Oxotniy ryadga qaragan edi.

O‘shanda uyning qarama-qarshi tomonini sahna va tomosha zali band etgan, bir qismi shu asr boshlarida ro‘y bergan yong‘indan so‘ng qayta qurilgan edi.

Hashamatli doira mehmonxonalarni o‘zaro birlashtirar, bir necha mo‘jaz xizmat xonalari derazasiz, xuddi orolcha kabi yopiq devorlardan iborat, uning atrofida aylana foye joylashgan edi. Ko‘pchilikning eng sevimli sayr qiladigan joyi doimo oq zal bo‘lib, u yumshoq mebel va qalay burchakdan iborat edi.

Buyuk post (ya‘ni, ro‘za) munosabati bilan bu foye mutlaqo o‘zgacha omma bilan to‘ldi. Ular viloyatlar aktyorlaridan iborat bo‘lib, bo‘ljak mavsumda teatr sohiblari bilan shartlarni kelishish maqsadida turli qishloqlardan kelishgandi.

Yarqirab tovlangan parketlar ustida jimjimador kostyumlarda birinchi «personajlar» va yupun kiyingan kichik aktyorlar, xorda ish-tirok etadigan erkak va ayollar aylanib yurishardi. Ular poytaxt va qishloq sahnasidagi buyuklar hamda shahar va shaharchalarda truppa tashkil etish uchun kelgan sersavlat, tilla zanjir, uzuk taqqan sahna sohiblari, ya‘ni anteprenlar bilan aralashib ketgandi.

Ulug‘ aktyorlar unchalik savlat to‘kishmas, kichkinalari ham o‘zini past tutib xushomadgo‘ylik qilmasdi. Bu yerda hamma o‘zini

oddiy tutar edi: Hamlet va go'rkov, Pikkilla va Axilla, Mariya Styuart va chilangar qiz Poshlepkina. Esda qolgan mavsumlar Pinskda, Minskda, Xvalinskda va Irkutskda o'tgan edi.

Barcha aktyorlar va aktrisarlar To'garakka bepul kirish huquqiga ega edi, chunki bu ular uchun zarur: ushbu maskan ularning teatr sohiblari bilan uchrashadigan yagona joyi edi.

Yildan yilga aktyorlik ishi sevimli mehmonxonalardan joy topa boshladi, ularni mebellar bilan ta'minlashar, mehmonxona sohiblari joy tayyorlab, ogohlantiruvchi xatlar bilan murojaat qilishar, vaholaniki o'sha paytlarda bu ancha ortiqcha ish edi; bo'sh nomerlar yetarlicha va, ayniqsa «Chelishi» mehmonxonasida ancha ko'p edi.

Endi esa bu «Chelishi» o'rnida ulkan «Metropol» mehmonxona binosi qad ko'targan, Vrubelning turli-tuman rangdagi devoriy suratları va «Malika Greza»si, arxitektor Shextelga «Metropol»ning quruvchisi S.I. Mamontov yordam bergan edi. O'tgan asrning oxirida bu yerda Chelishevning eski uyi bo'lib, u Moskvaga turli joylardan Buyuk Post tufayli kelgan aktyorlar bilan to'lib-toshgan, joylar belgilangan narxlarga muvofiq bo'lardi. «Chelishi»da boloxonadan derazali, gilam to'shalgan, og'ir darpardalar osilgan nomerni band qilgan mashhurlar va tor, qing'ir, qorong'i yo'laklar, kerosin va oshxona hidi anqib turgan yuqori qavatni egallagan o'rta aktyorlik jamoasi ham bo'lardi.

Postning ikkinchi yarmidan boshlab ko'pgina kishilar boloxonadan yuqoriga... yanada arzonrog'iga o'tdilar.

Aktyorlarning ikkinchi maskani Golyashkin nomerlari edi, keyin Falsveynniki bo'lib, Tverskiy hamda Gazeta tor ko'chasida joylashgan edi. Undan unchalik uzoq bo'lmagan joyda, Gazeta hamda Dolgorukov tor ko'chalarida «Shahzoda», «Kavkaz» va boshqalar joy olgandi. Endi bu uylar yo'q, o'rnida telegraf binosi joylashgan.

«Chernishi» ancha-muncha sevimli joylar bo'lib, Bryusov tor ko'chasining ro'parasidagi Olsufyev uyida joylashgan edi.

Shuningdek, yana Katta Dmitrovka, Petrovkada aktyorlik nomerlari bor edi. Bundan tashqari Xitoy hammomida, Neglinniyda ham nomerlar bo'lib, anchagina arzon mebellar bilan jihozlangan «Semyonovna» mavjud va u Sretenskiy bulvarida edi. O'sha yerda, 1896-yili «Rossiya» sug'urta jamiyatining ulkan uyi qurilgan edi.

«Semyonovka»ga yashovchilarni iti bilan ruxsat berishardi. Bu yerda eng asosiysi, viloyatlardan komik kampilrlar Buyuk Post paytida kelishardi.

Dastlab «Chelishi»da, soʻng «Semyonovna»da turgan aktyorlar postning birinchi haftasida quvnoq yashadilar. Ularda aroq, pivo isteʼmol qilinar, samovar qaynar, shovqin-suronli suhbatlar davom etardi... Chorak vaqtdan soʻng tinchib qolishardi. Nomerlar asta-sekin boʻshar, kimdir qishloqqa ketar, boshqa biron joy olar, kimdir oʻrtogʻi bilan bir nomerga joylashardi. Kerosinkani qizdirishga kirishar edilar: kimdir hammadan oldin restoranda ovqatlanar, ayrimlari uyda taom tayyorlar, ayniqsa oilalilar shunday qilar edi.

Kerosinka necha bor odamlar taqdirini hal qilgan. Aytaylik, akt-risa A. ning kerosinkasi bor. Qoʻshni nomerdagi aktyor B. restoranda ovqatlanib yashaydi. Ular yoʻlakda tasodifan suhbatlashib qolishdi, bir boʻlak goʻshtni kerosinkada qovurib olishga ruxsat soʻraldi... Boshqa safar ham shunday boʻldi...

– Men ham kerosinkani sotib olmoqchiman! U juda qulay! – deydi aktyor B.

– Nima keragi bor, axir menda bor-ku! – deb javob beradi akt-risa A.

Bir necha kunlar oʻtadi.

– Nomerga bekordan bekor pul toʻlashning nima keragi bor! Kerosinkangni mening nomerimga olib kirgin... Xonam kattaroq!

Shunday qilib, iqtisodiy asosda baxtli nikoh tuziladi.

Aktyorlar teatr sohiblari bilan «Sherbak» restoranida koʻrishalishardi. Bu Kuznetskiy tor koʻchasidagi Petrovkada edi. «Livorno» esa Kuznetskiy burchagidagi tor koʻchada va «Velde» Bolshoy teatr orqasida; faqat aktrisalar uchun Toʻgarakdan tashqari boshqa joy yoʻq edi. Bu yerda ular teatr egalari, sahnadosh doʻstlari bilan uchrashar, teatrga kontramarka (tomosha joylariga kirish uchun chipta oʻrnida pulsiz beriladigan qogʻoz, talon) olishlari hamda oʻzlarining dramaturglari bilan yuzma-yuz uchrashishlari mumkin edi: bular Ostrovskiy, Chayev, Potexin, Yuryev edi, vaholanki, ularni faqat asarlari bilan tanish edilar. Shuningdek, poytaxtning mashhur aktyorlari – Samarin, Shumskiy, Sadovskiy, Lenskoy, Muzilya, Gorbunov, Kireyevni uchratish mumkin edi. Viloyat aktyorlariga faqat Buyuk Post paytida pyesalarda oʻynashga ruxsat etilar, ular bu imkoniyatdan Toʻgarak

sahnasida foydalanishardi. To‘garak qonunlarni chiroyli tarzda aylanib o‘tar, taqiqlangan spektakllar bayram arafasi va shanba kunlarida namoyish qilinardi. To‘garak general-gubernatori knyaz Dolgorukovning ruxsati bilan qo‘yilar, chunki u Peterburgga bo‘ysunmay, o‘zini kuchli deb hisoblardi. Spektakllar post, ya‘ni ro‘za paytlari hamda shanba kunlari qo‘yilar, ammo afishalarda «Makbet» fojiasidan, «Revizor» komediyasidan sahnalar yoki «Go‘zal Yelena» operetta sahnalari deb ko‘rsatilishi lozim edi, vaholanki pyesalar butunlay to‘liq namoyish etilar edi.

Adabiy-badiiy to‘garak butunlay tasodifga asoslangan, Sofiyadagi «Alp atirguli» deb nomlangan nemis restorani unga tamal toshi bo‘lgan edi.

Restoranga kirish qat‘iy talablarga asoslangan: zinapoyalarga gilamlar to‘shalgan, ichida tropik o‘simliklar qo‘yilgan, pastda darbonlar bo‘lib, moskvalik nemislar o‘z idoralaridan chiqib, nonushta qilish uchun bu yerga kirar edilar. Spektakllardan so‘ng Bolshoy va Maliy teatr aktrisalari to‘planishar va uncha katta bo‘lmagan ikkita kabinetga joylashardilar. Ulardan biriga qo‘shiqchi A.I. Barsal, boshqasiga esa adabiyotchi, teatr tarixchisi V.A. Mixaylovskiy raislik qilardi. Ikkalasi ham yopilgan Artistlar to‘garagining sobiq qatnashuvchilari edi.

Ba‘zi-ba‘zida bu birlashgan artistlik dunyosini eslab turish maqsadida V.A. Mixaylovskiy kechki maxsus ziyofatlarni uyushtirish kerakligini taklif qildi. Boshlanishiga yaqin shanbada Katta Moskva mehmonxonasida to‘planish tavsiya etildi. Bu fikr bir ovozdan qabul qilindi, shu bois o‘n ikki nafar artist o‘z oilasi bilan tashrif buyurdi. Vaqtni quvnoq o‘tkazishdi, qo‘shiq kuyladilar, royal kuylari ostida raqsga tushdilar. Darhol kelgusi oqshom uchun yozdirib qo‘ydilar, istovchilar shunchalik ko‘p ediki, bu mehmonxonadan zalni olishga to‘g‘ri keldi. M.N. Yermolova she‘r o‘qidi, Xoxlov qo‘shiq aytdi. Brondukov violonchel chaldi. Dastur boy, rang-barang edi. Va 1898-yili «Ermitaj» restoranida ta‘sis yig‘ilishi bo‘lib, uning nizomi ishlab chiqildi, 1899-yil oktabr oyida Pushkin tavalludining yuz yilligida Vozdvijenskda grafinya Ignatyeva uyida adabiy-badiiy to‘garak ochildi.

Hashamatli mehmonxonalar, yumshoq mebellar, alohida stollar, uch tabaqali toshoynalar qo‘yilgan burchaklar, kamin, gilamlar, konsertda chalinadigan royal... Qulay, oshiqona... To‘garakning bu

oshiqonalik ruhi maftunkor edi. Bu yerga dam olish, kuch hamda ilhom olish uchun kelishar, qimmatli daqiqalarni boshdan kechirish, taassurotlarni baham ko'rish lozim edi. Iste'dodlarni eshitish va tomosha qilish, bular klub vaziyatiga aslo o'xshamasdi. Har bir ishtirokchi qachon chiqishini oxirgi daqiqalargacha bilmasdi. Umumiy kayfiyat ta'siri ostida oldingi ijrochidan so'ng ishtirokchilardan biri o'rnidan turib, o'zining stolida yo monolog, yo she'r o'qir, bordi-yu, qo'shiqchi yoki musiqachi bo'lsa, royal oldiga kelardi. Hali yosh, navqiron, tortinchoq va kamtarin, ehtiyotkorlik bilan stol orasidan o'tib keladigan Shalyapinning bardam bas ovozi guldirar edi:

Odamlar temir deb jon berar...

Keyin Sobinovning nazokatli mayin tenor ovozi maftun etardi. Ortidan boshqalari, o'sha kunlarning buyuklari turardi. O'sha paytda mashhur bo'lganlarning musiqalari yangrar edi... Skryabin, Igumnov, Koreshenko...

Koreshenko musiqasidan

Hovlida itlar ham ketadi hushdan, -

deb qochirim qilgandi o'shanda kimdir, ammo bu hol hech kimni, shu jumladan, yosh pianinochi bastakorni ham ranjitmagan edi.

Klubga keluvchilar tobora ko'payar, a'zolari kundan kun oshib borardi. A'zolari xonimlardan ham iborat yagona klub shu edi. Mehmonlar ko'pligi va a'zolari zichligidan Ignatyev zallari torlik qilib qoldi.

Myasniskiydan yangi boshpana izlay boshlashdi. Bunisi Furkasov burchagidagi chiroyli uy edi. O'z vaqtida u Pyotr I davrida Qosimov shahzodasiga tegishli bo'lib, keyin Dolgorukovga o'tgandi. 1734-yilda o'lgandan keyin (u Beryozovkada surgunda o'ldi) Chertkovga tegdi. Chertkov o'zining mashhur kutubxonasini shaharga in'om qilgach, nihoyat savdogar ayol Obidina Chertkovning merosxo'ri knyaz Gagarindan uni sotib oldi va To'garak ixtiyoriga berdi.

Bu maskan qimmat, xarajatlar ulkan edi, lekin shunga qaramay, a'zolari kuniga emas, soatiga qarab o'sardi. Haqiqiy a'zolikka o'tish uchun yangi atama yuzaga keldi: «jamoat arbobi». Bu faxrli va om-mabop bo'lib, ko'pincha barchasini o'z ichiga qamrab olardi. Ovoz

berish jadvalida: ... falon-falon jamoat arbobi, – deyilar, shu tariqa saylov ta'minlanardi. Musobaqaga kirishgan a'zolar butunlay oson, hech qanaqa stajsiz qabul qilinardi..

Lekin a'zolik badallari oz ekanligi ma'lum bo'ldi. Buning uchun yirik qarta o'yinini tashkil qilish zarur edi. Bu yerga saylangan Ovchilik klubi a'zolari yirik o'yin tashkil qilishga erishdilar va jarimaga tortilganlarga jarima to'latib, kassani to'ldirishga harakat qildilar. Jarimalar quyidagicha edi: tunda ikki soat bo'lish – 30 tiyin, 2 soatu 30 daqiqa – 90 tiyin, ya'ni asosiy mablag'ga ikki barobarga teng summa, 3 soatga 2 so'm 10 tiyin, 3 yarim soatga 4 so'm 50 tiyin, 4 soatga 9 so'm 30 tiyin, 5 soatga 18 so'm 60 tiyin, so'ng To'garak ertalab 6 da yopilar, o'yinchilar maskanni tark etishlari lozim edi, ammo ba'zan kunduz kuni ham davom etar va yana kechgacha cho'zilardi.

O'yin taqiqlangan edi, politsiya klubni nazorat qilar, shunday voqealar bo'ldiki, politsiya bayonnoma tuzib, «bu temir maskan» yopildi ham.

Bu masalani hal etish yugur-yugurlari boshlanib ketar, hatto klubni himoya qilish uchun maqolalar bosilib chiqqan, general-gubernatorga ko'z yoshi to'kib, o'yin zararli emas, balki bu muruvvat deb zorlanib, shikoyat qilishgacha borar, so'ng yangi bayonnomaga qadar yana o'ynayverardilar.

Bino tobora torlik qilib, qarta o'ynaydigan xonalar ham haddan ziyod ko'rinarli joyda edi.

Shu paytda Yeliseyev o'zining «Baxus saroyi»da hashamatli, shif-ti ganchkor joy ajratdi va uni To'garakka berdi. Bunda qulay, ko'ngil orzusiga mos «qarta o'yiniga xos» xonalar hamda yig'ilish, konsert, kechalar o'tkazish uchun zallar bor edi.

To'garak eng qulay urfdagi burjuaziya klubi bo'lib, Yeliseyev maskani ham torlik qilib qoldi. Reja ishlab chiqildi, unga muvofiq Katta Dmitrovkaga eski aslzodalar qasrini ajratishdi. Bu boloxonada ikki chiroqli ulkan zal yig'ilishlar, yubileylar, spektakllar, tantanali ziyofatlar, kechki ovqatlar hamda ikkilamchi «suhbatlar» uchun mo'ljallangan edi. Kechasi soat ikkida bo'ladimi, qachon bu zal bo'shalsa, sahna oldidagi stullar olinar, o'nta dumaloq stol qarta o'yini uchun surib kelinar va turli oshxonalar, har joylardan, mehmonxonalar hamda qarta o'yiniga mos xonalarda jazava ochiq-oydin avj olardi. Zal band bo'lgan paytda o'yin turli joylarda o'tkazilardi. Bu uch qa-

vatning barcha joyida qanchalik xonalar yo‘q edi, deysiz! Zaxiradagi oshxona, marmar oshxona, oynavand oshxona, yuqori katta zal, tepadagi mehmonxona, pastki mehmonxona, o‘quv zali, kutubxona (ta’kidlash kerakki, ajoyib) va portretxona, axir u direktor xonasi edi. Pastda bilyard zali joylashgan va agar joy tor bo‘lib qolsa, uyingning chap qanotidagi qarta o‘ynaladigan «qimorxona»dan alohida o‘rin ajratilardi. Yozgi oshxona uncha katta bo‘lmagan soya-salqin bog‘chada edi. U yerda ko‘plab kashtan hamda gullar bo‘lib, orasida elektr bilan yoritilgan suhbat o‘tkazish joylari bor edi. Unda quvnoq ulfatlar kechki ovqatni tanovul qilishardi. Bog‘ning butun uzunligiga mos, klub binosiga taqab qurilgan, ulkan balkonni eslatuvchi keng terrasa cho‘zilgan. Bu yerda har bir ulfatlar jamoasining o‘z sevimli stoli bor edi.

Poytaxtda bundan boshqa tinch va sokin, shinam, toza havo bilan to‘yingan, yam-yashil, dimoqqa xush yoqadigan gullar orasida joylashgan yana qanaqa maskan bor ekan! Ammo ba’zida sokinlik past devor bilan o‘ralgan qo‘shni binolar – Tverskiy politsiya qismi tomonidan buzilib turardi.

Asriy kashtanlar tepasida chinorlar yuksalib turar, unda qorovul gohida yong‘in to‘g‘risida tashvishli signallar berar, shundan so‘ng shovqin va yo‘lga tushgan o‘t o‘chirish jamoasining taqir-tuquri, mast-alastlarning so‘kinishi, baqiriq ovozlari yangrar, qaysar hamda bezorilarning qamoqdan chiqqandan keyin politsiyachilardan qasos olishga urinib, so‘kinib aytganlari quloqqa chalinardi.

Ba’zan gullarning xush tarovatini otxona yonidagi go‘ng to‘dasining qo‘lansa hidi, shu bilan birga o‘likxonaning ochiq derazalaridan doimo «kimga tegishli ekanligi noma’lufm bo‘lgan murdalar», ko‘chalarda ro‘y bergan jinoyatlar tufayli yorib ko‘rish lozim bo‘lgan jabrdiydalardan anqigan islar bosib ketardi... O‘likxona bog‘devori bilan butunlay tutashgan edi... Lekin bunga hamma shunchalik ko‘nikib ketgandiki, sira e’tibor berishmasdi.

Faqat bir marta «jamoat arboblari»ning stolida o‘tirganlardan biri vino kartochkasini tanlay turib, unda chop etilgan Pushkinning portretiga ko‘zi tushdi-yu, achchiqlanib dedi:

– Bu yerda Pushkinning nima keragi bor? Bu tahqirlash, oyoq osti qilish emasmi?

– Pushkin doimo hammaning ko‘z o‘ngida turadi. U buyuk sohib-bashorat... Go‘yo menga, sizga, ko‘p kishilarga, bu yerda o‘tirganlarga

tegishli bo'lgan so'zlarini eslang... Axir biz haqida shunday aytmaganmi:

*Zulm avj qilgan xarobalarda
Yozilajak bizning ismimiz!*

Gapirayotgan kishining yonidagi quvnoq kishi gapini to'ldiradi:
– Sizning nomingizni yozadimi, yo'qmi, lekin Pushkin to'g'ri aytgan, ya'ni:

*Qabr aro kirish joyida
Navqiron-yosh kechirar umr.*

U bir qo'li bilan o'likxonani, boshqasi bilan qimorbozlar qizg'in tortishayotgan, shovqin-suron bilan band bo'lgan qo'shni stolda o'tirganlarni ko'rsatdi.

Yuqoridagi suhbat 1917-yil avgustda ro'y bergan edi. Shunday klublar bor edi, so'ng allaqachon tobut ichiga kirdi».

Bir oydan so'ng To'garak butunlay yopildi.

Qimorxona yangi binosining ikki chiroqli zalini bo'shatishganda, yuqorida joylashgan oshxonadan kechki ovqatlarni, kechki yig'inlardan bo'shagan joylarga ko'chirishdi. Bu yerda guruhlar ovqatlanar, har biri o'z stoliga ega edi. Ayniqsa, yigirmata idish bilan jihozlangan uzun stol alohida ehtiromga sazovor edi. U «pivo uchun» deb nomlanar, chunki pivo stol atrofida o'tirganlarning sevimli ichimligi bo'lib, ular uchun pivoli mo'jaz bochkaga qo'yilar edi. Buning ustiga, stol «professorniki» va «direktorniki» degan ikkita nomga ega edi.

Doimiy boqibeg'amlar soat o'ndan keyin paydo bo'lishar va tanovul qilish uchun o'tirardilar. Birlari kechki ovqatni yeyishar, boshqasi vint, preferans kabi qarta turlarini o'ynar, uchinchi «qimor» o'ynar va jarimalar bilan To'garakning katta xarajatlarini yopar edilar.

1905-yil inqilobdan oldingi harorat tez ko'tarilayotganda, bu To'garakka «boshqa vaqtga qaraganda ancha yorqinroq aks etdi. Sahnadan yana kechagi kuni nimalar to'g'risida gapirolmaz edilar, deb boshlashdi. Qandaydir harakatlar va nutqlar uchun erkinlikka yo'l qo'yilgan edi.

Hammasiga ruxsat berilgan yoki yaxshisi, hech narsa man qilinmasdi. Reaksiyaning kuchayishi bilan estrada jimib qoldi, fohisha-

bozlik kuchaydi. Hukumat faqat inqilobchilardan qo‘rqar, qolganlarning barchasini rag‘batlantirardi: firibgarlar buzuqxonalariga ruxsat berildi, xususiy klublar, aysh-ishrat, maskaradlar, axloqsizlik, fahshga asoslangan adabiyotga izn tegdi – faqat ulardan siyosatning hidi kelmasa bo‘ldi edi.

Barcha eski klublarda keng-mo‘l qimorbozlik avj oldi.

Faqat ingliz klubi o‘zgarmay turar, u yerda ham xuddi oldingi kabi qimor o‘yinlari gullab-yashnar, avj olardi. Hokimiyatdagilar xuddi xonimlar kabi tumshug‘ini tiqmas edi.

Savdogarlar klubida tushlikda bir arshin keladigan sterlyadey baliq‘ini (osyotrlarga mansub bir xil baliq) paqqos tushirardilar. Oxotnichiyda yalang‘och xonimlar «nodir lazzatli taomlar yer», maskaradlarda tortishar, ularni qimorxonalarga kiritishmasdi. Nemis klubida ham xuddi shunday, ayrim hollarda ulardan ham oshib tushardi.

Ulkan, ikki chiroqli uy. O‘nta dumaloq stol atrofida o‘n-o‘n ikki o‘yinchi har birida o‘tirar, xuddi doira kabi tikka turganlar zich o‘rab olishgan, ular chekkadan turib bank qo‘yishardi. Xaloyiq ham butunlay xilma-xil. Bir so‘mlik stollarda xaloyiq shovqin ko‘targan, tortishuv avjida.

– Siz bu yerda mendan bir so‘mni o‘marib oldingiz!

– Yo‘q, siz mendan shilib oldingiz!

– Navbatchi!

– Kim o‘g‘irladi? Sizdan o‘g‘irlashdimi yoki siz o‘g‘irladingizmi? «Oltin» stol uchun garchi uning qiymati besh so‘mdan kam bo‘lmagan taqdirda, ammo ancha «jiddiylashgan», «qog‘oz», preferans o‘yining «kulka» deb nomlangan turi yigirma besh so‘m bo‘lganida, endi butunlay «salobatli» bo‘lib qolardi.

Brilliantlar bilan bezalgan xonimlar tillarang sumkachalardan kreditga olingan pullarni taxlamlab tashlashadi... U yerda ularning jazmanlari o‘tirishadi, o‘yinlarida o‘zlarini chetga olishadi yoki sabrsizlik bilan xonimning yutqazishini istab, uni klubdan nariga olib ketish payida bo‘lishadi...

Bunday brilliant taqqan xonimlar To‘garakda yapon urushidan keyin paydo bo‘lishdi. Ularni «intendant¹ xonimlari» deb atashardi. Bu ayollar ming so‘mlab pullarni sovrushardi. Ayniqsa, qorachadan

¹ *Intendant* – armiyada moddiy ta‘minot xizmatini bajaruvchi harbiy xodim.

kelgan, butunlay brilliantga belangan bir juvon (ko'pchilik «grafinya» deb murojaat qilardi) avjiga chiqqan edi. Negadir ayol «yo'q» degan holatga tushdi, dastavval brilliantlarini o'marishdi, so'ng u yerdan o'zi g'oyib bo'ldi. Keyin esa Sandunov hammomi yonidagi yo'lakdan topishdi...

Eng yirik o'yin «yuzlik» bo'lib, o'rta kamida 100 so'm tashlanar edi – o'yin goh yuqorida, goh pastdagi xonalardan birida o'tkazilardi.

Ba'zan bu «yuz» tikiladigan qimorning «Bakkara» deb ataladigan turi ham shu xonada o'ynalardi.

Bakkara o'yinining bir martasi ko'rib bo'lmas hajmga yetdi. O'rta tikilgan dov miqdori besh mingdan o'n minggacha borar edi. Bu o'yinni sharqlik ikki sohibjamol ayol avj oldirar, ularning yuzi anchagina shafqatsiz ko'rinar, qimmatbaho matolardan tikilgan cherkascha kamzul kiyib olgan, oltin kamarlariga osilgan qimmatbaho yirik toshlar qadalgan xanjar yaltirar edi. Ularni kim birinchi yozdirgan – bu noma'lum, ammo o'yinning ilk kunida shunday katta quloch yozib kirishdilarki, hamma qoyil qolib, tahsin o'qidi. Keyingi kunlari bu ikki aka-uka knyaz Shaxovlarning biri chin yurakdan yozildi. Ular bankni mas'ullik bilan bakkaraga mahkam tutdilar. Bo'nakni ta'minlash maqsadida yangi yirik kreditlardan o'n ming tikdilar. Uning ketidan «firibgarlar» girdikapalak bo'lishdi.

Har kuni barcha o'yinchilar knyazlarning kelishini sabrsizlik bilan kutishardi: ularsiz o'yin sira avj olmasdi. Kelganlari hamono stol atrofida jonlanardi. Ular bir hafta davomida har kuni qatnadilar, yuz mingdan ko'p pulni, aytish mumkinki, kiprik qoqmay, yutqazdilar. So'ng to'satdan bir kuni oqshomda butunlay kelmay qo'yishdi (ularni To'garakka musobaqadosh a'zolikka o'tkazish masalasi allaqachon hal etilgan edi).

– Axir osiyoliklar qayerda? – deb hayajonlanib so'rashdi o'yinchilar.

– Behuda kutyapsizlar. Ularni ko'rmaysizlar, – javob berdi xonaga kirgan bir gazetaning reportyori.

– ???

Sukutli hayrat.

– Bugun tahririyatdan ularning qamalgani to'g'risida xabar qilishdi. Men bu xabarni tekshirish uchun bordim: bu ikkalasi aslida hech qanaqa knyaz emas, balki bosqinchilar to'dasi boshliqlari bo'lib,

yutib olgan pullarini Turkistondagi oxirgi bosqinchilik tufayli qo'lg'a kiritishgan ekan. Ular pochtaga hujum qilib, qo'riqchini o'ldirishgan, shaykasi bilan pochta amaldorlarini chavaqlagan, qimmatbaho narsalar bilan uch ming yap-yangi qog'oz pullarni olishgan, bu pullar davlat xazinasiga tegishli bo'lgan. Ikkovi ham Toshkentga jo'natilgan, u yerda ularni dor kutayotgan ekan.

Shunda dedilar:

– Nima sababdan bu kitob muallifi faqat klublarning yomon jihatlari ochadi, uning ijtimoiy va madaniy oqartuv faoliyatini batafsil yozmaydi.

Muallif bunga dadil turib, javob beradi:

– Chunki bizning kitobxonlarga o'sha jihatlari qiziq, hatto klublarning dastlabki faoliyati sirlar bilan qoplangan edi. Hatto bu klublarning «ijtimoiy faoliyati» ham, unga tayangan vositalarning asl manbalari ham ancha yopiq holatda edi.

Ana shu oxirgi holati xususida ancha yozilgan va zamondoshlarning memuarlarida hali yana ko'p yozilsa kerak: ular faqat uning ko'z-ko'z qilinadigan, yaltiroq tomonlarini bilishardi! Mashhur kishilar ishtirokidagi ijroviy kengashlar, simfonik oqshomlar, adabiy-badiiy suhbatlar, yozuvchilar va artistlarning yubileylari, yirik nomlar tilga olinar, ular to'g'risida keyin vaqti kelib yozilardi... Ularning nomi adabiy-badiiy to'garakda, albatta, tilga olinar, chunki saflarida bu to'garak 700 nafar a'zoni va yiliga 54 875 tashrifni qamrab olgan edi.

Hali ham kimgadir «To'garak xabarleri» nomli jurnalning qalin, Pushkin portreti bilan birga chop qilingan hisoboti topilar...

Afsuski, ularda junbushga kelgan, shunday holda yashagan va klubni jonlantirgan o'yinchilar toifasi, ularning maishiy hayoti to'g'risida bir og'iz ham so'z yo'q edi.





OVCHILAR KLUBI

Brenko teatri bo'lgan Malkiel uyi millioner Spiridonov ixtiyoriga o'tdi. U esa uyni Ovchilar klubi tasarrufiga topshirdi.

Mazkur klub Neglinniy proyездidagi Trubnoy maydoni bilan yonma-yon bo'lib, u yer yakshanba kunlari it va qushlar sotiladigan bozor edi. Traktirni ham «It bozori» deb yuritishardi.

Ovchilar va qushlarni sevadigan kishilar maydonni to'ldirishar, u yerda tovuqlar, kaptarlar, tustovuqlar, g'ozlar solingan savatlar qator turardi. Tagliklarda imkon qadar ko'proq sayroqi qushlar solingan qafaslar osib qo'yilardi. Shu yerning o'zida qushlar uchun ozuqalar, baliq ovlash uchun kerakli anjomlar: qarmoqlar, arzon narxdagi oltin baliqlar sotiladigan akvariumlar, kaptarlarning barcha turlari sotilardi.

Katta burchakni it bozori egallagan edi. Bu yerda qanaqa itlar yo'q edi, deysiz! Barcha turdagi uchqur, ildam, erinchoq, qanjiq hamda tozi itlar va doglar, buldoglar, baroq hamda juni kalta itlar sotuvchilarning orqasida pisinib turardi. Shu yerda it o'g'rilari ham «ishlar» edi.

Va har bir it navi oldida uning o'ziga tegishli shinavanda odamlari bo'lardi. Atrofdagi kichkina baroq it, uzun yungli laycha va xonaki tozi itlar xuddi terak bargiday titrar, olifta, po'rim kiyingan bodilar, xonimlarning laganbardor, xushomadgo'ylari suqilar, o'zlarining xonimlariga yoqadigan, ko'ngliga o'tiradigan sovg'ani sinchiklab ko'rishga urinishardi. Ovchi itlar, tozilar yonida sersavlat, boy jamiyat a'zolari bo'lmish miltiq tutgan ovchilar turardi. Ko'ppak itlar hamda har qanday xashaki kuchuklar bog'lab qo'yilgan va bularning og'ziga hech vaqo tutilmagan, chetda turgan poliz bilan mashg'ul bo'lganlar hamda uy sohiblari bu zanjirga solingan qorovullarga qarar, ularni ko'zdan kechirishardi. Itlarni endigina tutib olgan sayoq qalang'i-qasang'ilar darrov ularni bozorga sudrardi. Bu odamlar orasida ham alohida mutaxassislar bor edi.

Shunday qilib, ikki yil surunkasiga har yakshanba kuni bir bolakay chiroyli malla, erkatoy Sezar laqabli ko'ppakni bog'lab olib kelar, Stoleshnikov tor ko'chasidagi hovli traktirida yashagan bola bu itni sotar edi.

Boshqa kuni it g'ajib tashlangan arqon bilan uyda paydo bo'lar va keyingi yakshanbani kutardi. Shunday bo'lardiki, itni xaridorlar tanib qolar, ammo buni isbotlab bo'lmasdi, shu tariqa Sezar yana sotilaverardi.

Ko'zga ochiq tashlanadigan guruh tozi itlar bilan shug'ullanadigan kishilar bo'lib, ular shunday itlar va ularning atrofini o'rab olishgandi; kelganlar chakmon kiyib, bellarini o'yma naqshli kamarlar bilan bog'lab olishgan, uzun burma belli kamzulda yelkalariga ov shoxini ilib, ovchi itlarni haydash uchun qamchi tutgan hamda shapkasini qayirib kiygan kishilardan iborat edi.

Ko'rinishlaridan ma'lum ediki, ular uchun ot ustida turib, it quvib charchab qolgan ona bo'rini shartta ushlab olishi, uning ustiga butun gavdasi bilan tashlanib, qulog'idan tutib, yerga qapishtirib olishi kerak edi, ana shunda o'ljaning oyoq-qo'lini bog'lab, iskanjaga olish hech gap bo'lmaydi.

Ular itlarni obdon ko'zdan kechirishar, chetdagi har qanday odam suhbatlarini tushunmasdi. Tillaridan shunday so'zlar uchar edi:

– Pazonki, qora go'sht, erkak tozi it, qisqich, foydali, kekirish. Bunda faqat «qisqich» degan so'z tanish, bu esa olaparning tumshug'ini anglatardi.

Bu yerda qimmatbaho paltolarni kiyib, tugmalarini to'liq qadab olgan, mo'ylovlari oppoq oqargan chollar ham bor edi, ularning paltolari tagidan chakmonlarida kumush kamar ko'rinib turardi. Bular tozi itlar bilan mashg'ul moskvaliklar bo'lib, qishda poytaxtda yashar, yozda o'z mulklarida umr kechirishardi; ularning qishloqdagi mulklari yilma-yil kamayib ketaverardi. Krepostnoylik davrida barq urib yashnagan tozi it ovi o'ldi. Qayerdadir tozi itlarni saqlar edilar-u, ammo u kam edi.

Qishda ovchilar Moskvaga itlar ko'rgazmasiga jo'nab ketishar va, albatta, Trubada bo'lishardi. Bu yer qishloqdagilarning moskvaliklar bilan uchrashadigan joyi edi. Ular bozordan so'ng «Ermitaj»ga ovqatlan-gani kirar va shu bilan kunni oxiriga yetkazishar yoki aniqroq aytsak, tun «Yara»da lo'lilar xori bilan o'tar, bunda «otalari izidan borishardi».

Qurol tutgan ovchilar – moskvaliklar – bir musht bo‘lib, birlashgan ulfat bo‘lib, «It bozori» deb nomlangan traktirga yo‘l olishar, garchi bu traktir uning sohibi nomi bilan atalsa-da, barcha ovchilarga «it bozori» bilan tanish edi.

«It bozori» traktiri aynan maydonda emas, balki uning yaqinida, Neglinniy proezdida bo‘lsa ham Trubada deb hisoblanardi. Bu ancha irkit, past toifali traktir edi. Unda xuddi shunday nomli ozoda zal bo‘lib, yakshanba kunlari ovchilar mashg‘ulot o‘tkazishardi. Ularning har bir guruhi o‘sha kuni o‘zini kutib oladigan stolga ega edi.

Itlar bilan shug‘ullanadigan ovchilar har bir itni ikir-chikirigacha o‘rganib, diqqat-e‘tibor bilan qarar, o‘zlarining maskaniga qaytib, bir ryumka aroq ustida «ov to‘g‘risida» suhbat o‘tkazilardi.

Traktirda ham ish ko‘pincha it bilan boshlanar (katta kuchuklar traktirga kiritilmasdi), ularni ko‘zdan kechirishar, ba‘zan esa itlar xarid qilinar edi.

Qing‘ir it savdosi bilan mashg‘ul Aleksandr Ignatev mashhur kuchuk o‘g‘risi sariq-ola-bula, yungi kalta va silliq katta ovchi iti, ya‘ni poynterni tavsiya qilar va ishonarli qilib:

– U aynan Tverskiy xiyobonidagi Lanskoyning o‘zidan olingan. Kecha rosa jazosini tortdi, – deydi va kuchukvachchanning bo‘ynidan ushlab ko‘taradi. – Uning onasi o‘tgan yili manejdagi ko‘rgazmada oltin medalga sazovor bo‘lgan edi. Dianka. Esingizdami?

General, Aleksandr Mixaylovich Lomovskiy, Moskva ovchilari orasida eng hurmatga sazovor bo‘lgan shaxs barmog‘i bilan kuchukvachchanning dumini tortqilaydi va qo‘li bilan qandaydir ilgakni eslatuvchi harakat qiladi.

– Bu hech nima emas, Aleksandr Mixaylich. Qanaqadir chiviqchaga o‘xshaydi, qanday axtarish kerak?

Lomovskiy yana indamay qo‘li bilan ilgak qiladi.

– Rahmingiz kelsin, Aleksandr Mixaylich, bunday bo‘lishi mumkin emas. Uning onasi, Dianka, axir chin opasi...

– «O‘sha ko‘ppakning qadrton opasini siz balki bilarsiz», – deydi «Tabiat va ov» jurnalining muharriri L.P. Sabonev va sotuvchiga murojaat qiladi: – Sashka, jo‘na, ketaver. Aldashga odam topding-da! Agar Aleksandr Mixaylichga kuchukni olib boradigan bo‘lsang, dumi yodingda bo‘lsin. Eshitdingmi, dumini, eslagin!

Sotuvchi o'ng'aysiz holga tushib ketar ekan, o'zicha mulohaza yuritadi:

– Xo'sh, o'ldirsang ham mayli, o'zim hech qanaqa nuqsonni ko'rmadim. Aleksandr Mixaylichga salgina bo'lsa ham ilgak topsang qani edi... Lekin qanday? Axir bu Diankadan-ku... O'sha ko'ppakka qadrdon aka hisobida-ku...

Uchinchi hamsuhbat Nikolay Mixaylovich Levachev edi, u shaharlik muhandis bo'lib, Neglinka yer osti yo'lini qurish bilan mashhur bo'lgan, bu vaqtda esa aslo hech narsaga e'tibor bermasdi. O'zining arog'iga «Levachevskiy» nomli gazagini tayyorlar ediki, undan ko'z bamisoli tepaga chiqib ketardi.

Bu stolga eng savlatli, baobro' moskvalik ovchilar yaqinlashdi va o'tirib olishdi. O'zaro suhbatlar ba'zan tun qorong'isigacha davom etardi.

Shunday yakshanba kunlarining birida ovchilar klubini tashkil qilish to'g'risida kelishib olishdi. Boshqa kuni esa Sabanev tomonidan nizom yozildi, uning tagiga Lomovskiy boshchiligida baobro', ta'siri katta odamlar imzo qo'yishdi va bir oydan so'ng nizom vazir tomonidan tasdiqlandi. Deyarli barcha moskvalik ovchilar o'zlarida mavjud bo'lgan vositalar bilan klubga a'zo bo'lishdi va u tez orada urfga kirdi.

Ov bilan bog'liq suhbatlar boshlanib ketdi, ko'rgazmalar, oilaviy oqshomlar, ov ziyofatlari va kechki ovqatlar tashkil qilish boshlab yuborildi, unda xonimlar, xor bilan lo'lilar va rus qo'shiqchilari ham qatnashar edi.

Lekin pulni darrov oziq-ovqatga sarflab qo'yishdi. Xarajat daromaddan oshib ketdi. Faqat bilyard va kamtarona tijoriy o'yinlar hurmatga sazovor keksa ovchi otaxonlar uchun yetarli bo'lmay qoldi. Jarimalar bir tiyin, vaholanki klublarning asosiy daromadi shulardan iborat edi. Ular uchun qimor o'yinlari kerak edi. Skakov jamiyatining sobiq kotibi, ehtirosli o'yinchi M.L. Lazarev yordamga keldi.

Lazarev o'yinga qizg'in kirishdi va birinchi oydan klub kassasi pulga oshib-toshib ketdi. Lekin klub eng asosan Tverskiyda boyiy boshladi. Bu bir paytlar «Pushkin uyi» deb atalgan joyda, Brenkning uyida ro'y berdi.

Va birdan qimor o'yinlari boshlanib ketdi.

Bu uyning uchinchi qavatida, raqs zali va oshxona tepasida maxfiy xona bo'lib, unga zinapoya orqali hamda chalkash yo'laklardan

faqat o'zining odami yo'l topib borishi mumkin edi. Unga faqat klub a'zolari, yirik o'yinchilar qo'yilardi. O'yin yarim kechadan keyin boshlanar va jarima ertalab soat beshgacha o'ttiz sakkiz so'mga qadar yetar edi. O'yinning bunchalik kech boshlanishiga sabab, u jarimaga yaqin bo'lishi, shu bois gap-so'zlar kam bo'lishi hamda mayda-chuyda o'yinlarning kamroq bo'lishi nazarda tutilgan edi. Yirik o'yinchilarga, ming so'mlab tikib o'ynaydigan kishilarga jarima arzimas ko'rindi.

Bu xonalardan birida to'rtta dumaloq stol bo'lib, ularning har biri atrofida o'n ikki kishidan o'tirardi. Bu yerda «bir so'mlik», «oltin» deb nomlangan pullar bo'lib, stolda yotardi, yonida esa xuddi shunday xonada uzun, yashil mato bilan qoplangan stol qimorning «Bakkara» deb nomlangan turiga mo'ljallangan edi. Ikki «yuz so'mlik», «qimor uchun» deb nomlangan stollarda yuz so'mdan kam bo'nak qabul qilinmas, bu yerda o'yin tungi soat ikkidan oldin boshlanmas edi. Shunday holatlar ham ro'y bergan ediki, o'yinchilar shu xonada ertasi klub ochilguncha ham o'tirib qolar, ertalab soat yettiga qadar yumshoq divanlarda dam olib, yana o'yinni davom ettirardilar.

Klub graf Sheremetevning Vozdvijenko uyiga ko'chib o'tgandan keyin batamom gullab-yashnadi, u yerda ko'p yillar davomida shahar boshqarmasi joylashgan edi.

Shahar boshqarmasi Voskresenskiy maydonidagi yangi binoga ko'chib o'tgach, uni Rus ovchilar klubi egalladi, aslzodalar palatasining irkit, iflos idoralarini hashamatli qilib, ajratib oldi.

So'ng mukofotlar bilan maskaradlar, tushliklar, ko'rgazmalar va kechki shanbalik ziyofatlar o'tar, ularda burjuaziyaning har ikkala jinsiga mansub aysh-ishratga berilgan odamlari kelishardi. Rus ovchilar klubi hamda uning yangi imorati bilan birorta klub tortisha olmasdi: qimor o'yiniga unga munosib raqib sifatida keyinchalik To'garak paydo bo'ldi.

Kech soat bir. Uzun stol atrofida o'n besh kishi o'tirardi. Qimorning «Bakkara» turi o'ynalardi. Stol o'rtasida qorachadan kelgan nazokatli kishi bankni ushlagan ko'yi o'tirar, u vaqti-vaqti bilan yashil mato ustidan nozik harakat qilib, yengil titragan qo'li bilan atlas qartalami ishga solardi. Bu ishlarni bajara turib, papiros oldi-yu, so'ng shoshilmay chekdi. U o'zini sovuqqon ko'rsatishga urinardi. Vaqti-vaqti bilan g'alati holatda ko'zini qisar, ammo chiroyli yuzi xuddi ni-

qob kabi harakatsiz edi. Uning oldida yuztalik, mingtalik beshta taxlam yotar, ro'parasidagi yordamchisida esa, aksincha, mayda kreditlar va yuztalik taxlamlar anchagina edi.

Yordamchisi, sochlari erta to'kila boshlagan, rangi o'chgan smoking kiygan omadsiz yosh yigitcha bir paytlar boy-badavlat savdogarlar avlodidan edi. U qimorxonaga egasi vazifasini bajarar, bank yutqazib qo'ysa to'lar va yutganida esa pullarni olardi. Har safar yutuqni olgach, kredit pullarini tartib bilan saralab chiqardi. Yon-atrofida odatdagi qimorbozlar, ya'ni bakkara havaskorlari o'tirishardi. Moskvada eng yaxshi soqol qo'ygan qo'ng'ir sochli kishiga xonimlar mahliyo bo'lib qarashar, poytaxtlik savdogar juvonlarga qimmatga tushgan edi... Uning oldida yuztaliklar tog'dek uyulgan bo'lib, qopqog'ida fransuzcha katta «N» harfi yaltirab ko'rinib turgan oltin tamakidon bilan yopib qo'yilgandi.

Bu tamakidon uchun soqolli kishi Parijda mo'maygina pul to'lagan, chunki u Napoleonga tegishli edi. Egasining aytishicha, Napoleon shu tamakidoni deb jangda Vaterlooni qo'ldan boy bergan, tamaki hidlab, ad'yutantni oxirigacha tinglamagan, yo'nalishlarni adashtirib yuborgan, otliqlarni noqulay, o'nqir-cho'nqir joylarga, piyodalarni esa tekislikka yo'naltirgan edi.

– Tamakini hidlash butun dunyoni o'zgartirib yubordi! – deb hikoyasini tugatgandi u va hamyonidan bu tamakidon haqiqatan Napoleonga tegishli ekanligini tasdiqlovchi rasmiy guvohnomani do'stlariga ko'rsatib.

U taxlam-taxlam pullarni sanamay tashlar, yutuqlarni xotirjamlik bilan qo'lida tutib, mag'lubiyatga e'tibor bermasdi. Aftidan bu zerikarli yoki fikr-o'ylari undan uzoqda edi. Ehtimol, bilyard o'yinida hisob-kitobni yozib boruvchi soqolsiz o'spirin esiga tushgandir, balki Rivyera yoki Monakoda avj oladigan och-nahor kunlarni oldindan his etayotgandir.

Uning yonida xotirjam va kulimsiragancha sabza urgan mo'ylovini toblab, qaddi-qomati kelishgan o'smir o'tirardi, Volga tomondan kelgan bu boyvachcha o'ynar, yutar va yutqazardi. U go'dak kabi o'ynayotganda hech nimani o'ylamas, xursand bo'lardi.

O'smirning yonida ko'rinishi inglizlarga o'xshash novcha, yuzi cho'ziq kishi bor edi. U haykalni eslatardi. Yuzidagi birorta mushagi qilt etmasdi. Qiyofasida jiddiy ish qilayotgan kishining diqqatini bir

joyga to'plagan sovuqqon holati aks etardi. Faqat qo'llari uni fosh qilardi... O'tkir ko'zga bu odam fojiani boshidan kechirayotgani ayon: uning uchun yutqazishi dahshat edi... Yuzini bir amallab eplaydi, ammo qo'llari bezovta qilar, ularni uddalay olmasdi...

Stolning narigi tomonida sochi to'kila boshlagan tepakal «jentlmen», «qarta, ayollar va otlar» shinavandasi o'yinga butunlay mukkasidan ketgan edi. U qartalarni kuzatar, har birining orqasi va chetlarini diqqat bilan ko'zdan kechirar, agar ular bankometning qo'li ostidagi qutida bo'lsa, maydalarini tashlar, to'satdan katta ulush tushganida qo'li doimo baland kelardi.

Bankomet kiprik qoqar, asabiylashib, pastga qarar, chiylab aralash-tirar edi. U tuzgacha chiylab borishini kutadi. Ilgari tashlay olmasdi. U millioner o'yinchilar orasida eng vijdonlisi bo'lib, shunga qaramay, ancha asabiy va irim-sirimlarga ishonadigan kishi edi. Asabiylashgani ko'zini qisib qo'yganida, ba'zan bo'ynini harakatlantirganida namoyon bo'ladi, bu esa haddan ziyod asabiylashish darajasini ko'rsatadi.

Klub Sheremetev uyiga yong'indan keyin ko'chib o'tgan. Yong'in Spiridonovning uyida yarim kechadan keyin ro'y bergan, ko'pchilik pastki zalni tark etgan, faqat yuqori qavatdagi «maxfiy» xonada qimor o'ynayotgan bola, uning izidan xizmatkor yugurib chiqdi. Ikkovi ham sarosimaga tushgan yuzlarini bo'zartirib, eshikni ochishdi-yu, «Yong'in!» – deb hayqirishdi va ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

Ularga hech kim e'tibor bermadi. Kechikkan o'yinchilar doimgidek juda quyushqondan chiqib ketishgan edi. O'yin juda yirik mablag' ustida ketayotgandi. Boy-badavlat va uddaburon, sovuqqon va vazmin kishi Aleksandr Stepanovich Sarkizov (Sarkusha) qartani tashlayotgan edi.

– Tutun hidi kelyapti, sezyapsizlarmi? – tamaki fabrikanti to'satdan boshini ko'tarib, hayajonlangancha havoni hidladi, odati bo'yicha ko'zlarini pipiratdi.

– Bu sening papirosingdan kelyapti! – deya Sarkusha gap bilan uzib oldi va to'qqizlikni ochdi.

To'satdan yo'lakda kuchli qadam tovushlari eshitildi. Eshikdan tutun bilan birga darbon va o't o'chiruvchi kirib keldi.

– Kisht, iblislar! Yonib ketasizlar!

– Yo'lakdagi to'siq band qilingan! – deb qichqirdi darbon. Ayrimlar sarosimaga tushib, sakrab turdilar, boshqalari hech nimani ang-

lamay o'yinni davom ettirishardi. Sarkusha to'qqizlik qartani ochib, o'rtadagi pullarni changallab oldiga tortar ekan, o't o'chiruvchiga baxirdi:

– Sening nima ishing bor? Bankka imkon ber!

– Axir po'stinlaring yonadi! – o'zini oqladi darbon. Sarkusha pullarni cho'ntagiga tiqar ekan, stol ustidan hamma qartani yig'ishtirib oldi, so'ng xaxolagancha ularni burchakka uloqtirib yubordi.

Qimor o'ynayotganlar qalin tutun orasidan bir amallab hashamdor zinapoyagacha borishdi, u hali yonmagan edi. So'ng pastga, garderobga tushdilar, ularni kutayotgan darbonlar hayajonlanib turishardi.

Bu yong'in tafsilotlarini mudhish oqshomning guvohlari gapirib berishni yaxshi ko'rar edi.

– Qanaqa beli bor edi! Ko'rishga xalaqit berishdi!

Sobiq Sheremetev saroyining Vozdvijenkodagi katta zalida, klub maskaradlar, katta ziyofatlar, oilaviy hamda shanbalik kechki ovqatlar beradigan joyda sahna qurilgan edi. Unda, keyinchalik Moskva Badiiy teatri truppasini tashkil etgan havaskorlar o'ynar edilar.

Spektakllar namoyish etishar, ko'pchilikka klubdagi maskaradlar hamda quvnoq kechki ziyofatlar, ayniqsa, «Cho'kayotgan qo'ng'iroq» ko'proq yoqardi. Undagi, asosan, sochlari paxmoq iblis toshlar hamda o'nqir-cho'nqir joylardan irg'ib, kattakon qurbaqa qiyofasida qo'rqinchli suv alvastisiga: «Bre-ke-ke-keks!» – deb qichqirishi manzur bo'lardi.

Truppa o'ynaydigan joy chiroyli edi. Repertuar saralanib qo'llanardi. Bu haqda ko'p yozildi. Xuddi maskaradlar to'g'risida gazetalarda bot-bot yoritilganidek, hatto eng yaxshi kostyumlar uchun qimmatbaho sovrinlar nomlanishi ham e'lon qilingan edi.

Eng yaxshi sovrinlardan birini qora frak kiygan, boshiga silindr shlyapa qo'ndirgan och-ko'k soqolli, xuddi Skobelev kabi sochlarini ikki tomonga taragan qandaydir moskvalik po'rim yigit qo'lga kiritdi.

Bu kostyum boshqalaridan ajralib turar, qimmatbaho toshlar bilan bezalgan savdogarlar libosi edi, – va uning «Ko'k soqolli shahzoda Raul» ismli egasi besh yuz so'mlik oltin papiros qutisiga sazovor bo'ldi.



DARVOZADAGI SHERLAR

Moskvadagi kekxa Angliya klubi yana bir davrni, ya'ni «mart paytidagi yong'in avj olib, gurillab yongan moskvacha yong'in»ni eslatar edi. O'sha paytda qalqib turgan Tverskiyda Napoleon armiyasining qoldiqlari, zastavada turgani tirqishlardan ko'ringanida, bir ajoyib saroy saqlanib qolgan.

Saroy Tver va Kozi botqoqligi orasida bir necha chaqirim yerda cho'zilgan bo'lib, asriy parkda yuksalib turardi. Park uchta chuqur ko'l bilan tugar, shu bois u to'g'risidagi xotira «Uch ko'lli tor ko'cha» deb nomlanardi.

Bu saroy o'n sakkizinchi asrning ikkinchi yarmida shoir M.M. Xeraskov tomonidan qurilgan. Yekaterina davrida esa bu yerda Moskvadagi birinchi masonlarning maxfiy yig'ilishlari o'tar edi: Xeraskov, Cherkasskiy, Turgenev, N.V. Karamzin, Yengalichev, Kutuzov va N.I. Novikovning rozenkreyserga xos ismi – «Kinovion og'a» ana shu maskanlardan iborat edi.

1792-yilda N.I. Novikovni, uning to'garagi hamda ko'pgina masonlarni qamoqqa olishdi.

1892-yildan so'ng Xeraskov saroyi graf Razumovskiy mulki ixtiyoriga o'tdi, u saroyning ikki biqinida qo'shimcha bino qurdi, bu esa yanada savlat bag'ishladi, endi Tverskiyda eng go'zal bino sifatida ko'rinardi. Saroyning o'zi esa muhtasham zallari bilan o'z bag'riga o'sha paytdagi Rossiyaning eng ma'rifatparvar kishilarini marmar ustunlar tagida to'plar edi. Saroy to'liq daxlsiz bo'lib qoldi va 1831-yilda unga ingliz klubi kelib joylashdi.

Lev Tolstoy «Urush va tinchlik»da 1806-yili Angliya klubi Moskvaga knyaz Bagrationning kelishi munosabati bilan uyushtirilgan ziyofatni shunday ta'riflaydi: «...ishtirok etayotganlarning aksariyati kekxa, hurmatga sazovor keng yuzli, o'zlariga qat'iy ishongan shaxs-

lardan iborat bo'lib, panjalari katta-katta, harakatlari, ovozlari bardam edi».

Xullas, ular Tverga kelganlarida shu paytgacha zamondoshlarini ham hayratda qoldirgani – darvozadagi kattakon, jag'lari pastga ochilgan, go'yo Lukull ziyofatiga obdon to'ygan, toshga aylangan amaldorlarga o'xshash sherlar haykali bo'ldi. Ular sershovqin, quvnoq ekskursiyachilarga qarar, Inqilob muzeyi hamda Tver avtomobillari tomon uchayotganga o'xshab ko'rinardi... Bundan yuz yil avvalgi Razumovskiyning xuddi shunday oltin gerbidagi sherlar misoli beparvo boqar, klub a'zolarining zarhal yugurtirilgan mundirlarida parad o'tadigan joyda bo'lganidek, tunda lo'lilarning mast-alast holda uch ot qo'shilgan aravalarida sayr etgandek namoyon bo'lardi... Xuddi shu holatda qishning uzun tunlarida klubning keng hovlisidagi gulxan atrofida davra qurgan kucherlarga viqor bilan jimgina qarab turar edi.

Egnida baxmal libos, boshida uqali shapka va qimmatbaho movutdan tikilgan libos kiygan kucherlar ertaga qayerga borishini bilmasdilar: uyga ketishadimi yoki yangi boyongami?

Yangi boyon ularni o'zining «qishlog'idagi uyiga jo'natadimi yo olis Saratovgami», yoki oilasini biror boshqa otameros mulkiga sochib yuborarmikan?..

Krepostnoylarning taqdiri har kecha «do'zax xonasida» hal etilar, u yerda qimor o'yinlari o'tkazilar va odamlar qismati bitta qarta, bitta ochkoga... ba'zi hollarda bankometning chaqqonligi, qo'lini ildamroq harakat qilishiga bog'liq bo'lib qolardi, Fyodor Tolstoy «xatoni tuzatish uchun» deb ta'kidlaganidek ro'y berardi (u «do'zax xonasi»ning doimiy kunda-shundasi, «Amerikalik» edi)... Griboyedov u haqda shunday degandi:

*Tungi qaroqchi, duelchi,
Kamchatkaga qilindi surgun,
U yerdan aleut' bo'lib qaytdi.
Qo'li mahkam-u, ammo bir irkit...*

Aftidan, «Amerikalik» bundan faxrlanar edi. U klubda o'tkazilgan tushlik chog'ida Konstantin Aksakovga o'zi to'g'risida shunday so'zlar aytilganini ta'kidladi: «...Zagoreskiy ham unga tan bergan. Push-

¹ Aleutlar – Aleut va Komandor orollarida yashovchi shimoliy qabila.

kin «Amerikalik»ni bir umr abadiylashtirgan, chunki Zareskiyning soʻzlarini tilga olgan: «Qarta oʻynovchilar shaykasining atamani».

Ushbu klub Famusov, Skalozubov, Zagoreskiy, Repetilov, Tugoxovskiy va Chatskiylarga tegishli edi.

Albatta, Pushkin ham, Griboyedov ham aniq portretni tasvirlamagan edilar: maishiy badiiy timsol yaratishar ekan, ularni kundalik hayotdan xomashyo sifatida olishgandi.

Griboyedov «Aqllilik balosi»da oʻsha paytdagi Moskvaning, shu jumladan, Angliya klubining maishiy hayotini bir necha tiplar, timsollar orqali tasvirlab berdi.

Gersen «Haqiqat va oʻylar»da: «Angliya klubi hammadan koʻra ingliz ruhiga yaqin», deb yozgan edi. Unda sobakevichlar ozodlik, hurlikka qarshi qichqiradi va nozdrevlar dvoryanlarning tabiiy va ajralmas huquqlari toʻgʻrisida shovqin soladi...

Tverskiyda bu eng goʻzal bino qator yangi qurilishlar, doʻkonlarni yopib turardi. Oktabr yigirmanchi asrning birinchi oʻn yilligida dadillik bilan qoʻshimcha qurilishlarni amalga oshirdi, koʻz oldimizda tik yuksalgan oppoq ustunlar alvon saroy fonida qad koʻtardi, bular ganch bilan ishlanardi. Binoning tepa qismida respublika gerbi Razumovskiyning zarhal berilgan graflik gerbi bilan almashdi. Bu saroyda Inqilob Muzeyi joylashgan, dekabristlardan Leninga qadar rus inqilobining muzaffar yurishini kuzatish mumkin edi.

Buyuk Inqilob tarixiga kirishda xuddi qonli chaqmoq shuʻlasi kabi asrlarning shiddatli qaʻridan chiqib kelganday, muzeyga kirayotganlarni vestibul maydonida Stepan Razin va uning toʻdasi kutib oladi. Bu haykaltarosh Kopenkovning ishi boʻlib, haykal tagida musavvir Gorelovning polotnosi turibdi:

*Bular Dondan kelishdi uchib,
Moiy kenglik junbishga keldi.
Stepan ham toʻdasi bilan,
Oʻlja sari boradi shoshib...*

Bu Spekanning «Ona Volga boʻylab» birinchi suzishi edi. Mana uning yakuni: Pchelin moʻyqalamiga mansub «Stepan Razinning qatl etilishi» nomli ulkan surati. Moskvadagi maydon, xalq toʻlib-toshib ketgan, boyonlar, oʻqchilar... jallod... Uning oʻzi dor ostida magʻrur turib, qoʻlini shiddat bilan yuqoriga koʻtarganicha isyonga toʻlgan hayot bilan vidolashmoqda va quyidagi soʻzlarni aytib hayqiradi:

*Mard boshi uzilsa, zinhor o'ylama,
Hammasiga nuqta qo'yilgan dema.
Har bitta tomchi qizil qonlardan
O'sib chiqar albat mardona botir.*

Zina pillapoyalaridan bir-bir bosib ko'tarilar ekansiz, muzey eshigiga duch kelasiz. Birinchi xona, sobiq qabulxona bo'lgan. Endi uning nomi: «Pugachyovchilik». Pushkinning muhrida eslatilgan birinchi so'z. Bu xonadan so'ng muzeyning o'zi ilk rus inqilobchisi – Radishchev byusti bilan boshlanadi.

Angliya klubining qabulxonasida endi tor temir qafas turadi. Unda Yemelyanni Uraldan Moskvaga qadar olib borishgan, maydonlar hamda yo'l-yo'lakay shaharlarning bozorlarida «la'natlash hamda sazoyi qilish» uchun xalq oldida namoyish qilishgan, vaholanki yaqindagina shu ulus Pugachyovning ortidan ergashgan edi. Uni shu qafasda Bolotnaya maydoniga olib kelishgan va 1775-yil 16-yanvarda qatl etishgan.

Hozir qafas turgan joyga bundan yuz yil muqaddam «Pugachyov isyoni tarixi» muallifi, buyuk Pushkin xijolat bo'lib turgan edi.

Pugachyov parchinlangan o'sha turma devorida bugun uning zanjiri osilib turibdi. O'sha paytda «qora taxta» ilingan bo'lib, qarzini to'lamagan klub a'zolari yozilar, qarzini to'lamaguncha ichkariga kiritishga ruxsat berilmasdi. Bu xona «lifostroton» deb nomlanardi.

Va tasavvurda shunday manzara jonlanadi: shoir g'amgin va tund holatda klubdan chiqib uyiga, Nikitskiy darvozasiga, Goncharovlar uyiga yo'l oldi. Tver va Strastniy maydonidan o'tdi. Tver xiyobonida, aynan o'ziga haykal o'rnatilgan joyga keldi, aynan shu tarzda to'xtadi va qizib ketgan boshidan shlyapasini yechdi... Yoz... Moskva bo'shab qolgan... Hamma mulklariga jo'nab ketgan... Uy kimsasiz... Hech qayoqqa borib bo'lmaydi... Va u klubni, darvozasidagi arslonlarni ko'radi. Ortida yarqirab yorishgan zallar, yumshoq gilamlar, vino, qartalar... va uning sevimli «gap bozori». U yerda do'stlari bor – Chaadayev, Nashokin, Rayevskiy...

Va shoir xiyobon bo'ylab yolg'iz ketib borardi. O'zining bo'm-bo'sh xonasiga qaytib, 1833-yil 27-avgustida rafiqasiga quyidagilarni yozadi: «Vyazemskiyga ayt, uning adashi, knyaz Pyotr Dolgorukov qandaydir merosni olib, ingliz klubiga aylantirishga ulgurmay o'ldi. Bu yerdagi jamiyat a'zolari afsuslanib qolishdi. Men klubda

bo'lmagan edim, shuning uchun sal bo'lmasa uning safidan chiqarilardim, shuningdek, guvohnomamni yangilashni butunlay unutib yuborgan ekanman. Uch yuz so'm jarimani to'lash og'ir, albatta, aksincha butun Angliya klubini ikki yuz so'mga sotib yuborishga tayyorman».

Keyinchalik Pugachyov klub bilan hisob-kitob qilib, pullarini to'lashga yordam beradi va shundan so'ng u yana bora boshlaydi.

P.V. Nashokinga Pushkin 1835-yil 20-yanvarda yozgan xatida shunday degan edi: «Pugachyov xushmuomala, obrok to'laydigan ephil odam chiqib qoldi... Yemelka Pugachyov mening obrok to'lovchi kishim... U ancha pul olib keldi, chunki men ikki yil qarz bo'lib qolgan edim. Bisotimda deyarli hech nima qolmadi, chunki hammasi to'lovga sarflanmoqda».

Pushkin ham, Griboyedov ham klubni yaxshi bilishardi. «Aqllilik balosi» – Griboyedov Moskvasi hamda undagi tiplarning ko'pchiligi – Angliya klubi a'zolaridir. Men bir paytlar «Keksalar» jurnalida negadir sharoit taqozosi tufayli «esdan chiqmaydigan» qilib, quyidagilarni yozgandim: «1985-yilda Sibilyov a'zosi tomonidan nomzodi ko'rsatilgan kishilardan janob Chatskiy ovozini qo'yganda, saylanmadi, yana nomzodini qo'ydi va tag'in saylana olmadi». Angliya klubiga nomzodini ko'rsatish katta voqe! Bu haqda Moskvadagi barcha zodagonlar gapirishardi. Chatskiy degani kim o'zi va nega saylanmagan? Lekin uning «Aqllilik balosi» bilan qandaydir umumiyliги borligini taxmin qilish mumkin. Har holda Chatskiy familiyasi, bu – Chatskiy.

Shunday savol tug'iladi: nima uchun klubda bir yildan beri a'zo bo'lib turgan shaxs ovoz berish jarayonida klub a'zoligiga nomzodlikdan a'zolikka saylana olmaydi? To'g'rirog'i, Chatskiy tomonidan «gap bozori»da aytilganidek, o'sha paytlarda qarashlar mos kelmay qoldimi?

Biz «Aqllilik balosi»da o'qiganimiz nutqlar va monologlar, albatta, «gap bozori»da aytilgan so'z erkinligida xuddi a'zolikka nomzodga tegishlidek ko'rinadi, lekin ovoz berishda uni a'zolikka saylashga to'g'ri kelmagan. Shubhasiz, bunday «yakobinchi»dan xalos bo'lish ma'qul ko'ringan. Famusovlar, albatta Chatskiyni saylamasdi. Bu mening taxminlarim, albatta... Lekin 1815-yilda o'z nomzodini ovozga qo'ygan Chatskiy, ishonchim komilki, pyesani 1822-yilda yozib tugatgan Griboyedovning Chatskiysi bilan so'zsiz umumiylikka ega

bo'lgan. Har ehtimolga ko'ra, yozuvchi negadir shunday siyrak uchraydigan familiyani eslagan.

«Agliskiy klobi palatalarida xalq yig'inlarini sinash». Ehtimol, Pushkin bu o'rinda Angliya klubidagi siyosiy munozaralarga shama qilgandir. P.Ya. Chaadayev unga judayam yaqin kishi bo'lgan. Chunki har kuni kechqurun Angliya klubida ishtirok etgan, bo'ydoq, qarta o'ynamagan, atrofiga odamlarni yig'ib, to'garakdagi odamlarni «safsata sotish»ga jalb qilgan va dadillik bilan o'sha paytdagi siyosat hamda ichki ishlarni muhokama qilishgan. Chaadayevning ayrim qirralarini Pushkin o'zining «Onegini»da bo'ydoqligi, hayotiy holatlarini ifodalagan...

Hozir bu o'lmas komediyaning sahifalarini qayta o'qir ekanman, yana bir marta Chatskiy Chatskiy ekanligini tasdiqlayman. Nahotki Famusov «Agliskiy klobining tobutgacha borgan o'g'li» bo'lsa, deb o'ylaysiz, u yerda esa deyarli barchasi Famusovga o'xshash kishilardan iborat edi. Chaskiy o'zining muhitida yengilganmidi? Ammo qanday qilib ovozga qo'yish mumkin bo'lgan? U... u telba edi... deb ovoza tarqatish!

Repetilovning butun monologi Angliya klubi a'zolari portreti emasmi?

Chaskiy. Choyxo'rlik klubida?

Repetilov... Angliya klubida!... Bizda jamiyat bor va maxfiy payshanba kunlar. Sir tutilgan ittifoq.

Chaskiy... Klubdami?

Repetilov. Xuddi shunday... Shovqin ko'taramiz, birodar, shovqin solamiz!

Chaadayevning Angliya klubi bilan aloqadorligini Gersen o'zining «O'tmish va o'ylar»ida eslatib o'tgan edi. Garchi u o'z asarlari tufayli telba deya e'lon qilingan bo'lsa-da, ko'zga tashlanmas, buning uchun uni mustasno etish mumkin emasdi. Ammo bu muvaffaqiyatli yakunlandi va Chaadayev yoshligidan boshlab, 1856-yil 14-apreldagi vafotiga qadar klubning aslo o'zgarmas a'zosi bo'lib keldi. Aytishlariga qaraganda, u «gap bozori»da Lermontovning Pushkin o'limiga bag'ishlangan she'rini o'qigan edi. U o'qidi, tinglovchilari «mashhur otalarning nomi chiqqan pastkash deb tilga olingan otalarning arziyas avlodlari edi»...

Chaadayev o'z maktublarida Angliya klubini ikki marta tilga olgan edi.

U 1831-yilda A.S. Pushkinga: «...men ba'zan – qani toping-chi, qayerda bo'lamen? Angliya klubida! Menga u yerda bo'lishingizga to'g'ri kelganini aytgan edingiz; meh sizni bu ajoyib maskanda qarshi olgan bo'lar edim, yunon ustunlari orasida, ajabtovur daraxtlar soyasida ko'rgan bo'lardim...» – deb yozgan edi.

Keyin umri poyonida Chaadayev, aftidan, pulga muhtoj bo'lib qolganida, amakisining qizi Sherbatovaga maktub yozadi:

«...Pirovardida klubga beriladigan kredit ellik so'm bilan cheklanadi, ushbu mablag' amakivachchangiz tomonidan allaqachon sarflangan»...

O'limidan ikki kun oldin Chaadayev yana Angliya klubiga kelgan va urush tugaganidan nihoyatda xursand bo'lgan. Bu paytda klubda siyosiy masalalar dadillik bilan muhokama qilinar, urush va krepostnoy huquq to'g'risida so'z yuritilar edi.

Hatto Nikolay I ham bunday mitinglarga hushyorlik bilan quloq solar, yaqinlariga tashvish bilan shunday degan edi:

– Bu haqda Moskvadagi Angliya klubida nimalar deyishayotgan ekan?

Nikolay davridagi eng mudhish kunlarda, hatto dekabristlar to'g'risida ham, bu yerda hech bir monesiz gapirishardi. Aynan o'sha «Keksalar jurnali»ning 24-sentabrdagi sonida shunday yozilgandi: «Klub ofitsianti Aleksey Gerasimovich Sokolov ertalab xonani yig'ishtirish uchun kirgan edi, stol ustida imzo qo'yilgan maktubni topib oldi. Unda «Jandarmlar polkovnigi Ivan Petrovich Bitikovga, keksalar tomonidan iltimosnoma topshirishni so'raymiz», – deb qayd etilgandi. Starshinalar Bibikovdan tavsiyaga ko'ra, maktubni yoqishga shaxsan qatnashishi so'ralgan, shunga ko'ra, Bibikov uni olishi kerak edi, ammo qabul qilmadi, maktub starshinalar ishtirokida yoqib yuborildi...»

Semenikovning (Gosizdat, 1921-y.) «N.I. Novikovning kitob nashr qilish faoliyati» deb nomlangan kitobida sanab o'tilgan kitoblar bilan birgalikda muallifi V.V. Chichagov sifatida tilga olingan kitob ham menga ko'p narsani eslatdi.

O'tgan asrda, saksoninchi yillarda bu keksa masonning hikoyalari yodida turgan kishilar bilan uchrashgandim, ular ham o'sha paytlarda Angliya klubining a'zosi bo'lgan. Shoir M.M. Xeraskovning uyi haqida ko'p gapirib berishdi.

M.M. Xeraskov davrida saroyning faqat o'rta qismi bo'lgan, uning ustunlari va yon tomondagi qo'shimcha bino va kolonnali fronton hamda sherlar haykali bilan bir darvoza 1812-yildan keyin Razumovskiy tomonidan qurilgan. Chunki Xeraskovlar bu mulkni 1807-yili shoir vafotidan keyin unga sotgan edilar. 1812-yilgi yong'indan ushbu inshoot omon qoldi, bu qalin daraxtzor bog' tufayli bo'lgani, shubhasiz. Agar hozir qo'shimcha qurilgan bino chordoqlariga kirsilsa, bosh korpus devorlarida oldingi yon tomondagi devorlarning bezaklari bus-butun saqlanganini ko'rish mumkin.

O'tgan asrning birinchi yarmida Razumovskiy saroyi palatalarida qarshilik ko'rsatadigan «gap bozori» mavjud bo'lib, uni podshoh eshitgan.

Yuz yil davomida shoir Xeraskovning ushbu uyida masonlar nutqi yangragan, so'ng ularning qamoqqa olinishi bilan tugagan.

1856-yili Chaadayevning o'limi bilan «gap bozori» xonasi «qahva xonasi»ga aylandi, unda dadil, mardona nutqlar o'rnini «Moskovskiy vedomosti»dan olingan maqolalar bayoni egalladi, bularni oromkursalarda yastanib o'tirgan yebto'y mas mechkaylar va yutqazib qo'ygan qimorbozlar tinglardi.

Oltmishinchi yillarda klubni kelib ko'rgan L.Tolstoy uni «Anna Karenina»da «bekorchilik ibodatxonasi» deb atagan edi. U ham «gap bozori»ni tilga olgan, ammo endi Pushkin davridagidek vaqtlar emasdi.

Knyaz Gagin bu xonaga Levinni boshlab kirar ekan, «aqli xona» deb ataydi. Xonada uch nafar janob siyosatda oxirgi yangiliklar to'g'risida gaplashishadi.

U boshqa joyda oltmishinchi yillarda Sibir surgunidan qaytib kelgan dekabrist Volkonskiyning klubdan olgan taassurotlarini bayon etadi:

«Zaldan o'tar ekan, stollarni egallagan keksalarni chetlab o'tib, turli o'yin o'ynayotganlar yonidan asosiy minbar turgan tomonga o'girilib qaradi. Unda taniqli «Puchin» o'z «kampaniyasi»ni ularning partiyasiga qarshi qo'ygan edi. Bu odamlar bir necha qariyadan iborat bo'lib, bilyardlardan biri yonida turar, bordan mahkam ushlab, o'zini sersavlat tutgan bir chol o'z sharini zo'rg'a tushirdi. Kutubxonaga qaraganida, qandaydir general ko'zoynak taqib, jiddiy sipolik bilan gazetani o'zidan sal nari tutib o'qir, tilga olingan o'smir shovqin ko'tarmaslikka urinib, barcha jurnallarni birma-bir ko'zdan kechirar,

u esa aqlli odamlar so‘zlashishga taraddud ko‘rayotgan xonaga qarab yo‘l oldi».

«Aqlli xona»ning o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, kelgan kishilar nimadir bilmoqchi bo‘lishsa, dunyodagi voqealar maxfiy bo‘lib qolmasligiga harakat qilishardi.

«Urush va tinchlik»da Moskvada Angliya klubida Bagration sharafiga berilgan dabdabali bal to‘g‘risida batafsil fikr yuritgan.

Moskvaning keyingi yuz yilligida ushbu dvoryanlar uyasida o‘tgan voqealarga aloqador adabiyotlar asosan shulardan iborat.

Buning hayron qolarli joyi yo‘q. Axir oddiy, shunchaki jurnalistni bu yerga qo‘yisharmidi?

Yo‘q va yana yo‘q!

Agar menga avvalgi va hozirgi yuz yilliklarda shu klubda bo‘lishimga to‘g‘ri kelganida, jurnalist sifatida emas, balki ovchilik va sport jamiyati a‘zosi sifatida ishtirok etishim mumkin edi. Chunki uning a‘zolari ayni paytda Angliya klubi a‘zolari ham hisoblanardi.

O‘sha paytda klub Razumovskiyga emas, balki Shablikinga qarar edi.

Uning bezatilishi haddan ziyod darajada hashamatli edi. «Infernal» zalidan tashqari boshqa joylarda jimjitlik hukm suradi. U yerda naqd pulga qimor o‘ynaladi: asr boshida klub a‘zolari orasida boy-badavlat savdogarlar paydo bo‘ldi, savdogar bor joyda esa, stol ustida pullar turadi.

Faqat «portret zali» o‘zining eski uslubini saqlagan. Zal uzun, unda lumber, ya‘ni qarta o‘ynaladigan stollar qo‘yilgan bo‘lib, hammasi faqat klubga doir kunlar bilan band (ya‘ni haftada ikki marta – chorshanba va shanbada).

Bu yerda kamtarona savdo o‘yinlari qarta bilan bog‘liq holda sokin, jimjit o‘tardi. Qariyalar o‘zlarining o‘n yillab o‘rgangan joylarida o‘ynardilar. Har bir stol burchaklarida eski, sham yog‘idan yasalgan shamlar turar va shunchalik sokin ediki, ularning shu‘lasi qimirlamasdi.

Vaqt-vaqti bilan o‘ynayotgan kishilar qo‘li bilan ishora qilib, xizmatkorlarni chaqirar, ular ham shovqinsiz, jimgina sharpa kabi qandaydir barin oldida paydo bo‘lar, ular qandaydir ikkoviga tanish ishora qilardi.

Xuddi barin kabi kekxa xizmatkorning soyasi bir daqiqadan so‘ng yo‘qolgach, qimor o‘ynaladigan stol yonida tuzalgan dasturxon paydo bo‘lardi.

Bu «portret zali» klub a'zolari tomonidan hazillashib, «bolalarniki» deyilardi. Keksalar o'ynagani uchun ularning ustidan kulish maqsadida emas, balki u yerda nihoyat darajada mayda o'yin o'ynalgani bois shunday deyilardi. O'yinchilar xuddi aqlli bolalar kabi devordagi portretda tasvirlangan mundirli kishilar bilan bab-baravar jim edilar. Bordi-yu, kimdir qarta o'yinida tortishib qolsa, hayratda qolgan boshlar ko'tarilar, buyruq ohangidagi «ts» yangrar, shu bilan hamma jim bo'lardi.

«Portret» zaliga peshzal orqali kirilib, klub aynan shu yerdan boshlanardi.

Avanzal, ya'ni peshzal o'rtasida katta stol qo'yilgan, unda ma'lum kunlarda ovoz berish uchun qutilar o'rnatilgan. Klubga tashrif buyuruvchi har bir kishi shu kunlarda keyingi xonalarga kirishdan oldin navbatchi starshina hamrohligida sharlarni qutilarga tashlashi lozim edi.

Haqiqiy a'zolikka ovoz berish boshlangan kunlar edi. Peshzalning barcha devorlari ostida ajabtovur yumshoq divanlar qo'yilgan va tushlikdan so'ng klub a'zolari va mehmonlar ularda sigaraning xushbo'y bulutlari ostida taomlarni hazm qilishardi. Keksalar esa xizmatkorlar gilos tusli qalamchalarda yondirib bergan chilimlardagi Jukovskiy tamakisini trubkaga qo'shib chekardilar.

Qariyalar ko'pincha peshzalda qo'yilgan divanlar va oromkursilarda o'tirib, o'tib-qaytganlarni kuzatish hamda shirin pinakka ketishni yaxshi ko'rishardi. Mening xotiramda ham shunday qadimgi chollar gavdalanar – ulardan biri butunlay «Aqllilik balosi»dagi knyaz Tugoxovskiy edi. Unga yumshoq mayin zamshli yoki movut etik kiydirib, sharf bilan o'rab, avanzal yoki «qahva ichiladigan» xonaga kiritib, o'zining oromkursisiga o'tqazishardi. Ulardan ham birining sevimli oromkursisi bo'lar, boshqa biror kishi band qilishga botina olmasdi.

– Gennadiy Vladimirovichning oromkursisi.

Chol o'tirib oldi, atrofga nazar tashlab, avval quloq solishga harakat qildi, so'ng jimgina uxlab qoldi.

Bu yerda krepostnoylik huquqi davridan beri xizmat qiladigan, keksa boyonning odatlarini yaxshi bilgan xizmatkor ma'lum vaqtda asboblardan va bug'i chiqib turgan kumush kosadan iborat stolchani uning oldiga qo'yardi-yu, soatga qarab, ohista uyg'otardi:

– Janobi oliylari!

Shu fursatda soat to‘qqizga zang ura boshlardi.

– Janobi oliylari, bo‘tqa qo‘yildi.

– A? To‘qqiz bo‘ldimi? Eshitdim!

Bo‘tqani tanovul qilgandan keyin uni kareta oldiga boshlab boradilar.

Peshzalning o‘ng tomonidagi «mevali» zalga o‘tiladi, u yerda stolda meva-cheva va konfetlar turadi. «Mevali» zal ortida esa katta oshxona joylashgan. Peshzalning o‘ng tomonidagi eshik avval ta‘riflangan «portretli» zalga boshlab boradi.

Klubda dastlab bo‘lgan paytlarimda o‘quv zaliga o‘tgan edim, «gap bozori»da harbiycha kiyingan chol va burchakdagi oromkur-sida o‘tirgan ikki nafar formali kishiga birrov ko‘zim tushdi. Ularning oldida hadeb burniga qo‘ndirilgan ko‘zoynagini to‘g‘irlayotgan, guberniyani boshqaruvchi «saroy qatlami»ni tinimsiz boloxonador so‘kayotgan ulkan gavgdali, qora syurtuk kiygan, kuch-quvvatga to‘la kishini ko‘rdim.

Bu mashhur vinochi Lev Golitsin edi. U bir zamonlar Moskva universitetini tugatgan, professor Nikita Krilovning sevimli kishisi bo‘lib, taniqli gapdon, qizg‘in tortishadigan, «hech qanaqa amal va ordenlarni isnodga qoldirmagan»ini doimo aytib maqtanadigan odam edi.

O‘tirgan harbiy kishi A.A. Pushkin – shoirming o‘g‘li edi. Ikkinchisi, chekka sochlari oqara boshlagan shaxs, gubernator V.S. Perfiyev bo‘lib, u Tolstoyning «Amerikalik» qiziga uylangandi.

Lev Golitsinni ham o‘sha paytda (saksoninchi yillarning boshida) keskin va haqoratli so‘zlari uchun Angliya klubida yoqtirishmasdi. Lekin Lev Golitsin hech kimdan qo‘rqmasdi. U qishin-yozin mujiklar kiyadigan yelkalari keng qunduz po‘stinda yurar, ulkan gavgdasi ko‘chada hammaning diqqatini tortar edi.

Izvoschilar Golitsinni «yovvoyi barin» deyishardi. Tatarlar esa uning Kavkazdagi mulkida «Aslan Deli» – telba Sher deb tilga olishgan.

Golitsin pullarni o‘ng-u so‘lga tashlab sovurar, hech kimdan, ayniqsa, o‘quvchi yoshlardan hech nimani ayamasdi. General-gubernator uyi yonidagi Chernishevskiy tor ko‘chasining Tverskiy burchagida ajoyib Qrim uzumlarining eng yaxshi navlaridan qilingan vino do‘konchasini ochgan edi. Bu yerda har shishasi yigirma besh tiyindan bo‘lgan toza, tabiiy vino sotilardi.

– Men ishchi, usta, kichik xizmatchilar yaxshi vino ichishini istayman! – der edi u.

To‘qsoninchi yillarning oxirida qandaydir siyosiy namoyish bo‘lib o‘tdi. Unda general-gubernator uyi yaqinida jandarmlar namoyishchilarni o‘qqa tutib, qilichlar o‘ynatib, talabalar hamda ishchilar olomonini tarqatdilar. Namoyish tufayli, albatta, barcha do‘konlar taqqa-taq berkilgan edi.

Men bir necha odam yiqilgani, olomon Strastnoy maydoniga tomon tashlanganini ko‘rdim. Shu payt Golitsin do‘koniga tegishli eshik ochilib, syurtuk kiygan, soch-soqoli oqargan, baland bo‘yli, barvasta gavdali egasi ko‘rindi. U politsiyaga qichqirib, yaradorlarning yarasini bog‘lash uchun do‘konga olib kirishni talab qildi.

Bir daqiqadan so‘ng do‘kon o‘zini qutqarishga uringanlar bilan to‘ldi. Orqa tomondagi xonada A. Golitsinning qizi va xotini yaradorlarning jarohatini bog‘lashardi. Golitsinning o‘zi esa shisha idishlarni birma-bir ochib, qimmatbaho vino bilan hammani mehmon qilardi.

Politsiya eshikni taqillatganida, u do‘kon eshigini qulfladi-da:

– Men tug‘ilgan kunimni nishonlayapman, bular mening mehmonlarim, – deb qichqirdi.

Shundan so‘ng orqa eshik orqali politsiya qo‘liga tushishi mumkin bo‘lgan barchani chiqarib yubordi. Boshqa kuni esa «gap bozori»da klubdagilarga hukumat harakatlaridan achchiqlanganini aytdi.

Albatta, Angliya klubining bunday a‘zosi maxfiy maslahatchilar didiga mos kelmasdi, lekin baribir unga quloq solishdi.

Bir kuni klub «gap bozori»da Lev Golitsin baland ovozda qo‘llarini yoygancha, har daqiqada ko‘zoynagini to‘g‘irlab, qizg‘inlik bilan aroqni man etish, xalq faqat toza uzumdan qilingan vino ichishi kerakligini ta’kidladi.

– Biz boy-badavlatmiz, mamlakatimiz janubi uzumchilik uchun yaratilgan!

Novcha, qorachadan kelgan, mo‘ylovlari buralgan ko‘rkam yigit – V.N. Martinov e‘tiroz bildirishga urindi. U Lermontov qotilining o‘g‘li bo‘lib, o‘lka knyazligiga qarashli idoraning ko‘zga ko‘ringan amaldori edi. Qarshisida soch-soqoli oppoq chol turardi. U o‘zining xotiralari bilan qo‘shnilarini tanishtirardi. Lermontov, Pushkin, Gogol nomlari eshitilardi.

Bu mashhur ot zavodi egasi hamda maroqli memuarlar muallifi, Pushkinning muxlisi va Gogolning do'sti A.A. Staxovich edi. U Elsdagi o'zining «Palna» mulki parkida Pushkinga haykal qo'ygan: granit supada byust o'rnatgan edi.

Bu yerda boshqa toifadagi kishilar ham bor edi. Saksoninchi yillarning boshida Moskva vitse-gubernatori, anchayin quvnoq kishi I.I. Krasovskiyning butunlay sochsiz boshi yaltirab ko'rinardi. U to'g'risida, Shumaxer bo'lsa kerak, shunday to'rtlik yozgan edi:

*Moskva nazoratchisi o'zi-ku, go'zal,
Butun gubernyada yagona xushro'y.
Ivan Ivanovich Krasovskiy,
Qayga ketdi boshizdagi soch?*

Ober-politsmeyster A.A. Kozlov ham bo'lib, uncha-muncha yong'inni o'tkazib yubormasdi. Oldindan o'rnatilgan tartibga qaraganda, har bir yong'indan Angliya klubi xabardor qilinardi: maxsus xizmatkor zalga kirar, asta qo'ng'iroq chalar va sokin ovozda ma'lum qilardi:

- Shaharning beshinchi qismida yong'in, Ilyinkada.
- Rogojkada, Durnoy tor ko'chasida, uchinchi raqamli yong'in.

Bu xabar birinchi yetib kelgan zahoti, tushlik yoki kechki ovqat mahali bo'lishidan qat'i nazar, A.A. Kozlov darrov yo'lga tushar, hamisha ekipajda bo'ladigan kaskani boshiga, nam o'tkazmaydigan plashni egniga kiyardi. Yong'indan so'ng u klubga qaytar, tushligi yoki kechki ovqatini oxiriga yetkazardi.

Ba'zan «qahva ichiladigan joy»da «Rus arxivi» noshiri P.I. Bartenev va dramaturg K.K. Tarnovskiy to'planishardi.

«Gap bozori» ortida katta mehmonlar qabul qilinadigan maskan bo'lib, u yerda ham xuddi «portretli» xona kabi qarta o'ynaladigan stollar qo'yilgan va tijoriy o'yinlarga aloqador yirik o'yinchilar egalagan edi.

O'n minglab so'm pullar kulka va robber kabi karta o'yinlarida tamom bo'lardi.

Katta mehmonxona oxirida «galereya» nomli uzun xona bo'lib, undan bilyardxonaga, o'quv zaliga o'tilar, shuningdek, u yerdan boqqa o'tish mumkin edi.

Bilyard xonasi L.N. Tolstoy tasvirlagan eski qiyofasini saqlagan. Hatto, kamina 1912-yili oxirgi marta borganimda, u yerda L.N. Tolstoydan xotira bo‘lib qolgan xitoycha bilyardga ko‘zim tushgan edi.

Ana shu o‘yinda Lev Tolstoy o‘tkinchi ofitserga ming so‘m yutqazgan va noqulay daqiqualarni boshidan kechirgan: to‘lash uchun pul yo‘q, klub qoidalari esa shafqatsiz – «qora taxta»ga tushib qolish ham mumkin edi.

Buning nima bilan tugashi ham noma‘lum edi; lekin shu yerda «Russkiy vestnik» va «Moskovskiyeye vedomosti» gazetalari muharriri M.N. Katkov klubida hozir bo‘lgan edi. U gap nimada ekanligini bilib, L.N. Tolstoyga to‘lashi uchun ming so‘m qarz berdi. «Russkiy vestnik»ning kelgusi sonida Tolstoyning «Kazaklar» nomli qissasi bosilib chiqdi.

Binoga kirish joyining chap burchagida «galereya»ning «infernal» hamda «starshinalar» xonasiga o‘tadigan joyda darcha bor edi. U yerda starshinalarning biror tortishuvi yoki mehmonlar va klub a‘zolari o‘rtasida qandaydir anglashilmovchilik yuz berganida, shoshilinch yig‘inlari bo‘lib o‘tardi. Bu yerda aybdorlar ustidan sud o‘tkazilar va ularning nomlari «qora taxta»ga tirkalar edi.

«Starshina» nomli xona bilan yonma-yon ichki yo‘lak va xona bo‘lib, uni xizmatkorlar «xavotir» deb, klub a‘zolari esa «qarolxona» deb atardilar. Bu yerda qimorbozlarning xizmatkorlari «infernal» xonada o‘tirib, o‘z xo‘jayinlari va janoblarini kutishar, boyonlarning yog‘och divanlarida tashlab qo‘yilgan po‘stinlarida pinakka ketishardi. Ushbu «kutish zali» kelgan xizmatkorlarga mo‘ljallangan, ularning kareta va chanalari ular uchun xuddi orqa o‘rindiq hisoblanar va klub vazifasini bajarardi. Xizmatkorlar bu yerda o‘z xo‘jayinlarini g‘iybat qilishar, gap-so‘z qilib, hamma joyga tarqatishar edi.

«Galereya» va bilyardxonada orqasidagi xonada qo‘shimcha qurilgan, Razumovskiy tomonidan 1812-yildan so‘ng ishga tushirilgan qiroatxona mavjud edi. Ushbu zalm Jilyardi qurgan edi.

Kirasan – odatda hech qanday ommadan darak yo‘q. Yumshoq oromkursida o‘tirasan. Biror tovush eshitilmaydi. Faqat qadimiy soatlarning tiqillashi quloqqa chalinadi. Qizil stol ustida hayratlanarli tarzda taxlab qo‘yilgan gazeta-jurnallarga kamdan kam holda qo‘l tegiziladi. Yashil qandillar ularga nur sochib turadi.

Xeraskov davridagi rassomlar ijodi bo‘lmish gumbazlar, marmar ustunlar bezagi jimjit hamda savlat bilan yuksalib turadi.

Javonlarning oynavand derazalari orasidan charm muqovaga olingan zarhal yozuvlar yarqirab tovlanadi. Derazalar pardalar bilan qoplangan. Faqat derazaning tepa, yarim doira qismidagi pardasiz joyidan qoramtir osmon boqib turadi.

Ganchkor karnizli ajoyib ustunlar, masonlarning maxfiy yig‘inlarini eslatib, sukut saqlashga o‘tadi. Rivoyatlarga qaraganda, bu yerda Xeraskovning kabineti bo‘lgan. Yarim qorong‘ilik orasidan qandaydir bo‘rtma naqsh – ritsarlarning boshi ko‘zga tashlanadi.

Yarim doira deraza orqali bulutlar orasidan oy ko‘rindi-yu, yana ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi... Soat millari yarim kechani ko‘rsatib turibdi. Bu soatlarning o‘n ikki marta zang urishi yaqin zallarda ham boshlanib ketdi – alohida qalin yo‘g‘on tovushda qadimiy ingliz soatlari yangrab, go‘yo Sevastopol suhbatlarini eslatar, ehtimol, Pushkinning podsholarga nisbatan epigrammalari va Lermontovning shoir vafotiga bag‘ishlangan ehtirosli misralarini yodga solardi...

«Bayram ibodatxonasi» tantanali ziyofat kunlarida o‘zgacha jilvada namoyon bo‘lardi.

Bunday ochofatlik ayyomlarida kech soat oltida Angliya klubi to‘lib-toshardi. Keksalar, yoshlar, mundirlar, fraklar... To‘da-to‘da bo‘lib turishar, yurishar, suhbatlashishar, «gap bozori» xonasiga yaqin «mehmonxona» odamlarga liq to‘lardi. Katta mehmonxona eshiklari yopiq: u yerda ichish va gazak uchun katta dasturxon tayyorlanayotgandi.

– Mavsumga rioya qilish kerak, – dedi xo‘jalik bo‘yicha boshliq P.I. Shablikin, u ulug‘ mazaxo‘r bo‘lib, o‘zining butun boshli xonadonini yeb tashlashga ham tayyor edi. – Hammasi joyida bo‘lishi uchun mavsumga rioya qilish kerak. Qaysi taomni qaysi paytda qo‘yishni bilish shart. Martdagi oq baliqni yangi bodringlar bilan avgustda bera olmaysan-ku!

P.I. Shablikinda hamma narsa mavsumda shay bo‘lar, u hech nimanı esdan chiqarmasdi. Shunday vaqt bo‘lardiki, yangi yilda Uraldan baliq uvuldurig‘i olib kelinsa, Angliya klubida totib ko‘rishi birinchi darajali ish edi.

Damlamalar ham mavsumga muvofiq, shuningdek, turli vishillaydigan suvlar – bular endi klubning siri edi...

Lekin mana endi zallardagi soatlar olti bo'lgach, birin-ketin zang chala boshlardi. Katta mehmonxonaning eshiklari ochiladi, tovushlar pasayadi, shiqirlash boshlanadi, shporlar jarangi eshitaladi... Olomon gazaklar qo'yilgan stol atrofini o'rab oladi. Icha boshlashadi. Rop-pa-rosa bir soat ichadilar va gazak qiladilar. So'ng – o'quv zalidan soatning birinchi zangi eshitaladi – yetti va navbatchi urishtirilayotgan qadahlar, taqirlyotgan pichoqlarni bosib yuborguday baland jarangli ovozda e'lon qiladi:

– Taom tortildi!

Ikki yuzga yaqin shukuhli odamlar to'dasi «gap bozori», «bolalar», «mevali» zallardan o'tib, klubni peshzal bilan ajratib turadigan katta oshxona tomon harakat qiladi.

Kim qaysi joyni yaxshi ko'rsa, o'sha yerga o'tiradi.

Xorda – musiqa orkestri. Undan quyida, estradada xor yoki lo'lilarniki, yoki majorcha, yoki ruscha «Yara» xori.

Oshxonadagi estrada – ayollarning kiradigan yagona joy bo'lib, shunda ham faqat xorga ruxsat berilardi. Belgilangan klub qoidasiga ko'ra, klubga birorta ayol kirishiga yo'l qo'yilmagan. Hatto pollarni ham erkaklar yuvishgan.

O'tirishdi. Kexsa lo'li Fyodor Sokolov oqargan mo'ylovini silab, ko'zini charaqlatdi, oyog'i bilan tepindi, gitara torini chertdi va lo'lilar xori gumburlab qo'shiq boshlab yubordi.

Chap tomonda, stollar yonida, bug'i chiqib turgan kastyullar tarafda oppoq libos va ohorlangan oppoq qalpoqlar kiygan, qo'llarida kumush cho'mich ushlagan barcha «bayram ibodatxonasi» xizmatchilari haykaldek turishdi.

Hozir shu zalda Inqilob Muzeyi joylashgan.

Endi bu klubga kirish mumkin emas. Ko'pchilik dvoryanlarda dabdabali yurishlar qolmagan. Klub faoliyati susayib, oltmish kishi o'rniga yigirma nafar qolgan. Kamdan kam hollarda taniqli savdogar vakillari a'zolikka qabul qilinadi.

Faqat klubning qarta o'ynaladigan xonalarida odamlar ko'paygan. Chunki faqat Angliya klubida qimor o'ynash huquqi berilgan, Moskvadagi boshqa klublarda bu o'yin man qilingan, lekin bari-bir maxfiy olib boriladi. Angliya klubida faxriy boshliq general-gubernator bo'lib, ober-politsmeyster – doimiy a'zo, shu bois bu yerga politsiya qorasini ko'rsata olmaydi.

1905-yil inqilobidan so'ng barcha klublarda bemalol qimor o'ynala boshlangach, klub ishlari yana susayib qoldi; daromad topishning yangi usullarini topishga to'g'ri keldi.

Shu maqsadda alohida komissiya saylashga to'g'ri keldi. Saylanganlar bo'm-bo'sh yotgan hovlidan foydalanishni o'ylab qoldilar: ravon panjara va tarixiy fillar, qator savdo maskanlari orasidan Tverskiy tomon yo'l o'tkazmoqchi bo'lishdi.

Komissiyaning bir necha a'zolari saroyning go'zalligi hamda an'analarga raxna yetkazilganidan achchiqlanishdi. Alohida fikr bildirib, «klubga uning an'alariga to'g'ri kelmaydigan qaltis, xatarli muassasalar kirishiga yo'l qo'yilmaydi», – deb, «uy fasadiga zarar yetkazmaslik, savdo maskanlariga joy bermaslik kerak», degan taklif bilan yakunladilar.

Ko'pchilik yangi a'zolar o'z kuchini o'tkazdi va Angliya klubining g'oyat go'zal fasadi, shoir Xeraskovning tarixiy uyi, Razumovskiyning saroyi savdo maskanlari oralig'idagi joyda qoldi, sherlar haykallari esa yerto'laga tashlandi.

Klub faoliyati tobora yomonlashdi, undagi odamlar ham butunlay boshqacha va shanba kungi tushliklar, tantanalar endi yo'q – ham zerikarli, ham odam kam edi... Tushliklar faqat o'n-o'n besh kishiga tayyorlanardi. Oxirgi tantanali tushlik klub avj qilganida, Romanovlar xonadonining 300 yilligi nishonlangan 1913-yilda o'tkazilgan edi.

U yerda esa imperialistik urush xuruj qilardi. Klubning yarmi gospitalga ajratildi. Umuman aytganda, klubga kirish, dahliz, «portretxona», «qahvaxona», katta mehmonxona, o'quv zali va oshxona qolgan edi. Tverskiy tasarrufiga kiradigan barcha xonalar gospitalga o'tdi. Qo'shimcha qurilishlar o'tkazila boshlandi. «Infernal» o'yinlari uchun katta mehmonxona almashtirib berildi, u yerda o'rtaga qo'yilgan stollarda bakkara, qimor kabi o'yinlar o'tkazilar, «bolalar» zalida esa oldingidek kichik, mo'jaz o'yinlar uyushtirilardi.

Klub shu ko'rinishda 1918-yilga qadar faoliyatini davom ettirdi, birorta muassasa o'z ehtiyojini qondiradigan darajaga yetguncha shu holatda qoldi.

Xalq maorifi komissariati Tarixiy yodgorliklarni saqlash va qo'riqlash komissiyasining dastlabki farmoyishlaridan birida saroy fasadlari oldidagi savdo maskanlarini yo'qotish kerakligi ko'rsatib o'tilgan edi.

Inqilob sherlar uchun temir panjaradan iborat ajoyib fasad ochdi, ularni yana darvozalar oldida o'tkazishdi. Sobiq Angliya klubi zallarida eski Moskva muzeyi tashkil qilindi.

Nihoyat, 1922-yilda sobiq Angliya klubining yangi qiyofa kasb etgan zallarida tantanali ravishda «Qizil Moskva» ko'rgazmasi ochildi, bu Inqilob Muzeyining muqaddimasi edi. Inqilob Muzeyining sobiq «bayram ibodatxonasi»dagi dastlabki ko'rgazma hisoblanardi bu.

Ko'rgazma 12-noyabrda kech soat 6 da ochildi. Sovuq, bir necha yillar davomida isitilmagan Angliya klubi zallarida elektr chiroqlar yorqin porladi. Qizil bayroqlar qadimiy devorlarning sovuq marmarlarini yoritib yubordi. «Portretli» zaldan gap-so'zlar, qadamlarning tapillashi, shporlar jarangi eshilib qoldi...

Yana «portretli zal». Faqat endi portretlar boshqacha. Endi devorlarda Moskvadagi oktabr inqilobi jangchilarining portretlari va surat-lari osilgan edi.

Zal to'lgan. Xalq komissarlari, muassasa, ishchilar tashkilotlari namoyandalari... Palto, pidjaklar, charm kurtkalar, harbiy shinellar... zal mavjud bo'lganiga yuz yil to'lganidan buyon birinchi marta faxriy mehmonlar sifatida ayollarni ko'rdi. Mehmonlar guruh-guruh bo'lib, burchaklar va vitrinalar oldida to'planishib turishibdi. Ularning har biri o'ziga yaqin kishini topadi, ichki his-tuyg'ulari bir-biriga mos bo'lganlarni izlaydi.

Qurollar osilgan devorlar, oxirgi janglardan, Moskva uchun kurashlardan qolgan fotosuratlar xalq komissarlari yordamida zamon-doshlar tomonidan yig'ilgan... Ulardagi epizodlardan bir-birlarini ta-niydilar... Gaplashadilar...

Jangchilar o'tgan kunlarni xotirlashadi va birga urishgan janglar esga tushadi.





STUDENTLAR

Saksoninchi yillardagi ijtimoiy hayotga qadar Moskva o'z hayoti bilan, universitet esa o'z hayoti bilan yashagan.

Talabalarining asosiy qismi oltmishinchi yillarda qishloqdagi kambag'allarning bolalari, dvoryan bo'lmagan tabaqalardan yetishib chiqqan ziyolilar farzandlaridan iborat bo'lib, «Lotin mavzesi»ga singib ketgan, Bronnaya va Palashev tor ko'chalari o'rtasida joylashgan, boshqa uncha katta bo'lmagan ko'chalar yog'och qurilishlar hamda mayda-chuyda kvartiralar bilan to'lib-toshgan edi.

Shu bilan birga, ikkita katta, tashlandiq hisoblangan Chebishev-larning dvoryan uylaridan tashqari, Katta Bronnayadagi joylarning barchasi butunlay studentlar bilan band qilingandi.

Birinchi uy o'z odamlari orasida «Chebishev qal'asi» yoki shunchaki «Chebishi», ikkinchisi esa «Do'zax» deb ulug'lanardi. U Nechayev davridan qolgan meros edi. Oltmishinchi yillar oxirida bu yerda shtab-qarorgoh bo'lib, nechayevchi-talabalar yashar, oldinroq karakozovlar, «Do'zax» deb nomlangan to'garak a'zolari istiqomat qilishgandi.

«Lotin mavzesi»dagi studentlar kvartirasining har bir xonachasida, odatda, to'rt kishi yashardi. Sharti ketib, parti qolgan to'rtta karavot stul vazifasini ham bajarar, stol va kitob tokchasi bor edi, xolos.

Talabalar nimaiki to'g'ri kelsa, kiyib ketishaverardi: katta to'rt kvartirantda ikki juft etik, ikki juft ko'ylak bo'lib, ular navbatga qo'yilgan: bugun ikkovi ma'ruza eshitishga kiyib boradi, qolgan ikkitasi uyda o'tiradi; ular ertaga universitetga boradi.

To'rtovlon oshxonada ovqatlanishar yoki issiq taomsiz bir navi tanovul qilishardi. Choy o'rniga sachratqi damlashardi, uning aylana shaklidagi tayoqchasining to'rt funti uch tiyin turar, to'rtovlonga o'n kunga yetardi.

O'quv yili boshida har bir uyning darvozasida xonani ijaraga berish bo'yicha e'lon qog'ozi osilardi. Avgustning yarmiga kelib, bu e'lon qog'ozlari asta-sekin g'oyib bo'la boshlardi.

Yetmishinchi yillarda talabalarda hali forma kiyish rasm bo'lmagan edi. Lekin baribir ular modaga rioya qilishardi. Va studentni hamisha qaddi-qomati, ko'rinishi va kostyumiga qarab tanib olish mumkin edi. Ko'pchiligi, hatto radikallari ham oltmishinchi yillar urfiga muvofiq kiyingan, albatta. Sochlar uzun, gardishi keng shlyapani peshanasiga qadar bostirishardi, ba'zan kiyinishiga zeb berib, qalin jun ro'mol va ko'zoynaklar yoshlarga olimona qiyofa va jiddiylik berib turardi. Studentlar saksoninchi yillarda, ijtimoiy taraqqiyotga qattiq qarshilik ko'rsatish va inqilobiy harakatni bostirish siyosati davrlarida ana shunday kiyinar edilar.

Aleksandr III taxtga o'tirgach, qat'iy tartiblar o'rnatilgan boshlandi. Bu mezonlar universitetga ham suqilib kirdi. 1884-yilgi Nizom professorlik avtonomiyasini yo'qotdi va oliy ma'lumotli kambag'allikni bartaraf qilish maqsadida ma'ruza tinglash uchun to'lov ikki barobarga oshirildi. Shu bilan birga, yangi xarajat qo'shildi – studentlar yangi forma kiyishi: mundir, syurtuk va gerbli tugmali palto hamda ko'k kizakli furashkada yurishi shart edi.

Nizom talabalikni butunlay to'zitib yubordi. Norozilik namoyishlari, ur-yiqit va janjallar boshlandi, ammo bular universitet devorlaridan tashqariga chiqmasdi. «Moskovskiye vedomosti» hukumat gazetasi reaksiyani qo'llab-quvvatladi, yangi Nizomni himoya qilib, qator maqolalar bilan talabalarga yopirildi. Studentlarning ko'chaga ilk bor namoyishga chiqishi shu gazeta chaqirig'iga javoban yuzaga kelgan edi.

Oxotniy ryad bilan boshlanadigan Katta Dmitrovka Strastniy xiyobonining o'sha qismidan biri Nareshkin skveri deb atalardi. Ushbu ko'chadagi uchinchi uy savdogarchilikning qo'liga tushmay, Katta Dmitrovkaning o'ng tomonida tugab, xiyobonga chiqardi. XVIII asr oxirida bu uyni rotmistr (kavaler zobiti) Talizin qurgan edi. 1812-yilda uning bevasi uyni Moskva universitetiga sotdi. Roppa-rosa yuz yildan so'ng 1818-yildan 1918-yilgacha bu binoda universitet bosmaxonasi joylashib, «Moskovskiye vedomosti» yuz yil nashr etildi.

Aytish joizki, bosmaxona joylashgan uy, biror marta ham ta'mirlanmagan, hatto tashqi tomoni bo'yalmagan edi. U poytaxtda

ko'rinishi eng irkit bino bo'lib, suvoqlari ko'chib tushgan, oynalari hech qachon artilmas, ichki tomonini is bosib, qorayib ketgan edi. Ulkan bosmaxona kerosinli chiroqlar bilan yoritilar, shift va devorlar qorayib ketgan, agar kechki navbatchilikda turgan harf teruvchilar sarg'ish tusda bo'lsa, qora dud tufayli qora tusga kirib yurardilar. Bosmaxona derazalari Dmitrovka tomonga qaragan bo'lib, muhtasham hovli esa skverda joylashgan, undan tahririyat va muharrir kvartirasi o'rin olgan edi.

Maxsus yig'in qaroriga muvofiq, «Moskovskiye vedomosti»ni jazolashga kirishdilar. Talabalar olomoni politsiya uchun kutilmaganda Narishkin skverida yig'ildi. Gazeta derazasi oldida qichqiriq, baqirchaqir, so'kinish, qiy-chuv ovozlari yangradi. Muharrir derazasiga chirigan bodring va sasigan tuxumlar uloqtirildi.

Politsiya paydo bo'ldi, qo'shni kazarmadan jandarmlar divizionini kelib qoldi va namoyishchilarni quvish, tarqatish boshlandi. Shu lahza ichida gazeta derazasiga toshlar kelib tushdi, shishalar singani eshitildi...

Xiyobon o'rtasida otliq jandarmlar talabalar ortidan tushdilar. Bir tomondan qamchi, ikkinchi tomondan, darra va toshlar bilan ishga tushdilar. Xiyobon bo'ylab otlar chavandozsiz yugurib yurar, qo'shni ko'chalar esa qiziquvchi kishilar – tomoshabinlarga to'lib ketgan edi. Ur-yiqit, mushtlashish hamma joyga yoyildi: politsiyaga yordam uchun kazaklar chaqirildi. Ular olomoni o'rab olib, kuchli konvoylar nazorati ostida Butirka turmasi tomon surib borishdi. Yuqorida ta'rifi berilgan «Lyapinka» nomli rassomlik bilim yurti yotoqxonasi talabalari xiyobon bo'ylab butunlay yoyilgan, «odam sepilgan edi».

Xiyobonda qurshovga olingan talabalar to'dasi orasiga tasodifan bir qism odamlar tushib qoldi. Ular Strastniydan Butirka turmasi tomon surilib borar ekan, to'da boshida turgan davangirday, tulki terisidan po'stin kiygan, shapkasiz kishi diqqatni o'ziga tortdi. U pudratchi quruvchi Gromov edi. Uni butun Moskva alpdek qaddi-qomati tufayli yaxshi tanir edi. Har qanday to'da orasidan Gromovning boshi atrofdagilarda ikki qarich baland ko'rinar edi. U ur-yiqitda tasodifan traktirdan chiqq turib, to'daga tushib qolgan edi. Otliq jandarm qamchi bilan Gromovning yuziga tushirdi. Bunga javoban pahlavon jandarmni otdan yulib oldi-yu, qor ustiga uloqtirdi. Natijada u vazminlik bilan turmaga ravona bo'ldi.

Ko'chada yo'lak ustida qiziqib tomosha qilayotganlar orasida xizmatchisi ham turgan edi, Gromovni ko'rib qoldi.

– Sidor Martinich, sizga nima bo'ldi?

– Agapich, uyga chop, aytgin-ki, men studentlar bilan revolyutsiyaga tushib qoldim! – kuchi boricha hayqirib yubordi Gromov.

– Inqilob... Inqilob... – degan tovushlar eshitildi to'da orasidan va bu butun Moskva bo'ylab yangrab ketdi.

Lekin inqilobga qadar hali vaqt uzoq edi!

Bu chiqish ham boshqa qarshilik ko'rsatishlar qatori tashkil qilinmagan o't olishlar kabi universitet devorlari orasida qolib ketdi. Ularni qamoqqa olish, surgun qilish, chiqarib yuborish bilan qarshiliklarni sindirishardi. Ko'pchilik moskvaliklar bularni bilmas, chunki gazetalarda bu haqda yozish man qilingan edi.

1887-yili talabalar Nizomida yangi qo'shimcha moddalar kiritildi, unda universitetda o'qiydiganlarning namoyishlarda qatnashishi cheklab qo'yildi. Bu hol nazoratning o'ta kuchayishiga olib keldi. Iskovuchlarning hadeb aralashaverishi studentlarning sabr kosasini to'ldirib yubordi. Yana yirik ko'cha to'qnashuvlari boshlanib ketdi. Unda o't ochish qurollari ham ishlatildi, ammo bu ko'pchilik orasida sezilmay o'tib ketdi.

Talabalar har yili ko'chaga ko'proq chiqa boshlardi. Va politsiya ham hamisha ko'z-quloq bo'lib turardi. Universitet yonida endigina ur-yiqit boshlanganda, shu zahoti harakatni to'xtatib, mirshablar va jandamlar barcha ko'chalarni, Katta Nikitskka boradigan ko'chani zanjir kabi o'rab olar, Moxovoyni, Vozdvijenka yonidagi Oxotniy ryadni halqaga olar edilar. Shunda manej eshiklari ochilar, ko'chadan studentlarni u yerga sudrab kirishar, ular bilan birga ko'chada bo'lgan odamlar ham qo'lga tushar edi.

O'tgan asrda eng yorqin talabalik namoyishlaridan birida yuz ellikdan ortiq studentlar askarlikka olingan va ularning izidan «vaqtinchalik qoidalar»ni bekor qilishni talab qilganlar ham hukumat tomonidan askarlikka jo'natilgan edi.

Bu choralarning barchasi talabalar to'lqini, ularning qarshiligini kuchaytirdi, butun ziyolilar, aholi keng qatlamlarining to'la-to'kis hamdardligini oshirib yubordi. Lekin matbuotda bu haqda bir og'iz ham batafsil ma'lumot berilmadi, hech qanaqa mulohazalar bildirilmadi: hammasi imi-jimidaligicha qoldi.

Shunda ko'pgina she'rlar oshkor e'lon qilinmay, qo'lma-qo'l tarqalib ketdi. Mana shulardan biri:

Tarqating!

«Oqillik, yaxshilik, abadiylik tarqating»,
Talabalarni tarqating, yer qa'ri qadar,
Toki bilsin dard-u g'am, dog'ni,
Toki sho'rliklar bilsin barini.

*Tarqating, toki hislar ezgulik
Urug'in joylasin ko'zlar aro.
Bu yoshlar aro ozodlik so'zin,
Ruslar ochsin ko'zini mudom.*

*Mayli, bilsin, odatlar qo'pol,
Yana ko'proq zeb bersin o'zga.
O'lka qayta to'lsin ilm-fan aro,
Qovilmasin bilim, ma'rifat.*

*Mayli, hamma bilsin, kas qolmasin,
Bilsin devorlari hamon o'shanday.
Jallodlar ham qayragan qilich,
Ilg'or kuchlar sochadir g'azab.*

*Keng dalalar bo'ylab shamollar,
Bepoyon Rus uzra yoyilgan.
Yangi kuchlar har yon sepilmish
Yangi g'oya urug'i yorqin.*

*Ular axir, uzoq vaqt, ancha
Ishonmay ozod g'oya haqiqatiga.
Endi angladilar o'lchab, hisoblab,
Farzandlarin quvg'in etilganiga.*

*Barchasin quvdilar, lekin barin,
Bo'larmikan barin mavh etib.
Pastkashlikning bormi qiyosi,
Bu halokat sizga munosib!*

Haqiqatan, butun Rossiya bo'ylab barcha shaharlarga askarlikka jo'natib yuborilgan studentlarni hamma joyda samimiy kutib olib, il-

gari bu haqda jim bo'lganlari haqida aytardilar. Bu uzoq, xilvat qishloqqa ham inqilob yetib borganini anglatar edi.

Boshqa she'rmi, ya'ni «Sudak balig'i va ober-politsmeyster»ni olib ko'raylik. Unda Moskvadagi tartibsizliklar haqida aytiladi. Bu she'r ham chop etilmadi, ammo bosma holda tarqalib ketdi:

*Men g'oyat tashvishli hollarni ko'rdim,
Boshim qandaydir og'rib ketdi aylanib.
G'azabkor talabalar ko'tarar shovqin,
Qadim Moskva turar quvillab.*

*Olomon ketidan shoshilar to'da,
Hushtaklar... Ura... Qamchilar... Fig'on...
Atrofdan askarlar... kazaklar ortidan
Jandarmlar tortar yashil bir qator.*

*Ko'chalar ham xuddi shu kabi,
Hamma joyda xalq... har yonda askar...
Talabalar turar maneжда pana,
Asov daryo kabi ko'tarar shovqin.*

*Talabalar ortidan gangigan
Xalqni ham kiritar quvib.
Hammani, kim qichqirgan, kim qolgan,
Hatto o'tkinchi yo'l ham qolmagan,
Bari maneжда tiqilgan shunda!*

*Ish qizg'in,
Qo'shinga omad osonmas hali...
Ovla! Ot surib qol!
Oshpaz ayol borar,
Qo'ltig'ida sudak balig'i...
Jasur askarlar toshadi qaynab!*

*Manyovr... Boshqacha... Va yengishdi!
Kim qilich ila, kimdir nayza-la,
Maneжда esa o'rnashdi oshpaz,
Qo'ltig'ida esa sudak balig'i...*

Qo'ltig'ida sudak balig'ini tutgan oshpaz xotinni haqiqatan maneжда quvib kirishganida va talabalarning yangi to'dasini univer-

sitetdan Moxovoy tomonga qarab surib borayotganlarida to'satdan ko'rib qolishdi: qo'sh ot qo'shilgan baland o'rindiqli chanada ober-politsmeyster shitob bilan borardi. Ko'chaning o'rtasida turgan talabalar tufayli sekinroq yurishiga to'g'ri keldi.

– Men tarqalishlaringizni so'rayman! – qichqirdi chanadan ko'tarilgan general.

Unga javoban shovqin-suron, chana ortida esa xaxolash va baqirchaqir ovozlari «portladi»:

– Yo'qolsin yakkahokimiyatchilik!..

Yana xaxolash va qichqiriqlar:

– Yo'qolsin yakkahokimiyatchilik!.. Bitsin!..

Quturib ketgan politsmeyster manej darvozasi tomon sakrab chopadi va sudakni olib ketayotgan oshpaz ayolga urilib ketadi; uning qo'lidan mahkam ushlaydi-yu, baqira boshlaydi. Ayol esa faryod qiladi:

– Janobi oliylari! Qo'yib yuboring! Axir baliq sasib ketadi...

Va undan sudak balig'ining eriyotgan suvi chakillab toma boshlaydi.

Podyezd oldida olomonning xaxolashi ostida mirshablar politsmeyster chanasining orqa tomonidan keng qog'ozga yozilgan: «Yo'qolsin yakkahokimiyatchilik!..» deb aniq-tiniq yozilgan yozuvni yirtib olish bilan ovora bo'lishmoqda.

Studentlar to'xtash paytida «Lyapinka» rassomlari tomonidan tayyorlangan afishalardan birini yopishtirishga ulgurgan edilar:

«Yo'qolsin hokimiyatchilik!»

Bu shior keyinchalik g'azabkor ma'no kasb etdi, ammo o'sha paytda hali yangilik edi.

Moskva universiteti. «Tatyana kuni». Eski hisob bilan 12-yanvar poytaxt universitetida talabalar kuni edi. Moskva ko'chalari hech qachon bunchalik shovqin-suronli emasdi, har yili shu kuni boshqacha bo'lardi. Studentlar yarim kechagacha poytaxt ko'chalari bo'ylab qo'shiq kuylab yurishar, quchoqlashar, uch-to'rt kishilashib bitta izvoshga o'tirib, ovozlari qo'yib yuborgancha baqirib gaplashardilar. Bekordan bekorga qo'shiqlarda: «Mastlikda» va «Tatyana!» qofiyadosh so'z bo'lib kelmagan edi. Bu g'am-qayg'usiz, o'ynab-kuladigan kun edi. Va politsiya – yuqoridan hisob-kitoblar hamda topshiriqlar berilgan – shu kuni talabalarni qamoqqa olmas-

di. Josuslarga ham studentlar ko'ziga ko'rinmaslik to'g'risida buyruq berilgan edi.

O'shanda eng sevimli qo'shiq «Dubinushka» edi.

12-yanvar ertalab universitetda hukumatning yuqori vakillari ishtirokida tantanali yig'ilish. Zalning to'rtidan uch qismini qashshoq talabalar egallagan, ular darslarni kasb qilib olgan: kiyimlar uringan, yirtiq-yamoq, rangi uchib oqarib ketgan... Lekin oralarida qimmat movutlardan tikilgan hashamatli mundirlar kiyib, oppoq yoqalari yaltirab turadiganlari bor; xullas, kiygan liboslariga qarab badavlat kishilarning farzandlari ekanligini bilish qiyin emas.

Bayramga atalgan yig'ilish tugagach, talabalar Katta Nikitskiy tomon to'da bo'lib, «Gaudeamus igitur»¹ qo'shig'ini kuylagancha Nikita darvozasi tomon harakat qiladi, so'ng Tver xiyobonidagi o'zlarining sevimli pivoxonalari tomon yo'l olishadi. Lekin borayotganlarning deyarli barchasi kambag'al talabalardan iborat; nikolayevcha shinel kiygan oppoq yoqalilar ot qo'shilgan yengil aravalarida ota-onalari-ning xonadonlariga qarab ravona bo'lishadi.

Pivodan quvvat olgan talabalar to'dasi xiyobon bo'ylab, pastga, «truba maydoni»ga qarab enadi, lekin endi «Gaudeamus» o'rmini «Dubinushka» egallaydi. Bir necha oppoq astarli libos kiyganlar qo'shiladi. Ular o'rtoqlaridan ortda qolmaslik uchun o'zlarining bejirim formasini uyda qoldirib, eski paltolarda xiyobonlardan qadam tashlab borardilar. «Moskovskiyev novosti» tahririyati oldida hamma to'xtaydi va baqiradi:

*Bu qo'riqxonalar o'rmonlar aro,
Kaltaklar-la zodagonlar yelkasin
Tilkalab tashlaymiz butun...*

Shu kabi qo'shiqlar bilan to'da-to'da bo'lib, «Ermitaj»ning muhtasham vestibuly tomon yo'l olishadi. «Ermitaj» oynavand va haykallar bilan bezatilgan bo'lib, oppoq toshlar to'shalgan zinapoyadan etiklarni do'qillatib yurib borishar ekan, shu kuni ular ogohlantirilib, odatdagi yumshoq qimmatbaho gilamlar olib qo'yilgan edi.

¹ «Gaudeamus igitur» – lot. «vaqtichog'lik qilamiz» ma'nosida, talabalar qo'shig'i, madhiyasi.

Yetmishinchi yillarda «Ermitaj» sohibi fransuz Olivye shu kuni studentlarga o'zining restoranini sayr-tomosha qilish uchun berib qo'ygan edi.

An'anaga muvofiq, 12-yanvar kechasi «Ermitaj» zali butunlay boshqacha tusga kirdi. Qimmatbaho ipak mebellar g'oyib bo'lgan, pol arra qipig'i bilan qalin qilib to'shalgan, oddiy yog'och stollar keltirilgan, kursilar, vena stullari qator tizilgan... Bufet va oshxonada faqat sovuq, yaxna taomlar, aroq, vino va arzon sharbatlar terilgan. Bu burjua jamiyatidagi saroyning xalq bayrami bo'lib, mechkaylik hisoblanar edi.

Shu kuni eng qaltis kun hisoblansa-da, Rossiyaning yagona shu zalida dadil nutqlar yangradi. «Ermitaj» butun studentlar hamda ularning mehmonlari – sevimli professorlar, yozuvchilar, yer egalari, advokatlarning ixtiyorida bo'lardi.

Xirgoyi qilishdi, gaplashishdi, pivo va aroqni polga to'kishdi – zal papiros dudiga to'lib ketdi! Professorlar stoldan turib, nutq irod etishar... notiqalar birin-ketin almashib turishardi. Yana «Ermitaj»da o'tgan «Tatyana kuni» qanday o'tkazilganini eslaydigan yirik odamlar ham bor. O'shanda V.A. Golvevni nutqidan so'ng shunday tortqilashgan edilarki, syurtugi ikkiga bo'linib, yirtilib ketgandi, Golvevdan so'ng A.I. Chuprovni shunday sharafdashdiki, ko'zoynagi chil-chil sindi, so'ng uni shiftga qarab irg'itishdi. Chuprovdan so'ng stol ustiga qizil ko'ylakli pakana student irg'ib chiqdi-yu, yo'g'on tovushda shovqin-suronlarni bostirib, xuddi seminarda javob berayotgan kabi «O'» tovushiga kuchli urg'u berib, baqira boshladi:

– O'r-o'rtoqlar! O'r-o'rtoqlar!..

– Yo'qolsin! Yo'qolsin! – deb qichqirishdi sevimli professorlarining nutqlaridan ruhlangan studentlar.

– O'r-toqlar! – yo'g'on tovush qat'iyat bilan guvillar edi.

– Yo'qolsin! – deb ayyuhannos ko'tardi zal va yaqin turganlar notiqni stolning ustidan tushirib yubormoqchi bo'lishdi.

Lekin yo'g'on tovush yangi kuch bilan shovqinni bosishga urindi.

– Ha, yo'qolsin!... – qichqirdi u g'azab bilan qo'lini ko'tarib. Va yaqin turganlar jimib qolishdi.

– Yo'qolsin yakkahokimiyatchilik! – deb hayqirdi u yana bir bor, so'ng o'zini olomon ustiga tashladi.

Shunda hech bo‘lmagan hodisa yuz berdi... Bir daqiqadan so‘ng studentni tebratishar, zal qichqiriqlardan guvillar edi.

So‘ng tun bo‘yi studentlar ko‘chalarni qo‘shiq va baqir-chaqirlari bilan to‘ldirib yuborishdi:

– Yo‘qolsin yakkahokimiyatchilik!..

Va bu shior barcha talabalarning chiqishlarida jangovar chaqiriq bo‘lib qoldi. Ayniqsa, u Moskva universitetida 1905-yili qahr-g‘azabli yangradi. Shunda talabalar ishchilar bilan birga universitet auditoriyalarida aylandilar, o‘sha paytdan xalq o‘rtasida ur-to‘polonlar boshlanishi ro‘y berdi. Bu shior nutq va bayroqlarda yarqirab ko‘rinadigan bo‘ldi va faqat yakkahokimiyatchilik g‘oyib bo‘lganida, bu ham yo‘qoldi.

Bu shior Moskva universiteti devorlarida beshinchi yilning jangovar holatida jaranglab qolmay, o‘sha yilning o‘n beshinchi oktabrida ham poytaxtda, uning markazida ilk barrikadalarda stixiyali ravishda, yana eng keksa oliy ta‘lim dargohi devorlari va hovlilarida paydo bo‘lgan edi.





NARISHKIN XIYOBONI

Narishkin skveri Moskvadagi eng yaxshi xiyobonlardan biri bo'lib, o'tgan asrning yarmida vujudga kelgandi. Endilikda u Strastniy xiyobonining ichki va tashqi tomonidan ikkita o'tish joyiga ega. Ilgari faqat ichki tomondan kirilib, skver tomonda katta bog' bo'lardi. 1838-yildan boshlab unda sobiq Yekaterina kasalxonasi joylashgan edi.

1926-yilda kasalxona binosi qarshisidagi kirish joyini ko'chirishganda, yer ostidan shu bog'ning qoldiqlari bo'lgan yuz yillik butun saqlangan to'nkalar chiqib qolgan. Ularni yana yer bilan tekislab ko'mib yuborishdi.

Bog'ning davomi, Putinkovskiy kirish joyiga qadar, iflos, irkit bo'lib, Sennaya maydonidan iborat, tarkibiga Yekaterina kasalxonasi-dan qator uylar Malaya Dmitrovkaga qadar kirgan, uning boshqa tomoni Strastniy monastiri bilan bir qatorda, S.P. Narishkinaning sobiq katta uyi bo'lgan. Oltmishinchi yillarda Narishkina Sennaya maydonini xarid qilgan, unda bog' barpo etgan, so'ng shaharga tortiq qilgan. Ana shundan buyon bu yer Narishkin skveri deb ataladi.

Yekaterina kasalxonasi bilan yonma-yon chiroyli eski muhtasham hovli yuksalib turardi. Oktabr to'ntarishigacha u knyaz Volkonskiyga tegishli bo'lgan, elliginchi yillarda knyaz Mesherskiydan o'tgan edi.

Bu muhtasham hovli haqida gapirar ekanmiz, bir uydan so'ng yana bir go'zal hovli bo'lib, romantik lahzalarni o'zida qamrab olgan edi. Ilgari u kapitan Krechetnikovga tegishli bo'lgan, undan 1849-yilda titulyar maslahatchi boshqa birov emas, balki dramaturg, «Krechinskiy to'yi» muallifi Aleksandr Vasilyevich Suxovo-Kobilin bo'lib, u bu yerda 1859-yilgacha yashagan edi...

Knyaz Volkonskiyning uyida ko'p yil mobaynida uning qarindoshi, falaj bilan xastalangan graf, yirik amaldor Shuvalov istiqomat

qilgandi. Uni ko‘pincha izvoshga solib, Narishkin skveriga olib borishardi.

Shuvalov o‘limidan so‘ng, to‘qsoninchi yillarning oxirida Volkonskiy o‘z uyini qandolatpaz Zavyalovga ijaraga berdi. Hashamatli zodagon hovlisida peshlavha paydo bo‘ldi.

«To‘ylar, ballar hamda xotirlash tushliklari o‘tkazish uchun ijaraga beriladi», – deb yozilgandi unda.

Shunday qilib, bu uy 1917-yilgacha qo‘ldan qo‘lga, qandolatpazdan qandolatpazga o‘tdi: Zavyalovdan Burdinga, keyin Feoktistov va boshqalarga.

Tun bo‘yi derazalarda olov yallig‘lari yaltirar, uyda to‘y va savdogarlarning ballari musiqalari tinimsiz guvillar, ommani xiyobonlardan o‘zining derazalariga chorlar, goho undan oliy martabali dyakonlarning yo‘g‘on tovushlari, «abadiy xotira» uchun va‘z o‘qiyotgani eshilib turardi.

Bu yerda boy-badavlat savdogarlarning to‘ylari o‘tar, shunda uy yonida alomat ot qo‘shilgan yengil aravalar turardi. Uncha boy bo‘lmaganlar ham to‘y o‘tkazishardi, xiyobon yonida xuddi teatrnikiga o‘xshash karetalar tizilar, yengil aravalarda odatdagi vaqtlarda imperator teatrlariga spektakl va repetitsiyalarga aktyorlarni tashir edi. Bu karetalar ba‘zan ag‘darilib ketar, unda borayotganlar ko‘prik ustiga yugurishar, yordam so‘rab, dod-faryod chekishardi... Darvoqe, bu ancha xavfsiz edi, chunki sillasi qurigan otlar zo‘rg‘a harakat qilardi... Bunday hodisalar saksoninchi yillarda Petrovkada ro‘y bergan va politsiya bayonnomasi bilan adog‘iga yetgan edi...

To‘y o‘tadigan kunlari oppoq, oltinga burkangan, oynavand to‘y karetsi hammasidan oshib tushardi. Unda kelin-kuyovni to‘g‘ridan to‘g‘ri cherkovdan to‘y ziyofatiga olib kelishardi: kuyov frakda va oppoq galstuk taqib, kelin esa boshdan oyoq oq kiyinib, oq gullardan iborat guldasta tutib, boshida harir to‘r tutgan shlyapada barcha o‘tkinchilarning diqqatini tortardi.

Qandolatpazlar har qanday narxda bunday ziyofatlarni do‘ndirishardi – sovuq va issiq taomlarni maxsus libos kiygan generallar va harbiy generallar uchun tayyorlardilar, ular «otliq» yoki «kavaleriya»siz kelishi mumkin edi. Harbiylar ko‘kraklarida orden va medallar taqib, shuningdek, yelkalari osha o‘tgan tasmalar bilan kelishar, boy-badavlat savdogarlar qoshida ulug‘lanar va yuqori baho-

lanar, albatta, o'zining saroyidagi hamda «o'z generallari»ga nisbatan ular ziyofat uchun ko'proq qadrlanar edi.

Xizmatkorlar ko'rinishiga qarab baholanardi. Shundaylar ham uchrardiki, ularning taralgan oq aralash bakenbardlariga qarab vazir deb baholash mumkin edi... faqat frakka yog' tekkan va hamisha begona yelkadan olingan... Xizmatkorlar ko'pchilikka qarab taklif etilgan. Va sharoblar ham «ommaga qarab» berilgan.

– Vino, albatta Deprenikidan bo'lsin: konyak 1845, portveyn 211 yoki 113... Qizil yorlig'i bori... Bilasanmi? – deydi o'sha vaqtdagi urfda bo'lgan sharoblarni traktirlarda yaxshilab o'rgangan ko'pni ko'rgan savdogar.

– Eshitaman... Faqat bu narxda yarmini olishga to'g'ri keladi.

– Xo'p, mayli, yarmi bo'lsa yarmi-da, anovi stoldagi burgutga, orqasidagi qarg'aga qo'yasan...

Savdogarlar o'lguday quv, mug'ombir, qandolatpazlar esa ulardan badtar... «Burgut» va «qarg'a» deyilgan ikkovi ham Deprega tegishli edi!

Pyotr Smirnov ismli aroq sotadigan kishining ikki gumashtasi bor edi. Karzin va Bogatiryov. Undan ketishdi-yu, Zlatoustinskiy tor ko'chasida o'zlarining sharob sotadigan yerto'lalarini ochishdi va vinolarini quyib sota boshlashdi. Albatta, bu xunuk ish edi. Sharoblari ketmay qoldi. Firma kasodga uchrashi mumkin edi, lekin ularning baxtiga juldur kiyingan bir kishi kelib, ayrim loyihalarni taklif qildi. Pasportini taqdim qilganida ikkovi ham o'zini qo'yarga joy topa olmadi: uning ism-sharifi meshchan Sesar Depre deb yozilgan edi...

211- va 113-portveyn... 184-konyak... «Fin-shampan», 195-konyagi... Yorlig'i alvon tusda va qora ham oq... Aniq Depredan nusxa olingan... Lekin kim S. Depre, K. Depre emasligiga qarab o'tirardi, deysiz! K. Depre yorliqda burgut, S. Depre esa toshsiz qarg'a, deb aniqlab, qarab o'tirarmidi!..

Shunday qilib, ballar va xotirlash marosimlarida xalq, asosan, «ola-bula», ya'ni oddiy bo'lganida, vino «qarg'a» yorlig'i bilan ketaverdi.

Bu mashmasha ancha davom etdi, ammo sud bilan yakunlandi. Ma'lum bo'lishicha, S. Depre aslida shu nom ostidagi firmaning sherigi bo'lib, haqiqatan o'zi, pasport ham asl nomiga berilgan edi.

To'yga cherkovdan, eng avvalo, sayyohlar kelishadi. Juft-juft bo'lib kirishadi: barvasta, dumaloq savdogar ayollar shoyi liboslarda etagi uzun syurtuk kiygan erlari bilan ichkariga qadam qo'yishadi. Ayrımlari «Jon fido qilgani uchun» deb nomlangan medal taqib olishgan. Yoshlar va xonimlar bir-birini qo'ltiqlab olishgan. Hammalari qator bo'lib, devor yonida tizilishib turishardi. Shundan so'ng zarrin uqali xizmatkorga ko'rinishadi, tantanaga mas'ul kishi qo'lida nishon bilan oldiga tushadi, ortidan kuyov, qo'lida guldasta tutgan kelin qadam tashlaydi. Ular mehmonlardan oldinda turadilar, ortlaridan juft-juft bo'lib odimlaydilar: dastlab kuyovning ota-onasi kuyovning o'ng tomonida turadi, so'ng kelinning ota-onasi kelib, kelin yonidan joy egallaydi, oldinroq farzandlari bilan, so'ng o'zaro o'pishadilar.

Xizmatkorlar yupqa, uzun qadahlarda «Rederer» yoki «Kliko» nomli shampan vinolarini faxriy mehmonlar uchun keltiradilar, bularga oddiyrog'i ham bo'laveradi.

Tabriklar va qadah ko'tarishlar, ba'zan pol ustida singan qadahlarning jaranglab singani eshitiladi, bu esa bayramona baxt nishonlanganidan darak beradi. Orkestr tantanali kuy chaladi. Tabriklardan so'ng barcha stol atrofida joy oladi. Choy ichish boshlanadi. Keyin mehmonlarning bir qismi qo'shni xonalarga qarta o'ynash uchun kiradi. O'sha paytlarda yirik va kamroq pul tikib o'ynardilar. Boshqalar bufetni o'rab olishardi. So'ng raqslar va to'y shodiyonasi boshlanib ketardi. Oxiri charchab qolguncha o'ynaganlaridan so'ng to'y ziyofatiga borishar va birdan shovqin-suron boshlanib ketardi, chunki bufet o'z ishini bajargan bo'lardi-da. To'y generali tabrik nutqi irod etar, uning izidan qadahlar ko'tarilar, kimga nimaiki qulay bo'lsa, shuni qilaverardi. Yoshlar – yosh bekalar va ularning ishqiboz yigitlari stol ustida non soqqalarini bir-biriga tashlashar, keyin bu ishga barcha ishtirok etar va stol uzra baliq boshlari uchar, ba'zan qizil qisqichbaqa yaltirab ko'zga tashlanib, bakrabaliq qovurdog'i atrofni yashnatib yuborardi.

«Yoshlar» ketgach, mehmonlar qolgan ichimliklarni oxirigacha ichishar, junbishga kelgan qimorbozlar ehtirosga berilib, ba'zida keyingi kun uchun ham o'ynashga kirishardilar.

Chekkachekkalarda alohida kasb-hunar hamon mavjud edi. Yomg'irli ob-havoda, ayniqsa, kuzda kichik, mo'jaz ko'chalar balchiq bilan qoplanar, ko'lmakka to'lib-toshar, ulardan ehtiyot bo'lib

o'tish, ko'chani chuqur yoki sayoz joylarini bilish zarur edi. Bolalar doimiy ravishda ko'chada navbatchilikda turishardi. Ular losmanlar (kemalarga yo'l ko'rsatuvchi ma'nosida) edi. Agar boy-badavlat kishining ekipaji borsa, u kulfatga duchor bo'ldi, deyavering!

Shunday voqea yuz bergan – to'y karetsi, bu – o'ziga xos oynavand fonar bo'lib, unda o'tirgan kelin-kuyov ishi o'ngidan kelib, Xapilovkaning tor ko'chalaridan biridan o'tib borishardi.

Bu joy o'ziga xos qaroqchilari bilan dong qozongan edi. «Yoshlar» o'zlarining shu ko'chada yashaydigan qarindoshlaridan birining uyiga tashrif buyurishayotgandi. Bu xesh-aqrabolari boy, ammo o'lguday qurumsoq edi. Mahalliy aholini esa, hech ko'rmagani uchun, bir juft ot qo'shilgan, tepasiga yashil tusli shoyi to'r qoplangan qimmatbaho ekipaj hayajonlantirib yubordi. Qaroqchilarning ko'zi o'lja olish uchun charaqlab ochilib ketdi.

– Bu yerdan qanday o'tib ketish mumkin, bolalar?

– Manovi yerdan, chapga. Yana chaproqqa ko'proq!

Ularni suv bilan qoplangan chuqur joyga boshlab borishdi, otlar qornigacha botdi, kareta esa yon tomonga osilib qiyshaydi. Xalq darrov yetib keldi – savdo boshlandi. Va «yoshlar» ellik so'm to'lab, karetni esa o'n so'mdan yo'lga solishga kirishdilar. Xullas, «yoshlar»ni o'n so'm evaziga amakisining uyigacha ko'tarib borishdi.

Hozir u joylar asfalt qilingan, to'y karetalari bilan bog'liq xotirlar ham qolmagan. Qahraton sovuqda o'lganlarni xotirlash bo'yicha uyushtirilgan tushlikda qandolatpaz uyni isitmagan edi.

– Xalq bilan birga isib qolasan, ikkinchi taomdan so'ng hamma isiydi, – deb mehmonlarni tinchlantirardi u.

– Axir oyoq muzlab qoldi-ku?

– Siz-chi, kalishni yechmang-da... Ey, darbon, ularga yarasha kalish olib kel...

Men butunlay sovuqdan to'ng'ib qolganimda, davangirday qandolatchi Feoktistov shunday deb taklif qildi.

Ushbu marosimda xizmatkorlar taomlarni tarqatib chiqqandan keyin, ya'ni qoshiqlarni to'ldirib, ularning likopchalariga solganlaridan so'ng pichoqlarning taqillashi o'rniga to'xtovsiz qadam tovushlari eshitildi. Agar ko'zni yumsangiz, yog'och pol ustiga otxonada o'tirishni tasavvur qilish mumkin edi. Bu oyoqlarini isitayotgan mehmonlar edi.

Marhum butun boyligini meros qilib qoldirgan yagona merosxo'r faxrli joyda, dindorlar qarshisida o'tirar va «muqaddas otaxonlar»ga chin yurakdan aroq va vino quyib berar va u ham oyog'ini tapillatib, isitishga urinardi.

– Qulay fursatda va bunday past haroratda vino organizm uchun foydali, – deya so'z qotdi oliy martabali ulkan dyakon har bir stakan to'la aroqni og'ziga quyib chayqar ekan.

– Marhum chetan mevasini suyardi... Chetan bilan tinchigan ruhini xotirlaylik... Nikodim ota, qoldirmay oling, – deb unga qadah uzatdi marhumning do'sti, cherkov mutasaddisi.

– Yo'q, men, yaxshisi, qizil vinoni xush ko'raman. Chetanni yaxshi ko'radiganlardan emasman. Qizil vino yaxshi... tetiklashtiradi, u esa susaytiradi... Men qizil vinoni xush ko'raman.

– Men esa chetandan qilingan vinoni...

Tushlik qilayotganlar ustida bug' turib qolib, yerga urilgan oyoq tovushlari tinganida, bodomdan qilingan kisel va bodom sutini dasturxonga tortishdi.

Stakanlarni urishtirish uch yuz ovozni bosib ketar, ba'zan ora-sirada xaxolash eshitilardi.

Va birdan qandaydir hayvon o'kirganday bo'ldi. Bu oliy martabali dyakon edi. U o'rnidan turdi, tomoq qirdi va yo'taldi... Stullar joyidan surildi, jimlik hukm surdi, so'ng oliy martabali dyakon hayqirdi:

– Xotirasi abadiy bo'lsin... xotirasi abadiy bo'lsin!..

Va derazalarning katta oynalari zirillab, eski knyaz qandilidagi shisha shokilalar jaranglab ketdi. Shu tariqa xotirash marosimi poyoniga yetdi.





IKKI UY TARIXI

Savdogarlar klubi qoshida sersoya bog' bo'lib, yozda u yerda klub a'zolari tushlik qilishar, kechki ovqatni ham paqqos tushirishardi. Keng-mo'l ayvonda quyoshning chiqishini kutib olishar, qarta o'ynashar yoki shampan vinosini cho'qishtirib ichishar edi. Bog' Kozitskaya tor ko'chasiga chiqar, ilgari u Uspenskiy deb nomlanar, ammo Yekaterina II ning stats-kotibi Kozitskiy Tver saroyida o'zining sohibjamol xotiniga atab saroy qurgach, sibirlik oltin izlovchi Ye.I. Kozitskaya xonim sharafiga uning nomi bilan ataladigan bo'ldi. Hozir ham shu nom bilan ataladi.

O'sha paytda bu uy Moskvada eng katta va eng yaxshi uylardan biri hisoblanardi. Fasadi Tverskiy tomonga qaragan, klassik uslubda qurilgan, peshtoqida gerb bo'lib, ikki shinam balkonga ega edi.

Ye.I. Kozitskayaning vafotidan so'ng uy uning qizi knyagina A.G. Beloselskaya-Belozerskaya ixtiyoriga o'tdi. Aynan shu uyda Beloselskaya-Belozerskayaning qizi Zinaida Volkonskayaga tegishli tarixiy salon bor edi. O'tgan asrning yigirmanchi yillarida bu yerda san'at va adabiyotning o'sha paytdagi namoyandalari to'planishardi. Pushkin Moskvada bo'lganida, Zinaida Volkonskaya huzuriga tashrif buyurar, unga mashhur she'rini bag'ishlagan edi:

*Yo'q, yo'q, muhabbatning jo'shqin ra'yiga,
Endi men bo'lmasman telbalarcha qul.
Ozor ham bermayman dil oromiga,
Yonish, o'rtanishga hech qo'ymayman yo'l;
Bas, endi shaydolik yetar! Va ammo,
Ne uchun xayolga tolmayman bir zum.
Nahot samoviy, nozli, musaffo
Qiz ko'zim oldidan o'tarkan ma'sum?..
Tomosha qilmoqqa totli shavq bilan,*

*Nahotki qolmadi zarra ijozat?
Sukutda kuzatmoq nigor izidan,
Tilamoq mumkinmas baxt-u saodat.
Nahot tilab bo'lmas hayot ne'matin:
Unga halovat-u orom va shodlik?*

Volkonskayaning mehmonlaridan biri, shoir A.N. Muravyev tasodifan salonda turgan Apollonning haykalini sindirib qo'ygan edi. Xijolatda qolgan va noqulay vaziyatdan chiqish uchun u haykalning supasiga qandaydir to'rtlik yozadi, bu esa Pushkinni badiha tarzda javob aytishga undagan edi:

*Kamon tortilar, uziladi o'q,
Va hansirab qoladi Pifon.
Yuzing esa zafardan alvon
Tusga kirar g'ayri Apollon!
Qanday bo'lding Pifonga qarshi,
Qadahingni kim sindirdi?
Sen Apollon raqibisan, zap
Belvederlik Mitrofan.*

Zinaida Volkonskaya salonida dekabristlar ruhi kezib yurardi. Opoq marmarli zina pillapoyalaridan Moskva qishki qatnovgacha surgun qilingan dekabristning xotini, knyagina Mariya Volkonskayani kuzatib qo'ygan edi, u ish qaynagan paytda o'sha yerga borgan edi:

*G'am-alamdan dilim yonganda,
Tushlarimda ko'rdim chehrangni.
Hayotdagi bo'm-bo'sh suronda,
Kelib turdi tovushing jarangi.*

Qarindosh-urug'lar, yaqinlar, do'stlar Sibirga borishdan oldin bu yerda bir sutka to'xtagan Mariya Volkonskayani kuzatish uchun to'plangan edilar.

Nekrasov «Rus ayollari» nomli dostonida Mariya Volkonskaya allaqachon uzoqda, qorli tundrada bo'lib, o'sha unutilmas oqshomni shunday eslaydi:

*Italyan kuychilarin tingladim bunda,
Otamning hamkorlari, do'stlari g'ammoz.*

*G'ussa-yu alam chekib o'tirar shunda,
Men intilgan o'lkaga ketgan do'stlarning
Tug'ishgan yaqinlari shu yerda hozir.
Shu yerga kelgan so'nggi alvido so'zin
Aytmoq uchun sevikli yozuvchi, shoir:
Bunda Odoyevskiy, Vyazemskiy ham,
Ammam qiziga oshiq, jo'shqin mehribon,
Shoir ham shunda edi. So'ngra eshitsam,
Vafot etmish u shoir bevaqt navqiron.
Pushkin ham shunda edi...*

Zinaida Volkonskaya bir umr Italiyada «Shimoliy Korinna» deb ataladigan o'sha manzilga o'rnatilgan qoldi. Ushbu salon Rimning eng yaxshi jamoasini o'ziga jalb etgan edi. Lekin oxir-oqibat katolik diniy ruhoniysi egallab olishga urindi. Va u kambag'allashib, vafot etdi. Volkonskayaning ketishi munosabati bilan Moskvadagi salon 1829-yilda faoliyatini to'xtatdi, uning Beloselskaya-Belozerskaya mulkidagi uyi, podsho saroyi xizmati yetmishinchi yillarning oxirigacha qoldi. Shundan uni knyazlardan pudratchi Malkiel sotib oldi. Bungacha faqat oltmishinchi yillarning oxirida uy pansion Repman tomonidan band qilingani ma'lum. U yerda badavlat odamlarning bolalari o'qir edi. Volkonskaya ketguniga qadar Repmangacha bo'lgan davrda uyning taqdiri qanday kechgani noma'lum. Keksa qo'shnilar, shuningdek, Tverskiy qismidagi iste'foga chiqqan politsiyachilar tomonidan saqlanib qolgan faqat bitta rivoyat ma'lum, ular saksoninchi yillarda ham hayot bo'lib, batafsil hikoya qilib berishgan edi.

O'tgan asrning o'rtalarida Beloselskaya-Belozerskaya saroyiga uy egasining qarindoshi, kekxa knyagina kelib joylashgan va ko'plab xizmatkorlar, cho'rilar va istiqomat qiladigan kishilar, binoning yarmini band qilishini bilgandi. Saroy jimjit zulmat qo'riga cho'kkan edi. Faqat haftada bir marta, yakshanba kuni xizmatkorlar kampirni oq marmar zinapoyaga olib chiqishar va oltita yo'rg'a ot qo'shilgan eski karetaga o'tirg'izishar, uni eski kucher boshqarar, zinacha ustida ikki xizmatkor va zar uqali malay joy egallar, oldindagi bir juft otning chap tomonidagi otda aravakash yo'rtib borardi. Otxonadan yugurib chiqqan «bolalar»ning ham yoshi kamida oltmishda edi.

Tushga yaqin qaytib kelganlaridan so'ng yana bir hafta darvozaga qulf osilar, hech kim xalaqit bermas, hovliga devor oshib o'tilar va

tun bo'yi ko'zdan g'oyib bo'lishardi. Chunki ularga nemis boshqaruvchisi tomonidan nihoyat darajada shafqatsizlik ko'rsatilishi mumkin edi. U rahm qilib o'tirmasdi. O'shanda, Moskvada udumga ko'ra, kaltaklash shanba kunlari politsiya tomonidan o'tkazilardi. Boshqaruvchi aybdorlarni saralab olar, ularni ismlari ko'rsatilgan maktub va belgi qo'shib qismlarga jo'natar, kimga qancha darra urish kerakligini qayd etardi. Boz ustiga, maktub doimo: «Buning uchun xipchinga uch so'm ilova qilinadi», degan so'z bilan yakunlanardi. Lekin baribir kaltaklash yordam bermas, devordan oshib o'tish to'xtamas, bu esa ranjitadigan hol edi.

Tverskiyning narigi tomonida panjara ortida bo'shab qolgan, Yekaterina II davrida Prozorskiy nomli amaldor tomonidan qurilgan yana bir ulkan uy yuksalib turardi. Qirqinchi yillarda bu uy boybadavlat pomeshchik Gurevning qo'liga tushib qoldi, u esa butunlay tashlandiq holga keltirdi. Uy oynalari sinib, tomi ag'nagan holda qolaverdi. Keyinchalik, saksoninchi yillarda bu uyda Brenkning «Pushkin teatri» joylashdi.

Ana shunda... jinlar yashadi.

Bunday ovozarlar Moskva bo'ylab surunkali ravishda tarqaldi. O'tkinchilar tunda dod-faryod tovushlari, zanglagan temirlarning sadosini eshitar, ba'zan ko'chaga g'ishtlar uloqtirilar, singan oynalar orasidan ko'pchilik oppoq libos kiygan arvohlarni ko'rardi.

Jinlar shovqin-suron ko'tarib, to'polon qilar, sharti ketib, parti qolgan kekxa knyagina ibodatga borar, boshqaruvchi jazoga tortilganlarni har chorakda qismga jo'natar, arakcheyevcha askarlarda ular o'ziga tegishlisini olib qaytar, lekin jinlar bazm qurgan uyga hech kim e'tibor bermasdi. Mana, Beloselskiylar uyida ajina, shayton paydo bo'ldi! Arvoh haqidagi ovoza hovli tomondan kelgan edi: odamlar orasida sig'indi bo'lib yashab turganlarga tarqalib ketdi. Bu ovoza tufayli Gurevning uyi rosmana to'polon joyiga aylandi. Uyning pastki qavatini hayvon o'rgatuvchi Kresberg egallagan, u P.Veynbergning she'rlarini abadiylashtirishga urinar edi. Yuqori qavatning singan deraza romlari va chirib ketayotgan tomi shu holatida qolaverdi.

Hayvonlarni keltira boshladilar, qafaslarni joylashtirishdi. Ana shunda kekxa barin huzurida yashovchi kishilar orasida to's-to'polon, besaranjomlik boshlandi: «Ins-jin hayvonlarni qo'rqitib yubordi, u bu yerga joylashib oldi!» – degan gap tarqaldi. Nihoyat, zinapoya

bo‘ylab yurgan oppoq arvojni ham ko‘rishdi. Barin ayolga axborot berishdi. Ertasi kuni «eski Kaluga yo‘lida» oltita ot qo‘shilgan kareta va nemis ish boshqaruvchisi uchligi izidan krepostnoy dehqonlar oilalari va ularning anjomlari ortilgan arava yo‘lga tushdi. Erkaklar piyoda, oyoqyalang yoki yarimyalang‘och borardi, ularning yarmidan ko‘pi yo‘lda juftakni rostladi. Beloselskiylar saroyi butunlay huvillab qoldi.

Shu asnoda Kreysberg Gurevning uyiga joylashib oldi. U hayvonlar saqlanadigan xonada qo‘lga o‘rgatilgan pantera bilan yashay boshladi. Pantera birinchi kechadayoq bezovtalandi. Hayvon o‘rgatuvchi uyg‘onib ketdi va, odatda, tunda jimgina uxlaydigan hayvonlarni qo‘rqinchli faryod ko‘targanini eshitib qoldi.

Kreysberg shamni yoqib, o‘qlangan to‘pponchani oldi-yu, hayvonotxonaga chiqdi.

Uning ro‘parasida harakatlanayotgan oq arvoҳ birdan vestibulga chiqdi-da, ko‘zdan yo‘qoldi. So‘ng ikkinchi qavatga zinapoya orqali chiqqa boshladi. Kreysberg uning ortidan o‘q uzdi, bu shamni o‘chirdi. Orqaga qaytishga to‘g‘ri keldi. Boshqa kuni tepada, uvadasi chiqqan zallarda u bir uyum somon parchalari va chiptalarni ko‘rib qoldi – bu joy o‘nlab odamlarning tunaydigan maskaniga aylangan edi.

Politsiya pistirma tashkil qildi. Hovlida ikki nafar juldur kiyingan kishi qo‘lga olindi. Ulardan birini mavzeda yashovchilar tanib olishdi: u knyaginaning boshqaruvchisi buyrug‘i bilan bir necha marta xivich bilan jazolangan edi.

Keyingi kecha Beloselskiylar uyi mushketyorlar tomonidan o‘rab olindi. O‘t o‘chiruvchilar ular bilan birga edi. Hovlida Gurev uyidan ko‘chib o‘tgan qaroqchilar shaykasi ushlab olindi. Shu bilan birga, oq choyshab topildi – foreytor, ya‘ni aravakash «oppoq xonim» qiyofasiga kirar ekan. Qamoqqa olinganlar orasida ilgari jazoga tortilgan o‘nlab odamlar borligi aniqlandi.

Ular oq ajina o‘zlari tomonidan o‘ylab topilganiga iqror bo‘lishdi. Maqsad xonimni, eng asosiysi, hayvonga aylangan boshqaruvchini ko‘chirib yuborish va butun to‘da bilan Beloselskiylarning bo‘shab qolgan saroylarini egallab olishdan iborat edi. Shu bois hayvonotxonani endi eski maskanda qoldirish aslo mumkin emasdi. «Ajinalar» Tverskiy qismida shafqatsiz ravishda darra bilan jazolandi. Ayniqsa, «oq xonim»ning qiyofasiga kirgan aravakash qattiq kaltaklandi.

Bu uylarda «yurgan» afsona ana shulardan iborat. Hayvonotxonadan so'ng Gurevlar uyining alohida xonalarida, oq qavatda raqs sinflari ochildi. Tutday to'kilib turgan zallarda raqsni o'rgangan, turli o'yinlarga tushgan moskvaliklar hali tirik. Ular raqsga tushgan paytda tepalarida kaptarlar va qarg'alar uchib o'tgan, ustunlarning shiftga tutash qismidan qushlar uyasidan somon va latta-puttalar pastga tushardi.

Moskvaliklar ancha vaqtgacha bu uylardan qo'rqib yashashgan, qorong'i tushgani zahoti qarama-qarshi tomondagi yo'lakka, dastlab bir tomoniga, so'ng boshqasiga o'tib olishgan. Har holda jin, arvohlardan uzoqroq bo'lishgani ma'qul edi-da.

Oradan ko'p yillar o'tdi. 1879-yilda, rus-turk urushidan so'ng Moskvada millioner Malkiel – askarlarga poyafzal yetkazib beruvchi kishi paydo bo'ldi. U bu ikki uyni sotib oldi va qayta qurdi: Gurevnikini o'z nomiga o'tkazdi, Brenkonikini «Pushkin teatri»ga ajratdi, boshqa uyni esa xotini nomiga rasmiylashtirdi.

Brenko teatri bo'lgan uy yonida qurilgan binoda «Budilnik» jurnali tahririyati joylashgan edi. Brenko teatri ham, Malkiel ham kasodga uchradi, ularning uyi kreditorlar ixtiyoriga o'tdi. «Budilnik» esa hamon faoliyat ko'rsatar, tahririyat joylashgan maskanda bosh xodimlar portreti bilan birga hali yosh Anton Chexov ham tasvirlangan bo'lib, Konstantin Chichagov tomonidan chizilgan va 1886-yilgi jurnalning butun sahifasi rangli tarzda chop etilgan edi. Malkielning uyi qayta qurilgach, Beloselskiylar uyi juda ko'p savdogarlarning qo'lidan o'tdi. Malkiel allaqachon fasadni mutlaqo o'zgartirgan, shu tufayli u o'zining ko'hna saroy ko'rinishidan mahrum bo'lgan edi. Malkiel davrida barcha pastki qavatlar oynavand derazalari bilan port korpusiga qarashli ulkan do'konga joyini bo'shatib bergandi. Oq qavati esa badavlat kishilar kvartirasiga aylangan edi. Muhtasham bezalغان zallarning ichki tomoni o'zgar-may saqlandi. Oq marmardan yasalgan zinapoya saqlangan, tantanalardan so'ng kiriladigan hovli podyezdi hamon Mariya Volkonskayaning qadimiy soyabonli chanasini eslatib turardi.

Uyni navbatma-navbat savdogarlar Nosovlar, Laninlar, Morozovlar va to'qsoninchi yillarning oxirida peterburglik millioner Yeliseyev sotib olib, egalik qildi. U kolonial mollar bilan savdo qiluvchi hamda vino savdogari bo'lib, uyni qayta qurishga kirishdi. Yeliseyev tomo-

nidan olib kelingan arxitektor butun uyni o‘rab, ko‘zdan pana qilib qo‘ydi. Bu Moskva uchun yangilik edi. Natijada ulkan yog‘och quti tusini oldi, ular shunchalik zich ediki, birorta ham tirqish qolmadi.

Birinchi yil o‘tdi, ikkinchisi ham o‘tdi, lekin zich yog‘ochlar hamon qurilishi lozim bo‘lgan uyni qurshab turardi. Eski moskvaliklar bu yerda bir zamonlar jin-ajinalar yashaganini eslar, arvohlar kezganini gapirishar, shu bois boshqa tomondan ehtiyot bo‘lib aylanib o‘tishar, sirli qurilish to‘g‘risidagi rivoyat rivoyatga ulanib ketardi.

Lekin shunday jasur odamlar topildiki, hovlida qo‘riqchilar va katta-katta cho‘l olaparlari bo‘lishiga qaramay, ichkariga kirishga muvaffaq bo‘lishdi, keyin mo‘jizalar haqida gapirishga kirishdilar.

– Hind ibodatxonasi qad rostlayapti.

– Mavritaniya qasrining naq o‘zi!

– Baxus majusiy ibodatxonasi.

Bulardan oxirgisi haqiqatga yaqin edi.

Nihoyat, binoning tashqi tomonidagi yog‘ochlar olib tashlandi, yo‘laklar tozalandi, ulkan oynavand derazalar orasidan minglab shu‘lalar nur sochib tovlanar edi.





BAXUS IBODATXONASI

Darvoqe, bu nom rasmiy emasdi. Binoni o‘rab turgan yog‘ochlar olib tashlanadigan kuni tantana bo‘lishi e‘lon qilingan, unda «Yeliseyev do‘koni, rus va ajoyib sharoblar» sharafiga qisqa ibodat o‘tkazilishi aytilgan edi. Ertalabdan boshlab odamlar ko‘chalarni to‘ldirib, «yangi uslub»dagi fasadni ko‘rish uchun oqib kela boshladilar. Unda knyaz gerbi o‘rnida qandaydir mifologiyadan olingan klassik figuralar bor edi. Yo‘laklarda tiqilinchda turgan odamlar intiqlik bilan deraza oynalari orqali ichkaridagi mo‘jizakor qurilishlarni ko‘rishga urinar, notanish joylardan Moskvaga keltirilgan tovarlarni ko‘zdan kechirishga intiladilar.

Dengizning narigi tomonidan olib kelingan mevalar tog‘-tog‘ bo‘lib ko‘tarilgan, xuddi yadroga o‘xshar, kokos yong‘oqlarining har biri chaqaloqning boshidek kelar, tropik bananlar bir puddan ortiq vaznga ega edi. Dengiz podshohligining turli-tuman rang-tusdagi ko‘rinishlari – okeanning bepoyon qa‘rida yashovchi ahli ustidan go‘yo sadaf jilosi sepilganday; bularning barchasi uzra vino shishalaridagi elektr yulduzlar rang-barang tovlanadi. Bepoyon oynalarning tepa qismi tumanli yuksaklikka cho‘zilib, ko‘zga ko‘rinmay ketgan.

«Moskva haqida poema» nomli chop etilmagan bir asarda mech-
kaylikdan iborat bu ibodatxona shunday tasvirlangan edi:

*Tverskiyning Yeliseyev muhtasham qasrida,
Misli ko‘rilmagan xalq oqdi-ku tinmay.
Yarqiroq kolbasa, pishiriq va shirinlik,
Ko‘rgazmada hammasi tovlanar bir-bir...
Dudlangan, qovurilgan tovuq to‘shlari,
Tustovuq, qiymalangan o‘rdak go‘shlari,
Sarimsoq aralash kolbasa, pista, qalampir,
Barcha turdagi pishloq, shveysariya chesteri,*

*Gumashta Aleksey Ilich sar mevalarni
Xushbo'y ehromlarga qalab ulgurur.
Savatlardagi ola-buʻla tasmada...
Hammasi shu yerda, farang gerblari qadar
To ananasgacha va misli ko'rilmagan
Yapon olchalari ham terilib turar.*

Do'kon eshiklari hali berk, vaholanki ichkariga taklif qilinganlar hovli tomondan kirish uchun hozirlanar edilar.

Ibodot qilish uchun zarur bo'lgan sanamlar do'kon o'rtasida, mo'jaz o'simliklar o'rtasida turardi. Nihoyat, peshinga yaqin politsiya g'imirlab qoldi, xalqni ko'chaning qarama-qarshi tomoniga siljitdi. Jandarmlar vzvodi yetib kelib, nufuzli mehmonlar otlari bilan o'tishi uchun ko'chani ikki bo'ldi va joy qoldirdi.

Roppa-rosa peshinda, belgilangan soatda do'kon eshiklari ochildi va kirish joyida barvasta gavdali darbon paydo bo'ldi. Mehmonlar orden va lentalarini yaltiratib kela boshladilar. Harbiy boshliqlar, forma kiygan generallar oppoq ishtonlar, jig'a, ukpar, uchburchak liboslar, ruhoniylar qimmatbaho alvon ridolar bilan savlat to'kib yurishdi.

Ularning barchasi Uspenskiy soborida qandaydir rasmiy ibodatni ado etib kelgandilar. Darvoqe, ayrimlari uyga borib, kiyinib kelishga ham ulgurishgandi. Yeliseyev tantanali kundan abjirlik bilan foydalalanib qolgan edi.

Zalda mehmonlarni qaddi-qomati raso, qorachadan kelgan Grigoriy Grigoryevich Yeliseyev bejirim frak kiygancha, bo'ynida «Vladimir» ordeni tasmasi va yoqasiga fransuz «Faxriy legioni» ordenini taqqanicha kutib olardi. U bu ulug'vor ordenni qandaydir yirik homiylik yordami ko'rsatgani uchun olgan, «Faxriy legion» bilan esa Parijda fransuz vinolari ko'rgazmasini o'tkazgani bois taqdirlangan edi.

Oliy rutbali ruhoniylar cherkov xori ishtirokchilarini kutib oldi, ular kalta yengli kamzullar kiyib olishgan, ikonalar biqinida qator turishar va ruhoniylar yonida ibodat rutbalarini ado etish uchun shay bo'lishgandi.

Ikki tusli do'konning ichki tomoni qandaydir afsonamonand sifat kasb etgan edi. Buning uchun Yeliseyev pastki qavatni boloxonaga qo'shib yubordi, zal va Volkonskiyning sobiq saloni mehmonxonasini butunlay yo'qotdi va tarixiy oq marmardan zinapoyani Yeliseyev vinolariga bo'shatish uchun buzib tashladi. Devor va shiftdagi zarhal va

o'yma naqshlar g'alati taassurot qoldirardi. Zalning olis burchagida devorda qorong'i, qoramtir tokcha xuddi sirli loja kabi ko'zga tashlanar, yonida nodir ingliz soati ko'rinar, uning oltin kapgiri qimirlamaydiganga o'xshar, soat tovush chiqarmay yurardi.

Zal bamisoli ari uyasidek guvillardi. Hamma qisqa ibodatga tayyorlanayotgandi. Ruhoniylar ridolari, zar uqali liboslarini kiydilar. Ohista va tovush chiqarmay, mundir va frak kiygan mehmonlar kirishdi. Ularning ortidan uzun frakli Taganka savdogarlari ibodat boshlanishiga kechikib ergashdilar.

Ibodatning yarmida eshikda ulkan gavdali, sersavlat, bir qarashda Turgenevni eslatadigan kishi paydo bo'ldi. Faqat u biroz novcharoq, oqara boshlagan sochlari ham qalin bo'lib, pahlavon kelbatli edi.

Mundirlar orasida ola-bula pidjak g'alati ko'rinar, lekin ko'pchilik mashhur mehmonlar unga burilib qarab, xushmuomalalik bilan engashib ta'zim qilishdi. U esa uzoqni ko'ra olmagan, ko'zi xira bo'lgani bois, hatto ko'zoynak ham yordam bermadi, hech nimani ko'ra olmadi. Yoniga Yeliseyev va sersavlat qora syurtuk kiygan yangi do'kon boshqaruvchisi suqildi.

Bu eng qimmatli mehmon, sharoblarning birinchi bilimdoni, muzofotda ulkan vinochilik tarmog'ini vujudga keltirgan, o'zining Qrim va Kavkazda namunali uzumzorlar, «Yangi dunyo» deb nomlangan turlarini kashf etgan – Lev Golitsin edi.

Zalning ikkinchi yarmida nonushta tayyorlangan edi. Kumush va billurlar qordek oppoq dasturxonlarda yaraqlar, o'zining turli qirralarida elektr nurlarini porlatar, xuddi shalola tomchilari kabi tovlanar, turli-tuman gullar did va yoshi bir-biriga qovushib, xuddi kamalak misoli jilo berardi. Turli shakldagi shishalar tizilib turadi... Eski tokay shishalarida vaqtning shaffof turi balchiqning ko'kimtir tusli shisha rangi tuman manzarasida aralashib ketgan.

Stollarda hammasi sovuq gazaklar bilan birga qo'yilgan edi...

Stollar qatorlari geometrik figurani tashkil etardi. Ibodat tugab, oxiriga yetdi. Nonushta boshlandi. Qora rido kiyib olgan diniy amaldor eng faxriy o'rinni egalladi, osilgan lojaga va soatga qarab o'tirdi, yuzi shularga qaratildi.

Qolgan mehmonlarning barchasi jamiyatda tutgan o'rni va amali, mavqeyiga qarab, qat'iy ravishda joylashtirildi. Loja ostida, estradada musiqa orkestri joy oldi.

Diniy ulamolardan nonushta qilishga faqat arxiyerey, mahalliy kekxa avliyo va oliy martabali tovushi yo'g'on dyakon qoldi. Unga ko'p yil umr tilab, nonushtani tugatish mas'uliyati yuklatilgandi. Qolgan diniy amaldorlar faqat oilasi uchun shirinliklar solingan savatlar olib, sovg'alardan minnatdor bo'lib, jo'nab ketishdi.

Bosh diniy ulamoni eng yaxshi qimmatbaho sharoblar bilan siylashdi, lekin u faqat «ho'plab qo'ydi», eng mazaxo'rlarga tavsiyalar berdi.

Yeliseyevning tinimsiz qistashlariga javoban arxiyerey javob berdi:

– Yo'q, iltimos qilmang, bunday qilolmayman. Biror vaqt, o'sha yerda, keyin... endi esa o'zingiz ko'rib turibsiz. Yer yuzida hukmdorning aslo o'xshashi yo'q.

Lekin oliy martabali dyakon bu misli yo'q ichimlikni hammaning stakaniga quyib, oldida turgan shishalarga qayta-qayta quyardi. Faqat kekirar va maqtar edi.

Yana shovqin kuchaydi. Qimmat sharoblarni to'yib ichib olgan mehmonlar tarqalishdi. Orkestr sadolari ostida qadah ko'tarishlar nihoyasiga yetgach, to'satdan qandaydir tentiragan, sarxush kishi o'rnidan turdi-yu, so'z berishlarini talab qildi. Yeliseyev unga boqdi, asabiy bir harakat bilan ruhoniyaqarab qo'ydi, so'ng qulog'iga nimadir deb shivirladi. Ruhoniy stolning adog'ida o'tirgan oliy martabali dyakonga ko'zini qisdi va valine'matidan ko'z uzmadi.

Hali likopchaga urilgan pichoqning taqirlashi tinmagan edi hamki, notiq e'tibor berishni talab qildi. Shu payt zalda sherning o'kirishiga o'xshash ovoz eshitildi: bu ovozini sinab ko'rayotgan oliy martabali dyakonning yo'talishi edi.

U tog'ning bir parchasi kabi o'rnidan turdi, zal bo'ylab yangragan bardam ovozi zarbidan shiftda osilgan billur qandillar zirillab ketdi.

– Bu xonadondagilarning umri uzoq bo'lsin! Sog'liq va baxt tilayman!

Uning «umri uzoq bo'lsin» degan so'zlari, hatto dahshatli tuyuldi. Shu bilan tantananing rasmiy qismi nihoyasiga yetdi. Ruhoniy o'rnidan turdi, ta'zim qildi va ishora qilib, hammaning o'z o'rnida qolishini so'radi. Xo'jayin uni chiqish joyiga qadar kuzatdi. Baland tovushlar shiftlarga hali urilmay turib, birdan loja pardasi ochildi-yu, quyosh nurlari ichkariga kirishga ulgurmay, atrof to'liq yorishmasdan chapanicha qo'shiq yangradi:

*Hayda, chana, yumshoq qor uzra,
Tevarak-atrof oy muzlagan tun...*

Omma lojada oppoq liboslarda turgan shiddatli yarov xor qo'shiqchilarini ko'rib, birdan o'ziga keldi. O'z lojasida turgancha brilliantlarini yaltiratib, ta'zim qilayotgan, qo'llarini ko'tarib, havodan bo'salar yo'llayotgan Anna Zaxarovnaga olqishlar yog'dirishdi.

Boshqa kuni, yana ko'p yillardan so'ng ham, inqilobga qadar, do'konlar xaridorlar bilan to'lgan paytda, yo'laklarda pulsiz, shuningdek, och-nahor qiziquvchi kishilar derazalarga qarashardi.

– Odamlar kelyapti. Qoyil!

Bu do'kondan shunchaki o'tib ketmasdilar: unga maxsus keli-shardi. Uy, ko'chaning ikki tomonida hamda Gnezdnikovskiy tor ko'chasi bo'ylab xususiy aravalar tizilib turardi: ikki kishilik, yakka o'tiriladigan karetalar, kajavalar, biri boshqasidan yaxshiroq. Karetachilar boshqalardan o'zib ketishga harakat qiladi. Sog'lom, yuzi to'lin oydek, zar uqali va yaltiroq tugmali darbon o'z yordamchilari hamrohligida xonimlar ortidan ularning sumkalari hamda paketlarini ko'tarib, harbiy «nikolayevcha» shinel kiygan jazmanlarini kuzatib kelishardi.

U guldiragan ovozda kucherlarni chaqirdi, ekipajga xaridlarini qo'ydi, o'ng qo'li bilan shapkasini oldi, chap qo'li kaftida esa «choy puli»ni mahkam qisdi.

Bu zarur xaridlarning barini sotuvchilar yaxshi bilishar, ayniqsa, hurmatli kishilarning ismi va otasi nomini tilga olib chaqirishardi:

– Ivan Fedorich, qaysi shirinliklarni istaysiz?

Ivan Fyodorovich xaridorlarining didini kolbasa va baliq bo'limi orqali yaxshi bilardi. Kimga nimani taklif qilishni ham anglardi: birovga sariyog' kabi yumshoq, boshqasiga yangi langust yoki omar zarurligidan xabardor edi. Kim nimani yoqtirishini ham bilardi. Va Ivan Fyodorovich hammasini esida saqlar, shuningdek, har bir xaridor bilan tengma-teng, didiga muvofiq gaplashar edi.

– Mana, Nikolay Semyonich, manovi dudlangan baliq Sibirdan olib kelindi. Juda yaxshi. O'zim tatib ko'rdim. Kecha graf Riboper Karl Aleksandrich bilan birga kelishdi. Bugun ikkinchi porsiya uchun odam yuborishdi... Shunday qilib, o'rab berishni buyuradilarmi?

Topshiriq beradi-yu, tezda hamma ta'zim qilayotgan baland bo'yli xonimning istiqboliga chiqadi.

- Nima buyuradilar, Olga Osipovna?
- Bilasanmi, nima, Ivan Fedorich, bir qadoq moy, sizlarda finchasi bor-ku, shundan...
- Bor, bor, Olga Osipovna.
- Yana, bir quti ziravorli sirka-moyga bostirilgan seld balig‘i. Kecha erim olgan ekan.
- Bilaman, oqshom Mixail Provich olgan edi...

O.O. Sadovskaya deyarli har kuni do‘konga kirar, xuddi sevimli artist kabi alohida ehtiromga sazovor edi.

Umuman aytganda, anchayin kamtar omma Yeliseyevning oltin misol tovlangan do‘koniga kirishga tortinardi.

Xonimlar, odatda, mevalar rastasi tomon talpinishar, u yerda soch-soqoli oqargan, novcha, savlatli gumashta Aleksey Ilich bir peshtaxta yonida, boshqasida esa yordamchisi, yosh va chiroyli Aleksandr Ivanovich turardi. Ular o‘z xaridorlarini yaxshi bilishar va molni shunday saralab berishar ediki, birorta dog‘li yoki nuqsonli olma tushmas, uzumning zig‘ircha shingili ham ivimagan bo‘lardi.

Butun do‘konni Sergey Kirillovichning o‘zi boshqarardi. Yeliseyevning o‘zi Moskvaga faqat bir kun kelardi, chunki Peterburgda, Nevskiyda xuddi shunday Baxus ibodatxonasini qurish bilan band edi. Bu yerda Yeliseyevning asosiy, otasidan qolgan do‘koni bor edi.

Shunday safarlaridan birida unga furajkasiga qandaydir nishon qadalgan va portfel ko‘targan bir janob uch kundan beri kelayotgani, «shaxsan o‘zlari bilan gaplashmoqchi» va ish yuzasidan uchrashmoqchi ekanligi haqida xabar qilishadi. Hozir ham kelibdi, axborot bermoqchi emish.

Yeliseyev kamtarona kiyingan kishini o‘zining hashamatli kabinetida qabul qiladi. Yozuv stoli yonidagi oromkursida o‘tirib, uni hatto o‘tirishga ham taklif qilmaydi.

– Sizga nima kerak?

– Men do‘konni muhrlashim kerak. Bu ishni kecha, uchinchi kuni ham amalga oshirishim mumkin edi. Lekin sizsiz bajarishni istamadim. Men bu hududning yangi tayinlangan aksiz amaldoriman.

Yeliseyev o‘rnidan turib, unga qo‘lini uzatadi va o‘rtadagi stulni ko‘rsatib, shunday deydi:

– Marhamat, o‘tiring.

– Menga yozuv stolidan foydalanishga izn bersangiz. Bayonnoma yozishga qulay bo‘ladi. Va o‘tirdi:

– Qanaqa bayonnoma?

– Noqonuniy yo‘l bilan sotilayotgan vino haqida. Javobgar bo‘lmaslik uchun bunga hech qachon yo‘l qo‘ya olmayman.

Yeliseyev gap nimada ekanligini darrov angladi, lekin e‘tiroz bildirdi:

– Do‘konga vino bilan savdo yuritishga hukumatdagilar ruxsat berishgan. Buni siz, aftidan, bilishingiz kerak edi.

– Hukumatdagilar sizga ruxsat berishgan-u, bir holatni nazarga olishmagan ko‘rinadi. Vino bilan savdo qiladigan muassasaga kirish tomoni cherkovga kirish joyidan eng kamida qirq ikki sajen bo‘lishi kerak. Sizda shu qirq ikki sajen qani?

Aksizli amaldor bilan keyin qanday suhbat o‘tkazilgani noma‘lum, lekin shunisi aniqki, ish kechasi bilan qaynaydi: vino sotish to‘g‘risidagi peshlavha uyning mutlaqo boshqa tomoniga ko‘chiriladi. Unga Kozitskiy tor ko‘chasidan kirilardi. Vino saqlanadigan yerto‘la esa alohida kirish joyiga ega bo‘ldi va do‘kon bilan ajratib qo‘yildi. Do‘konga buyurtma berilgan vinolarni Kozitskiy tor ko‘chasidan kiriladigan joydan olish mumkin edi. Bu hamma uchun emasdi, albatta. Vino Yeliseyevning asosiy daromad manbai edi. Uning yerto‘lasida eng qimmatbaho vinolar saqlanardi. Ular otasi tomonidan o‘tgan asrning birinchi yarmida uchta xususiy kemada Fin bo‘g‘ozi, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya va Madeyra orollaridan keltirilgan, Madeyra orolida Yeliseyevning shaxsiy vino omborlari bor edi.

Afsonada Baxus va ko‘zi bog‘langan Femida bo‘lib, odil sudlov ilohasi sifatida qo‘lida tarozi tutgan, unda odamlardagi gunoh va savoblar tortilar, bu o‘ziga mutlaqo ko‘rinmas, boshqalarga ochiq-oydin namoyon bo‘lib turardi. Femidaning ko‘zlari bog‘lab qo‘yilgan, hech qanday shubha-gumon yoki yuz-xotir qilish bo‘lmasligi kerak edi.

Olimp ilohalaridan buyon ming yillar o‘tdi, ammo Baxusning muxlislari o‘zgarmadi va ularning hisobiga kohinlari ibodatxonalarini tiklar edilar.

Shu bilan birga, Baxusning muxlislari gunohini taroziga tortish uchun Femidaga ham ibodatxonalarda ko‘zi bog‘langan holda tasvirlangan. U shu holatda Parij, London, Nyu-Yoork, Kalkutta, Tambov va Mojayskda ham namoyon bo‘ladi.

Moskva Kremlida vestibul yonida u hammaning ko'zi oldida turibdi! Va ko'zidagi tasmani qachon yechgan – noma'lum. Balki, u mutlaqo bo'lmagandir?

U Kremlidagi odil sudlov ibodatxonasida sud islohotlari o'tkazilgan kundan beri, ko'rsatmalarni tiklash binosida, 1864 – 1866-yillardagi sud islohotlariga qadar turgan edi. Butun dunyoda qanday holatda bo'lsa, shu tarzda: tarozi, jazolovchi qilich va qonunlarning qalin jildlari... Faqat ilohaning eng asosiy belgisi – ko'zida tasma ko'rinmasdi.

Femida ko'zi ochiq holda yarim asr turdi, balki shu vaqtgacha qadimiy yodgorlik sifatida yaxlit holda saqlanib qolgandir? Hech kim unga e'tibor berib o'tirmadi, bir gazeta reportyori bu haqda «Ruskiye vedomosti» liberal gazetasida yozganida, maqola bosilib ham chiqmadi.

– Axir mumkin emas, sharmandalik, butun Yevropaga yoyilib ketadi!

Yeliseyev bir tom ostidagi uyning uchinchi qavatini savdo-tijorat sudiga berganida, barcha sudlarda sud ramzi: Pyotr I ning farmoni zarhal ustundan yuqori turar, bu hamma sudlarda rasm edi. Shu bois ancha vaqtdan buyon ikki satr tarqalgandi:

*Rossiyada aslo qonun yo'q,
Ustun bor va unda toj.*

Bu yerda Femidaning ko'zlariga darhol tasma bog'lashdi. Chunki u Baxusning hashamatli ibodatxonasini ko'rmasligi lozim edi. Ixlos qo'yganlar Femida ibodatxonasiga taqdir irodasiga muvofiq, vaqt-vaqti bilan ko'tarilib turishardi.

Lekin bu yerda odil sudlov ilohasining omadi chopmadi: ming pudlik ganch qilingan shift Femida ibodatxonasining asosiy zaliga ag'darilib, tasma bog'langan kallasi uzilib tushdi, shu bilan qonun ramzi – ko'zgu ham chil-chil sindi.

Baxtli tomoni shundaki, Femida savdo-tijoratga tegishli bo'lib, qon to'kilmadi: shift kechasi allamahalda, kimsasiz xonaga o'pirilib tushgan edi.

Baxus ibodatxonasi Oktabr inqilobiga qadar mavjud edi. O'yma naqshli ikki yorug' zal hozir ham bor, faqat darbon kucherlarni chaqirmaydi, do'kon esa hamisha odamlarga liq to'la, ular zarur oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bilan band.

Lekin baribir kechqurun yorug' nur sochuvchi qandillar oynavand shishalar orasidan yarqirab ko'rinadi.



HAMMOMLAR

Biror moskvalik chetlab o'tmagan yagona joy, bu – hammom bo'ladi. Usta ham, amaldor ham, kambag'al ham, boy ham hammomsiz yashay olmaydi.

O'tgan asrning saksoninchi yillarida qudratli «poytaxt xo'jayini» harbiy general-gubernator V.A. Dolgorukov Sandunov hammomiga borardi. Oilalar uchun mo'ljallangan bo'limdagi shinam nomerga kumush tos va tog'oralar berilardi. Lekin uning saroyida ham marmar vannalar bo'lib, o'sha paytda Moskvada kamyob hisoblanardi. Ha, moskvaliklar unga darhol o'rgana olmadi. Meros bo'lib qolgan supurgi bilan «bug'lanish», so'ng yechinish xonasida dam olish, o'z ulfatlari davrasida «til qayrash» gurungi davom etardi.

Har bir tabaqa o'zining sevimli hammomiga ega edi. Boylar kerakli lash-lushlarini ko'tarib, «dvoryan» bo'limiga borishardi. Ishchilar va kambag'allar «oddiy xalq» uchun mo'ljallangan «besh mirilik»ka ravona bo'lishardi.

Suv, issiqlik va bug' bir xil, faqat vaziyat butunlay boshqacha. Hammom hammom edi-da o'ziam! Mochalka – o'n uch tiyin, sovun bir tiyin edi. Aksariyati hozir ham shunday. O'tgan asr oxiridagi uylar ham aynan shu holatda, faqat odamlar, avom butunlay boshqacha. Ha, eski xo'jayinlar ham aynan shunday, hammomlar binoyiday, yo'q, ular haqidagi xotiralar ham butunlay yo'qoladi. Chunki kimgayam bayon qilib berish mumkin?

Adabiyotda Moskvadagi maishiy hammom to'g'risida bir og'iz so'z yo'q. Vaholanki, o'sha paytda hammaning ko'z o'ngida, shu bois bu haqda yozish hech kimni qiziqtirmasdi: xo'sh, yozilsa, kim ham o'qir edi? Faqat Dalning izohli lug'atida ko'pgina hammomlarga xos bir maqol uchraydi: «Savdo hammomlari boshqalarni toza qiladi-yu, o'zi esa ifloslik qa'rida cho'kib ketadi!»

O‘zimcha mulohaza yuritaman: men yarim asr xronikal voqealar va maishiy turmush mavzusida yozish bilan band bo‘lganman, ammo hammom to‘g‘risida biror og‘iz yozish xayolimga ham kelmabdi. Vaholanki, ko‘p narsani bilardim, alohida hammomlarning maishiy xususiyatlaridan xabardor edim: turli toifadagi kishilarning qiziqarli jihatlariga to‘qnash kelgan, ularni boshqa vaziyatlarda bir necha bor ta‘riflagan ham edim. Axir Moskvada turli-tuman, har biri o‘ziga xos oltmishta hammom bor edi, shu bilan birga ularning har biri doimiy keluvchi aholiga, o‘ziga xos xususiy, o‘zini haqiqiy moskvalik deb hisoblaydigan kishilarga ega edi.

Hatto mening «Moskva va moskvaliklar» deb nomlangan birinchi kitobimda ularni biror marta, na nomini, na sharoiti, na hammomchilar qanday yashaganini esladim. Agar bir odam menga gap bilan turki bermaganida, ularni bir og‘iz so‘z bilan ham qalamga olmagan bo‘lardim. Bu xilvat bir qishloqda, sobiq Zarayekdamidi, yo sobiq Kolomskoy uyezdidami, esimda yo‘q, Oka yaqinida joylashgan qishloqda edi. Saksoninchi yillarda ba‘zida u yerga ovga borardim. Chol-lar orasida bu so‘zlarni bir necha bor eshitgan edim, u shunday edi:

– Biz moskvaliklarmiz!

Ular kulbalari oldidagi kunda ustida o‘tirgancha bu so‘zni qanchalik faxr bilan aytishadi.

– Biz moskvaliklarmiz!

Va mening oldimga mutlaqo notanish, barvasta gavdali, mo‘ylovlari oqargan chol keladi:

– Sizni o‘n yildan beri bilaman, oxirgi kitobingizni o‘qigan edim... Kechirasiz, sizni bezovta qilishga to‘g‘ri keladi.

U menga qaraydi-yu, kulimsiraydi:

– Sizning qarzingiz bor!

Men hayron bo‘lib qoldim.

– Yangi qarzlarim yo‘q, lekin eskilari, sudxo‘rlar bilan bor edi, men uchun inqilob hisob-kitob qildi, rahmat!

Unga aynan shunday dedim.

– Gap shunda, qarzingiz bor va uni uzishga majbursiz...

– Kimga to‘lashim kerak ekan?

– Butun Moskvaga to‘lashingiz kerak!.. Kitoblaringizga butun Moskva to‘g‘risida yozibsiz-u, ammo hammomlar haqida bir og‘iz yozmabsiz. Hammomsiz Moskva – Moskvami, axir? Siz Moskvani

yaxshi bilasiz, ammo biz haqimizda, eski moskvaliklar to'g'risida yozmagansiz, gunohga qolasiz. Va hammomlar haqida yozishni unutmaslikni sizdan so'rardik.

Biz xotiralarimizni baham ko'rib, bir mavzuga qat'iy kirishdik, har ikkimiz ham masalani o'zimizga oid jihatlarini bilganimizcha so'zlashga urindik... Tartibsiz ravishda gapirar, bir so'z boshqasiga ulanar, bir tafsilot boshqasini ergashtirib kelardi. Bir odam birovni boshqa tomondan bilar, boshqasi boshqasini bilardi. So'z so'z bilan, tafsilot tafsilot bilan aralashib, manzara va tiplar yorqin gavdalanardi.

Ikkimiz ham o'zimizga tanish maishiy turmushni har tomondan yoritishdan iborat bir maqsad sari kirishgan edim.

– Mening hali ishlashga ancha kuchim yetadi, vatanimga yetib borsam, butun kuchimni Moskvaga beraman. U yerda, axir hammamiz ham moskvalikmiz-ku. Shuning uchun ranjiganmizki, siz bizni unutilib yuborgansiz. Kitob boblariga qaraganda, auditoriyangiz miqyosi o'ylaganingizdan ancha keng. Ular Moskvada tug'ilganlar haqidagina emas, Moskvaga viloyatlar beradiganlar to'g'risida ham. Masalan, Yaroslavl pol yasaydigan ustalarni, Vladimir duradgorlarni, Kaluga viloyati bulka pishiruvchilar, ya'ni nonvoylarni bergan. Hammomchilarni uch gubernya taqdim etgan, lekin har biri bir-ikki uyezdandan, birdan emas, balki uyama-uya bo'lib bergan. Moskvaga kam uya bergan Kolomenskiy uyezdi: kolomenschilarning aksariyati Peterburgda ishlaydi. Asrlar davomida Moskvada uyezdlardan kelgan hammomchilar ancha ko'p, oshib-toshib yotgan: Zarayskiy – Ryazanskiy, Tulskiy – Kashirskiy va Venevskiy. Shunday qilib, avloddan avlodga Moskvaga erkaklar va ayollar borgan. Masalan, men o'n yoshda bo'lganimda, xuddi bobom, otam va bolalarimiz kabi olib kelishgan!..

Hali temir yo'llar qurilmagandi, bolalarni poytaxtga yo'l boshlovchilar yordamida otlarga mindirib olib kelishgandi. Moskvada yashaydigan biror qarindoshi yo'l boshlovchi bilan qishloqqa kelgan, shunga ko'ra, boshdan oyoq o'zgacha kiyingan: uzun movut chakmon, laklangan soyabonli bosh kiyim, kalishli etik, kamzulida zanjirli soat.

Qishloqdagi barcha qarindoshlar va tanish-bilishlar uning Moskvadagi yaxshi ishi, yashashi haqida eshitib, qoyil qolishar, havas qilishardi. O'n-o'n ikki yoshli bolasi bor otalar bu yo'l ko'rsatuvchi hamrohlardan o'g'lini Moskvagacha olib borish, hammomdagi qarindoshlariga topshirishni iltimos qilardi.

Sal-pal savodi bo'lgan bolaga ikki juft chipta kovush, davlat tomonidan uzun burmabel kamzul, ikki juft boshdan oyoq ichki ko'ylak-ishton berishar, pasportini olib qo'yishar, unga yil qo'shishga to'g'ri kelar, bu esa pul turardi.

Moskvada bolani qarindoshlari, hamqishloqlari yoki hammomda xizmat qilayotgan biror kishiga topshirishardi. Bu yerda uni kelishtirib sochini olib, yuvintirishgan, xullas, shaharlikka xos qiyofa berishardi.

Saboq berish «jo'g'rofiya»dan boshlangan. Birinchi navbatdagi ish qovoqxonani topish va ichkariga orqa eshikdan kirish edi. So'ng traktirning manzili, qaynoq suv olib kelish uchun chopish, bulka sotadigan joyni bilish. Mana shunday qilib, bo'lg'usi moskvalik o'zining huquq va majburiyatlarini bajarishga kirishgan.

Bolalarning ishi yugurdaklik qilish va buyurilgan narsalarni tarqatishdan tashqari, kattalar yumushi bilan birikib ketar, ammo o'zlariga xos, alohida xizmati ham bor edi. Ular haftaning «hammom bo'lmagan» kunlari, ya'ni dushanba va seshanbada shisha idishlarini yuvishar, kvas quyishar, ular bilan hammomda savdo qilishardi. «Hammom kunlari» esa supurgi tayyorlashar, ayniqsa, shanba kunlari, shuningdek, katta bayram arafasida ayrim hammomlarda uni uch ming donagacha tayyorlashardi. Supurgilarni uzoq xilvat qishloqlardan, ayniqsa, Gjel tomondan olib kelishar, ular jo'ka po'stlog'idan juft-juft qilib tayyorlanardi. Bolalarning ishi, asosan, supurgilarni bog'lashdan iborat edi.

Hammomlarda bolalar yechinish xonalarida ishlar, sartaroshlarga yordam berar, shu bilan birga tirnoq olish va qadoqlarni kesishni o'rganishardi. Mochalkalarni tayyorlash ham ularning vazifasiga kirgan. Shu maqsadda sotib olingan bo'sh tuz chipta qoplaridan yaxshi mochalka chiqar edi. Havaskorlar uchun yaxshi ko'pirgich keltirishar, u nozik va yumshoq bo'lib, maxsus ravishda Moskvaning nonvoyxonalariga olib kelishar, ular chipta po'stloqlaridan tayyorlanganiga nisbatan uch barobar qimmat edi. Buning ustiga, xo'jayin uyini yig'ishtirish uchun yuborar, chiqindilarni olish, tom ustini qordan tozalash kerak edi. Hammomdan ko'ra bolalarga ish yetib ortar, shu bilan birga «mayda-chuydalar» va musht-kaltaklar ham tushib turardi.

Bu qo'llarida hammomchilar, ayol xizmatchilar, butun hammom ishchilari bo'lgan yarim xo'jayinlar bo'lib, ayniqsa, ishchilar eksplua-

tatsiya qilinar, ularning mehnatini hech nima bilan solishtirib bo'lmadi. U ertalab soat beshdan tungi o'n ikkiga qadar yalang'och va oyoqyalang holda bitta qisqa etakda, tizzagacha yopinib, barcha mushaklarini ishlata, 14 dan 60 darajagacha o'zgaruvchi haroratda, doimo ho'l, nam joyda tinim bilmasdi. Bu vaqt mobaynida u faqat peshinda yarim soat dam olar, ovqatlanishda egniga yengil xalat tashlab olar, oyog'iga yog'och kavush kiyardi. Bu bug' beradigan kishi edi.

U hech qanday qo'shimcha haq yoki maosh olmasdi. Mijozlar arzimas pul berishar, o'ta mashaqqatli surgundagi ishi uchun issiq va nam sharoitda ishlashga majbur edi. Yuvintirish hamda bug' berishda xo'jayinlar ortiqcha to'lamasdi.

– Qancha himmat qilsangiz, – deb javob berishardi odatda ular cho'milgan mijozlarga. Har xil haq berishardi ularga. Bug'lovchilar odamlarni yaxshi bilishar, kimni qancha berishiga qarab, cho'miltirib va uqalab qo'yishardi.

Sandunov hammomida bir rasta sohibi millioner Solodovnikov yuvinishga kelardi-yu, qancha deb so'rab o'tirmas, indamay ikki griven berardi, bundan hammom egasiga faqat bir griven tegardi.

Bug' beruvchilar nafaqat maosh olishmas, balki «choychaqa»ga olgan pullarining yarmini o'zining egasi yoki uning o'rinbosari, ya'ni, «kichik xo'jayin»ga berishi kerak edi.

Shu bilan birga, bug'lovchi majburiyatiga issiq hammomni yoqish va yig'ishtirish, uni sovun bilan tozalash ham kirardi.

«Kusochnik», ya'ni «o'tkir jag'li ombir» deyilgan hammom egasining yordamchisi bug' beruvchilar qancha «choy puli» olishini kuza-tib boradi. U o'zining odamlarini yaxshi biladi, kim qancha berishidan ham yaxshi xabardor. Odatda, Solodovnikovdan ikki griven olgandan so'rab o'tirmaydi-yu, balki:

– Eh, xasis, – deb... so'kinadi.

«Kusochnik» hammom sohibiga ijara puli to'lar, ishchilarni o'zi yollab, o'zi ishdan bo'shatar, bug' beruvchilarga tegmas, ular xo'jayin-ing alohida ko'rsatmasiga binoan ishlar edi.

«Kusochnik»lar oilasi bilan hammomda yashar, alohida xonaga ega edi. Turlicha ijara haqi berishar, hammomning qandayligiga qara-b, yigirma so'mdan yuz so'mgacha pul to'lashardi.

O'z navbatida, yechintiradigan kishilar ham hammom egasidan maosh olishmas, ular yordamchiga o'zlari olgan «choy puli»dan berib

turishar, yechinadigan xonadagi divan, choyshab va bo‘lmalar qanday bo‘lishining to‘lovga hech qanday aloqasi yo‘q edi.

Yordamchilar divanga qoplangan choyshablarni yuvishlari, ishchilarga maosh to‘lashlari, ularning bolalarini ovqatlantirishlari, shu bilan birga hammomning tozaligi, «dvoryan» hammomlarida yuvindiganlarning yo‘qolgan anjomlari uchun javob berishlari kerak edi.

1905-yil inqilobi bu yordamchilargacha yetib keldi. Ishchilar «kusochniklar»ni bartaraf qilishga kirishib, bunga erishdilar ham. Lekin oradan ikki yil o‘tgach, munosabatlarning o‘zgarishi tufayli ular yana paydo bo‘lishdi va 1917-yilgacha o‘z kuchini saqlab qoldi.

Hammomdagi ofat, ayniqsa, «oddiy xalq uchun» ichki kiyimlar, poyafzal, ko‘pincha yuvinayotgan odamlarning ashqol-dashqolini o‘g‘irlashdan iborat edi. Hammom o‘g‘rilarining birlashmasi mavjud bo‘lib, o‘ziga xos tizim ishlab chiqilgan edi. Ular, odatda, «issiq» hammomda quritiladigan ichki kiyimlar va ust-boshlarni o‘g‘irlashardi. Bu o‘ziga xos reja asosida amalga oshirilardi. O‘g‘rilar hammom bug‘ buluti bilan to‘lguncha bir chekkada kutib turishardi. Ko‘pchilik issiqqa chiday olmay, sovunxonaga chiqib turardi. Bundan foydalangan o‘g‘rilar xodalarga ilingan ichki kiyim-kechaklarni tezgina o‘marib, o‘sha zahoti yashirib qo‘yishar, kechki payt esa hammomga kelib, olib ketishardi. Buning uchun hammomdagi xizmatchilarga haq to‘lashlariga to‘g‘ri kelar, o‘zlari yig‘ib qo‘ygan o‘g‘rilik pullaridan sarflashardi.

Yana bir o‘g‘rilik uslubi bor ediki, bu hammomlardagi «qishloq» bo‘limida amal qilar, ularda o‘g‘rilangan buyumlar uchun hammom egalari yordamchilari javob berishardi.

Yuvinishga kelgan kishi kiyimlarini yechinish xonasiga topshirar, mis nishonni ipi bilan birga olar, ba‘zan uni bo‘yniga osar yoki qo‘liga bog‘lardi. Ba‘zi hollarda qo‘liga shunchaki mahkam ushlab, yuvinish yoki bug‘xonaga kirib ketardi. Yechinish xonasiga kuzatib kirgan o‘g‘ri mug‘ombirlik bilan uning raqamini o‘ziniki bilan almashtirib qo‘yar, tezgina chiqar, kiyimini olardi-yu, shu bilan g‘oyib bo‘lardi. Yuvinishga kelgan kishi qimmatbaho kiyim o‘rniga juldur kiyim va lash-lushlar bilan qolardi.

Hammom o‘g‘rilar kuchli hamda qo‘lga tushmas kishilardan iborat edi. Ayrim xo‘jayinlar o‘z hammomlari nufuzini tushirib yubormaslik uchun, hatto o‘g‘rilar bilan kelishuvga borishgan, buning

uchun ularga oyma-oy mo'maygina pul to'lashgan. Shu tariqa «sotib olingan o'g'rilarning o'zi» begona o'g'rilarni tergap, ularning iziga tushgan. Agar birortasi qo'lga tushib qolsa, juda yomon bo'lardi, raqiblarga hech qanday rahm-shafqat qilinmas, ularni o'ldirmagan taqdirda ham, bir umr mayib qilib qo'yishardi.

Barcha hammomlarda yechinish xonalari oldida shiftni mahkam tutib turadigan yog'och ustunlar bo'lardi.

Qo'lga tushgan o'g'rini, aytaylik, ertalab soat yettida yarim yalang'och, oyoqyalang holda chiqish joyiga yaqin ustunga bog'lab qo'yishardi. Hammomga kelayotganlar orasida kiyimlarini o'g'ri «urgan» kishilar ham bo'lardi. Ular qo'lga tushgan o'g'riga o'zlarining bor g'azab va nafratlarini sochishardi...

Yarim kechasi, hammomni tambalash oldidan urib, abjag'i chiqqan o'g'rini ba'zan politsiyaga jo'natishar, ammo bu holat kamdan kam bo'lardi. Ko'pincha ob-havo qanday bo'lishidan qat'i nazar, tur-tib-surtib, ko'chaga haydab yuborishardi.

Bo'lajak hammomchilar yoshlik paytlaridan boshlab shunday vaziyatga mos ravishda tarbiyalanar edi. Boshqa kasblarga yo'naltirilib o'qiydigan qishloq bolalaridan farqli o'laroq, ular orasida qochib ketganlar ancha kam edi.

Kaltaklardan tikuvchilar, etikdo'zlar, sartaroshlar, duradgorlar, bo'yoqchilar, ayniqsa, kichkintoy xo'jayinlar – «kemiruvchilar» qo'lida ishlaydiganlar ko'proq qo'rqrq va qochib ketishardi. Ular bu kasbkorni xo'jayinchalardan o'rganish bilan birga, eng asosiysi, mast-alast ustozlari va bekalar tomonidan kaltaklanib, har qanday yo'llar bilan qochib ketishga urinar edilar. Bu bolalarni eski, yirtiq-yamoq etikda, yarim yalang'och holda har qanday sharoitda ham suv olib kelishga basseyn yoki hovuzlarga yuborishardi. Ular kvartirada hammadan oldin turishar, o'tin keltirishar, hali qorong'i bo'lishiga qaramay, samovar qo'yishardi.

Og'ir ish va kaltaklardan ezilgan, yaqin orada tengdosh o'rtoqlarini ko'rmagan, bir og'iz shirin so'zni eshitmagan bu bolalar o'z qishloqlariga qochib ketishar, ba'zan o'sha yerda qolishar, agar ota-onalari xo'jayinlariga qaytarishsa, ko'pincha Xitrovkaga qochib, tengdosh o'g'rilar to'dasiga qo'shilar, xilvat, pastqam joylarda yurar va pirovardida qamoqxonaga tushar yoki, aksar hollarda surgun qilinardi. Hammomchilar bilan bu hol siyrak ro'y berardi. Ular hamqishloqlari

va qarindosh-urug'lari bilan birga ishlab, birga yashardi. Bu odamlarning qanday ter to'kayotganini o'z ko'zlari bilan ko'rishar, o'zlari ham ortda qolmaslikka harakat qilishar, mayda-chuyda xizmatlari uchun ozgina olgan «choychaqa»lari o'zlariga nimadir bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatini berar edi.

Bayram paytida ular qarindoshlari bilan sayr qilish maqsadida Sokolnikidan xalq sayliga ravona bo'lishar, bu Deviche ostida, Presnyada bo'lar, har xil bemaza tomoshalar, sirkka borishardi.

Eng muhimi, ular qishloqdagi qarindosh-urug'laridan turli-tuman gap-so'zlarni eshitishar – go'yo tengdoshlari Fedka yoki Stepka Moskvaga uylanish uchun yirtiq-yamoq etikda yoki kalishda borib, zanjirli soat taqib haqiqiy moskvalikka aylangan – va shunday odamga aylanishni orzu qilardilar.

Vaqt kelib, qarindoshlari va vatandoshlari ularga kiyim-kechak va poyafzal olish uchun qarz berishardi.

Hammomchilar bozordan faqat yirtiq-yamoq etik sotib olishar, chunki bu ular uchun eng zarur oyoq kiyimi edi, aks holda biror ish qila olishmasdi: hademay binoyi oyoq kiyimi ham muyassar bo'lar.

Ishda faqat yirtiq-yamoq etik bor edi, xolos. Bayram liboslari o'sha paytda urfga mos edi. Eng ko'zga ko'ringani baland charm kalishli, buzoq terisidan ishlangan etikdan iborat edi.

Bunday etikka buyurtma berish katta voqea edi: u o'n uch so'm turardi. Keyin etikni uzoq vaqt kiyishar, so'ng bosh qismini o'zgartirishar, yirtilgan etikni ta'mirlab, hammomgacha olib keshardi.

Ustki kiyim uzun movut chakmon, uzun «sibirka». Yoqasiz kamzul, qishda qo'y terisidan tikilgan po'stin, movut bilan qoplangan va qo'zi terisidan yoqa qilinardi. Bular ham xuddi etiklar kabi yillar davomida kiyilar, dastavval bir yil, so'ng boshqasi ishlatilar edi.

Bolalar, albatta, eski-tuski, to'zg'igan kiyimlar kiyib yurishar, bunga yillab tayyorlanib, tiyinlab yig'ib, biror qarindosh yoki hammomchi xolaga «mablag'i»ni berib qo'yishar, ayrim hollarda tikuvchi yoki etikdo'zga omonatga topshirishardi.

Saboq oladigan bolalar o'n yetti, o'n sakkizda edi. Bu vaqtga kelib, hammom ishiga qo'llari ancha kelishib qolar, mijozlarga muomala qilishni o'rganib, ularning tirnog'ini qirqish va qadoqlarini ohistalik bilan olishni pishiq o'zlashtirgan bo'lishardi. Bunday ama-

liyotlardan so'ng «bilimli» bola qishloqqa borib uylanishi uchun xo'jayindan «vakant» joyga o'tkazishni so'rardi. Aks holda uylanish noqulay: qishloqda uning ustidan kulishardi.

Uylanishga shaylangan «yigit» Maroseykaga ravona bo'lar, u yerda darvoza oldida qaychilar yaraqlab turar, hovlida esa hammom tikuvchisi Ion Pavlov yashar edi.

Pavlov huzuriga «yigit» o'zining amakisi, ancha uzoq yillik o'rtog'ini boshlab keladi.

– Ion Pavlich! Manovi yigitchani po'stin, uzun movut chakmon va boshqa narsalar bilan kiyintirish kerak... Uylanish vaqti keldi!

Ion Pavlich yigitchaga nimaiki kerak bo'lsa, hammasini taxt qiladi, ko'p yillar barcha hammomchilarga tikib-bichib bergan. U faqat hammomda ishlar, boshqa tikuvchini bilishmas, Ion Pavlichni esa xuddi o'z hamyurtlari kabi tanirdilar.

Hamma bichish-tikish va yamash-yasqash ishlari qarz hisobiga amalga oshirilardi. Maydalab to'lashar, asosiy hisob-kitob yiliga ikki marta – Pasxa va Rojdestvoda amalga oshirilardi.

Etikdo'zlar bilan ham ahvol shu. «Yigit» amakisi bilan Karetniy ryadda hamqishlog'i etikdo'z huzuriga boradi.

– Pyotr Kirsanich, bichimini ol-chi, uylanishga ketyapti!

Pyotr Kirsanich bir parcha qog'ozga oyog'ining o'lchovini oladi, nimadir yozadi va so'raydi:

– G'ijirlaydigan bo'lsinmi?

– Albatta g'ijirlasin! – deydi amakisi uning o'rniga.

– Nag'al ham qoqish kerak, amaki, kichikrog'idan, – iltimos qiladi «yigitcha». – Nag'al moda-da, hozir...

– Bo'pti. Isming nima sening?

– Petrunka.

Etikdo'z qog'ozga qalam bilan nimanidir belgilab qo'yadi va xayrlashar ekan, tayinlaydi:

– Ikki yakshanbadan o'tib, uchinchisida olib kelaman!

Mana, hammomchilarning uch avlodiga Kirsanich xizmat qiladi. Ayniqsa, yamash-tuzatish bilan bog'liq ishlari anchagina. U yoki bu ish bo'yicha oldiga yugurib kelishadi: birovga kapaki qo'yish, boshqasiga sidirg'a ta'miri, kimgadir yamash, boshqasiga etikning boslig'ini almashtirish ishlari.... Hammomchilarga esa goh qo'nji kalta etiklar kerak, nam ko'pligi bois tagiga rezina tagliklar tikish lozim,

ayollarga esa poshnasiz boshmoqlar zarur. Xullas, turli-tuman yamab-yasqash yumushlari. Faqat bajarib ulgursang bo'lgani.

Har bir buyurtmada yozuv, unda qaysi hammomdan, poyafzal kimdan – aniq ko'rsatiladi.

Yozda aravada, qishda chanada Pyotr Kirsanich keksa, oddiy axta otini tayyorlaydi, unga o'ndan ortiq xaltalarni joylashtirib, o'tirib oladi. Kucheri esa o'n yashar nabirasi.

– Birinchi bo'lib Sandunovskiya, keyin Xitoychaga, undan so'ng Chelishvga!

– Bilaman, bobo, bilaman, doimgiday!

Yakshanba kuni – hammom ko'pchilik uchun yopiq. Yechinish xonasida ishchilar yig'iladi: Kirsanich kelishga va'da bergan.

Mana u katta qop bilan keladi. Qopda: «Sandunovlar», deb yozib qo'yilgan. Eng shovqin-suronli, do'stona uchrashuv.

Kirsanich o'z ishini tartib bilan taxlab qo'yadi va chaqira boshlaydi:

– Ivan Jestkiy!.. Fyodor Goreliy!. Semyon Ryumochka! Sasha Puzir!.. Masha Daroz!..

O'sha paytda o'zaro muomalasida familiya qo'llanilmay, laqab ishlatilgan yoki belgilari tilga olingan. Laqablar fe'l-atvor, qaddi-qomat hamda qiliq-odatiga qarab berilgan.

Va laqab aytilgan hamono hamma unga talpinadi. Ivan haqiqatan shafqatsiz, Fyodor hamisha sal bo'lmasa yig'lab yuboradi, Ryumochkaning esa burni qip-qizil, Masha bo'yi uzun va ingichka, Sasha esa ushoq, shunchaki baqaloq.

Buyurtmalarni qabul qiladi. Hisob-kitob qiladi. Shisha keladi, stakan paydo bo'ladi, kolbasa bodring bilan keladi. Kirsanichni hamqishloqlari mehmon qilib, siylashadi va minnatdorchilik bildirishadi.

U endi «birinchi vzvod» bilan Xitoy hammomiga boradi... U yerda ham xuddi shunday voqea yuz beradi. Odamlarni belgilariga qarab chaqirishadi, ammo hech kim javob bermaydi. Vaholanki yozuvda: «Petrunka Nag'allanmagan» deb yozilgan edi.

Qopdan yaltirab turgan etikni kalish bilan chiqarganida, yigit yuzlari, ko'zlari yorishib, o'zini unga tashladi. Amakisi xaxolab kulib yubordi:

– Nag'allanmagan!

Yana shisha keldi, tag'in xursandchilik, ularni shu tariqa Chelishev hammomiga kuzatishdi... U yerdan esa belgilangan manzilga... Kech tushgach uyga, lekin endi Kirsanichning yolg'iz o'zi emas, balki biror Ryumochkin bilan birga – ikkovi ham «oxirgi vzvodda». Bo'sh qoplar ustida qotib uxlab yotishadi.

Kirsanich ana shunday tantanali zafar bilan o'zining ish haftasini nihoyasiga yetkazardi.

Sandunov hammomi xuddi boshi berk ko'cha kabi o'tgan asrning boshlaridagi mashhur qo'shiqchi-aktrisa Sandunova sharafiga qo'yilgan edi. Uni Pushkin davrida ham, hozir ham xuddi shunday atardilar.

Neglinkaning boshqa tomonida, Krapivinskiy tor ko'chasida, xilvatda, ikki ko'l o'rtasida Lamakinskiy hammomi ham bor edi. Egasi Avdotiya Lamakina edi. O'rnashgan joyi xilvat, hamma uni irkit, iflos, yaxshi uy hisoblamasa-da, bu hammomlarda odam doimo to'la bo'lardi.

Sandunova va o'zi kabi mashhur aktyor eri Sandunov uyiga qo'shni Zvonarniy tor ko'chasi chiqadigan joyda g'oyat katta ko'l ham bor edi.

Bu yerda Sandunovlar ajoyib hammomlar qurishdi va Lamakinlarga ijaraga berishdi. Ular esa eski hammomlarni kengaytirib, boyitib, yangilari uchun sharoitni yaxshilash maqsadida pulni aslo ayashmadi.

Ular Moskvada eng yaxshi hammomlarga aylandi. Sandunovlar nomi muvaffaqiyat qozonishga yordam berdi. Krapivinskiy tor ko'chasidagi hammomlar ham Lamakinlarniki bo'lib qoldi, yangilari esa bir umr Sandunovlarnikiga aylandi.

Shu tariqa ularda Moskva ufura boshladi: ayniqsa, erkak va ayol «dvoryan» bo'limi taraqqiy etdi: ularda quloq eshitmagan qulayliklar bor ediki, shu paytgacha Moskvada bo'lmagandi: yechinadigan xonada oynavandli zal, undagi yumshoq divanlarda paxtadek oppoq choyshablar to'shalgan, qat'iy intizomga rioya qiladigan xizmatchilar, tajribali hammomchi erkaklar va ayollar... Yechinish zalini klubga aylantirishdi, u yerda jamiyatning turli-tuman toifalari o'rin olib, har biri o'zining tanish to'garagi, didiga mos odamlarni topa olardi. Ayni paytda turli-tuman ichimliklarga boy bufet ishlar, unda kvasdan tortib, «Moet» va «Ai» shampanlarigacha bor edi.

Bu hammomlarga griboyedovlar, pushkinlar Moskvasiga taalluqli odamlar kelishar, Zinaida Volkonskaya va Angliya klubining salonida to'planishar edi.

Matbuotda «Arzrumga sayohat» asari chop qilinganida, Pushkin unda Tiflis hammomlarini maroq bilan ta'riflagan edi. Lamakina Tiflisdan sinov uchun tatar hammomchilarni ko'chirib keldi, lekin ular tub joyli moskvaliklar issiq pol va yumshoq qayrag'och supurgisini yaxshi ko'rgani uchun kutilgan muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Shundan keyin ularni boshqa chaqirishmadi. Lekin hammomchilari-miz Pushkinning o'gitlariga amal qilishdi va sovun uchun matodan qilingan pufak va junli qo'lqopni joriy etishdi.

Keyin hammomda oilaviy bo'limlar paydo bo'ldi, unga jamiyatning oliy tabaqalariga mansub xonimlar uzun yungli laychalari va tumshug'i yalpoq itlarini ergashtirib kelishardi. Malay ayollar bu joniyorlarni barin bekalari bilan birga cho'miltirishardi...

Bu holat Sandunov hammomida boshlanib, so'ng asta-sekin ayrim boshqa hammomlarga o'tdi, qimmatbaho «dvoryan» va «savdogar» bo'limlari yuzaga keldi.

«Oddiy odamlar»ga mo'ljallangan hammomlarga kazarmadagi askarlarni komanda bilan boshlab kelishar, ulardan ikki tiyindan olishar va o'n kishiga bitta supurgi berishardi.

Keyinchalik, saksoninchi yillarning boshida barcha hammomlarda supurgi uchun bir tiyindan oladigan bo'lishdi, shu bois Ustinskiy hammomida janjal kelib chiqdi: kelganlar oynani sindirib yuborishdi, odamlar qip-yalang'och holida har qayoqqa qochdi...

Supurgi uchun bir tiyindan ola boshlagach, xo'jayinlar katta pul jamg'arishdi, ammo «oddiy kishilar» hammomida hech qanday o'zgarish qilishmadi. Umuman, xo'jayinlar to'g'ri-noto'g'ri bo'lgan barcha huquq va imkoniyatlardan foydalanishar, hammadan tiyinmatiyin va so'mlarni sug'urib olishga harakat qilishardi.

Ayrim hammomlarda hatto shahar suvini o'g'irlashdi. Chelishev hammomlarida barchani taajjubga solib, hovlida to'lib turgan ko'l birdan quridi va hammom suvsiz qoldi. Lekin ertasiga yana suv paydo bo'ldi – hammasi avval qanday bo'lsa, xuddi shunday davom etdi.

Suvning sirli ravishda yo'qolgani va yana paydo bo'lgani ko'pchilikka ma'lum emasdi. Boshliqlar bundan bexabar qoldi, kimki bilgan bo'lsa, indamay turishni o'ziga afzal bildi.

Ushbu voqea oddiygina ro‘y bergan edi. Lubyanskaya maydonida katta basseyn bo‘lib, undan aravalarda idishlar bilan kelib, suv olishardi. Suv Mitishin vodoprovodidan olinardi. Basseyn to‘lgach, qorovul kranni yopmagan va suv quvur orqali hammom ko‘liga oqib qolgan.

Moskvadagi hammomlarning deyarli barchasi Moskva-reka qirg‘oqlarida qurilgandi, Yauza, Chechera kabi daryolar, Sinichka, Xapilovka va suv oqadigan ko‘llar ham shunga yaqin edi.

Hammomlar aksar hollarda yog‘ochdan bir qavatli qilib qurilgan, chunki o‘sha paytlarda suv bilan ta‘minlash tizimida ikkinchi qavatga suv chiqarish og‘ir edi.

Hammom uch bo‘limdan: yechinish, yuvinish va issiq qismlardan iborat edi. Chekka-chekkalardagi «oddiy odamlar uchun» hammomlarda hech qanday qulayliklar bo‘lmagan. Ko‘pchiligida, hatto hojatxonalar ham hovlining biror joyida joylashgan: yilning har qanday faslida yuvinadigan kishi ularga ochiq joydan o‘tar, yomg‘ir va qishning qahraton pallasiga qarab o‘tirmasdi.

Pol tagida to‘g‘ri oqadigan quvurlar yo‘q: sovunli suv hovlidagi quduqlarga oqib tushar, alohida yotqizib qo‘yilgan yog‘och nov orqali, xuddi shunday yo‘l bilan daryoga oqib chiqardi, faqat o‘n metr pastdagi daryoda kir yuvish uchun uni nasos bilan tortib olardilar...

Bunday hammomlar Rovinskiy nashridagi gravyuralarda tasvirlangan. Ular Serebryan hammomlari bo‘lib, Yauzada joylashgan edi. Hammomlarda issiq bo‘lmalar «kamenka» (quvursiz tosh pechlari) vositasida, yechinish xonalari esa «golland» pechlari bilan isitilardi. Hammomning eng asosiy go‘zal joyi «kamenka»si edi. Ayrim hammomlarda u ham «issiq» va «sovunli» xonalarni isitardi.

Eski zamonda hammomlar faqat o‘tin bilan isitilar, o‘tinlar Moskva-rekaning yuqori qismi, Mojayskiy va Ruzi adog‘idan sollar vositasida suv toshqini paytida oqib kelardi, so‘ng ularni Dorogomilovning pastki tomonida Krasnaya luga manzilida yuklashardi. Sollarining yog‘ochlarni keltirishi moskvaliklar uchun o‘ziga xos bayram edi. Minglab tomoshabinlar qirg‘oq bo‘ylari va Dorogomilov ko‘prigi ustida o‘tirib olib:

– Sollar keldi! – deb qichqirishardi.

Eng asosiy hammom kuni shanba va umuman, bayram arafasi hisoblanardi. Bunda hammomlar odam ko‘pligidan tirband bo‘lar, suv

kranlari oldida yuvinadigan, yengil kiyinib olgan kishilar o'zlarining og'ir dubdan ishlangan jo'kalarini almashtirardilar.

«Dvoryan» bo'limida kayf-safo, dam olish, sochni tekislab olish, soqol olish, qadoqlarni kesish, banka qo'yish, hatto tish sug'urish ishlari amalga oshiriladi, «oddiy xalq» hammomlarida, xatosiz aytish mumkinki, «poliklinika» bo'lib, unda har qanday kasalliklar davolanar edi. Tibbiyotchilar, feldsher, sartarosh, chiqqan-singan suyakni soluvchi, davolovchi doya-kampirlar vazifasini bajarar, bug'lovchilar ayni paytda massajchilar hali bu so'zni biror marta eshitmagan paytda ham hammasini risoladagidek bajarardilar.

Chekka-chekkalarda joylashgan «oddiy odamlar uchun mo'ljallangan» hammomlarda ushbu «poliklinika» quyidagicha manzara hosil qilardi.

Shanba. Ertalab soat besh-oltida hammom eshigi ochiladi. Odamlar oqimi tanaffus bilmay oqib kelaveradi.

Yechinish xonasining burchagida sartarosh hech qanday sanitariya qoidalariga rioya qilmay mijozlarning soch-soqolini qirtishlaydi. Ba'zan emin-erkin vaqtni afzal bilib, tibbiyot bilan mashg'ul bo'ladi: qon oladi, banka, zuluk qo'yadi, tish sug'uradi...

Hammomning yuvinish xonasi bug' bilan to'lib-toshgan; taxta ustida vazmin, qip-qizil, issiq tana yotibdi, yonida sartarosh tozaligi shubhali bo'lgan quti bilan kuymalanadi, unda o'n ikkita banka, shtutser (sirti burama kertikli kalta quvur parchasi) hamda kerosinli ko'pik. Ko'pikli idishga sim solingan, tagida po'kak.

Barcha bankalarni tayyorlagach, sartarosh po'kakni yoqib, uning yordamida banka qo'yishni boshlaydi. Ikki-uch daqiqadan so'ng bankalar o'ziga bir santimetrdan ortiq tananing qismini o'ziga «torta» boshlaydi.

Sartaroshlarning qoidasiga ko'ra, banka tanada o'n daqiqa turishi, shu vaqt mobaynida u yaxshilab jips yopishishi lozim, ammo ish ko'pincha boshqacha chiqib qoladi. Bu muddat ichida sartarosh chekish uchun chiqib ketadi, uning san'ati jabrdiydasi esa navbatdagi azoblarni kutib yotaveradi. Nihoyat, uning sabr-toqati tugaydi va jabrdiyda atrofda turganlardan sartaroshni chaqirishni iltimos qiladi.

– Hozir boraman, shoshilmang, hechqisi yo'q, barin! – degan javob bo'ladi. Nihoyat sartarosh keladi, mash'alasini yoqadi. Banka tagi qontalash tusdagi shishdan iborat bo'ladi. «Jarroh» iflos ham-

da zanglab ketgan shtutserni oladi, uni zich qilib shishning ustiga qo'yadi, terini esa mash'ala bilan silab, uqalaganday bo'ladi, yana banka qo'yadi, uch-besh daqiqadan so'ng u tag'in qonga to'ladi.

Banka olinadi, qon to'g'ridan to'g'ri pol ustiga to'kiladi. So'ng hammomchi bemorning badanini suv bilan yuvadi va u tanasi tatuirovka bilan to'lib-toshgan holda kiyinish xonasiga chiqadi. Shundan so'ng, odatda, bankalarning «foyda keltirish» to'g'risidagi maslahat berish boshlanadi.

Bankadan tashqari, sartaroshlar «qon olishadi». Saksoninchi yillarda shahar chekkalarida quyidagi yozuvli peshlavhalar uchragan: «Bu yerda soch-soqol qirtishlanadi, zuluk qo'yiladi va qon olinadi».

Bunday peshlavha, odatda, kirish joyining tepasida, uning ikki tomonida esa uzun surat osilgan bo'lib, buning qanday bajarilishi ko'rsatib qo'yilgan edi.

Suratlardan birida iyaginging ostiga sovun surtilgan odam o'tiribdi, boshqa kishi uning burnini ko'rsatkich va katta barmog'i bilan ushlagan boshini ko'tarib, o'zi esa ustiga engashib, o'ng qo'li bilan yarmi sovun ko'pigi bilan qoplangan ustarani tegizmoqda.

Ikkinchi tomonda norg'ul, sog'lom, qizil tanli bahodir bitta ko'ylakda, yengini yelkasigacha shimarib o'tiribdi. Oldida qoni oqib turgan jarrohlar tig'i – demak, operatsiya allaqachon tugagan, bahodirning baland ko'tarilgan qo'lidan xuddi sharora kabi qon oqadi. Qo'li ostida esa kichkina, yelkasiga sochiq tashlagan bola tos ushlagan turibdi, idishning yarmi qon bilan to'lgan.

Bu operatsiyani ham «sovunxona»da o'tkazishardi, lekin bu yerda tos ushlagan bola bo'lmasdi, qonni esa birdaniga pol ustiga to'kib yuborardi.

«Qon olish» lo'ttibozlar, aravakashlar, o'pkasini qo'ltiqlagan izvoshchilarning sevimli operatsiyasi bo'lib, semirib qolgan do'kondorlar va nodon, o'qimagan savdogarlarni shilib olishni boshlagan edilar.

Ayollar hammomida o'ziga xos «davolash» usuli mavjud edi. Ularning birinchi ishi – yuzni oqartirish uchun tosga ittikan yoki oq gulli o't solib qaynatishadi, «dvoryan» xonimlar esa yuzlarini bodom kepagi bilan yuvishadi.

Shundan so'ng turli-tuman artish-tozalash, boshni kerosin bilan yuvishlar amalga oshiriladi. Bu yerda cho'miladiganlar uchun hammomchi ayollar qarashadi. Siniqchi xotinlar esa faqat «oddiy odam-

lar» hammomida xizmat qilar va erkaklarni davolashda ham ishtirok etardi.

Hammomga kelgan odam bukchayib, gumashtaga ayolni chaqirishni buyuradi.

– Bel sanchig‘i qo‘ymayapti!

Bu gapni u kelgan doya xotinga ham aytdi. Ayol unga qandaydir suyuqlik solingan shishacha berdi, so‘ng yuvinib, bug‘ga o‘tirgach, shu dorivor bilan yaxshilab artinishni tayinladi. Hammomdan keyin unga natijasini aytishni so‘radi.

Yuvinib, kiyim-kechagini kiyib olgan bemor doya xotinni chaqirdi. Ayol unga qorni bilan ostona oldidagi eshik yonida ko‘ndalang yotishni buyurdi, so‘ng belidan yuqoriroqqa quruq supurgini qo‘ydi va bolta bilan bir necha marta sekingina supurgiga ura boshladi. O‘zi esa tushunib bo‘lmaydigan duolarni pichirladi. Bu operatsiya «cho‘nqayib o‘tirish» deb nomlanardi.

Doya xotinlar hammomlar hayotida katta rol o‘ynagan. Ular tufayli ko‘pchilik hammomga maxsus ravishda borardi. Hammom egalari ham juda qadrlar edilar: bu xotinlar singan-chiqqan suyaklarni tuzatishar, churrani bartaraf etishar, tuvak qo‘yish yo‘li bilan erkak, shuningdek, ayollar qornini to‘g‘irlar edilar.

Lekin ularning asosiy ishi, mutaxassisligi akusherlik edi. Bir necha haftalik homilador ayol iltimos qila boshlaydi:

– Anisya buvi, meni o‘z holimga tashlab qo‘yma tag‘in!

– Xo‘p, lekin sen hammomga tez-tez kelib tur, bu foydali, bola to‘g‘ri yo‘lga tushib olsin! Qachon kerak bo‘lib qolsam, men kelaman!

Hali Gonetskiy Sandunov hammomini saroy hammomiga aylantirmasdan turib, A.P. Chexov eski Sandunov hammomiga kelishni yaxshi ko‘rardi. Bu hammom shinam, ortiqcha bezaksiz, sirti yaltiroq, ichi qaltiroq narsalar mutlaqo yo‘q edi.

– Anton, ketdik, hammomga boramiz, – derdi akasi, rassom Nikolay, butun bo‘yoqqa belangan holda.

– Borishga borardim... Ammo qo‘rqaman... Oxirgi marta kutilmaganda, esingdami, Sergiyenkoni uchratgandik. Men kiyinib chiqayotgandim, u esa kirayotgan ekan. Tugmamdand ushladi-yu, shu zahoti nimanidir hikoya qila boshladi. To‘satdan yana uchratib qolsak-chi? Men Sandunovni yaxshi ko‘raman... Faqat tevaragi butunlay mudhish... quruq ob-havo paytida – chang-to‘zon, yomg‘ir

yog'a boshlasa bormi, hamma uylardan barcha ifloslik Neglinkaga qarab suriladi.

A.P. Chexovning yangi hammom saroyiga qarashli kvartiralardan birida yashashiga to'g'ri kelgan. Uning ob-havosi xuddi eski Sandunadagi kabi edi.

O'shanda Biryukov hammomga egalik qilar, Moskvada hamma uni «hammom qiroli» deb aytardi. Vaholanki, Lamakina davrida chip-ta kovush bilan kelgan bola edi. Hammomda o'n yil ishlab, so'ng qator hammomlar qurdi va Sandunovga tegishlilariga egalik qildi... Keyin shunday bo'ldi: uy va hammom millioner-o'tinchi Firsanovga garovga qo'yildi.

Firsanovga nimaiki tushganida esa, g'oyib bo'ldi, deyaver! U katta, yaxshi uylar uchun pul berib qo'yar, so'ng shunday davom etardiki, bu uy albatta uniki bo'lib qolardi. Ko'pgina aslzodalarning uyi va dang'illama hovlilar Firsanovning o'ljasiga aylandi. O'sha paytda, ya'ni Sergiyenko A.P. Chexovning tugmasidan mahkam ushlagan paytda Sandunov Firsanovning garovida turgandi, oradan bir yil o'tgach, butunlay uning ixtiyoriga o'tadi...

Bu kazarma-arakcheyev uslubidagi ulkan uy bo'lib, aslzodalarga xos hashamatli yechinish xonasi – yigirmanchi yillar mashhur arxitektorning yaratgan obidasi edi.

Ivan Firsanovning o'limidan keyin yigirma uch uydan iborat Moskvadagi hammom-uylar va Moskva yonidagi «Srednikov» mulki, bir zamonlar buyuk yozuvchilar, shoirlar mehmon bo'lgan maskanlarning hammasi qizi Vera ixtiyoriga o'tdi. Endi uning sohibi yakka-yu yagona qizi bo'lib qoldi.

Vera Ivanovna Prechistenkoda yayrab, g'oyat xursand holda eng yaxshi aslzoda zodagonlarning muhtasham hovlilaridan birida istiqomat qilar, bularning bari otasidan meros bo'lib o'tgan edi. Uning huzuriga oltinga belangan yoshlar va urfga mos kiyingan, aysh-ishratni yaxshi ko'radigan maishatparastlar – poytaxt sherlari va ishbilarmon odamlar, yirik sud amaldorlaridan tortib, advokatlargacha aylanishardi. Otasidan so'ng katta tijoriy ishlarni shaxsan Vera Ivanovnaning o'zi olib borardi.

Uyiga tez-tez keladigan vazirlik amaldorlari orqali u nima kerakligini bilar va vaqt-vaqti bilan o'zining tijoriy ishlarini muvaffaqiyatli olib borardi.

Vera Ivanovnaning atrofida go'zal yoshlar aylanar, soatlab xur-sandchilik qilar, savlatli boy-boyonlar, amaldorlar va turli-tuman mayda xizmatchilar, uning go'zalligiga oshufta, asosan mablag'iga o'ch kishilar ham anchani tashkil etardi.

Bir kuni Moskvada «voh» deb yuboradigan yangilik tarqaldi:

– Vera Ivanovna turmushga chiqdi!

Eri gvardiya poruchigi, jangovar generalning o'g'li Gonetskiy edi. Uylanishga qadar u Moskvaga tez-tez kelib turar, yozda poygalarda, qishda bal va tushliklarda bo'lar, ammo Vera Ivanovnaga «bir qadam» ham yaqin yo'lamasdi. Vaholanki, Vera do'stlari, dugonalari orqali o'ziga xushomad qilib, girdikapalak bo'ladigan odamlar qatori uni ham huzuriga tortishga urinardi.

Do'stlari qatori Gonetskiyini o'z tomoniga ag'darib olish vazifasi poruchikning oshnalariga ham yuklatilgan edi. Ular «Verochka»ni ishontirib, Gonetskiy keksa polyak magnat millionerining yagona merosxo'ri deb aytishdi, endi u pullarga ko'milib qolishini bashorat qilishdi.

Do'stlar aytganlariga erishdilar! Vera Ivanovna Firsanova Gonetskaya bo'lib qoldi. To'ydan keyin yoshlar «keldi-ketdi»dan uzoq-roq bo'lish maqsadida «Srednikova»ga ravona bo'lishdi. Eriga uning ishlari bilan mashg'ul bo'lish va birga ishlashni taklif qildi va shu tariqa butunlay maftun etdi.

Firsanovga tegishli uylarning daromadlarini ko'rib chiqqan Gonetskiy shunday dedi:

– Mana Xludovlarning markaziy hammomi qurilgan-da! Senga Sandunov xarobalariga ega bo'lish butunlay uyat: bu Firsanov familiyasini sharmanda qiladi. Xludovlarni butunlay sindirish kerak!

Xotinining «savdogarlarga xos izzatlablik»ni yuqori qo'yishini anglagan Gonetskiy unga markaziy hammom keltirishi mumkin bo'lgan ulkan foydani ko'rsatdi.

– Birinchi ish – Sandunov hammomlarini shunday qilish kerakki, Moskva shu paytgacha ko'rmagan bo'lsin va ko'rmasin. Xarobalar o'rnida hammom uchun saroy quramiz, uni ilm-fanning oxirgi yutuqlariga muvofiq quramiz. Shu bois qancha pul sarflasak, shuncha foyda olamiz, Xludovlar esa butunlay yo'q bo'lsin! Bizning hammomlari-miz to'g'risida matbuot gapiradi va sen mashhurga aylanasan!

Eski hammomlarni qayta qurish masalasi hal bo'lgan edi...

– Me'morchilik jamiyati orqali hammom qurilishiga tanlov e'lon qilish kerak, – dedi tutilib Vera Ivanovna.

– Nima? Moskvalik arxitektorlarga hammom qurdirish? Nima uchun Xludovlar bunday qilishmadi? Nega ular Venadan quruvc-hi keltirishdi... Eybushis edi, shekilli? Hech qanday yirik arxitektor emas... U yerda yirik mashhurlar bor. Men moskvalik me'morlar bilan ishlamayman. Qandaydir yangi, butunlay buyuk narsa yaratish kerak. Bu saroyda Sharq-u G'arbni bir-biriga tutashtirib yuborish kerak!..

Yevropa hammomlari, Turkiyadan tortib, Irlandiyagacha safar qil-gandan keyin Prechistenkadagi saroyda hammomga taalluqli ma'-lumotga ega kishilarning yig'ini bo'lib o'tdi. Hamma ishni Go-netskiyning o'zi olib bordi, qurilish uchun esa Venadan arxitektor Freydenberg keldi.

Hammom qurilishidan foydalanib, Gonetskiy bir necha oy bank-dagi cheklar va xotini imzo qo'ygan hujjatlar bilan tanishdi. O'zining ilgarigi qarzlari, majburiyatlarini qayta ko'rib chiqdi. Ular «iste'fodagi gvardiya rotmistri»ning kabinetidagi malaxitovcha kaminning olov-larida g'oyib bo'ldi, gvardiya paradlarining jilvalari savdogarlarning millionlari bilan almashdi.

Jazirama yoz kunlarining birida (ba'zan sentabr oyida ro'y beradi) bitta ko'ylak bilan xiyobonda bolalar va yozgi kostyumda sayr qi-lib yurgan odamlar orasidan Tver zastavasidan hech kimga e'tibor bermay, uch nafar bo'yi past odam tezkor qadam tashlab borardi.

Ularning soqoli qirilgan, terlagan va qizarib ketgan yuzlari issiq paltosining mo'ynali yoqalaridan ko'rinib turardi. O'ng qo'lida poyga otlari uchun uzun qamchi, chap qo'lida kichkina sakvoyaj (tutqichli sumka) bor edi. Ola-bula qorako'l shapkani qoshining ustiga tushirib kiygan bittasining qo'ltig'ida kichkina bo'xcha va hammom supurgisi qistirilgan. U hamrohlariga nisbatan baland va yelkalari keng edi.

Ularning har uchovi taniqli, mashhur poygachi-chavandoz: qora-ko'l shapka kiygan Voronkov, qolgan ikkovlon – inglizlar Ambroz va Kleydon. Ikki kundan so'ng ikki yillik eng katta yutuq o'ynaladi – vaznni kamaytirish kerak. Shu bois ular «gruzinch» hammom tokc-halarida «terlab» qaytishayotgandi...

Endi tezroq odimlashmoqda, Vsexsvyatkiyga qadar borishadi-yu, so'ng uylariga tarqalishadi: Kleydon Bashilovkada yashaydi, boshqa-lari poyga o'tkaziladigan slobodkada, o'zlarining otxonalarida.

«Gruzin» hammomlari – Jivoderkada istiqomat qiladigan poygachilar va lo‘lilarning xush ko‘radigan maskani. Poygachilar hammomchilarning eng sevimli mijozlari bo‘lib, bir so‘mdan haq to‘lashadi, eng asosiysi, ko‘pincha yaqin poygada ishonchli ot qaysi ekanligi to‘g‘risida shivirlab aytib berishadi.

Lo‘lilar – poygalarni haddan ortiq yaxshi ko‘radigan kishilar. Ular ham yetmish daraja issiqda lohas bo‘lishiga qaramay, ushbu ma‘lumotlaridan foydalanishadi, hammomchilar bu saxovatli mehmonlarni issiq bug‘ buluti ostiga haydashadi.

Bir tanishim moskvaliklarni o‘rganayotganimni bilib, meni o‘zining qarindoshi – hammomchining uyiga mehmondorchilikka taklif qildi. Hammomchi Petrov parkidagi dachada yashar, hammomi esa Yauzaning qayeridadir joylashgandi.

– Bugun uning to‘rt nafar oila a‘zosi tug‘ilgan kunini nishonlamqda: xotini Sofya, uch nafar qizi: Vera, Nadejda va Lyubov. Bu kishi hisob-kitobni yaxshi biladi – hamma qizlarining tug‘ilgan kunini bir kunda o‘tkazishga, onasi bilan birga nishonlashga harakat qiladi. Ikki nafar katta qizi gimnaziyani tamomlayapti.

Keng-mo‘l zal yoshlar ixtiyoriga berilgan: talabalar, gimnaziya-chilar, ikki-uch nafar moviy kamzul kiygan, poshnasi baland laklangan etik kiygan qarindoshlar, ikki-uch nafar indamas zodagon ayollar shoyi ko‘ylaklarga belanib o‘tirishardi. Musiqa, qo‘shiq, raqs, royal kuylari ostida ijro etilmoqda.

Mehmonxona yonida – yasan-tusan kiyingan savdogarlar va kambag‘al qarindoshlar devorga yaqin joyda odob saqlab va jim o‘tirishibdi yoki to‘ladan kelgan, tavallud kunini nishonlayotgan qimmatbaho taqinchoqlarga burkangan qiz yonida to‘dalashib olishgan. Patnisda hazmi taom olib kiriladi. Etagi uzun va kalta ko‘ylak, birinchi marta moylangan etik kiygan bir nechta xonim joy egallagan, ulardan ikkitasi shtiblet, ya‘ni bog‘ichli yoki tugmali getr kiygan.

Ular qo‘shni xonaga chiqishadi, u yerda katta stol qo‘yilgan, ustida turli-tuman gazaklar va ichimliklar qator turibdi. Kelib, joylashishadi, so‘ng yana xonimlar huzuriga yoki navbatdagi xonaga o‘tadilar, u yerda ikki stolda qarta o‘yini bormoqda. Preferanslar – yoshi o‘tgan savdogarlar... Ikki nafar sersavlat amaldor – biri «Anna» ordeni kiyimiga tikilgan va uy sohibining o‘zi uzun syurtukda, bo‘ynidagi tas-

mada oltin medal osib olgancha ko'k baxmal kamzuldan chiqib turgan holda o'yin bilan mashg'ul.

Qimor o'yini avj olgan stol atrofida ancha navqiron va yoshi o'tgan kishilar bir-biri bilan «jang olib bormoqda».

– Sen-chi, Kirill Makarich, begona qartadan ko'zingni uzma!

Politsiya uchastkasidan kelgan kotib ruhoniylarni masxaralab, g'arazgo'ylik bilan javob beradi:

– Muqaddas Kitobda nima deyilgan?

– Nima?

– Unda shunday deyilgan: «Agar odamni o'yinda yutishni istasang, birinchi navbatda begona qartaga nazar tashla, o'zingnikiga qarashga doimo ulgurasan».

Qimor o'yini ketayotgan joydan turli-tuman tovushlar eshitaladi:

– Tuz... Dama... Qirol tappon...

Odamlar to'dasi intiqlik bilan quloq soladi: oshxonada idish-tovoqlar shaqir-shuquri – tushlik ovqat tayyorlashmoqda.

Likopchalarga issiq ovqat quyishdi... Qadahlarni cho'qishtirish tugadi... Birdan hamma jim bo'lib qoldi, faqat qo'shni xonadagi yoshlarning hayoti shovqin-suronli tarzda qaynar edi.

Xuddi shu tarzda qoshiqlarning shiqirlashi, xuddi shunday baland ovozda chalpillatib chaynash yoshlarning quvnoq ovozinu bosib ketardi.

Kimdir tomog'iga nimadir tiqilib yo'talib qoldi. Qo'shnisi uning orqasiga indamay mushti bilan uradi, tomog'iga tiqilgan baliq so'ngagi chiqib ketishi uchun... Pishqirish, entikish, qip-qizil basharalar, charaqlagan ko'zlar.

Ikki hammom xodimi egniga ko'k ko'ylak kiygancha shishalarni silkitadi, tiqinlar shiftga sapchiydi, bir so'mlik Lanin shampan vinolari xuddi sovuq dush kabi mehmonlar ustiga sachraydi.

Aka-uka Strelkovlar – salkam «million»ga teng odamlar, moskvalik uy egalari, eski dinga e'tiqod qiluvchilar bo'lib, Preobrajenskiy mazhabida, shu bois hayotlari xuddi kaftdagidek aniq namoyon: har bir bosgan qadami ma'lum va o'n yildan buyon ko'rinib tura-di. Ikkovi ham bo'ydoq, shinam, qulay xonada jiyanlari bilan birga yashaydilar. Uyda hamma narsa ularga xizmat qiladi: jiyani ro'zg'orning barcha ishlarini uddalaydi, oshpaz ham, oqsoch ham u.

Aka-ukalarning hayoti kunlar, soatlar va daqiqalarga bo‘lib qo‘yilgan. Ularning yoshi deyarli tengdek ko‘rinadi: birining tim qora soqoli butun yuzini qoplab olgan, o‘zi qorachadan kelgan, boshqasi ancha sarg‘ishroq hamda soch-soqoliga oq oralagan. Kattasi unib-o‘sishi uchun yirik foizlarga pul bergan. Sudda Nikifor va Fyodor Strelsovning ishi ko‘rilgan edi. Ulardan birinchisi sudxo‘rlikda ayblandi: qirq foizdan olgan! Shunday bo‘lib chiqdiki, sud F.Strelsovni bir necha oy qamoqqa hukm qildi. Bundan bo‘yin tovlay olmadi, o‘tirishga to‘g‘ri keldi.

Lekin betobligi ma‘lum bo‘lib qolgani uchun turma kasalxonasiga jo‘natildi. U yerdan, qandaydir yo‘l bilan – bu o‘n mingga tushdi, deyishdi, – uyga keldi, hech joyga chiqmay o‘tirdi, kuponlarni maydalab, qirqdi...

Bu sarguzashtlarning bari sezilmay o‘tib ketdi, hayot yana o‘z maromiga tushdi, faqat pulni endi veksell bilan emas, uy orqali berardi. Ukasi Aleksey Fyodorovich akasining qamoqxona kasalxonasida bo‘lganidan foydalanib, sudxo‘rlik qilishni o‘ylab qoldi, veksell bilan tanish «havaskor a‘zo»ga, ya‘ni Moskva chopish jamiyatiga pul berdi, uning otxonagacha yo‘lini ta‘minlash uchun ishni o‘z zimmasiga oldi.

A.F. Strelsov qiziqishi tufayli uning otlari qanday chopishini ko‘rish maqsadida birinchi marta poygaga tushdi-yu, qiziqib qoldi. Uning jimlik ichida o‘tgan hayoti sport bilan bog‘liq suhbatlarga to‘lib-toshib ketdi. Har poyga o‘tadigan kuni o‘zining oti bilan bora boshladi. Otga qarash uchun qarindoshi bo‘lgan bolani qorovullikka tayinladi, u poyga uchun otlar boqiladigan otxonada ishlagan edi.

Aleksey Fyodorovich Lenka nomli bir ot qo‘shiladigan yengil aravada poygada «suzadigan» bo‘ldi. Otboqar va kucher xizmat qilishiga kelishildi.

Vaqt-vaqti bilan uning o‘zi yuganni qo‘liga oldi, boshqarishni ancha yaxshi o‘rgandi, yomon otni yaxshi chopag‘on otga almashtirib, Peterburgning katta yo‘lidan soqchilar bo‘linmasiga, «Pereputye» traktiriga qadar haqiqiy chavandoz kabi ot suradigan bo‘ldi. Bunday traktirda ikkinchi toifali sportchilar poyga oldidan ikki soat kutishardi. U ham boshqalar kabi bir ot qo‘shilgan yengil aravada kelib, traktirda otlarning imkoniyatlarini muhokama qiladigan bo‘ldi. Shu muddat davomida kucheri boshqalar kabi aravada o‘tirib, xo‘jayinini kutardi.

Otboqarlar poyga boshlanishidan avval traktirdan xo'jayinlarini chiqarib, poyga o'tadigan joyning yog'ochdan yasalgan yarim tiyinlik shiyponchasiga olib borishgan. So'ng aravalarida o'tirib, to'siq orqali poygani ko'zdan kechirishar, har bir otni bilishar, yutuq imkoniyatlarini muhokama qilishar, hatto totalizator bilan o'ynardilar. O'shanda totalizator bir so'm turardi. Ular esa ikki griven to'lashardi.

Ba'zan Aleksey Fyodorovich otxonaga o'zining tartib bilan foizini to'lab turadigan qarzdorini olib borar, u yerdan atrofni ko'zdan kechirdi. Garchi uyidagi turmush tarzi oldingiday qolaversa-da, sport uning hayotini to'ldirgan edi.

Katta Fyodor baribir sudxo'rlik qilar va kunduz kuni o'z ishi bilan shaharga borib, kuponlarning qimmatbaho kesiladigan tomonini kesish bilan mashg'ul edi. Ikkala aka-uka uyda ovqatlanar, faqat rus taomlarini tanovul qilishar, hech qanday tansiq ovqat bilan qiziqmas, unisi ham, bunisi ham ichimlik ichmasdi. Kechqurun soat sakkizda Savrasenkov traktiriga, Tver bulvariga borishardi. U yerda turli-tuman odamlar to'planar, ovqatlari arzon edi.

Orqa tomondagi ikkita zalda ajoyib bilyard turardi, u yerda eng yaxshi moskvalik o'yinchilar to'planar va, albatta, oralarida firibgarlar ham bo'lar, tepada «Savrasenkov numerlari» bo'lib, ular xiyobondan juftlashib kelishardi. Tovlamachilar u yerda o'z «tegitmon»ini o'rnatib, o'yinchilarni jalb etib, ularni yutish bilan band bo'lishardi.

Fyodor traktiriga kelib, bufet ortida do'sti Kuzma Yegorich va uning ukasi Mixail bilan birga o'tirardi. Har ikkovi ham traktirning egalari edi. Aleksey bilyardxonaga ketar, u yerda poygalar xususida so'z yuritilar, ba'zan o'zi ham bilyard o'ynar, partiyaga bir so'mdan tikishardi. Lekin ko'pincha shunday o'ynardiki, hatto firibgarlarni ham aldab ketar, garchi eng ustasi faranglar bilan o'ynasa-da, kam yutqazardi.

Har oqshom soat o'n birgacha vaqtni Savrasenkovnikida o'tkazar edilar. Ertalab soat o'nda aka-ukalar uydan birga chiqishar – Fyodor ishi bilan shaharga ketar, Aleksey esa o'zining Chernishev hammomi tomon yo'l olardi. Uning ichki bo'lmasi doimo top-toza va shinam, tokchalari yuvilgan holda bo'lardi.

Aleksey «dvoryan» bo'limining yechinish joyiga kelib, u yerda ikki soat o'tirar, gumashtadan tushumlarni qabul qilib olib, yonmaydigan javonga solib taxlab qo'yardi. Keyin sartaroshni chaqirardi. U

har kuni soqolini qirqar, shunchaki oldirar, pulini to‘lamasdi. Soat o‘n birda esa akasi Fyodor kelar, javondan bir taxlam pul olar, ukasiga kumushni qoldirardi-yu, so‘ng ketardi.

Aleksey akasiga qarashish uchun qarshi tomonga, Bryusov tor ko‘chasiga, iflos izvoshli traktirga ravona bo‘lardi. Kosourov uyidan choy ichar va u yerda roppa-rosa bir soatni o‘tkazib, chopqir otlar to‘g‘risida gaplashib, tortishib va ularning imkoniyatlari xususida izvoshchilar bilan suhbatlashar edi.

Bu yerga olifta va chala olifta izvoshchilar kelishardi. Ular ham xuddi shunday avjiga chiqqan otboqarlar bo‘lib, to‘siqlar orqali musobaqalarni kuzatishar va otlarni bilishardi. Har biri qiziqishi tufayli uning otiga xos imkoniyatlarni navbatdagi poyga uchun to‘g‘irlashga urinardi.

– Mana, oxirgi olatasir poygada siz ustunga birinchi bo‘lib yetib keldingiz, ha, sizni Balashov oshib o‘tdi... Uning Volniy oti siznikini urib tashladi, irg‘ishladi-yu, siznikini urib tashladi... Balashov yo‘rtoqi otini qo‘yishga ulgurdi-yu, shu bilan yutdi, sizniki esa poygada...

Bu vaqtda Strelsov allaqachon poyga o‘tkaziladigan jamiyatda havaskor a‘zo edi. Bu kutilmaganda yuz berdi.

Unga berilgan otlarning egasi kasodga uchradi, otlarning bir qismi boshqa qarz beruvchilar ixtiyoriga o‘tdi, ikkitasi qarz bois Strelsovda qoldi. Chavandoz unga otlarni o‘zining ixtiyoriga qoldirish va ular uchun o‘zi mukofot sari chopishini aytib tavsiya qildi.

Urinib ko‘rdi – muvaffaqiyatli chiqdi. Bir rag‘batlantiruvchi mukofot yozdi – oxirgi bo‘lib muvaffaqiyatli yetib keldi. Bir qator yutuqlardan so‘ng unga foydali masofada katta imkoniyat berishdi. Agar bir hodisa ro‘y bermaganida, u butunlay yutib olardi; izvoshchilar har safar unga hamdardlik yuzasidan shuni eslatib turardilar.

Shundan buyon u Balashovni yomon ko‘rib qoldi, qanday bo‘lmasin, undan o‘zib ketishni o‘ylardi. Mavsumlar o‘tar, u esa doimo oxirida kelar yoki butunlay adog‘ida qolardi. Har safar o‘ziga totalizatoridan chipta olar ekan, bu otiga yagona chipta bo‘lib qolardi. U startga turadigan bo‘lsa, hamma kulib yuborar, poyga paytida esa xo‘jayinning kasbiga shama qilib:

– Supurgi bilan! Supurgi bilan ur uni! – deb qichqirardilar.

U esa o‘zining yakka-yu yagona pattasi bilan butun totalizatorni yulib olishni istar, lekin baribir eng oxirida yetib kelardi. Endi, hatto

odamlar kulmay ham qo‘ydilar. Strelsov esa o‘zicha umrini bu sport turi bilan to‘ldirib yuborardi – axir bu hayotining yakka-yu yagona quvonchi edi!

Aleksey Fyodorovich akasiga bu haqda og‘iz ochishga botina olmas, chunki nodonlik deb hisoblar, hayot tartibini buzmaydigan, nisbatan unchalik qimmat bo‘lmagan ermak deb hisoblardi: uni pul, pul, pul qiziqtirar edi.

Ularning biror do‘sti, birga ichadigan birorta ham ulfati yo‘q edi. Aka-uka Strelsovlar, hatto gazeta ham o‘qimasdilar, traktirda bo‘lganlarida faqat ko‘z qirini tashlab qo‘yardilar, xolos. Alekseyning yakka-yu yagona o‘qiydiganini – poyga bilan bog‘liq hisobotlar edi.

Politsiya yiliga faqat bir marta boy-badavlat aka-ukalarni xayriya spektakliga kirish uchun Bolshoy teatrga ikkita chipta bilan siylar, bu «Iblis» nomli spektakl edi. Aleksey o‘zi bilan birga Lyonka otboqarni olardi.

Uyga qaytganlaridan so‘ng ko‘rganlarini Fyodor Fyodorovichga so‘zlab berar ekan, ikkovi ham so‘kinishga tushar edi:

– Bularning hammasi aldashdan boshqa narsa emas! U Volniy Efirning o‘g‘li ekanligini aytib qanday baqirdi-ya! Sen esa, Lyonya, mening biqinimga turtib, «aldayapti» deb shivirlaysan. Haqiqatan yolg‘on gapirdi. Volniy Lyogkiy va Vorojenning o‘g‘li.

Hammom ishlamaydigan kuni ertalab soat o‘nda Zvonarskiy tor ko‘chasining kiraverish joyidagi Sandunov hammomining zar uqali darbon turuvchi ellik tiyinlik bo‘limi odatdagidek xaloyiq bilan jonlanib qolgan edi. Odamlar saroyning ikkinchi qavatidagi katta basseynida cho‘milish uchun kelishgandi.

Sandunov hammomi basseyniga eng yaxshi teatr artistlari kelishar, oralarida salkam yuz yoshga kirgan, butun izzat-ikrom, ehtiromga sazovor bo‘lgan aktyor ham bor edi. U Ivan Alekseyevich Grigorovskiy bo‘lib, Moskva sahnalarida xizmat qilgan, goh qishloq teatrlarida ham ishlagan, endi esa eski pyesalardagi yovuz kishilar rolini ijro etar, undagi so‘zlarni qirqinchi yillarda yodlagan edi.

Ana shu «muttaham» tufayli moskvalik taniqli doktor Zaxarin Maslenitsa – qishni kuzatish bayramida savdogarlar bilan quymoq tanovul qilish uchun uch yuzdan besh yuz so‘mgacha pul sarflashni zimmasiga olib, sal bo‘lmasa uni tayoq bilan kaltaklamochi bo‘lgan.

Hech qachon bir joyi og‘rimagan chol, o‘zining aytishicha, qo‘qqisidan «ko‘kragida qisilish»ni his etgan. Unga Zaxaringa borishni maslahat berishgan, ammo yigirma besh so‘m olishini bilib qoladiyu, so‘kinib ketib qoladi.

Tanish-bilishchilikni o‘rtaga solib, ish ko‘rishdi va Zaxarin uni qabul qildi. Uning birinchi savoli:

- Aroq ichasanmi?
- Bo‘lmasam-chi, ichaman!
- Ba‘zi-ba‘zidami?
- Yo‘q, har kuni...
- Bir qadahdanmi? Ikkitadanmi?

– Ba‘zan stakanlab. Aroqdan boshqa hech nima ichmayman. Kecha uch kishining tug‘ilgan kunida qatnashgandim. O‘ttiz qadah, balki qirqta ichgandirman.

Zaxarin jinni bo‘lib qolayozdi. Oromkursidan sakrab turdi, ko‘zlarini chaqchaytirib, polga tayog‘ini urib, baqirib yubordi:

- Nima-a? Qi... qi... qirq! Bugun-chi, ichdingmi?
- Hozirgina yarmini ichdim...

Cho‘ntagidan «yarimta»ni chiqarib ko‘rsatdi.

– Zaxarin qo‘limga urdi, – deb o‘rtoqlariga hikoya qildi Grigorevskiy, – ammo men mahkam ushlab olgandim-da!

– Yo‘qol! Uni haydab yuboring bu yerdan!

Shovqinni eshitgan xizmatkor yugurib keldi. U esa hamon so‘kinar va baqirardi... Keyin menga tashlandi, meni ushlab oldi.

– Sen ancha vaqtdan buyon ichasanmi? Necha yil bo‘ldi?

– Yoigirma yoshimdan ichaman... Kelgusi yil yuz yil to‘ladi, – dedim.

Sandunov hammomida kabinada o‘tirgan Gonetskiy qizil vino savdosi bilan shug‘ullanardi. Chol hikoya qiladi:

– Men shu yerda, aynan hammomda ichishni o‘rganganman, o‘shanda Sandunov hayot edi. Men uni ham va Pushkinni ham ko‘rganman... Issiqda bug‘lanishni yaxshi ko‘rardi!

– Pushkinni deysanmi? – deb ajablanib so‘rashdi undan hamsuhbatlar.

– Ha, shu yerda. Mana bu yerda, hali bu kayutalar yo‘q edi. Uy esa uzun, ikki qavatdan iborat edi, dvoryanlar zali ancha uzun, u yerda ham yumshoq divanlar bor edi. Bufet ham bor edi – nimai-

ki so'rasang – hammasi muhayyo edi... Pushkin ham kelardi. Meni uning o'rtog'i ichishga o'rgatdi. Divanlar oldida stollar turardi. Biz bug'lanib, stol ortida o'tirib, dam olardik. Men va Dmitriyev. Qizil tusli suv ichamiz. Birdan oqsoqlanib, Denis Vasilyevich Davidov kirib keladi... mashhur! Janobi oliylari o'sha paytda Tinkov uyida kvartirada turardi. Tinkov uyi Prechistenkoda joylashgan edi. Tinkovning rafiqasi esa mening cho'qintirgan onam bo'ladi. O'sha yerda shu mashhur qahramon bilan tanishib qoldim. U she'r yozar va cho'qintirgan onaga ba'zan o'qib berardi. Denis Vasilyevich hammomdan chiqdi, choyshabni ustiga yopinib oldi va yonimga o'tirib oldi, Dmitriyev esa unga: «Qushday yengil bo'ling, janobi oliylari! Vinoga qalaysiz?» – deydi. «Hidi bormi? Sen qo'rqmaysanmi?» – deb so'raydi. «Nimadan?» «Shuni ichishdan-da! Pushkin u haqda: «Qo'rqaman, bu suv jonimga tegib ketdi», degan. Shuning uchun aroq bilan aralashtirib ichardi».

Denis Vasilyevich imo qildi va hammomchi ikki shisha qizil suv va bir shisha aroq olib keladi.

Va Denis Vasilyevich o'ziga va bizga quya boshlaydi: yarim stakan suv, yarim stakan aroq. Ichib ko'raman – totli. O'zi esa qandaydir aroq to'g'risida she'r o'qiy boshlaydi...

Uyga qanday kelganimni eslay olmayman.

Birinchi marta ichib ko'rganimda aroq bunchalik o'tkir ekanligini o'ylamagandim.

Grigorovskiy o'tmish to'g'risida gapirishni yaxshi ko'rardi. U ko'p narsani boshidan kechirgan, xotirasi ham hayratomuz darajada o'tkir edi. Mamnuniyat bilan hikoya qilar, gapirishni yaxshi ko'rar, hamma diqqat bilan quloq solar edi. U o'zi haqida gapirishni yoqtirmas, lekin baribir so'zlashiga to'g'ri kelar, chunki o'zi ishtirok etgan voqealarni aytar, boshqa paytda o'zini hech nimaga qo'shishni istamasdi.

Ba'zan o'zini uchinchi shaxs o'mida qo'yib gapirar, go'yo gap u haqida ketmaganday ko'rinardi. Qayerda chaqirsa, o'sha joyni eslar, traktirda bo'lsa, eski traktirlarni yodga olar, kim ichgani, yeganini xotirlar edi. Teatrda, aktyorlar davrasida aktyorlar, teatrlar haqidagi xotiralar xususida gap borardi. U nimalarni bilmasdi, deysiz! Kimlarni eslamasdi!

– Ivan, sen Suxovo-Kobilinni bilarmiding? – deb so'radi undan Korsh teatri aktyori Kiselevskiy bakenbardlarini yelimplab yopishtirib,

«Krechinskiy»ga tayyorgarlik ko'rganicha grim bilan mashg'ul bo'lar ekan.

– Yo'q, men Rasplyuyevni ko'rganman!

– Qanaqa Rasplyuyevni? Axir u pyesadagi nusxa-ku!

– Mayli, nusxa bo'laversin, lekin Yaroslavdagi teatrda xor qo'shiqchisi va firibgar edi. Familiyasi boshqacha... O'shanda mening oldimda uni «Ustun» traktirida firibgarligi uchun derazadan uloqtirib yuborgandilar. Lekin aynan kim shunday qilganini unutibman: Mishka Dokuchayevmi yoki Yegorka Bistrovmi, bilolmadim!

Grigorovskiy shu yoshida ham ancha tetik, unga qari ekanligini aytib ta'na qilishsa, sira yoqtirmasdi. Bir paytlar «Livorno» restoranida Ivan Alekseyevich do'stlariga shunday degan edi:

– Kecha yoshgina bir telefonchi qizning mehmoni bo'lgan edim. Vaqtni ko'ngilli o'tkazdim...

Andreyev-Burlyak kuladi:

– Vanya! Qanchalik yolg'on gapirasana? Sen qanday qilib yosh qiz bilan vaqt o'tkazasan, axir o'sha paytda telegraflar yo'q edi-ku?

Bir kuni ertalab hammomning yechinish xonasida olti futlik polkovnik kirib keldi, mo'ylovlari ko'ksigacha osilib tushgan, qorakuya bosgan kishi edi. Uning umumiy bosh egishiga hammomdagi barcha divanlardan xursandchilik sadolari yangradi:

– Salom, Nikolay Ilich!

– Kecha tun bo'yi Rogojada yong'inda edim... Cho'milaman-u, darhol uxlab qolaman... yigirmaga yaqin uy yonib ketdi.

Bu polkovnik N.I. Ogaryov edi, shoirning qarindoshi, Gersening do'sti. Uni butun Moskva yaxshi ko'rardi.

Ogaryovni gvardiyadan armiyaga safarbar qilib, ishlab chiqarish polkovnigiga aylantirishdi va Moskva general-gubernatori ixtiyoriga yuborishdi. Bu yerda Moskvaning ikkinchi bo'limiga politsmeyster vazifasiga tayinlashdi. U yong'inlarni qattiq yaxshi ko'rar, hech birini o'tkazib yubormas, boshqa o't o'chiruvchilar kabi hammomni sevar edi.

Oltmishinchi yillarda Ogaryov barcha qamoqdagilarni, hatto politsiya uyidagi maxfiy kameradagilar, ya'ni siyosiy mahbuslarni ham «mushketyor»lar nazorati ostida (politsiya uylari qoshidagi qurolsiz xizmatchilar) hammomga borishga ruxsat bergan edi. 1862-yili Tver bo'limining maxfiy qismida o'sha davrning yirik davlat jinoyatchisi,

keyinchalik surgunga hukm qilingan P.G. Zaychnevskiy saqlanardi. Ogaryov o't o'chiruvchilarning chovkar otlariga qiziqar, ularni har kuni tomosha qilardi. Shu bilan deraza orqali Zaychnevskiy bilan tanishib qoldi. P.G. Zaychnevskiy ham otlarni yaxshi ko'rardi. Ogaryov bir necha marta uning kamerasida bo'ldi va askar bilan hamrohlikda hammomga borishiga ruxsat berdi.

Shanba kunlari Strastniy xiyobonidagi Redlix uyining «Rus gimnastika jamiyati» a'zolari kechki darslardan so'ng Sandunov hammomiga borishga odat qilishgandi. Men esa doimo Palashovskiyga ravona bo'lardim, u «Angliya» bilan bir nomerda edi. Kamina o'sha yerda yashardim.

Eng asosiysi, hammom bilan yonma-yon do'koncha bo'lib, u yerda xalq shoiri Razorenov o'z mahsuloti bo'lgan kvas va tuzlangan bodring bilan savdo qilardi. Namakobi shunchalik xushbo'y va mazali ediki, uni hatto ajoyib non kvasidan ham afzal ko'rishardi.

Do'koncha kichik, mo'jaz bo'lib, barvasta gavdali kekxa Aleksey Yermilich chelakdan cho'michda namakobni yoki krandan katta krujkada kvas olishga to'g'ri kelganida, zo'rg'a aylanardi. Namakobning ham, kvasning ham narxi bir tiyin turardi.

Do'koncha kechasi o'n birda yopilar va men doimo hammomdan kechikib qolmaslik uchun shoshilardim. Chunki chol bilan teatr va she'riyat to'g'risida suhbatlashish, uning yangi she'rlarini eshittish, o'zaro fikrlarni baham ko'rish uchun vaqt topishga harakat qilardim.

O'sha shanba kuni men Sandunov hammomiga kechqurun soat o'nda shoshilib bordim. Birinchi ishim sochni oldirishdan iborat edi. Soqol va mo'ylovimni qirdirmadim, chunki sahnaga kerak edi. Hali butunlay bola bo'lgan sartarosh sochimni oldi-yu, so'ng ustarani tayyorladi, ammo men rad etdim.

– Afv etasiz, – dedi u ismim va familiyamni aytar ekan, – axir siz doim soqol-mo'ylovingizni oldirar edingiz-ku!

Ma'lum bo'lishicha, u Penzadagi teatr sartaroshining yordamchisi ekan. Men unga sahnani tashlaganimdan so'ng oxirgi marta spektakldan oldin Bokuda soqol-mo'ylovimni oldirganimni aytdim.

– Demak, Kavkazda bo'lgansiz, shundaymi? Bizning hammomda ham Kavkazdan bo'lgan eroniy kishi bor, agar istasangiz, uni chaqirishim mumkin.

Xursand bo'ldim. Chunki Kavkazda bo'lib, urushda butun Kavkazni otda kezib chiqqanman, nomi chiqqan hammomlarda bo'lmagan edim. Haqiqatan, urush paytida hammom esga kelarmidi? Men otda yovvoyi ovullarda kevganimda, shahar va ko'z ostingda nimalar bo'layotganini ko'rsatish mumkin emas. Bokuda esa hammomga kirishga vaqt yo'q edi, Tiflisning esa shundoq yonidan o'tib ketganmiz.

– Obidinov! – deb ovoz berdi u.

Mening ro'paramda abjir, shilvi (buta o'simligi) kabi qotma va qayishqoq, boshi butunlay taqir yigit hammomchining oldida aylanar va girdikapalak bo'lardi, u menda shu paytgacha boshimdan o'tkazmagan bir zavq-shavq baxsh etdi. Moskvadagi bu kutilmagan operatsiyani bayon etishga urinmayman, chunki Pushkindan keyin yozish mumkin emas! Uning qaydlarini keltiraman: «Arzrumga sayohat»... «Hasan meni qizib turgan polga yotqizdi, shundan so'ng a'zolarimni birin-кетин parchalashga kirishdi, u bo'g'inlarimni cho'zar, kuchli mushti bilan meni urardi: men biror og'riqni his etmas, ammo hayratlanarli darajada yengillikni sezardim (osiyolik hammomchilar ba'zan junbishga tushib, yelkangizga sakrab minib oladi, oyog'i bilan qovurg'alaringiz ustiga chiqadi va yelkangizga butunlay o'tirib olib, raqsga tushib ketishi mumkin).

Shundan keyin u meni ancha vaqt qo'lgop bilan uqaladi, iliq suvni bostirib sepib, sovun pufakchalari bilan cho'miltirishga tushdi. Bu hisni tushuntirib bo'lmaydi: qaynoq sovun sizni xuddi havo kabi o'rab-chirmab oladi! Ko'pikdan keyin Hasan meni vannaga tushiradi – shu bilan jarayon tugaydi!»

Men hamon vannada o'tirardim: ikki nafar chaqqon yigitcha qo'llarida mochalka va sovun bilan «uchib» keldi-yu, aka-uka Durovlar kabi ish boshlashdi. Ular bizning gimnastika jamiyatimizdan edi. Biri issiqqa eltadigan arqondan to'qilgan gilam ustida bir daqiqa to'xtab, samoda o'mbaloq oshdi-yu, meni mochalka bilan qutlaganday bo'ldi, so'ng akasining izidan issiq hammomda g'oyib bo'ldi.

Mana endi biznikilar. Hech kimga e'tibor bermay, yengilmas qilichboz o'qituvchimiz Taras Petrovich Tarasov g'azabkor mo'ylovini osiltirib, qo'ltig'iga supurgini qistirgancha xuddi laqqa baliq kabi «suzib» keldi. Uning atletlarga xos vazmin qaddi-qomati bir qavat yog' bilan qoplanayotgani ko'rinib turar, oyog'ida tomirlari ko'proq bo'rtib ko'rinardi... Mana, Gerkulesni qayerdan urib yopishtirish kerak!

Mana shu Antinoyadan boshlash kerak. U bizning hech kim oldiga tusha olmaydigan gimnastika o'qituvchimiz. Mashhur raqqos va konkida yuguruvchi, boshqa ajoyib gimnastikachining – eng mashhur jarroh Pyotr Ivanovich Postnikovning akasi, o'shanda salkam gimnaziya o'quvchisi yoki birinchi kurs talabasi edi. U sovuq dush ostida to'xtadi, egilib, bukildi, so'ng marmar tanasini jonlangan yarim iloh kabi qimirlatib, yaltiragan mushaklarini o'ynatib, tirik relyef tarmog'i keng yelkalari tagidagi ingichka beli tomon quyilar edi.

Men iliq vannada o'tirishda davom etardim. Sovunli xonada tevarak-atrof doimgidek bilchillagan, yalang'och ho'l badanga yopishar, suvning shaloplashi, krandan oqib tushayotgan suv va boshqalarining bari, dushning yomg'ir yog'ayotgani kabi shovqini ostida odam tovushlari aslo eshitilmasdi. Doimgidek, yechinish xonasida tinimsiz gapiradilar, sovunli bo'lmada jim turadilar, issiq bo'lmada qattiq kulishadi. Bu tovushlar sovunli bo'lmada har daqiqada quloqqa chalinatedi, eshik issiq bo'lma tomonida ochilsa bormi, bu yaqqol eshitiladi.

Shunda birdan qattiq kulgi ovozi yangraydi-yu, yopiq eshik tirqishidan issiq bo'lmada shovqin avjiga chiqadi.

– Eh, uni qachon olishgan ekan... Men chorak soatdan buyon bu yerda o'tiribman, u esa o'sha yerda edi... Xuddi arslon Liviya sahrolarida yurgan kabi. Hammani bug'da pishiradi! – deb murojaat qiladi menga yon tomondagi vannadan soch-soqoli qirib olingan chol.

U iste'foga chiqqan sud amaldori bo'lib, ellik yil davomida oyiga uch so'm pensiya uchun ishlagan, so'ng bel og'rig'iga duchor bo'lib, yelkasiga to'qilgan ip bilan chiqib ketgan edi.

– Onaxon Yekaterina davrida, – dedi u, – ana shu yelkadagi ip bilan ayollar hammomiga kirishga bepul ruxsat berilgan, endi esa erkaklarnikiga to'lab kirasan! – deb ranjiydi u.

Issiq bo'lmadan shoshilib, bir necha kishi birdan chiqib keladi. Ochiq eshikdan turli-tuman tovushlar eshitiladi:

– O... ho-ho!.. O-ho-ho!

– U... u.. u... u...

– Yana sep... Sepgin... issiq!

Supurgining orqaga, yelkalarga urilgani eshitildi. Sovunxonaga kirganlar tebranar, pishqirar, xo'rsinar, dush tomon shoshilar va kranlardan oqadigan suvda yuvinishardi.

– Qani bo‘l! Belimga ur!.. Belimga, dedim!.. – ovozi yo‘g‘on kishi g‘o‘ldiraydi...

– Shunday!.. Shunday!.. Pastroq‘olaver! O-o-o... ho... ho.. Yo‘g‘on tomoni bilan ishqala! Yo‘g‘on tomoni bilan!

– Yetar!.. A!.. A!.. A!.. O... O...

Ochiq eshikdan bug‘ burqsi kiradi. Sovun surtiladigan bo‘lma isib ketadi... Eng avvalo, qo‘liga supurgi ushlagan Tarasov paydo bo‘ladi. Uning ortidan hurpaygan sochlari yelkalariga tushgan va ehtirosning zo‘rligidan entikkan qandaydir kishi keladi.

Hatto Tarasov ham uning oldida kichkina ko‘rinardi. Ikkalasi qip-qizil bo‘lib, ko‘zlarini chaqchaytirgan maxluq kabi pishqirib, dush tomon yo‘l oldi, xuddi fil kabi sovuq yomg‘ir ostida burildi...

Uni shu zahoti tanidim. Biz o‘nlab turli-tuman tantanalarda uch-rashib qolganmiz, poyga va ot chopishlarda tanaffuslar bo‘lib qolganda, biror burchakda biqinib olardi. U ko‘pincha shunday derdi: «Ot poygasiga bas keladigan ruhiy qoniqish bormikan? Rahbariyat mening otlarga qanchalik havasim kuchli ekanligini ko‘radi!»

Bufetga keladi. Bufetchi choy stakanga aroq quyib beradi. Agar boshqa bufetchi hammaga quygandek quyadigan bo‘lsa, darhol baqirib yuboradi:

– Bu nimasi? A? Kinga quyding? Qush cho‘qiydigan bo‘libdi-ku! Oliy martabali dyakon ichadigan emas bu.

Darvoqe, barcha yemakxonalarda ruhoniylar Shexovsovni, uning ko‘p «yozni o‘tkazgani», talay savdogarlarning to‘yida sham yoqqani, billur qandillar shu‘lasi ostida tovush chiqarib, nutq irod etganini bilishardi.

Biz Tarasov bilan kiyinish uchun ketdik.

Kiyinish xonasida do‘stlar bor edi. Ulkan gavdali yozuvchi Orfanov-Mishla – jussasi Shexovsovdan sal kichik bo‘lib, sochlari paxmaygan va sersoqol bo‘lib, qaychi sochlariga ancha vaqtdan buyon, ehtimol, mutlaqo tegmagandir.

U bilan yonma-yon jasadida kichkina, soch-soqoli aktyorlarga xos qirib olingan, yuzi mushtdek va sochlari jingalak Vasya Vasilyev turibdi. Har ikkisi «Chernishev»ning doimiy mijozi bo‘lib, ikkovi ham yarim oshkora, yarim yashirin, ikkalasi ham nazoratga olingan, har ikkisi mening eski do‘stlarim hisoblanadi.

– Sizlar bu yerga qanday kelib qoldingiz? Men hammomga sira kelmasangiz kerak, deb o‘ylagandim! Sizlar «Yuvuqsiz xotinboz erkaklar klubi» a’zosisiz, birdan hammomga kelib qolganingizni qarang!

Vasya men bilan Brenko teatrida birga ishlagan. Uning aytishiga qaraganda, oltmishinchi yillarda Piterda haqiqatan shunday klub bo‘lgan, o‘zi ham unga qatnagan, bu klub yig‘ilishlari o‘tadigan Ertelev tor ko‘chasidagi uyda yashagan.

Bu unga qo‘shni bo‘lgan uy keyinchalik buzilgan, ularning o‘rnida Suvorin «Yangi davr» bosmaxonasini qurgan.

Faqat mana shu ikki shoir rus hammomi to‘g‘risida bir nechta satr bag‘ishlagan – har biri o‘z davrining nafasini ifoda etgan edi.

Unisi ham, bunisi ham Moskva hammomlaridan ruhlangani. Biri hammasini qamrab olgan Pushkin. Boshqasi – moskvalik shoir Shumaxer.

*Qayerga kiradi savlat-la yosh xon.
Izidan malaylar tizilar chunon.
Dubulg‘asin biri yechadi xushhol,
Boshqasi sovutin oladi darhol.
Birisi qilichin, boshqasi qalqon,
Libosin yechadi qaysidir shu on.
Temir aslahalar yechilgan hamon,
Xonni boshlashar rus hammomi tomon.
Bug‘ to‘lqinlari aylanur tinmay,
Yog‘och bochkalarda misli kumushday,
Sho‘xchan sachraydi sovuq shalola.
Tashlanadi yorqin gilam o‘rtada,
Horg‘in xon unga yotqizilur alhol.
Harir bug‘ boshida aylanar sokin,
Butun tanasiga inar mayinlik.
Tegrasida egilib turadi saroy,
Boshlari xam, xizmatda hozir, shay,
Qayrag‘och novdasi boshida o‘ynar,
Undan sochiladi momiq iliqlik.
Olcha sharbatlari, lola gullari
Iforin sochadi muattar gulgun,
Jingalak sochlarin o‘par shunchalik.*

Sadunov rus hammomlarining bor tarovatini ehtiros ila kuylagan shoir har yili Moskvaga kelganida, do‘stlari bilan hammomga kirar edi.

Yosh shoir kuchli, baquvvat bo‘lib, yosh qayrag‘och novdalari bilan badanini bug‘da toblab, muzli vannaga o‘zini otar, keyin yana tokchaga o‘tib, tag‘in «boshi uzra bug‘ o‘ynar», so‘ng yechinish xonasida dam olar, Yekaterina saroyi quruvchilari tomonidan ajratilgan bo‘lmada sovuq shalolalar ostida to‘shalgan g‘oyat chiroyli naqshlar bilan to‘lgan gilam ustiga cho‘zilar edi.

Yarim asr vaqt o‘tdi. Yangi ideallar, yangi intilishlar yuzaga keldi. Oltmishinchi yillarning liberal shoiri P.V. Shumaxer o‘zining Meshanskiydagi kvartirasidan Yauzaga Volkonskdagi «oddiy xalq» hammomiga yo‘l olardi.

U juda semiz bo‘lib, bo‘g‘inlari zirqirab aziyat chekar, ya‘ni podagra kasali bilan og‘rir edi. I.S. Turgenev, «Biz u bilan adabiyot va podagra xastaligi bilan kasbdoshmiz», degan edi.

P.V. Shumaxer podagra xastaligi, umuman, boshqa barcha kasalliklardan hammom tufayli xalos bo‘ldi. Uni ikki hammomchi «tosh» ustiga daqiqama-daqiqa qo‘yib, bug‘da pishirardi. Shumaxer Sandunov hammomini sevar, u yerda bug‘langach, ikki soat yotar, o‘zi bilan doimo supurgisini olib yurar, divanda rohatlanar ekan, boshi ostiga supurgisini qo‘yardi.

Hayotining oxirgi yillarini Shumaxer Sheremetevning g‘ariblar uyida, Suxarev maydonida o‘tkazdi, u yerda xonasi bor edi. Bu yerda qishda yashar, yozni Kuskovoda o‘tkazardi. Sheremetev Kuskovodagi «Gollandcha uy»ni uning ixtiyoriga bergan edi.

Shumaxer she‘rlari jurnallarda bosilar va alohida nashr qilingandi. Hammomni yaxshi ko‘rib, kuylagan; butun go‘zalligi, ko‘rkamligi va latofatini did va ishtiyoq bilan nazmga jo qilgan edi u.

Lekin hammomga bag‘ishlangan she‘rlar o‘sha paytda mumkin emasdi, shu bois chop etishga ruxsat berishmadi. U qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘tib yurar, oshkora bo‘lmagan ziyofatlarda muvaffaqiyat bilan o‘qilar edi.

Men uni Sukonniy hammomlarida, yigirma tiyinlik «dvoryan» bo‘limi mavjud bo‘lgan Bolotada, savdogarlarning sevimli maskanida bir necha marta ko‘rganimni eslayman.

Bir paytlar Tatarskiyda yong‘in bo‘lgan paytda o‘t o‘chiruvchilar bilan Pyatnitskiy qismigacha keldim, burqsigan tutun orqali uzun changakni ko‘targancha ust-boshim qora kuyaga belanib, yaqin bo‘lgan Sukonniy hammomiga kelgan edim.

«Oddiy odamlar uchun» bo‘limiga bosh suqdim. Garchi ertalab soat o‘n bir bo‘lsa-da, odam to‘la edi. «Dvoryanlar uchun» bo‘limi esa ikki griven olinsa-da, ancha-muncha bo‘sh edi. Sovunli xonada o‘ttizga yaqin kishi bor edi, xolos.

Hammomchi mening boshimga ikki marta sovun urdi va soqolim bilan sochim orasini qurumdan tozalab, qirtishlab oldi. Soch-soqolim o‘shanda qalin edi. Men ko‘zimni qattiq yumib olib, ibodat qilar-dim. Shovqin-suron orasidan, badandan shovullab oqayotgan suvning shovqinidan qattiq tovushni eshitdim.

– Kelyapti!.. Kelyapti!..

Shu lahza ichida hammomchi bir og‘iz gapirmay, nam pol ustida shaloplab yurib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Nima bo‘ldi? Men birovdan so‘ray olmasdim – chunki hech kimni ko‘rib bo‘lmasdi. Suvni ocholmayman, ochqichni topolmayman, uni hammomchi o‘zi bilan olib ketgani ma‘lum bo‘ldi, boshim va yuzim esa sovunlanganicha turardi. Bir amallab ko‘zimni ishqalab ochdim va ko‘rdimki, ur-yiqit, shovqin! Hammomchilar o‘zlarining barcha mijozlarini o‘z holiga tashlab, ketib qolishibdi. Kimdir yuvilmay qolgan sovunli boshi bilan, kimdir sovun surtilganicha to‘sin ustida qolib ketgan. Ular quvurdan keladigan suv oldiga ikki qator bo‘lib tizilib qolishibdi. Ochqichni boshlari uzra baland ko‘targanicha issiq bug‘xona eshigi oldida turishardi.

Men hech narsani tushunmasdim – ko‘zimga sovun surtilgandi. Shu payt eshik katta ochildi va ikki bug‘ beruvchi xodim hamrohligi-da qo‘lida qayrag‘och payraxasidan qilingan supurgi ushlaganicha davangirday odam kirib keldi. Sochining o‘rtasi qirib olingan edi uning.

Hammomchilar navbati bilan birin-ketin unga tog‘oradan chaq-qonlik bilan suv quyishar, har tomchidan so‘ng xursandchilik va ehti-rom ovozlari yangrar edi:

– Sog‘ bo‘ling, Pyotr Ionich!

– Qushday yengil bo‘ling!

Bir daqiqadan so‘ng hammomchi boshimni yuvib qo‘ydi, so‘ng xuddi shunday bo‘lishi kerakday, kechirim so‘rashni ham ep ko‘rmasdan dedi:

– Pyotr Ionich... Gubonin... Ularning uyi Pyatnitskiy qismi bilan yonma-yon, qachon Moskvaga kelsa, bir kun o‘tkazib, shu soatda biz-ning hammomga tashrif buyuradi... so‘ng har bir hammomchiga «non puli» uchun bir so‘mdan beradi.



TRAKTIRLAR

«Bizga traktir hammadan ko‘ra qadrlidir!» – deydi «Qarmoq ipi»da Arkashka Schastlivsev. Va ko‘plab moskvaliklar uchun traktir «birinchi darajali ehtiyoj» hisoblanardi. U bir piyola choy ustida minglab bitimlar tuzadigan tijoratchilar uchun birjalarni, yolg‘iz kishilar uchun oshxonani, har qanday toifadagi odamlar uchun dam olish soatlarini, ishga doir uchrashuvlar, shuningdek, millionerdan tortib, oyoqyalang kishiga qadar orom oladigan maskan o‘rmini bosdi.

Bir so‘z bilan aytganda, Arkashka haq edi:

– Eng avvalo, traktir!

Moskvada dastlabki ruslarga tegishli uch traktir bo‘lgan: o‘tgan asrning birinchi yarmida «Saratov», shuningdek, Turin va Yegorovlarniki edi. Oxirgisining ikki traktiri bo‘lgan. Biri o‘zining shaxsiy uyida, Oxotniy ryadda, boshqasi esa millioner Patrikeyevning uyida joylashgan edi. U Voskresenskiy va Teatr maydoni burchagidan joy olgandi. Oxirgisi bilan Yegorovning xayrlashishiga to‘g‘ri keldi. 1868-yilda Turinning ishboshi I.Ya. Testov shon-shuhratga orzumand Patrikeyevni Yegorovdan traktirni olish va unga berishga ko‘ndirdi. Shunday qilib, ulug‘vor savdogarlik faxr tuyg‘usi bilan alohida, o‘sha paytda muhtasham bezatilgan uy qoshida deyarli bir arshin keladigan harflar bilan yozilgan peshlavha paydo bo‘ldi: «Katta Patrikeyev traktiri». Uning quyi tomonida kamtarona qilib, «I.Ya. Testov» deb yozilgan edi.

Testov rus dasturxonini ko‘z-ko‘z qilib savdo yuritardi. Va tijorat ham, og‘a-inilik ham bir-biriga aralash-quralash bo‘lib ketdi. Savdo, ayniqsa avgust oyida avjiga chiqib ketar, bu paytda butun Rossiya bo‘ylab pomeshchiklar bolalarini o‘qitish uchun Moskva o‘quv yurtlariga olib kelishar va an’anaga aylangan odatga rioya qilishar – bolalari bilan Testov yoki «Saratov»da, Dubrovinada ovqatlanishardi... U

yerdan «tirikchilik» o‘z yo‘lida xor bo‘lib, «Anna Zaxarovna», keyin «Yara»ga yaraqlab ketaverdi.

Spektakldan so‘ng teatr kishilari navbat kutib turishardi. Testovning shon-shuhrati Turin va «Saratov»ni unutib yubordi.

1876-yili savdogar Korzinkin Turin traktirini sotib oldi, uni buzib, ulkan uy qurdi va «Katta Moskva mehmonxonalari birdamligi»ni tuzdi, uni muhtasham zallar va ajoyib nomerlarga ega mehmonxonalariga ajratdi. 1878-yili mehmonxonaning birinchi yarmi ochildi. Lekin u Testovga xalaqit bermadi. U o‘zining peshlavhasiga gerb o‘rnatib, «oliy darajadagi hovli ta‘minotchisi», deb yozdirgan edi.

Peterburgning aslzoda ayyonlari mashhur knyazlar bilan birga Peterburgdan maxsus ravishda Testovning cho‘chqa qovurdog‘i, qisqichbaqali sho‘rvasi hamda mashhur guryevcha bo‘tqani tanovul qilish uchun kelishardi. Darvoqe, aytish kerakki, bunda Gurin traktirining hech qanday aloqasi yo‘q, balki qandaydir afsonaviy Guryev nomi o‘ylab topilgan edi.

Traktirlarda qator kabinetlar bilan birga ikki ulkan zal mavjud edi. U yerda tushlik yoki nonushta paytida nomdor savdogarlar o‘zining stoliga ega bo‘lgan va ma‘lum soatlargacha u aslo band qilinmasdi.

Xuddi shunday qilib, chap zaldagi oxirgi stol soat to‘rtga qadar millioner Ivan Vasilyevich Chijev uchun bo‘sh turar, bu savdogar soch-soqoli olingan, ulkan gavdali, novcha, to‘ladan kelgan chol edi. U o‘zi uchun belgilangan soatda stolni bamaylixotir egallar, ko‘pincha yolg‘iz bo‘lar, ikki soat ovqatlanar, taomlar o‘rtasida mudroq bosardi.

Taomi mavsumga qarab o‘zgarib turardi. Imkoniyatga qarab ovqatlarni o‘zgartirardi. Oq va qizil vinoni xush ko‘rardi, yarim soat mudragach, uxlash uchun uyiga ketar, kechki payt soat sakkizda savdogar klubida paydo bo‘lar, butun boshli oqshom alohida buyurtma bilan o‘tar va shampan vinosi ichilardi. Klubda uning o‘zi buyurtma berar, ulfatlaridan biror kishi monelik qilmasdi.

– Menga turli-tuman foli-joli yoki frikase-kurasening keragi yo‘q... Ruschasiga ovqatlanamiz, qorin ham og‘rimaydi, doktorga ham chopmaymiz, og‘izni chayish uchun chet elga juftakni rostlamaymiz.

Yoshi ancha joyga borguncha bu mazaxo‘rak sog‘lom edi.

Bundaylar Testovda anchagina edi. Oldimda Testov traktirining hisob-kitob varaqasi bor. Unda pul berish uchun tilxat va imzo turibdi:

«V. Dolmatov va O. Grigorovich». Sanasi – 25-may. Yili qo'yilmagan, lekin, nazarimda, bu 1897 yoki 1898-yil bo'lishi kerak. Peterburgga o'tayotganda, huzurimga eski sahnadosh do'stim V.P. Dolmatov va uning do'sti, mashhur muhandis, moskvalik O.P. Grigorovich keldi. Biz moskvacha ovqatlanish uchun Testovga bordik. Chap tomondagi zalda xizmatkor patriarx va qirq yillik yubileyini nishonlayotgan Kuzma Pavlovich kutib oldi.

– Marhamat qiling, Vladimir Alekseyevich, Pastuxov stoliga! Nikolay Ivanovich kecha Volgaga baliq ovlagani ketgan edi.

«Moskovskiy list» muharriri bo'lib ishlagan Pastuxov o'n yilga yaqin egallab kelgan o'rtadagi stol atrofidan joy oldik. U oppoq ko'ylak kiygan, soqolli, boshidagi soch oq ko'ylagidan ham ko'proq oqargan edi. Kuzma nimanidir kutgan kabi oldimizda turib qoldi, ikki yonidagi xizmatkor bolalarga shivirlab, buyurishga ulgurdi.

– Xo'sh, Kuzma Pavlovich, biz taniqli artistni mehmon qilamiz! Birinchi aroqni keltirib qo'ygin... Gazagiga bankani patnisga shunday solib kelki, mushuk yig'lab yuborsin.

– Xo'p bo'ladi.

– Endi ayt, nima bilan mehmon qilasan?

– Baliqlar Don daryosidan keltirilgan... Kahrabo tusda... Kuchuguradan... Dasht shamoli ufurib turadi...

– Bo'pti. Keyin oq baliqni bodring bilan olib kelasan.

– Oq baliq demaysiz, bu dunyoda uchramaydigan yormaning o'zginasi. Ivan Yakovlevichning o'zi dachada osib quritganlar...

– Menga bo'tqa bilan qovurilgan bo'lsa edi, – dedi V.P. Dolmatov.

– Xo'p, yaxna kerak emasmi?

Men oshxona xizmatchisiga imo qilaman:

– Xo'sh, qanday taom berasan?

– Albatta, xamirga qorilgan seld balig'ini-da, – dedi O.P. Grigorovich.

Shu tariqa ovqat buyurtmasidan so'ng oradan bir lahza o'tgach, ikki nafar xizmatkor katta patnislarda taomlar keltirishdi. Kuzma ularga nazar tashladi-yu, oshxonaga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Stol ustida sovuq Smirnovka arog'i muzga solingan holda, ingliz ryabinasi hamda 50 raqamli Leva portveyni yonida bir shisha pikon turardi... Taomlar sarxillanib keltirilgach, Kuzma hech kim eshitmaydigan tarzda asta paydo bo'ldi, uning qo'lida ham limon uchburchaklari bilan bezatilgan semga balig'i bor edi.

– Kuzma, axir sen meni esdan chiqarding.

– Mutlaqo bunday emas... Ko‘zdan kechirishga izn bering.

Uchinchi patnisda salfetkaga solingan «Elya» nomli ingliz pivosi va uchta qadah bor edi.

– Nimani ham unutardik, rahmingiz kelsin, kechiring.

Dastlab «selyodka balig‘i»dan boshladilar... Har bir qadahdan keyin gazaklar solingan likopchalar almashib turilardi.

Ulfatlar ovqatlanar, qo‘shni katta zalda orkestr zo‘r berib, turli-tuman kuylarni chalar edi:

Askold zamonida ko‘ringki andoq,

Ota-bobolarimiz yashagan qandoq...

Testov traktiri o‘tgan asrda yirik urfda bo‘lgan rus traktirlaridan biri bo‘lib, so‘ng restoranlar deb yuritila boshlandi. O‘sha paytda shahar markazida faqat bitta «restoran» bo‘lib, «Slavyan bozori» deyilar, qolganlari «traktirlar» deb aytilardi, chunki asosiy mijoz eski rus savdogari edi. Va har bir shahar traktiri Ilyinka va Nikolskiy hududlarida o‘zining odatlari, rasm-rusumlari bilan farq qilar edi. U o‘zining alohida taomlari va doimiy mijozlari bilan ajralib turardi. Bu traktirlarning hammasida yaroslavlilik xizmatkorlar oppoq ko‘ylak kiyib ishlar, ularning liboslari qimmatbaho golland matolaridan tikilgan bo‘lib, yuvilgandan so‘ng yaltirab jilo berardi. «Oq ko‘ylaklilar», «xizmatchilar», «dastyorlar» ularga berilgan laqab edi.

– Nega «dastyor» deyiladi?

– Chunki ular tuzga, qirol va xonimlarga xizmat qiladi... Har qanday valet, hatto tapponli ham unga buyruq beraveradi... – deb tushuntirdi menga eski xizmatkor Fedotich, so‘ng kulimsirab, qo‘shib qo‘ydi: – Hechqisi yo‘q. Kuzirli olti tuzni bosa oladi!

Lekin «oltilik» kuzir bo‘lguncha ko‘p sarson-sargardonlik, mashaqqatlarni tortishi lozim edi.

Eski paytlarda traktirlarda xizmat qiluvchilar, asosan, yaroslavliliklardan iborat bo‘lardi, ularni «yaroslavlilik non-suv» deyishgan. So‘ng traktirlar yiriklashib kengaygach, Moskva qishloqlaridan ham xizmatchilar paydo bo‘lib, Tver, Ryazan hamda boshqa qo‘shni guberniyalardan ham kela boshlagan.

Ularni Moskvaga hali bolaligida keltirgan traktir, nazarimda, Tver zastavasi yaqinidagi Sokolovo bo'lsa kerak. Bunda traktirchilar bolalarga murojaat qilishgan. U yerda bo'lajak «malaylar» uchun o'ziga xos birja bo'lgan. Bolalarni, asosan, ota-onalar keltirishar, traktirchilar bilan birga ularni o'qitish, o'rgatish uchun besh yilga shartnoma tuzishardi. Traktirning ahvoliga qarab shartlar turlicha bo'lgan.

Ko'pchilikning orzusi «Ermitaj» yoki Testovga tushish bo'lgan. Ularga eng chaqqon, zehni o'tkir, savodli bolalardan tanlab olishgan, bu yerda o'zlarining mehnat stajini xizmatkor sifatida o'tardilar.

Dastavval bolani bir yil kosa-tovoq yuvishga qo'yishardi. Keyin agar tushunadigan deb hisoblashsa, oshxonaga o'tkazishardi. Bu yerda bola taomlarni xo'randalarga berishni o'rganardi. Unga taomlarning nomini atashni o'rgatishardi. Yarim yil ichida bola tajribali oshpazlar rahbarligi ostida o'zini bu ishga tayyorlaydi, shundan so'ng unga oppoq ko'ylak kiygizishadi.

– Hamma ziravorlarni biladi! – deb tavsiya berardi bosh oshpaz. Shundan so'ng eng kamida to'rt yil bola dastyorlik bilan mashg'ul bo'lib, oshxonadan idish-tovoqlarni tashiydi, stol ustini yig'ishtiradi, mehmonlardan buyurtmalar qabul qilishni o'rganadi va nihoyat, beshinchi yili o'zining bilim, malakalarini o'stirgach, beliga shoyi belbog' bog'lab, zalga xizmat qilishi mumkin.

Shu vaqt davomida u yarim dyujina oppoq surpga ega bo'lishi talab qilinadi. Kimki bunga iloji yetsa, golland matosidan ko'ylak va ishton tiktirib olishi, u oppoq va g'ijimlanmagan bo'lishi kerak edi.

Yirik restoranlarda buyurtmalarni qabul qiladigan xizmatkorlar frak kiyishardi. O'shanda faqat «Slavyan bozori»da kiyishar, endi ular xizmatkor emas, balki ofitsiant deb tilga olinardi. Mehmonlar esa «Odam» deb atalar edi. Shundan keyin «frakchilar» shahar tashqarisidagi restoranlarda ham paydo bo'lishadi. Bufet bilan hisob-kitoblar markada amalga oshirilardi. Har bir xizmatkor ertalab kassada 25 so'mlik mis tanga, 3 so'mlikdan 5 tiyingacha har bir pulni sotib olar, uni mehmon buyurtmasi uchun berib, ularga taom keltirar, keyin markalarni pulga o'lchab, mehmonlardan olishardi.

«Choy puli»ga berilgan pullar bufetga topshirilari, u yerda yozdirilgandan so'ng teng bo'linardi. Lekin pulni hech kim olib kelmas, bir qism kattaroq olgani ba'zan yashirar, uni mumkin qadar boshqa

joyga, uzoqroqqa joylashtirar, tiqishtirar edi. Bu pullar xizmatkorlar tilida «nikoh marosimi uchun» deb nomlanardi.

– Nega «nikoh marosimi uchun»?

– Qadimdan shunday bo‘lib kelgan. Chunki ilgari bolalar qishloqda ota-onalaridan tanga-chaqa olib, kulbaga yashirinishgan, tirqishlar, torgina tepaliklar, gulchambarlarga solishgan, – deb izoh berishadi keksalar.

Xizmatkorlar va ofitsiantlar traktir va restoranlardan maosh olishmasdi. O‘rniga o‘zlarining daromadidan xo‘jayinlariga to‘lashar, muayyan mablag‘ berishar, «uch so‘mdan boshlab, olingan «choy puli»ning yigirma foizini topshirishardi.

Faqat yakka-yu yagona «Saratov» traktiri bundan mustasno edi. Ularning xo‘jayinlari Suvorin ham, undan keyin Savostyanov ham xizmatkorlardan hech qachon hech nima olishmas, aksincha, traktir yopilguncha xizmatkorlar hamda malay bolalarga oyiga uch so‘mdan to‘lab turishgan.

– Choychaqalar – ularning baxti. Bizga birovlarining baxti kerak emas, xizmatlari uchun esa to‘lashimiz zarur, – derdi Savostyanov.

Xizmatkorlar zaldan zalga, oshxonadan oshxonagacha, ba‘zan pastga tushib, zaldan uchinchi qavatga chiqib-tushishar, buni hisobga olish aslo mumkin emasdi. Ayrim traktirlarda sutkada sal bo‘l-masa o‘n olti soatlab ishlashgan. Ayniqsa, «oddiy odamlar uchun» mo‘ljallangan traktirlarda mashaqqatli edi: choy besh tiyinga berilgan, shunga qaramay buyurtmachilar bu pullarni tejashgan.

Uch kishi yastanib o‘tiradi: «Ikki va uch!» – deb buyuradi. Xizmatkor bir grivennik pulga ikki juft va uchta choy ichish anjomlari keltiradi. Uchinchi anjomlar bepul. Choy ichish anjomlari deyilganda, likopcha, pichoq, qoshiq, sanchqi va boshqalar nazarda tutilgan. Ha, o‘n martalab choynakni olib, suvga chopishardi.

– Choy suyuqroq, qo‘shishni so‘ragin! – deydi mehmon. Qo‘shadilar va yana qaynoq suv uchun yuguradi.

Ayniqsa, izvoshchilarga mo‘ljallangan traktirlarda xizmat qilish og‘ir edi. Moskvada ularning soni ko‘p edi. Hovliga otlar tushovlab qo‘yiladi, tashqaridan tambalanadi, ichkaridagi sirpanchiqda esa ovqat, yemish. Muzlatilgan joyda hamma narsa: cho‘chqa go‘shiti, laqqa baliq va boshqa yeguliklar bor. Izvoshchi sovuqda yog‘liroq ovqatni

yeyishni yaxshi ko'radi: tuxum, kalava non, pech tubida pishirilgan lahm go'shtlar, so'ng albatta no'xatli kisel.

Kambag'allikdan boyib ketgan moskvalik ko'plab millionerlar bu yerda o'tmishni eslab, shirin, laziz taomlar yeyishni xush ko'rishadi. Agar o'zi bora olmasa, biror yugurdakni jo'natadi:

– Ikki griven aqchaga qorin keltir. Elangan undan pishirilgan ikkita non yoki kalava non qo'shgin!

So'ng:

– No'xatli kisel esingdan chiqmasin, yog'idan ko'proq qo'shsin!

U o'zining hashamatli kabinetida yastanib o'tirib oladi yoki omborning alohida bo'lmasida o'tmishini eslab, hozirgi holati bilan solishtiradi-da, huzurlanadi. Bu paytda qandaydir ajnabiy dallol bilan millionlab baholanadigan ish borasida gaplashadi.

Izvoshchi traktirda ham ovqatlanadi, ham isinadi. Bundan boshqa dam olish, boshqa taom unda yo'q. Non-choysiz, ovqatsiz hayot. Choy va bodring bilan so'yilgan molning ichak-chavog'i, xolos. Ba'zan bir stakan aroq topiladi, lekin hech qachon mast bo'lib qolmaydi. Bir kunda ikki marta, sovuq kunlarida esa uch marta tanovul qiladi, isinadi yoki qish va kuzda egnidagi ho'l ko'ylakni quritadi. Bu huzur-halovatlarning hammasi unga jami o'n olti tiyinga tushadi: besh tiyin choyga, bir tiyin qorovulga beriladi, chunki u otlarga qaraydi-da.

Shaharning qoq markazida izvoshchilarning sevimli traktirlari bo'lgan: Oxotniyda «London», Neglinniyda «Kolomna», Bryusov tor ko'chasida, Bolshoy, Kiselniyda traktirlar bor edi. Eng markaziy Stoleshnikovda endi oltinchi raqamli uy yuksalib turadi, ilgari bu yerda tovuqlar galasi yurgan, katta ola-bula Sezar nomli olapar hovlida darvoza oldida turgancha, bezori juldurvoqilarning ichkariga kirishiga yo'l qo'ymagan.

Har bir traktirda izvoshchilarning, albatta, o'z zali bor edi. U yerda maroqli «yaxmalak» bo'lgan, uning ijarachisi traktirchiga katta pul to'lagan va imkon qadar eng yaxshi oziq-ovqat berishga harakat qilgan, maqsad izvoshchilarni ko'proq jalb etishdan iborat edi.

– Stoleshnikovga boramiz. Boshqa yaxshi «yaxmalak» yo'q! – deyishlari uchun edi bu.

Va izvoshchilar Stoleshnikovga shuning uchun ham borishadiki, u yerda taomlar seryog' va suyuq ovqatlari issiq, mazali.

Bayram kunlari oqshomda traktir mast-alastlar bilan liq to'ldi – joy yo'q. Xizmatkorlar sarxush odamlar to'dasi orasidan zo'rg'a o'tib, aylanadi, egiladi, bukiladi, xuddi ko'zbo'yamachilar kabi taom to'la patnisni boshi uzra ko'tarib chopadi, patnisda esa bor-yo'g'i ikki yoki yetti, ya'ni ikki choynak yoki qaynoq suv to'ldirilgan yettita anjom bo'lar edi.

Va «choy»ga kelganlarga faqat choy berishar, shunga ikki yoki uch tiyin berishar, bu ham alohida ko'rsatilgan xizmatga to'lanar edi.

– Kichkintoy, qani oldimga yugurib kel-chi, men tushlik qilmoqchi emasman, chunki shaharga bormoqchiman, – deb buyuradi pudratchi qo'shni va «dastur» ba'zan yomg'ir yoki qor ostida, ba'zan yigirma darajali sovuqda bo'yni va boshini iflos latta bilan o'ragancha bir ko'ylakda ko'chani kesib, doimiy, xo'jayini qadrlaydigan mijoz oldiga chopadi va buyruqni bajaradi. Kiyinishga vaqt qayda – bufetchidan shatta yeb qoladi.

Yoki izvoshchi buyruq beradi:

– Qani, hovliga yugurib bor, chana ustida baliq turibdi. Mening otimni yaxshi tanisang kerak.

Ust-boshi yupun bolakay yuzlab tulpor orasidan uning targ'il otini axtarishga tushadi. Ularning qanchasi o'pka shamollashi kasalligidan aziyat chekkan. Mast-alastlardan pul undirish ulkan jasorat edi. Dast-yorning qo'lidan mahkam ushlab, xumoridan chiqquncha yarim soat so'kinardi. Undan pul undirib olish ancha mashaqqat edi.

Tajribali bolalar undirib olishni eplar, bunda daromad ham bor edi. Buni olishni ham eplashar edi.

– Xo'sh, qo'ydingmi?

– Pyotr Kirilichnimi? Shunday jindak... Baribir...

Hozir men hikoya qilib beradigan voqeani yaxshi eslagan etikdo'z Pyotr Ivanovich hali tirik. Haqiqatan uglislik dehqon Pyotr Kirilich bo'lgan, chunki unga Pyotr Ivanovich etik tikib bergan ekan. Pyotr Ivanovich har kuni ertalab «Objorka»da choy ichar, u yerda kekxa xizmatkorlar to'planishardi.

Moskvalik savdogarlar biror kishi ustidan kalaka qilib kulishni yaxshi ko'rishardi, shunda: «Sen Pyotr, menga Pyotr Kirilichni ro'para qilma!» – deyishardi. Lekin Pyotr Kirilich ba'zan savdogarga nima deyishni yaxshi bilar, shuning uchun qanday javob berishni qotirardi:

– Men faqat sizning miyangizda qolganman, meni ko‘rganingiz qolgan, xolos. Bu faqat foydaga. Hisob-kitob bo‘yicha kimga to‘lashdan qochmang. Shunda meni eslab qolasiz. Qarang, qanday qilib undan burab, sug‘urib olyapti. O‘zingiz ham xaridorga hisob yozishda meni esdan chiqarmang. Choy puli himmatingizga bog‘liq!

Shu tariqa u savdogarlarga xos hazilini takrorlamasdi. Bu tuj-jorlarga monand kulish odatidan ayrim himoyasiz xizmatkorlarni boplab tushirishda mohirona foydalanardi. Ular o‘zlarini jo‘rttaga haqoratlangandek his etishar va «choy puli» olishga urinishardi. Turinda xizmatkor Ivan Selyodkin bilan aynan shunday bo‘lardi. Bu uning haqiqiy familiyasi, ammo tilga olinganda so‘kinib ketar, ismi bilan chaqirishlarini talab qilardi. Familiyasini tilga olmay, bordi-yu, mehmon selyodka balig‘i olib kelishni buyursa, u birdan tutab jo‘nardi:

– Men senga selyodkani ko‘rsatib qo‘yaman! Tumshug‘ingga tushirishimni istaysanmi? Traktirda doimo o‘zlarining odamlari o‘tirar, uni bilishar, shuning uchun hech kim ranjimasdi. Lekin sal bo‘lmasa, u bilan falokat yuz berib qolardi. Shunda Turindan Testovga o‘tgan edi. Zalga Moskvaga jandarm boshqarmasi boshliq vazifasiga yangidan tayinlangan general Slezkin kirib kelgan edi. U o‘zining ulfatlari bilan stolni band qilib, gazak buyurdi. Buyruqni olib, xizmatkor taom keltirish uchun bordi, uning izidan Slezkin amirona tovush bilan qichqirdi:

– Selyodkani unutma, selyodkani!

Baxtga qarshi shu payt boshqa eshikdan Selyodkin kirib keldi. U generalni ko‘rmadi, faqat «selyodka» degan so‘zni eshitdi, xolos.

– Men senga, ablah, selyodkani ko‘rsatib qo‘yaman! Tumshug‘ingga tushirishimni istaysanmi?

Tahdid bilan o‘girildi va tarrakday qotib qoldi.

Savdogarlar ham tek qotishdi.

Kimningdir og‘ziga olib borayotgan qoshig‘i muallaq qoldi. Kimningdir qadahi sindi. Kimdir yo‘talishga botinmay, tomog‘i tiqilib, dami ichiga tushib ketdi. Bu voqea nima bilan tugadi – noma‘lum. Faqat shuni bilamanki, Selyodkin o‘zining xizmat vazifasini Testovda bajarishni davom ettirdi.

Oxotniydagi Yegorov traktiri quymoqsimon baliqli taom va baliq bilan nom chiqargan, shuningdek, traktirda chekishga ruxsat berishmas, chunki xo‘jayin eski dinda bo‘lgan xizmatchi Kozyol edi.

Chol katta oqargan echkisoqolga ega bo'lib, boz ustiga tverlik edi, anchayin muvaffaqiyat qozongan va Kozyol (echki) degan so'zga chiday olmas, jumladan, tverliklar ham umuman xushlamasdilar. Oxotnoryadlik savdogarlar uning ustidan odatda shunday kalaka qilishardi: stolni egallab taom buyurishar, so'ng o'rtaga bog'lanmagan paket qo'yishardi. Chol taomni olar ekan, idish uchun joy bo'shatish maqsadida tepasidagi qog'ozni ko'taradi. Ko'rardiki, o'yinchoq echkicha turibdi! Chol so'kingancha uni qo'liga olib, polga uloqtirib yuboradi. Agar o'yinchoq qimmat va yaxshi do'kondan olingan bo'lsa, mahkam changallar va yugurib borib, yashirib qo'yardi. Keyingi safar savdogarlar yana echki sotib olishardi. Keksalik davrida Kozyol Obuxovning «Monta»sida xizmat qilardi, Oxotniy ryadda joylashgan ushbu manzilda eski zamonlarda zarbxona bo'lgan.

«Arsenich» traktirida bir xizmatchi bo'lib, u «limon» so'ziga aslo chiday olmasdi. Aytishlariga qaraganda, bir paytlar ombordan bir qop limon o'g'irlagan va qizlar bilan sayr qilgan. Keyin esa qizlar xaltani bildirmay ochib, limonlar o'rniga chirigan kartoshka solib qo'yishgan.

Ko'pgina omillar kalaka qilishga sabab bo'lar, ammo aksar hollarda bu kulishlar kulfat keltirardi. Masalan, Lopashov traktirida xizmat qiladigan xizmatchiga keksa bo'lishiga qaramay, jo'rttaga kulishib, cho'chqa bolasini buyurishar, buni esa xizmatchi cholning jini suymasdi. Bu unga hayotidagi eng alamli, qayg'uli voqeani eslatardi.

Yoshligida u ta'tilda xotinini ko'rish uchun qishloqqa borgan, o'zi bilan sovg'a-salomlar ham olgan edi. Xotini qishloqda yolg'iz yashar va uncha katta bo'lmagan cho'chqa bolasini boqardi. Baxtga qarshi er eshikni taqillatganida, xotini jazmani bilan o'tirgan ekan. U vahimaga tushib, o'ynashini pechka ostiga yashiradi, so'ng erini uyiga kiritadi-yu, nima qilarini bilmaydi. Shunda cho'chqani somonxonaga, undan so'ng ko'chaga haydaydi-yu, eriga qichqiradi:

– Cho'chqacha qochdi, uni ushla!

Va o'zi ham qo'shilib chopadi. O'ynashi shu paytda chiqib ketadi. Qo'shnisi bu voqealarning barini ko'rgan va qishloqqa gap tarqatgan. U yerdan bor gapni Moskvaga keltirib, baxtsiz yigitni toki chol bo'lgunicha hazil-mazax qilib, jig'iga tegishardi. Chol ba'zida, hatto yig'lar edi.

Varvarkada joylashgan Lopashov qadimgi traktirlardan biri edi. U dastlab Martyanovga tegishli bo'lgan, o'limidan so'ng Lopas-

hovga o'tgan. Tepakal, mo'ylovlari qirilgan, soqollari olingan holda doimo qora syurtukda yuradigan Aleksey Dmitriyevich Lopashov hurmat-izzatga sazovor kishi bo'lib, kim bo'lishidan qat'i nazar, mehmonlarga iltifot ko'rsatar edi. Traktirning yuqori qavatida katta kabinet bo'lib, «rus kulbasi» deb yuritilardi, unga sochiqlar va o'ymakor yog'ochlar ilib tashlangan edi. Xona eski idish-tovoq va kumushlar bilan jihozlangandi. Idish-tovoqlarning barchasi Petrov va undan oldingi zamonlarga mansub edi. Taomlar ham Pyotrdan oldingi davrga taalluqli edi.

Bu yerda mashhur ajnabiy mehmonlar uchun uncha katta bo'lmagan taomlar tortilar; fransuz ovqatlari berilmas, garchi vino faranglarniki bo'lsa-da, u qadimiy idishga fryaj, falern, malvazil, yunon va hokazo yozuvlari bitilgan holda tortilar, shampän vinosi esa katta, paqir hajmiga teng keladigan kumush qopqoqli ko'zaga solinar, kumush cho'mich bilan olinib, kub hajmicha ichilardi.

Faqat Aleksey Dmitriyevich «rus kulbasi»da barcha vaziyatni baholagan holda taomnomani o'zgartirdi.

Bu traktirning aslo o'zgaraydigan mijozlari moskvalik sibirchilar edi. Oshpaz maxsus Lopashov tomonidan Sibirdan olib kelingan. U chuchvara, stroganin, ya'ni to'g'ramcha tayyorlardi. Shunday qilib, saksoninchi yillarda Sibirdan oltin sanoati bilan mashg'ul bo'lgan yirik sanoatchilar kelib, Lopashovning shu «kulba»sida ovqatlandilar. Taomnomada «Tushlik Yermak Timofeyevich qarrog'hida», deb ko'rsatilgan, unda faqat ikki o'zgarish qayd etilgan: birinchisi – gazak va ikkinchisi – «sibircha chuchvaralar» deb ko'rsatilgan edi.

Boshqa hech qanday taom yo'q, chuchvara esa tushlik qiladigan o'n ikki kishiga 2500 dona qilib tayyorlangan; go'shtli, baliqli, mevali va qizil shampän vinosi aralashgan holda... Ularni sibirlik mehmonlar yog'och qoshiqlar bilan tanovul qilishga kirishardilar.

Lopashovda ham xuddi boshqa boy traktirlar kabi yirik savdogarlarning sevimli stoli bor edi. Ular ko'tara savdo qiladigan, eng asosiysi, yirik qishloq chakana savdogarlari bilan birga kelishar, birinchi ishlari choy buyurishdan iborat edi.

Shakar bermasdilar, o'rniga lipa, ya'ni jo'ka asali olib kelishardi. O'sha paytda shakar ro'za paytida yeyilmaydigan taom bo'lib, mol suyagidan olinar edi!

Mana shu choy ichish paytida o'n, yuz ming so'mlik ishlar poyoniga yetardi. Faqat shundan keyin ish poyoniga yetib, nonushta yoki tushlik boshlanar, davomi kabinetlarda o'tardi.

«Arsentich» traktirida ham ahvol xuddi shunday edi. Bu traktir Cherkasskiy tor ko'chasida joylashgan bo'lib, rus dasturxonini shuhratini yoygan edi. Unga nimta go'sht, osyotr balig'i, oq bakra tortilar, gazagiga yerqalampir, non sirkasi aroq bilan birga berilardiki, hech qayerda bunday mazali bo'lmasdi. Karam sho'rva qizil baliqning boshi solingan holda «Arsentich»da ajoyib tarzda tayyorlanardi, G.I. Uspenskiy Moskvaga kelganida, hech qachon «Arsentich»ning karam sho'rvasini tanovul qilmasdan o'tib ketmasdi.

Dudlangan cho'chqa go'shti, osyotr balig'i va oq bakra uchun soat o'n ikkida qavat-qavat ovqat tashiladigan idishda taom keltirish uchun badavlat savdogarlar o'sha kuni ish bilan band bo'lib, traktirga bora olmay qolganlarida, o'zlarining omborlarida ovqatlanishga majbur bo'lardilar.

Bu barcha moskvalik traktirlarga xos va ularda aysh-ishrat, mayxo'rlik yo'q edi. Agar biror ulfatlar to'dasi ichkilikka berilgan yoki shunga o'ta moyil bo'lsa, «Slavyan bozori» yoxud to'g'ridan to'g'ri «Yara»ga borishi lozim edi.

Savdogarlar, odatda, traktirlarga, omborlarga borishar, ammo «Yar» yoki «Zastava»ga tushib qolishardi. «Arsentich» traktirida to'yish va «tomoqni ho'llash» mumkin edi. Xuddi shuningdek, mashhur Yegorov traktirida ham shunday, faqat farqi shundaki, bu yerda chekishga ruxsat berilardi. Cherkasskiy tor ko'chasida saksoninchi yillarda bitta traktir bo'lib, aftidan, Ponomaryovga tegishli edi. U Kartashev uyida joylashgandi. Bu uycha anchadan beri yo'q. Bu darogha madaniyatli kishilar kelishardi.

Bu traktirning ikkinchi zalida, oldingi tomondagi burchakda aslo o'chmaydigan g'oyat katta chiroq ostida, alohida stol ortida kun bo'yi soch-soqoli o'sib ketgan, deyarli yuvinmaydigan, sal bo'lmasa juldur kiyimlar kiygan bir chol o'tirardi... Uning stoliga sipo, hatto boy-badavlat odamlar, Moskvaning mashhur kishilari kelishardi. Ulardan ayrimlariga o'tirishni taklif qilardi. Ba'zilar huzuridan xursand bo'lib, ayrimlar esa g'amgin, dilgir bo'lib ketishardi.

U esa o'tirib, allaqachon sovib qolgan choyni ichardi. Bir taxlam zayom yoki seriyalarni olib, kuponlarni qirqar edi. U shu uyning so-

hibi 1-gildiya savdogari Grigoriy Nikayevich Kartashev edi. Uning kvartirasi traktir bilan yonma-yon bo‘lib, yolg‘iz yashar, yalang‘och kat ustida yotar, boshi ostiga biroʻ ko‘ylakni yumaloq qilib qo‘yardi. Kvartira polini hech qachon artishmas, devorlarni oqlamasdilar.

Tunlarni u yerto‘lada, pullar yonida, xuddi «ziqna ritsar» kabi o‘tkazardi. Ertalab soat o‘nda turib, tartib bilan soat o‘n birda traktirga o‘tardi. Kelib o‘tirardi. Xizmatkorni chaqirardi:

– Kecha karam sho‘rvadan qolganmidi?

– Qolgan bo‘lishi kerak.

– Ayt, isitishsin... Agar bordi-yu, bo‘tqa qolgan bo‘lsa, shundan...

Ovqat yeyish xo‘jayin hisobidan, keyin naqd pulga choy so‘raydi:

– Olti tiyinga ikkita choy keltirasan, shuningdek, bir tiyinga sigara.

Qarz oluvchi odam paydo bo‘ladi. Keladi, o‘tiradi.

– Nima istaysan?

– Choy ichsam degandim.

– Unday bo‘lsa, o‘zingga buyuraver. Choy va sigara uchun o‘zing to‘la.

Qarz oluvchi ikkita choy aytsa, olti tiyin to‘lashi kerak. Agar yarim porsiya uchun o‘ttiz tiyin to‘lasa yoki vino, sho‘rva buyursa – suhbat tamom:

– Senday hotamtoydan aylandim! Jo‘na, senga o‘xshagan isrof-garga pul bermayman, – va haydab yuboradi.

Barcha bilardiki, uning huzuriga kelgan boy-badavlat savdogar yoki ishbilarmon bir tiyin turadigan sigara chekayotgan yoki olti tiyinga choy ichayotgan bo‘lsa, keyin veksel berib, o‘n minglab pul oladi. Kartashev mayda pul berishni istamasdi. U katta foizlarda berar, ammo suddan o‘zini olib qochardi. Shunday voqealar ham bo‘lganki, pullar qarzdorlar orasida yo‘qolib qolardi.

Kechqurun uning oldiga qorovul Kvasov kelib, uyga olib ketardi. Faqat Kartashev o‘lganidan keyin qanday yashagani ma‘lum bo‘ldi. U bir qarich chang qoplangan xonada istiqomat qilgan; mebellar, devorga yopishtirilgan qog‘ozlar orasidan, tuynuklardan pullar, zayomlar, veksellar topilgan edi. Eng asosiy mablag‘lari katta pechda saqlanar, unda xuddi gilotinaga o‘xshash narsa qo‘yilgan, bordi-yu, o‘g‘ri tushsa, tanasini o‘rtasidan bo‘lib qirqib tashlar edi. Yerto‘lalarda temir sandiqlar saqlanar, unda haddan ziyod pul mablag‘lari bilan

birga tejalgan qand bo'laklari, stollar ustidan yig'ishtirib olingan non qoldiqlari, teshikkulchalar, iplar bo'lagi va iflos ich kiyimlar saqlangan edi.

Vaqtı o'tib ketgan veksel va kuponlar, qimmatbaho suvsar mo'ynalarini kuya, mita yeb bitirgan qoldiqlari, yonida 50 ming so'mdan ortiq o'n-o'n besh so'mlik tilla pullar o'ramlari turardi. Boshqa taxlamda 150 ming kredit bilan seriyalar bo'lib, butun boyligi 30 milliondan ziyod edi.

Shaharda yana bitta rus traktiri bor edi. Bu Qozon hovlisidagi Vetoshniy tor ko'chasiidagi Bubnov traktiri edi. U ulkan uyning ikki qavatini egallagan, ulkan zallar va alohida shinam kabinetlardan iborat bo'lib, dabdabali bezatilgan edi.

Bu istirohat qiladigan traktir bo'lib, alohida xonalarini savdogarlarning bolalari va sersoqol savlatli savdogarlar uchun ajratishgan, ular haftalab dam olib, gashtak qilishar, keyin bosh og'rig'idan zorlanar edilar.

– Eh, savdogarlar hayoti g'oyat og'ir, kun bo'yi o'rtoqlari bilan, ikki kun xaridor bilan, uchinchi kuni ham shunday o'tadi. Faqat bozor kuni vino ichishga ruxsat tegadi, shundan keyin «Yara»ga...

Bubinovga ishga aloqador nonushtadan so'ng Lopashov va «Arsentich»ga ketishar, bo'yinbog'ni yig'ib olib taxlardilar-u, Bubinovdan so'ng qayerga bo'lsa ketishar, faqat uyga emasdi. Bir hafta sayr-u tomosha bo'lib o'tgandi. Bunday sayohat, aysh-u ishratning turi ko'p edi. Masalan, biri traktir va xilvat joylarda bo'lib ichadi, yaramas qiliqlar ko'rsatadi va faqat bitta jumlanı takrorlaydi:

– Qancha beray?

Hamyonini chiqaradi, to'laydi, so'ng he yo'q-be yo'q, shampan vinosi shishasini oladi-yu, zarb bilan oynaga uloqtiradi. Shovqin-suron. Qarsillagan tovush. Xizmatkorlar bufetga yugurib keladi. U esa sovuqqonlik bilan yana hamyonini oladi, nihoyat ishchan ohangda so'raydi:

– Qancha beray?

Yana bir moskvalik Bubnovda aysh-ishrat qilgan, ikki kun davomida kabinetdan chiqmagan tunda uyga olifta izvoshchi do'sti bilan keladi. Unga darvozani ochishadi. Bobosining davrida baland devor bilan to'silgan hovliga kirish joyi bo'lgan, u esa qichqiradi:

– Darvozadan kirmayman, devorni yiqit! Bormayman!

Xo'jayinning so'zi o'tkir, mushti undan qattiq. Darvozani olib tashlashadi, devorni urib yiqitishadi va u bamisoli g'olib kabi zafar bilan hovliga kiradi. Boshqa kuni hech qanaqa qilmishiga pushaymon bo'lmay, savdogarning dovyurak bolasi maishatni davom ettirishga urinadi. Ertalab xotini tanbeh berishga urinadi, u esa musht o'qaladi:

– Bu yerda kim xo'jayin? Kim? Men shuni istaymanmi, shunday bo'lishi kerak!

– Siz-chi, Makariy Paisiyevich, hammomga borsangiz, yuvinsangiz yaxshi bo'lardi. Yengillashtirardi...

– Xohlayman! Yuvinish kerak!

– Men hammomni qizdirishga buyurdim.

– Hammomni istamayman! O'rani isitgin!

Va o'raga pechka qo'yib, hammomni qayta qurishga kirishadilar... Lekin Bubnov hammomining tepasi yanada shinam edi. Pastki qavatga mutlaqo o'xshamasdi.

– Nega sening aft-angoring bunaqa bo'lib qoldi yoki ko'zing ko'rmayaptimi?

– Ha, kecha shunday bo'ldi...

– Yoki «teshik»ka kirib qoldingmi?

– Topding!

Bubnov traktirining pastki yarmi «teshik» degan nomdan boshqasini topa olmagan edi.





BUBNOV «TESHIGI»

Yuqori qavati tufayli uying ozoda tomoni ham «teshik» deb atalardi. Traktir tagida ulkan yer osti yerto'lasi bo'lib, yigirmadan ziyod zinapoyadan tushilardi. Qadimiy gumbazlar haddan ziyod qalin, unda birorta ham deraza yo'q. Gaz bilan yoritiladi. Atroflarida yog'och hujralar, bular yarim qorong'i va iflos «xonachalar»dan iborat. O'rtada stol, tepasida tamaki tutuni tufayli gaz muguzi yaltiraydi.

Stol atrofida to'rtta yog'och stul qo'yilgan. Zaldagi stollar ustida ham xuddi shunday iflos dasturxonlar. Stullar ham xuddi shunday.

«Bir tiyin ortidan yuguradi»gan yoki «bir tiyin unga yuguradi»gan mehmondo'st hovlining savdogari o'zining yor-birodarlari yoki xuddi shunday xaridorlar bilan ertalab soat o'ndan ziyofatni boshlaydi. Aroqxo'rlik, qiy-chuv, janjal ertalabdan tungacha davom etadi. Gazdan qizib ketasan, tamaki va oshxonaning hididan dimiqasan. Qo'shiq, xaxolab kulish, so'kinish. Faqat baqirib, quloqqa gapirish, ichishga to'g'ri keladi, chunki shovqin-suronda suhbatlashish, yonmayon o'tirish mumkin emas. Istasang, so'kinaver, chunki xotinlar bu yerga qo'yilmaydi. Va yangi-yangi odamlar suqilib kiraveradi. Axir bu yerda arzonqarchilik, nima uchun suqilib kirmasin? Ovqat ancha ko'p, aroqning bir shishasi bir so'm, vinoning shishasi ham shuncha! Turli-tuman portveynlar, madera, Moskvaning Lissabondagi fabrika mahsulotlaridan tortib, qo'shiq to'qilgan ikki so'mlik lanin shampain vinosi bor edi:

*Lanin redereri kasridan evoh,
Boshlar shishib yorilay deydi...*

Ichishadi, tanovul qilishadi, chunki arzon, politsiya hech qachon e'tibor bermaydi, urish-janjallar o'sha joyning o'zida darhol niho-

yasiga yetadi. Savdogarga esa, eng asosiysi, «ko'ngilda saqlangani» muhim. Birorta traktirda Bubnovnikiga o'xshash aroqxo'rlik avjiga chiqmasdi. Bu «teshik»da ko'p voqe'alar ro'y berardi.

«Shaharda» qiziqarli traktirlar yo'q, keyinchalik «Martyanich» qatori yerto'alarida hamma joyda reklama qilinib, shon-shuhrat qozonish uchun savdo qilinar, Bubnovning «teshigi»ni hamma jihatdan takrorlar edi.

Faqat aysh-ishrat shuning uchun avjiga chiqdiki, bu yerga xotin degan unsur ham kiritildi, vaholanki «teshik»da ilgari mutlaqo ko'rilmagan holat edi.

Savlatli, orasta «Slavyan bozori» qimmatbaho nomerlari bilan nom chiqardi, bu yerda peterburglik vazirlar va sibirlik oltin sanoati bilan shug'ullanadiganlar hamda dasht pomeshchiklari, ming-minglab desyatina yer egalari, firibgarlar, peterburglik shulerlar, qartabozlar yigirma besh so'mlik nomerlarda joylashib olar edilar.

Xonalardan to'g'ridan to'g'ri restoranga alohida kabinetlardan o'tib borish uchun yo'l bor edi.

Nikoh o'qitgin-u, uylanaver.

Restoranda tushlik qilish unchalik ommalashmagan edi, kechki ovqat ham shunday. Lekin nonushtalar soat o'n ikkidan uchga qadar xuddi «Ermitaj»dagi kabi urfga kirgan edi. Ulfat savdogarlar «ruhoniylar mehnati»dan so'ng birjada soat ikkida kelishar, stol ustida millionlarga teng bitim tuzib, soat uchda chiqib ketishardi. Qolgan uch soatni «turna» bo'lib, oxiriga yetkazishardi.

«G'ozga qadar» nonushta qilishar – bu maqoldan iborat edi.

Va tushunadigan odamlar yaxshi bilishardiki, demak, nonushta «Slavyan bozori»da bo'ladi, unda kompaniya ishini shampan vinosi va likyorli qahva bilan tugatishni «g'ozlar» talab qiladi. Bu yerdagi billur grafinda oltin g'ozlar chizilgan bo'lib, ichida ajoyib konyak bor edi. Narxi ellik so'm. Kimki konyak uchun pul to'lagan bo'lsa, bo'sh grafinni esdalik uchun olardi. Hatto bu bo'sh grafinnlarni kolleksiya qilish sporti mavjud edi. Bitta ot zavodi sohibi ulardan yettitasini yig'ib, yig'ilishda faxr bilan ko'rsatgan.

«Slavyan bozori» binosi yetmishinchi yillarda A.A. Poroxovshikov tomonidan qurilgan bo'lib, uning aylana shakldagi oynavand tomli zali g'oyat chiroyli edi.

Bir kuni «Slavyan bozori»da nonushta qilish uchun ikki yirik fi-ribgar yonma-yon o'tirib qoldi.

– Lkopchamdagi qandaydir panjaralarni ko'ryapsanmi?.. Bu ni-mani anglatadi?

– Sening baliq ovlaydigan changakni chetlab o'tmasligingni ang-latadi! Bu alomat!

Lkopchada esa oynavand shift tuynugining panjarasi yaqqol aks etgan edi.

Shahardan tashqarida ham restoranlar bo'lib, yaxshilari «Yar» va «Strelna» edi. Uning yozgi bo'limi «Mavritaniya» deb nomla-nardi. «Strelna» I.F. Natruskin tomonidan qurilgan, o'sha paytdagi Moskvaning diqqatga sazovor joylaridan biri bo'lib, ulkan qishki bog'ga ega edi. Yuz yillik tropik daraxtlar, qoyalar, sun'iy g'orlar, favvoralar, suhbat o'tkaziladigan ayvonlar, shuningdek, atrofini kabinetlar qurshagan, butun imkoniyatlarga ega bo'lgan serhasham uylar bor edi.

«Yar»ni o'sha paytlari to'ladan kelgan, soch-soqoli qirilgan, anchayin omadli «apelsin» laqabiga ega Aksenov boshqargan. U o'zining Pushkinga tegishli bo'lgan kabineti bilan bag'oyat faxrlan-gan, u yerda buyuk shoirning byusti turardi, garchi shoir:

*Yaxna buzoq go'shti bilan,
«Yara» taomini eslayman hanuz, –*

deb yozgan bo'lsa-da, Pushkin bu yerda bo'lmagan. Mazkur misralar Pushkin davridagi Petrovka to'g'risida aytilgan.

Tver darvozasi qopqasida «Eldorado» restorani ham bo'lib, u So-kolnikka qarashli edi. Sokolniki yonida Ivanovskiy ko'chasida «Zo-lotoy yakor», «Praga» restorani ham bo'lib, Tararikin «Ermitaj»ning eng yaxshi an'analarini uyg'unlashtirishga erishdi. «Praga»da eng yaxshi bilyardxonalar bo'lib, u yerda binoyidek o'yinlar o'tkazilardi.

Ko'pchilik moda bilan qiziqib qolgani bois aksar traktirlar «restoranlar» deb yuritila boshlandi. Hatto «Arsentich» ham boshqa qo'lga o'tgach, «Eski cherkass restorani» deb nomlanib, rasman qayd etila boshlandi, odamlar esa baribir «traktir Arsentich»ga borishardi.

Shundan keyin Moskvada restoranlar va «Italiya», «Livorno», «Palermo» va keyinchalik Petrovskiy yo'nalishida «Rossiya» meh-

monxonasi deb nom olgan «Tatarskiy» kabi mo'jaz restoranchalar ko'payib ketdi. Ular judayam arzon va haddan ziyod yomon edi. Darvoqe, Moxovkadagi «Petershof» bundan mustasno, u yerda Razjivin har kuni arzon taomlar berishni yo'lga qo'ygan, bu haqda gazetalardagi xabarda e'lon qilgan edi.

«Bugun, dushanba kuni – namakobda qovurilgan baliq tortiladi. Seshanbada – flyaki (qorindan tayyorlangan quyuq sho'rva – polyaklar taomi). Chorshanba va shanbada – sibircha chuchvaralar... Har kuni Qorachoy qo'zilaridan shashlik pishiriladi».

Moskvada shashlikni Razishvin ommalashtirgan edi. Birinchi shashliklar Avtandilovda paydo bo'ldi. U yetmishinchi yillarda ilk kavkazcha mayxona ochib, kaxetincha vinolar bilan Sofiyada yerto'lada savdo qila boshlagan edi. So'ng Myasniskiyga ko'chib o'tdi va vino do'koni ochdi. Shashliklar ancha vaqt to'xtab qoldi, faqat saksoninchi, to'qsoninchi yillarda Cherkasskiy ko'chasida aynan «Arsentevich» traktiri ustida kavkazlik Sulxanov hech qanday patentsiz o'zining kvartirasida shashlik tayyorlaydigan kavkazcha oshxona ochdi, unda hatto yashirincha kaxetin vinolari ham maxsus Kavkazdan kelgan kishilar uchun sotilardi. Keyin u yerga ruslar ham boradigan bo'lishdi. Tanish-bilishlarga Sulxanov o'zining tashrif qog'ozini tarqatardi. Unda: «K.Sulxanov. Knyaz Argutinov-Dolgorukovning jiyani» deb yozilgan va manzili ko'rsatilgan edi.

Har bir kimsa bu qog'oz bilan nima uchun borayotganini yaxshi bilardi. Ish avj oldi, ammo dushman-raqobatchilar paydo bo'ldi. Bayonnoma bilan oshxona yopildi va ish poyoniga yetdi. Ana shunda Razjivin uni «Petershof»da oshxona ochish uchun taklif qildi.

Yana qo'llarida kartochka tutgan kishilar «Knyaz Agutinskiy-Dolgorukov jiyani»ning huzuriga, manzili «Petershof» deb ko'rsatilgan maskanga borishar, ish o'nglanib ketgan edi. Bu Moskvadagi birinchi shashlik pishiriladigan joy bo'lib, yuzlab kavkazliklar kelishar, shashliklar urfga aylangan edi.

Shu bilan birga, xuddi Sofiykada «Alp atirgullari», Katta Lubyankada «Billo», Rojdestvenkada «Berlin», Neglinniyda «Dyusso» kabi nemis restoranlari ham bor edi. Lekin ular Moskvaga xos emasdi. Garchi yaxshi ovqatlantirilib, bir krujkadan haqiqiy pilzen pivolaridan berishsa-da, shinavandalarga singib keta olmadi.

Kichik restoranlardan Kuznetskiy ko'prigidagi Tverskiy hovli uyi yerto'lasidagi «Venetsiya» qiziqroq edi. U yerda alohida, eshigi berkitiladigan zalda inqilobimiz bobolari yig'ilishardi. Boshqa qulay maskan bo'lmagan, soat o'n birda restoran berkitilgan, ko'pchilik tarqalib ketgan, shunda uncha katta bo'lmagan, derazalariga parda tushirilgan zalda do'stona suhbatlar boshlab yuborilgan.

Oshxona yopilgan, bufet berk, faqat restoran sohibi yagona Vasiliy Yakovlevichning o'zi xizmat qilib yurar, kichik zalga keladiganlarning har biriga salkam sajda qilardi... Faqat aroq, pivo va yaxna gazak berilgan. Ba'zan tong otguncha pivo ichishgan.

– Menda hammasi dam olishga mo'ljallangan va sir tutilgan! – derdi Vasiliy Yakovlevich.

Kuznetskiy ko'prigi va Gazetniy boshi berk ko'chasi bo'ylab bita-bitta yoki ikki kishi bo'lib kelib, orqa eshikdan kirishar, sokin tunda yana shu tarzda chiqib ketishardi (o'sha paytda Kuznetskiy boshi berk ko'chasidan Nikitskiyga qadar bo'lgan masofa Gazetniy deb yuritilgan). Shu bilan Tverskiygacha o'zlarining «Chernishi» va Olsufyev uyida yashirinishga urinishgan yoki tunab qolishgan...

«Kichik zal»da katta stol qo'yilgan va gazli qandil bilan yoritilgan bo'lib, uni Vasiliy Yakovlevich muhim ahamiyatga ega deb hisoblardi; bu stol atrofida ulkan soqolli hamda sochi uzun kishilar: P.G. Zaychnevskiy, M.I. Mishla-Orfanov, F.D. Nefedov, N.N. Zlotovratskiy, S.A. Priklonskiylar o'tirishardi. Ular orasida nimjon, qiltiriq, ziyolilarga xos kalta, ixcham soqolli N.N. Astiryov ham bo'lardi: u o'sha yerda o'zining «Volost kotiblari huzurida» nomli kitobining korrekturasini o'qir edi. Keyin mo'jaz, soch-soqoli qirib olingan aktyor Vasya Vasilyev dabdurustdan 193-ishga aralashib qolib, so'ng tasodifan qutulib chiqqan edi. Uning haqiqiy familiyasi Shvedevenger bo'lib, bu haqda kam odamlar bilishardi. V.V.Golsev bu maskanga onda-sonda tashrif buyurar, German Lopatinning qandaydir qochish davrida shu yerda edi. Ular bu yerda ikki yil to'planib, keyin hammasi tarqalib ketdi, Vasiliy Yakovlevich savdolashishni davom ettirar ekan, yuqorida tilga olinganlarning har biri Moskvada bo'lganida, uning huzuriga kirishni burchi deb hisoblar, ba'zan yo'lga pul ham olib turishardi.

Vasya Vasilev endigina olingan «Xalq erki» gazetasining 6-sonini kechasi, yarim tunda Vasiliy Yakovlevichdan zarracha tortin-

masdan baland ovozda o'qib berardi. Mishla mazkur sonda bosilgan P.Ya. (Yakubovich)ning «Onalar» deb nomlangan she'rini o'qib berdi. Vasiliy Yakovlevich ko'zida yosh bilan-matnni ko'chirib berishini iltimos qildi, u esa butun boshli gazetani uzatdi.

– Qancha to'lashimni istaysiz, Vasiliy Vasilyevich?

– Qancha istasangiz. Bu pullar siyosiy mahbuslarga yordamga yuboriladi.

– Hozir.

Vasiliy Yakovlevich g'oyib bo'ldi va xushmuomalalik bilan yuz so'mlik olib keldi.

– Bunday ulug' ishga hissa qo'shishimga izn bering.

«Venetsiya» restorani shuning uchun ham esdan chiqmaydigan darajada edi. U kunduz kunlari Kuznetskiy ko'prigidan o'tadigan uchinchi toifa kishilariga xizmat ko'rsatar, arzonligi tufayli esa po'rim kiyinadigan omma e'tiborini unchalik tortmas, qandolat mahsulotlari borasida qo'shni «Alp atirgullari» va «Billo» restoranlarini afzal ko'rishardi.

Yana Gruzinadagi «Moldaviya» traktiri restoran deb atalardi. Unda kunduzi va kechqurun oddiy xalq bo'lar, aroq ichishar, ertalab soat beshda yashil-ko'k yog'och ayvoncha ostida olifta izvoshchilar yakka-yolg'iz, juft-juft bo'lib va ko'p o'rinli uzun aravada lo'lilar paydo bo'lishardi.

Bu lo'lilar traktiri edi. «Yara», «Strelna», «Eldorado»dan so'ng Gruzinada yashovchi barcha lo'lilar bu dargohga «choy ichish» uchun kelishar, muxlislari ham ular bilan birga edi.

«Moldaviya»dan so'ng katta Gruzinada, Xarlamovning uyida shu soatda Yegor Kapkovning anchayin kamtarona traktiri jonlanardi. Ertalab soat oltida traktirning toza, gard yuqmagan zali frak kiygan kishilar bilan liq to'lgan bo'lardi. Bular shahar tashqarisida joylashgan restoranlarning ofitsiantlari bo'lib, o'zlarining ishga aloqador tunini o'tkazar, o'ziga yaqin kishilarni kutar, choy ichish, aroq ho'plash va karamli sho'rvadan yutinish maqsadida kelishardi.

Ular kechasi nufuzli mehmonlar o'tirganini ko'rib, o'zlarini viqorli va ulug'vor tutishardi. Oppoq ko'ylakli xizmatkorlarni tanlab olishardi. Ularning har qanday xato va kamchiliklariga e'tibor qarati-shar, bir soat burun ko'rsatgan xizmati uchun qanday taqdirlanganiga ko'ra taqlid qilib chorchashardi:

– Hoy odam, bu choychaqa uchun.

Va frak hamda oppoq ko‘ylak kiygan «odam»ga ikki griven berishardi. Frak unga qo‘shirnoqni ilova qilardi. Va xizmatchi bolalarni imtihon qilishardi. Choy berishar, keksa bufetchi esa ko‘rsatkich barmog‘ining tirnog‘ini tishiga tegizib:

– Temiridan bergin! – derdi.

Yoki amr qiladi:

– Tishimga nimadir bergin, tutun ketsin!

Tajribali dastyor bola unga qand uchun mo‘ljallangan kichkina qisqich berar, papiros keltirar va gugurt yoqib uzatardi.

O‘tgan asrning birinchi yarmida Ostojenko burchagining 1-Zachatevskiy tor ko‘chasida bir qavatli katta uy bor edi, uni Shustrovning traktiri butunlay band etgan edi. Shustrovning o‘zi oilasi bilan boloxonada yashar, keng-mo‘l chordoq qurilganidan buyon kaptarlarga oshiyon bo‘lib qolgan, shu jihatdan Moskvada eng katta o‘rinni egallardi. Turli-tuman kabutarlarning parvozi va rang-barangligi atrofga joziba bag‘ishlar, Shustrov oilasi bilan sevimli sport turi – kaptarlarni osmonga uchirganida osmonni mutlaqo qoplab olardi. Havasmandlar orasida boy-badavlat traktir sohibi I.Ye. Krasovskiy ham bor edi. U Shustrovdan traktirni sotib oldi va sohibidan Moskvada eng katta o‘rinni egallagan yog‘och uyni buzishga ruxsat so‘radi, keyin uni o‘zining asosiy rejasiga muvofiq toshdan qurmoqchi bo‘ldi.

Uy toshdan, uch qavatli qilib qurildi, u ikki ko‘chani egallagandi. Pastda do‘konlar, ikkinchi qavatni «dvoryanlar uchun» bo‘lib, traktir zallari alohida kabinetlardan iborat edi, uchinchi qavatni oddiy xalq uchun hisoblanib, asosiy zaldagi pastak shift shunchalik katta ediki, uning pastiga yuzdan ortiq stol joylashardi, o‘rtasi esa raqsga tushish uchun ochiq edi. Pastda orkestrion qo‘yilgan, yuqorisida qo‘shiqchilar va garmonchilar uchun estrada joylashgan. Bir garmonchi chalar, qirq odam o‘ynar edi.

Uy ustida hamon kabutarlar charx urib aylanar, Krasovskiy va o‘g‘illari ham xuddi Shustrov kabi havasmand, shu bois ular ham tom ostida kaptarxona qurgandilar. «Kabutar uyasi» – shunday deb atalardi. Va hech kim uni boshqa nom bilan atamas, garchi rasmiy jihatdan shunday atalmasa-da, bu nom Moskva gazetalarida faqat bir marta tilga olindi: 1905-yili «Kabutarlar uyasi»da inqilobchilarning qamoqqa olinishi» nomli maqolada tilga olingan edi.

O'shanda, 1905-yilga qadar shinam va politsiya nazoratidan pinhon tutilgan «Kabutarlar uyasi»dagi kabinetlar inqilobchilarning uchrashuv joyiga aylangan edi. 1905-yilda u yerda katta mitinglar bo'lib o'tgandi.

Ha, Krasovskiylar qulay zallar qurgan edi. Bu yerda tonggi soat beshda kechki ovqatga xizmat qiladigan, tushlik va to'ylarga xizmat ko'rsatadigan, daromadni bo'lish va aroq ichish uchun malaylar to'planishardi. Bu maskanda ballar, «oddiy faqirlar»ning to'ylari o'tkazilardi. Shu bilan birga «bog'ich», ya'ni auksion o'tkazadigan olibsotlarlar galasi jam bo'lardi. Ular qo'llari ostidan nimanidir yulib olar, begona xaridorni auksiondan xarid qilishi uchun «ovlash»ga tushar, har qanday kishida ham savdo qilish maylini uyg'otishardi. Bu ularning tilida: «Boshiga cho'yan shlyapa kiydirish» deb nomlanardi.

Ushbu yarim ehtiromga sazovor bo'lgan «Cho'yan shlyapalar» assotsiatsiyasidan tashqari, bu yerda oyiga ikki marta xo'roz urishtirish janglari bo'lib o'tardi. Belgilangan paytda kechqurun zalning bir qismi ajratilar, o'rtasida to'garak sahna qurilar, u xuddi sirknikiga o'xshar, girdiga tomoshabinlar uchun o'rindiqlar, stullar o'rnatilardi. Darvoqe, faqat tanlangan, eski Moskvaga xos sportning havaskorlari qo'yilardi. Bunda ham xuddi yugurish va ot poygasidagi totalizator kabi g'olibga yirik pul tikilardi.

Ma'lum vaqtda «Kabutarlar uyasi»ga badavlat savdogarlar tashrif buyurishar, ammo doimiy yuradigan izvoshlar yoki bir ot qo'shilgan yengil aravalarda kelishmas, balki maxfiy ravishda ikkinchi qavatga ko'tarilishar, bufet orqasidagi qator berk kabinetlar yonidan o'tib, u yerdan ichki zinapoya orqali alohida joyga o'tishar va sahna atrofidan joy egallashardi. Ularning izidan birin-ketin bu zal orqali kabinetga jomadon bilan kirib kelishardi. Bu o'zlarining xo'rozlarini olib kelgan ovchilar edi. Ularning Angliya jangari urishqoq dakanglari tojsiz va iyagida tuki bo'lmagan holda tuyoqlari o'tkir edi. Shafqatsiz jang boshlanardi. Sahna qon-u qusga belanardi. Yovvoyilashgan tomoshabinlar ko'zlari yonguday bo'lib, talvasaga tushib, goh qotib qolishar, gohida bamisoli hayvon kabi na'ra tortardilar. Bu yerda kimlar yo'q edi deysiz: nomi chiqqan savdogarlar, sersavlat, salobatli amaldorlar va bozordagi davlati achib yotgan tijoratchilar, teatr chayqovchilari hamda «Cho'yan shlyapa»lilar bor edi.

Tikilgan pul bir necha ming so'mga sotilardi. Omma havasmandlari ancha muddat Angliyadan keltirilgan jabrdiyda Larionov xo'rozlari edi. Larionov bir paytlar armiyaga sasib chirigan unni yetkazib bergani uchun sudlangan edi. Endi o'zining xo'rozlari bilan badavlat kishilar to'garagiga yana sakrayotgandi. Bu kishilar «muvaqqiyatli xo'roz ovi» evaziga uning o'tmishdagi gunohlarini kechirishgan edi. Xo'roz janglari kabinetda va traktirning ikkinchi qavatida poyoniga yetardi.

Krasovskiyning o'zi ham sportning bu turiga qiziqardi, chunki katta daromad keltirardi. Lekin keyingi paytlarda, asr oxirida Krasovskiy aqldan ozib qoldi. U ko'p vaqtini «Kabutarlar uyasi»da o'tkazar, bordi-yu traktirga kelib qolsa, telba ko'zlarini tikib, zallarda maqsadsiz yurar, diniy oyatlarni kuylardi. Uni, albatta, g'orat qilishdi: traktir bir paytlar «oltin o'ra» edi, endi qarzi tufayli boshqa qo'lga o'tdi, Krasovskiy esa deyarli tilanchi holiga tushib, hayotini gado holda nihoyasiga yetkazdi.

«Kabutar uyasi»dan boshqa Moskva-rekaning allaqayerida xo'roz o'yinlari o'tkazilgan, ammo u yerda odamlar qalang'i-qasang'ildan iborat edi. Oddiy rus xo'rozlarini urishtirishar, ingliz jangari dakanglari qo'yilmasdi. Bu traktir «Qopqon» deb yuritilardi. Iflos, irkit jin ko'chalar va axlat o'ralaridan o'tib, hovlidan sovuq omborga chiqish yo'li bor edi, o'sha yerda sahna qurilgan bo'lib, tomoshabinlar ommasi nihoyat junbisha kelar va g'azabga minardi.

Jangning uchinchi o'rni «To'lqin» Sadovaya ko'chasida joylashgan bo'lib, u qaroqchilarning xilvat joyi va sirli tunda tunaydigan qalang'i-qasang'ilar to'dasi bilan to'lib-toshgan edi.

Moskva traktirlari orasidan faqat bittasi yiliga bir marta, bahorgi toshqin paytida Moskva-rekaning yuqori qismida o'tin va yog'ochlar oqizilganda, qishloqni ko'rish mumkin bo'lardi. Bu keng, ammo iflos traktir Dorogomilovda joylashgan, Moskva-rekaning qirg'og'ida Borodino ko'prigi oldida edi.

Bu bir necha kun sollarning Dorogomilovga kelishi va moskvaliklar sayri uchun mos bo'lib, ko'priklar va qirg'oq bo'ylarida sol-lar aylanar, chaqqon holda ularni boshqarishar, har bir daqiqa pachoq bo'lish yoki cho'kib ketish xavf-xatariga to'la bo'lardi.

Nikitskiy darvozasidagi Borgest uyida bir traktir bo'lardi, uning zallaridan birida qog'oz bilan yopilgan qafas osib qo'yilgan, ichida bulbullar bor edi. Har kuni sahar-mardondan va kechqurun butun

Moskva odamlari bu yerga kelib, bulbullar xonishini eshitishni yaxshi ko'rishardi. Ko'pgina traktirlarda sayroqi qushlar qafasi ilingandi. Masalan, Trubada A. Pavlovskiy, Neglinniyda «Oxotnichiy» traktirlarida xuddi shunday edi. Bu traktirlarda yakshanba kunlari Trubnoy maydonidan kelib, ko'pchilik to'planardi. U yerda it va parrandalarni moskvalik taniqli ovchilar sotishardi. A.G. Zverev ikki traktirga egalik qilardi. Biri Gavrikov tor ko'chasidagi «Kon birjasi» edi. U yerda ko'tara savdo qiluvchi millionerlar kengash o'tkazishar, qo'llarida tegishli hujjatlar bo'lar, choy ustida yirik shartnomalar, bitimlar amalga oshardi. Bu eng tinch traktir edi. Hatto ovoz eshitilmasdi. Sersavlat sipo savdogarlar bitimlarni quloqdan quloqqa ohista shivirlashar, ba'zida ovozlar eshitilib qolardi:

- Bir yuz yigirma oltiga naqd mahsulot...
- Suli-chi?
- Sakson...

Ular port shaharlardan o'zlarining agentlaridan telegrammalar ham olishadi, bug'doy narxлари haqida surishtirishadi. Ba'zi telegrammalarni o'qib, yuzlarini burishtirishadi – ziyon. Lekin aytilgan gap – otilgan o'q, orqaga qaytolmaysan. Xonavayron bo'lsang ham so'zingning ustidan chiqishing kerak.

Stol ustiga bug'doylar solib qo'yilgan xaltachalar sinab ko'rish uchun qo'yilgan. Dahlizdagi ilmoqda esa qoplar uyilgan... Stollar ustida, birja muddatlarida choydan boshqa hech nima ko'rinmaydi... Faqat «ishlar»dan so'ng nonushta va tushlik qilishadi.

Zverevning boshqa traktiri Petrovka ko'chasi burchagi va Raxmanovskiy boshi berk ko'chasida doktor A.S. Levenson uyida joylashgan edi. A.S. Levensonning otasi keyinchalik mashhur matbaachi, afisha va xususiy teatrlar nashri ijarachisi Al.Al. Levenson edi.

Bu yerda kimoshdi savdosi o'tkaziladigan kunlari garovxona va qarz beradigan kassalar oldida odamlar to'planib qolishardi. Bu oshkora bo'lmagan, politsiyaning voqifligi ostida, ammo rasmiy ruxsatsiz, chakana dallollar to'planar, qimmatbaho narsalarni arzonga tushirib olish uchun mug'ombirlik bilan ish ko'rishga urinardilar. Bu «bog'lam» har bir auksion, ya'ni kimoshdi savdosidan keyin Zverev huzuriga kelishar, zallardan biri alohida g'alati ko'rinishga kirardi: stol ustiga oltin, kumush, bronza, qimmatbaho toshlar qo'yilar, stullarda materiallar tashlanib, cho'ntaklardan soatlar, marvaridlar chi-

qarilib, ko'rsatilar va qayta sotilar edi. Shunda «bog'lam»ga tegishli kishilar hisob-kitob qilib, olingan va xarid qilingan narsalarni o'zaro taqsimlashardi. O'z navbatida, zalda boshqa chakana dallollar ham tentirab yurardi. Ular orasida Suxarev savdogarlari ulardan tovar sotib olishardi... Keyinchalik Zverev traktiri berkildi, o'rniga «Russkoye slovo» tahririyati joylashdi, o'shanda u kichik hajmdagi gazeta edi.

Gazeta va jurnallar xodimlari o'zlarining doimiy traktiriga ega emasdi. Lekin «Xalq kitoblarini bosib chiqaradigan» va Nikolskiy noshirlari Lubyanskiy maydonidagi Kolgushkin traktirida to'planishar, shu yerdan kambag'al dehqonlardan iborat ruscha «Maorif» tarqatilar edi. I. Morozov, Sharapov, Zemskiy, Gubanov, Manuxin, ikkala Abramovlar, Presnov, Stupin, Naumov, Fadeyev, Jeltev, Jivarev kabi noshirlar yetishib chiqqandi. Bu firmalardan har biri o'n va o'ndan ortiq «nomda»gi, ya'ni kitob turi, bosma toboqlardan tortib, olti va undan ziyod bosma toboqdan iborat kitobchalarni rangli muqovalarda, qo'rqinchli sarlavha ostida har birini bir yarim so'mdan narxlar edi. Ularning har biri eng kamida olti ming adadda chop qilinardi. Bu yerda «choy ustida» noshirlar «yozuvchilar»ga buyurtma berishardi.

«Nikolskiydagi yozuvchilar» – deyishardi ularni.

Bu traktirlarning devorlari «Nikolskiydagi noshirlar»ga yugurib kelgan yirik adabiyotchilarni ham ko'rgan edi. Ular bir daqiqada cho'ntaklaridagi baxtsizlik tufayli shunga majbur bo'lgan edilar. Ijodkorlarning katta qismi xizmatdan haydalgan amaldorlar, zobitlar, o'qishni tugata olmagan talabalar, seminarchilar, muhtojlikda kun kechiruvchi adabiyotchilarning farzandlari edi. Ular adabiyot va san'atning yirik arboblari va o'sha paytdagi adabiyot hayot korchalnlari tomonidan rad etilgan kishilar edi.

Ikki choy qo'yilgan stolchada derazaga qaragan noshir shunday ijodkorlardan biri bilan o'tirardi.

- Menga «Qabardinlar bilan urush»ning yangisi kerak.
- Bo'ladi, Denis Ivanovich.
- Tezroq kerak. Bir haftada yoza olasanmi?
- Mumkin-u... Necha bosma toboq bo'lsin?
- Olti bosma toboqlar yetadi. Ikki qismga bo'lib nashr qilaman.
- Mayli-ku. Har bosma toboq'i olti so'mdan.
- Ko'p, bo'kib qolasan. Ikki so'mdan.
- Mayli, yaxshi, besh so'mdan.

Boshqa stolda qo'lida kitobcha ushlagan yaxshi nomga ega kishi o'tiribdi, ammo oyog'ida yomon etik...

– Bilasizmi, Ivan Andreyevich, sizning barcha raqiblaringiz «Muzlagan uy», «Basurman», «Graf Monte Kristo», «Uch mushketyor» va «Yuriy Miloslavskiy»da ham bor. Lekin bular Dyuma, Zagoskin, Lajechnikov yozganiday emas, axir! Jin ursin, unda qanaqa tuturuqsiz narsalar bor... Agar mualliflar bilib qolishsa bormi, go'rlarida tikka turgan bo'lishardi.

– Xo'p, nima ham qilardik... Menda ham bor ular... Har birining o'ziga xos «Yuriy Miloslavskiy» va «Monte Kristo»si bor. Va imzosi: Zagoskin, Lajechnikov, Dyuma. Men shuning uchun seni chaqirgandim. Menga «Taras Bulba»ni yozib bergin.

– Qanday qilib «Taras Bulba»ni yozib beray? Axir u Gogolnikiku!

– Xo'sh, nima bo'пти! Sen ham Gogolnikiga o'xshatib yozgin, faqat biroz o'zgartir, hammasini boshqacha qo'yib chiq, varag'ini kamaytirgin. Taras Bulba har qanday kishiga qiziq tuyuladi, boshqasi emas. Va har kimga yolg'on bo'lib ko'rinishi mumkin, axir bu Taras Bulba butunlay yangi bo'ladi-da! Bu yerda, birodar, sarlavha muhim o'rin tutadi, mazmuniga tupurish kerak, chunki puli to'langan, baribir o'qib chiqadi. Adabiy asarni soxtalashtirib chiqarishda ayblashmaydi. Baribir Bulba – o'sha Bulba-da, so'zlar esa boshqacha, xolos.

Shu suhbatdan keyin haqiqatan «Taras Bulba» yangi muallifning imzosi bilan paydo bo'ldi, chunki Morozov o'zboshimchalik bilan muallifning familiyasini qo'ygan, u buni mutlaqo kutmagan edi!

O'sha yerda 1918-yilgacha «Natsional» mehmonxonasi binosi bo'lgan joyda, o'tgan asrning oxirida Pyotr davrigacha uy qurilishi borar, u Firsanovga qarashli edi. Pastki qavatida, sevimli palata bilan savdo qiladigan Oxotniy ryadda Yegor Kruglovning «Balaklava» traktiri bor edi.

– O'zi qayerda? – deb so'rashdi gumashtadan.

– G'orda xaridor bilan.

«Balaklava» traktiri ikki katta yarimqorong'i pastak zallardan iborat bo'lib, kabinetlar o'rnida ikki tomonda: o'ng va chapda g'or bor edi. Qandaydir g'alati, ulkan tarixiy toshqanorni eslatadigan tokchadan iborat edi u. Bu g'orlar faqat alohida faxrli mehmonlar uchun band qilinardi.

Maydonning boshqa tomonida, Loskutniy mehmonxonasi ortida, tor ko'chada Kogtevning «Objorka» traktiri bor. Unda maydachuyda sotadiganlar va mayda xizmatchilar eng muhim mavzuda, «Iverskoydan xayol osmonigacha» bo'lgan voqea-hodisalar to'g'risida gaplashishardi. Ularning huzuriga arznoma yozish uchun har qanday toifadagi kishilar kelishardi. Bu o'ziga xos «Xalq huquqiy byurosi» hisoblanardi.

Alohida stolda aroqxo'rligi uchun ishdan haydab yuborilgan bosh sud amaldori o'tirar, bu yerga kelgan yirik savdogarlarning arznomasini yozib berardi. Shunday voqealar bo'lganki, bu ulug' lo'ttiboz Nikolay Ivanovichning huzuriga mashhur advokat F.P. Plevako tashrif buyurgan.

Kuznetskiy ko'prigi Petrovka orqali Kuznetsk tor ko'chasiga birkib ketgan edi. Uning yarmida uncha katta bo'lmagan eski yog'ochdan qo'shimcha bino qurilgan. Oxra (mineral buyoq) bilan bo'yalgan. Bunday uylar poytaxtning faqat chekkalarida qolgan edi. Toshuylar qurshovida, oynavand holatda Tramble qandolat do'koni, ulkan Solodovnikov passajida bu uy eskicha bo'lib ko'rinardi.

Bir necha yillar mobaynida bu uyda «S.S. Sherbakov» peshlavhasi turgan. Uning egasi barcha aktyorlar uchun sevimli bo'lgan Spiridon Stepanovich Sherbakov bo'lib, etagi keng syurtuk kiygan, ketmon soqolli chol edi. Ulug' maskan «Sherbaki» o'sha paytlarda mashhur bo'lgan aktyorlar va ularning aslo o'zgaraydigan muxlislari bilan to'lib-toshgan, Spiridon Stepanovichga kamoli ehtirom ila munosabatda bo'lishar, u ham artistlarning har birining ism-familiyasini bilar edi. Aktyorlarning muvaffaqiyati bilan qiziqar, Moskvaga hali kelmaganlar bo'lsa, ularni buyuk ro'za udu-mi bilan qutlar edi. Bu yerda sahnaning o'sha fidoyi jonkuyarlari: N.K. Miloslavskiy, N.X. Ribakov, Pavel Nikitin, Poltavsev, Grigorovskiy, Vasilyevlar, Dyukov, Smolkov, Lauxin, Medvedev, Grigoryev, Andreyev-Burlak, Pisarev, Kireyev hamda bizning Maliy teatrning dongdor aktyorlari hozir bo'lishgan edi. O'sha davr dramaturg va yozuvchilari A.N. Ostrovskiy, N.A. Chayev, K.A. Tarnovskiy ham borishgan.

«Sherbakov»ning doimiy kunda-shundalari aka-uka Kondratyevlar o'sha paytda hali yosh bo'lib, ular haqidagi she'r og'izdan og'izga o'tib yurardi:

*Aka-ukalardan birining,
Ismi edi o'shanda Ivan.
Familiyasi Kondratyev,
Laqabi-chi, Ataman.*

Chol Sherbakov eng ilojsiz qolgan aktyorlarga, odatda, Ulug' Ro'za paytida haqiqiy do'st bo'lib xizmat qilar, restoranda qarzlarini to'lash bilan birga, yo'lkiralari uchun pul berar, hech kim undan qarzdor bo'lib qolmasdi.

Bu traktir o'zining go'shtli somsasi bilan mashhur edi. Bu paramach somsa likopchani butunlay egallar, qalinligi barmoqcha kelar va o'n besh tiyin turar, bu narxda bir likopcha sho'rva berishardi.

Ro'zaning oxirida aktyorlarning darmoni qurib qolganida, ular faqat shunday go'shtli somsalarni tanovul qilishga harakat qilishardi.

Spiridon Stepanovich vafot etdi. Undan sal oldinroq Petrovkadagi qator toshuylarning sohibi Xomyakov dunyodan ko'z yumgan edi. U sharti ketib, parti qolgan bu uyni buzib tashlardi-yu, ammo cholga rahmi kelgan edi.

Vorislari unchalik yaxshi bo'lib chiqmadi. Ular merosga ega bo'lib olgach, Sherbakovni quvib yuborishdi. Aktyorlarni qulay, o'rgangan joyidan mahrum qilishdi.

Ulkan mol-mulk yosh Xomyakovga tegdi. U o'sha zahoti fligelni, ya'ni asosiy uy yonida qurilgan uyni buzib tashladi va o'rniga muhtasham keng-mo'l tosh imorat ko'tarishga qaror qildi, ammo shahar Dumasi bu rejasini tasdiqlamadi, chunki tor ko'chani kengaytirish talab qilinar edi. Xomyakov oyoq tirab turib oldi: «Axir yer meniki-ku!» Shahar bu bir parcha yerni sotib olishni tavsiya qildi, ammo Xomyakov qat'iyan rad etdi: «Istamayman». Va bu yerni temir panjara bilan o'rab olib, uy qurishga kirishdi. Shu bilan birga panjara ortidagi yerni haydab, tol va oqterak ekib tashladi.

Uy ko'tarildi. Daraxtlar ham o'sa boshladi. Bank idorasi ochildi, ammo unga kirish uchun ko'cha yo'q edi. Xomyakov uyi bilan o'zining o'rmonchasi oralig'ida yo'lak «yasadi». So'ng xuddi shu tarzda yo'lakni temir panjara bilan chegaralab qo'ydi. Shu tariqa Kuznetskiy tor ko'chasida noto'g'ri uchburchak shakldagi joy hosil bo'ldi, u ancha vaqt Xomyakov o'rmonchasi nomi bilan yuritildi. Ma'muriyatdagilar, odamshavanda tanish-bilishlar ko'ndirishga qancha urinmasin, Xomyakov taslim bo'lmadi.

– Bu mening shaxsiy mulkim, – derdi u.

Xomyakov har kuni haqoratlariga to‘lib-toshgan xatlarni o‘qib, tantana qildi. Uning haddan oshgan o‘zboshimchaligidan yozg‘irgan matbuot qochirimlarga to‘ldi.

– Ma‘muriy yo‘l bilan ta‘sir ko‘rsating, – deb maslahat berdi kimdir shahar boshlig‘iga.

Uni ober-politsmeysterga chaqirishdi. Tor ko‘chani bo‘shatishni tavsiya etib, rozi bo‘lmagan taqdirda 24 soat ichida Moskvadan badarg‘a qilinishi to‘g‘risida tahdid qilishdi.

– Meni badarg‘a qilishingiz mumkin. Ketaman, ammo shaxsiy mulkim qolaveradi!

Jaji o‘rmonzor shovullar, ehtimol, sovet hokimiyatini kutgandir, ammo ajoyib kunlarning birida o‘rmonzor ham, panjaralar ham g‘oyib bo‘ldi, ular o‘rnida sariq qum chag‘irtoshlar bilan aralashib yotardi. Qanday qilib? Kim? Nima bo‘ldi? – Moskva hang-mang bo‘lib qolgan edi. Turli mish-mishlar tarqaldi. Bulardan bittasi to‘g‘ri edi. Xomyakov daraxtlarni kesish, tor ko‘chaga tosh yotqizishga buyruq bergan va aynan o‘sha kuni chet elga jo‘nab ketgan edi. Aytishlaricha, u haqiqatan Moskvadan badarg‘a qilishlaridan qo‘rqqan; qarindosh-urug‘lari undan bu familiyaga dog‘ tushirmaslikni so‘ragan emish.

Mening qo‘limda Pazuxin imzosi bilan «Razvlecheniye» jurnali grankasi turibdi. Unga ko‘ra, gazetachi yozuvchi-romanist, ko‘plab sahna asarlari va ocherklar muallifi A.Pazuxin ushbu jurnal noshiri bilan garov o‘ynab, daraxtzorni yo‘q qilishini aytadi: Keyin Xomyakov fotosuratini topib, umumiy tanishi orqali unga grankani yuboradi. Grankada karikatura ilova qilingan edi: basharasi Xomyakov bo‘lgan eshak o‘rmonchada sayr qilib yuribdi...

Ilgari, «Sherbakov»ga qadar aktyorlar traktiri Bronnikov uyida joylashgan Barsov traktiri bo‘lgan. U Katta Dmitrovka va Oxotniy ryad burchagida edi. O‘sha yerda mashhur Kelloniy zali salobat to‘kib turardi, unda nomlari yuqorida tilga olingan aktyor va yozuvchilar to‘planishardi. Keyinchalik «Sherbakov»ga o‘tgan Barsov traktiri yopildi, uning binosi artistlik to‘garagi tomonidan band qilindi, «Sherbakov»da kun o‘tkazadigan aktyorlar kechqurun to‘garakda vaqt o‘tkazardilar.

Aktyorlar orasida, albatta, qimorboz va bilyard o'ynaydigan kishilar kam emas, ular ro'za paytida Savrasenkovning bilyardli restoranida to'planar edilar. U yerdagi Tver xiyobonida qiziqishga ko'ra yirik o'yin o'tkazilar edi.

Bu yerda qishloqda nom chiqargan kishilar ham bo'lgan. Ulardan, ayniqsa ikki kishi mashhur edi: tragik Mixail Pavlovich Dokuchayev va ajoyib aktyor, barcha rollarni ijro etadigan Yegor Yegorovich Bistrov edi.

Yegor Bistrov professional o'yinchi ham edi, o'yinda, albatta, yutib chiqar va omadi kelardi. Undan «chuv tushirib ketdi», degan fe'l qolgan.



– Ha, bu aynan o‘sha, Dostoyevskiy va Ostrovskiyda eslatilgan «choh»ning asl o‘zi.

Mahbuslarning jinoyati uchun emas, balki oddiy qarzi tufayli qamaladigan mudhish turma shu edi.

«Choh» – savdogarlarning qasoskor xasisligi gulchambari. U inqilobgacha mavjud bo‘lib, shafqatsiz vaqtlarning timsoli sifatida sarqiti bo‘lib qolgan. Qadimgi fransuz va german qonunlariga ko‘ra, qarzdor kishi qarz berganga ishlab, qarzini uzishi yoki to qarzini uzmaguncha oyoq-qo‘liga kishan urilib, turmada saqlanishi, qarz bergan odam qarzdorni boqishi va unga shikast yetkazmasligi lozim edi.

O‘sha paytda Rusda «qarzdorni qarz bergan kishiga farzini uzmaguncha berish» qoidasi amal qilgan edi. Pyotr I davrida qarzdorlar uchun bo‘limlar ochilgan bo‘lib, shu paytdan boshlab qarzdorlar jinoyatchilar bilan birga turmalarda o‘tirishgan.

So‘ng qarz bo‘limlari Moskva-reka ortidagi «Tite»ga, undan keyin Presnen politsiya uyiga – uchinchi qavatga o‘tkazildi, garchi uchinchi qavatda bo‘lsa-da, baribir «choh» degan so‘z u bilan birga qolaverdi. Bir kuni unda sobiq millioner, chol bo‘lib qolgan Plotitsin o‘tirgan edi. U bilan birga qandaydir yoshi o‘tgan savdogar ayol bor edi, ko‘zlarida shunchalik g‘am-qayg‘u chuqur cho‘kkandiki, qaragan kishining rahmi keladi.

Esimda, o‘shanda men qandaydir gazetaning ishi bilan kirgan edim. Zinapoyadan pastga tushayotganimda, boloxona ostida yoshi o‘tgan ayolga ko‘zim tushdi. U nazoratchining idorasiga kirdi va darrov qaytib chiqdi.

Men qiziqib, nazoratchidan so‘radim.

– O‘tirish uchun kirgan edim, lekin joy yo‘q, chunki ta‘mirlash ketmoqda. Uni yetti nafar bolasi bor, shu bois erining qarzi uchun o‘tirmoqchi. Ma‘lum bo‘lishicha, «choh»da ayollar bo‘limi ham bor ekan!

Rossiyada ancha ilgari ayollarga nisbatan tanaga jarohat yetkazib jazolash bekor qilingan, ammo erkaklarga nisbatan qarzdorlik uchun ayollar xalos bo‘lmagan.

Ko‘p yillar davomida «choh»da xizmat qilgan keksa askar menga shunday degan edi:

– Shunga rahming keladi! Garchi qonunga muvofiq bo‘lsa-da, ammo vijdonga xos emas! Odamni qamoqqa tashlashadi, undan oi-



«CHOH»

...Biz Tverskiyga Iverskiy darvozalari orqali kirib, eski uyning chuqur peshtoqlaridan burilib o'tdik. Bu yerda ilgari gubernya bosh-qarmasi joylashgan edi.

– Mana, men shu yerda yashayman, hozir kiramiz.

Xuddi shunday tarzda qadimiy binolar bilan o'ralgan hovliga kiramiz. Yana bir peshtoqdan o'tdik, unda ikkinchi qavatga chiqiladigan zinapoya bor edi. Qorong'i yo'lakdan o'tib, uning ancha ichkarisidan o'ng tomondagi eshikka yo'naldik.

– Mana keldik!

Og'ir eshik g'ijirladi va ro'parada qop-qora zulmat namoyon bo'ldi.

– Bu yerdan biroz pastroq... Qo'lingizni bering...

Tanishimning qo'lidan mahkam ushlagancha shu qorong'ilik tomon qadam qo'yib tushaman. Atrofdagi hech nimani ko'rmas, bir necha qadam tashladim. Ochiq «shiq» etdi-yu, yorqin elektr nuri yorug'ida bir necha ustunchalar soya tashladi. Sariq chiziqlar yozuv stoli ustida turgan kitoblar muqovalari hamda suratlar ustida o'ynar edi.

Men uzun katta xonaga, chuqur ambruzali kichik, qorong'i, derazasi panjara bilan to'silgan joyga tushib qoldim. Devorda qora dog' ko'rinardi. Deraza oldida stolda solnomachi o'tirib yozayotgandek tuyuladi...

*Yana bitta rivoyat,
Solnoma ham bitar nihoyat,*

– deganga o'xshash fikr miyamdan «lip» etib o'tganday bo'ldi...

– Yo'q, bu Pimenning faqirona kulbasi bo'lganmi-yo'qmi, ammo aynan shu xonada qarzdorlar o'tqazadigan «choh» bo'lgani aniq, bu fakt...

– Ha, bu aynan o'sha, Dostoyevskiy va Ostrovskiyda eslatilgan «choh»ning asl o'zi.

Mahbuslarning jinoyati uchun emas, balki oddiy qarzi tufayli qamaladigan mudhish turma shu edi.

«Choh» – savdogarlarning qasoskor xasisligi gulchambari. U inqilobgacha mavjud bo'lib, shafqatsiz vaqtlarning timsoli sifatida sarqiti bo'lib qolgan. Qadimgi fransuz va german qonunlariga ko'ra, qarzdor kishi qarz berganga ishlab, qarzini uzishi yoki to qarzini uzmaguncha oyoq-qo'liga kishan urilib, turmada saqlanishi, qarz bergan odam qarzdorni boqishi va unga shikast yetkazmasligi lozim edi.

O'sha paytda Rusda «qarzdorni qarz bergan kishiga farzini uzmaguncha berish» qoidasi amal qilgan edi. Pyotr 1 davrida qarzdorlar uchun bo'limlar ochilgan bo'lib, shu paytdan boshlab qarzdorlar jinoyatchilar bilan birga turmalarda o'tirishgan.

So'ng qarz bo'limlari Moskva-reka ortidagi «Tite»ga, undan keyin Presnen politsiya uyiga – uchinchi qavatga o'tkazildi, garchi uchinchi qavatda bo'lsa-da, baribir «choh» degan so'z u bilan birga qolaverdi. Bir kuni unda sobiq millioner, chol bo'lib qolgan Plotitsin o'tirgan edi. U bilan birga qandaydir yoshi o'tgan savdogar ayol bor edi, ko'zlarida shunchalik g'am-qayg'u chuqur cho'kkandiki, qaragan kishining rahmi keladi.

Esimda, o'shanda men qandaydir gazetaning ishi bilan kirgan edim. Zinapoyadan pastga tushayotganimda, boloxona ostida yoshi o'tgan ayolga ko'zim tushdi. U nazoratchining idorasiga kirdi va darrov qaytib chiqdi.

Men qiziqib, nazoratchidan so'radim.

– O'tirish uchun kirgan edim, lekin joy yo'q, chunki ta'mirlash ketmoqda. Uni yetti nafar bolasi bor, shu bois erining qarzi uchun o'tirmoqchi. Ma'lum bo'lishicha, «choh»da ayollar bo'limi ham bor ekan!

Rossiyada ancha ilgari ayollarga nisbatan tanaga jarohat yetkazib jazolash bekor qilingan, ammo erkaklarga nisbatan qarzdorlik uchun ayollar xalos bo'lmagan.

Ko'p yillar davomida «choh»da xizmat qilgan keksa askar menga shunday degan edi:

– Shunga rahming keladi! Garchi qonunga muvofiq bo'lsa-da, ammo vijdonga xos emas! Odamni qamoqqa tashlashadi, undan oi-

lasini ajratishadi, kichkintoy bolalaridan mahrum qilishadi. Unga ishlash o‘rniga, oyog‘i bilan ishga kirishmoq o‘rnida yillar davomida uni panjara ortida saqlashadi. Mana endigina uylangan yosh yigit o‘tiribdi, shu kuni uylangan, ertasi esa hibsga olishdi. Uni bir boy-badavlat qarz bergan kishi faqat xotiniga ega bo‘lish uchun qamoqqa tiqdi. Qarzdor chalkashtirdi, adashtirdi, xotinini o‘zining oldida tutib turadigan bo‘ldi...

Bizda shunday bir kishi o‘tiribdi, oldiga xotini, bolalari keladi, tobora kam keladigan bo‘ldi... Qancha ko‘z yoshlari to‘kilgan... Nazoratchidan bayramga uyga ruxsat berishini so‘raydi, oyoqlariga yiqilib, iltimos qiladi...

Albatta, shunday voqealar bo‘lganki, qamoqqa olinganlar bir-ikki kunga uyiga ketishgan, lekin uni rosa qidirishgan va joyiga keltirib qo‘yishgan. Qarz bergan kishilarda qarzdorlarga nisbatan turli-tuman tahqirlash, kamsitishlar, mazax qilishlar ham ro‘y berardi. To‘satdan qarz beruvchi unga oziq-ovqat berishni to‘xtatib qo‘ygan. Va shunda qarzdorga javob bergan. Xursand bo‘lib, baxtiyor holda joyiga borib endi o‘rnashgan paytida shafqatsiz kreditorlar yana oziq-ovqat olib keladi-yu, suddan mudhish xat keltiradi, undan darhol qaytish talab qilinar edi.

Qarz beruvchi ishonchli politsiya bilan endigina jonlangan qarzdorni yana «choh»ga o‘tirg‘izadi.

Tanlov vakili qarzdorlar o‘tiradigan bo‘limdan ketganini bilib qolib, uyiga axtarib boradi, ba‘zan tunda bostirib qo‘lga oladi, oilaviy vaziyatda xotini va bolalarining ko‘zi oldida politsiya bilan birga o‘zi uni bo‘limga keltiradi. Qarzdorlarni ko‘chalarda, traktirlarda, mehmondorchilikda, hatto cherkovdan chiqayotgan paytlar «ovlashgan!»

Bu yerda ham har qachongidek: kimga to‘y, kimga aza. Shunday hollar ro‘y berganki, savdo-tijorat sudi qarzdorni javob berish xususida haqiqiy buyruq yuboradi, bir oydan so‘ng yana vaqtini o‘zgartiradi – odam bu paytda erkin yashab yuradi.

Boshqasining esa pora berishga hech vaqosi yo‘q, hech qanday buyruqni kuta olmaydi, nazoratchi odamgarchilik yuzasidan oilasiga rahmi keladi-yu, bir kunga javob beradi.

Bularning bari o‘zboshimcha ish tutish, mensimaslik qurboniga aylanish, idoralarning o‘ziga xos ish yuritish xususiyatidan boshqa narsa emas.

Axir ko'pchilik kishi «choh»ga boy-badavlat kreditorlarning o'zboshimchaligi, qarzdordan achchiqlanish, to'lamagani uchun g'azabi qo'zigani tufayli o'tirgan edi. Kreditor ahmoq bo'lib qolib, pulini yo'qotganligi tufayli emasdi, aslo. Yoki bu ish yo'lida xalaqit bergan raqobatchini olib tashlash maqsadida qilingan bo'lardi.

Kreditor qahr-g'azab bilan farmoyishga imzo qo'yar va har oy besh so'm sakson tiyindan ozuqasiga to'lar edi.

Moskvalik boy-badavlat savdogarlar orasida bunday qasoskorlar ko'p edi, buning isboti «qarzdor bo'limi»ning mavjudligi edi, unda deyarli doimo o'ttiz kishi o'tirar edi.





«OLSUFYEV QAL'ASI»

Bryusov tor ko'chasi qarshisida, Tverskiyda yetmishinchi va sakkizinchi yillarning boshida deyarli general-gubernator saroyining yonida Olsufyevlarning katta uyi turardi. U uch qavatdan iborat bo'lib, har qavatning yerto'lalari bor, ularda do'konlar va vino yerto'lalari joylashgan edi. Do'kon va yerto'lalarda ikkita chiqish eshigi bo'lib, biri ko'chaga, ikkinchisi esa hovliga boshlar edi. Ikki oraliqda savdolashardilar.

Yerto'lalarda orqa eshikdan tun bo'yi savdo qilinardi. O'ziga xos me'morchilikka asoslangan bu uy o'sha vaqtda qoramtir tusga bo'yalgan edi. Ulkan, baland derazalarning qandaydir turtib chiqqan joylari bor, ichkariga kirgan sayin baland cho'yan panjaralar, zinapoyalar orqali uyga kirilardi. Podyezdlar va vestibyullar yo'q.

Uyning o'rtasida hamma yog'i berk darvozalar bo'lib, kechayu kunduz baland bo'yli norg'ul, sog'lom qorovullar navbatchilik qilishardi. Savdo muassasalari peshlavhalari bilan jihozlangan ichkari tomon risoladagidek edi. Binoning birinchi va ikkinchi qavatlarida ulkan derazalar hashamat bilan jihozlangan do'konlarda yaraqlar edi. Bu yerda Orlovaning modaga mansub sartaroshxonasi, Ovcharenkoning fotosurat ishlaydigan ustaxonasi, Vozdvijenskiyning tikuvchilik xonasi joylashgandi. Yuqori qavatlar ikkita bo'lib, ular ilgari Chernishev va Kalininalarning mebellari bilan jihozlangan, shuning uchun «Chernishevalar» deb nomlangan edi.

1876-yilda bu yerda, to'rtinchi qavatda hali yosh bo'lgan Maliy teatri aktyori M.V. Lentovskiy nochor ahvolda yashagan. O'shanda faqat ikki deraza bo'lib, pol bilan deyarli baravar edi. Ular hovliga qaragan, bor-yo'g'i – bitta palto, gitara va bo'sh shishalardan iborat edi.

Hovlidagi qirq beshinchi raqamli kvartirada uy qo'riqchisi ancha vaqtdan beri yashardi. Bu politsiya nazoratchisi Karasev bo'lib, sobiq

mirshablardan edi. Karasev general-gubernator knyaz V.A. Dolgorukovning sevimli odami bo'lib, sira ajralmas, uning turli-tuman shaxsiy topshiriqlarini bajarar edi. Politsiya knyazdan ko'ra Karasevdan ko'proq qo'rqr, shu bois Olsufyev uyida nimaiki qilinsa, sira tumshug'ini tiqmasdi.

Uyning egasi iste'fodagi shtabs-kapitan Dm.L. Olsufyev bo'lib, graf Olsufyevga hech qanday aloqasi yo'q edi. U bu yerda yashamas, uyni esa sobiq qorovul, Karasevning qardron do'sti boshqarar, undan va ijarada turuvchilardan, savdo muassasa egalaridan katta miqdorda pullar olib turardi. Ammo bu tashqi korpus uy sohiblariga asosiy daromadni bermasdi.

Bir umr yopiq turadigan darvozalar ortida nihoyatda keng-mo'l hovli bo'lib, ichki tomonida qator xilvat binolar ko'zga tashlanardi. Yer ostiga ketgan zinapoyalarni ko'rib dahshatga tushasan, ular yerto'la qavatlariga, derazalariga temir panjara urilgan joyga olib borardi.

Hovlining o'rtasida nihoyatda katta qo'shimcha imorat qurilgan bo'lib, yon tomonidan oshib o'tish mumkin bo'lgan devor yo'q. Bir so'z bilan aytganda, kirish faqat qo'riqlanadigan ko'cha eshigi tomonidan edi.

U yerdagi odamlar esa bir yarim mingdan ortiq. Uy uning egasi nomi bilan «Olsufyev qal'asi» deyilardi. Rutubatli hovlida joylashgan qo'shimcha xonalarda yuzlab kvartira va xonalar bo'lib, turli-tuman imkoniyatlarga boy ustaxonalardan iborat edi. Hovlida besh kun jimjitlik hukm surar, yakshanba va dushanba kuni hamma mast-alast bo'lib, to'polon, janjal ko'tarar, garmon tovushlari, qo'shiq, mushtlashish, yuzlab yarim-yalang'och o'quvchi bolalar, go'daklar yig'isig'isi, baqir-chaqir ovozi eshitiladi, ustalar tomonidan hech qanday sababsiz kaltaklangan shogirdlar so'kinadi, vaholanki bu ustalarning o'zlari ham bir paytlar shogird bo'lishgan.

Katta hovlida ko'cha tomondan hech nima ko'rinmaydi va eshiltimaydi. Darvoza yopiq, faqat ozoda kiyingan kvartirantlar eshikcha oldiga kelib, ichkariga kirib o'tishardi. Qolganlar bir umr qal'ada qolaveradi.

«Ustalar» bu ulkan mulkni egallab, joylashib olishgan, mahalliy hunarmandlarning deyarli yarmi tikuvchilardan iborat. Tikuvchilarning teng yarmi uysiz-joysiz aroqxo'rlar, eng kerakli, eng arzon hamda himoyasiz ishlovchilardan iborat edi.

Aroqxo'rlik bu yerda xo'jayinlarning o'zi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi: mazkur joyga xuddi parchinlab qo'yilganday. Oyoqyalang, yalang'och holda qayerga ham borib bo'ladi? Darbon ham bu ahvolda ko'chaga qo'yib yubormaydi, shikoyat qiladigan odami ham yo'q.

Bu odamlarning umumiy nomi «sho'rpeşonalar» edi. Va bu «sho'rpeşonalar» yillar davomida o'z uyalarida yarim yalang'och, oyoqyalang holda faqat hovliga chiqish uchun umumiy yirtiq-sirtiq etikka ega bo'lib, bir juldur ko'ylakni egniga tashlab turardi, xolos. Har birining orzusi – traktirga borishdan iborat, qo'lga kiritadigan yutug'i – hammom. Bayram arafasida bozordan arzon-garov movutdan tikilgan ko'ylak xarid qilib, eski yirtilib ketgan, ijaraga olingan ishtonlarni kiyganlarida, serjahl qorovul ularni temir darvozalardan chiqarib yuborar, bu aynan Bryusov tor ko'chasi ro'parasida, Strelsov hammomi qarshisida edi. Ular egnidagi juldur kiyim-kechaklarni yechib tashlar, bug'langach, toza-ozoda bo'lgach, ancha yengillashib, o'sha yerda bir tiyinga sochlarini oldirishardi. So'ng hammom bilan yonma-yon Kosourov traktiriga borishar, u yerdan hushyor o'rtoqlari hamrohligida tunda «qal'a» darvozalaridan ichkari kirib, g'oyib bo'lishardi.

Hunarmandlar begim kunlari ishni ertalab soat olti-yettida boshlab, kechasi o'nda tugatishadi. Tikuvchi Vozdvijenskiy ustaxonasida ellik kishi ishlaydi. Uylanganlar oilasi bilan hovlidagi kvartiralarda istiqomat qiladi; bo'ydoq shogird bolalar ustaxonada tunab qolishar, polda ham uxlayverishar, ularda hech qanaqa to'shak bo'lmas, boshlari tagiga yog'och kunda yoki hali yechmagan bo'lsa, ishtonini dumaloq qilib qo'yishardi.

Ertalab soat oltida bir chelak suv ketadigan samovar qaynaydi. Ularni oldindan tayinlagan shogird bolalar qaynatadi, bechoralar hammadan oldin turishi va hammadan keyin uxlashi shart.

Har bir kishining o'z chashkasi yoki birorta oddiy banka bo'ladi. Choy xo'jayin hisobidan, non va shakar o'zidan, ammo bu hamma-da ham topilavermaydi. Ayrim ustaxonalarda shogird bolalarga choy yiliga ikki marta – Rojdestvo va Pasxa bayramida bir krujkadan beriladi, xolos:

– Sho'xlik qilib qo'yishmasin.

Katta bayramlarda haftalab ichib, bosh og'rig'iga ham sipqorgan paytda ishda deyarli qip-yalang'och o'tirishadi, chunki bitta-yu bitta

ko'ylagini traktirga topshirib, bir parcha lattaga «uyat joyini yashirish uchun» almashtirgan bo'ladi.

Qaynoq suvni ertalab soat yettida bir stakandan quyishadi, boshqa idish bo'lmaydi. Stakanlar muz ustida turadi, yonida esa ulkan mis choynakni qaynatib damlangan holda uning yoniga qo'yishadi. Sachratqi o'ti damlanadi. Oshpaz ayol (ustaxonalarda ularni «beka» deydilar) hammaga bir bo'lakdan ushatilgan qand va qirqib qo'yilgan qora non berib chiqadi. Idish-tovoqlarni bolalar yig'ishtiradi. Tushlik paytida ham o'g'il bolalar xizmat qiladi. Bunday hol butun Moskvaga xos: katta ustaxonalarda ham, yakka-yakka joylarda ham aynan shunday.

Ustalar ishini qo'yib, qanday o'tirib ishlagan bo'lsa, shunday joylashib o'tiradi. Hamma chashka atrofida oyoq-qo'lini bir joyga yig'ib, biror kishiga joy yetmay qolsa, tik turgancha shogirdlar bilan katta yog'och qoshiqlarda karam sho'rvani ichadi.

Tushlikni shoshmasdan adog'iga yetkazadilar. «Beka» bir necha marta karam sho'rva quyib beradi, keyin chashkaga mol go'shti bo'laklarini soladi, ustalardan kattasi qoshiq bilan chashka chetini taqillatadi. Bu odam tiliga tarjima qilinsa, «Hammaga tarqatib chiq», – degan ma'noni anglatadi.

Shundan keyin har bir kishi ohista, ketma-ket qoshiq bilan bir bo'lakdan go'sht oladi, bordi-yu, ikki bo'lak olsa, katta ustadan boshiga qoshiq kelib tegishini yaxshi biladi. Indamay, miq etmay tanovul qilishadi. Har bir yutumdan keyin qoshiqni qo'yishadi, so'ng go'sht va nonni yaxshilab chaynab, ikkinchisini botirib olishadi. Bo'tqa doimo grechkali, eritilgan moy bilan tayyorlanadi, ro'za kunlari ishlar xursandchilik bilan o'tadi: bu yerda angrayib qolma, aks holda uni ololmay qolasan: idish tubiga qoshiq tegib taqillaydi.

Tushlikdan keyin shogird bolalar idish-tovoqlarni yig'ishtirib, stol ustini artishadi, tikuvchilar darhol ishga o'tiradilar. Belgilangan kiyimni tikkach, ustalar egnida libosi bo'lgani bois traktirga choy ichgani boradi, shundan keyin qolganlar beka beradigan ikkinchi choyni ichadi, so'ng kech soat oltida ichib, yarim soatdan so'ng yana ishda, soat to'qqizga qadar o'tiradilar.

Soat to'qqizda kechki ovqat takrorlanadi. «Kemtiklar» deb besholtita kichkina ishchi va bir necha shogirdni o'z ichiga olgan muassasani aytishadi. Bolalar mehnati deyarli tekis. Lekin bu yerda ular-

ga og'ir: suv keltir, o'tin yor, do'konga non uchun chop, bir tiyinga piyoz olib kelishga yugur, goh tuz yoki kun bo'yi posilkaga yugur, boz ustiga xo'jayinning bolalariga enagalik qil! Hammadan erta tur, hammadan keyin yot! Va hokazo...

Bir zum o'ynash, boshqa bolalar bilan tanishishga bir daqiqa ham yo'q. «Olsufyevka»da odam ko'p bo'lgani bois har holda bolalar xursandchilik qilishadi, ammo o'sha yerdan ham qochib ketishadi. So'ng ko'chalarda kissavurlar bilan tanishadilar-u Xitrovkaga tushib qolishadi, xilvat joylar jabrdiydasiga aylanib, qamoqxonalarga yuboriladi...

Ustalardan tashqari, bu yerda qurilish ishlari bo'yicha pudratchilar kvartiralar va o'z artellariga ega: bular duradgorlar, tosh teruvchilar, bo'yoqchilar, suvoqchilardan iborat. Moskvada ularni «suvoqlar» deb atashadi. O'ndan ortiq tikuvchilik, bichuvchilik, to'quvchilik, kir yuvuvchilik ustaxonalari bor. Bular sokin va shinam, top-toza kvartiralar bo'lib, usta ayollar va shogird qizlar tiqilib ketgan. Shogird qizlar usta darajasiga yetguncha oyoqyalang yurishadi. Ularni ham xuddi o'g'il bolalar kabi qishloqlardan olib kelib, shogirdlikka berishar, to'rt-besh oy maoshsiz ishlar, so'ng biror joyga biritishardi. Shogirdlik muddatini o'tagach, ustaga aylanishadi, shogirdlar bilan birga o'zlarining egalari uyida yashab, arzimas tangaga ter to'kadilar. Ayrimlari oila quradi.

«Olsufyev»da avlod-avlod bo'lib yashaydilar. Hamma o'zaro tanish bo'lib, mutaxassisligi va xulq-atvori jihatidan ajralib turadi. Aroxo'rlar (ular «ustalar» orasida unchalik ko'p emas) hushyor oilalar uylarida qabul qilinmaydi. Hovli hamisha bolalar shovqini bilan to'lgan, ularni ustalarga shogirdlikka bermaguncha maktab to'g'risida o'ylamaydilar ham. Kichkinalar o'qimaydi, o'smirlarning esa shogirdlikka berilgandan keyin o'qishga vaqt qayoqda! Bekalarning voyaga yetgan qizlari va yosh ustoz qizlar murabbiylikka o'tgach, o'smir o'g'il bolalar maosh oladi, ammo oila qurib, avlodlar o'stirishga kirishadi – «Olsufyev»dagilarning ko'pchiligi qarindosh-urug'lardan iborat.

Ko'pgina oilalar yashaydigan kvartiralarda kechki ziyofatlar uyushtiriladi. Bunday oddiy xursandchiliklar orasida umumiy aroxo'rlik holatlari kam uchraydi. Avjiga chiqqan aroxo'rlik odatlari, asosan, Maslenitsa va Avliyo-anbiyolar kunida ro'y beradi. An'anaviy maskarad libosi, «echki», baraban va «ayiq» bilan, ya'ni po'stinni teskari kiyib, uyma-uy yuradilar. Uni zanjirga bog'lagan boshlovchi bobo

iyagiga somon poyasidan soqol taqqan bo'ladi va bolalarning daladan qanday qilib somon o'g'irlagani, xo'jayin qay tarzda raqsga tushgani, aslzoda aroq ichgani va mast holda g'alva ko'targanini ko'rsatib beradi. «Ayiq»qa, albatta, aroq keltirishar, u ikki-uch xonadonga kirgandan keyin mastlikdan somon ustiga ag'darilib tushar, bordi-yu to'polon ko'tarsa, qorovullar uni yerto'laga jo'natishardi.

«Olsufyev»da oddiy, kamtarona tirikchilik qiladigan yoshlar aql-idrok, qalbga ta'sir qiladigan vositalar – gazeta, jurnal yoki biror musiqa asbobi bilan mutlaqo shug'ullanmaydi. Gagarin saroyining ikkinchi qavati ko'cha tomonga qaragan bo'lib, uchta aslzoda kvartirani o'z ichiga olgan hovlida hukm surgan haddan ziyod qashshoqlik va muhtojlikka nisbatan butunlay qarama-qarshi. Bu yerdagi ballarda yangraydigan musiqa tovushlari orqa tomondagi mast-alast baqir-chaqirlardan iborat ovozlarni butunlay bosib ketadi.

Qo'shimcha qurilgan oilaviy kvartiralarda yoshlar uchun birdan-bir xursandchilik yo'li – raqsdan iborat. Ha, faqat raqsga tushganda, juft-juft bo'lib o'ynaganda kadril musiqasi chalinadi. Ba'zan musiqasiz ham raqs bo'laveradi.

Bayram kunlari aksariyat erkaklar oiladan bo'lak ravishda traktir va pivoxonalarga ketganida, shogird bolalar keng-mo'l hovlida o'yin bilan mashg'ul bo'ladi, uyda esa ayollar qolishadi. Shunda yoshlar bir uyda to'planib, goh choy ichishadi, yong'oq chaqishadi, goh arzon pryantik yoki kungaboqar pistasi bilan band bo'lishadi.

Suhbat tor doirada o'zlari shug'ullanadigan sohaga oid va ko'pincha g'iybatlardan iborat. Yoshlar asta-sekin esnay boshlaydi. Gagarin saroyidagi ikkinchi qavatning ochiq derazasidan musiqa tovushlari eshitiladi.

– Nima qilib o'tiribsizlar? U yerda allaqachon boshlandi-ku!.. Yuzlari xursandchilikdan yorishgan top-toza kiyingan yigitlar chiroyli yasangan boy oyimqizlarni taklif qilishadi:

– Sizni kadril musiqasiga raqsga taklif qilishga ruxsat bering!

Bir lahzada choy ichiladigan stol chekka burchakka suriladi, yoshi o'tgan onalar va xolalar devor yonida tizilib o'tirishadi, oltita juftlik top-toza yangi bo'yalgan pol o'rtasida saf tortadi. Raqsga tushadiganlar kuylab yuborishadi:

*Bog'dami, bog'chadami,
Qizgina sayr qilar...*

Hamma tobora ovozini ko'tarar, shu qo'shiq kuyi ostida dastlabki uch juftlik dunyoga mashhur raqsga maqom tushadi. To'rtinchi, beshinchi juftlik esa:

*Qiz suv uchun yo'lga tushar,
Sovuq esa zabtiga olar,*

– degan xonish ostida raqsga tushib aylanadi.

«Olsufyevka»da yashaydigan duradgorlar, tosh teruvchilar va bo'yoqchilar arteli odamlari ikki bayram – yozgi Petrov kuni va kuzgi Pokrov ayyomida ayniqsa, ko'proq raqsga tushadilar. Ishchilarni yollash Petrov kunidan Pokrovgacha, ya'ni 29-iyundan to 1-oktabrgacha o'tkaziladi.

Petrov kunida hovlida, kvartira oldida, agar yomg'ir bo'lsa, kvartira ichida ertalabdan stol tuzatilar, unda chorak bug'doy arog'i, seld balig'i, bodringlar, kolbasa va non qo'yiladi. Birinchi qadahni artel xo'jayini ko'taradi, keyin hamma skameykalarga o'tirib, ichadi, gazak qilishadi, shu yerning o'zidayoq «mast-alastona» ishlar bo'yicha xo'jayin bilan til uchida shartnomalar tuzishadi va bu so'zlar notarial shartnomadan ko'ra ishonchliroq bo'ladi.

Qachon ichib, aljib qolishsa, o'jarlik qilishadi:

– Andrey Maksimov, menga bu hafta qancha berasan? – past ovozda murojaat qiladi duradgor xo'jayinga.

– Istasang, eskicha yashayver, istamasang, keragi yo'q, qishloqqa ketaver! – deydi xuddi qisqichbaqa kabi qip-qizil xo'jayin.

– Sen esa qo'shgin! Bo'lmasa hisob-kitob qilib, javob bergin!

– Xohishing! Hoziroq olgin-u, paysalga solmay ketaver!

Baqiradi, qichqiradi, savdolashadi butun tun bo'yi yoqalashib chiqadi...

Bir kundan keyin artel xo'jayinning qo'lida qoladi.

Bu Pyotr kuni – boshqacha kiyintirish kuni.

Tikuvchilar, to'r to'quvchilar, etikdo'zlar, yashik yasovchilarning ham o'ziga xos bayrami – «o'tirib qolish» bor.

Bu sakkizinchi sentabr edi. Bu yerda ham aynan o'shanday aroqxo'rlik, o'shanday yerto'lada o'tirib, tunni o'tkazish, chunki to'polon ko'targani uchun oyoq-qo'lini bog'lab, o'sha joyga qamab qo'yishgan. Ertasi kuni esa soat to'qqizgacha ish.

«O'tirish»dan so'ng olov bilan.

Tikuvchilarda «o'tirib qolish» ikki kun davom etadi. 9-sentabr kech soat yettiga qadar hamma o'tiradi, oyoqni yig'ishtirib, chordona qurib, dastgohlar ustida, yoritilgan chiroq atrofida. Yana yonib turaversa, xuddi tikayotganday ko'rinib o'tirishadi.

Bola esa eshik yonida qorovullik qiladi.

– Kelishyapti!

Tikuvchilardan birortasi olovni mumkin bo'lganicha ko'taradi.

Xo'jayin kiradi.

– Nima uchun bunchalik qorong'ida o'tiribsizlar?

– Kerosin yonmayapti!

– Nega birdan yonmaydigan bo'lib qoldi?

– O'zingiz bilasiz, albatta! Chiroqlar sizniki-ku!..

– Shunday! Bo'lmasa yonishi uchun nimadir qilish kerak!

Va tirqishdan chorakta hamda gazak tashlaydi.

Olovni ko'tarishadi.

Bir soat o'tgach, chorakta ichib tugatiladi va yana o'tni ko'taradilar. O'tiradilar, hamma jim qotgan. Bolani bosh tikuvchiga jo'natishadi – u yerda ham xuddi shunday gap-gashtak, o'sha suhbat, boshqa kuni esa – yana hamma ishga.

O'tiradilar, oyoqlarda chordona qurib, qo'llar bosh og'rig'i hamda sovuqdan burishib qaqshab qolgan.

Yozgi ta'tillar tugadi. «O'tirish»lardan so'ng qishki xursandchilik, dam olishdan mahrum krepostnoy hayoti «Olsufyevka»da boshlanadi. Shunday ekan, hatto traktirga ham chiqa olmaysan!





PITER BO'YLAB

Men vokzal tomon yo'l olib, tramvaydan tushganimda, bir yosh yigit to'xtatdi.

– Kechirasiz, men Moskvaga birinchi marta keldim. Studentman. Meni bir savol qiziqtiradi. Nima uchun stansiya bo'm-bo'sh Sadovaya maydonida joylashgan-u, «Zafar darvozasi» deb yuritiladi? Bu esa «Tver zastavasi» deb ataladi, vaholanki ro'paramda butun ulug'vorligi bilan «Zafar darvozasi» qad ko'tarib turibdi... So'ng anovi ikkita kichkina uy yonidagi ustunlar nimaga kerak?

Men unga bu Tverskiyning adog'i ekanligi, darvoza esa yuz yil muqaddam 1812-yil xotirasiga bag'ishlab qurilgani, ammo Sadovayada bir paytlar yana yog'ochdan Zafar darvozalari barpo etilgani, biroq u bir yuz ellik yil oldin buzilib ketgan-u, joy nomlari saqlanib qolganini tushuntirdim.

Bu ikki uyda qadimda qurilgan, o'sha paytda hali temir yo'li qurilmagandi, zastavalar bor edi va kordegardey deb yuritilgan, chunki unga harbiy qorovul, binolar o'rtasida shlagbaum turgan va hokazo, deb tushuntirdim.

Student menga minnatdorchilik bildirdi va gazetasida yozishi, ma'ruza qilajagi, klubda ularning bari Moskva bilan qiziqayotgani, chunki bu shahar dunyoda birinchi o'rinda ekanligini aytdi.

Uning so'zlari meni qiziqtirib qo'ydi. Hayotimda yarim asr Moskvada shu darvozalar orasidan ming martalab dastlab foytunda, keyin tramvayda, so'ng uning yonidan ekipajda piyoda holda goh u yoqqa, goh bu yoqqa o'tganman, shu vaqt mobaynida hammasi haqida o'ylaganman-u, ammo buni o'ylash xayolimga ham kelmagan. Hatto ajoyib otlar guruhi va qo'liga gulchambar ko'targan haykal e'tiborimni tortmagan, unga qaramagan ham ekanman – bu qanaqa qiyofa, deb o'ylamabman. Faqat u haqda eshitganimni esladim: butun Moskvada

faqat ikki hushyor kucher bor – biri bu yerda, boshqasi Bolshoy teatrning peshtoqida deyishgan edi. Faqat u kucher emas, balki tub aholining aytishiga qaraganda, «g'ujanak bo'lib turgan ayol» edi.

Boshimni ko'tarib qaradim-u, nihoyat uning «shon-sharaf ilohasi» ekanligi va lavr gulchambarini qo'lda tutganini angladim.

Aynan shunday ikki g'ildirakli jang aravasida Bolshoy teatrda boshqa «kucher» qo'lida lira tutgan – Apollon turardi. Ikkala guruh ham bir turda bo'lib, bir-biriga o'xshar, chunki darvozada ham, Bolshoy teatrda ham me'mor Bove ularni bir vaqtning o'zida, o'tgan asrning yigirmanchi yillarida qurgan edi.

Qorovulxona uychalarida men yashagan paytlarimda shahar idoralari joylashgan, goh politsiya qo'riqchilari, goh hurmatga sazovor nogironlar, goh ayvonchalarga qator bo'lib, ustunlar ostiga burnaki tamakilarni sinab ko'rish uchun havaskorlar to'planishardi.

Keyin uychalardan shahar ambulatoriyasi joy oldi, boshqasida feldsherlar navbatchiligi hamda atrof uylari xizmatchilari o'rnashdi. Darvozaning o'ng tomonida yengil temir zinapoya ostida, bir zamonlar tom ustiga chiqish uchun qilingan narvon tagida «sovuq etikdo'zlar» kelishgandi. Ular Moskvaga Tverskiy gubernyasidan «temir oyoqlar»da tashrif buyurishgan, poyafzallarni tez, arzon va yaxshi tuzatishardi. Ular bu yerda soat o'ngacha ishlar, mijozlari devor tagida bir oyoqda, ikkinchisini ko'tarib, tuzatib bo'lguncha turishardi. Bu manzarani yaxshi eslab qolganman, chunki har safar o'tayotganimda ham, qaytayotganimda ham ko'rardim. Va nima uchun birorta rassom Moskvaning bu tirik burchagini polotnoda aks ettirmadi, deb o'ylab qolaman!

Darvoza ostida 1881-yili foytun yura boshladi.

Ilgari bu darvoza yonidan maishatparastlarning qimmatbaho otlar qo'shilgan aravalari kecha-yu kunduz poyga va chopish musobaqalarida ketma-ket yugurgan kabi shahar tashqarisidagi restoranlarda, sayrtomoshalarda «yechkin», «uxar» deb nomlangan, uchta ot qo'shilgan uchliklarda surnay va turli-tuman musiqa sadolari ostida xunukdan xunuk liboslar kiyib, boshlariga baxmal tusli shapkalarni qo'ndirib, suron solishardi. Aftidan, krepostnoy huquq bekor qilingandan keyin etakka tikiladigan to'r ham esdan chiqqan: dvoryan va pomeschchiklar «oyoqqa turgan», kucherlar ham, otlarni aravaga ketma-ket qo'shish odati ham barham topgan edi.

Krepostnoy huquq bekor qilingandan keyin aslzodalarning, hatto aravalari ham g'oyib bo'ldi, ularning kazak aravakashlari va darozgayduklar arava orqasidagi joylaridan mahrum bo'lishdi.

Moskva ko'chalarini bu paytda allaqachon tosh to'shamalari bilan qoplandi va ular ustida reszorlari baland izvoshlarda sakrab-sakrab yuradigan bo'lishdi, bunday deyilishining sabablari shundaki, o'tirganlar xuddi isitmada qolgan kabi qaltirar edilar.

Krepostnoylik bekor qilingandan so'ng Moskva ko'chalaridan ekipajlar butunlay yo'qoldi, ular rasmiy ravishda «dafn marosimining ikki g'ildirakli aravasi» deyiladigan, oddiy muomalada «fortunka», deb yuritiladigan bo'ldi.

– Biror falokatga duch kelsang, seni «fortunka»ga ortib, Iverskiy ortiga olib borishadi.

Va Tverskiy bo'ylab usti yopiq hovlidan xuddi qarg'a kabi qopqora arava qora ustun o'ratilgan holda yo'lga tushadi. Ustida o'rindiq o'rnatilgan, orqa tomoni otga o'girilgan, temir zanjir bilan ustunga bog'langan, qora xalat, xuddi shunday soyabonsiz shapka kiygan, jazoga hukm qilingan jinoyatchi o'tirardi. Uning bo'yniga yirik harflarda bo'rda butun jinoiy ishlari yozilgan qora taxtachasi osilgan: qarqochi, qotil, o't qo'yuvchi va hokazo. Jinoyatchini qamoqxonadan asosiy ko'chalar bo'ylab Qizil Maydon orqali Moskva-reka ortidan ot zavodiga eltishardi. O'sha yerda oltmishinchi yillarda jinoyatchilarni qamchi bilan urib, jazolardilar. Agar jinoyatchi dvoryanin bo'lsa, qizil ko'ylak kiygan jallog uning tepasida qilich sindirardi, barcha amalmartabalar, orden va dvoryanlik rutbasidan mahrum etilardi.

Fortunkani ko'rmadim, volanlar ham o'tmadi. Oldingi krepostnoy dehqonlar o'rniga yangi boy-badavlat savdogarlar «beboshi taralabedod» yigitlar paydo bo'lishdi, ular sobiq krepostnoylari bo'lgan kishilarga taqlid qilishar, chunki bu odamlarga aql va kuchlari yetardi. Mana endi olifta izvoshchilarni yana ikki barobar ingichka namat bilan urishga to'g'ri keldi, chunki Pironidan olingan echki terisidan tikilgan etikka nisbatan aslzodalar kiygan chet el etiklari og'ir edi.

1881-yilni eslayman. Zafar darvozasi yonida qandaydir repetitsiya o'tayotgandi, katta to'daga ko'zim tushdi. Hamma boshini tebratib, shovqin-suron solardi.

Ot ustida qo'lida aroq shishasi ko'targan bir kishi o'tirardi. U baqirib qo'shiq aytardi. Darvoza oldidagi shinam mundirli pristavning

qoni qaynagan, jig'ibiyron. U mushtini osmonga do'laytirib, tahdid qilib baqirar edi.

– Tush, ablah!

Unga javoban:

– Nima uchun baqirasan? Aroq ichish uchun bu yoqqa chiq!.. – der edi.

Mening esimga Zafar darvozasidan boshqa biror yorqin xotira qolmadi. Bu so'zning nimadan iborat ekanligi, «Zafar darvozasi» nimaligini biror kishidan eshitmadim. Shunday bo'ladiki, izvoshchini yollaysan:

– Zafar darvozasiga.

– Zafar darvozasi deysizmi? Qaysiga? Eskisigami yoki yangisigami? O'zim moskvalik oddiy muomalaga o'rgangan edim, shu bois beixtiyor og'izdan so'z chiqib ketadi:

– «Zafar darvozasi», dedim-ku!

Va marhum artist Mixail Provich Sadovskiy, avlodidan avlodga o'tgan moskvalik bo'lib, moskvacha lahjaga taqlid qilishni yaxshi ko'rardi, aks holda:

– Eski truxmalik. Aglitskiy klubi, – demagan bo'lardi.

Palashev tor ko'chasida, saksoninchi yillarda, hammom bilan yonma-yon mo'jaz sabzavot do'koni bor edi. Unda ko'p yil xalq qo'shiqlari muallifi, xalq shoiri I.A. Razorenov savdo qilgan. Aytganday, «Mening bo'ynimga, onaginam, qizil sarafan kiydirma» qo'shig'i unga tegishli edi. Razorenovning do'sti Surikov bo'lgan. Uning oldiga moskvalik ko'p shoirlar kelishardi. Peterburgdan A.N. Plesheyev, S.V. Kruglov ham uning huzuriga kelishgan. Men bir oz vaqt «Angliya» mehmonxonasida yashadim va uning huzuriga har kuni borardim. Sovg'a sifatida «Yevgeniy Onegin davomi» deb yozilgan, uncha yomon bo'lmagan she'rlardan iborat kitobchani oldim. Bu baland bo'yli, ulkan gavdali chol bo'lib, Pushkinning deyarli barcha asarlarini yoddan bilardi. «Yevgeniy Onegin»ni to'liq bilar va tez-tez iqtibos keltirardi. Uning bo'yi biroz baland, soch-soqoliga oq oralagan, kumush tusli bir tutam jingalak sochi peshanasiga tushib turar, kuchi mislsiz darajada ko'p edi. Nomi Yermolay bo'lib, yoshligida dovyurak bo'lgani uchun Yermak deb atashgan. O'sha paytda Sadovaya va Tverskiy zastavasi hali Yamskiy slobodasi deb yuritilgan. Yermakning ota-bobolari qadim-qadim zamonlardan aravakash

bo'lishgan. Napoleon Tver zastavasi orqali Moskvadan qochganida, ularning uylari yonib ketgan. Yermak bu uyni yaxshi eslab qolgan va mening iltimosimga ko'ra o'tmishi to'g'risida gapirib berayotganida, Razorenov shu zahoti «Onegin»dan Napoleon Petrovsk qal'asiga qanday yashiringanini iqtibos qilib keltirgan edi:

*Qishloqdan uzoq o'yga tolgan u,
Dahshat alangasiga tikilgan edi.*

Men shu do'stimning xotira-hikoyalari Tverskiy zastavasi o'tmishini eslaganimda o'zimcha ifodalagan edim.

Harakat ko'p edi, ayniqsa qish fasli boshida pomeshchiklar qishni Moskvada o'tkazish uchun kelishardi. Boy-badavlat pomeshchiklarning uxlab ketishiga mos aravalari yuk tashish bilan band bo'lar, kambag'allar ham ularga ergashardi.

– Esingdami, Larina qanday qilib... – chol uning Moskvaga kelgani, bunga qanday tayyorgarlik ko'rganini asardan iqtiboslar bilan yoddan ayta boshlardi...

Men bu hikoyalarni eshitar ekanman, shlagbaum orqali o'tish uchun navbatini kutgan qatorlarni, u yoki bu o'tkinchini, martaba va amaliga ko'ra ruxsatnoma berilganini, qorovulxona ayvoni ostida turgan unterning shlagbaum nogironiga buyruq berganini eshitganday bo'ldim:

– Ko'tar!..

Nogiron shlagbaum zanjirini sharaqlatib ko'taradi. Ola-bula xoda «baland ko'tariladi» va yana yangisigacha pasayadi:

– Ko'tar!..

Mana, nihoyat Piter yo'li bo'ylab xat tashuvchining qo'ng'irog'i chalinadi – hamma harakatga keladi. Yo'lning o'ng tomoni bo'shatiladi, so'ng kuryer yoki feldegerning uchta ot qo'shilgan aravasi shiddat bilan yaqinlashadi. Nogiron «ko'tar!» degan buyruqni kutib turmaydi, xodani ko'taradi. Bu yoki feldeger, yoki kuryer, yoki davlat jinoyatchisini olib ketishayotganini yaxshi biladi...

Qolgan barcha Moskvaga yetmasdan qo'ng'iroqcha osishga majbur bo'lganini biladi.

Ayniqsa, uchta ot qo'shilgan arava Piterdan Sibir tomon uchardi. Mana Yermak ham maxsus xat tashuvchi uchlikda bormoqda. U

xat tashuvchilardan ko'p qamchi va xivich yegan, lekin suhbatda past ovozda xirgoyi qilardi:

*Balkonlar, sherlar darvoza,
Xochlar ila to'da jadallar.*

Tver yo'li manzaralarini ko'z oldiga keltirib, Razorenov qiziqib qoladi, Yermak esa qo'shig'ini davom ettiradi:

*Mana, mard uchlik jadallashar,
Qozon yo'li uzra borar uzoqlab.
Valdayning tuhfasi – qo'ng'iroqcha,
Ma'yus yoy ostida sekin jaranglar...*

Xuddi shu tarzda Nikolayev temir yo'li quriguncha u xat tashuvchi uchliklarni yo'llagan edi. Keyin Sadovaya va Vladimir o'rtasidagi birinchi stansiyada qaroqchilar Guslitsa manziliga yaqinlashardi.

O'tgan asrning birinchi yarmigacha Nikolayev temir yo'lida ahvol shunday edi. Nikolay I xarita ustiga chizg'ichni qo'ydi va Moskvadan Pitergacha qalam bilan to'g'ri chiziq tortdi.

– Chiziqdan chetga chiqilmasin, osaman!

Va to'g'ri yo'l qurilgan edi. Undan birinchi bo'lib mahbuslar o'tishdi. Dvoryan va savdogarlarning ko'pchiligi qo'rqib qolgandi.

– Iblislar g'ildiraklarni aylantiradi...

– Shayton uni sudrayapti!

– Bir burun kovagidan bug', boshqasidan olov ya tutun chiqadi.

Dastlabki paytda Piterning katta yo'lidan Sibirga surgun qilinganlarni tashigan edilar, keyin temir yo'ldan hamma qatnaydigan va vagonlarda mollar tashiladigan bo'ldi. Qorovulxona binosi yopildi. Bundan buyon «ko'tar!» deb baqirilmadi.

Invalidlar jimgina cho'kka tushib, tamaki chekishardi.

Razorenovning eslashiga qaraganda, Yamskaya sloboda¹ shaharga aylandi, keyin xuddi zastava kabi uni bekor qilishdi, qimmat deb hisoblashdi. Erkinlik bo'lguncha bu darvozalar orasidan krepostnoylarni savalash uchun qayin xipchinlardan, faqat krepostnoylarni emas, balki barcha «past tabaqadagi odamlar»ni jazolashda foydalanar edilar.

¹ Aholisi krepostnoy huquq bilan bog'lanmagan katta qishloq.

Krepostnoy huquq va tan jazosi bekor qilinguncha savalash odati saqlanib qoldi, keyin xivichlarni tashishni to'xtatishdi. Savalash Strastnoy va Maslenitsa (qishni kuzatish bayrami) ayyomlaridan tashqari har bir shanbada o'tkazilardi.

Podsholar shu Zafar darvozalari orqali toj kiyish marosimiga borar edilar.

1896-yilda Nikolay II ning toj kiyishi munosabati bilan Xodik maydonida katta xalq bayrami o'tkazildi. U yerda ilgari mashhur Butun Rossiya badiiy-sanoat ko'rgazmasi bo'lib o'tgan, lekin o'sha paytdagi Moskvaning tashqarisida o'tkazilgan edi. Zafar darvozalarida Xodinkada halok bo'lgan kishilarning jasadlarini aravalarda tashib o'tgan edilar.

– Falokatning o'zi! Bu podsholikdan hech qanday naf bo'lmaydi.

«Rus xabarnomalari»da mening Xodin falokati to'g'risida yozgan maqolamni terar ekan, kekxa harf teruvchi shunday degan edi. Uning so'zlariga hech kim javob bermadi. Hamma qo'rqib, indamay, jim qoldi va boshqa suhbatga o'tdilar.





KO‘Z O‘NGIMDA

Vokzal podyezdidan usti ochiq avtomobilga o‘tirdim. Birinchi ko‘rganim ulug‘vor Zafar darvozasi bo‘ldi.

Ularda hamon to‘rtta ot jang aravasiga qo‘shilgan, aynan o‘sha guldastani tik tutgan baland shon-sharaf haykali... Eslayman.

Biz shovqin-suron, g‘ala-g‘ovurga to‘la Tverskiy bo‘ylab yuramiz... Go‘zal ko‘prik sentabr quyoshi nurlari ostida bir zum yog‘ib o‘tgan yomg‘irdan so‘ng yarqirab ko‘rinadi. Yo‘laklar jadal yurib borayotgan xalq bilan to‘la.

Hamma shoshiladi – kimdir ishga, kimdir ish bilan xizmatga ketyapti, kimdir ishdan, yana kimdir xizmatdan qaytmoqda, ammo oldingidek ishtahasini qondirish uchun to‘yib ketib sayr qilib yurganlarni ko‘rmayman... Shunda: «Endi qorin non uchun chopadi, non qoringa chopmaydi», – deyilgani esga tushadi. Biz gudok berayotgan, qo‘ng‘iroq chalayotgan tramvaylar oqimi bo‘ylab, aravalar va o‘zining oxirgi kunini kutayotgan, sharti ketib, parti qolgan izvoshtar ortidan jadal ilgariylaymiz. Ko‘plab otlarda dubulg‘a yo‘q, xomut va yugan bor, xolos.

Barcha qatnovlar, beso‘naqay avtobuslarni, chaqqon taksilarni ortda qoldirib, quvib o‘tamiz.

To‘satdan Sadovaya ko‘chasida to‘xtaymiz. Butun ko‘cha to‘xtab, jimib qoladi. Harakat shovqini joyida qotadi. Piyoda omma shoshilganicha Tverskiy ko‘chasini kesib o‘tadi. Ekipajlar orasidan suqilib odimlaydi... Oldimizda esa ayni baland joyda olifanamo, ola-bula kaska kiygan militsioner qo‘lini ko‘targancha jim turadi.

Mana bu jonli semafor (yo‘lko‘rsatkich) oppoq qo‘lqop kiygan qo‘lini tushirdi, hamma oldinga qarab harakatlandi, hamma narsa birdan o‘ziga kelib, ovoz chiqardi, jarangladi. Moskva guldirab ketdi...

Biz Sadovayaga burildik. Uch daqiqalik bekatda ozroq to'xtadik, men xiyol vaqt ichida unchalik bo'lmasa-da, o'zimga keldim. Axir to'rt oy mobaynida ajoyib, tinch, xilvat o'rmonda yashagan edim-da: endi esa birdan qaynab turgan qozonga tushganday bo'ldim.

Biz chap tomonga, Sadovayaga qarab burildik.

Sadovaya. Yarim asr mobaynida bu joylarni ming martalab bo'yiga ham, ko'ndalangiga ham bosib o'tganman! Anchagina kezganman. Xotiramdan o'tmish manzaralari bir-bir o'tadi. Bu yerdan sekin odimlaymiz – ko'cha yuk mashinalari bilan to'lib ketgan. Birining ortidan ikkinchisi o'tayotgan tramvaylar orasidan zo'rg'a yo'rg'alab, yo'laklar bo'ylab yurayotgan izvoshchilar tomon intilamiz. O'tib ketish uchun kutish va kerakli fursatni poylash lozim.

Meni uzoq o'tmishga undagan omil, bu – ikki qavatli uy bo'lib, 1876-yilni eslatdi. Lekin uning ro'parasidagi kichkina bog'cha qani?

Yangi manzaralar daqiqama-daqiqa almashinib turadi. O'y-fikr va xotiralar ularning ortidan aslo ulgurmaydi. Mana endi yozar ekanman, o'tmishni mayda tafsilotlarigacha jonlantirish uchun vaqtim bor.

1876-yil aprelda sahnadosh do'stim qo'shiqchi Petrushka Molodsovni uchratib qoldim (u Bolshoy teatrdagi Toropkani kuylagan, keyin men bilan Tambovda xizmat qilgan). Meni amakisining ko'kimtir uyiga (kichik bog'chasi bor xonadonga) mehmondorchilikka olib bordi. Bog'chada echki tentirab yurar, shuningdek, gimnaziyaga tayyorlov sinfining ikki nafar o'quvchisi o'ynar edi.

Biz darvoza oldida to'xtab, o'yinlarini kuzatdik. Ular ipga bog'langan kumush tangani yo'lakka tashlab, o'zlari butalar tagiga yashiringancha kutishardi.

Biz ham kutdik. Mana, bir tomondan baqaloq savdogar, ikkinchi tomondan tilanchi kampir kela boshladi. Ularning ikkalasi ham kumush tangani ko'rib qoldi-yu, tezda tashlandi. Savdogar kampirni bir tomonga itarib yuborib, o'ljani olish uchun engashdi, lekin bolalar ipni tortishdi va tanga ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Savdogar lol qoldi.

– Bu ularning sevimli o'yini. Shu bilan kuladi ham, – dedi uning amakisi oppoq soqolli chol uyga kirganimizda.

Mana shu bog'cha endi yo'q, vaholanki uni o'tgan yili ko'rgan edim...

Endi yangi bo'yalgan uy oldida asfalt qilingan keng yo'lak yarqirab turar, tosh yotqizilgan ko'prik o'rnidagi yangi ko'prik tekis ko'rinardi. Ilgari Molodsov amaki yoshligida, qirqinchi yillarda Sadovaya qanday bo'lganini menga gapirib bergan edi.

– ...Uni tosh bilan hali barpo qilishmagan, balki xarilarni ko'ndalang qo'yishgandi. Kuchli sel paytida qalqib ketar, tikkayib turib qolib, so'ng ancha vaqt harakatini to'xtatib qolardi.

...Boy-badavlat amaldorlar, salobatli dvoryanlar baland, katta karetalarga uning buklama zinalar bilan eshiklarini ochib kirardilar. Orqa tomonida xizmatkorlar o'tiradigan o'rindiqa qayishni mahkam ushlaganicha ikki barvasta gayduk, ikki zar uqali xizmatkor har bir eshik oldidagi zinachada turardi. Ularning vazifasi podyezdga chopib borib, kelgan odam to'g'risida xabar qilish, loygarchilik paytida aslzoda va xonim afandini uy podyezdiga keltirishga gayduklarga yordam berishdan iborat. Kareta eng muhim ehtiyot qism – shesternyaga (tishli g'ildirakka) ega edi. Chap tomondagi oldingi otga fereytor (aravakash) o'tirar, oldinda yo'lni ko'zdan kechirish, tekshirish maqsadida otliq borardi: yurib bo'larmikan? Butun Sadovaya bo'ylab, mo'jaz bog'cha panjaralari yonida, yo'laklar o'rnida yog'och ko'prikchalar, uning ostida suv oqishi uchun ariqcha bo'lardi. Ayniqsa Samotechnaya va Suxarevskaya, Sadovayadan o'tib bo'lmas, ular Neglinka tomon pastga qiyalab ketardi.

Bu balandlikka chiqish uchun yuklarni sudragan aravakashlar sotatlab qiynalishardi. Ammo Sadovayaga borishda mahbuslar to'dasi asosiy dahshatni his qilardi. Mahbuslar Sibirga piyoda holda Rogoja zastavasidan boshlab, Vladimirka bo'ylab yo'lga tushardi. Ular Moskvadagi Butirka turmasidan ko'chirilib, Kichik Dmitrovka orqali Sadovaya orqali Rogojagacha borishardi. Sadovaya bo'ylab kun bo'yi ko'p – ba'zan kuniga ming va undan ham ortiq kirish yo'laklaridan miltiq ushlagan askarlar zanjiri orasidan o'tardi. To'daning bosh tomonida qo'llari va oyoqlariga kishanlar urilgan surgundagilar sariq movutdan tikilgan bushlatni yelkasiga tashlab, boshida soyabonsiz shapka kiygancha o'tar, shapka ostidan esa sochi qirilgan boshining yarmi ko'rinib turardi.

Ularning ortidan oyoqlariga kishan urilganlar temir zanjirga parchinlanib harakat qilar, birortasi o'nqir-cho'nqir joylarda yiqilib qolsa, yonidagining diqqatini tortar edi.

Mahbuslar olomoni tentirab borar, ortidan esa usti yopiq eski izvoshlar qatori yurar, ularda ozgina lash-lushlar to‘dalanib turar, unga ayollar, bolalar joylashib olgan, shu bilan birga kasal mahbuslar bolalari bilan birga edi. Eng qiyini kuchli jala, yomg‘ir paytida ro‘y berar, ko‘chani yuvib ketish chog‘ida mahbuslar to‘dasi soatlab ko‘prikka xarilarni to‘g‘rilaganlariga qadar kutib turar edilar.

– O‘n yillar davomida bu dahshatlarni ko‘rardik, – dedi qariya Molodsov. – Kishanlar jarangi ostida baxtsiz qismat, xayr-sadaqa berish to‘g‘risidagi qo‘shiqlarni eshitardik. Bu yerda bolalar usti yopiq izvoshlarda yig‘lar, onalar mahbuslar xalatiga o‘ralib, ularni ovutar, atrofdagi barcha odamlar bu badbaxtlarga bulka, teshikkulchalar berishardi... Kim iloji yetgan narsani berardi...

O‘tgan asrning birinchi yarmida Sadovaya ana shunday holatda edi. Men uni saksoninchi yillarda esladim, o‘shanda undan tomiga yomg‘ir yog‘ib, taraqlatgan foytun o‘tgan, otlar ustidan bug‘ ko‘tarilardi. Bu ko‘p o‘rinli uzun aravada o‘nlab yo‘lovchilar bir-biriga yelkalarini tirab, siqilib o‘tirishardi. Tepalik tomonga chiqish oldidan aravakash otlarni to‘xtatib, qichqirar edi:

– Tushinglar!

Va yo‘lovchilar tushib, piyoda yo‘lga tushishar, yomg‘ir ostida, loy bosib, balandlikka chiqishar, so‘ng yana o‘tirib, yangi do‘nglikka qadar borishar edi.

Tverskiydan to boqqa qadar rels yotqizib, unga konka qo‘yib, ot bilan tortganlarida, moskvaliklar qanchalik xursand bo‘lganini eslayman. Bu 1880-yilda ro‘y bergan edi. Keyin oradan ikki yil o‘tgach, bu yo‘l Sadovayaga qadar tortildi. Lekin Samotek va Suxarev tepaliklariga yetganda, endi «Tush!» – deb qichqirishmas, balki konkani to‘xtatishar, bir juft otning yoniga yana bir juft ot qo‘shar edilar!

Ularni «falatorlar» deb atashar, barcha-barcha tepalik tomon sakrar, otlarga qarab qichqirishar, ularga qamchi urishar, otlarning biqiniga etik poshnalari bilan tepar, egardan zo‘rg‘a tushardilar. Shunday voqealar bo‘lganki, «falator» otdan tushib ketardi. Ot ham sudralib qolar, so‘ng yiqilar, «falator»ning katta etigi yoki qish paytida valenkani otning ostidan chiqarib ololmaysan. Hech kim ularni yurishga o‘rgatmagan, qishloqdan to‘g‘ri keltirib, otga o‘tqazib qo‘yishgan-u, haydayver, deyishgan. Otlar ba‘zan do‘nglikka chiqishda qiynalgan, boqilmagani uchun oyog‘ini sindirib qo‘ygan hollar ham ro‘y bergan.

«Falator»lar Moskvada xuddi qalmoqlar Astraxan yoki Zaden cho'llarida faqat yakka otlar kabi yashab hayot kechirgan edilar. Ularning hayoti ham bir xilda kechgan edi: tong otgandan ot turgan hovlidan jo'nab ketar edilar. Chap qo'lda yugan, o'ng qo'l orqaga tashlangan, chunki qaysar, bo'ysunmas, ulkan valikni qalin arqonli shatak qayishga bog'lash lozim edi. Ular otga hamda vagonga bog'lanadi... Maydonga kelgan hamono birdan ishga kirishadi: tepalikka chiqish, so'ng yarim kechasi kelib, otxona hovlisida tunash kerak. Ko'pchiligi otxonada uxlardi. Otlarni maydonda sug'orishar, sharshara yonida o'zlari ham aynan o'sha paqirdan suv ichishardi. Chang buluti osmonga ko'tarilgan, ko'chalar, maydonlar tinmay changigan pallada ko'p suv ichishga to'g'ri kelardi. Qishda to'xtash joylarida to'ngib qolishar, do'ng tomonga ko'tarilishda birgalikda isinishardi.

Kuzgi yomg'irlar izg'irinlar bilan aralashib ketganda, ularning ahvoli otlarnikidan badtarroq bo'lardi. Egniga kiygan bushlatlari yomg'irda ivib, oralaridan suv o'tib ketar, muzlab taxtakachga aylanar, tizzalari xuddi fanerga o'xshab qolardi...

To'xtash joylarida otlar pichanlarni kursillatib yer, egalari esa nimaiki tushsa, tanovul qilib ketishar, eng yaxshisi, yebto'ymas xotlarning issiq joyda o'tirib ovqatlanishidan foydalanib, ul-bul narsa sotib olishar edi: bir tiyinga o'pka, ikki tiyinga yurak, uch tiyinga bir parcha jigar bo'lagini kesib berar edilar.

Har bir «falator»ning orzusi – aravakash bo'lguncha xizmat qilishdan iborat edi. Yomg'ir ostida, qishning izg'irin sovug'ida vagon tomi ostida pinakka ketgan kucherlarga hasad bilan qarashar, butunlay uxlab qolmaslik uchun tamakini shirin hidlashni o'ylardilar: vagon tebranar, otlar taq-taq yurib ketar, ko'chalar bo'm-bo'sh, hech kimni turtib yurolmaysan...

Konki yura boshlagan Strastniy maydonida Mixail Lvovich degan stansiya boshlig'i bo'lardi. U ashaddiy, uchiga chiqqan burnaki edi. Doimo katta tamaki zaxirasi bo'lar, chunki do'sti, zavod egasi Yaroslavdan yashiklab unga sovg'alar jo'natib turardi. To'xtash joyida unga kucherlar yugurib borar, kimdir qayin po'stlog'idan qilingan, kimdir tunuka tamakidonni olib...

– Mixail Lvovich, ozgina berarsan!

Hech kimni rad etmas edi. Mixail Lvovich inqilob paytida ham Rogoja stansiyasida xizmatni davom ettirgan edi. U tif kasalligidan vafot etdi.

Kucherlar hayotini «falatorlar» ham orzu qilishardi, ammo bu baxt kam kishilarga nasib etgan. Ularning aksariyati shikast topdi – yo‘l boshqarmasi hech qanday pensiyasiz qishloqqa jo‘natib yuborardi. Agar ish sudgacha borsa, u holda sud: «O‘zining ehtiyotsizligi oqibatida», – deb hukm chiqarardi. Ko‘pchiligi shamollashdan kasallanib, shifoxonalarda o‘lib ketdi.

Hozircha esa ertalab oltidan kechasi o‘n ikkigacha almashmasdilar, balandlikka sakrab chiqishar, pastga enishar, otga minib, vagonni kutishardi.

Sverchkovdan so‘ng eng yaxshi usta, rassom Semyon Semyonovich Voroshilov ko‘rgazmalaridan birida dirdov oti ustida mudroq bosgan ikki nafar foreytorlarning tasvirini qo‘ygan edi. Bu suratni rus, hatto chet el jurnallari ham chop etgan edi. Tagida shunday yozuv turardi:

*Ularni yomg‘ir yuvadi,
So‘ng esa chang qoplaydi.*

Vagonlar ikki qavatli: pastki va ustkisi birinchi qavatning tomi-da edi. U «imperial» deyilar, yo‘lovchilar «uch tiyinli imperialistlar» deyishardi. Pastki joy uchun yo‘lovchilar har stansiyada bir tiyindan haq to‘lardilar.

Imperialga vintlab mahkamlangan tor zinapoya olib chiqardi. Ayollarni u yerga qo‘yishmaydi. Duma komissiyasida imperialga ayollarni o‘tkazish masalasi qo‘zg‘algan edi. Hatto liberallardan biri «bu xotin-qizlar huquqini poymol qilish», deb ta‘kidlagandi. Masalani ovoz berish yo‘li bilan hal qilishga kelishildi. Komissiya a‘zolaridan biri, ukrainalik, rad etish to‘g‘risida fikrida mahkam turib, bu ovoz berish paytida:

– Axir ular butunlay ishtonsiz-ku! – deb yubordi.

Masalani umumiy xaxolash yo‘rig‘i ostida ovozga qo‘ymaslikka kelishildi.

* * *

Biz oldinga qarab yo‘l bosardik, men esa atrofga alanglab qarayman: «Mo‘jaz bog‘cha qayerda qoldi ekan?»

Ugolniy maydonida, Maliy Dmitrovka burchagida aravalarda sabzavot, o'tin va samovarga solinadigan ko'mir bilan savdo qilishar, xaridorlar «araplar» deb atalardi.

Ularning yonida hamisha iflos hovli bo'lib, maydon o'rtasidagi uy yangidan bo'yalgan edi. Bu yerda bir paytlar «Volna» traktiri bo'lib, firibgarlar, qalloblar va «ishbilarmon bolalar»ning makoni edi.

U 1905-yilda bu yerdan dastavval politsiyani, so'ng jandamlarni, undan keyin askarlarni o'qqa tutgan inqilobchilar tomonidan band qilingandi. «Volna»ni ancha vaqt davomida olisholmadi. Nihoyat, yarim tunda katta otryad zambarak bilan keldi. Uyni granata bilan portlatib egallashga to'g'ri keldi. Traktirda o't charaqlab yonardi. Askarlar uyni o'rab olishdi, o'q otishga tayyorlanishdi, lekin kirish eshigi yopiqligi ma'lum bo'ldi. Bir necha miltiq yordamida derazalarni sindirib, qattiq hujum qilishga kelishildi. Nihoyat, bir jasur kishi topildi, u kirdi-yu, bir daqiqadan keyin qaytib chiqdi.

– U yerda hech kim yo'q...

Traktir bo'm-bo'sh edi. Inqilobchilar birinchi bor yarim kechada yoppasiga hujum qilinishni bilib olishgan, shu bois ertaroq chiqib ketishgan ekan.

Yana bir voqea esga tushdi. Pastki qavatda o'n yil davomida tobutsoz usta joylashgan edi. U ismi bilan butun Moskvani larzaga solgan «valet tappon» to'dasi bilan chambarchas bog'langan edi.

Men na tobutsoz ustaning ismini, na u jimjimador tobut, kafan va qoplama topgan «valet tappon»ning nomini bilardim. Marhum o'z xonasida yotar, uy esa Tverskiydagi tor ko'chalardan birida joylashgan edi. Diniy ruhoniylar marhum uchun marsiya o'qib, uni Vagankovo qabristoniga ko'mish uchun yo'lga tushdilar. Oldinda kaftan kiygan marsiyachilar, orqada ikki kareta va bir necha yosh yigit tobut qo'yiladigan aravani kuzatib borardi.

Muhtasham «Yar» restoraniga qadar o'ng tomondagi yo'ldan yurib borishdi, shundan so'ng qabristonga qarshi tomondan buri-lardi. To'xtashdi. Yosh yigitlar tobutni tushirishdi va sayr qilib yurgan kishilarni hang-mang qilganicha «Yar» podyezdiga olib kelishdi. Shundan so'ng hech kim ularni to'xtatmadi, keyin eng katta kabinetga o'tishdi, u yer yosh yigitlar tomonidan band qilingan edi. Syurtuk kiygan kishi tobutdan kafanni olib tashladi, uni shampan qadahlarini ko'tarib, qarshi olishdi.

Politsiya bu harakat yuzasidan ish qo'zg'adi, tobut, kafan va yoping'ichni tobutsoz bepul xarid qildi. Boshqa kuni bu tobutda qandaydir savdogarni dafn etishdi.

Boshqa ish qo'zg'aldi. Vasiyat bo'yicha ranjigan qarindosh-urug'lar asosiy merosxo'rlarni sudga berib, marhum xotirasini haqorat qilganlari, uni «ishlatilgan» tobutga solib, dafn etganlarni javobgarlikka tortishni talab etishdi.

Ancha vaqt tobutsozning g'ashiga tegishdi. Uning oldiga do'konga yugurib borishar va:

– Sizda ishlatilgan eski tobut yo'qmi? Ishlatib bo'lingan kafan topilmaydimi? – deb so'rardilar.

Keyinchalik, yillar o'tgan sayin barchasi unutildi. Men Karetniy ryadni chetlab, Samotech-Sadovayadan o'tanimda bularni esladim.

Biz pastga tomon jadallab ketdik. Baribir, mo'jaz bog'chalar qayerda? Axir bir yil burun bor edi-ku! Ular ko'rkam, qimmatbaho gullar, chiroyli yo'laklar bilan to'lib-toshgan edi-ku! Yoki bular boy-badavlat, eng qimmat kvartirani band qilgan kishilarga ochiqmi? Ular bemalol kira oladilarmi? Ammo bunday bog'chalar kam edi. Ular ko'k to'rtburchaklar, hech kimga kerak bo'lmaydigan yarim, chala ko'chalardan, keraksiz butalar, shox-shabbalardan iborat. Doimo bo'm-bo'sh. Qorovulxonalar eshigi pastki qavatlariga o'g'rilar tushmasligi uchun hamisha tambalangan bo'lardi. Deyarli hamma daraxtlar katta bo'lib, rahbariyatning farmoyishi bilan ancha avval o'tqazilgan. Bu daraxtlar endi kerak bo'lib qoldi. Ular asfalt to'kilgan o'tish joyi uchun piyodalarga xiyobon sifatida tashkil qilingan. Bu xiyobon – yo'laklar yashil daraxtlar gumbazi ostida shunchalik go'zal va ko'rkamki, bunaqasini Moskva ham ko'rmagan edi.

Samoteka tomon enib boramiz. Yangilik yaraqlagandan so'ng eski Moskva his etiladi. Xalq yo'laklar va maydonga qarab talpinadi, ular Suxaryovkaga boradi yoki o'sha yoqqa intiladi. Turli-tuman eski ashyolar, kimdir latta-putta, kimdir samovar, kimdir chiroq, kimdir dastasi singan qimmatbaho vaza olib borardi... Mana, juldur kiyingan bola qop ko'targan, uning teshigidan qandaydir ko'k tUSDagi go'sht ko'rinadi. Loygarchilikdan hali qurib ulgurmagan kiyimini silkitib ushlaydi. Xilvat joylarning zax hidi seziladi.

O'ng tomonga burildik. Svetnoy xiyobon tomon ikki tramvayni quvib o'tamiz. Xiyobon hali yangi, daraxtlar ko'm-ko'k, kuzning ol-tin rangi asta-sekin namoyon bo'lmoqda.

Eslayman, yalanglik hali endigina qurilgan sirkni qurshab olgan edi. Bu yerda bir paytlar tunda «Hamma narsa bo'lgan edi». Kunduz kuni bolalar qog'oz ilonlarni va to'xtovsiz ravishda tartarakni qo'yib yuborishardi. Xotirlar ekanman, menga tartarak ovozi bamisoli mo'jiza kabi tuyuladi. Ko'zlarim beixtiyor ko'kdan «ilon» varrak va tartarakni axtaradi, izlaydi. Lekin ko'z oldimda birin-ketin uch ae-roplan qalqib chiqadi-yu, Trubnoy maydonidagi Dehqonlar uyi ortida g'oyib bo'ladi.

* * *

Asfalt qilingan Petrov tekis yo'li. Shu bilan birga endigina yuvilgan Petrovka. Uylardan birining qarshisida yong'inga qarshi ishlatiladigan suv nasosi, ya'ni brandspoytdan ko'chalarga qalin suv sepadi. Qolgan ikkitasi esa suv saqlanadigan quduq panjarasidan suv haydaydi.

Bolshoy teatrdan burilib, Sverdlovsk xiyoboniga o'tamiz, so'ng Teatr maydonidan yog' tushsa yalaguday keng Oxotnoryad maydo-niga boramiz. Avtomobillar, tramvaylar, baqaloq avtobuslar shoshib yuguradi.

Oxotniy ryad qayerda axir?





MUNDARIJA

Muallifdan.....	3
Moskvada.....	5
Lefortovodan Xamovnikiga qadar.....	7
Teatr maydoni.....	12
Xitrovka.....	15
Uzoqqa suzish shturmani.....	40
Suxaryovka.....	46
Xitoy devori ostida.....	69
Neglinka sirlari.....	81
«Svetnoy bulvar»da o'tkazilgan tun.....	87
Burgut tasvirli krujka.....	94
«Kuchuk zali»dan dramaturglar.....	101
Savdogarlar.....	110
Lyapinlar.....	126
Rassomlar «muhiti».....	133
Boshlovchi rassomlar.....	139
Trubada.....	147
Moskvaning ichki qismi.....	162
Lubyanka.....	175
O't o'chiruvchilarning kuzatish minorasi ostida.....	188
Bulka pishiruvchilar va sartaroshlar.....	207
Ikki to'garak.....	227
Ovchilar klubi.....	238
Darvozadagi sherlar.....	246
Studentlar.....	264
Narishkin xiyoboni.....	274

Ikki uy tarixi	280
Baxus ibodatxonasi.....	287
Hammomlar	295
Traktirlar	330
Bubnov «teshigi».....	345
«Choh».....	362
«Olsufyev qal'asi».....	366
Piter bo'ylab.....	374
Ko'z o'ngimda.....	381



Adabiy-badiiy nashr

Vladimir Alekseyevich GILYAROVSKIY

MOSKVA VA MOSKVALIKLAR

Ocherklar to'plami

Fathulla NAMOZOV tarjimasida

Nashr uchun mas'ul

A. Boboniyozov

To'plab, nashrga tayyorlovchi

G. Azizova

Muharrir *Gulchehra Azizova*

Rassom *Rustam Zufarov*

Badiiy muharrir *Bezkod Zufaroz*

Texnik muharrir *Tatyana Xaritonova*

Kichik muharrir *Matluba Salimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Kira Goldobina*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 5-iyulda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'ozida. «New Roman» garniturasida
ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 24,5.

Nashr tabog'i 24,37. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 20-435.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz

29920,70 сум.



V.A. GILYAROVSKIY

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7144-4-1



9 789943 714441